For citation: Shohista Sh. Allamova. (2024) 'Methodology for organizing practical classes on the basis of blended education', Inter education & global study, (4(2)), pp. 37–48. (In Uzbek).

Yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini aralash ta'lim asosida tashkil etish ta'lim sifatini oshirish, talabalarning individual ta'lim ehtiyojlarini, shuningdek, o'quv materialini o'rganish sur'ati va ritmini hisobga olgan holda ta'limning mavjudligi va moslashuvchanligini oshirish orqali ularning ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, talabaning motivatsiyasini, mustaqilligini, ijtimoiy faolligini oshirish, talabaning faol pozitsiyasini shakllantirishni rag'batlantirish va buning natijasida o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, o'qituvchi uslubini o'zgartirish: bilimlarni uzatishdan talabaning o'z bilimlarini qurishga hissa qo'shadigan talaba bilan interfaol munosabatlarga o'tish, ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish, talabalarda tanqidiy fikrlash va mustaqil ishlash ko'nikmalarini, ya'ni

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

axborot bilan ishlash qobiliyatini rivojlantirish hamda o‘quv jarayonini aralash ta’lim asosida tashkil etishni taqozo etmoqda.

Aralash ta’lim asosida “Informatikaning nazariy asoslari” fanining amaliy mashg‘ulotlari ta’lim jarayoni subyektlari faoliyatini integratsiyalovchi “blended learning” texnologiyasining “Station rotation” va “Flipped classroom” modellarining o‘zaro transformatsiyasini muvofiqlashtirish orqali amalga oshirildi.

Unga ko‘ra talabalar o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan nazariy materialni oldindan o‘rganadilar, internetda joylangan nazariy material talabalarga video, fayllar ko‘rinishida taqdim etiladi, ular o‘qituvchining o‘zi tomonidan tuzilgan va http://blendedlearning.uz/ aralash ta’lim texnologiyalari saytida joylashtirilgan (1-rasm).



1-rasm. Blendedlearning.uz sayti orqali amaliy mashg‘ulotlarga tayyorlanish ketma-ketligi

Aralash ta’lim asosida tashkil etilgan o‘quv jarayonida turli bosma nashrlar va axborot-kommunikatsion texnologiyalari vositalaridan foydalaniladi [1; 122-123-b.].

Auditoriyaga kelgan talabalar aralash ta’lim modellaridan biri station rotation (joylarni almashtirish) modeli asosida ishlaydilar. Guruhlarning tarkibi o‘sha kuni o‘qituvchi muayyan talaba oldiga qanday maqsadlar qo‘yganiga qarab o‘zgaradi. Gomogen guruhlarga taqsimlashda - differensial adaptatsiyani qo‘llash, talabalarning o‘rganilayotgan mavzuga bo‘lgan qiziqishi yoki o‘quv materialini o‘zlashtirish tezligi asos bo‘lishi mumkin. Guruhning optimal tarkibi taxminan 6-9 kishidan iborat [2; 20-28-b.].


Ushbu texnologiyada auditoriyai uchta zonaga (joylarga) bo‘linadi. Ushbu zonalarni tashkil qilish uchun stollar bir joyda talabalar bir-biriga yaqin bo‘lishi va iloji bo‘lsa, boshqa joylarda o‘qiyotgan talabalarga xalaqit bermasligi uchun o‘zgartiriladi. Auditoriya davomida har bir guruh uchta joydan ham o‘tadi. Auditoriyaning bir qismida talabalar o‘qituvchi bilan ishlaydi (frontal stantsiya), so‘ngra loyiha (loyiha stantsiyasi) ustida ishlash uchun o‘zgartirilgan stollarda o‘tirishadi, so‘ngra devorga qarshi stollarda o‘rnatilgan kompyuterlarga o‘tishadi. Shunday qilib, stansiya aylanish modelida o‘quv jarayonini tashkil qilish uchun 1:1 1 talaba uchun bitta kompyuterdan (1:1 texnologiya) foydalanadi. Auditoriya simli internetga ulangan stol kompyuterlaridan foydalanadi.

Frontal guruhda ishlaydigan bolalar vazifani oladilar. Frontal guruh talabalari mashqlar ustida ishlayotganda, o‘qituvchi loyiha guruhiga murojaat qilishi mumkin. Qoida tariqasida, loyiha guruhida talabalar hozirda dasturda o‘rganilayotgan materialga tegishli topshiriq ustida ishlaydi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Biz quyida, aralash ta'lim asosida "Informatikaning nazariy asoslari" fanidan "Shaxsiy kompyuter qurilmalari bilan ishlash" mavzusi bo'yicha tayyorlangan texnologik pasporti (1-jadval), va texnologik xaritani (2-jadval), Flipped classroom va Station rotation modellarining o'zaro transformatsiyasi-ni muvofiqlashtirishga asoslangan o'quv muhitidan foydalanish metodikasini loyihalaymiz (2-rasm).



2-rasm. Amaliy mashg'ulotlarni Flipped classroom va Station rotation modellarini o'zaro transformatsiyasini muvofiqlashtirishga asoslangan o'quv muhitidan foydalanish metodikasini loyihalash algoritmi

1-jadval.

Aralash ta'lim asosida tashkil etilgan amaliy o'quv mashg'ulotining texnologik pasporti

Mavzu	**Shaxsiy kompyuter qurilmalari bilan ishlash**
O'quv mashg'ulotiga ajratilgan vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 27 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli va turi	Amaliy mashg'ulot
Mashg'ulotning rejasi	1.Kompyuterning asosiy qurilmalari bilan tanishish 2.Kompyuterning qo'shimcha qurilmalari bilan ishlash
***O'quv mashg'ulotining maqsadi*:** talabalarga kompyuterning asosiy (protsessor, monitor, klaviatura) va qo'shimcha qurilmalari(printer, kalonka, sichqoncha va h.k) bilan tanishtirish va amaliy ishlash malaka-ko'nikmalarini mustahkamlash.	
Pedagogik vazifalar: 1. Amaliy mashg'uloti materiallarini tayyorlaydi va tizimga joylashtiradi. 2. Amaliy mashg'ulotni nazariy va amaliy qismini tushuntirib, topshiriqlarni bajarish bo'yicha ko'rsatma beradi.	***O'quv faoliyatining natijalari:*** **Talabalar:** 1.Amaliy mashg'uloti materiallarini o'qib chiqadi. 2.Amaliy mashg'ulotini nazariy qismini, topshiriqlarni bajarish bo'yicha ko'rsatmalarni tushunib oladi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

3. Talabalar tomonidan bajarilgan ishlarni tekshiradi va baholaydi.	3.Amaliy mashg‘ulotning topshiriqlar qismida berilgan vazifalarni bajaradi va testlarni yechadi
O‘qitish uslubi va texnikasi	Flipped classroom, interfaol, muammoli, 1:1 kompyuter
O‘qitish vositalari	Hemis, tematik web sayt, o‘quv auditoriyaligi, proektor, tarqatma materiallar, kompyuter texnikasi va boshqalar.
O‘qitish shakli	Frontal, Jamoaviy, hamkorlikda, individual
O‘qitish shart-sharoiti	texnik vositalarni qo‘llashga va namoyish etishga mo‘ljallargan auditoriya, proektor, internet, kompyuterlar
Nazorat	http://blendedlearning.uz/ saytida testlar va topshiriqlar

Quyidagi jadvalda informatikaning nazariy asoslari fanidan amaliy mashg‘ulotlarni Flipped classroom va Station rotation modellarini o‘zaro transformatsiyasini muvofiqlashtirish asosida olib borishning texnologik xaritasi keltirilgan. Unga ko‘ra ish bosqichi 3 bosqichda amalga oshiriladi [3; 25-28-b.].

2-jadval.

Amaliy mashg‘ulot o‘qitishning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari	**Faoliyat muhiti**	**Faoliyat mazmuni**	
		Pedagog	**Talaba**
1-BOSQICH.AUDITORIYA OLDI ISHLARI(ONLINE)	Auditoriyadan tashqari(online)	1.1. Mavzu doirasida videodarslik, amaliy mashg‘ulot fayli, topshiriqlar, test tayyorlaydi. 1.2.Talabalarga Telegram ijtimoiy tarmog‘ida “3-Amaliy mashg‘ulot: Shaxsiy kompyuter qurilmalari bilan ishlash” bo‘yicha yangi mavzu bilan tanishib chiqishni uy topshirig‘i sifatida beradi. Bunda foydalanish uchun o‘quv adabiyotlari, elektron qo‘llanma, “blendedlearning.uz” tematik web sayti taklif etiladi. 1.3. Mavzuni o‘tishga tayyorgarlik ko‘radi va mavzu doirasida ishlatiladigan innovatsion metodlarni tanlaydi. 1.4. Yangi mavzu bo‘yicha talabalar o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun test savollarini tayyorlaydi 1.5. Telegram ijtimoiy tarmog‘ida talabalar tomonidan berilgan savollarga javob beradi 1.6. O‘z ustida ishlaydi	1.1. Telegram ijtimoiy tarmog‘idan yangi amaliy mashg‘ulotlar uchun topshiriqlar olinadi. Yangi mavzuga tayyorlanish uchun blendedlearning.uz saytiga o‘tiladi. 1.2. Saytdda keltirilgan ketma-ketlikda amallar bajariladi. 1.2.1. Videodarslik ko‘rib chiqish(2 marta). 1.2.2. Amaliy mashg‘ulot faylini o‘qib chiqish. 1.2.3. Mavzu doirasida qo‘shimcha adabiyotlarni ham o‘qib chiqish taklif qilinadi 1.3. Mavzu doirasida paydo bo‘lgan savollar daftarga yozib olinadi yoki telegram ijtimoiy tarmog’i orqali muhokamaga tashlanadi

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

		2.1. Tashkiliy qism: Salomlashish, talabalarni hemis tizimi yordamida yo‘qlama qilish(2 daqiqa) 2.2. Mavzuning umumiy maqsadini, mashg‘ulotda qo‘llaniladigan pedagogik usul va uslublarni tushuntiradi(3 minut) 2.2. Talabalar yangi mavzuni qay darajada o‘zlashtirganligini va yangi mavzuni o‘zlashtirishda talabalarda mavjud bo‘shliqlarni aniqlash uchun o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan test tarqatiladi. (4-ilova) 2.3.Test natijalariga ko‘ra talabalarga amaliy mashg‘ulot tushuntirib beriladi, savollarga javob beriladi va guruh 3 qismga bo‘linadi.(15 m.t)	2.1. O‘qituvchi bilan salom-lashadi. 2.2. O‘qituvchi tomonidan berilgan testni yechib topshiriladi 2.3. Yangi mavzu yuzasidan o‘qituvchiga savollar beriladi 2.3. Talabalar test natijasiga ko‘ra 3 guruhga bo‘linadi. 2.3.1. **Frontal guruh.** Yangi mavzuni takrorlaydilar va berilgan topshiriqnni bajaradilar. 2.3.2**. Loyiha guruh.** O‘qituvchining topshirig‘ini kichik guruhlarda bajaradilar
2-BOSQICH.AUDITORIYA ISHI(OFLINE)	Auditoriyada(80 minut ofline)	2.3.1. Frontal guruh. Talabalar amaliy mashg‘ulotni bosma shaklidagi materiallar yordamida takrorlaydilar va assesment metodi yordamida keltirilgan topshiriqni bajaradilar (17 minut) 2.3.2. Loyiha guruhi: Kichik guruhlarga bo‘linib loyiha metodi yordamida berilgan topshiriqni bajaradilar(17 minut) 2.3.3. Online guruh. ETR yordamida mavzuni takrorlashlari mumkin. Amaliy mashg‘ulot doirasida topshiriq, testlarni yechadilar va baholanadilar(17 minut). Har bir guruh har 17 m.tda o‘z stansiyasini almashtiradi. 2.4. Mustahkamlash. Loyiha natijalari o‘qituvchi va talabalar tomonidan baholanadi va umumiy xulasa berilib amaliy mashg‘ulot yakunlanadi (9 minut).	2.3.3. **Online guruh**. Http://blendedlearning.uz/ saytida qo‘yilgan materiallar bilan tanishadilar, topshiriq va testlarni yechadilar. 2.4. Talabalarda mavzu doirasidagi ko‘nikmalar shakllantiriladi.

Aralash ta’limning Flipped classroom va Station rotation modellarini o‘zaro transformatsiyasini muvofiqlashtirish asosida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish quyidagi bosqichlarda olib boriladi.

1-Bosqich. Boshlang‘ich qism – o‘quv mashg‘ulotining tashkiliy tayyorgarlik bosqichi (Auditoriyadan tashqari).


1.1. Shaxsiy kompyuter qurilmalari bilan ishlash mavzusi doirasida videodarslik, amaliy mashg‘ulot fayli, topshiriqlar, Ispring QuizMaker dasturi yordamida savollar to‘plamini tayyorlaydi va muallif tomonidan yaratilgan http://blendedlearning.uz/ aralash ta’lim texnologiyalari saytiga joylanadi.

1.2. Talabalarga Telegram ijtimoiy tarmog‘ida “Shaxsiy kompyuter qurilmalari bilan ishlash” bo‘yicha yangi mavzu bilan tanishib chiqishni uy topshirig‘i sifatida beradi. Bunda

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

foydalanish uchun o‘quv adabiyotlari, elektron qo‘llanma, “http://blendedlearning.uz/ ” tematik web sayti taklif etiladi.

1.3. Mavzuni o‘tishga tayyorgarlik ko‘radi va mavzu doirasida ishlatiladigan innovatsion ta’lim metodlarni tanlaydi. Frontal guruhda amaliy mashg‘ulotlarda mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish maqsadida “Assesment” metodi bo‘yicha topshiriq namunasidan foydalanildi. Bu talabalarga turli vaziyatlarda yechim topish va baholashga yordam beradi.



3-rasm. Assesment metodi grafik organayzeri

Ushbu grafik organayzer quyidagicha ishlaydi:

1- Muammoli vaziyat. O‘tilgan mavzu asosida aniq hayotiy vaziyat, hodisaga asoslangan muammo beriladi.

1.1. Muammo aniqlanadi

1.2. Talabalar tomonidan bu muammo nima uchun paydo bo‘lganligi haqidagi ma’lumotlar yoziladi.

1.3. Talabalar tomonidan barcha mumkin bo‘lgan yechimlar, shuningdek ularning ijobiy va salbiy tomonlari yoziladi.

2- Tushuncha tahlili. Mavzu bo‘yicha ilmiy-nazariy fikrlar, g‘oyalar, ta’riflar tugallanmagan fikr ko‘rinishida beriladi, masalan: …..ta’rif bering, ……ilmiy asoslang…., yoriting… va boshqalar(4-rasm).

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘shimcha ma’lumot
RAM		
ROM		
CPU		

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

SSD		
HHD		

4-rasm.Tushunchalar tahlili metodi

3- **Test.** O‘tilgan mavzu yuzasidan 2- 3 ta test savollari beriladi.

4- **Amaliy ko‘nikma.** O‘tilgan mavzu mazmunini hayotda ish foaliyatida qo‘llashdagi ko‘nikmalarga tegishli topishiriq beriladi, masalan: …..chizing, hisoblang, to‘ldiring, toping, solishtiring va boshqalar(5-rasm).



5-rasm. Tizim bloki tarkibidagi qurilmalar va vazifalarini yozing

Loyiha guruhi esa kichik loyiha metodi ustida ishlaydilar. Ularga “Berilgan tizim blokining ichki qurilmalarini joylashtiring va vazifalarini aniqlang” topshirig‘i ostida quyidagi bosqichlarda loyihani amalga oshirish vazifasi beriladi (6-rasm).

Loyiha topshirig‘i: “Berilgan tizim blokining ichki qurilmalarini joylashtiring va vazifalarini aniqlang”	
1-bosqich: Muammoni shakllantirish	
Maqsad:	Vazifalarnni keltiring ✓ . ✓ . ✓ .
2-bosqich: Rejalashtirish. Qadamlar ketma-ketligini va loyiha ishtirokchilariga rol va masuliyatni taqsimlang	

6-rasm. Loyiha metodini amalga oshirish bosqichlari

1.4. Yangi mavzu bo‘yicha talabalar o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun test savollarini tayyorlaydi.

1.5. Telegram ijtimoiy tarmog‘ida talabalar tomonidan berilgan savollarga javob beradi.

1.6. O‘z ustida ishlaydi, o‘qitishning samaradorligini oshirish hamda mashg‘ulotni yanada mazmunli, qiziqarli bo‘lishi uchun ijodiy materiallar tayyorlaydi.

2-bosqich. Auditoriya ishi (Auditoriyada).

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

2.1. Tashkiliy qism: Salomlashish, talabalarni hemis tizimi yordamida yo‘qlama qilish (2 daqiqa).

2.2. Mavzuning umumiy maqsadini, mashg‘ulotda qo‘llaniladigan pedagogik usul va uslublarni tushuntiradi(3 daqiqa).


Ism va familiya	bosqichlar	Vazifa
3-bosqich: Tadqiqot va ma’lumot yig’ish: Loyihani bajarish uchun zarur ma’lumotlarni to‘playdilar. Suhbatlar o‘tkaziladi, ma’lumotlar tahlil qiliadi.		
4-bosqich: Loyihani amalga oshirish. Bajarilgan vazifani sinab ko‘radilar va takomillashtirishlari mumkin		
5-bosqich: Tadqimot va baholash. Loyiha guruhi bajarilgan topshiriqni natijasini tushuntirib beradi, talabalar va o‘qituvchi tomonidan baholanadi		
6-bosqich: Mulohaza va fikr bildirish. Natijalarni tahlil qiladilar, xulosa chiqaradilar		

2.3. Talabalar yangi mavzuni qay darajada o‘zlashtirganligini va yangi mavzuni o‘zlashtirishda talabalarda mavjud bo‘shliqlarni aniqlash uchun o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan test tarqatiladi.

Test natijalariga ko‘ra talabalarga amaliy mashg‘ulot tushuntirib beriladi, savollarga javob beriladi, guruh 3 qismga bo‘linadi ya’ni har bir guruh 8 yoki 9 ta talabadan tashkil topadi. (Guruhlar bo‘linayotganda auditoriyadagi kompyuterlar soniga qarab 2 yoki 3 guruhga bo‘linishi mumkin). Yangi mavzuni yaxshi o‘zlashtirgan talabalar guruhini loyiha guruhiga va online guruhga biriktirishi mumkin (15 daqiqa).

2.3.1. Frontal guruh. Talabalar amaliy mashg‘ulotni bosma shaklidagi materiallar yordamida takrorlaydilar va assesment(3-rasm) va ushbu metod tarkibidagi tushunchalar tahlili metodi yordamida keltirilgan topshiriqni bajaradilar (17 minut)

2.3.2. Loyiha guruhi. Loyiha guruhi 7-rasmda berilgan tizim blokining ichki qurilmalarini joylashtiring va vazifalarini aniqlashlash loyihasi ustida ishlaydilar(6-rasm). Loyiha metodining 4 ta bosqichi loyiha guruhi ichida amalga oshiriladi(17 daqiqa).



ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

7-rasm. Loyiha topshirig‘i

2.3.3. Online guruh. Ushbu guruh talabalari ETR yordamida mavzuni takrorlashlari mumkin. Amaliy mashg‘ulot doirasida blendedlearning.uz sayti asosida topshiriq, testlarni yechadilar va baholanadilar. Joriy nazorat testlarini topshirishdan oldin login va parollari yordamida joriy nazorat menyusiga kiradilar(8.a va 8.b-rasm)(17 daqiqa). Har bir guruh har 17 minutda o‘z joyini almashtiradi.



2.28.a-rasm. blendedlearning.uz saytidan ro‘yxatdan o‘tish



8.b-rasm. blendedlearning.uz saytida online guruh vazifasi

2.4. Mustahkamlash. Loyiha metodining 5 va 6 bosqichlariga ko‘ra guruhlar loyiha ishlarini himoya qiladilar. Loyiha natijalari o‘qituvchi va talabalar tomonidan baholanadi va umumiy xulasa berilib amaliy mashg‘ulot yakunlanadi (9 daqiqa).

Oliy ta’lim muassalarida o‘quv jarayonini “Flipped classroom” va “Station rotation” modellarini o‘zaro transformatsiyasini muvofiqlashtirish asosida tashkil etish, talabalarning yuzma-yuz auditoriyada faolligini nazarda tutadi: ular bir-birlaridan so‘raydilar, maslahatlashadilar, bahslashadilar, shuning uchun yuzma-yuz samarali muloqotni ta’minlash uchun interfaol vazifa ustida o‘ylash zarur.

Shunday qilib, oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning hozirgi bosqichida o‘quv jarayonida ushbu ta’lim texnologiyalaridan foydalanish mavjud pedagogik tizim funksiyalarini tubdan o‘zgartirishni, shu jumladan o‘qituvchi rolini bir shakldan ikkinchisiga o‘tkazishni anglatadi, innovatsion va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, aralash va masofaviy ta’lim shakllarini keng qo‘llash, o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faolligini oshirish va uzluksiz ta’limga e’tiborni individual psixofiziologik xususiyatlarni hisobga olgan holda o‘rganish yo‘llarini topish imkonini beradi [4; 13-b.].

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Ilmiy izlanishlar natijasiga ko‘ra, o‘quv jarayonini aralash ta’lim modellari orqali tashkil etish, talaba erkinlik va mas’uliyat maydoniga ega bo‘lish, talabalarning bilim darajasini avtomatlashtirilgan nazorat qilish tizimini joriy etish orqali ular akademik faoliyati trayektoriyalarini qurish, o‘qituvchilar esa talabalarni auditoriya ishiga yo‘naltirish, qayta aloqali munosabatni tashkil etish va tuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Л.Г.Бабаходжаева. Аралаш таълим шароитида талабаларнинг педагогик компетентлигини ривожлантириш методикаси. Ўкув-методик кулланма. – Тошкент «malik print co». –2021. 156-b.
2. Андреева Н.В. Практика смешанного обучения: история одного эксперимента // Психологическая наука и образование. – 2018. – № 3(23). – С. 20-28.
3. Allamova Sh.Sh. Oliy ta’lim tizimida ta’lim jarayoniga “Flippiped Classcroom” texnologiyasini joriy etish metodikasi // Xalq ta’limi jurnali, – 2022, – № 6,– B. 56-61.
4. Алламова Ш.Ш. Повышение эффективности образовательного процесса в условиях смешанного обучения в вузах // “Ученые записки университета имени П.Ф. Лесгафта”. – 2023. – № 1(215). – С.22-23

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Shohista Allamova Shavkat qizi**, o‘qituvchi [**Шохиста Алламова Шавкат кизи,** преподаватель], [**Shohista Sh. Allamova**, teacher]; manzil: O'zbekiston, Toshkent viloyati, Chirchiq, ko'chasi AMIR TEMUR, 104 [адрес: Узбекистан, Ташкентская область, Чирчик, ул. АМИРА ТЕМУРА, 104], [address: Uzbekistan, Tashkent region, Chirchik, street AMIR TEMUR, 104]; E-mail: shohista_pedagog@mail.ru

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original paper

AMALIY SAN’AT MASHG‘ULOTLARIDA O‘QUVCHILARGA GIRIH NAQSH NAMUNASINI CHIZISHNI O‘RGATISH

© M.B.Ahmedov[1]✉, S.M.Xo‘jayeva[2]✉
[1,2]Toshkent amaliy fanlar universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: amaliy san'at darslarida o'quvchilarni naqsh chizishga o'rgatish badiiy ta'limning asosiy yo'nalishi bo'lib, ijodkorlikni rivojlantiradi, nozik vosita mahoratini oshiradi va vizyal estetika tuchunchasini rivojlantiradi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi amaliy san'at darslarida talabalarga naqsh chizishni o'rgatishning samarali usullarini o'rganishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda san'at darslari, o'quvchilarning badiiy asarlari va o'qituvchilarning fikr-mulohazalari ma'lumotlarini tahlil qiluvchi sifatli tadqiqot usuli qo'llaniladi. Materiallarga chizmachilik asboblari, naqshlarni loyihalash shablonlari, o'quv qo'llanmalari va ko'rgazmali qo'llanmalar kiradi. Usullar sinfda kuzatishlar, san'at o'qituvchilari bilan suhbatlar, talabalar taraqqiyoti va san'at asarlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar namunaviy dizaynni o'rgatishda tuzilgan, ammo moslashuvchan yondashuv eng samarali ekanligini ko'rsatadi. Muhokama birgalikda namuna loyihalari, individyal eskiz daftarlari topshiriqlari va naqsh yaratish uchun raqamli vositalardan foydalanish kabi maxsus sinf faoliyatiga urg'u beradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, muntazam amaliyot bilan shug'ullanadigan va shaxsiy fikr-mulohazalarni olgan talabalar naqsh chizish qobiliyatlari va ijodkorliklarida sezilarli yaxshilanishni namoyish etadilar.

XULOSA: tadqiqotning xulosasiga ko‘ra, amaliy san’at darslarida o‘quvchilarga naqsh chizmalarini chizishga o‘rgatish tuzilgan o‘qitishni ijodiy izlanish imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtirgan muvozanatli yondashuvni talab qiladi. Strategiyalarni amalga oshirish orqali san'at o'qituvchilari o'quvchilarning badiiy qobiliyatlarini va naqsh dizaynini qadrlashlarini samarali oshirishlari mumkin.

Kalit so'zlar: gul, naqsh, o‘simliksimon, islimi, kompozitsiya, marg‘ula, bofta, kurtak, band, sirtmoq, tirnoq.

Iqtibos uchun: Axmedov M.B. Xo‘jayeva S.M.Amaliy san’at mashg‘ulotlarida o‘quvchilarga girih naqsh namunasini chizishni o‘rgatish. // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 49–57.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

ОБУЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ РИСУНИЮ УЗОРА НА ПРАКТИЧЕСКИХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНЫХ ЗАНЯТИЯХ

© М.Б.Ахмедов[1]✉, С.М.Хужаева2✉
[1,2]Ташкентский университет прикладных наук, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: обучение учащихся рисованию узоров на практических занятиях по рисованию является фундаментальным аспектом художественного образования, который способствует творчеству, улучшает мелкую моторику и развивает понимание визуальной эстетики.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является изучение эффективных методов обучения студентов рисованию узоров на практических занятиях по искусству.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании используется качественный исследовательский подход, анализирующий данные уроков рисования, работы учащихся и отзывы учителей. Материалы включают инструменты для рисования, шаблоны рисунков, учебные пособия и наглядные пособия. Методы включают наблюдения в классе, интервью с учителями рисования, а также анализ успеваемости учащихся и произведений искусства.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показывают, что структурированный, но гибкий подход к обучению проектированию выкроек является наиболее эффективным. в обсуждении освещаются конкретные занятия в классе, такие как совместные проекты по выкройкам, индивидуальные задания в альбомах для рисования и использование цифровых инструментов для создания выкроек. результаты показывают, что учащиеся, которые регулярно практикуются и получают персонализированную обратную связь, демонстрируют значительное улучшение своих навыков рисования узоров и творческих способностей.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в исследовании делается вывод, что обучение студентов рисованию узоров на практических уроках рисования требует сбалансированного подхода, сочетающего структурированное обучение с возможностями творческого исследования. Реализуя выявленные стратегии, преподаватели искусств могут эффективно улучшить художественные способности учащихся и их понимание дизайна узоров.

Ключевые слова: цветок, узор, растительный, ислими, композиция, маргула, бофта, бутон, лента, нить, гвоздь.

Для цитирования: Ахмедов М.Б. Хужаева С.М. Обучение студентов рисунию узора на практических изобразительных занятиях. // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 49–57.

TEACHING STUDENTS TO DRAW A PATTERN PATTERN IN PRACTICAL ART CLASSES

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

© Muhammad-Umar B. Akhmedov[1]✉, Sayramxon M. Xujayeva[2]✉
[1,2]Tashkent University of Applied Sciences, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: teaching students to draw pattern designs in practical art classes is a fundamental aspect of art education that fosters creativity, enhances fine motor skills, and develops an understanding of visyal aesthetics.

AIM: the aim of this study is to examine effective methods for teaching students to draw pattern designs in practical art classes.

MATERIALS AND METHODS: the study employs a qyalitative research approach, analyzing data from art classes, student artworks, and teacher feedback. Materials include drawing tools, pattern design templates, instructional gyides, and visyal aids. Methods involve classroom observations, interviews with art teachers, and analysis of student progress and artworks.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings indicate that a structured yet flexible approach to teaching pattern design is most effective. The discussion highlights specific classroom activities, such as collaborative pattern projects, individyal sketchbook assignments, and the use of digital tools for pattern creation. The results show that students who engage in regular practice and receive personalized feedback demonstrate significant improvement in their pattern drawing skills and creativity.

CONCLUSION: the study concludes that teaching students to draw pattern designs in practical art classes reqyires a balanced approach that combines structured instruction with opportunities for creative exploration. By implementing the identified strategies, art educators can effectively enhance students' artistic abilities and appreciation for pattern design.

Key words: flower, pattern, plant-like, islimi, composition, margula, bofta, bud, band, thread, nail.

For citation: Muxomod-Umar B. Ahmedov.Sayramxon M. Xujayeva (2024) ‘Teaching students to draw a pattern pattern in practical art classes’, Inter education & global study, (4(2)), pp. 49–57. (In Uzbek).

O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati hunarini puxta o‘rganish uchun albatta mustaqil ravishda kompozitsiya tuzishni bilish lozim. Naqsh kompozitsiyasi tuzish uchun esa dastlab yog‘och o‘ymakorligiga oid naqsh elementlarini chizib o‘rganishdan boshlanadi.

Girih naqshlarini o‘rganish, ma’lum qonun-qoidalar asosida amalga oshiriladi. Buning uchun katak daftar, chizg‘ich (to‘g‘ri va uchburchakli), o‘rtacha yumshoqlikdagi qora qalamlar, oq o‘chirg‘ich va boshqa yordamchi asboblar kerak bo‘ladi. Odatda o‘simliksimon naqsh elementlarini chizish, ularni guruhlarga bo‘lib olingan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq[2].

Chizishdan avval katak daftarlarni chizg‘ich va qora qalam yordamida qalamni yengil yurgizgan holda sxematik kataklar chizib, shu kataklar ichiga naqsh elementlarini chizishdan

CC BY NC ND


ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

boshlaymiz. Daftarning har bir betiga bitta naqsh elementini qayta-qayta chizib mashq qilinadi. Chizish davomida, simmetriya va asimmetriya qonun-qoidalariga e'tibor qaratish lozim.

Amaliy san'at ustasi naqsh kompozitsiyasini yaratishda qalam asosiy ish quroliga aylanadi. O'ymakor-naqqosh har bir chiziq tortganida, chizayotgan chizig'i sifatli, ravon va tiniq chiqsa usta shunchalik zavqlanadi, ruhi tetiklashadi. O'zi amalga oshirayotgan ishdan ko'ngli to'lib, ilhomlanadi, yangidan-yangi naqsh elementlarini, kompozitsiyalarini yaratadi, kashf etadi. Naqsh kompozitsiyasining sifatli, chiroyli va jozibador chiqishi uchun qalam bilan bir qatorda o'chirg'ich va chizg'ichlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qalamda chizilgan chiziqlarni o'chirish uchun yumshoq oq o'chirg'ichdan foydalanish qulay. Chunki, qalam izlari mayin va yumshoq oq o'chirg'ichlarda o'chirilgandan so'ng qog'ozda dog' qoldirmaydi. Tarkibiga qum qo'shilgan ko'k dag'al o'chirg'ichdan foydalanish to'g'ri bo'lmaydi. Dag'al o'chirg'ichda o'chirilganda qog'oz sathida dog' qoldirish bilan birga uning sifatini buzadi, qayta chizish jarayonida ish sifatiga putur yetadi.

Chizg'ichlardan foydalanishda esa albatta, yog'och chizg'ichlarni ishlatish zarur. Chunki, yog'och chizg'ichlar qog'oz sathida surilganda yog'ni, namlikni o'ziga singdirib oladi va bir teksda ishning sifatli chiqishini ta'minlaydi. Metall, shisha, plastmassa va boshqa shu kabi materiallardan yasalgan chizg'ichlar qog'oz sathiga ishqalanishi natijasida qiziydi va tarkibidan yog' va namlik chiqarib qog'ozga surkalaydi, har xil dog'lar hosil qiladi. Oqibatda naqsh kompozitsiyasining sifati buziladi, kishi ruhiyatiga ta'sir etib, bajarayotgan ishidan ko'ngli qoladi, mehnati samarasiz bo'ladi.


Ko'rinib turibdiki, kishi o'z faoliyatida e'tiborliroq, tashkilotchi va tadbirkor bo'lmasa, u yerda loqaydlik yuzaga keladi. Natijada kishi ongida befarqlik shakllanadi va bora-bora u kishi ruhiyatini sindiradi, xarakterida dangasalikni vujudga keltiradi. Amaliy sanatning u yoki bu turi bilan shug'ullanish, chizish, naqsh kompozitsiyasi tuzish asablarni tinchlantiradi, inson ruhiyatini tarbiyalaydi. Shu bois inson o'z ustida ishlashi, tinimsiz izlanishda bo'lishi lozim. Har bir narsani qunt bilan o'rganishga va bajarishga harakat qilish zarur.



1-rasm. Buxorodagi Ulug'bek madrasasi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Shunday mashaqqatli mehnat natijasida ota-bobolarimiz qurgan muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo‘qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar har bir tomoshabinni hauratga solib kelmoqda. Xattoki, shet yellardan tashrif buuurgan sayohatchilar ham mamlakatimizdagi qadimiy yodgorliklarni, badiiy did bilan ishlangan naqshlarini ko‘rib lol qolmoqdalar. Buxorodagi Ulug‘bek madrasasi (1-rasm), YuNESKO muhofasidagi Ismoil Somoniy maqbarasi, Kalon minorasi, Samarqanddagi Shohi-Zinda maqbarasi, Go‘ri Amir maqbarasi (2-rasm), Ulug‘bek, Sherdor, Tillakori madrasalari va boshqalar Sharqning nodir go‘zalligi, soddaligi hamda naqsh motivlarining ulug‘vorligi bilan kishilarni sehrlab kelmoqda.



2-rasm. Go‘ri Amir maqbarasi.

Yuzlab, minglab xalq me’morlarining qovargan qo‘llari bilan yaratilgan yodgorliklardagi jonli naqshlar xuddi tabiatning go‘zallik olamini kuylayotganday tuyuladi va kishilar ruhiyatiga ko‘tarinki ruh bag‘ishlaydi. Chunonchi, Samarqanddagi asrlar davomida musulmon sharqida dong taratgan oliy bilim maskani Ulug‘bek madrasasini tomosha qilar ekanmiz, uning ta’lim-tarbiya maqsadida ko‘zlab bunyod qilganligini naqqoshlar bezagi orqali sezish oson. Madrasaning bezagidagi bir birini kesib o‘tgan behisob shiziqlardan ko‘p burchakli va ko‘p qirrali yulduzlardan tashkil topgan naqshlar xuddi koinotdagi charaqlab turgan yulduzlarni tarannum aylagandek, asrlar osha hikoya qilib turganday tuyuladi. Ana shu bir birini kesib o‘tgan behisob shiziqlar, har xil burshakli va qirrali yulduzlardan tashkil topgan geometrik naqshlarni girih deb yuritiladi. Xo‘sh, girih nima o‘zi? U qanday ma’noni anglatadi?


Girih — forscha shigal, tugun degan ma’noni anglatib, handasiy naqshlar turiga kiruvchi murakkab naqsh demakdir (3-rasm). Geometrik naqsh myayyan taqsimlarga ega bo‘ladi. Har bir taqsim o‘z tuzilishiga ega.

Girih O‘rta Osiyoda va Yaqin Sharqda keng tarqalgan naqsh bo‘lib, XII-XVI-asrlarda ayniqsa O‘rta Osiyoda juda keng taraqqiy qilgan. Pokiston, Turkiya, Ispaniya, Xitoy, Yaponiya kabi mamlakatlarda keng tarqalgan. Dunyoda girihni yeng ko‘p tarqalgan joyi O‘rta

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Osiyodir. O‘rta Osiyoda girihlarning juda ko‘p turi mavjud. Bu girihlarni arxitektura minoralaridan tortib kitob varag‘igacha bezatilganining guvohi bo‘lamiz. Albatta biz tarixga nazar tashlar ekanmiz o‘sha zamon uchun girihni chizmachilik asboblari, matematik formulalar asosida ishlanishi bu katta ilmiy kashfiyot yedi. Bu girihni ishlagan ustalar matematika fanini yegallagan kishilar bo‘lganlar.



3-rasm. Girih naqsh namunasi.

Me’moriy yodgorliklardagi geometrik naqshlar shunday aniqlikda ishlanganki, kishini lol qoldiradi. Olimlarimiz ana shu girih ishlash sirlarini topish maqsadida ko‘p izlanishlar qildilar. Lekin, bu jumboqlardan to‘la ma’lumotlar ololmadilar. Chunki, o‘sha davrdagi ustalar geometrik naqsh qurishni sir deb bilib, qog‘ozda yoki tushuntirib qoldirmaganlar. Shuning uchun ham otadan-bolaga o‘tib unutib yuborilgan. Ana shu sabablarga ko‘ra hozirgi zamonamizda ham ko‘pgina ustalarimiz girihni yechimini topishga qiynaladilar.

Sharqning mashhur olimlaridan Abdulvafo al-Buzjoniy (940-998) o‘zining kitoblarida 20 ga yaqin geometrik naqshlar yechimi to‘g‘risida yozib qoldirgan. Bularda girihni ba’zi oson yo‘llarini tushuntirib o‘tgan. Masalan, uning kitoblaridan birida qurilish va geometrik naqsh yechimi to‘g‘risida yozilgan. Bu kitob hozir Parijdagi muzeylardan birida saqlanmoqda. Abdulvafo al-Buzjoniy o‘zining asarlarida girihni tayyorlash usullarini ko‘rsatib o‘tsada, bizga girih yechimi to‘g‘risidagi ma’lumotlar berilmagan.(2)

U o‘zining kitobida kvadratni uchga, beshga bo‘lishning eng sodda va oson yo‘llarini keltiradiki, bu o‘sha davr uchun katta ilmiy va amaliy ahamiyatga molik edi. Murakkabligidanmi yoki yasash qonun-qoidalarining asta-sekin unutib ketganligidanmi, xullas biz uchun noma’lum. XVII-asrga kelib, girih san’ati juda kam ishlatiladigan bo‘ldi.

CC BY NC ND


ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)


Girih chizadigan ustalar nihoyatda kam qolgan. Girih chizish murakkab bo‘lgani uchun hamma ustalar chiza olmaganlar. O‘sha davrlarda girih naqshini yaxshi bilgan ustalar yetuk ustalar bo‘lib hisoblanganlar. Shunday ustalardan biri Usta Shirin Murodov bo‘lgan. U yangi girihlarni osonlik bilan chiza olgan hamda o‘z o‘rnida ustalik bilan qo‘llay olgan. U o‘z davrida girihni piri hisoblangan, uni girihkor usta deb hisoblaganlar. Shuning uchun girih shiza olmagan ustalarni yetuk usta deyilmagan.

Bundau olimlardan Z. Bositxonovni keltirishimiz mumkin. Z. Bositxonov 300 ga yaqin ishlagan yangi girih naqshlari bilan mamlakatimizda mushhurdir. Hozirda har bir binoni bezashda geometrik naqshlar qo‘llab kelmoqdalar. Girih naqshining o‘z qonun-qoidalari bor. Shuning uchun ham biz ularga girih naqsh yasash geometriyasini qonun-qoidalarini shuqur o‘rgatmog‘imiz lozim.

Naqqoshlik, ganchkorlik, yoqosh o‘ymakorligi va boshqa xalq amaliy bezak san’ati turlarida dastlab buyum yoki ma’lum bir yuzalarga ishlanadigan naqsh kompozitsiyasini dastlabki xomaki namunasi ishlanadi va u “naqsh chizgilari” deb ataladi. Bu chizgilar xarakter jihatidan rang va pardozlash bosqichlarisiz ishlangan shunchaki qoralama yeskizlarga qiyoslanadi. Naqsh namunalarida yuza va shakl oralig‘iga berilayotgan ranglar soni qanchalik ortsa, kompozitsiya yanada chiroy oshib, go‘zallashib boradi. Naqshning shakl yasovchi yo‘l elementlari va rang tuslari kompozitsiyaning nomlanishida katta ahamiyatga yegadir. Mustaqil ijod orqali biz yangi naqsh namunalarini yaratar yekanmiz, ranglar jozibasi va yorqinligini ham alohida his yeta boshlaymiz. Chunki, kompozitsiyaning mazmuni va ma’nolariga mos ranglarning o‘zaro birikuvi, naqshning nafisligini oshiradi.


Tuzilgan kompozitsiyaning mazmunan boy, chiroyli tuzilishi, naqshning asosiy shakl chegarasi va ramkasiga ham bog‘liq. Kompozitsiya tuzishda dastlab o‘lcham aniqlangach, naqshning asosiy shakli ramkaga olinadi. Naqsh ramkalarini tuzishda elementlar ko‘rinishini yo‘l aylana, chorsi va hokazo shakllarning ishiga joylashtiriladi.





CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)



4-rasm. Girih naqsh namunasini chizish bosqichi.

Masalan, mehrob, lola, patnis, ishkom, aylana mehrob elementlarini olsak, bu oddiy naqsh elementlarini bosqichma-bosqich, yo‘l, to‘rtburchak va aylana kabi shakllar ishiga joylashtirib, kompozitsiyalarni quyidagicha nomlashimiz mumkin:

1. Mehrob ko‘rinishigagi shakllar — “Mehrob hoshiya”, “Mehrob patnis”, “Mehrob aylana”.

2. Lola ko‘rinishigagi shakllar — “Lola hoshiya”, “Lola patnis”, “Lola aylana”.

3. Patnis ko‘rinishigagi shakllar — “Patnis hoshiya”, “Oddiy patnis”, “Aylana mehrob patnis”, “Patnis aylana”.

4. Ishkom ko‘rinishidagi shakllar — “Ishkom hoshiya”, “Ishkom patnis”, “Aylana ishkom”.

5. Aylana mehrob ko‘rinishidagi shakllar — “Aylana mehrob hoshiya”, “Aylana mehrob doira” naqsh kompozitsiyalari va boshqalar.

Yuqorida autib o‘tganimizdek, naqshlarni — shakl yasovchi elementlarning nomlari bilan atash mumkin. Masalan, “mehrob lola” — ko‘rinishi ifodalangan yo‘l ishidagi naqsh shakli odatda “Hoshiya naqshlar”, deb atalganligi sababli “Mehrob hoshiya” deb nomlanadi. To‘rtburchak shakldagi naqshlar patnisga o‘xshash bo‘lganligi sababli “Mehrob patnis” shaklidagi naqsh kompozitsiyasini tashkil yetadi va shunday nomlanadi. Aylana — gardish shaklidagi naqsh kompozitsiyasi yesa “Aylana mehrob” naqshi deya ataladi.

Ushbu naqsh shakllarini ixtiyoriy ravishda yakka (1), qo‘sh (2) va bir necha bandli ramka ko‘rinishlarida chizish mumkin. Bunday turdagi ko‘rinishlar “Naqshlar rejasi” deb ham yuritiladi. Tuziladigan naqsh kompozitsiyasi naqsh elementlarini ana shu kabi turli qoliplar ishiga joylashtirib hosil qilinadi.Naqsh kompozitsiyalarini tuzishni o‘rganishda xalq ustalarining ijodiy ishlarini kuzatib, ulardan nusxalar ko‘chiradilar. Shuningdek, turli muzeylar, uylar va ma'muriy binolarni ichki va tashqi tomonlarini bezashda qo‘llanilgan naqshlar va ularning turlari bilan tanishtirib boriladi. Girih naqsh namunasini chizish davomida chiziqlarning ingichka, to‘g‘ri, ravon va toza chizish muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat naqsh chizish sirlarini puxta egallaganingizdan, balki ruhiyatingizni ham ko‘taradi, ko‘nglingizga taskin beradi, sizni yana va yana yangi orzular sari undaydi, eng muhimi asabingizni tinchlantiradi, dam olasiz. Qachonki oddiy qora qalam bilan chizilgan chiziqlarga go‘zallik, joziba va jon baxsh eta olsangizgina o‘z kasbingizni ustasiga aylanasiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ahmedov M.B. Yog‘och o‘ymakorligi. –T.: Adabiyot uchqunlari, 2017, –220 b.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

2. Bulatov S.S. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati. –T.: Mehnat, 1991, –384 b.
3. Xolmatov B.Q. Kompozitsiya. –T.: Iqtisod–Moliya, 2007, –102 b.
4. Akhmedov, M.-U., & Kholmatova, F. (2021). Formation of creative processes in students through teaching composition in fine arts. Збірник наукових праць ΛΌГОΣ. https://doi.org/10.36074/logos-09.04.2021.v2.03
5. Ahmedov, M.-U., & Xolmatova, F. (2021). TEACHING STUDENTS TO DRAW ELEMENTS OF PATTERNS IN WOOD CARVING CIRCLES. Збірник наукових праць ΛΌГОΣ. https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.17
6. Talipov, N., & Talipov, N. (2021). CREATIVE TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS’ CREATIVE ACTIVITY THROUGH ART EDUCATION. Збірник наукових праць ΛΌГОΣ. https://doi.org/10.36074/logos-19.03.2021.v3.12
7. Талипов, Н., & Талипов, Н. (2021). Проблема исторического жанра в изобразительном искусстве: взгляд на творческую школу художника Малика Набиева. Общество и инновации, 2(4/S), 607–613. https://doi.org/10.54274/2181-1415-vol2-iss4/S-pp607-613
8. R.R. Jabbarov. Patterns in applied art of the uzbek folk // Eyropean Journal of Arts, 2023, №1. – C.11–14. DOI: https://doi.org/10.29013/EJA-23-1-11-14
9. Дилшоджон Тураевич Хайтметов. (2024). Педагогические и психологические основы развития художественно-творческих способностей учащихся в практике декоративно-прикладного искусства. pedagogs, 51(1), 61–64. Retrieved from http://pedagogs.uz/index.php/ped/article/view/718

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Ahmedov Muxomod-Umar Baxridinovich**, dots., pedagogika fanlari bo‘yicha f.d. (PhD), **Xo‘jayeva Sayramxon Maksudovna**, o‘qituvchi [**Ахмедов Мухамод-Умар Бахридинович**, доцент,(PhD), **Ходжаева Сайрамхан Максудовна**, преподаватель] [**Ahmedov B. Muxomod-Umar**,assoicate professor, Doctor of Philosophy in Pedagogy, (PhD), **Xo‘jayeva Sayramxon Maksudovna**, teacher]; manzil O'zbekiston, Shahar: Toshkent, Tuman: Chilonzor, Gavxar ko'chasi, 1 [адрес: Узбекистан, Город: Ташкент, Район: Чиланзор, улица Гавхара, 1], [address: Uzbekistan, City: Tashkent, District: Chilonzor, Gavkhar street, 1]; E-mail: axmedovm@mail.ru xujayevasayramxon@mail.ru

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original peper

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA FIZIKA O‘QITISH JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH MODELI

© Y. Azimov[1]✉
[1]O‘zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali,Jizzax, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: talabalar uchun ijodiy fikrlash, ayniqsa, fizikani o‘rganish sharoitida juda muhim, chunki u innovatsiyalarga, muammolarni hal qilishga va murakkab tushunchalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi fizika darslarida talabalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish modelini ishlab chiqish va tasdiqlashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda nazariy modelni ishlab chiqishni empirik test bilan birlashtirgan aralash usullardan foydalaniladi. Materiallarga o'quv dasturlari hujjatlari, o'quv materiallari va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini o'lchash uchun mo'ljallangan baholash vositalari kiradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko'rsatadiki, fizikani o'qitishda kompetensiyaga asoslangan yondashuv o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Belgilangan asosiy kompetensiyalar orasida tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, tasavvur qilish va fanlararo aloqalarni o'rnatish qobiliyati kiradi.

XULOSA: tadqiqot fizika ta’limida kompetensiyaga asoslangan yondashuv orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirish ham maqsadga muvofiq, ham foydali degan xulosaga keldi. Taklif etilayotgan model o'qituvchilar uchun o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini oshirish, mavzu bilan chuqurroq shug'ullanish va yanada innovatsion va tahliliy fikrlashni rivojlantirish uchun tizimli asosni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: kompetensiyaviy yondashuv, kreativ fikrlash, integrativ maqsad, tarkibiy qism, tashkiliy-metodik qism, tashkillashtirish shaklari, tashxislovchi mezonlar, tashxislovchi darajalar, davlat ta’lim standarti, metod, vosita, motivatsiyali, kognitiv, faoliyatli, kreativ, izlanuvchan, qisman izlanuvchan, reproduktiv.

Iqtibos uchun: Azimov Y. Kompetensiyaviy yondashuv asosida fizika o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish modeli. // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 58–65.

МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЗИКИ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОГО ПОДХОДА

© Ю. Азимов✉
[1]Джизакский филиал Национального университета Узбекистана, Джизак, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: творческое мышление имеет важное значение для студентов, особенно в контексте изучения физики, поскольку оно способствует инновациям, решению проблем и более глубокому пониманию сложных концепций.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является разработка и апробация модели развития творческого мышления учащихся на уроках физики.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании используется смешанный подход, сочетающий разработку теоретической модели с эмпирическим тестированием. Материалы включают в себя учебные документы, учебные материалы и инструменты оценки, предназначенные для измерения навыков творческого мышления.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показывают, что компетентностный подход к преподаванию физики может значительно улучшить способности учащихся к творческому мышлению. Ключевые выявленные компетенции включают критическое мышление, решение проблем, воображение и способность устанавливать междисциплинарные связи.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в исследовании делается вывод, что развитие творческого мышления с помощью компетентностного подхода в физическом образовании является одновременно осуществимым и полезным. Предлагаемая модель предоставляет преподавателям структурированную основу для развития творческих навыков учащихся, способствуя более глубокому изучению предмета и развитию более инновационного и аналитического мышления.

Ключевые слова: компетентностный подход, творческое мышление, интегративная цель, компонент, организационно-методическая часть, формы организации, диагностические критерии, диагностические уровни, государственный образовательный стандарт, метод, инструмент, мотивационный, познавательный, активный, творческий, поисковый, частично поисковый, репродуктивный.

Для цитаты: Азимов Ю. Модель развития творческого мышления студентов в процессе обучения физике на основе компетентностного подхода. // Inter education & global study. 2024. №4(1). В. 58–65.

THE MODEL FOR DEVELOPING CREATIVE THINKING OF STUDENTS IN THE PROCESS OF PHYSICS TEACHING BASED ON THE COMPETENT APPROACH

© Yusuf Azimov[1]✉

[1]Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, Jizzakh, Uzbekistan

Annotation

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

INTRODUCTION: creative thinking is essential for students, especially in the context of learning physics, as it fosters innovation, problem-solving, and deeper understanding of complex concepts.

AIM: the aim of this study is to design and validate a model for developing creative thinking in students during physics lessons.

MATERIALS AND METHODS: the study employs a mixed-methods approach, combining theoretical model development with empirical testing. Materials include curriculum documents, instructional materials, and assessment tools designed to measure creative thinking competencies.

DISCUSSION AND RESULTS: the results demonstrate that a competency-based approach to teaching physics can significantly enhance students' creative thinking abilities. Key competencies identified include critical thinking, problem-solving, imagination, and the ability to make interdisciplinary connections.

CONCLUSION: the study concludes that developing creative thinking through a competency-based approach in physics education is both feasible and beneficial. The proposed model provides a structured framework for educators to enhance students' creative skills, promoting deeper engagement with the subject matter and fostering a more innovative and analytical mindset.

Key words: competence approach, creative thinking, integrative goal, component, organizational-methodical part, forms of organization, diagnostic criteria, diagnostic levels, state educational standard, method, tool, motivational, cognitive, active, creative, searching, partially searching, reproductive.

For citation: Azimov Y. (2024) ‘The model of development of students' creative thinking in the process of teaching physics based on the competence approach’, Inter education & global study, (4(2)), pp. 58–65. (In Uzbek).

Dunyo mamlakatlari hozirgi davrda mustaqil, erkin va kreativ fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalash muammosiga jiddiy e’tibor qaratishmoqda. Sun’iy intelektning insonlar hayotiga kirib kelishi, tabiiy aql egalarining sun’iy intelekt (AQSh fermerlari bir necha o‘n yilliklardan beri sun’iy intelekt texnologiyalaridan foydalanib kelishadi, hisob kitoblarga ko‘ra, hozirgi paytda mamlakatning agrar korxonalarning 87% sun’iy intelekt) texnologiyalaridan foydalanib kelinmoqda. Albatta raqobat kurashida g‘olib bo‘lishi uchun tabiiy aql egalari, jamiyat hayotida yuzaga keladigan har qanday muammoni mustaqil, erkin, kreativ fikrlash bilan hal qiluvchi shaxs bo‘lib yetishishi kerak. Mamlakatlar ta’lim tizimi oldiga ushbu muammoni samarali hal etish bilan, ijodkor yoshlarni tarbiyalash vazifasini qo‘ymoqda.

Zamon talablaridan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarorining qabul qilinishi, fizika fanidan ta’lim berish jarayonini yangi sifat bosqichiga olib chiqish uchun asos bo‘ladi. Unda umumta’lim muassasalarida

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

fizika fanini o‘qitish sifatini oshirish, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini takomillashtirish asosiy maqsad va vazifa etib belgilangan [1].

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish natijasi nafaqat ta’limning maqsadlari va mazmuniga, balki o‘qitish usullariga ham bog‘liq bo‘ladi. Kompetensiyaviy yondoshuv asosida fizika fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish modeli orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Model bir-biriga bog‘liq bloklardan tashkil topgan bo‘lib, ularning bayoni quyida keltirilgan.

Kompetensiyaviy yondoshuv asosida fizika fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish modelining dastlabki maqsad qismi ta’lim muassasida o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish ustida ish olib borish bilan bog‘liq. Ushbu blokda biz o‘quvchilarda kreativ fikrlashga ehtiyoj mavjudligini aniqlaymiz. O‘quv jarayoni ishtirokchilarining maqsadlari bir-biri bilan aynan bir xil bo‘lmaganligi sababli, biz integrativ maqsadni taklif etamiz: fizikani o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga yordam berish masalalari belgilanadi. Respublika Prezidentining yuqoridagi qarorida ta’kidlanishicha, umumta’lim maktab o‘quvchilarida ijodiy fikrlashni rivojlantirish bo‘lajak mutaxassisning innovatsion salohiyatini shakllantirishning asosi bo‘lib, shu sababli hozirgi vaqtda maktab ta’limining asosiy vazifalaridan biri ekanini ifodalaydi [4].

Modelning integrativ maqsad qismi kompetensiyaviy yondoshuv asosida fizika fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish va ilmiy dunyoqarashini shakllantirish bilan hamda fanlararo jarayon sifatida qaralishini ta’minlaydi, shuningdek, dars jarayonining o‘quv-tarbiyaviy maqsadiga butunlay mos kelishiga imkoniyat yaratadi. Integrativ maqsad qismi fizika fanini o‘qitishni tarixiy-metodologik yondashuv asosida o‘qitish samaradorligini ta’minlaydi: birinchi tomondan, umumiy o‘rta ta’lim fizika kursi “tabiat-jamiyat-inson” ning o‘zaro birligini ochib berishga xizmat qiladi, ikkinchi tomondan, fizika fanini o‘qitish bilimlarni o‘quvchining shaxsiy his-hayajonidan o‘tkazib, ishonchga aylantira oladi.

Modelning **tarkibiy qismi** fizika fanidan olgan bilimlarning o‘quvchi ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda va kreativ fikrlashini rivojlantirishda, muhim o‘rin tutadigan jihatlarni hisobga olib, o‘quvchining kreativ fikrlashini rivojlantirish shartlarini aniqlashtirib beradi. Ular quyidagi shartlarni qanoatlantirishi kerak:

1) umumiy qonuniyatlar, tushunchalar, g‘oyalar;

2) olam to‘g‘risida yaxlit tasavvurni tashkil qilishi zarur;

3) insonni atrof muhitga bo‘lgan munosabatini ochib berishi;

4) o‘quvchilarning qarashlari va ishonchlari boshqa bilimlarga qaraganda ko‘proq ta’sir qilishini ta’minlashi.

Modelning tashkiliy-metodik qismi kompetensiyaviy yondoshuv asosida fizika fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishni tashkil etishning metodlari, vositalari va shakllarini o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar kreativ fikrlashini rivojlantirishga o‘quv materialini o‘zlashtirish japayonida erishiladi. Ushbu holatda shuni

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

alohida ta'kidlash kerakki, o'quv faoliyatida bilimlarni o'zlashtirish va kreativ fikrlashni rivojlantirish, bu bir- biridan mustaqil tarzda hamda ketma-ket amalga oshiriladigan ikki hil jarayon emas. Dars jarayonida barcha o'quv-tarbiyaviy ishlar o'quvchining kreativ fikrlashini rivojlantirishga qaratilgani uchun, darslarda unga bag'ishlangan maxsus tashkil etish usullari mavjud emas, chunki u o'quv jarayoni bilan paralell tarzda olib boriladi. O'quvchi tomonidan kompetentlikni namoyon etish alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir fanning mustaqil yo'nalishi bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi.

Kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda davlat tili, xorijiy tillarni o'zlashtirishda mustaqil, ijodiy fikrlash, yozma va og'zaki ravon bayon etish, to'g'ri talaffuz qilish, izohlab berish hamda erkin muloqot qilishga o'rgatish zarur. Xususan, fizika fanining o'z ilmiy tili, o'z tushunchalari, belgi va timsollari ham mavjud bo'lib, bu tilda muloqot qilish - kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish omili sifatida qaralishi lozim bo'ladi.

Fanlarni o'qitishda axborot bilan ishlash kompetensiyasini samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy axborot-telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda o'quvchilarni darslik, elektron resurslar va turli o'quv manbalari bilan ishlash, matematika faniga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot xavfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda turli amaliy dasturiy paket va ta'minotlardan, mobil qurilma (telefon, planshet va gadjet)lardan foydalanish tavsiya etiladi.

O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishda umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilgan fazilatlarga ega bo'lish, Vatanni sevish, jamiyat va tabiat haqidagi bilimlarga ega bo'lish, yangiliklarga intilish va o'zlashtirgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilishga, jamiyatda ro'y berayotgan progressiv va innovatsion o'zgarishlardan xabardor va daxldor bo'lish, doimo zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallashga intilish, hamda ulardan kundalik hayotda foydalana olishga o'rgatish zarur. Shu o'rinda fizika fanini puxta o'rganish orqali o'quvchilar tartib-intizomga o'rganadilar, har bir muammoga fizikaviy masala sifatida qarab, uni yechishda qat'iyatli bo'ladilar.

Ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishda fuqarolik burch, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish, favqulodda vaziyatlar, ekologik muammolar haqida bilimlarga ega bo'lish hamda badiiy va san'at asarlarini tushunish hamda ularni asrashda tashkilotchilik xislatlarini rivojlantirishdan iborat. Shuningdek, fizika ularni haqgo'y, nohaqlikka befarq bo'lmaslik va vatanga sadoqatli bo'lish ruhida tarbiyalaydi. Fizika fanini puxta o'rgatish orqali o'quvchilarni jamiyatning faol fuqarosi sifatida rivojlantirib borishga zamin yaratiladi.

Kreativ fikrlashni tashxislovchi mezonlar va darajalar qismi kompetensiyaviy yondoshuv asosida fizika fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning kreativ fikrlashining rivojlanish darajasini tashxislashga imkon beradi. O'quvchining aniq fizik o'quv materialni o'zlashtirishi kreativ fikrlashini rivojlantirishga, dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, o'quv faoliyati jarayonida o'quvchilar tajriba o'tkazishsa, kuzatish, o'lchash, olingan natijalarni bayon qilish va tahlil qilishsa, asboblarni tuzatishsa,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

eksperimental tavsifdagi aniq bilim va malakaga ega bo‘lishadi. Biroq bu bilan chegaralanib qolmasdan, o‘quvchilar tomonidan nazariy bilish, ya’ni eksperimentning metodologik jixatini ilmiy bilish metodi sifatida qarashi kerak. Shuning uchun, o‘quvchi u yoki bu tajribani bajarishda ishni bajarish tartibidan chetga chiqib, uni metodologiya nuqtai nazardan kreativ fikrlash bilan qarashi zarur. Ushbu holdagina, ya’ni o‘zlashtirilgan material kreativlik bilan bog‘langandagina maqsadga erishiladi. Boshqacha aytganda, bilish manbai bo‘lib moddiy olam hisoblanadi, inson bilish jarayonida ma’lum bo‘lgan qonunlardan foydalanib, olamni o‘zgartiradi [3, 7].

Natijaviy qismida kompetensiyaviy yondoshuv asosida fizika o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish darajalari aniqlanadi. Ushbu natijalar dastlabki natijalar bilan taqqoslanadi. Agar kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda hech qanday o‘zgarish sezilmasa, u holda ta’lim berish jarayoniga o‘zgartirish kiritish talab etiladi [5, 6]. Ushbu kiritilgan o‘zgarish individual yoki guruhli bo‘lishi mumkin. Maqsadga erishish natijasida biz kreativ fikrlashni rivojlantirishning individual darajasiga ega bo‘lamiz. Kompetensiyaviy yondoshuv asosida fizika fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish uchun biz tomonimizdan ishlab chiqilgan modelning o‘quv jarayoniga tadbiq etilishi fizika ta’limi sifati oshishiga xizmat qiladi:

1. Fizika fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning o‘z qarashlarini tinglash va bahslashish uchun zarur bo‘lgan o‘quv va qo‘shimcha ma’lumotlarni olishda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatini faollashtirish. O‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv jarayonining asosiy vazifasi, o‘quvchilarni mustaqil faoliyatga jalb qilishdir. O‘quvchilar mustaqilligini shakllantirish haqida gapirganda, bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ikkita vazifani yodda tutish zaruriyati paydo bo‘ladi. Ulardan birinchisi - o‘quvchilarning bilim olish faoliyatidagi mustaqilligini rivojlantirish, bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga o‘rgatish, dunyoqarashini shakllantirish; ikkinchisi - bu ularni o‘z bilimlarini mustaqil ravishda o‘zlashtirish va amaliyotda qo‘llashga o‘rgatish [4, 9].

2. Maktab o‘quvchilarining fizika o‘qitish jarayonida kreativ fikrlashni o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyojlarini rivojlantirish va kreativ fikrlashga o‘rgatish. O‘quvchilarning kreativ fikrlashga bo‘lgan ehtiyojlarini rivojlantirish, faqat o‘zlarining faol o‘quv va kognitiv faoliyati jarayonida sodir bo‘ladi. Ushbu ehtiyojlarning shakllanishiga pedagogik omillar va metodlarning kombinatsiyasi ta’sir qiladi.

Fizika o‘qitish jarayonida ushbu imkoniyatlardan foydalanish o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

O‘quvchilarning o‘smirlik davrida aqliy faoliyatining rivojlanishida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y beradi. Umumiy o‘rta ta’lim maktabining 7-9-sinflarida o‘rganilayotgan fanlarning mazmuni va mantig‘i, bilimlarni o‘zlashtirish xarakteri o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, mulohaza yuritish, taqqoslash, xulosa va umumlashtirish qobiliyatiga tayanishni taqozo etadi. O‘quv jarayonida kreativ fikrlash, o‘rganilayotgan hodisalarni tahlil qilish va sintez qilish rivojlanadi. Aynan fizika o‘smirning tafakkurini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar beradi. Tabiatshunoslik fanidan fizikaga o‘tish umumlashtirishning yuqori darajasiga o‘tishni anglatadi. O‘quvchi tomonidan o‘rganiladigan barcha ta’lim fanlari, birinchi

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

navbatda, uning kreativ tafakkurining rivojlanishini rag‘batlantiradi. Tabiiyki, o‘quvchining aqliy faoliyatining asosiy xususiyati – yildan-yilga uning kreativ fikrlash qobiliyatining ortib borishi, aniq-majoziy va kreativ fikrlash o‘rtasidagi munosabatlarning kreativ fikrlash foydasiga o‘zgarishidir. Kreativ fikrlashni o‘zlashtirish qiyinchiliksiz sodir bo‘lmaydi. 7-9 sinf o‘quvchilari bu borada muayyan qiyinchiliklarga duch kelishadi. O‘quvchilar jismning muhim xususiyatlarini bilishlariga qaramay, ularni noodatiy, o‘zgargan vaziyatda ajrata olmaydilar. Buni 7-sinfda qaynash jarayonini o‘rganish misolida kuzatish mumkin. Qaynash jarayonining ta’rifini keltirgan holda, ular fikrlarini qaynashda jamlab, bu jarayonda energiya ajralib chiqishini aytishlari mumkin. O‘quvchilar qaynoq suvning kundalik hayotdagi amaliyotini eslashga majbur bo‘lishgach, ular darhol to‘g‘ri javob berishadi: suvning qaynashida energiya yutiladi. Yana bir misol: "100 ^{o}C dagi suv ko‘proq kuydiradimi yoki shu haroratdagi bug‘mi?" deb so‘ralgan savolga javob berishda ikkilanib qolishadi, lekin ularga jarayonning hayotiy vaziyatini eslatganingizda so‘ng, ular uchun to‘g‘ri javob endi qiyinchilik tug‘dirmaydi. Yoki 7-sinf materialidan "nima og‘irroq - bir kilogramm paxtami yoki bir kilogramm qo‘rg‘oshinmi?" odatda savol ularda tezda aytiladigan ikkita noto‘g‘ri javobni keltirib chiqaradi: 1) "bir kilogramm qo‘rg‘oshin" yoki 2) "ularning massasi bir xil". Bularning barchasi ushbu yoshda abstrakt (mavhum) fikrlash qobiliyatining yetarli emasligini tasdiqlaydi.

Kreativlik insonning turli bir xilliklarni o‘zgartirish va ularni tark etishga tayyorligini belgilaydigan potensial, ichki resurs sifatida ko‘rib chiqish mumkin bo‘lgan xususiyatdir.

Kreativ potensial insonning turli xil ijodiy qobiliyatlari kombinatsiyasi asosida shakllanadi: divergent (ko‘p yo‘nalishli) fikrlash, bir xilliklarni yengib o‘tish qobiliyati, ma’lum bir vaziyat (topshiriq) doirasidan tashqariga chiqish, moslashuvchanlik va o‘ziga xoslik, muammolarni aniqlash va shakllantirish qobiliyati, fikrlashning majoziy semantik moslashuvchanligi, tahlil va sintez qilish qobiliyati va boshqalar.

O‘qituvchi o‘z ishida psixologik test natijalari bo‘yicha tayyor ma’lumotlardan foydalanishi mumkin. Ammo bunday testdan olingan xulosalar juda cheklangan bo‘lishi mumkin va o‘quvchining ta’lim va kognitiv faoliyatdagi mumkin bo‘lgan ijodiy yutuqlarini baholash juda qiyin. Umumiy kreativlikni sinovdan o‘tkazish natijalari fan bilan bog‘liq faoliyatda (xususan, fizikani o‘rganishda) shaxsiyatning ijodiy namoyon bo‘lishiga nisbatan zaif bashoratli kuchga ega.

Bundan xulosa qilish mumkinki, o‘qituvchiga kreativlikni aniqlash va diagnostika qilishning aniq pedagogik usullari va vositalari kerak. O‘qituvchi oldiga ushbu usul va vositalardan foydalanib, o‘quvchining o‘quv fanining mazmunini ijodiy o‘zlashtirish imkoniyatlarini aniqlash, uning intellektual o‘sish istiqbollarini ko‘rish, shular asosida individual ishlash strategiyasini ishlab chiqish vazifasi turibdi.

Shuni ta’kidlash kerakki, kreativ salohiyatni aniqlash va baholashning ba’zi usullari o‘qituvchilar tomonidan amaliy ishda qo‘llaniladi (masalan, kuzatish usuli, o‘quvchi bilan individual suhbat). Ushbu usullar kreativlikning tashqi ko‘rinishlarini (belgilarini) baholashga imkon beradi (o‘quvchi faolligi, javoblarning o‘ziga xosligi, mulohaza yuritish, o‘rganilayotgan mavzu yoki muammoga doimiy qiziqishning namoyon bo‘lishi: o‘quvchi

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

savollar beradi, qo‘shimcha topshiriqlar so‘raydi, tadqiqot ishida qatnashadi, va boshqalar.).

Amaldagi usul - bu o‘quvchilar faoliyatining mahsulotlarini (fizik masalalar, modellar, loyihalar, ishlab chiqilgan g‘oyalar, muammolarni hal qilish usullari) o‘rganishdir. Ushbu usullar, albatta, foydali va zarurdir, ammo shuni hisobga olish kerakki, ular o‘quvchining kreativ imkoniyatlari haqida to‘liq tasavvur bermaydi va ularni amalga oshirish uchun juda uzoq vaqt talab etiladi. Ular allaqachon namoyon bo‘lgan kreativ faoliyat kabi ko‘p potensialni baholaydilar. Hali kreativ faollik ko‘rsatmagan, ammo potensial yoki yashirin iste’dodga ega bo‘lgan o‘quvchilar salohiyatga ega bo‘lishlari mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, kreativlik o‘quvchining integrativ sifati o‘rnida yangi g‘oyalarni yaratish, fikrlash va xatti-harakatlarning ananaviy modellaridan chetga chiqish, fikrlashning moslashuvchanligi, noaniqliklarga toqatlilik qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Kreativlikni o‘quvchi rivojlanishining asosi, uning salohiyati o‘sishini ta’minlovchi sifatida ko‘rish mumkin. Kreativlik tarkibiga fizika darslarida erishiluvchi o‘quvchilarning qiziquvchanligi, idroki va fikrni shakllantirilishi kiradi. Kompetensiyaviy yondoshuv asosida fizika o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish modelida ko‘rsatilgan qismlarning tizimli ketma-ketlikda bajarilishi fizika darslarida o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. PQ-5032. 19.03. 2021y.
2. Скляренко А.Н. Технология формирования компетенций // методические рекомендации для преподавателя. − Москва, 2011. – 106 с.
3. Сериков В.В. Развитие личности в образовательном процессе / В. В. Сериков. — Москва: Логос, 2012. — 447 с.
4. Г.Н.Гаврилова, Е.В.Гаврилова Развитие креативности у учащихся. Монография. Чебоксары, 2012.-76-80с.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАТSIЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Yusuf Azimov**,katta o‘qituvchi [**Юсуф Азимов**, старший преподаватель], [**Yusuf Azimov,** senior teacher]; manzil: 130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri Sh.Rashidov shox ko'chasi, 259 uy [адрес: 130100, Джизакская область, город Джизак, ответвление улицы Ш. Рашидова, дом 259], [130100, Jizzakh region, Jizzakh city, Sh. Rashidov branch street, house 259]; e-mail: azimovyusuf@mail.ru

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original paper

TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGLAR USLUBIY TAYYORGARLIGINING O‘RNI

© B.E.Toshmatov[1]✉

[1]Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ta’lim sifati o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi samaradorligi bilan chambarchas bog‘liq. Ilg‘or pedagogik mahorat va metodikalar bilan jihozlangan yaxshi tayyorlangan o‘qituvchilar talabalarning bilim olish natijalarini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Ushbu maqolada ta’lim sifatini oshirishda metodik tayyorgarlikning o‘rni o‘rganilib, o‘qituvchilarning uzluksiz malakasini oshirish muhimligi ta’kidlangan.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi metodik tayyorgarlikning o'qituvchilarning ta'lim amaliyotiga ta'siri va uning ta'lim sifatiga keyingi ta'sirini o'rganishdir. Tadqiqot samarali metodik ta'lim dasturlarining asosiy elementlarini aniqlashga va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar berishga qaratilgan.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda miqdoriy va sifat ma'lumotlaridan foydalangan holda aralash usullar qo'llaniladi. Materiallar o'qituvchilarni tayyorlash bo'yicha qo'llanmalar, o'quv tadqiqot maqolalari va uslubiy o'quv dasturlarida qatnashgan o'qituvchilarning so'rov ma'lumotlarini o'z ichiga oladi. Usullar so'rovlar, suhbatlar, sinfda kuzatishlar va talabalar faoliyati ma'lumotlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Miqdoriy ma'lumotlar statistik usullar yordamida tahlil qilinadi, sifatli ma'lumotlar esa mavzuli kodlash va hikoya tahlili orqali tahlil qilinadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: reflektiv amaliyot va konstruktiv fikr-mulohazalar uslubiy treningning muhim tarkibiy qismidir. O'qituvchilarni o'z ta'lim amaliyotlari haqida fikr yuritishga rag'batlantirish va fikr-mulohazalarni bildirish ularga takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlashga va samarali strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Fikrlash amaliyoti bilan shug'ullanadigan va muntazam ravishda fikr-mulohazalarni qabul qiladigan o'qituvchilar o'zlarining ta'lim usullarida sezilarli yaxshilanishlarni ko'rsatadilar. Ushbu aks ettiruvchi yondashuv doimiy takomillashtirish va professional o'sish madaniyatini rivojlantiradi.

XULOSA: tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ta'lim sifatini oshirishda uslubiy tayyorgarlik hal qiluvchi rol o'ynaydi. Kontent bilimi, pedagogik mahorat, uzluksiz kasbiy rivojlanish, texnologiya integratsiyasi va refleksli amaliyotga qaratilgan keng qamrovli o'quv dasturlari o'qituvchilarni yuqori sifatli ta'lim berish uchun jihozlaydi.

Kalit so'zlar: pedagog, muammoli ta’lim, talaba, pedagogik texnologiya, usul.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Iqtibos uchun: Toshmatov B.E. Ta'lim sifatini oshirishda pedagoglar uslubiy tayyorgarligining o'rni. // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 66–72.

РОЛЬ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ПЕДАГОГИ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

© Б.Е.Тошматов[1]✉
[1]Ташкентский государственный педагогический университет имени Низоми, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: качество образования тесно связано с эффективностью методической подготовки учителей. Хорошо подготовленные преподаватели, обладающие передовыми педагогическими навыками и методиками, могут значительно улучшить результаты обучения учащихся. В данной статье рассматривается роль методической подготовки в повышении качества образования и подчеркивается важность непрерывного профессионального развития учителей.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является изучение влияния методической подготовки на образовательную практику учителей и ее последующее влияние на качество образования. Целью исследования является выявление основных элементов эффективных методических образовательных программ и выработка рекомендаций по оптимизации профессионального развития учителей.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы смешанные методы с использованием количественных и качественных данных. Материалы включают руководства по подготовке учителей, статьи об исследованиях в области образования и данные опросов учителей, принимавших участие в программах педагогической подготовки. Методы включают опросы, интервью, наблюдения в классе и анализ данных об успеваемости учащихся. Количественные данные будут анализироваться с использованием статистических методов, а качественные данные будут анализироваться посредством тематического кодирования и описательного анализа.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: рефлексивная практика и конструктивная обратная связь являются важными компонентами методической подготовки. Поощрение учителей задуматься о своей практике преподавания и предоставление обратной связи может помочь им определить области для улучшения и разработать эффективные стратегии. Учителя, которые занимаются рефлексивными практиками и получают регулярную обратную связь, демонстрируют значительные улучшения в своих методах преподавания. Такой

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

рефлексивный подход способствует развитию культуры постоянного совершенствования и профессионального роста.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исследования показывают, что методическая подготовка играет решающую роль в повышении качества образования. Комплексные учебные программы, ориентированные на знание содержания, педагогические навыки, непрерывное профессиональное развитие, интеграцию технологий и рефлексивную практику, позволяют учителям обеспечивать высококачественное обучение.

Ключевые слова: педагог, проблемное обучение, студент, педагогическая технология, метод.

Для цитирования: Тошматов Б.Е. Роль методической подготовки педагоги в повышении качества образования. // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 66–72.

THE ROLE OF METHODOLOGICAL TRAINING OF TEACHERS IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION

© Boboxon E. Toshmatov[1]✉
[1]Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the quality of education is closely related to the effectiveness of methodological training of teachers. Well-trained teachers equipped with advanced pedagogical skills and methodologies can significantly improve student learning outcomes. This article examines the role of methodical training in improving the quality of education and emphasizes the importance of continuous professional development of teachers.

AIM: the purpose of this study is to study the impact of methodological training on the educational practice of teachers and its subsequent impact on the quality of education. The study is aimed at identifying the main elements of effective methodological education programs and making recommendations for optimizing the professional development of teachers.

MATERIALS AND METHODS: the study uses mixed methods using quantitative and qualitative data. Materials include teacher training manuals, educational research articles, and survey data from teachers who participated in instructional training programs. Methods include surveys, interviews, classroom observations, and analysis of student performance data. Quantitative data will be analyzed using statistical methods, while qualitative data will be analyzed through thematic coding and narrative analysis.

DISCUSSION AND RESULTS: reflective practice and constructive feedback are important components of methodological training. Encouraging teachers to reflect on their teaching practices and providing feedback can help them identify areas for

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

improvement and develop effective strategies. Teachers who engage in reflective practices and receive regular feedback show significant improvements in their teaching methods. This reflective approach fosters a culture of continuous improvement and professional growth.

CONCLUSION: research shows that methodological preparation plays a decisive role in improving the quality of education. Comprehensive curricula focusing on content knowledge, pedagogical skills, continuing professional development, technology integration, and reflective practice equip teachers to provide high-quality instruction.

Key words: pedagogue, problem-based education, student, pedagogical technology, method.

For citation: Boboxon E. Toshmatov. (2024) 'The role of methodological training of teachers in improving the quality of education', Inter education & global study, (4(2)), pp. 66–72. (In Uzbek).

Jamiyatning taraqqiyot darajasi, davrimizning axborot asriga aylanishi, ta'limdagi tarkibiy o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarni yetuk, vaziyatni tezda baholaydigan, har qanday holatda ham to'g'ri va oqilona qaror qabul qila oladigan malakali mutaxassis qilib tayyorlash uchun pedagogning an'anaviy usullarga tayanib dars o'tishi, o'quvchi - talabalarni boshqarishi yetarli emas. Pedagogning o'zi bu fanlarni yaxshi bilishi, dars berish metodlarini mahorat bilan qo'llay olishi, barcha pedagogik qobiliyatlarni namoyon eta olishi talab etiladi. Vatanning ravnaqi va uning kelajagi barkamol avlod faoliyatiga bevosita bog'liq bo'lganligi tufayli bo'lg'usi mutaxassislarni ertangi kun talabiga mos kadr qilib tayyorlash dolzarb vazifadir. Hozirgi ta'lim tizimida eng ko'p qo'llanadigan samarador o'qitish texnologiyasi – bu muammoli o'qitish sanaladi. Muammoli o'qitish texnalogiyasi samaradorligining ahamiyati keng bo'lib, u qator vazifalar bilan belgilanadi. Demak, uning asosiy vazifasi faol bo'lish, jarayonga undash va tafakkurda tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o'qitish ijodiy faol shaxs tarbiyasi maqsadlari bilan uzviy bog'liqdir. Muammoli o'qitish jarayonida talabaning mustaqilligi o'qitishning reproduktiv shakllariga nisbatin tibora o'sib boradi. Bugungi ta'lim tizimiga keng qo'llashga ehtiyoj ortib borayotgan mazkur texnologiya va uning mohiyatini o'qituvchi tomonidan talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy- tadqiqot usllarini vujudga keltiradi. Muammoli o'qitishning asosida inson faoliyatining muayyan qonuniyatlari, shaxs rivoji yotadi. Insonning bilish faoliyati jarayoni mantiqiy ziddiyatlarini hal qilishda ob'ektiv qonuniyatlari didaktik tamoyil – muammolikka tayanadi. O'qitishning hozirgi jarayoni tahlili, psixolog va pedagoglarning fikrlashicha, muammoli vaziyat, kutilmagan hayrat va mahliyo bo'lishdan boshlanadi, degan xulosalari to'g'ri ekanligini ko'rsatadi. O'qitish sharoitida insonning o'sha psixik, emotsional va hissiy xolati unga fikrlash va aqliy izlanish uchun o'ziga xos turtki vazifasini bajaradi. Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil eiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi. Shuningdek, o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. Shunday qilib, o‘qitishda muammoli vaziyat shunchaki «fikr yo‘lidagi kutilmagan to‘siq» bilan bog‘langan aqliy mashaqqat holati emas. U bilish maqsadlari maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o‘zlashtirilgan bilim izlari va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun akliy va amaliy harakat usullari yotadi. Bunda har qanday mashaqqat muammoli vaziyat bilan bog‘liq bo‘lavermasligini ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi. (yangi bilimlar avvalgi bilimlar bilan bog‘lanmasa, aqliy mashaqqat muammoli bo‘lmaydi).Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda talaba mashaqqat talab qilingan talab o’ekt (tushuncha, fakt)ning avval va ayni vaqtda ma’lum vazifa, masala bo‘yicha ichki yashirin aloqalarni anglab yetadi. Muammoli vaziyatdan chiqa olish hamma vaqt muammo, ya’ni nima ma’lum ekanligini, uning nutqiy ifodasi va yechimini anglash bilan belgilangan. Muammoli vaziyatning mazmunini tahlil qilinganda, u dastavval talabalarning mustaqil ahloqiy faoliyatidir. U talabani intellektual mashaqqat keltirib chiqargan sabablarini tushunishga, unga qarshi kurashish, muammoni so‘z bilan ifodalash, ya’ni faol fikr yuritishni belgilashga olib keladi. Bu o‘yinda izchillik yorqin ko‘rinadi: avvalo muammoli vaziyat yuzaga keladi, so‘ng o‘quv muammosi shakllanadi. Muammo uch tarkibiy qismdan iborat: ma’lum (berilgan vazifa asosida), noma’lum (ularni topish yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladi) va avvalgi bilimlar (talabalar tajribasi). Ular noma’lumki, topishga yo‘nalgan qidiruv ishlarini amalga oshirish uchun zarurdir. Avvalo talabaga noma’lum bo‘lgan o‘quv muammosi vazifasi belgilanadi va bunda uning bajarilish usullari hamda natijasi ham noma’lum bo‘ladi, lekin talabalar o‘zlaridagi avval egallagan bilim va ko‘nikmalarga asoslanib kutilgan natija yoki yechish yo‘lini izlashga tushadi.

O‘quv muammosini muhim belgilari quyidagilar: yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladigan noma’lumning quyilishi; talabalarda, noma’lumni topish yo‘lida izlanishlari amalga oshirish uchun zarur bulgan muayyan bilim zahirasining bo‘lishi.

Endilikdagi asosiy vazifamiz mustaqillikni mustaxkamlash, Vatanimizning porloq istiqbolini yaratish, ilg‘or mamlakatlar qatoridan o‘rin olish, xalqimizning turmushini, madaniyatini yuksaltirishdan iborat. Kelajakdagi faravonligimiz manbai esa mehnatda, ilmda, faxm-farosatlilikda. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari talaba yoshlar tarbiyasiga, ularning ilm olishi, aqlli va ma’naviy barkamol inson bo‘lib yetishishiga katta ahamiyat bermoqda.

Bugungi kunda metodlarni samarali qo‘llashning muhim mezonlaridan biri muammoli vaziyatni vujudga keltirish, muammoni kun tartibiga kuya bilishdir. Mutaxassislarning fikricha, muammoli o‘qitish talabaning mustaqilligini, fikrlash doirasini kengaytirishga olib keladi. Muammoli o‘qitish talabalarni faol bilish jarayoniga undab, tafakkurni ilmiy tadqiqotga yo‘naltiradi. Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiy tashkil etiladigan o‘ziga xos o‘qitish sharoitida yuzaga keladi. Muammoli vaziyatning moxiyati shuki u talaba tanish bo‘lgan ma’lumotlar bilganlari bilan yangi faktlar, xodisalar o‘rtasida xamda mukobil tanlov zaruriyati vujudga kelishi natijasida qaror qabul qilishning qiyinchiligi oqibatida kelib chiqadigan vaziyatdir.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Muammoli vaziyatning vujudga kelish talabalarning aqlini charhlaydi. Muammoni kelib chiqish sabablarini yechimini topishga undaydi. Shuning uchun ham hoh ma'ruza, hoh amaliy mashg'ulot, seminar bo'lsin o'qituvchining muammo qo'yishi, yoki muammoli vaziyat vujudga keltirishi katta ahamiyatga ega.

Muammolar qo'yilishi jihatidan qo'yidagi darajalarga bo'linadi:

1.Muammoni o'qituvchining o'zi qo'yadi, uni shakllantiradi, talabalarni mustaqil ravishda yechimini topishga, yechish yo'lini qidirishga yo'naltiradi.

2.O'qituvchi faqat muammoli vaziyatni vujudga keltiradi, talabalar muammoni mustaqil shakllantiradilar va yechimini izlaydilar.

3.O'qituvchi ma'lum bir muammoni ko'rsatmaydi, balki unga talabalarni ro'baru qiladi, ularni mustaqil faoliyatga yo'naltiradi.

4.Talabalarning o'zi mustaqil ravishda muammoni anglaydilar, uni shakllantiradilar va yechimini topishga xarakat qiladilar.

Mazkur metodning o'ziga xos jihati talabalar oldiga muammolar qo'yishdir. Muammoli ma'ruza savol, ya'ni muammo qo'yish orqali boshlanadi, ma'ruzachi tomonidan izchil va mantiqiy holda yechib beriladi yoki uni hal etish yo'llari ko'rsatiladi. Muammo o'quv materialining aniq mazmuni bilan bog'lih bo'ladi. Ta'lim jarayonida maqsadga erishish uchun muammoli o'qitishga qator talablar qo'yiladi: muammoli o'qitish ta'lim oluvchilar extiyojlarini qondirish va faolligini oshirishga yo'naltirilishi; taqdim etilgan muammoning ta'lim oluvchilar uchun aniq va tushunarli bo'lishi.

Bular: qo'yilgan muammoning muhimligi; muammo iloji boricha real hayotdan olinishi; ta'lim oluvchilar uchun muammo ma'lum ahamiyatga ega bo'lishi;-ta'lim oluvchilarning hamkorlikda faol ishlashi; -muammoga aloqador axborotlar; muammoni yechish.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda jahon ta'lim maydoniga kirishga yo'naltirilgan yangi ta'lim tizimi qaror topdi. Bu jarayon bilan bir vaqtda pedagogik o'quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ta'limdagi yondashuvlar tarkibi o'zgarmoqda va boshqacha munosabatlar, pedagogik mentalitetlar o'rnatilmoqda. Ta'lim tarkibi yangi protsessual mahoratlar, axborotlar bilan ishlash qobiliyatining rivojlanishi, ilmiy muammo va bozor amaliyotining ijodiy yechimining ta'lim dasturlarini individuallashtirishga qaratilishi bilan boyitilmoqda. Axborotning an'anaviy usullari-og'zaki va yozma nutq, telefon va global masshtabli telekommunikatsiyalarni ishlatish bilan almashtirilmoqda. Pedagogik ta'lim texnologiyalarning psixologik-pedagogik nuqtai nazardan takomillashuvining asosiy yo'nalishlari quyidagilar bilan ifodalanadi: 1) Yodlashdan eslab qolish funksiyasiga o'tish, ya'ni o'zlashtirilganini ishlatish imkonini beruvchi aqliy rivojlanish jarayoniga o'tish. 2) Bilimning assotsiativ statistik modelidan aqliy harakatning dinamik tarkibiy tizimlariga o'tish. 3) O'rtacha talabaga yo'naltirilganlikdan o'qitishning differensiallangan va individuallashtirilgan dasturlariga o'tish. 4) Talabaning tashqi motivatsiyasidan ichki ma'naviy irodali tartibga solinishigao'tish.

Ta'limda zamonaviy didaktika va ta'lim tarkiblarining samaradorligini oshirish, yangi g'oya va texnologiyalarning ilmiy ishlab chiqilishi va amaliy asoslanishi

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

ishlatilmoqda. Bunda har xil pedagogik tizim bilan o‘qitish texnologiyalari o‘rtasida bog‘liqlik, amaliyotda davlat ta’lim tizimining yangi shakllari (qo‘shimcha va alternativ) ning aprobatsiyasi, hozirgi zamon sharoitida o‘tmishning pedagogik tizimlarini qo‘llash muhim hisoblanadi. Bunday sharoitda pedagog, boshqaruvchi keng ko‘lamli zamonaviy innovatsion texnologiyalar, g‘oyalar, o‘quv muassasalari, yo‘nalishlarida ma’lum bo‘lgan narsalarni qayta ochishga vaqtini sarflashi kerak emas. Bugungi kunda savodli mutaxassis bo‘lish uchun ta’lim texnologiyalarining hammasini o‘rganish lozim. Pedagogik texnologiya tushunchasi 3 aspektda namoyon bo‘lishi mumkin:

1. Ilmiy aspekt-pedagogik texnologiya pedagogik fanning qismi sifatida ta’lim uslublari, tarkibi va maqsadlarini ishlab chiqadi va o‘rganadi, hamda shu bilan birga pedagogik jarayonlarini loyihalashtiradi.
2. Protsessual-tavsifiy aspekt - ta’limda rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun jarayonni tasvirlash, maqsad, tarkib, uslub va vositalar majmuidir.
3. Protsessual-amaliy aspekt - pedagogik (texnologik) jarayonning amalga oshishi, barcha pedagogik metodologik (uslubiy), instrumental vositalarning amal qilish

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda ta’limning samaradorligini oshirish imkoniyatlari, yangi g‘oya va texnologiyalarning ilmiy ishlab chiqilishi va amaliy asoslanishi qo‘llanilmoqda. Zamonaviy mutaxassis bo‘lish uchun ta’lim texnologiyalarining barchasini, shu jumladan pedagogik komponentlarini chuqur o‘rganib, tahlil qilish lozim. Pedagogik texnologiya ko‘proq sifatli natijaga erishishga qaratilgan, u asosan pedagogning mahoratiga, pedagogik texnologiya usullaridan mohirona foydalana olishiga, ilmiy-kasbiy tajribasiga, shaxsiy xususiyat hamda insoniy fazilatlariga bog‘liqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O‘quv uslubiy qo‘llanma.– T.: “Iqtisodiyot” 2019.
2. Abdullaeva R.M., Karimova Q.A. Ta’lim jarayonida interfaol usullardan foydalanish samaradorligi. Raqamli iqtisodiyot: iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini modellashtirish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash istiqbollari/ Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi Toshkent. 2019. 409 b.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Toshmatov Boboxon Egamshukurovich**, katta o’qituvchi, [**Тошматов Бобохон Эгамшукурович** Старший преподаватель], [**Bobokhan E. Toshmatov**, Senior teacher]; манзил: O'zbekiston, 100183, Toshkent, Chilonzor tumani, xiebon BUNYODKOR, 27 [адрес: Узбекистан, 100183, г. Ташкент, Чиланзорский район, проспект БУНЁДКОР, 27], [address: Uzbekistan, 100183, Tashkent, Chilonzor district, 27 BUNYODKOR avenue] bobohonjontoshmatov@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original paper

MEXANIKANI O'QITISHDA SIMULYATSIYA DASTURLARI VA VIRTUAL LABORATORIYALARNING AFZALLIKLARI

© Sh.E. Berdikulova[1]✉
[1]Guliston davlat universiteti, Sirdaryo, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: raqamli texnologiyalarning paydo bo'lishi ta'lim amaliyotini, xususan, mexanika ta'limi sohasida inqilob qildi. Simulyatsiya dasturlari va virtual laboratoriyalar talabalar uchun interfaol, immersiv va moslashuvchan muhitlarni ta'minlash orqali o'rganish tajribasini yaxshilashning innovatsion usullarini taklif qiladi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi mexanika ta'limida simulyatsiya dasturlari va virtual laboratoriyalarning afzalliklarini o'rganishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot miqdoriy va sifatli tadqiqotlarni birlashtirgan aralash usullardan foydalanadi. Materiallarga turli xil simulyatsiya dasturlari, virtual laboratoriya platformalari va o'quv resurslari kiradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: muhokama an'anaviy o'qitish usullarini to'ldirish uchun ushbu texnologiyalarni o'quv dasturiga integratsiyalash va bu orqali yanada yaxlit ta'lim tajribasini yaratish muhimligini ta'kidlaydi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, simulyatsiya dasturlari va virtual laboratoriyalardan foydalanadigan talabalar faqat an'anaviy usullarga tayanadiganlarga qaraganda yuqori darajadagi ishtirok, tushunish va mahoratni namoyish etadilar.

XULOSA: tadqiqot shuni ko'rsatadiki, simulyatsiya dasturlari va virtual laboratoriyalar mexanika ta'limida muhim afzalliklarni taklif qiladi, talabalarning o'rganishi va faolligini oshiradi, shu bilan birga moslashuvchan, xavfsiz va tejamkor echimlarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: simulyator, virtual modellar, timsoh fizikasi, virtual dizayner, fizika, virtual laboratoriya, tajriba, kompyuter, dasturiy vosita, intellektual salohiyat.

Iqtibos uchun: Berdikulova Sh.E. Mexanikani o'qitishda simulyatsiya dasturlari va virtual laboratoriyalarning afzalliklari. // Inter education & global study. 2024. №4(2). B.73–79.

ПРЕИМУЩЕСТВА ПРОГРАММ МОДЕЛИРОВАНИЯ И ВИРТУАЛЬНЫХ ЛАБОРАТОРИЙ В ОБРАЗОВАНИИ МЕХАНИКИ

© Ш.Э.Бердикулова[1]✉
[1]Термезский университет экономики и сервиса, Термез, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

ВВЕДЕНИЕ: появление цифровых технологий произвело революцию в образовательной практике, особенно в области механического образования. Программы моделирования и виртуальные лаборатории предлагают инновационные способы улучшить процесс обучения, предоставляя учащимся интерактивную, захватывающую и гибкую среду.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является изучение преимуществ программного обеспечения для моделирования и виртуальных лабораторий в обучении механике.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы смешанные методы, сочетающие количественные и качественные исследования. Материалы включают в себя различное программное обеспечение для моделирования, виртуальные лабораторные платформы и учебные ресурсы.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: обсуждение подчеркивает важность интеграции этих технологий в учебную программу, чтобы дополнить традиционные методы обучения и тем самым создать более целостный опыт обучения. Результаты показывают, что учащиеся, использующие программы моделирования и виртуальные лаборатории, демонстрируют более высокий уровень вовлеченности, понимания и квалификации, чем те, кто полагается исключительно на традиционные методы.

ВЫВОДЫ: исследование показывает, что программы моделирования и виртуальные лаборатории предлагают значительные преимущества в обучении механике, повышая уровень обучения и вовлеченности студентов, обеспечивая при этом гибкие, безопасные и экономически эффективные решения.

Ключевые слова: симулятор, виртуальные модели, крокодиловая физика, виртуальный конструктор, физика, виртуальная лаборатория, эксперимент, компьютер, программный инструмент, интеллектуальный потенциал.

Для цитирования: Бердикулова Ш.Э. Преимущества программ моделирования и виртуальных лабораторий в образовании механики. // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 73–79.

ADVANTAGES OF SIMULATION PROGRAMS AND VIRTUAL LABORATORIES IN EDUCATION OF MECHANICS

© Shahnoza E. Berdikulova[1]✉
[1]Gulistan state university, Sirdaryo,Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the advent of digital technologies has revolutionized educational practices, particularly in the field of mechanical education. Simulation programs and virtual labs offer innovative ways to enhance the learning experience by providing interactive, immersive, and flexible environments for students.

AIM: the objective of this study is to investigate the advantages of simulation software and virtual laboratories in mechanics education.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

MATERIALS AND METHODS: the study uses mixed methods combining quantitative and qualitative research. Materials include a variety of simulation software, virtual lab platforms, and learning resources**.**

DISCUSSION AND RESULTS: the discussion highlights the importance of integrating these technologies into the curriculum to complement traditional teaching methods and thereby create a more holistic learning experience. Results show that students who use simulation programs and virtual labs demonstrate higher levels of engagement, understanding, and proficiency than those who rely solely on traditional methods.

CONCLUSIONS: the study shows that simulation programs and virtual laboratories offer significant advantages in mechanics education, increasing student learning and engagement, while providing flexible, safe and cost-effective solutions.

Key words: simulator, virtual models, crocodile physics, virtual designer, physics, virtual laboratory, experiment, computer, software tool, intellectual capacity.

For citation: Shahnoza E. Berdikulova. (2024) 'Advantages of simulation programs and virtual laboratories in education of mechanics', Inter education & global study, (4(2)), pp. 73–79. (In Uzbek).

Muloqot Bugungi kunda axborotning rivojlanishi texnologiya tezlashdi. Ma'lumot va kommunikatsiya texnologiyalari yetib keldi inson hayotining turli jabhalari, shu jumladan ta'lim sohasiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. 21-asrda axborot texnologiya, fikrlash qobiliyati va muammolarni hal qilish talabalar uchun juda muhimdir bilimlarini oshirish va hissa qo'shish zamonaviy jamiyatning rivojlanishida katta xizmat ko'rsatdi. Kompyuter texnologiyalari sezilarli darajada ta'limga, shu jumladan fizikaga ta'sirini o'rganish bo'yicha izlanishlar olib borildi.

Mexanika fizikaning asosiy kurslaridan biri bo'lib mexanika haqida tushuncha o'rta maktab va universitetda har doim fizika fanining kirish mavzusi bo'lib kelgan. Mexanika tushunchasi 1D va 2D harakat tushunchalari, qonunlari harakat, aylanma harakat, energiya va siljish, chiziqli impuls va to'qnashuvlar, qattiq jismlarning aylanishi, burchakli impuls, statik muvozanat, elastiklik, universal tortishish va suyuqliklar mexanikasi tushunchalaridan iborat. Bundan tashqari, fizika tushunchalarini o'rgatish yetarlicha tajriba talab qiladi. Ba'zida mexanika tushunchalari mavhum bo'lib, ommaviy axborot vositalarini vizualizatsiya qilishni talab qiladi.

Fizika o`qitishda turli modellardan foydalanish yangi usul emas. Qadim zamonlardan beri fizik modellar fizikaning barcha sohalarini o'rganish uchun ishlatilgan. Simulyatorlardan o'quv jarayonining deyarli barcha jabhalarida: boshlang'ich ta'limdan tortib oliy o'quv yurtlarigacha foydalanish mumkin. So'nggi paytlarda simulyatorlar tibbiyot sohasida ham qo'llanilmoqda.

Fizik jarayonlarda simulyator yordamida real ob'ektlarning virtual modellarini yaratish ularni laboratoriya jihozlari bilan bajarishga qulay alternativ hisoblanadi. Virtual simulyatorlar real jihozlarsiz virtual holatda jismoniy jarayonni modellashtirish va virtual

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

laboratoriya ishlarini olib borish imkonini beradi. Bu o'z-o'zidan nafaqat katta mablag'ni tejash, balki ularga umuman ehtiyoj tug'dirmaydi. Simulyatorlar deyarli hech qanday moliyaviy resurslarni talab qilmasligi, talabalar tomonidan yuzlab, agar kerak bo'lsa, minglab marta ba'zi tadqiqotlarni o'tkazishga imkon beradi. Kompyuter simulyatsiyasining yana bir afzalligi shundaki, ulardan foydalanishda xavfsizlik qoidalari mavjud emas. Ba'zi tadqiqotlarni o'tkazish, masalan, yadro fizikasi hodisalari, inson hayoti uchun xavf tug'diradi. Bunday tadqiqotlar nafaqat katta miqdordagi moliyaviy xarajatlarni talab qiladi, balki tadqiqot olib borayotganlarning hayotini ham xavf ostiga qo'yadi.

Simulyatorlardan foydalanish jarayonida o'quvchilar dars davomida olgan bilimlarini fizik jarayonlarga amalda qo'llaydilar. Bu izlanishlar jarayonida ular nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirish bilan birga bilimlarini chuqurlashtirishga bevosita hissa qo'shadilar. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarni "tinglovchi" rolida qolib ketmasdan, o'z o'qishlarida bevosita ishtirokchilarga aylantiradi. Bu o'z navbatida talabalarning o'qishga, izlanishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bunday treningni tashkil qilish uchun biz ta'lim tizimida inqilobiy o'zgarishlarni keltirib chiqargan Crocodile Clips kompaniyasi tomonidan yaratilgan dasturiy ta'minot va Interaktiv fizika dasturlariga e'tibor qaratamiz.

"Crocodile Physics"dastur [7] muhiti fizik hodisalarni virtual modellarini yaratishda mexanika bo'limi, molekulyar fizika bo'limi, geometrik optika bo'limi va elektromagnit to'lqinlar bo'limlaridagi fizik hodisalarni virtual tajribalar modellarini yaratish va tajribalarda kuzatish imkoniyatidan foydalansa bo'ladigan dasturiy vositadir. Bu dastur "fizik hodisalarni kuzatish, virtual tajribalar o'tkazish va turli murakkablik darajasidagi fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish imkoniyatini beradi".

Laboratoriya sharoitida o'tkazish imkoniyati yo'q bo'lgan tajribalarni amalga oshirish va kuzatish, tajribada qatnashayotgan fizik kattaliklarning qiymatini juda yaxshi aniqlik bilan hisoblash imkoniyatini beradi, fizik hodisada qatnashayotgan fizik kattalik bilan boshqa fizik kattaliklar o'rtasidagi grafikli bog'lanishni hosil qilish, virtual yaratilgan modellarni saqlash va kompyuter xotirasida saqlab takror foydalanish mumkin.

Crocodile Clips Ltd dasturi imkoniyatlari ko'p yillar davomida takomillashtirib kelinmoqda. Bu dasturiy ta'minotdan vositasidan ham umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari uchun foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Dastur imkoniyatlari doirasida virtual namoyish tajribalari, virtual laboratoriya ishlari va masala yechishda qo'llasa bo'ladi. Bu kabi virtual konstruktor dasturlar ta'lim tizimida yangicha qarashga zamin yaratadi. Yuqorida ko'rsatilgan simulyatorni fizika darslarida foydalanish shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarga mustaqil holda o'rganishlari uchun kompyuter modellarini berilganda, o'quvchilarning o'zlashtirishlari past bo'lganligini ko'rsatdi

Fizika fanini pedagogik dasturiy vositalar asosida o'qitishda o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy tadqiqotlar eng muhim dolzarb muammolar bo'lib, fizik hodisalarning kompyuter modellari orqali o'quvchilarning tafakkuri rivojlantiriladi. Hozirgi vaqtda kompyuter texnologiyalari yordamida fizik hodisalarning modellarini va virtual fizik tajribalarni bajarish maktab o'quvchilarining intellektual salohiyatini

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

rivojlantirishga amaliy ta’sir ko’rsatmoqda. Ko’pgina fizik hodisalarning kompyuter modellari fizik hodisani tushuntirishda juda oson bo’lib, o’quvchilarning bilish qobiliyatlari va tasavvurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, moddiy nuqta, ideal gaz, garmonik osilator, Rezerford tajribasi modeli, zaryadlangan zarralar shular jumlasidandir.

Ta’limda fizik modellar ham keng qo’llaniladi. Fizikani o`qitishda virtual fizik tajribalar ko`rinishidagi o`quv kompyuter modellari yuqori o`rin tutadi. Virtual fizika tajribalari fizika fanidan standart laboratoriya ishlarini vizual tasvirlashdan tashqari, sinfda bajarib bo’lmaydigan turli fizik hodisalarni ham ko’rsatishi mumkin. Bu o‘quvchilarning aqliy tafakkurini rivojlantirishning asosi ekanligidan kelib chiqib, fizika fanini pedagogik dasturiy vositalardan foydalangan holda o‘qitishni yo‘lga qo‘yish va o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy uslubiy tadqiqotlar olib borish asosiy maqsadlarimizdan biriga aylanishi kerak. Fizikani eksperimental qismsiz o‘rganib bo‘lmaydi. Ta’limning yangi standartlariga o‘tish, ta’lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish zarurligi haqida ko‘p gapirish mumkin.

Hozirgi kunda turli mavzularda virtual laboratoriya ishlariga ko’proq e’tibor berilmoqda. Berilayotgan haqiqiy laboratoriya ishini butunlay o’zgartirmasdan, faqat ularni to’ldirilishi kerak. Bundan tashqari, virtual laboratoriya mashg’ulotlari faqat o’quvchi haqiqiy qurilmalar bilan tanishgandan so’ng mashg’ulotlarda qo’llanilishi kerak.

Fizikada laboratoriya ishi dasturning asosiy bo’limlariga bo’lingan. Laboratoriya ishlarining 3D variantlari mavjud. Virtual laboratoriya – bu haqiqiy o’rnatish bilan bevosita aloqada bo’lmasdan yoki uning to’liq yo’qligida eksperiment o’tkazishga imkon beradigan apparat-dasturiy kompleks. Bunday holda, “virtual laboratoriya” va “virtual masofaviy laboratoriya” tushunchalarini farqlash kerak. Virtual laboratoriya asosi kompyuter dasturi yoki muayyan jarayonlarni kompyuterda modellashtirishni amalga oshiradigan tegishli dasturlar majmui hisoblanadi. Masofaviy virtual laboratoriya – bu turli ilmiy markazlarga tegishli bo’lgan va internet orqali o’zaro manfaatli hamkorlik aloqalari bilan bog’liq bo’lgan bir necha olimlarning guruhli tashkiliy tuzilmasi.An’anaviy laboratoriya ishi bilan taqqoslaganda, virtual laboratoriya ishi bir nechta afzalliklarga ega.

Virtual laboratoriya ishi esa fotoelektrik effekt, Ruterfordning alfa zarralarini tarqalish tajribasi, kristall panjarasini elektron tarqalish orqali aniqlash, gaz qonuniyatlarini o’rganish, yadroviy reaktorlar va boshqalar kabi hodisalarni o’rganishga imkon beradi[1].

Ikkinchidan, laboratoriyada kursi mavjud bo’lmagan jarayonlarni taqlid qilish mumkin. Xususan, molekulyar fizika va termodinamikadagi klassik laboratoriya ishlarining aksariyati yopiq tizimlar bo’lib, ularning chiqishida ma’lum miqdordagi elektr miqdorlari o’lchanadi, shundan kerakli miqdorlar elektrodinamika va termodinamika tenglamalari yordamida hisoblab chiqiladi.

Fizikaning ushbu sohalarida virtual laboratoriya ishlarini bajarish jarayonida talabalar o’rganilayotgan fizik-kimyoviy hodisalar va real tajribada kuzatib bo’lmaydigan jarayonlarning dinamik rasmlarini kuzatish uchun animatsion modellardan foydalanishlari mumkin, shu bilan birga, eksperiment bilan bir qatorda fizik miqdorlarning mos keladigan

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

grafik tuzilishini kuzatishlari mumkin.

INTRODUCTION: self-development competencies are crucial for students' personal and academic growth, fostering skills such as self-regulation, critical thinking, and lifelong learning. Technology lessons provide an ideal context for cultivating these competencies, as they combine hands-on activities with problem-solving and project-based learning. This article explores the technology for improving students' self-development competencies in the process of technology lessons, focusing on effective strategies and tools.

AIM: the aim of this study is to investigate the methods and technologies that can enhance students' self-development competencies during technology lessons. The study seeks to identify best practices, assess their impact on student outcomes, and offer recommendations for educators to effectively integrate these methods into their teaching.

MATERIALS AND METHODS: the study employs a mixed-methods approach, combining quantitative and qualitative research. Materials include digital tools, project-based learning frameworks, and self-assessment instruments. Methods involve classroom observations, surveys of students and teachers, and analysis of student projects and self-development progress. Data analysis focuses on evaluating the effectiveness of various strategies and technologies in fostering self-development competencies.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings indicate that integrating digital tools and project-based learning into technology lessons significantly enhances students' self-development competencies. Key strategies include the use of online platforms for collaborative projects, digital portfolios for self-assessment, and interactive simulations for problem-solving.

CONCLUSION: the study concludes that technology lessons, when designed with a focus on self-development, can effectively enhance students' competencies in self-regulation, critical thinking, and lifelong learning.

Key words: technology lessons, innovative technology, gauge control, pedagogical technology.

For citation: Sobir S. Igamov. (2024) 'Technology for improving students' self-development competencies in the process of technology lessons', Inter education & global study, (4(2)), pp. 111–117. (In Uzbek).

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Jahonda fan-texnika va texnologiyalar jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan hozirgi sharoitda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish uchun ijodiy fikrlovchi, muammolarning yangi yechimlarini doimiy izlovchi ijodkor mutaxassislarga bo'lgan talab va ehtiyoj yanada kuchayib bormoqda. O'quvchilarni ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashda texnologiya fanidan tashkil etiladigan mashg'ulotlar, darsdan tashqari ishlarning imkoniyatlaridan keng foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham, bugungi kunda texnologiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish, mustaqil fikrlash va ilmiy izlanuvchanlik sifatlarini tarkib toptirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni yetuk, barkamol shaxslar sifatida tarbiyalash, ularni ijodkorlik faoliyatiga tayyorlash usullarini takomillashtirish, ularning bo'lajak kasbiy faoliyatida faol ishtirok etishini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "kichik yoshdan o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish hamda kasb tanlash, kasbiy o'sishini mustaqil rejalashtirish, zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirish"[1] kabi vazifalar belgilanib, bu borada o'quvchilarni xalq hunarmandchiligiga o'rgatish jarayonida ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirishning mantiqiy strukturali bosqichlarni tadbiq etishning zamonaviy texnologiyalarini aniqlash, shuningdek dars va darsdan tashqari sharoitlarda o'quvchilar ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchining ijodkorligi, avval, uning har qanday faoliyat jarayonidagi: o'ziga xos usul bilan masala yechish, insho yozish, tajriba ishlari, texnologiya darslari va hokazolardagi mustaqil fikrlashida namoyon bo'lishi lozim. O'quvchining ijodi uning olgan bilimlarini hayotda ko'rgan dalil va hodisalarga bog'lay olishi, ularni to'g'ri baholab, dastlabki ma'lumotlarni tahlil va sintez qila bilishidir[8].

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "kompetensiya" tushunchasining mohiyat-mazmuni uning majmuaviy xususiyatida, ya'ni o'quv faoliyatini amalga oshirish uchun har biri teng qiymatli va muhim ahamiyatga ega bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar, qadriyatlar, yo'nalishlar va munosabatlar integratsiyasida o'z ifodasini topadi. Tashkiliy-texnologik kompetensiyalar mehnat qurollarini tanlash, zarururiy materiallarni izlash, ularni qayta ishlashning texnologik usullarini aniqlash, ishlarni rejalashtirish va mehnat jarayonini o'rganishdagi innovatsion yondashuv bilan uzviy bog'liq[10; 16 b].

"Texnologiya" ta'lim sohasida taqdim etilgan texnologik kompetentsiyalarning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi ustuvorligidan kelib chiqib ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

O'quvchilar texnologiya ta'limining turli sohalari, yo'nalishlari bo'yicha bilim olishlari, tushuncha va tasavvurlarga ega bo'lishlarida turli o'quv-tarbiyaviy tadbirlar ham muhim o'rin

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

egallaydi. Biz o‘quv-tarbiyaviy tadbirlarni belgilashda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida, maktabdan tashqari ta’lim muassasalarida, ishlab chiqarish korxonalarida, ustaxonalarda, mahalla, jamoatchilik orasida o‘quvchilar ishtirokida o‘tkaziladigan o‘quv-o‘rganish, tarbiya maqsadlarida tashkil etiladigan, maktab o‘quv rejalari va dasturlari maqsad, vazifalariga zid bo‘lmagan holda tashkil etiladigan tadbirlar majmuini nazarda tutdik.

Texnologiya ta’limi amaliy mazmundaligi va ishlab chiqarish bilan bevosita va uzviy bog‘liqligi tufayli turli o‘quv-tarbiyaviy tadbirlarni bolalar ishtirokida o‘tkazilishining ahamiyati juda kattadir[8].

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablaridan o‘quvchilarga faqatgina bilim berish emas, balki ularni har tomonlama rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va umustaqil, tanqidiy, innovatsion fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish talab qilinmoqda. O‘zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta’lim shakli innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan ta’limdir.

Umumiy o’rta ta’lim maktablarida utiladigan fanlar ichida texnologiya fani o’quvchilarni hayotga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.Qaysidir ma’noda texnologiya darlarini “O’quvchilarni hayotga tayyorlash laboratoriyasi” deb qarashimiz mumkin.

Texnologiya darslari mazmuni 5-7 sinflarda ikki qismdan qiz bolalar va o’g’il bolalar mehnatidan tashkil topgan. Bunda qiz bolalar oddiy chok turlaridan boshlab tayyor keyim tikishgacha, yoki oddiy salat tayyorlashdan tortib milliy taomlarni tayyorlash jarayonlarini o’rgansalar , o’g’il bolalar esa yog’och va metal turlaridan tortib eng oddiy ta’mirlash ishlari, yog’och, metall va polimerlardan tayyor buyumlar tayyorlash kabi texnologik jarayonlarni o’rganadilar.Texnologiya darslarida o’quvchilar deyarli barcha turdagi tabbiy va suniy materiallar bilan ishlaydilar. Texnologiya darslari jarayonida o’quvchilar haomashyolardan tayyor buyumlar va istemol mollari (salatlar, taomlar) tayyorlash jarayonini o’rganganliklari, materiallar bilan ishlaganliklari uchun darslarda quyidagi tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish yuqori samara beradi.

1. Maqsad. Texnologiya darslarida o’quvchilar tomonidan tayyorlanayotgan buyum turmushda kerakli bo’lsin va aniq bir vazifani bajarsin.

Ko’zlanayotgan natija. O’quvchilarda vaqtni rejalashtirish o’zi amalga oshirmoqchi bo’lgan vazifaning axamiyatini anglab yitishi biror bir hayotiy zarur buyumni yasash jarayonida unumli mehnat faoliyati bilan band bo’lish imkonini beradi (erishilgan natija qo‘yilgan maqsadga qanchalik ko‘p darajada mos bo‘lsa, samaradorlik shuncha yuqori hisoblanadi).

2. Maqsad .Texnologiya darslarida tayyorlanayotgan buyumlar sifatli bo’lsin.

Ko’zlanayotgan natija. O’quvchilarda bugungi bozor iqtisodi sharoitida sifatli maxsulotlargagina talab bo’lishligi, raqobatbardosh maxsulotlar ishlab chiqarish davir talabi ekanligi tug’rididagi tushunchalarni shakllanish imkonini beradi.

3.Maqsad.Tayyorlanayotgan buyum estetik jixatdan chiroyli bo’lsin

Ko’zlanayotgan natija. O’quvchilarda estetik did, guzallikni his etish, uni yaratish va qadirlash kunikmalarini shakllantiradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

4. Maqsad.O’quvchi ushbu jarayonga imkoni boricha kam xom ashyo sraflagan xolda yuqoridagi uchta maqsadni amalga oshirsin.

Ko’zlanayotgan natija. O’quvchilarda tejamkorlik kam vaqt, kuch va xomashyo sarflab samarali natijaga erish kunikmalarini shakllantiradi (bir xil natijaga erishish uchun sarf-xarajatlar qancha kam bo‘lsa, samaradorlik shuncha yuqori hisoblanadi) .

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish va samarali natijaga erishishda pedagogik texnologiyalarni ahamiyati beqiyos hisoblanadi.

5 sinf texnologiya darsligida “Yog’ochga ishlov berish texnologiyasi” bo’limida “To’g’ri tirnoqli birikma hosil qilishni o’rganish” mavzusidagi amaliy mashg’ulotda o’quvchilar yog’ochlarni biriktirish usullarini o’rganadilar. Kuzatishlarimiz jarayonida shu narsa ma’lum bo’ldiki o’quvchilar ushbu mavzuni o’zlashtirish jarayonida bir qancha qiyinchiliklarga duch keladilar.

Bular: o’quvchilarning aksariyati belgilangan vaqt mobaynida tirnoqli birikmani yasay olishmasligi; yog’och materiallarining isrofgarchiligi; kutilgan sifat va aniqlikning kamligi yoki yitarli emasligi.

O’quvchilar jamoasining hammasi ushbu mavzuni o’zlashtira olmasligi va boshqalar

Biz taklif etayotgan “Etalon” texnoogiyasini qo’llash orqali ushbu mavzuni o’rgatish jarayonidagi vaqt va xom ashyo sarfi bir necha barobarga qisqardi va o’quvchilar tayyorlagan birikmalar sifati esa bir necha barobarga oshdi.

O’quvchilarni yog’och bilan ishlashga o‘rgatish jarayonida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan evristik metodlar asosida ilmiy-metodik tavsiyalar, innovatsion texnologiyalar ishlab chiqildi. Jumladan, “Etalon” texnologiyasi asosida baholash mezonlari ishlab chiqildi hamda amaliyotga tatbiq etildi[6].

Etalon (frans. — namuna) — biror narsaning ideal namunasi, o‘lchovi yoki turi (tipi); fan va texnikaning muayyan taraqqiyot darajasida eng yuqori aniqlikka erishilgan o‘lchov birliklarini qayta tiklash, saqlash va tarqatish uchun xizmat qiladigan namuna o‘lchovlar hamda o‘lchash asboblari. Har qanday buyum yoki o‘lchash natijasi etalonga solishtiriladi.

“Etalon” texnologiyasi asosida baholash mezonlari o‘quvchilarni yog’och bilan ishlashga o‘rgatish jarayonida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyalarining rivojlanganligini aniqlash maqsadida tayyor mahsulotlarni qoliplari “Etalon” doskaga joylashtirilib chiqiladi. O‘quvchilar tayyorlagan buyumlar variativligiga ko‘ra “Etalon” doskadan muntazam tekshirib turiladi. Bu o‘quvchilarnin o‘z-o‘zini tekshirish va baholashga xizmat qiladi. O‘qituvchining ishni engillashtiradi. O‘quvchilarning mustaqil ishlash, ish samaradorligini oshirish, tayyorlanayotgan buyum sifat darajasini oshirishga xizmat qiladi. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini ob’ektiv baholash va olingan malakalarni muntazam takomillashtirish, darajasini oshirish imkonini beradi.

1.O‘quvchilar mehnat faoliyatining tashkil etishda ularning yoshi, shaxsiy, ruhiy, fiziologik, jismoniy va aqliy xususiyatlari, pedagogik va metodik, huquqiy mezonlar, mehnat qonunchiligi, sanitariya-gigiena qoidalari va mehnat xavfsizligi talablari milliy, mahalliy, an’anaviy va noan’anaviy urf-odatlar, ijtimoiy, iqtisodiy, etnik sharoitlar, xususiyatlar hisobga

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

olinishi zarur. O‘quvchilar mehnat faoliyati maktablardagi o‘quv rejalari maqsad va vazifalari bilan uyg‘unlashtirilmog‘i lozim.

2. Texnologiya darslarida o‘quvchilarni yog’och bilan ishlashga o‘rganishda o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik tizimi pedagogik shart-sharoitlari aniqlandi va asoslandi.

3. Texnologiya darslarida o‘quvchilarga yog’och bilan ishlashni o‘rgatishda o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyalarini rivojlantirishning “Etalon” texnologiyasi ishlab chiqildi va ilmiy asoslandi.

4. Texnologiya fanidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda “Etalon” texnologiyasidan foydalangan holda o‘quvchilar o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion yondashuvli tuzilmasi yaratildi va amaliyotga tatbiq etildi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni// Xalq so‘zi. –T: 2019 yil 30 aprel. № 88 (7318).
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008. (A. Madvaliev tahriri ostida)
3. Shomirzaev M.X. Karimov I.I. Texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Universitet”, 2020. - 192 b.
4. Sharipov Sh.S. va b. Texnologiya ta’limi: Darslik, 5- sinf. -T.: “Sharq”, 2015. -237 b.
5. S.S.Igamov O‘quvchilarni xalq hunarmandchiligiga o‘rgatish jarayonida ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari Dis.p.f.f.d.(PhD)-S.2022- 145 b.
6. Mamatov D.N va b. O‘quvchilarni intelektual qobiliyatlarini aniqlash va tashxis qilish.Metodik tavsiyanoma. T.: 2014.77b.
7. Sharipov Sh.S., Muslimov N.A Texnik ijodkorlik va dizayn : O‘quv qo‘llanma T.2007
8. Zokirov I., Turdiev N., Sharipov Sh. Ixtisoslashgan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim mazmuni va uning faoliyatini baholash mezonlari. Metodik qo‘llanma. – T:. 2010. – 64 b.
9. Zaripov L.R. Innovatsion yondashuv asosida 5-7-sinf o‘quvchilarida texnologik kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi. Dis. … p.f.f.d. (PhD) .–T.: 2020. - 150 b

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Sobir Igamov Salimovich**, dotsent [**Собир Игамов Салимович,** доцент], [**Sobir S. Igamov**, Associate Professor]; manzil: 100007, O'zbekiston, Samarqand viloyati, Shahar: Kattaqo'rg'on, Amir Temur ko'chasi [адрес: 100007, Узбекистан, Самаркандская область, Город: Каттакорган, улица Амира Темура], [address: 100007, Uzbekistan, Samarkand region, City: Kattakorgan, Amir Temur street];; E-mail: maqsuda_pedagog@mail.ru

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original paper

DARSLAR TIPOLOGIYASI VA O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

© N.J. Isakulova[1]✉

[1] O‘zbekiston jahon tillari universiteti,Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: darslarning tipologiyasini va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish samarali o‘qitish va o‘qitish uchun zarurdir. Turli xil dars turlari turli xil ta'lim maqsadlariga, talabalar ehtiyojlariga va mavzularga javob beradi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi darslarni alohida turlarga bo'lish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va har bir turni ta'minlovchi pedagogik tamoyillarni o'rganishdir. Tadqiqot o'qituvchilarga darsni rejalashtirish va o'tkazishni optimallashtirish uchun amaliy tushunchalar va ko'rsatmalar berishga intiladi.

MATERIALLAR VA USULLAR: tadqiqotda o‘quv adabiyotlari, o‘quv dasturlari bo‘yicha qo‘llanmalar va sinf amaliyotiga oid amaliy ishlar tahlili asosida sifatli tadqiqot usuli qo‘llaniladi. Materiallar o'z ichiga darsliklar, ilmiy maqolalar va darsni rejalashtirish va o'qitish strategiyalari bo'yicha o'quv resurslarini o'z ichiga oladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: ma'ruza asosidagi darslar an'anaviy va o'qituvchiga yo'naltirilgan bo'lib, birinchi navbatda o'qituvchidan talabalarga bilimlarni tarqatishga qaratilgan. Bu usul yuqori darajada tuzilgan bo‘lib, o‘qituvchi darsning mazmuni va sur’atini nazorat qiladi. Ma’ruzalar, ayniqsa, yangi material bilan tanishtirish, to‘liq ma’lumot berish, murakkab ma’lumotlarni aniq va tashkiliy tarzda yetkazishda samaralidir.

XULOSA: tadqiqot shuni ko'rsatadiki, har biri o'ziga xos xususiyatlarga va pedagogik yondashuvlarga ega bo'lgan turli xil dars turlari o'qitish va o'qitish natijalarini sezilarli darajada oshirishi mumkin. O‘qituvchilar darslarni tanlash va loyihalashda o‘quvchilarning o‘ziga xos ehtiyojlarini, mavzuni va o‘quv maqsadlarini hisobga olishlari kerak.

Kalit so‘zlar: dars, darsning diagnostika (tashxislash) bosqichi, darsning prognozlash bosqichi, loyihalash(rejalashtirish) bosqichi, kognitiv tasnifidagi darslar

Iqtibos uchun: Isakulova N.J. Darslar tipologiyasi va o`ziga xos xususiyatlari. // Inter education & global study. 2024. №4(2). B.118–126.

ТИПОЛОГИЯ УРОКОВ И ИХ ОСОБЕННОСТИ

© Н.Ж. Исакулова[1]✉

[1]Узбекский университет мировых языков, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

ВВЕДЕНИЕ: понимание типологии уроков и их характеристик имеет важное значение для эффективного преподавания и обучения. Различные типы уроков соответствуют различным целям обучения, потребностям учащихся и темам.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является разделение уроков на отдельные типы, определение их специфических особенностей и изучение педагогических принципов, лежащих в основе каждого типа. Исследование направлено на то, чтобы предоставить учителям практические идеи и рекомендации по оптимизации планирования и проведения уроков.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использован качественный метод исследования, основанный на анализе учебной литературы, учебных пособий и тематических исследований, связанных с аудиторной практикой. Материалы включают учебники, исследовательские статьи и учебные ресурсы по планированию уроков и стратегиям преподавания.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: лекционные занятия являются традиционными и ориентированы на преподавателя и ориентированы, прежде всего, на передачу знаний от учителя ученикам. Этот метод жестко структурирован, и преподаватель контролирует содержание и темп урока. Лекции особенно эффективны для введения нового материала, предоставления исчерпывающей информации и передачи сложной информации в ясной и организованной форме.

ВЫВОДЫ: исследования показывают, что различные типы уроков, каждый из которых имеет уникальные характеристики и педагогические подходы, могут значительно улучшить результаты преподавания и обучения. Учителя должны учитывать конкретные потребности учащихся, предмет и цели обучения при выборе и планировании уроков.

Ключевые слова: урок, диагностический (диагностический) этап урока, этап прогнозирования урока, проектный (планирующий) этап, уроки по когнитивной классификации.

Для цитирования: Исакулова Н.Ж. Типология уроков и их особенности. // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 118–126.

TYPOLOGY OF LESSONS AND THEIR SPECIFIC CHARACTERISTICS

© Nilufar J. Isakulova[1]✉
[1]Uzbekistan University of World Languages, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: understanding the typology of lessons and their characteristics is essential for effective teaching and learning. Different lesson types meet different learning goals, student needs, and topics.

AIM: the purpose of this study is to divide lessons into separate types, to determine their specific characteristics, and to study the pedagogical principles that support each type.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

The research seeks to provide teachers with practical insights and guidelines for optimizing lesson planning and delivery.

MATERIALS AND METHODS: the study uses a qualitative research method based on the analysis of educational literature, curriculum guides, and case studies related to classroom practice. Materials include textbooks, research articles, and learning resources on lesson planning and teaching strategies.

DISCUSSION AND RESULTS: lecture-based classes are traditional and teacher-centered, focusing primarily on the transfer of knowledge from the teacher to the students. This method is highly structured, and the teacher controls the content and pace of the lesson. Lectures are especially effective in introducing new material, providing comprehensive information, and conveying complex information in a clear and organized manner.

CONCLUSIONS: research shows that different types of lessons, each with unique characteristics and pedagogical approaches, can significantly improve teaching and learning outcomes. Teachers should consider the specific needs of students, subject matter, and learning goals when choosing and designing lessons.

Key words: LESSON, diagnostic (diagnostic) stage of the lesson, forecasting stage of the lesson, design (planning) stage, lessons in cognitive classification

For citation: Nilufar J. Isakulova. (2024) 'Typology of lessons and their specific characteristics', Inter education & global study, (4(2)), pp. 118–126. (In Uzbek).

Dars – maktab ta'limining asosiy tashkiliy shakli. Dars – muayyan miqdordagi doimiy o'quvchilar tarkibi bilan qat'iy tartibda uyushtiriladigan va aniq maqsadga yo'naltirilgan didaktik tadbirdir. Dars – insoniyat tomonidan minglab yillar mobaynida orttirilgan hayotiy tajribalarni o'quvchilarga juda qisqa vaqtda o'rgatishning eng samarali usuli. Ta'limning dars shakli Turkistonda uzoq zamonlardan buyon qo'llanilib kelgan. Darsni tashkil etish va uning samaradorligini ta'minlashda o'qituvchining o'rni beqiyos bo'lgan. Turkiston maktablarida ta'limning tashqi shakliy jihatlariga emas, balki mohiyatiga ham e'tibor berilgan. Chunonchi, o'quvchilarning tayyorligini aniqlash, ularni guruhlarga ajratishda bolalarning yoshi va maktabda qancha vaqt o'qiganligiga emas, balki o'tilgan mashg'ulotlarni nechog'li o'zlashtirganliklariga tayanilgan. Turkiston maktablarida ta'limning dars shakli bo'lganligi bilan mashg'ulotlarni sinf-dars tizimi tarzida uyushtirish tajribasi bo'lmagan. Shuningdek, darsning davomiyligi, predmetlarning o'rinlashuvi, kundalik mashgulotlarning miqdori singari ta'limiy chegaralar har bir o'qituvchining uzi tomonidan belgilangan. Dars qadimiy turkiy maorif tizimida oliy va o'rta ta'lim bo'g'inlarini ifoda etgan Madrasa ta'limida ham asosiy ish shakli hisoblangan. Madrasalarda dars belgilangan muayyan tartib asosida uyushtirilgan. Ayni vaqtda, Madrasa darslarida talabalarning mustaqil o'zlash-tirishlariga katta e'tibor qaratilgan. Qadimiy ta'lim muassasalari uchun darsning jamoa va individual shakllari xos bo'lgan [1].

Darsga quyidagicha umumiy talablar qo`yiladi: ilm-fanning eng yangi yutuqlaridan

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

foydalanish, ilg'or pedagogik amaliyot, o'quv jarayoni asosida dars ishlab chiqish; darsda hamma didaktik tamoyillar va qoidalarni amalga oshirish; talabalar faoliyati, ularning qiziqishlari, tendentsiyalari va ehtiyojlari asosida ta'lim oluvchilarning kognitiv faoliyatini ta'minlash; talabalar tomonidan fanlararo aloqalarni anglash; ilgari o'rganilgan bilim va ko'nikmalarni talabalarning erishilgan rivojlanish darajasi bilan bog'lash; shaxsning barcha sohalarini rivojlantirish uchun motivatsiyalash va faollashtirish; o`quv-tarbiyaviy faoliyatning barcha bosqichlari mantiqiyligi; pedagogik vositalardan samarali foydalanish; hayot, ishlab chiqarish faoliyati, talabalar shaxsiy tajribalari bilan bog'lash; amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda tafakkur va faoliyatning oqilona usullaridan foydalanish o'rganish qobiliyatini shakllantirish, bilimlar hajmini doimiy ravishda to'ldirish ehtiyoji; har bir darsni to'liq diagnostika qilish, prognozlash, loyihalash va rejalashtirish [3].

Darsga umumiy talablar bilan birga didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi talablar ham quyidagicha qo`yiladi (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

Didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi talablar

Didaktik talablar	Tarbiyaviy talablar	Rivojlantiruvchi talablar
• har bir darsning tarbiyaviy maqsadlarini aniq belgilash; • darsning axborot mazmunini mazmunan foydali qilish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olgan holda mohiyatini optimallashtirish; • kognitiv faoliyatning eng yangi texnologiyalarini joriy etish; har xil turlar, shakllar va usullarning oqilona kombinatsiyasini yo'lga qo'yish; • dars tuzilmasini shakllantirish-ga ijodiy yondashish; • jamoaviy faoliyatning turli shakllarini talabalarning mustaqil faoliyati bilan uyg'unlashtirish; • tezkor qayta aloqa, samarali nazorat va boshqaruvni ta'minlash; • ilmiy hisoblash va dars olib borish mahorati	• o'quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini, darsdagi faoliyatni aniqlash, real tarzda erishiladigan ta'lim maqsadlarini qo'yish va shakllantirish; • faqat dars jarayonining maqsadi va mazmunidan uzviy kelib chiqadigan tarbiyaviy vazifalarni belgilash; • o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarga o'rgatish, hayotiy fazilatlar: qat'iyatlilik, tartiblilik, mas'uliyat, mehnatsevarlik, mustaqillik, tezkorlik, ehtiyotkor-lik, halollik, kollektivizm va boshqalarni shakllantirish; • o'quvchilarga e'tiborli va xushyor munosabatda bo'lish, pedagogik qoida talablariga rioya qilish, o'quvchilar bilan hamkorlik qilish va ularning muvaffaqiyatiga qiziqish	• ta'lim va kognitiv faoliyat, qiziqishlar, ijodiy tashabbus va faoliyatni ijobiy niyatlar, ularning rivojlanishi; • talabalarning rivojlanish va psixologik xususiyatlarini o'rganish hamda hisobga olish, "eng yaqin rivojlanish zonasini" loyihalash va hisobga olish; • rivojlanishda yangi sifatli o'zgarishlarni joriy qilishga olib keluvchi "yetakchi" darajasidagi o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish; • talabalarda aqliy, hissiy, ijtimoiy rivojlantirish o'sishlarni faraz qilish va shakllanayotgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda o'quv mashg'ulotlarini qayta qurish

Dars mashg'ulotiga o'qituvchini tayyorlash uch bosqichda amalga oshiriladi: diagnostika (tashxislash), prognozlash, loyihalash (rejalashtirish). Bunda o'qituvchi asl materialni yaxshi bilgan holda o'z o'quv dasturiga oson moslasha oladi, deb taxmin qilinadi. U o'zining mavzusiga doir papkalarini yoki ish kitoblarini yuritib boradi va to'ldiradi, o'zi ta'lim beradigan fanga doir muammoli savollar, topshiriqlar, test materiallari va hokazolarni kiritib boradi. Darsga yetarli darajada tayyor bo'lish uchun o'qituvchida faktik topshiriqlar bilan muammo bo'lmasligi, o'quv materialini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi muhim.

Darsning diagnostika (tashxislash) bosqichida darsning barcha holatlarini

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

"aniqlashtirish" orqali amalga oshiriladi, ya'ni o'quvchilarning imkoniyatlari, ularni faoliyatga undovchi motivlar va hatti-harakatlari, so'rovlari va moyilliklari, qiziqishlari va qobiliyatlari, talab qilinayotgan o'qitilganlik darajasi, o'quv materialining harakteri, uning o'ziga xos taraflari va amaliy ahamiyati, dars tuzilishi, shuningdek, o'quv jarayonida barcha xarajatlarni sinchkovlik bilan tahlil qilish, yangi axborot, konsolidatsiya va tizimlashtirish, bilim hamda ko'nikmalarni boshqarish va tuzatish. Ushbu bosqich mashg'ulotlarning samaradorligini ko'rsatib beruvchi omillar aniq ko'rsatilgan dars taxliliy xaritasini tuzish bilan yakunlanadi. Omillar optimal sharoitlarda bo'lganida eng yaxshi natijaga erishiladi.

Darsning prognozlash bosqichida darsni olib borish va ular orasidan eng optimalini tanlash uchun turli xil variantlarni baholashga qaratilgan. Zamonaviy prognozlash quyidagi usulda dars samaradorligini aniqlash imkonini beradi: Darsning maqsadi bo'lgan bilim (ko'nikma) hajmi 100% deb shakllanihi qabul qilinadi. Teskari (to'sqinlik qiluvchi) omillarning ta'siri tabiiy ravishda bu ideal ko'rsatkichni pasaytiradi. Yo'qotish darajasi (u maxsus metodika yordamida aniqlanadi) ideal natijadan kelib chiqqan holda hisoblanadi va o'qituvchi tomonidan tuzilgan sxema bo'yicha dars samaradorligining haqiqiy ko'rsatkichini aniqlaydi.

Agar ko'rsatkich o'qituvchini qoniqtirsa, u darsga tayyorgarlikning yakuniy bosqichiga – loyihalash(rejalashtirish)ga o'tadi va agar bo'lmasa, o'qituvchi ta'sirini o'zgartirishi mumkin bo'lgan omillardan foydalangan holda yanada rivojlangan tashkiliy sxemani izlashga majbur bo'ladi. Loyihalash (rejalashtirish) – dars tayyorlashning yakuniy bosqichi bo'lib, u talabalar ilmiy faoliyatini boshqarish bo'yicha dasturni yaratish bilan yakunlanadi.

Zero ushbu talab amaliyotda o'z isbotini topgan bo'lib, hech kim bo'lajak darsni tashkil etishning barcha tafsilotlarini tushunmasdan turib o'z kasbining ustasi bo'la olmaydi. Muhim tuzilmalar yetarli darajada o'rganilganidan keyingina mumkin qisqartirilgan yozuvlarga o'tish mumkin, reja hajmini asta-sekin pasaytirib, uni ma'lum bir harakat dasturiga aylantirsa bo'ladi. Boshlang'ich o'qituvchining rejasida quyidagi fikrlar aks ettirilishi kerak: dars o'tkaziladigan sana va uning tematik rejaga muvofiq raqami; u o'tkaziladigan dars va sinfning nomi; maktab o'quvchilarini o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish vazifalari va maqsadlari; dars tuzilishi, uning bosqichlari ketma-ketligi va ushbu bosqichlar bo'yicha vaqtning taxminiy taqsimlanishi; o'quv materialining mazmuni; darsning har bir qismida o'qituvchining ishlash usullari va yo'llari; darsni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv instrumentlari; uy ishi.

Ta'lim amaliyotida ijodiy va nostandart darslarning turlaridan foydalanib kelmoqda. Evristik ta'lim tarafdori Andrey Xutorskaya ijodiy darsni o'quvchilarning ijodiy faoliyati uchun sharoit yaratadigan va bu jarayonni faollashtiradigan dars deb ataydi. "Zamonaviy didaktika" qo'llanmasida Xutorskaya ijodiy darslarning besh tasnifi va ularning turlarini ajratib ko'rsatadi [2] (2-jadvalga qarang):

2-jadval.

Ijodiy darslarning turlari

№	Ijodiy darslarning turlari	Ijodiy darslar

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

1.	Kognitiv tasnifidagi darslar	kuzatish darsi, tajriba darsi, obyektni o‘rganish darsi, qidiruv darsi, laboratoriya-amaliy dars, muammolarni shakllantirish va ularni hal qilish darsi, tushunchalarni (qoidalar, frazalar) shakllantirish darsi, nazariyalarni loyihalash darsi, asosiy manbalar bilan ishlash darsi (madaniy va tarixiy analoglar), integral dars, fanlararo dars
2.	Ijodiy turdagi darslar	muammolarni tuzish va hal qilish darsi, dialog darsi, paradoks darsi, fantaziya darsi, ixtiro darsi, texnik (ilmiy, amaliy, badiiy, ijtimoiy, madaniy, pedagogik) ijodkorlik darsi, modellashtirish darsi, evristik vaziyat darsi, kashfiyotlar darsi, kompozitsiya (vazifalar-ertaklar, hisoblash xonalari, yilnomalar va shunga o'xshash narsalar), biznes o'yini, rolga kirishish o'yinlari, sayohat darsi (haqiqiy, virtual), teskari dars (o'qituvchi talaba rolida bo'ladi), kelajak maktabidagi dars, tahliliy dars, ijodiy ishlarni himoya qilish darsi, olimpiada darsi, ijodiy umumlashtirish darsi
3.	Faoliyat turidagi darslar	maqsadlarni belgilash darsi, qoidalarni yaratish darsi, individual o'quv dasturlarini ishlab chiqish darsi, individual o'quv dasturlarini himoya qilish darsi, guruh bilan darslar, loyiha darsi (loyiha usulidan foydalangan holda), maslahat darsi (o'zaro maslahat), o'z-o'zini baholash darsi (o'zaro baholash), dars-reflekslar
4.	Kommunikativ tipdagi darslar	binar dars (ikkita o'qituvchi dars beradi), retsenziya harakteridagi dars, o'zaro nazorat darsi, ochilish darsi, ko'rgazma darsi, kim oshdi savdosi darsi, konferensiya darsi, musobaqa darsi, KVN darsi, "hodisa ustidan sud jarayoni" darsi, spektakl darsi, "davra suhbati" darsi, dars-panorama, ijodiy hisobot
5.	Mazmuniy-mantiqqa ega tipdagi darslar	o'z-o'zini bilish darsi, o'z yo'nalishini o'zi belgilash darsi, o'zini anglash darsi, meta-fan darsi, ijodkorlik ramzi darsi, tarixni "o'zgartirish" darsi (tarixiy vaziyatlarga yechimi) taklif qilish, konseptsiya darsi (dunyoni tasvirlash yoki uning bir qismini qurish), falsafiy umumlashtirish darsi

Pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish nostandart darslarning bir necha o'nlab turlarini ajratib olishga imkon berdi. Ularning nomlari maqsad, vazifalar, bunday darslarni o'tkazish usullari haqida bir oz ma'lumot beradi. Nostandart darslarning eng keng tarqalgan turlarini sanab o'tamiz [5] (3-jadvalga qarang):

2-jadval.

Nostandart darslarning eng keng tarqalgan turlari

№	Nostandart darslar	Nostandart darslar turlari	
1.	O'zgartirilgan tashkiliy usullardagi darslar	Dars-"paradoks"ma'ruzasi. Ma'ruza-sharh. Bilimlarni himoya qilish. G'oyalarni himoya qilish. Ikki kishilik dars. Dars-uchrashuv. O'zaro nazorat darsi. Ijodiy dastur darsi	
2.	Fantaziyaga asoslangan darslar	Dars-ko'rsatma. Ertak darsi. Ijodkorlik darsi. Dars-ijodiy hisobot. Dars-insho. Dars-ko'rgazmani tekshirish Dars-vernisaj. Teatr darsi (spektakl, ertak, studiya, syurpriz). Dars-psixodrama. Simulyatsiya darsi. Madaniyatlar o'rtasidagi muloqot darsi	
Turli faoliyat yoki ish turlarini taqlid qiladigan darslar			
		Dars turi	**Dars shakli**
3.	Ekskursiya-dars	o'quv materialining mazmuniga ko'ra (tematik, kompleks); o'tkaziladigan joyda; mavzularni o'rganishda ushbu ekskursiyaning asosiy didaktik maqsadi va o'rniga ko'ra. O'rganilayotgan mavzuning vaqtiga ko'ra: kirish, dastlabki, joriy, qo'shimcha, yakuniy yoki yakuniy; murakkab	O'rganilayotgan mavzu bo'yicha tarixiy ekskursiyalar, kino, televizion ekskursiyalar. Ekskursiya shaklida mavzu, bo'lim, kurs bo'yicha umumiy takrorlash darslari. Dars-sirtqi ekskursiya. Dars-keng qamrovli ekskursiya. Dars - ekspeditsiyalar. Dars-turizm loyihalarini himoya qilish. Dars-"jonli" gazetani nashr qilish.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

			O'tmishga (kelajakka) sayohat. Mamlakat bo'ylab sayohat
Bellashuv-o'yin uslubidagi darslar			
4.	Dars-o'yin texnologiyalari. Didaktik o'yin ishtirokidagi dars	Ta'limga oid, nazorat qiluvchi va umumlashtiruvchi didaktik o'yinlar. Dars-rolli o'yin. Turlari: taqlid (ma'lum bir professional harakatni taqlid qilishga qaratilgan), situatsion (kichik aniq muammoni hal qilish bilan bog'liq o'yin holati), shartli (masalan, ta'lim yoki ishlab chiqarish mojarolarini hal qilish)	Rollarni taqsimlash asosida munozaralar. Matbuot anjumanlari. Dars-"loyihani o'ylab toping" o'yini. Dars-tekshirish krossvord. "Lotto" shaklidagi dars. Lotto darslarini umumlashtirish. Domino Darsi. Bellashuv darsi. Dars-o'yin (munozara). Dars-turnir. Dars-blits turniri. "Biluvchilar tergovni olib boradilar" kabi dars - "biluvchilar klubi" o'yini. Dars-biznes o'yini
		ishlab chiqarish, tashkiliy-faoliyat, muammoli, tarbiyaviy va kompleks. KVN darsi. Umumlashtirish o'yini. "Nima? Qayerda? Qachon?". Dars "Nima? Qayerda? Qanaqasiga?" Estafeta darsi. Dars-sayohat (turlari: o'quv, nazorat va umumlashtiruvchi didaktik o'yinlar). Talabalar loyihalarini ixtiro qilish yoki himoya qilish bo'yicha dars. "Bir soatlik xotiralar yoki o'tmish bilan uchrashuv" darsi. Dars-"Dengiz jangi" o'yini. Dars-jang. Dars-"Kim yaxshi biladi va eslaydi" o'yini. Dars-"Toqqa chiqish" o'yini. "Baliq ovlash" darsi. Dars-"Tic-Tac-Toe" o'yini. Umumiy dars viktorina. Dars musobaqasi. Dars-tanlov. "Qadimgi davrga sho'ng'ish" darsi. Trening o'yinlari. "Baxtli soat". Umumlashtiruvchi dars-himoya. "Mo'jizalar maydoni".	
5.	Tashkiliy qismning standart usullarini o'zgartirishni o'z ichiga olgan darslar	Seminar darsi. O'yin ko'rinishidagi seminar-dars. Yakuniy intervyu. Dars-kredit. Dars-guruh hisobi. Dars-suhbat. Maslahat darsi (yetakchilik: tematik va maqsadli, xatolar ustida ishlash darslari, test natijalari va yoki test natijalarini tahlil qilish darslari va boshqalar). Dars-seminar. Modellashtirish darsi	
6.	O'quv materialining asl tashkiliy qismiga asoslangan darslar	O'zaro o'rganish darsi. Talabalar tomonidan o'qitiladigan darslar. "Evrika" darsi. Dars-mulohaza. Takrorlash darsi. Dars-yechim. Dars xulosasi. Monologik dars. Xotira darsi. Ochiq fikrlash darsi. "O'z-o'zini anglash chizig'i" darsi. "Mening shoirim" darsi. Insho janrini tushunish darsi. Panorama darsi. Ochiq xat darsi. Dars-og'zaki jurnal. Falsafiy dars. Hayot darsi. Dars tartibi. Dars-dialog. Rad etish darsi. Portret darsi (turlari: "montaj darsi", "taqdimot darsi")	
7.	Uyushgan tadbirlarga o'xshash darslar	Auksion darsi. Dars-yarmarka. Dars-konferensiya. Dars matbuot anjumani. Dars-dissertatsiya himoyasi. Yubiley darsi. Dars-hukm. Tematik dars. Dars-"nashr". Konferensiya-munozara. Kasbga yo'naltirish maqsadida dars konferensiyasi. Dars -"foydali ishlash". Dars-tibbiy maslahat. Dars-konsert.	
8.	Faoliyatning ma'lum shakllari va usullari bilan analogiya bo'yicha darslar	Dars-tadqiqot. Dars-intervyu. Munozara darsi. Dars-munozara (boshlovchi: dialoglar, guruh, ommaviy munozaralar). Dars-tuzilgan munozara. Dars-muammoli loyiha muhokamasi dars-ekspertiza. Dars-imtihon. Dars tartibga solingan munozara. O'yin simulyatsiyasi elementlari asosidagi muhokama. Dars-jamoaviy muhokama (bahs). Dars-juftlik muhokamasi. Munozara-"davra suhbati". Dars-kinostudiya. Dars-"aqliy hujum"	
9.	Kompyuter darslari	Taqdimot darslar (prezentatsiyalar)	

Darsda bilimlarning o'zlashtirilishi, malaka va ko'nikmalarning hosil qilinishi murakkab

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

dinamik jarayondir. O‘quv materialini o‘rganishning turli vazifalari, yo‘llari, usullari va vositalari vujudga keladi. Buning natijasida darsning juda ko‘p turlari, uning har xil variantlari paydo bo‘ladi [4; 124-b.]. Ayni vaqtda ta’lim tizimida eng ko‘p qo‘llaniladigan dars turlari quyidagilardir:

1. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
2. O‘tilgan materialni mustahkamlash darsi.
3. Ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish darsi.
4. Takroriy-umumlashtiruvchi dars.
5. Aralash dars.

Muayyan dars turi asosida olib boriladigan mashg‘ulotlarda ikkinchi, uchinchi bir dars turining qismlari bo‘lishi mumkin. Misol uchun ta’lim muassasalarida eng qo‘llaniladigan dars turlaridan biri yangi bilimlarni bayon qilish darsida quyidagi holatlar amalga oshirilishi mumkin: yangi bilimlarni bayon qilish; yangi bilimlarni mustahkamlash; yangi bilimlar ustida mashq o‘tkazish; yangi bilimlarga bog‘liq holda uyga vazifalarini topshirish va hokazo.

Demak, dars umumiy jarayon davomida bir dars turi asosida tashkil etilmaydi. Shunga qaramay darsning maqsadi ta’lim oluvchilarga yangi bilim berishga qaratilgan bo‘lsa, butun didaktik usullar ana shunga bo‘ysundiriladi. Shu sababli ham bunday dars yangi bilim berish darsi deb ataladi. Muayyan dars turi bilan ish ko‘rilayotganda boshqa bir dars turi unsurlarining asosiy dars tuzilishini tashkil qilishi mumkin. Darsning tarkibiy tuzilishi u yoki bu dars turining umumiy holati, uning qismlari mohiyatini anglatadi. Dars jarayonida qo‘llanilayotgan har qanday didaktik usul dars tuzilishini ifodalashga har doim ham xizmat qilavermaydi.

Didaktik usullar ta’lim metodi bilan baholanganda dars tuzilishining o‘zgarishiga, ta’lim metodlarining o‘zgarishi ham dars tuzilishining o‘zgarishiga olib keladi. Dars jarayonining muayyan qismida dars shakli hamda metodlarining o‘zgarishi darsning yangi bosqichini boshlaganligini anglatadi. Demak, dars tuzilishining biridan ikkinchisiga o‘tishi va shu orqali darsning shakl va metodlarining o‘zgarishi dars bosqichi deb yuritiladi. Bu borada xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, turi darsning shakl va metodlari hamda ular negizidagi dars tuzilishlariga bevosita bog‘liqdir. Quyida dars turining tuzilishi haqidagi ko‘rinishni keltiramiz [4; 125-b.] (3-jadvalga qarang):

3-jadval.

Dars turlarining tarkibiy-tashkiliy-tuzilishi

Dars turi	Tashkiliy qism	Uy vazifalarini so‘rash va tekshirish	Yangi materialni bayon qilish, tushuntirish, hikoya qilish, ma’ruza va suhbat	Yangi materialni mustahkamlash, suhbat, mashq qildirish, kitob bilan ishlash	Uy vazifasini topshirish (tushuntirish, suhbat)	Darsni yakunlash

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Aralash dars	+	+	+	+	+	+
Yangi mavzu bayoni darsi	+		+	+	+	+
Mustahkamlash darsi	+		+		+	+
Sinov darsi	+		+			+

Umumlashtiruvchi dars – bu o‘quv dasturining ma’lum bir qismi (bob, bo‘lim yoki ayrim mavzu) o‘tib bo‘lganidan keyin o‘tiladigan dars mashg‘uloti. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yuqori sinflarida ba’zi o‘quv materiallarining ma’lum qismi yoki yirik mavzuni boshlashdan avval kirish dars ham olib boriladi. Bunday darslar, odatda, ijtimoiy fanlar bo‘yicha o‘tkaziladi [4; 125-b.].

Xulosa qilib aytganda, dars ta’limning jamoa bo‘lib amalga oshirilish tarzi sifatida ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, dars maktab yoshidagi bolalarni yalpi o‘qitishni osonlashtiradi, ularni jamoa sifatida tarbiyalashga hissa qo‘shadi, bolalarda ijtimoiy faollik va muomala madaniyatining shakllanishiga ko‘maklashadi. Darsda o‘quv mashg‘ulotlarining individual, guruhiy va umumsinf shakllari uyg‘unlashadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Dars. Dars - Vikipediya (wikipedia.org).
2. Какие бывают типи уроков в педагогике. Типи уроков: от советской «классики» до современности / Skillbox Media.
3. Лекция 14. Формы обучений. Урок – основная форма учебного процесса в школе. Samuseva. Urok-OFUP.pdf (bspu.by)
4. Педагогика назарияси (Дидактика). – Жиззах, 2008. – 282 б.
5. Самусева. Урок-ОФУП.pdf (bspu.by)

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Nilufar Isakulova Janikulovna**,professor.,pedagogika fanlari doktori [**Нилуфар Исакулова Джаникуловна,** профессор, доктор педагогических наук], [**Nilufar J. Isakulova,** professor, doctor of pedagogical sciences]; manzil: O'zbekiston, Toshkent, Uch-tepa tumani, daha Chilonzor-G9A, ko'chasi kichik xalka yo'li, 21 [адрес: Узбекистан, Ташкент, Уч-тепинский район, даха Чилонзор-G9A, улица кичик халка ёли, 21], [address: Uzbekistan, Tashkent, Uch-tepa district, daha Chilonzor-G9A, street kichik khalka yoli, 21]; E-mail: nilufarisakulova@mail.ru

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original paper

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA MILLIY G‘URUR HISSINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYACHINING PEDAGOGIK MADANIYATI

© Sh.X. Kadirova[1]✉

[1]Termiz davlat pedagogika instituti, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: bolalarda, ayniqsa, maktabgacha yoshda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirishda tarbiyachining pedagogik madaniyati hal qiluvchi o‘rin tutadi. U tarbiyachilarning bolalar bilan o‘zaro munosabatlarida namoyon bo‘ladigan qadriyatlar, munosabat va xulq-atvorni o‘z ichiga oladi, bu esa bolalarning o‘ziga xosligi va milliy merosi bilan faxrlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

MAQSAD: ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy g'urur tuyg'usini tarbiyalashda pedagogik madaniyatning rolini o'rganishga qaratilgan bo'lib, ushbu maqsadga samarali erishish uchun pedagoglar qo'llashi mumkin bo'lgan usul va yondashuvlarga e'tibor qaratadi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy g‘ururni tarbiyalash bo‘yicha muvaffaqiyatli amaliyotlarni ko‘rsatuvchi tegishli adabiyotlar va amaliy tadqiqotlarga asoslangan. Shuningdek, u mavzu bo'yicha tushuncha va istiqbollarni to'plash uchun o'qituvchilar va erta bolalar ta'limi bo'yicha mutaxassislar bilan suhbatlarni o'z ichiga oladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko‘rsatadiki, bolalarda milliy g‘urur tuyg‘usini tarbiyalashda madaniy xilma-xillikka hurmat, milliy an’ana va qadriyatlarni targ‘ib qilish, madaniy elementlarni o‘quv dasturiga integratsiyalash bilan ajralib turadigan kuchli pedagogik madaniyat zarur. O'qituvchilar bu jarayonda o'zlarining ta'lim amaliyotlari, muloqot uslublari va bolalarda ijobiy madaniy o'ziga xoslikni shakllantirishga umumiy yondashuvlari orqali muhim rol o'ynaydi.

XULOSA: xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishda pedagogning pedagogik madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi. Turli xillikni ulug'laydigan va milliy merosni targ'ib qiluvchi qo'llab-quvvatlovchi va inklyuziv ta'lim muhitini rivojlantirish orqali o'qituvchilar bolalarning o'ziga xosligini rivojlantirishga va ularning madaniy merosidan g'ururlanishga samarali hissa qo'shishlari mumkin.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta’lim, milliy g‘urur, maktabgacha katta yosh, ma’naviy-ahloqiy tarbiya, ertak, xalq pedagogikasi, tarbiyachining pedagogik madaniyati.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Iqtibos uchun: Kadirova Sh.X. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g‘urur hissini shakllantirishda tarbiyachining pedagogik madaniyati. // Inter education & global study. 2024. №4(2). B.127–136.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА ВОСПИТАТЕЛЯ В ФОРМИРОВАНИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ГОРДОСТИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

© Ш.Х. Кадирова[1]✉
[1]Термизский государственный педагогический институт, Термиз, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: педагогическая культура воспитателя играет решающую роль в формировании чувства национальной гордости у детей, особенно в дошкольном возрасте. Он включает в себя ценности, отношения и поведение, которые педагоги демонстрируют во взаимодействии с детьми, которые оказывают существенное влияние на гордость детей за свою идентичность и национальное наследие.

ЦЕЛЬ: данная статья направлена на изучение роли педагогической культуры в воспитании чувства национальной гордости у детей дошкольного возраста, уделяя особое внимание методам и подходам, которые могут использовать педагоги для эффективного достижения этой цели.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: исследование основано на соответствующей литературе и тематических исследованиях, демонстрирующих успешную практику воспитания национальной гордости у детей дошкольного возраста. Он также включает интервью с педагогами и специалистами в области дошкольного образования для сбора информации и точек зрения по этой теме.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показывают, что сильная педагогическая культура, характеризующаяся уважением к культурному разнообразию, продвижением национальных традиций и ценностей, а также интеграцией культурных элементов в учебную программу, необходима для воспитания у детей чувства национальной гордости. Учителя играют важную роль в этом процессе благодаря своей педагогической практике, стилям общения и общему подходу к формированию позитивной культурной идентичности у детей.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: подводя итог, можно сказать, что педагогическая культура педагога играет важную роль в формировании чувства национальной гордости у детей дошкольного возраста. Создавая благоприятную и инклюзивную среду обучения, которая прославляет разнообразие и продвигает национальное наследие, преподаватели могут эффективно способствовать развитию идентичности детей и гордости за свое культурное наследие.

Ключевые слова: дошкольное образование, национальная гордость, дошкольный возраст, духовно-нравственное воспитание, сказка, народная педагогика, педагогическая культура воспитателя.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Для цитирования: Кадирова Ш.Х. Педагогическая культура воспитателя в формировании национальной гордости у детей дошкольного возраста, // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 127–136.

PEDAGOGICAL CULTURE OF THE EDUCATOR IN THE FORMATION OF A SENSE OF NATIONAL PRIDE IN CHILDREN OF PRESCHOOL AGE

© Shakxnoza X. Kadirova[1]✉
[1]Termiz State Pedagogical Institute,Termiz, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the pedagogical culture of the educator plays a decisive role in the formation of a sense of national pride in children, especially in preschool age. It includes the values, attitudes, and behaviors that educators display in their interactions with children, which have a significant impact on children's pride in their identity and national heritage.

AIM: this article aims to study the role of pedagogical culture in fostering a sense of national pride in preschool children, focusing on the methods and approaches that pedagogues can use to effectively achieve this goal.

MATERIALS AND METHODS: the study is based on relevant literature and case studies that demonstrate successful practices for fostering national pride in preschool children. It also includes interviews with educators and early childhood education professionals to gather insights and perspectives on the topic.

DISCUSSION AND RESULTS: the results show that a strong pedagogical culture characterized by respect for cultural diversity, the promotion of national traditions and values, and the integration of cultural elements into the curriculum is necessary for raising a sense of national pride in children. Teachers play an important role in this process through their teaching practices, communication styles, and overall approach to building a positive cultural identity in children.

CONCLUSION: to sum up, the pedagogical culture of the pedagogue plays an important role in the formation of the sense of national pride in preschool children. By fostering a supportive and inclusive learning environment that celebrates diversity and promotes national heritage, educators can effectively contribute to children's identity development and pride in their cultural heritage.

Key words: preschool education, national pride, preschool age, spiritual and moral education, fairy tale, folk pedagogy, educator's pedagogical culture

For citation: Shakhnoza Kh. Kadirova. (2024) ‘Pedagogical culture of the teacher in the formation of national pride in preschool children’, Inter education & global study, (4(2)), pp. 127–136. (In Uzbek).

Ma’lumki, tarbiyachilar bolalarga insonni o‘rab olgan olamning murakkabligini, ajoyibotlarini, sirliligini anglashlariga, tabiat inson turmush tarzi qulayliklarining garovi

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

ekanligini tushunib yetishlariga shu sababdan tabiatni muhofaza kilishni idrok qilishlariga yordamlashadilar. Shuni unutmaslik lozimki, tabiatdagi hamma narsa, voqea-hodisalar bolalar uchun qiziqarli va sirli topishmoqday tuyuladi. Ular bu jumboqlar sirini bilishga, sabablarini anglashga harakat qiladilar. Bola dastlabki tizimli ta'limni maktabgacha ta'lim tashkilotida oladi. Binobarin, uning sog'lom, xar tomonlama barkamol bo'lib shakllanishi bevosita pedagog-tarbiyachi faoliyati bilan uzviy bog'liqdir.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ulari ularning ba'zi harakatlarida aks etib turadi. Lekin ularda Vatan, milliy g'urur haqidagi fikrlar cheklangan. Ular Vatan va Vatanni ulug'lovchi she'r, xikoya va ertaklarni bilishadi-yu, milliylikning mohiyatini yaxshi anglashmaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida katta yoshdagi bolalarda xalq og'zaki ijodi vositasida milliy g'urur hissini shakllantirish uchun tarbiyachi o'z kasbining mohir ustasi bo'lishi bilan birgalikda u quyidagi shartlarga amal qilishi kerak:

- yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori malakali, kerakli bilimlarni egallab, kerakli adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg'or tajribali pedagoglarning tajribasini o'rganib, o'z ishiga tadbiq eta oladigan kishi bo'lishi;
- bolalarni kuzata oladigan, ularning xulqi, xatti -harakati sabablarini to'g'ri tahlil qilib, unga ijobiy ta'sir etuvchi vositalarni tanlay va qo'llay olishi;
- yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko'nikmalardan habardor qilish uchun pedagogning fikri ravon, aniq, mantiqiy, ixcham bo'lishi, ta'lim berishda texnikaviy vositalardan samarali foydalana olishi, bolalar bilan malaka, ko'nikmalarni yaxshi o'zlashtirib olishlari uchun faollashtiruvchi savollardan foydalana bilishi;
- bolalarning xulqini, hatti-harakatini haqqoniy baholay olishi va yo'naltirishi, kun tartibini to'g'ri tashkil eta bilishi, bolalar jamoasiga undagi xar bir a'zoni etiborga olgan holda rahbarlik qila bilishi;
- tarbiyalanuvchilarning ruhiy va jismoniy holatini aniqlay bilishi va buni bolalar bilan amalga oshiradigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarida e'tiborga olishi;
- ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlar o'tkazib, axborot almashtirib turishi, hamkorlikni yo'lga qo'ya olishi;
- bolalarga nisbatan hayrixoh bo'lishi, har bir bola uchun qulay sharoit yaratishi, xafa bo'lsa ovuntira olishi, pedagogik jarayonlarni tahlil qila bilishi va uni yaxshilash yo'llarini topa olishi kerak.

Eng muhimi – tarbiyachi bolalarga ishonch bilan qarashi, ularning mehnatsevarligi, mustaqilligi, tashabbuskorligini to'g'ri taqdirlashi va mustaqil faoliyatlari uchun imkoniyat yaratishi kerak buni bolalar yuqori baholaydilar.

Maktabgacha yoshdagi bolaga nisbatan qo'llanilgan "milliy g'urur" tushunchasining mazmuni umumiy ob'ektiv va sub'ektiv dialektik yaxlitligini birlashtiradi, bu ma'naviy tarbiyaning asosiy vazifasi hisoblanadi. Eng muhimi, mazkur muhim hodisaning haqiqiy, amaldagi holatini anglatadi. Shaxsning ijtimoiy rivojlanishi va ma'naviy ong mexanizmlarining ob'ektiv talablari va qonuniyatlariga tayanish, bir tomondan, maktabgacha

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

yoshdagi bolaning haqiqiy ma’naviy imkoniyatlarini hisobga olish, boshqa tomondan, maktabgacha yoshdagi bolaning ma’naviy madaniyati ko‘rsatkichlarini aniqlashga imkon beradi. Tadqiqot ishlari maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g‘urur hissini shakllantirishda bolalarning o‘zbek xalqining milliy an’analari bilan izchil tanishtirib borish zaruratini ko‘rsatdi.

Biz, bolalarda milliy g‘urur hissini shakllantirishni, ularni o‘zbek xalqining hayoti, madaniyati va san’ati bilan tanishtirishdan boshlash maqsadga muvofiqligiga amin bo‘ldik, chunki mazkur yosh davrida barcha tarbiya masalalarini aniq va tushunarli bo‘lishiga erishish mumkin.

Shuning uchun ham, maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ma’naviy madaniyatini kengaytirish xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni inobatga olib va mazkur yosh davrida milliy g‘ururni tarbiyalashning nazariy, metodologik holatlariga asoslanib, quyidagi tanlov tamoyillari belgilandi.

I. Agar vazifalar pedagogik vazifalar singari aniqlashtirilgan, haqiqiy ma’naviy imkoniyatlarni, o‘z xalqining bevosita uning hayot faoliyatiga yaqin bo‘lgan an’nalarini, tarbiyalanuvchi jalb etilgan ijtimoiy insonparvarlik munosabatlari tizimi inobatga olinsagina, maktabgacha yoshdagi bolaning shaxs ma’naviy sifatlari va xususiyatlarini to‘laqonli tarbiyalash mumkin.

II. Shaxsga yaxlit yondashuv tamoyili. Alohida cheklangan sifatlar tarbiyaning bevosita maqsadi bo‘la olmaydi, chunki sifatlarning o‘zi maqsad, vazifasi, mazmuni, ob’ektni o‘rganish, ta’sir etish metodlari tizimi ularni to‘g‘rilash, natijalarni hisobga olish kabilarni qamrab oluvchi tarbiyaviy jarayonning markaziga qo‘yilgan yaxlit shaxs mazmunidagina haqiqatda namoyon bo‘lishi mumkin.

Tarbiyaviy faoliyat tizimining optimal qurilishi holatlariga binoan, maktabgacha katta yoshdagi bolaning xulqi alohida cheklangan maqsadlar bilan emas, balki aniq sharoitlarda ularga erishish orqali belgilanishi sababli, shaxsning u yoki bu sifati kengaytirilmay, balki shaxsga tegishli barcha sifatlar va xususiyatlar to‘liq qamrab olinganda dasturning samaradorligi yuqori bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy-ahamiyatli motivlar asosidagi yaxlit shaxsining bunday sifatlar va xususiyatlari quyidagilarda ifodalanadi:

1) maktabgacha ta’lim takilotlariga, uning hayot faoliyati tarziga, tarbiyachiga, tengdoshlar guruhiga, oilasiga, o‘z-o‘ziga ma’naviy-insonparvarlik xarakterdagi munosabat xususiyati bilan.

2) ijodiy ehtiyojlar va qobiliyatlarning to‘liq rivojlanishi asosida, faoliyatni bajarish usullarini egallashda yaratuvchanlik, jarayonga kiritilgan bolalar faoliyati turlarining hajmida turli-tuman qiziqishlar asosidagi ijtimoiy va shaxsiy munosabatlar uyg‘unlashuvi asosidagi faoliyat madaniyati bilan.

3) kattalarga hurmat, tengdoshlarini tan olish asosidagi ijobiy o‘zaro munosabatlarni ta’minlovchi guruhli o‘zaro ta’sir sharoitida muhim ijtimoiy funksiya sifatidagi muloqot madaniyati bilan. Shu orqali shaxsiy-sub’ektli munosabatlari insonparvarlik va hamkorlik asosida quriladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

4) insonparvarlik munosabatlari tizimida namoyon bo‘luvchi shaxsning ma’naviy-irodaviy va ijobiy hissiy sifatlari hamda xususiyatlari bilan, ularni hayotdan mamnunlik, qadr-qimmat, pedagogga, boshqa katta insonlarga va tengdoshlariga ishonchli munosabat, kamtarlik, haqgo‘ylik, adolatlilik, ozodalik, do‘stonalik, mustaqillik tashkil etadi.

Sanab o‘tilgan tarkibiy tashkil etuvchilar maktabgacha katta yoshdagi bolalarda xalq og‘zaki ijodi vositasida milliy g‘urur hissini tarbiyalash mazmunini belgilab beradi. Ular ma’naviy tarbiya jarayonining tarkibiy tashkil etuvchilari hisoblanadi, maktabgacha yosh davrida ma’naviy-barkamol shaxsni rivojlantirishni belgilab beradi.

Milliy g‘urur to‘g‘risidagi tushunchalarning funksiyalari tarbiya tizimiga pedagogik jarayonning “teskari aloqa” xususiyati va natijalarini ochib berish, yosh guruhlari orasidagi, shuningdek MTM va boshlang‘ich maktab orasidagi ichki jarayonning uzluksizligiga majmuaviy yondashuvni amalga oshirishga imkon beradi.

Bunday yondashuv ahamiyatli bo‘ladi, chunki tarbiyalanuvchilarning ma’naviy qobiliyatlari, tarbiyaviy jarayonning barcha bosqichlarida pedagogik o‘zaro ta’sir, hamkorlikning rivojlanishini dolzarblashtiradi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda xalq og‘zaki ijodi vositasida milliy g‘urur hissini shakllantirishning tanlov tamoyillarining zarurati, ma’naviy-axloqiy madaniyat va qalb kuchi uchun ikki asosiy jihatlar zarur ekanligi bilan belgilandi:

birinchisi – xalqning ruhiy psixologik uslubini shakllantiruvchi milliy ong;

ikkinchisi – madaniyatning umuminsoniy elementlari, umuminsoniy qadriyatlarga aloqadorlik hissi.

Ma’lumki, milliy o‘z-o‘zini anglash milliy cheklanishdan xolis bo‘lgan xalqlardagina chuqur va moslashuvchandir. Shuning uchun tarbiyaviy dasturning maktabgacha ta’lim tashkilotlarida milliy an’analar bilan integratsiyasini, milliy ong, umuminsoniy madaniyatli millatning ruhiy madaniyati shakllanishining asosiy sharti deb hisoblaymiz.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda xalq og‘zaki ijodi vositasida milliy g‘urur hissini shakllantirishda maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining asosiy vazifalaridan biri pedagogik madaniyatni egallash hisoblanadi. Umumiy mazmunda madaniyat tushunchasi ostida ma’naviy va moddiy boyliklarni jamlash tushuniladi, katta inson esa ularni tarixdan hozirgi vaqtga va kelajakka yetkazuvchi hisoblanadi. Bunda maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari va tarbiyalanuvchilarining ota-onalarida bir xilda yuzaga keladigan qator muammolarni ajratish lozim. Birinchidan, pedagogik madaniyat nima ekanligi va uni namoyon etish usullari qandayligi to‘g‘risidagi yaqqol tushuncha mavjud emas. Ikkinchidan, ota-onalarning o‘z ishlarida, tarbiyachilar esa pedagogik jarayonni amalga oshirishda haddan ortiq bandliklari tufayli kattalarning teatrlar, muzeylar, ko‘rgazmalarga tashrif buyurishga vaqtlari yetishmaydi. Uchinchidan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining barcha pedagoglari ham ota-onalarda pedagogik madaniyatni shakllantirish metodikasiga bir xilda ega emaslar.

Milliy g‘urur, madaniyat bilan inson faoliyatining boshqa faoliyat turlaridan ko‘proq bog‘liqdir. U jamiyatning alohida sohasi hisoblanib, maqsadga yo‘naltirilgan ijtimoiy-madaniy

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

insonni shakllantirishni amalga oshiradi, madaniy meros, shaxsni ijtimoiylashtirish, uning shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini boshqarish vazifalarini bajaradi.

Shuning uchun ham, mutaxassisning madaniyati uning kasbiy faoliyatida alohida rolga ega, u shaxsga yaxlit ta'sir ko'rsatadi, kasbiy-shaxsiy munosabatlar tizimida mustahkam o'rin egallashga, o'zini va faoliyatdagi o'z rolini anglashga ko'maklashadi, tanlangan kasb doirasida ijodning integral ko'rsatkichi sifatida xizmat qiladi. Mutaxassis madaniyatining umumiy mazmundagi ko'rsatkichi sifatida shaxsning dunyoqarashi kengligi va yo'nalganligini, ijtimoiy faolligi darajasini, hissiy ta'sirchanlik xususiyatlarini ham qabul qilish mumkin.

Xalq tushunchasi darajasida, pedagogik madaniyat mutaxassislar pedagogik muloqot vaziyatida xulqni tashkil etishga amal qiladigan talab, me'yor, namunasi sifatida tushuniladi. Ba'zan pedagogik madaniyatni kasbiy savodxonlik, bilimlilik, pedagogik texnika yoki taktika bilan o'xshatish sodir bo'ladi.

Nazariy jihatdan pedagogik madaniyat umumiy madaniyatning bir qismi sifatida qaraladi, chunki u:

- insoniyatning tarixiy-madaniy tajribasini birlashtiradi, alohida pedagog esa mazkur tajribani tarbiyalanuvchilarda belgilangan qadriyatlar va munosabatlar hajmi orqali aks ettiradi;
- o'qituvchi ijtimoiy amaliyotining bir qismi hisoblanadi va uning talablar bilan an'analar, o'zaro munosabatlar me'yorlari orqali o'zaro ta'siri sohasida namoyon bo'ladi;
- inson bilimlari sohasini ifodalaydi va o'qituvchi amalga oshiradigan, mohir pedagog faoliyatining ahamiyatli komponenti hisoblangan pedagogik konsepsiyalar, tizimlar, texnologiyalarda o'z ifodasini topadi;
- pedagog tomonidan jamiyatning ob'ektiv ehtiyojlarini aks ettirish usuli hisoblanadi.

Pedagogik madaniyat – bu murakkab tuzilgan tizim bo'lib, pedagogik ta'sir etish sub'ektining ko'p darajali tarkibiga egadir. Shuning uchun ham pedagogik madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi to'g'risidagi fikrni nafaqat mohir pedagoglarga nisbatan, balki butun jamiyat doirasida ham qo'llash lozim.

Madaniyat insonning ixtiyoriy faoliyat turiga me'yoriy talablarni aks ettiradi. Shuning uchun ham, inson faoliyatining turlari qancha bo'lsa, shuncha madaniyat turlari ham mavjuddir. Madaniyat – insonning hayot faoliyatida o'zlashtirgan tajribasidir.

Aytilganlarga ko'ra, pedagogik madaniyat pedagogik jarayonning integrativ tavsifini ifodalaydi. U insonlarning orttirgan ijtimoiy tajribalarini hamda bir avloddan boshqa avlodga yetkazib berish bo'yicha bilimlar, ko'nikma, malakalar, kompetensiyalar va maxsus institutlar ko'rinishda mustahkamlangan mazkur faoliyatning natijalarini yetkazib berish bo'yicha bevosita faoliyat yaxlitligidan tarkib topadi.

Agar madaniyat ixtiyoriy aniq bir faoliyat turiga qo'yiladigan me'yoriy talablarni ifoda etsa, unda pedagogik madaniyat yosh avlodni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish bo'yicha faoliyatga qo'yiladigan talablarni ifodalaydi.

Pedagogik madaniyat butun jamiyatning hamda har bir alohida insonning umumiy

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

madaniyatini aks ettiradi. Shuning uchun ham, jamiyatning pedagogik madaniyati ommaning pedagogik madaniyati darajasi bilan belgilanadi va umumiy madaniyatning ajralmas qismini ifodalaydi.

Pedagogik madaniyat umuminsoniy madaniyatning bir qismi sifatida jahon pedagogik tajribasidan tashkil topadi, madaniy davrlarning almashinishi oqibatida bunga mos ravishdagi pedagogik sivilizatsiyaga olib keladi, ta'lim paradigmalarini o'zgartiradi.

Har bir davr o'z pedagogik madaniyatini shakllantiradi. Uning har xil turlarini ajratishga asos bo'lib ma'naviy qayta yaralish jarayoni xizmat qiladi, uning ostida umumiy mazmunda ma'naviy qadriyatlardan foydalanish va ishlab chiqarishga yo'naltirilgan jamoat munosabatlari tizimi tushuniladi. Madaniyatning har xil ko'rinishlari ta'lim va tarbiya jarayonida ma'naviy qadriyatlarni ishlab chiqishning turli modellarini hosil qiladi.

Pedagogikaning toifasi sifatida, pedagogik madaniyat ijtimoiy-pedagogik, ilmiy-pedagogik, kasbiy-pedagogik, shaxsiy darajada o'rganilishi mumkin.

Ijtimoiy-pedagogik soha quyidagi usullar bilan belgilanadi:

- otalar va bolalar, kattalar va kichiklar munosabatlarini ifodalovchi an'analar, marosimlar, qoidalarni saqlash;
- umuminsoniy va milliy ma'naviy madaniyat bir qismi sifatida ijtimoiy-pedagogik tajribani yetkazib berish va shaxslararo, insoniy munosabatlar;
- umuminsoniy va pedagogik qadriyatlarni shakllantirish;
- jamiyatning pedagogik tafakkuri, pedagogik ongida, amaliy bilimlar tizimida namoyon bo'luvchi pedagogik nazariya, madaniy namunalarni boyitish;

Pedagogik madaniyat shaxsiy yo'nalishlari ko'rsatkichlari quyidagicha:

- pedagogning bolalarga nisbatan insonparvarlik munosabati, uning tarbiyachi bo'la olish qobiliyati;
- tarbiyalanuvchi nuqtai nazarida yuzaga kelgan muammolarni hal etishga imkon beruvchi psixologik-pedagogik kompetentlik va rivojlangan pedagogik tafakkur;
- o'qitadigan fan sohasi bo'yicha bilimliligi, shaxsiy yo'nalganlik asosida, ta'lim mazmuni va texnologiyasi bilan ishlashni bilish;
- o'qituvchiga o'z pedagogik texnologiyasi, ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga mualliflik yondashuvini asoslash imkonini beruvchi ijodiy faoliyat tajribasi;
- kasbiy xulq madaniyati va o'z-o'zini rivojlantira olish qobiliyati;
- maktabgacha yoshdagi bolani tarbiyalash va to'laqonli rivojlantirishga ota-onalarning qadriyatli-maqsadli yo'nalganliklari[4].

Pedagogik madaniyatning shartli ravishdagi uchta darajasini ajratadilar.

Pedagoglarda ham, ota-onalarda ham pedagogik madaniyat asoslarini shakllantirish uchun quyidagicha metodlar guruhini qo'llash mumkin: kattalarning rag'batlantiruvchi refleksiv ko'nikmalari (keys metodi, o'yinli modellashtirish metodlari, o'zining tarbiyaviy faoliyatini tahlil qilish). Yagona foydalanishda mazkur metodlar katta insonning bolaga nisbatan munosabatini shakllantiradi, egallangan bilim va kompetensiyalarni faollashtiradi; taqlidga asoslanmagan faol metodlar (munozaralar, bahslar, muhokamalar, treninglar,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

basket-metod va boshqalar). Sanab o‘tilganlardan kuzatuv metodi alohida hisoblanadi, uni pedagoglar va ota-onalarga kundalik yozuvlarni yuritish ko‘rinishida taklif etish mumkin[5].

«Pedagogik madaniyat» tushunchasining mazmun va mohiyatini o‘rganish xulosasini chiqarishda, ma’naviy va moddiy qadriyatlar eng ko‘p darajada aks etgan umuminsoniy madaniyatning bir qismi sifatida, shuningdek avlodlar almashuvi va shaxs ijtimoiylashuvi (ulg‘ayishi) tarixiy jarayoniga xizmat qilish uchun insoniyatga zarur bo‘lgan insonlar pedagogik faoliyatini amalga oshirish usullari sifatida ta’riflash mumkin.

Shu tariqa, pedagogik madaniyat pedagogning pedagogik qadriyatlari, faoliyat usullari va kasbiy xulqi dinamik tizimini aks ettiradi. Jamiyat hayotini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish madaniyatni jamiyat va alohida shaxsning ma’naviy holati asosiy ko‘rsatkichi deb olinishiga sabab bo‘ladi. Madaniyat tufayli uning jamiyat hayotida qatnashishi sodir bo‘ladi, atrof-olamni aks ettirish qobiliyati hosil bo‘ladi, o‘zini yorqin individual sifatida namoyon etishning yangi metodlari va vositalarini izlash qobiliyati rivojlanadi. Pedagogik madaniyat sababli shakllangan shaxs madaniyati jamiyat qadriyatlarini o‘zlashtirishning holati va natijalari hamda mahsuldor jarayonidir.

Pedagogik madaniyat rivojlanuvchi hodisa sifatida komponentlarning uyg‘unligi va xilma-xilligini ifodalaydi, ular qatorida pedagogik munosabat va shaxsiy sifatlarni; kasbiy bilimlar va pedagogik tafakkur; kasbiy ko‘nikmalar va faoliyatning ijodiy xususiyati; shaxsning o‘z-o‘zini tartibga solishi va kasbiy xulq madaniyatini ajratish mumkin.

Pedagogik madaniyatning shartlari pedagogning pedagogik yo‘nalganligi, psixologik-pedagogik bilimdonligi va ma’lumotliligi, pedagogik mahorati va hokazolar bilan to‘ldirilishi mumkin.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda xalq og‘zaki ijodi vositasida milliy g‘urur hissini shakllantirishda pedagog tarbiyachi ota-onalar bilan o‘zaro hamkorlikka kirisha olishi va ularni tarbiyaviy-ta’limiy hamda korreksion-rivojlantiruvchi jarayonga jalb eta olishi muhim hisoblanadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda xalq og‘zaki ijodi vositasida milliy g‘urur hissini shakllantirish uchun pedagoglar quyidagi sharoitlarni yaratishi lozim: tarbiyalanuvchilarning ota-onalarida ularning farzandlarining rivojlanish imkoniyatlari tashxisi natijalari bilan tanishtirish orqali hamkorlik hissini shakllantirish; muammoli seminarlar o‘tkazish vaqtida ota-onalar va pedagoglarda bolalarni MTM va oilada rivojlantirish, tarbiyalash va ta’lim berish vazifalari to‘g‘risidagi tasavvurlarini muhokama etish; tabaqalashtirilgan ota-onalar guruhlari bilan pedagogik hamkorlik maxsus muammolarini belgilash va individual hamda kichik guruhlar konsultatsiyalarini tashkil etish; an’anaviy va noan’anaviy muloqot usullarini qo‘llash orqali ota-onalar va tarbiyachilarga hamkorlik funksiyalarini o‘rgatish; ijodiy loyihalar usuli bo‘yicha jamoaviy faoliyatni tashkil etish jarayonida bolalar va kattalarning aqliy va ijodiy tashabbuslarini rivojlantirish.

Yuqorida sanab o‘tilgan sharoitlar ota-onalar bilan hamkorlik dasturini ishlab chiqish jarayonida amalga oshirilib, unda quyidagi yo‘nalishlar nazarda tutilgan:

1. O‘zaro hamkorlikni modellashtirish.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

2. Tarbiyachilar va ota-onalar o‘rtasida hamkorlikka yo‘naltirilgan ijobiy shaxslararo munosabatlarni o‘rnatish.

3. Ota-onalarda bolaning yanada to‘liq obrazini va uni to‘g‘ri qabul qilishni shakllantirish.

4. Ota-onalarning pedagogik nuqtai-nazarlarini o‘rganish va maktabgacha yoshdagi bolani tarbiyalashda oilaviy muammolar bilan tanishtirish.

5. Ota-onalarni qiziqishlari bo‘yicha guruhlarga birlashtirish, oilaviy mehmonxona va oilaviy klublarni tashkil qilish.

Ishning barcha bosqichlari va davrlarida, ota-onalar bilan ishlashning turli-tuman usullari faol qo‘llaniladi: bayon etilayotgan material bo‘yicha ota-onalarga savollar; bahsli masalalar; muqobillari berilgan takliflar; adabiyotlardan misollar keltirish; shaxsiy tajribasidan misollar keltirish

Tajribalar ko‘rsatishicha, tarbiyachilarning pedagogik madaniyati va metodik kompetentligi qanchalik yuqori bo‘lsa, maktabgacha yoshdagi bolalar ota-onalarining mazkur ko‘rsatkichlari ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Абдуллаев Ж.Х. Ўзбек халқ топишмоқларининг лексик-семантик хусусиятлари: - Фил. фан. номз. ... ёзилган. дисс. –Т.: 1994. -116 б.
2. Абдураҳимова Д.А. Мактабгача тарбия ёшидаги болаларни ахлоқий руҳда тарбиялашда халқ эртакларидан фойдаланиш. Пед. фан. номзоди … дисс. – Т., 1998.
3. Сафарова Н. Ўзбек болалар ўйин фольклорининг жанрий табиати, генезиси ва бадиий хусусиятлари. Фил.фан.ном....дис. – Т.: ЎзР.ФАА. А.Навоий номидаги тил ва адабиёт институти, 2005.
4. Морева, Н. А. Основы педагогического мастерства [Текст] / Н. А. Морева. - М.: Просвещение, 2006. - 320 с.
5. Зверева, О. Л. Семейная педагогика и домашнее воспитание детей раннего и дошкольного возраста [Текст] / О. Л. Зверева, А. Н. Ганичева, Т. В. Кротова. - М.: Сфера, 2009.-256 с.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Kadirova Shaxnoza Xudoyberdievna**, katta o‘qituvchi (PhD) [**Кадырова Шахноза Худойбердиевна,** старший преподаватель (PhD)], [**Shaxnoza X. Kadirova,** senior teacher, (PhD)]; manzil: O‘zbekiston, Termiz shahar, Mehrobod MFY, Islom Karimov ko‘chasi, 136\30uy [адрес: Узбекистан, город Термез, махалля Мехробод, улица Ислама Каримова, дом 136\30], [address: Uzbekistan, Termez, Islam Karimov street 136\30]; E-mail: kadirovaashaxnoza@mail.ru

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original paper

TA’LIM JARAYONIGA VIRTUAL PEDAGOGIK MADANIYATNING UYG’UNLIGI

© F.M. Komilova[1]✉

[1] Andijon davlat universiteti,Andijon, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: virtual pedagogik madaniyatning o‘quv jarayoniga integratsiyalashuvi raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va onlayn ta’limning keng tarqalishi bilan tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Virtual pedagogik madaniyat raqamli muhitda o'qitish va o'qitishni boshqaradigan amaliyotlar, me'yorlar va qadriyatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu madaniyatning an'anaviy ta'lim jarayonlari bilan mosligini tushunish zamonaviy ta'lim samaradorligini oshirish uchun juda muhimdir.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi virtual pedagogik madaniyatning an'anaviy ta'lim jarayoni bilan uyg'unligini o'rganishdir. Tadqiqot virtual pedagogik madaniyatning asosiy elementlarini aniqlash, ularning o‘qitish va o‘qitishga ta’sirini baholash va ushbu elementlarni mavjud ta’lim asoslariga samarali integratsiya qilish bo‘yicha tavsiyalar berishga qaratilgan.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot miqdoriy va sifatli tadqiqotlarni birlashtirgan aralash usullardan foydalanadi. Materiallar raqamli o'quv platformalari, virtual sinf vositalari va ta'lim texnologiyalari resurslarini o'z ichiga oladi. Usullar o'qituvchilar va talabalar o'rtasida so'rovlar o'tkazish, virtual o'quv muhitini tahlil qilish va virtual pedagogik amaliyotni amalga oshiradigan muassasalarning amaliy tadqiqotlarini o'z ichiga oladi. Ma'lumotlarni tahlil qilish virtual pedagogik madaniyatning o'quvchilarning faolligiga, o'quv natijalariga va o'qituvchining samaradorligiga ta'sirini baholashga qaratilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: topilmalar shuni ko'rsatadiki, virtual pedagogik madaniyat o'quv jarayoniga mos keladigan bir qancha afzalliklarni beradi. Bu imtiyozlarga kirish imkoniyati va moslashuvchanlikni oshirish, interfaol va multimedia kontenti orqali o‘quvchilarning faolligini oshirish hamda shaxsiy o‘rganish imkoniyatlari kiradi.

XULOSA: tadqiqot virtual pedagogik madaniyat asosan an'anaviy ta'lim jarayoniga mos keladi, degan xulosaga keladi, bu moslashuvchanlik, ishtirok etish va shaxsiylashtirish nuqtai nazaridan sezilarli yaxshilanishlarni taklif qiladi. Virtual pedagogik amaliyotni an’anaviy usullar bilan integratsiyalashgan holda o‘qituvchilar yanada dinamik va samarali ta’lim muhitini yaratishi mumkin.

Kalit so‘zlar: axborot, axborot xavfsizligi, axborot erkinligi, differensiyallashuv, elektron hukumat, faoliyat, internet, ta’lim, virtuallashtirish, virtual borliq, virtual madaniyat.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Iqtibos uchun: Komilova F.M. Ta'lim jarayoniga virtual pedagogik madaniyatning uyg'unligi. // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 137-144.

СОВМЕСТИМОСТЬ ВИРТУАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ С ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМ ПРОЦЕССОМ

© Ф.М. Комилова[1]✉
[1]Андижанский государственный университет, Андижан, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: интеграция виртуальной педагогической культуры в образовательный процесс становится все более актуальной с развитием цифровых технологий и ростом распространенности онлайн-обучения. Виртуальная педагогическая культура включает в себя практики, нормы и ценности, которые определяют преподавание и обучение в цифровой среде. Понимание совместимости этой культуры с традиционными образовательными процессами имеет решающее значение для повышения эффективности современного образования**.**

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является изучение совместимости виртуальной педагогической культуры с традиционным образовательным процессом. Исследование направлено на выявление ключевых элементов виртуальной педагогической культуры, оценку их влияния на преподавание и обучение и предоставление рекомендаций по эффективной интеграции этих элементов в существующие образовательные системы.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использован смешанный подход, сочетающий количественные и качественные исследования. Материалы включают платформы цифрового обучения, инструменты виртуального класса и ресурсы образовательных технологий. Методы включают опросы преподавателей и студентов, анализ виртуальной среды обучения и тематические исследования учреждений, реализующих виртуальные педагогические практики. Анализ данных направлен на оценку влияния виртуальной педагогической культуры на вовлеченность учащихся, результаты обучения и эффективность учителей.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: полученные данные свидетельствуют о том, что виртуальная педагогическая культура предлагает ряд преимуществ, совместимых с образовательным процессом. Эти преимущества включают повышенную доступность и гибкость, повышение вовлеченности учащихся посредством интерактивного и мультимедийного контента, а также возможности персонализированного обучения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исследование пришло к выводу, что виртуальная педагогическая культура в значительной степени совместима с традиционным образовательным процессом, предлагая значительные улучшения с точки зрения гибкости, вовлеченности и персонализации. Интегрируя виртуальную педагогическую

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

практику с традиционными методами, преподаватели могут создавать более динамичную и эффективную среду обучения**.**

Ключевые слова: информация, информационная безопасность, свобода информации, дифференциация, электронное правительство, деятельность, Интернет, образование, виртуализация, виртуальное существование, виртуальная культура.

Для цитирования: Комилова Ф.М. Совместимость виртуальной педагогической культуры с образовательным процессом. // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 137-144.

COMPATIBILITY OF VIRTUAL PEDAGOGICAL CULTURE TO THE EDUCATIONAL PROCESS

© Fotima M. Komilova[1]✉
[1] Andijan State University, Andijan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the integration of virtual pedagogical culture into the educational process has become increasingly relevant with the advancement of digital technologies and the growing prevalence of online learning. Virtual pedagogical culture encompasses the practices, norms, and values that guide teaching and learning in digital environments. Understanding the compatibility of this culture with traditional educational processes is crucial for enhancing the effectiveness of contemporary education.

AIM: the aim of this study is to explore the compatibility of virtual pedagogical culture with the traditional educational process. The study seeks to identify key elements of virtual pedagogical culture, assess their impact on teaching and learning, and provide recommendations for effectively integrating these elements into existing educational frameworks.

MATERIALS AND METHODS: the study employs a mixed-methods approach, combining quantitative and qualitative research. Materials include digital learning platforms, virtual classroom tools, and educational technology resources. Methods involve surveys of educators and students, analysis of virtual learning environments, and case studies of institutions implementing virtual pedagogical practices. Data analysis focuses on evaluating the impact of virtual pedagogical culture on student engagement, learning outcomes, and teacher effectiveness.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings indicate that virtual pedagogical culture offers several benefits that are compatible with the educational process. These benefits include increased accessibility and flexibility, enhanced student engagement through interactive and multimedia content, and opportunities for personalized learning.

CONCLUSION: the study concludes that virtual pedagogical culture is largely compatible with the traditional educational process, offering significant enhancements in terms of flexibility, engagement, and personalization. By integrating virtual pedagogical

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

practices with conventional methods, educators can create more dynamic and effective learning environments.

Key words: information, information security, information freedom, differentiation, e-government, activity, Internet, education, virtualization, virtual existence, virtual culture.

For citation: Fotima M. Komilova. (2024) 'Compatibility of virtual pedagogical culture to the educational process', Inter education & global study, (4(2)), pp. 137-144. (In Uzbek).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyayevning "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmonida "talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari shakllantirish, individual ta'lim trayektoriyalariga asoslangan, kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv rejalar ishlab chiqish;

- talabalar qiziqishlari hamda kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga muvofiq ta'lim dasturlarini shakllantirish, tasdiqlash bo'yicha oliy ta'lim muassasalariga bosqichma - bosqich akademik mustaqillik berish;

- o'quv jarayonida xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan**.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida Farmonida eksperiment tariqasida Xorazm viloyatining Qo'shko'pir va Xonqa tumanlarida boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim planshetlari bilan ta'minlanishi va kelgusida barcha hududlarda bosqichma-bosqich joriy etillishi ko'rsatib o'tilgan[2]. Respublikada bosqichma-bosqich joriy etilishi ko'zda tutilayotgan didaktik jarayonga bo'lajak o'qituvchilar tayyor bo'lishlari zarurdirdir.

Jamiyatdagi virtuallashuv jarayonlari globalllashuv jarayonlari bilan parallel va uzviy ravishda davom etadi.Virtual iqtisodiyot, virtual valyuta, virtual mahsulot va boshqa misollar virtual texnologiyalarning keyingi vaqtda salmog'i ortib borayotganidan dalolat beradi.

Virtual talimning, shuningdek, umuman insonni tarbiyalashning asosiy maqsadi - insonning real dunyoda o'z taqdirini, shu jumladan virtual tarkibiy qismini aniqlash va unga erishishdir. [1]

"Virtual" so'zi lotin tilidan kelib chiqib, "Vir", ya'ni erkak so'zini anglatgan. Rimliklar "Vir" so'zidan yangi "virtus" so'zini keltirib chiqaradi va bu so'z "jasur, kuchli, jasoratli, axloqiy xulq-atvor fazilatlariga ega degan ma'noni anglatadi, "virtus" so'zi esa, ushbu fazilatlarning barchasi bir shaxsda namoyon bo'lgan holda qo'llanilgan. Rim mifologiyasida Virtus ma'budasi ham aynan shu xususiyatlari bilan ta'rif etilgan. XII asrda bu so'z franzuz tiliga, so'ngra ingliz tiliga kirib kelgan. Fan va texnologiya sohasida "virtual borliq" atamasi 1970-yillarning oxirida Massachuset texnologiya tadqiqotchisi Jeron Lener tomonidan kiritilgan bo'lib, bu atama kompyuterda yaratiladigan muhitda insonning mavjudligi g'oyasini ifoda etadi[5]

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

XX asrning mashhur fizik va faylasuflari K.F.Vayszekker, P.Devis; E.Kassirer, V.Klifford, A.Pays, I.R.Prigojin, I.L.Rozental, K.Xyubner va boshqalar ishlarida «virtual reallik» tushunchasining «moddiy olam» va «virtual olam» g‘oyalari bilan tuslanishi va hatto taqqoslanishi borasidagi g‘oya rivojlantirilgan.

XX asrning so‘nggi choragida MDHda pedagogika fani doirasida axborotlashgan jamiyatda «virtual reallik»ning yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq pedagogika sohasidagi tadqiqotlarni T.Yu.Kitayevskaya, V.N.Solovev, Ye.A.Myasoyedova, M.G.Muxidinov, A.M.Podreyko, G.Yu.Belyayev, A.V.Xutorskoy L.I.Novikova, M.I.Rojkov, A.K.Lukina, S.L.Novoselova, M.N.Polyakov va boshqa olimlar olib borganlar.

Respublikamizda ma’naviy va pedagogik madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy pedagogik masalalari mamlakatimiz olimlari M.Quronov, Z.Azimova, D.Anvarova, O‘.Asqarova, B.Adizov, R.Djurayev, O.Jamolliddinova, S.Yo‘ldosheva, M.Quronboyev, Z.Qurboniyozova, U.Mahkamov, Sh.Mardonov, O.Musurmonova, X.Xudoyqulov, D.Ro‘ziyeva, D.Sharipova, F.Norboyeva, M.Jumayev, axborot va media madaniyat bo‘yicha S.Babadjanov, N.Rustamova, Sh.Tayloqova, Z.Saliyeva kabilar tomonidan tadqiq etilgan.

Adabiyotlarni tahlil qilish jaroyonida psixologik omillar intellektual, emotsional va motivatsion soha bilan aloqadorlikda tahlil etilib, ta’limda virtual-pedagogik madaniyatni rivojlantirishda motiv, maqsad, his-tuyg‘ular, shaxsiy sifatlari, refleksiyaning o‘rni tadqiq etildi.

Pedagogik omillarga esa milliy, diniy va axloqiy tarbiya, tarbiya paradigmalari, axborot iste’moli madaniyati, deontologik tayyorgarlik kabilar kiritildi.

Tadqiqot mobaynida virtual-pedagogik madaniyatini rivojlantirish ma’naviy profilaktika tizimi, ijtimoiy-pedagogik faoliyat, ma’naviy madaniyatning ta’limga uyg‘unligi asosida takomillashtirilishini taqozo etadi. Ma’naviy madaniyat ham dolzarb muammo sifatida pedagoglarda to‘rtta muhim sohada o‘z o‘rnini belgilab olish (yoki ma’naviy madaniyatga ega bo‘lish) ni namoyon etadi: inson, jamiyat, tabiat, noosfera.

-Inson sifatida o‘z o‘rnini belgilash hayot, individuallikni qadriyat, insonni taraqqiyot cho‘qqisi, deb tushunishni talab etadi.

-Jamiyat sohasida o‘z o‘rnini belgilash Vatan, demokratiya, xuquqiy davlat, oila, mehnat, fuqarolik mas’uliyati tarzidagi tartibda qadriyatlarni egallash orqali yuzaga keladi.

-Tabiat sohasida o‘z o‘rnini belgilash, o‘zini tabiatning bir bo‘lagi deb anglash va o‘zini tabiatga mos takomillashtirish (salomatlik, estetik asos, ma’naviy-axloqiy ideal) orqali tashkil etilishi mumkin. U yana ekologik madaniyatga ega bo‘lishi, tabiatni o‘zlashtirish va asrab-avaylash jarayonida kelajak avlodlar oldidagi mas’uliyat tuyg‘usini tushunib yetishni ham ko‘zda tutadi.

-Noosfera (aql sohasi) o‘z o‘rnini belgilash sohasi sifatida ilmiy texnik taraqqiyot natijalaridan foydalanishda axloqiy mas’uliyatni anglash, inson texnika bilan ishlash jarayonida yetarlicha ma’lumotga ega bo‘lmaganda kelib chiqadigan oqibatlari haqidagi bilimlarni tarkib toptirish, xalqimizning tarixiy, ma’naviy, axloqiy qiyofasiga nisbatan faol fuqarolik munosabatini yanada rivojlanirish, madaniy yodgorliklarni saqlash va tiklash, milliy

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

an’analarni qayta yaratishni talab etadi.

Ta’limda virtual-pedagogik madaniyatni ushbu integrativ sohalar birligi sifatida tushunishda talabaning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun psixologik-pedagogik shart-sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat sifatida qarash mumkin. Bunday pedagogik shart-sharoitlarga ta’lim tizimida quyidagilarni kiritish mumkin:

-ta’lim-tarbiya mazmunini belgilashga xilma-xil yondashuvlar,

-tarbiyaning dialogli, virtual, munozarali metodlari,

-shaxsni shakllantirish jarayonida umuminsoniy qadriyatlarga yo‘nalganligi,

-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishning demokratlashtirish va milliylikni hisobga olish tamoyili.

Shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ommaviy axborot vositalarida axborotni tanlash va to‘g‘ri baholash madaniyati (virtual madaniyat) dolzarb muammolardan biri sanaladi.Ta’lim jaroyonida esa muammoni yechimini izlashda avvalo har bir mutaxassis virtual-pedagogik madaniyatga ega bo‘lishi lozim, deb o‘ylaymiz. Buning uchun har bir talaba ommaviy axborot vositalari (televizor, kompyuter, internetdagi chat, forum, feysbuk, tvitter) dan unumli foydalanishni avvalo o‘zlari bilgan xolda farzandlariga ham o‘rgatishi zarurdir.

Yuqorida sanab o‘tilgan ommaviy axborot vositalari o‘zaro aloqa olib borishga xizmat qiluvchi vositalar bo‘lib, ular orqali kishilar bir-biri bilan so‘zlashib, turli muloqotlar olib borish imkoniyatlariga ega bo‘lishmoqda. Ular ushbu imkoniyatlarni ishga solib, o‘z faoliyatlarini amalga oshirib, ma’lumot orttirishmoqda, bilim olishmoqda, tajriba almashilmoqda, savdo kabi tijorat, reklama ishlarini yo‘lga qo‘yishmoqda. Bu albatta har bir sohada aniq ko‘zga tashlanmoqda. Bir tomondan masofaviy ta’lim olish imkoniyatini bersa va intellektual, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirsa, ikkinchi tomondan real muloqotning virtual shaklga aylanib qolayotganini ham ko‘rishimiz mumkin.

Taqdir taqozosi bilan uzoq masofada, Xorijda ishlayotgan ota-onalar yoki ta’lim olayotgan farzandlar faqat virtual shaklda muloqot olib borilgan bo‘lsa, bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida esa onlayn tarzda turli xil axborotlar, ma’lumotlar almashinuvi nazarda tutilmoqda. Bu albatta hozirgi axborotlashgan jamiyatning ma’lum bir ko‘rinishlari deb qaraydigan bo‘lsak, u holda ijtimoiy farovonlik, ijtimoiy totuvlik komil inson shaxsini shakllantirishda, tarbiyalashda xizmat qilsa, jamiyat a’zolarining, ayniqsa, ta’limda virtual-pedagogik madaniyati ham rivojlanib takomillashib borish kerak edi. Lekin afsuski ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda ayrim muammolar ham ko‘zga tashlanmoqda[4].

Ijtimoiy tarmoqlarda taqdim etilayotgan ta’lim-tarbiya masalasiga qaratilgan axborotlarning taqdim qilinishi, mazmun-mohiyati Sizni qoniqtiradimi?” degan savolgan 284 ta talabalarni 25 nafari (8%) albatta qoniqtiradi, 103 nafari (36%) qisman qoniqtiradi, 126 nafari (44%) umuman qoniqtirmasligini bildirishgan va30 nafari (12%) javob berishim qiyin deya fikrlarni bildirishgan

Ularning fikridan kelib chiqib, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda taqdim qilinayotgan axborotlar ko‘lami juda ko‘p bo‘lib, barchasi ham ta’lim jarayoni uchun virtual pedagogik

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

madaniyatni oshirishda talaba tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, deb ayta olmaymiz.

Ta’limda virtual pedagogik madaniyat, raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar orqali ta'lim berish va o'rganish jarayonlarini ta'minlashga qaratilgan pedagogik modellarni ifodalovchi bir omilldir. Bu omillar, internet, interaktiv darsliklar, veb-saytlar, o'qitish dasturlari, onlayn darslar, video ma'ruzalar, vebinarlar, boshqa raqamli vositalardan foydalanib, o'qituvchilar va o'quvchilarning ta'lim olish va o'rganganini baholash uchun samarali yechimlarni taklif etadi. Virtual pedagogik madaniyatning asosiy maqsadi, o'quvchilarni keng doiradagi ma'lumotlar va ko'nikmalar bilan ta'minlash hamda raqamli dunyoda muvofiq bilim va ko'nikma olish imkoniyatini berishdir. Bu usul, har qanday geografik vaqt chegaralangan kuchli o'qituvchilar bilan hamkorlik qilish va ularga yuqori sifatli ta'lim berishni ta'minlashda yordam beradi.

Virtual pedagogik madaniyat, o'quvchilar va o'qituvchilar orasida aktiv murojaat va muloqotni ta'minlash uchun interaktiv texnologiyalardan foydalanadi. Bu usul, o'quv jarayonini virtual o'rganishni ajoyib va qiziqarli qilish, o'quvchilarning o'zining o'zlashtirilgan yo'nalishlari ustida ishlash, ijodiy fikrlarni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Bunday konsept bilan, o'quvchilar uchun personal o'rganish yo'nalishlarini taqdim etish, barcha o'quvchilarni qamrab oluvchi tajriba va ko'nikmalar tuzish, vaqt va joydan mustaqil ravishda o'qituvchilar bilan ishlash imkoniyatini ta'minlash kabi asosiy vazifalarni hal qilish mumkin. Talabalarda virtual borliqqa mas’uliyatli munosabatning asosiy funksiyalarini tahlil qilishda, shaxsning ichki olami va tashqi muhit bilan ham o‘zaro bog‘liq ekanligini anglash mumkin. Inson ichki rivojlanish orqali o‘zining jamiyatdagi mas’uliyati ortib boradi, ijtimoiy faol, tashkilotchi fuqaro sifatida shakllanib boradi. Virtual boqliqqa mas’uliyatli munosabat – shaxsning virtual boqliqda shaxslararo va jamoa bilan aloqadorlikda o‘zining ijtimoiy va ma’naviy yetukligini aks ettiradi[8].

Ma’naviy - axloqiy me’yorlarga, talablar, qoidalar, urf - odat, an’analarga rioya qilish faoliyati tartibga solinadi. Ayniqsa har bir o‘ziga xos yangiliklar shaxs faolligi, ijodkorligi va shaxsiy madaniyati orqali rivojlanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda keng istiqbolli loyihalar hamda virtual pedagogik madaniyatni rivojlntirish o‘ziga xos ahamiyat kasb etib: virtual ta’lim sharoitiga effektiv ijobiy munosabatini shakllantirish; kasbiy faoliyatining fundamental ko’nikmalarini egallash; o‘qituvchining tashkilotchiligi, kreativ fikrlashi; innovatsion muhitga tayyorligi, o‘ziga xos novatorligi; kasbiy faoliyatida axborotni izlashi yaratishi, qo‘llay olishi va baholashi; pedagogik tashxis va natijalarga ahamiyat berilishi; ta’lim va tarbiya jarayonini integratsiyalay olishi; ta’lim kampusi imkoniyatlaridan oqilona foydalana olishi; perseptiv qobiliyatlar va harakatchanlikning difrensiyalashuvi; kabi maqsadlar sari yetaklaydi.

Demak, o‘qituvchilar faoliyatida virtual - pedagogik madaniyat virtual tafakkurning differensiyalashuvi orqali ham uyg’unlikda rivojlanadi. Virtual ta’lim texnologiyalari esa o‘quvchilarda faoliyat turlari, tasavvurlar, ijodiy imkoniyatlarini yanda rivojlanishiga xizmat qiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida Farmoni https:G‘G‘lex.uzG‘ruG‘docsG‘- 4545884.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-1059-sonli Qarori, 31 dkabr, 2019.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “O’zbekiston-2030“ strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g’risida. Yangi O‘zbekiston“ ijtimoiy siyosiy gazeta 2023.12.09.
4. Мардиева, Г. К. (2013). Психолого-педагогические условия адаптации молодых педагогов в образовании. science and world, 69
5. Albani, Justin M., and David I. Lee. Virtual reality-assisted robotic surgery simulation. G‘G‘ Journal of Endourology 21.3, 2007. – P.285-287.
6. Mo‘minov Elyor Abdualiyevich “Ta’lim tizimining virtuallashuvi – ilmiy samaradorlikni oshirish omili sifatida virtual ta’limni qo‘llash”. “Fan va innovatsiya 2022: rivojlanish va ustuvor yo‘nalishlari”Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.I Namangan shahri 2022 yil, 20 oktyabr .
7. Салиева З.Т. Педагогика олий таълим муассасаси талабаларининг маънавий маданиятини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш. педагогика фанлари бўйича докторлик (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2017. – 16 б.
8. Леушкин Р.В. Виртуалноʻй об’ект как проблема конструктивного реализма. Фундаментальноʻе исследования. 2014. N0.6.URL.:http: www.etymonline. com. index.php? termqvirtual.
9. Ходжаев Б.Х. Умумий педагогика Дарслик.Т.“Сано-стандарт”, 2017. 21б.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Fotima Komilova Maxmudovna**, dots., pedagogika fanlari bo‘yicha f.d. (PhD) [**Фотима Махмудовна Комилова,** доцент, доктор философских наук в области педагогики, (PhD], [**Fotima M. Komilova**, Associate Professor, Doctor of Philosophy in Pedagogy, (PhD)]; manzil: O'zbekiston, Andijon viloyati, Shahar: Andijon, Universitet ko'chasi, 129 [адрес: Узбекистан, Андижанская область, Город: Андижан, Университетская улица, 129], [address: Uzbekistan, Andijan region, City: Andijan, University street, 129]; E-mail: komilovafotimaxon7171@gmail.com

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original peper

BIOLOGIYA TA`LIMI JARAYONIDA XALQARO BAHOLASH DASTURI (PIZA) ASOSIDA TA`LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHNING MOHIYATI

© M.N. Ataqulova[1]✉, N.R. Achilova[2]✉
[1,2]Navoiy davlat pedagogika instituti, Navoiy, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: xalqaro talabalarni baholash dasturi (PISA) 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha kompetentsiyalarini baholash orqali butun dunyo bo‘ylab ta’lim tizimlarini baholash uchun mezon bo‘lib xizmat qiladi. PISA standartlarini biologiya bo‘yicha ta’lim jarayoniga integratsiyalash o‘quvchilarning biologik savodxonligi sifatini oshirishi, tanqidiy fikrlashni, muammolarni hal qilishni va biologik tushunchalarni real hayotda qo‘llashni rivojlantirishi mumkin.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi PISA standartlari asosida biologiya ta’limida o‘quv jarayonini tashkil etishning joriy etilishi va samaradorligini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot PISA asosidagi metodologiyalar talabalarning biologiyani tushunishiga va biologik bilimlarni real hayot stsenariylarida qo‘llash qobiliyatiga qanday ta’sir qilishini aniqlashga qaratilgan.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda o'quv rejasini tahlil qilish, sinfdagi kuzatishlar va talabalarni baholash kombinatsiyasidan foydalangan holda sifatli yondashuv qo'llaniladi. Materiallarga PISA biologiyasini baholash asoslari, ishtirokchi maktablarning biologiya o‘quv dasturlari va o‘quvchilarning ishlash ma’lumotlari kiradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko'rsatadiki, PISA standartlarini biologiya ta'limiga integratsiya qilish o'quvchilarning faolligi va tushunishini oshiradi. PISA-ga moslashtirilgan ta'lim so'rovga asoslangan o'rganish, tanqidiy fikrlash va biologik tushunchalarni kundalik vaziyatlarda qo'llashga urg'u beradi.

XULOSA: tadqiqotning xulosasiga ko‘ra, biologiya ta’limida o‘quv jarayonini PISA standartlari asosida tashkil etish o‘quvchilarning ilmiy savodxonligi va muammoni yechish qobiliyatini rivojlantirish uchun foydalidir. o'smirlik davrida ruhiy salomatlik bilan bog'liq muammolarni hal qilmaslik balog'at yoshida tuzatilishi uzoq davom etadigan oqibatlarga olib keladi, bunday jarayonlar o’smirning ham jismoniy, ham ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir qiladi va katta yosh davrida hayoti uchun imkoniyatlarni cheklaydi.

Kalit so‘zlar: piza, ijodkorlik, fikr, ilmiy tadqiqot, innovatsiya, faoliyat, vazifa, tahlil, dars, tadqiqot, tadqiqot-konkurinsiya, tajriba, ijod, vosita, metod, g‘oya, eksperimet.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Iqtibos uchun: Ataqulova M.N., Achilova N.R. Biologiya ta`limi jarayonida xalqaro baholash dasturi (piza) asosida ta`lim jarayonini tashkil etishning mohiyati. // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 145-153.

В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ БИОЛОГИИ СУЩНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА ОСНОВАНА НА МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРОГРАММЕ ОЦЕНКИ (PISA)

© М.Н. Атакулова[1]✉, Н.Р. Ачилова[2]✉
[1,2]Навоийский государственный педагогический институт, Навоий, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: программа международной оценки учащихся (PISA) служит эталоном для оценки систем образования во всем мире, оценивая компетенции 15-летних учащихся в области чтения, математики и естественных наук. Интеграция стандартов PISA в биологическое образование может улучшить биологическую грамотность учащихся, развить критическое мышление, способность решать проблемы и применять биологические концепции в реальной жизни.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является анализ реализации и эффективности организации учебного процесса в биологическом образовании на основе стандартов PISA. Целью исследования является определение того, как методологии, основанные на PISA, влияют на понимание учащимися биологии и их способность применять биологические знания в реальных жизненных ситуациях.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании используется качественный подход, сочетающий анализ учебной программы, наблюдения в классе и оценки учащихся. Материалы включают систему оценки биологии PISA, учебные программы по биологии участвующих школ и данные об успеваемости учащихся.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показывают, что интеграция стандартов PISA в биологическое образование повышает вовлеченность и понимание учащихся. Обучение, ориентированное на PISA, делает упор на обучение, основанное на запросах, критическое мышление и применение биологических концепций в повседневных ситуациях.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: согласно заключению исследования, организация учебного процесса по биологическому образованию на основе стандартов PISA полезна для развития научной грамотности учащихся и способности решать проблемы. Нерешение проблем психического здоровья в подростковом возрасте имеет долгосрочные последствия, которые невозможно исправить во взрослом возрасте, такие процессы негативно влияют как на физическое, так и на психическое здоровье подростка и ограничивают возможности для жизни во взрослой жизни.

Ключевые слова: пиза, творчество, мысль, научное исследование, новаторство, деятельность, задача, анализ, урок, исследование, исследование-соревнование, опыт, творчество, инструмент, метод, идея, эксперимент.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Для цитаты: Атакулова М.Н., Ачилова Н.Р. В процессе обучения биологии сущность организации образовательного процесса основана на международной программе оценки (pisa).. // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 145-143.

THE ESSENCE OF ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS ON THE BASIS OF THE INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM (PIZA) IN THE PROCESS OF BIOLOGY EDUCATION

© Manzura N. Atakulova[1]✉, Nazifa R. Achilova[2]✉
[1,2]Navoi State Pedagogical Institute,Navoi, Uzbekistan

INTRODUCTION: the program for International Student Assessment (PISA) serves as a benchmark for evaluating education systems around the world by assessing the competencies of 15-year-old students in reading, mathematics, and science. Integrating PISA standards into biology education can improve students' biological literacy, develop critical thinking, problem solving, and real-life application of biological concepts.

AIM: the purpose of this study is to analyze the implementation and effectiveness of the organization of the educational process in biology education based on PISA standards. The study aims to determine how PISA-based methodologies affect students' understanding of biology and their ability to apply biological knowledge in real-life scenarios.

MATERIALS AND METHODS: the study uses a qualitative approach using a combination of curriculum analysis, classroom observations, and student evaluations. Materials include the PISA biology assessment framework, biology curricula from participating schools, and student performance data.

DISCUSSION AND RESULTS: the results show that integrating PISA standards into biology education increases student engagement and understanding. PISA-aligned learning emphasizes inquiry-based learning, critical thinking, and the application of biological concepts to everyday situations.

CONCLUSION: according to the conclusion of the research, organization of educational process in biology education based on PISA standards is useful for developing students' scientific literacy and problem solving ability. Failure to address mental health issues during adolescence has long-lasting consequences that cannot be corrected in adulthood, such processes negatively affect both physical and mental health of the adolescent and limit opportunities for life in adulthood.

Keywords: pisa, creativity, thought, scientific research, innovation, activity, task, analysis, lesson, research, research-competition, experience, creativity, tool, method, idea, experiment.

For citation: Manzura N. Atakulova., Nazifa R. Achilova. (2024) ‘Essence of organizing the educational process on the basis of the international assessment program (PIZA) in the process of biology education, Inter education & global study, (4(2)), pp. 145-153. (In Uzbek).

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Mamlakatimizda innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini davlat ta'lim standartlari asosida shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir. Bu borada O'zbekiston Respublikasida qo'yilayotgan amaliy qadamlarga xalq va oliy ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to'g'risida hukumat qarorining qabul qilinishi, Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA-International Association for the Evaluation of Educational Achiyevement) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishini misol sifatida keltirish mumkin.

Mazkur vazifalarning amaliy ifodasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspekstiyasi bilan Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti o'rtasida o'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro dasturda (Agreement for participation programme for international student assessment - PISA 2021) ishtirok etish to'g'risidagi kelishuvga erishildi. IEA tashkiloti tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning aksariyati o'quvchilarning akademik faoliyatini bir yoki bir nechta fanlardan yoki fanlararo uyg'unlik asosida baholashni o'z ichiga oladi, bu esa dunyo bo'yicha umumiy va har bir mamlakat kesimida ta'lim jarayonlarini chuqur tahlil qilishga yordam beradi. O'quvchi-talabalarning erishgan yutuqlarini o'rganishda barcha o'quvchilardan emas, balki ushbu qatlamning vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan obyektiv testlarni o'tkazish orqali baholanadi.

Ta'limning asosiy vazifasi O'quvchi-talabalarni jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikmadir. Bu ko'nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari «XXI asr» ko'nikmalariga ega ishchilarni taqozo etayotgan dunyoga moslashishga ko'maklashadi. Umuman olganda, bugungi o'quvchi kela jakda hozir hatto mavjud bo'lmagan sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi texnologiyalar orqali hal etishi kutilmoqda.

PISA tadqiqotidan ko'zlangan asosiy maqsad, ta'lim siyosati va tizimiga yaqqol natijalarga ega, o'quvchilarning kreativ fikrlash borasida xalqaro taqqoslash mumkin bo'lgan ma'lumotni taqdim etishdir. Topshiriq ostidagi kreativ fikrlash jarayoni ta'lim orqali takomillashtirishga moyil bo'lishi kerak; ta'lim jarayoni kontekstidagi ushbu fikrlash jarayonining turli yordamchi omillari aniq belgilanishi va baholashdagi ko'rsatkichlarga bog'liq bo'lishi kerak; baholashda ishlatilgan soha mazmuni (kontenti) oddiy o'rta maktabda o'tiladigan fanlarga chambarchas bog'liq bo'lishi kerak; baholash maktab va hayotda ijodiy yutuqlar borasida prognozlashtirish qiymatiga ega bo'lishi uchun, testlar ham o'quvchi kundalik hayotida, ham sinfda, ham tashqarida, mashg'ul bo'lgan real faoliyatlarga o'xshashi zarur.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

PISA tadqiqotida kreativ fikrlash yordamchi omillarining murakkab turkumi borasida ma’lumot yig‘ish qiyin, lekin amalga oshirsa bo‘ladigan ishdir. PISA ikki qismdan iborat: test va so‘rovnoma. Test qismi o‘quvchilar g‘oya berish, uni tahlil etish va takomillashtirish bilan bog‘liq vazifalarda o‘zlarining ijodiy yondashuv kognitiv jarayonlarini naqadar ishga sola olishlari haqida ma’lumot beradi. So‘rovnoma ushbu ma’lumotni o‘quvchi kreativ fikrlashining boshqa yordamchi omillari borasidagi ma’lumot bilan, jumladan, ijodiy yondashuv (ochiqlik, maqsad sari ishtiyoq va ishonch), maktab muhiti haqidagi tasavvurlari, maktab va uning tashqarisida shug‘ullanadigan faoliyat kabi ma’lumotlar bilan to‘ldiradi. Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik deganda shaxsning tabiiy fanlarga oid g‘oyalarni bilishi, faol fuqaro sifatida tabiiy fanlar bilan bog‘liq muammolarni hal qila olishi tushuniladi

PISA topshiriqlari - tadqiqotning baholash vositasi: tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik kompetensiyalari; kompetensiya – Bilim – Kontekst - Kognitiv daraja - Savol formati

I.Kompetensiya: hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish (tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan tegishli bilimlarni yodga olish va ulardan foydalanish; izohlovchi modellar va tasvirlarni anglash, yaratish va ulardan foydalanish; tegishli prognozlar qilish va asoslash; izohlovchi farazlarni taklif etish.); ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash (berilgan ilmiy tadqiqotda o‘rganilayotgan muammoni aniqlash; ilmiy tadqiq etilishi mumkin bo‘lgan savollarni farqlash; berilgan muammoni ilmiy tadqiq etish sulini taklif etish; berilgan muammoni ilmiy tadqiq etish usullarini baholash; ma’lumotlarning ob’yektivligi va ishonchliligini ta’minlashda olimlar tomonidan; qo‘llaniladigan usullarni tavsiflash va baholash); ma’lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish (ma’lum bir ko‘rinishdagi ma’lumotlarni boshqa ko‘rinishda ifodalash; ma’lumotlarni tahlil va talqin qilish hamda tegishli xulosalar chiqarish; ilmiy adabiyotlardan olingan matnlardagi faraz, dalil va xulosalarni aniqlash; ilmiy dalil va nazariyalarga asoslangan mulohazalarni ilmiy bo‘lmagan boshqa qarashlardan farqlay olish; turli manbalar (masalan, gazeta, jurnal, internet)dan olingan ilmiy mulohaza va dalillarni baholash.)

II. Bilim – sistema: tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan tegishli bilimlarni yodga olish va ulardan foydalanish:

1. Fizik sistemalar (fizika va kimyo) Moddalarning tuzilishi, Moddalarning fizik xossalari, Moddalarning kimyoviy xossalari, Harakat va kuch, masofadan ta’sir ko‘rsatish, Energiya va uning transformatsiyasi, Energiya va materiyaning o‘zaro ta’siri

2. Tirik sistemalar (biologiya) Hujayralar, Organizmlarning tuzilishi, Odamlar (salomatlik, oziq-ovqat, ovqat hazm qilish organlar sistemasi va b.) Populyatsiyalar (turlar, evolyutsiya, bioxilmaxillik, genetik o‘zgarishlar) Ekosistemalar (oziq zanjiri, modda va energiya almashinuvi)

3. Yer va fazo sistemalari (geografiya va astronomiya) Biosfera (ekosistemalarning faoliyati, barqarorlik), Yer qatlamlarining tuzilishi, Energiya Yerdagi o‘zgarishlar, Yerning koinotdagi o‘rni, Yer tarixi Koinot ko‘lami va uning tarixi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

III. Kontekstlar - shaxsiy, mahalliy, milliy, global

IV. Kognitiv daraja - Pizaning murakkablik darajasi.

V. Savol farmati – test, ha yoki yo`q savol, nuqtalar o`rnini to`ldirish, izoh yozish… va hokoza.

Namuna:COVID-19 PANDEMIYASI. SARS-CoV-2, ya'ni og'ir o'tkir nafas olish sindromi koronavirusi keltirib chiqaradigan COVID-19 koronavirus infeksiyasi kasalligi pandemiyasi. Ilk marotaba 2019-yilning dekabrida Xitoyning Uxan shahrida qayd etilgan kasallik 2020-yilning 11-martida Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan pandemiya deb belgilandi. Koronavirus kelib chiqishini tekshirayotgan mutaxassislari xastalikning laboratoriyadan chiqqani haqidagi taxminni rad etdi. Virus grippga o'xshash tarzda yo'talganda hamda aksa berganda chiqariladigan tomchilar orqali shaxsdan-shaxsga yuqadi. Virus bemorda kasallik alomatlari yuzaga kelganda eng yuqumli bo'lsa-da, kasallik belgilari paydo bo'lishidan oldin ham boshqalarga yuqishi mumkin. Kasallik alomatlari odatda besh kunda paydo bo'ladi, ammo bu davr 2 kundan 14 kungacha davom etishi mumkin. Kasallikning asosiy alomatlari isitma, yo'tal va nafas qisishidir. Kasallik bemorda pnevmoniya hamda o'tkir nafas olish distress-sindromi keltirib chiqarishi mumkin.

1-savol: Yuqoridagi matnni diqqat bilan o`qing va quyidagi jadvalda har bir fikr uchun "Ha" yoki "Yo`q" ni aylanaga oling.

SARS-CoV-2 nima?	***"Ha"yoki "Yo`q"***
Irsiy molekulasi tarkibida Uratsil nukleotidini saqlaydi	"Ha"yoki "Yo`q"
Noqulay sharoitda anabioz holatida bo`ladi	"Ha"yoki "Yo`q"
Strukturasida S-oqsillar hujayra ichiga kirishda muhim ahamiyatga ega.	"Ha"yoki "Yo`q"

O`quvchi-talabalar ushbu savolga javob berishlari uchun Viruslar mavzusidan to`liq bilimlarga ega bo`lislari zarur. Agar o'quvchilar quyidagi ketma-ketlikda uchta to'g'ri javobni belgilashsa, javob to'liq qabul qilinadi (1 ball): Ha, Yo'q, Ha. Javob yo'q yoki boshqa javoblar bo'lsa, javob qabul qilinmaydi (0 ball)

Mazkur topshiriq o'quvchilarning hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish kompetensiyasini baholashga qaratilgan.

Savolning tartib raqami	1
Kompetensiya	Ma`lumot va dalillarni ilmiy talqin qilish
Bilim-sistema	Metodologik-Tirik
Kontekst	global
Kognitiv daraja	O`rta
Savol shakli	Ha yoki yo`q

VIRUSNING TARQALISHI. Kasallik tarqalishi oldini olish maqsadida sayohat qilishni cheklash, karantin, komendantlik soati, tadbirlarni keyinga qoldirish va bekor qilish hamda muassasalarni yopish kabi choralar ko'rildi. Xususan, virus tarqala boshlagan Xubey provinsiyasi karantinga olindi, Italiya, Ispaniya, Fransiya, Chexiya va Germaniyada mamlakat bo'ylab karantin joriy qilindi, Xitoy va Janubiy Koreyada komendantlik soati joriy qilindi turli mamlakatlarda chegaralar yoppasiga yopildi yoki

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

sayyohlarga qarshi cheklovlar joriy qilindi, aeroport va poyezd stansiyalarida nazorat choralari yo‘lga qo‘yildi, virus keng tarqalayotgan hududlarda sayohat qilishga qarshi tavsiyalar e’lon qilindi. Kamida 115 davlatda universitet va maktablar yoppasiga yoki ayrim hududlarda yopildi, bu choralar 950 milliondan oshiq talaba faoliyatiga ta’sir ko‘rsatdi. O‘zbekistonda virusni yuqtirish holati ilk marotaba 15-mart kuni qayd etildi.

2-Savol. Ushbu rasmni diqqat bilan kuzating. O`rganganlaringiz asosida to`g`ri javobni tanlang?

A.Dunyo miqyosida Avstraliya materigida kasallanish holati yuqori bo`lgan

B.Afrika qit`asining shimoliy qismidagi aholisi kasallikka ko`proq chalingan

C.Qit`alardan uzoqda joylasgan orollarda aholining kasallikka nisbatan juda kam darajada chalinishi kuzatilgan

D.Yevropa qit`asida virusga chalinish bo`yicha holat stabil

Baholash mezoni

Ushbu savolga o`quvchilar geografiya fanidan xaritada ishlash bo`yicha olgan bilimlari asosida javoblarni tanlashlari zarur. O`quvchilar yuqoridagi rasmni kuzatib A va C javobni belgilashgan bo`lishsa (1 ball) to`g`ri javob. Boshqa holatlarda esa (0 ball) noto`g`ri javob bo`ladi. Javob qabul qilinmaydi.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish kompetensiyasini baholashga qaratilgan.

Savolning tartib raqami	**2**
Kompetensiya	Ma`lumot va dalillarni ilmiy talqin qilish
Bilim-sistema	Metodologik-Tirik
Kontekst	global
Kognitiv daraja	O`rta
Savol shakli	Bir yoki bir nechta to`g`ri javob tanlanadigan

2020 - yil yanvar oyida Moderna kompaniyasi mRNA-1273 deb nomlangan SARS-CoV-2 virusiga qarshi RNK vaksinasi ishlab chiqilganini e’lon qildi. Moderna texnologiyasi bu — SARS-CoV-2 zarralari yuzasida mavjud bo‘lgan stabillashgan boshoqli oqsilni kodlash orqali koronaviruga qarshi immunitetni keltirib chiqaradigan mRNA-1273 deb nomlangan nukleozid bilan modifikatsiyalangan RNK (modRNA) birikmasi.

Ushbu e’londan so‘ng Modernaning aksiyalari ko‘tarilib, bosh direktor va boshqa rahbarlar o‘z ulushlarini sotish bo‘yicha katta dasturni boshladi.2020-yil mart oyida AQSh Milliy allergiya va yuqumli kasalliklar instituti bilan hamkorlikda odamlarda mRNA-1273’ning I bosqich sinovlari boshlandi. Aprel oyida AQShning Biotibbiy ilg‘or tadqiqotlar va ishlab chiqish ma’muriyati (BARDA) Moderna vaksinasini yaratish uchun 483 million dollargacha mablag‘ ajratdi. May oyida boshlanishi kerak bo‘lgan II bosqichni dozalash va samaradorligini o‘rganish rejalari aniqlandi. Moderna shveysariyalik vaktsinalarni ishlab chiqaruvchi Lonza Group bilan yiliga 300 million dozani etkazib berish bo‘yicha hamkorlik shartnomasini imzoladi. 2020-yil 25-mayda Moderna kompaniyasi 600 nafar katta yoshli ishtirokchilar bilan vaktsinaning ikki dozasi mRNA-1273’ga qarshi antikor reaksiyasining xavfsizligini va farqlarini baholash uchun IIa bosqichini boshladi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

3-savol Modern vaksinasi matnini yaxshilab o`qing. Vaksina yaratishda qanday usullardan foydalanganliklarini yozing?

Baholash mezoni

O`quvchi-talabalar ushbu savolgan turlicha fikr mulohazalar keltirishlari mumkin. Ular ichida: zamonaviy biotexnologik usul yordamida vaksina yaratildi; gen injeneriyasidan foydalanildi; transformatsiya hodisasi yuz bergan kabi javoblarni bersa (1 ball) to`g`ri hisoblanadi qolgan holatlarda esa (0 ball) noto`g`ri javob bo`lib hisobga olinmaydi.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish kompetensiyasini baholashga qaratilgan.

Savolning tartib raqami	**3**
Kompetensiya	Ma`lumot va dalillarni ilmiy talqin qilish
Bilim-sistema	Metodologik-Tirik
Kontekst	global
Kognitiv daraja	O`rta
Savol shakli	Javobni tanlang

4-savol. Quyidagi ma’lumotlarga qanchalik darajada qiziqasiz?Har bir qatorda faqat bitta katakni belgilang.

	Ma`lumotlar	**Juda qiziq**	**Qiziq**	**Unchalik emas**	**Qiziq emas**
1	Yuqumli infeksiyali kasalliklarga qarshi vaksina qilinishning samaradorligi				
2	Yuqumli infeksiyali kasalliklar oqibatida demografik ko`rsatkichlarning o`zgarib turishi				
3	Ommaviy qirg`inga sabab bo`luvchi kasalliklar va ularning tarixi				

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish kompetensiyasini baholashga qaratilgan

Savolning tartib raqami	4
Kompetensiya	Ma`lumot va dalillarni ilmiy talqin qilish
Bilim-sistema	Metodologik-Tirik
Kontekst	shaxsiy
Kognitiv daraja	O`rta
Savol shakli	Bir yoki bir nechta to`g`ri javob tanlanadigan

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchi-talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan kreativ topshiriqlardan foydalanish o‘quv jarayonini hamda darsdan tashqari mashg`ulotlarni samarasini tashkil etishda va talabalarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini va faoliyatini rivojlantirishda ma’lum maqsadlarga erishishga yordam beradi, talabalarning bilim olishga bo`lgan qiziqishlarini oshirish, ularni yanada yaxshi natijalarga erishishga yo‘naltiradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Umuman olganda, tadqiqotchilar kundalik ijodkorlik amaliyot va ta’lim orqali takomillashtirilishi mumkin degan xulosada yakdildir. Demak, tug‘ma talantning ahamiyatini kamaytirish hamda takomillashtirish mumkin bo‘lgan shaxsning kreativ fikrlash qobiliyatiga ko‘proq urg‘u berish maqsadida PISA tadqiqoti kreativ fikrlash yo‘nalishining baholashi mana shu kichik kreativlik bilan bog‘liq vazifalarga asosiy e’tiborni qaratadi. Kreativ fikrlashning bu turi nafaqat insho yozish yoki rasm chizish kabi asosan ichki dunyoni aks ettirish talab qilinadigan ta’lim kontekstiga, balki g‘oya berish masalalarini tahlil etish, jamiyatdagi muammolarni hal etishga aloqador bo‘lgan kengroq sohalarga ham taalluqlidir. Shunday qilib, ta`lim jarayonida tabiiy fanlarni o`qitishda o`quvchilarning tafakkurini oshirish orqali dars jarayonlarini tashkil etish hozirgi zamon talablaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. PISA tadqiqotida kreativ fikrlashni baholash doirasi (PISA 2021 Creative Thinking Framework (Third Draft))/ Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti/Umumiy tahrir – U.Sharifxodjayev, D.Norboyeva / Tarjima – M. Maxsudov/ Xalq ta’limi vazirligi – Toshkent, 2020-yil, 76 bet.
2. M.N.Ataqulova., M.F.Baxodirovna, THE EFFECTIVENESS OF DEVELOPING STUDENTS'CREATIVE THINKING IN TEACHING BIOLOGICAL SCIENCES. International Journal of Advance Scientific Research, 3(09), 170-174.
3. TDPU huzuridagi tarmoq markazi dotsenti, p.f.n., M.Usmonboeva, katta o‘qituvchi A.To‘raev “Kreativ pedagogika asoslari”moduli bo‘yicha O`quv – uslubiy qo`llanma 2016 yil.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Manzura Ataqulova Ne’matovna,** dotsent, **Nazifa Achilova Rahmonqulovna**, **magistrant** [**Манзура Атақулова Неъматовна,** доцент**, Назифа Ачилова Раҳмонқуловна,** магистрант], [**Manzura N.Atakulova, assistant professor, Nazifa R. Achilova, master student**]; manzil: 210100,O'zbekiston, Navoiy sh., Ibn SIno ko`chasi 45] [адрес: 210100, Узбекистан, Ташкент, г. Навои, ул. Ибн Сины, 45], [address: 210100, Uzbekistan, Navoi sh., 45 Ibn Sino street]; e-mail: manzuraataqulova@gmail.com achilovanazifa@mail.ru

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original peper

EVTAGOGIK TA'LIMNING MUSTAQIL SOHA SIFATIDA RIVOJLANISHI

© M.R. Sobirova[1]✉
[1]Buxoro davlat pedagogika instituti,Buxoro,O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: evtagogik ta'lim, o'z-o'zini aniqlash tushunchasidan kelib chiqqan atama, o'quvchilarning avtonomiyasi, o'zini o'zi boshqarishi va shaxsiy ta'lim maqsadlarini belgilash qobiliyatiga urg'u beradi. Mustaqil soha sifatida evtagogik ta'lim o'quv jarayonida o'quvchining roliga ko'proq e'tibor berish orqali an'anaviy ta'lim paradigmalarini qayta belgilashga intiladi. Ushbu maqolada evtagik ta'limning rivojlanishi, uning nazariy asoslari va ta'lim amaliyotiga amaliy ta'sir ko'rsatadi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi evtagik ta'limning mustaqil soha sifatida rivojlanishi va shakllanishini o'rganishdir. Tadqiqot evtagogik ta'limning asosiy tamoyillari va metodologiyalarini aniqlashga, uning umrbod ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishdagi samaradorligini baholashga va uni mavjud ta'lim tizimlariga integratsiya qilish strategiyalarini taklif qilishga qaratilgan.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda keng qamrovli adabiyotlarni ko'rib chiqish va vaziyatni tahlil qilish qo'llaniladi. Materiallar o'z ichiga ilmiy maqolalar, ta'lim asoslari va evtagogik tamoyillarni amalga oshirgan institutlarning amaliy tadqiqotlarini o'z ichiga oladi. Usullar o'z-o'zidan aniqlangan ta'limning nazariy modellarini tahlil qilish, amaliy tadqiqotlar natijalarini baholash va evtagogik ta'limning samaradorligi va muammolari bo'yicha sifatli ma'lumotlarni to'plash uchun o'qituvchilar va o'quvchilar bilan suhbatlar o'tkazishni o'z ichiga oladi.

MUNOZARA VA NATIJALAR: topilmalar evtagogik ta'limning bir nechta asosiy komponentlarini, jumladan, o'quvchilarning avtonomiyasini, shaxsiylashtirilgan ta'lim yo'llarini va real dunyoda muammolarni hal qilishning integratsiyasini ta'kidlaydi. Evtagogik ta'lim o'quvchilarga o'zlarining ta'lim yo'llarini nazorat qilish imkoniyatini beradi, tanqidiy fikrlashni, moslashuvchanlikni va ichki motivatsiyani rivojlantiradi. Muhokama evtagogikaning nazariy asoslarini o'rganadi, uni pedagogika va andragogika kabi boshqa ta'lim paradigmalari bilan taqqoslaydi va evtagogika tamoyillarini turli ta'lim sharoitlarida amalga oshirishning amaliy yondashuvlarini belgilaydi. Keys tadqiqotlari o'quvchilarning faolligi va yutuqlarida sezilarli yaxshilanishlarni ko'rsatadi, bu transformativ yondashuv sifatida evtagogik ta'limning hayotiyligini qo'llab-quvvatlaydi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

XULOSA: tadqiqot shuni ko'rsatadiki, evtagik ta'lim mustaqil soha sifatida muhim salohiyatga ega bo'lib, an'anaviy ta'lim modellariga o'quvchiga yo'naltirilgan alternativani taklif qiladi. O'z taqdirini o'zi belgilash va shaxsiylashtirilgan ta'limni ta'kidlab, evtagik ta'lim odamlarni zamonaviy dunyoning murakkabliklariga yaxshiroq tayyorlashi mumkin. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasalari o'quvchilarning mustaqilligini oshirish va umrbod ta'limni rivojlantirish uchun evtagik tamoyillarni qabul qilishni ko'rib chiqishlari kerak. Kelajakdagi tadqiqotlar evtagogik ta'lim uchun mustahkam asoslarni ishlab chiqishga va uning turli ta'lim darajalari va madaniy kontekstlarga ta'sirini o'rganishga qaratilishi kerak.

Kalit so‘zlar: evtagogika, o‘z-o‘zini o‘qitish, “shu yerda, har doim va hamma joyda”, pedagogika, andragogika, uzluksiz ta’lim, evtagogik yondashuv

Iqtibos uchun: Sobirova M.R. Evtagogik ta’limning mustaqil soha sifatida rivojlanishi. // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 154–161.

РАЗВИТИЕ ЭВТАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ОБЛАСТИ

© М.Р. Собирова[1]✉

[1]Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: эутагогическое образование, термин, полученный из концепции самостоятельного обучения, подчеркивает автономию учащегося, самоуправление и способность ставить личные цели обучения. Как независимая область, эвтагогическое образование стремится переопределить традиционные образовательные парадигмы, уделяя больше внимания роли учащегося в процессе обучения. В данной статье исследуется развитие эвтагогического образования, его теоретические основы и практическое значение для образовательной практики.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является изучение эволюции и становления эвтагогического образования как самостоятельной области. Исследование направлено на определение основных принципов и методологий эвтагогического образования, оценку его эффективности в развитии навыков обучения на протяжении всей жизни и предложение стратегий для его интеграции в существующие образовательные системы.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании используется всесторонний обзор литературы и анализ тематических исследований. Материалы включают академические статьи, образовательные программы и тематические исследования учреждений, внедривших эвтагогические принципы. Методы включают анализ теоретических моделей самостоятельного обучения, оценку результатов тематических исследований и проведение интервью с преподавателями и

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

учащимися для сбора качественных данных об эффективности и проблемах эвтагогического образования.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты подчеркивают несколько ключевых компонентов эвтагогического образования, включая автономию учащихся, персонализированные траектории обучения и интеграцию решения реальных проблем. Эутагогическое образование дает учащимся возможность взять под контроль свой образовательный путь, способствуя критическому мышлению, адаптивности и внутренней мотивации. Дискуссия углубляется в теоретические основы эвтагогики, сравнивая ее с другими образовательными парадигмами, такими как педагогика и андрагогика, и обрисовывает практические подходы к реализации принципов эвтагогики в различных образовательных контекстах. Тематические исследования демонстрируют значительные улучшения в вовлеченности и успеваемости учащихся, что подтверждает жизнеспособность эвтагогического образования как преобразующего подхода.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в исследовании делается вывод, что эвтагогическое образование имеет значительный потенциал как независимая область, предлагающая личностно-ориентированную альтернативу традиционным моделям образования. Подчеркивая самоопределение и персонализированное обучение, эвтагогическое образование может лучше подготовить людей к сложностям современного мира. Результаты показывают, что образовательным учреждениям следует рассмотреть возможность принятия эвтагогических принципов для повышения самостоятельности учащихся и содействия обучению на протяжении всей жизни. Будущие исследования должны быть сосредоточены на разработке надежных рамок эвтагогического образования и изучении его влияния на разные уровни образования и культурные контексты.

Ключевое слова: эвтагогика, самообучение, «здесь, всегда и везде», педагогика, андрагогика, непрерывное образование, эвтагогический подход

Для цитаты: Собирова М.Р. Развитие эвтагогического образования как самостоятельной области. // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 154–161.

DEVELOPMENT OF EUTAGOGIC EDUCATION AS AN INDEPENDENT FIELD

© Mohira R. Sobirova[1]✉

[1]Bukhara state pedagogical institute,Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: eutagogic education, a term derived from the concept of self-determined learning, emphasizes learner autonomy, self-direction, and the ability to set personal learning goals. As an independent field, eutagogic education seeks to redefine traditional educational paradigms by placing greater emphasis on the learner's role in the

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

learning process. This article explores the development of eutagogic education, its theoretical foundations, and practical implications for educational practice.

AIM: the aim of this study is to examine the evolution and establishment of eutagogic education as an independent field. The study seeks to identify the core principles and methodologies of eutagogic education, evaluate its effectiveness in fostering lifelong learning skills, and propose strategies for its integration into existing educational systems.

MATERIALS AND METHODS: the study employs a comprehensive literature review and case study analysis. Materials include academic articles, educational frameworks, and case studies from institutions that have implemented eutagogic principles. Methods involve analyzing theoretical models of self-determined learning, evaluating case study outcomes, and conducting interviews with educators and learners to gather qualitative data on the efficacy and challenges of eutagogic education.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings highlight several key components of eutagogic education, including learner autonomy, personalized learning paths, and the integration of real-world problem-solving. Eutagogic education empowers learners to take control of their educational journey, fostering critical thinking, adaptability, and intrinsic motivation. The discussion delves into the theoretical underpinnings of eutagogy, comparing it with other educational paradigms such as pedagogy and andragogy, and outlines practical approaches for implementing eutagogic principles in various educational contexts. Case studies demonstrate significant improvements in learner engagement and achievement, supporting the viability of eutagogic education as a transformative approach.

CONCLUSION: the study concludes that eutagogic education has significant potential as an independent field, offering a learner-centered alternative to traditional education models. By emphasizing self-determination and personalized learning, eutagogic education can better prepare individuals for the complexities of the modern world. The findings suggest that educational institutions should consider adopting eutagogic principles to enhance learner autonomy and promote lifelong learning. Future research should focus on developing robust frameworks for eutagogic education and exploring its impact across different educational levels and cultural contexts.

Keywords: eutagogy, self-learning, "here, always and everywhere", pedagogy, andragogy, continuous education, eutagogical approach

For citation: Mokhira R. Sobirova. (2024) ‘Development of eutagogic education as an independent field’, Inter education & global study, (4(2)), pp. 154–161. (In Uzbek).

Jahon ilm-fanida inson omili jamiki tadqiqotlar uchun asos bo‘lib borayotgani, har bir kashfiyot insoniyat uchun xizmat qilishi lozimligi ustuvor vazifasi negizida yaratilayotgani hech kimga sir emas. Mamlakatimizga ham ko‘pgina sohalar qatorida

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

ta’lim sohasining yana bir karra yangi bosqichga ko‘tarilishiga zarurat sezildi. Yurtimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning negizida inson qadri tamoyili bosh mezon bo‘lib xizmat qilayotgan ayni damda jamiyat ta’lim-tarbiyasi bilan bevosita daxldor bo‘lgan nisbatan yangi amaliyot masofaviy ta’lim tizimini, xususan Evtagogik ta’limni nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish o‘zbek pedagogikasi oldida turgan dolzarb, kechiktirib bo‘lmas vazifalardan biridir.

“Evtagogika” atamasi birinchi marta 2000-yilda Styuart Xasse va Kris Kenon tomonidan “Andragogikadan Evtagogikagacha”[2] asarida kiritilgan. Ular atamani «topish, ixtiro qilish» ma’nolari beruvchi bir necha yunon so‘zlari va an’anaviy – ago – «olib boraman» degan ildizlar bilan bog‘lab yaratdilar. Terminning semantikasi dastlab yangi ma’nolar va kashfiyotlar qilish jarayonini nazarda tutgan.

Evtagogika – bu bilimlarni hayot davomida uzluksiz ravishda mustaqil egallashning yangicha yondashuvidir. Agar klassik pedagogika va andragogika (kattalar ta’limi) o‘quvchiga savollarga javob berishga intilsa, u holda evtagogika talabaga savollarni shakllantirishga va mustaqil ravishda javob izlashga o‘rgatadi. XXI asrda Evtagogika mustaqil ta’lim fani bo‘lib, *“shu yerda, har doim va hamma joyda”* tamoyiliga asoslanib o‘rganish zarurligi haqida butun bir falsafaga ega bo‘lmoqda. Yondashuvning asosiy tamoyili shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchi o‘z ta’limi markazida turadi, shuning uchun ham o‘qitish o‘qituvchiga yoki predmetga yo‘naltirilgan emas, balki o‘quvchiga qaratilgan bo‘lishi kerak. Shunday qilib, andragogika norasmiy tartibda tuzilmaviy mazmunida amalga oshirishga asoslangan bo‘lsa, evtagogika rasmiydan informal[1] gacha bo‘lgan barcha ta’lim kontekstlarini qamrab oladi.

Evtagogika – uzluksiz ta’limning uslubi, u norasmiy ta’lim turiga hamroh bo‘lgan o‘z-o‘zini o‘qitish jarayonlarida namoyon bo‘ladi. Evtagogikaning maqsadi – ta’lim oluvchilar o‘z maqsadlarini belgilashlari, o‘rganish yo‘llari, jarayonlarini tanlashlari mumkin bo‘lgan muhitni yaratishdir. Bu atama nazariy jihatdan birinchi marta 2000-yilda paydo bo‘lganidan beri, ayniqsa, elektron ta’lim muhitida amaliy qo‘llanila boshlandi. Evtagogika andragogikaning mantiqiy davomi, talabaning ta’lim jarayonida yetakchi rolini o‘z zimmasiga oladigan navbatdagi bosqichi sanaladi. Talaba nafaqat mustaqil ravishda ma’lumotlarni izlaydi va ajratib oladi, balki o‘rganish usullari va uslublarini ham tanlaydi. Bu shuni anglatadiki, talaba bunday tanlovlarning mohiyatini tasavvur qilishi va ularning samaradorligini baholay bilishi zarur.

Evtagogika – mustaqil ta’limga ijodiy yondashish bo‘lib, talabaning o‘z maqsad va qiziqishlariga mos ravishda nimani, qachon va qanday o‘rganishini mustaqil aniqlay olish imkonini beradi. O‘qituvchining roli eng yaxshi "fasilitator"ga (guruh muloqotini osonlashtiradigan shaxs) almashadi. Ta’lim jarayonida evtagogika prinsiplarini amalga oshirish uchun o‘quv kontentlarini ishlab chiqarishga qaratilgan yondashuvlarning o‘rganilishi, qayta ko‘rib chiqilishi va tuzatilishi lozim. Shuningdek, u muvaffaqiyatli tushuntirilishi, o‘yin komponentlaridan hamda turli formatdagi kichik qismlardan foydalanishi kerak.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Evtagogika mualliflar tomonidan kattalar ta'limini tashkil etishning yangi yondashuvi o'z-o'zini o'qitish haqidagi ta'limot, ya'ni XXI asrda qanday qilib mustaqil ravishda o'qitish kerakligi haqidagi ta'limot sifatida ko'rsatilgan. "Androgogikadan evtagogikagacha" asarning muqaddimasida S.Xasse va K.Kenonlar "haqiqiy mustaqil ta'lim tushunchasi, evtagogika 1950-yillarda tasvirlangan ta'limga nisbatan gumanistik yondashuv va nazariyalarga asoslanganligini, taxminlarga ko'ra, evtagogika XXI asr o'quvchilarining ta'lim olish ehtiyojlariga xizmat qiladi, xususan, u individual qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi", – deya ta'kidlaydilar.

Evtagogikaning ilmiy yo'nalish sifatida paydo bo'lishining zaruriy sharti XXI asrda inson hayotidagi ta'lim maqsadini yangicha tushunish edi. Konsepsiya mualliflarining fikriga ko'ra, jamiyatdagi o'zgarishlarning jadal sur'atlarda axborot manbalarining ko'payishi o'qitishni tashkil etishda yangi yondashuvni topishning zaruriyatini keltirib chiqardi hamda talabaning o'zi nimani o'rganishi va qanday o'rganishini aniqlaydi. Shu ma'noda mustaqil ta'lim to'g'risidagi ta'limotni o'rnatilgan ilmiy nazariya va usullardan, xususan, qobiliyatlarni rivojlantirish nazariyasidan tabiiy o'tish sifatida qarash mumkin.

Terminning yangiligi, uning ilmiy mohiyatini va mustaqilligini asoslash zarurati tufayli mustaqil ta'lim nazariyasiga bag'ishlangan deyarli barcha dastlabki ishlarda evtagogika pedagogika va andragogikaga qarama-qarshi qo'yilgan. Konsepsiya mualliflari kattalar ta'limning maxsus subyekti sifatida belgilangan va XX asrning 70-yillarida kattalar ta'limi tamoyillari tizimiiga asoslangan andragogika g'oyalarining inqilobiy xarakterini tan oladilar. Shu bilan birga, ular "evtagogika pedagogik jamiyatdagi yangi inqilob bo'lib, andragogikadan bir qadam nariga o'tib, o'qitish va hayot faoliyatining istalgan nuqtasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan yangi tamoyillar va ta'lim amaliyotlari tizimiga o'tish imkonini beradi", deb hisoblaydilar[3]. Bu esa biz yashayotgan yangi dunyoga mos keladi. "Axborotga osongina kirish mumkin bo'lgan dunyoda o'zgarishlar shunchalik muhimki, ta'lim va tarbiyaning mavjud an'anaviy usullari yetarli emas; o'quv fanlari bilan bog'liq bilimlar zamonaviy jamiyatdagi hayotga, zamonaviy ish joylarida ishlashga tayyorlamaydi; o'qitish hayotda nima qilayotganimizga tobora ko'proq moslashtirilmoqda; zamonaviy tashkiliy tuzilmalar moslashuvchan ta'lim amaliyotlarini talab qiladi; zudlik bilan o'qitishga katta ehtiyoj bor. Bu muammolarga javoban pedagogika va andragogika fanlaridagi kamchiliklarni bartaraf etuvchi innovatsion yondashuvlar paydo bo'lmoqda". Ko'rsatilgan uchta ilmiy yo'nalish o'rtasidagi tub farq kimning diqqat markazida ekanligi va fan kim uchun "ishlayotganligi" bilan bog'liq. Evtagogika g'oyalarini amalda qo'llashga bag'ishlangan saytlardan birida quyidagi ta'rif berilgan: "Pedagogika – o'qituvchiga qaratilgan fan; andragogika o'quvchiga yo'naltirilgan, evtagogika esa o'z-o'zini o'qitish haqidagi fandir". Bu fikrni rivojlantirar ekanmiz, deyishimiz mumkinki, evtagogika mustaqil ravishda o'rganadigan shaxsga qaratilgan[4].

Evtagogikaning asosiy qoidalari konsepsiya mualliflari tomonidan tanilgan pedagogika va andragogika kabi ilmlarga qarama-qarshi qo'yish orqali tasvirlanishiga

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

qaramasdan, XXI asrda inson ta’limi haqida yangi ilm-fan yaratilishi haqida so‘z olish erta. Bundan tashqari, mualliflarning o‘zlari evtagogikani tadqiqot, konsepsiya, ta’lim, yondashuv sifatida ko‘rsatadilar.

Ushbu ta’limot asosida bir nechta asosiy pozitsiyalar va asosiy qoidalarni aniqlash mumkin.

1. O‘z-o‘zini o‘qitish haqidagi ta’limot. J.Dyui konstruktivizm nazariyasiga, M.Montessorining pedagogik g‘oyalariga, D.Kolbning aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi modeliga M.Xaydeger, K.Rodjers fenomenologiyasi, tizimli tafakkur nazariyasi, tashkiliy ta’lim, yo‘naltirilgan ta’lim, andragogika qoidalari va boshqalar falsafasiga mos keladi;

2. O‘z-o‘zini o‘qitish haqidagi ta’limot kattalar ta’limi texnologiyalari va strategiyalarini ko‘rib chiqadi, bunda ustoz (murabbiy) mavjud bilimlarni o‘zgartirish va yangilarini yaratish imkonini beradigan izlanishga asoslangan ta’lim usullaridan foydalanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Hayot davomida sinab ko‘rish orqali bunday eksperimental o‘rganish yangi bilimlarni yaratadi. Moslashuvchan va muammoli bo‘lib, u noto‘g‘ri, "nuqsonli" o‘qitish usullariga qarshi chiqadi va yangi bilimlarni mavjud bilimlar bilan birlashtiradi. O‘rganish turli xil vositalar yordamida yangi bilimlarni mustaqil ravishda o‘zlashtirish jarayoniga aylanadi: vizual/fazoviy, musiqiy/ritmik, tana/kinestetik, og‘zaki/lingvistik, mantiqiy/matematik, shaxslararo/shaxsiy, jamoaviy/individual intellekt.

Talaba tajriba va mavjud bilimlarni analiz, sintez qiladi, umumlashtiradi, ijodiy ravishda odatiy ish va innovatsion usullarni yaratadi, bu esa yangi bilimlarni yaratishga olib keladi. Shunday qilib, evtagogika eng yuqori darajadagi ta’lim tizimi sifatida tushuniladi, unda muammolar evristik usul, metakognitiv va ijodiy yondashuvlar yordamida hal qilinadi.

3. Evtagogika markazida katta insonlar salohiyati yotadi. Konsepsiya mualliflari “1980-yillarning o‘rtalarida Angliyada qobiliyat tushunchasining paydo bo‘lishiga sabab qisqarib borayotgan jahon bozorida ingliz kompaniyalarining raqobatbardoshligini oshirish zarurati edi. Ma’lumki, globallashuv va uning oqibatlari ish o‘rinlari sifatining o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatdi. Ishchilar va ish beruvchi tashkilotlarning doimiy o‘zgaruvchan, beqaror muhitda ish bilan ta’minlanishi uchun ishchilar faqat malakaga ega bo‘lishlari yetarli emas, ular o‘rganishga tayyor va qodir bo‘lishi kerak edi. Dunyoda endi moslasha olmaydigan, tayyor bo‘lmagan, "boshi qumga tushgan" odamlar va tashkilotlar uchun joy qolmadi. Salohiyatga ega bo‘lgan odamlarning o‘zlari yashaydigan barqaror muhitga qarshi samarali kurashish imkoniyati ancha ko‘p, chunki ular o‘z samaradorligiga ega bo‘lish bilan bog‘liq alohida ta’lim olish qobiliyatga ega”.

Boshqacha qilib aytganda, evtagogika inson salohiyatining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan oldingi tadqiqotlar va ilmiy nazariyalar javob bera olmagan savollarga javob izlashni o‘z zimmasiga oladi. Misol tariqasida, konsepsiya mualliflari masofaviy ta’lim bilan bog‘liq vaziyatni keltirib, talabalarga taklif etilayotgan shakllarning moslashuvchanligiga qaramasdan, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, masofaviy ta’lim

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

talabaga emas, balki o‘qituvchiga qaratilganligini ta’kidlaydilar. Kompetensiyali yondashuvga asoslangan individuallashtirilgan o‘quv dasturlari ta’lim tashkilotining misoli sifatida keltiriladi, bu “salohiyatga ega insonlar” o‘z ta’limini boshqarishi mumkin bo‘lgan boshqa modeldan farqli o‘laroq, Evtagogika o‘qituvchi resurslarni taqdim etadigan, biroq o‘quvchining o‘zi o‘qituvchi bilan muzokaralar o‘tkazib o‘zlashtirishi mumkin bo‘lgan kurslarni ishlab chiqadigan ta’lim muhimligini tan oladi. Shunday qilib, talaba tanqidlar, tahlillar, sharhlar, savollarni ko‘rib chiqishi va o‘zi uchun qiziqarli va qadrli narsalarni tanlashi, keyinchalik o‘qish uchun kelgusidagi zarur materiallar va vazifalarni muhokama qilishi mumkin. Bunday vaziyatda baholash muvaffaqiyatni o‘lchashdan ko‘ra ko‘proq ta’lim tajribasi vositasiga aylanadi. Evtagogika o‘quvchining o‘z bilimi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishidan boshlanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, evristik o‘qitish usuli va mustaqil ta’lim nazariyalari G‘arb uchun ham, mahalliy fan uchun ham yangilik emas. Evtagogika deb ataladigan yangi yondashuvning ma’nosi maktab va o‘quvchilik yoshidan tashqariga chiqish, mustaqil ta’limni tashkil etishda ilg‘or innovatsion tajribalarni to‘plash, ta’limga ongli ravishda jalb qilish orqali insonning o‘zini o‘zi rivojlantirishning samarali usullarini izlash, bolalar e’tiborini jalb qilishdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son 19-moddasi https://lex.uz/docs/-5013007
2. Hase, Stewart & Kenyon, Chris. (2000). From andragogy to heutagogy. Ultibase Articles. 5. 1-10.
3. Blaschke, L.M. (2012). Heutagogy and lifelong learning: A review of heutagogical practice and self-determined learning. *The International Review of Research in Open and Distributed Learning*, *13*(1), 56–71. https://doi.org/10.19173/irrodl.v13i1.1076
4. https://wikieducator.org/Foundation_Skills
5. https://kartaslov.ru/карта-знаний/Эвтагогика

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Mohira Sobirova Rasulovna**,o‘qituvchi [**Махира Собирова Расуловна,** преподаватель], [**Mahira R.Sobirova,** teacher] manzil: 100007, O'zbekiston, Buxoro viloyati, Buxoro, Qayum Murtazoyev ko'chasi [адрес: 100007, Узбекистан, Узбекистан, Бухарская область, Бухара, улица Каюма Муртазоева], [address: 100007, Uzbekistan, Uzbekistan, Bukhara region, Bukhara, Qayum Murtazoyev street] e-mail: sobirovamohira@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original paper

BOLALAR NUTQINI O'STIRISHNING VOSITA VA USULLARI

© M.Z. Eshonqulova[1]✉
[1]Zarmed universiteti, Buxoro, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: bolalar nutqini rivojlantirish erta bolalik ta'limining muhim jihati bo'lib, ularning kognitiv, ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga ta'sir qiladi. Yosh bolalar nutqini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va yaxshilash uchun turli vositalar va usullar ishlab chiqilgan. Ushbu maqola ushbu vositalar va usullarning samaradorligini o'rganadi, o'qituvchilar va ota-onalar uchun eng yaxshi amaliyotlar haqida tushuncha beradi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi bolalar nutqini rivojlantirish uchun qo'llaniladigan vositalar va usullarni o'rganish, ularning samaradorligini baholash va ularni erta ta'lim muassasalarida amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar berishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda miqdoriy baholash va sifat kuzatuvlarini birlashtirgan aralash usullardan foydalaniladi. Materiallar interaktiv ilovalar, ertak kitoblari va o‘quv o‘yinchoqlari kabi nutqni rivojlantirish vositalari, shuningdek, o‘yinga asoslangan o‘rganish, hikoya qilish va fonetik ko‘rsatmalar kabi usullarni o‘z ichiga oladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Interfaol ilovalar va raqamli vositalar bolalar uchun qiziqarli va moslashtirilgan ta’lim tajribasini taqdim etadi. Bu vositalar ko'pincha nutqni aniqlash, interaktiv o'yinlar va nutq amaliyotini kuchaytiruvchi audiovizual stimullar kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi.Interaktiv ilovalardan foydalangan bolalar lug'atni o'zlashtirish, talaffuz qilish va suhbatlashish qobiliyatlarida sezilarli yaxshilanishlarni ko'rsatdi. Ushbu vositalarning o'yin elementlari motivatsiyani va barqaror ishtirokni oshirdi.

XULOSA: tadqiqot shuni ko'rsatadiki, turli xil vositalar va usullar bolalar nutqini rivojlantirishga samarali yordam beradi. Interfaol ilovalar, ertaklar kitoblari, o‘quv o‘yinchoqlari va fonetik ko‘rsatmalarning har biri o‘ziga xos afzalliklarga ega va nutqni rivojlantirishning turli jihatlarini hal qilish uchun erta bolalik ta’limiga qo‘shilishi mumkin. Raqamli va an'anaviy usullarning kombinatsiyasi turli xil ta'lim afzalliklari va ehtiyojlarini qondiradigan muvozanatli yondashuvni ta'minlaydi.

Kalit so’zlar: dialogik nutq, monologik nutq, muloqot shakli, bog’lanishli nutq, hikoyat, rivoyat, ertak, maqol, topishmoq, tez aytishlar, qo‘shiqlar, texnologik yondashuv, multimedia vositalari, motivatsiya, mustaqil fikrlash

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Iqtibos uchun: Eshanqulova M.Z. Bolalar nutqini o'stirishning vosita va usullari // Inter education & global study. 2024. №4(2). B.162–171.

СРЕДСТВА И МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ РЕЧИ ДЕТЕЙ

© М.З. Ешанкулова[1]✉
[1]Университет Зармед, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: речевое развитие детей является важным аспектом дошкольного образования и влияет на их когнитивное, социальное и эмоциональное развитие. Разработаны различные средства и методы для поддержки и улучшения речевого развития детей раннего возраста. В этой статье исследуется эффективность этих инструментов и методов, а также представлены лучшие практики для педагогов и родителей.

ЦЕЛЬ: цель данного исследования – изучить средства и методы, используемые для развития речи детей, оценить их эффективность и дать рекомендации по их внедрению в дошкольных учреждениях.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использован смешанный метод, сочетающий количественную оценку и качественные наблюдения. Материалы включают инструменты развития речи, такие как интерактивные приложения, сборники рассказов и развивающие игрушки, а также такие методы, как игровое обучение, рассказывание историй и обучение акустике.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: Интерактивные приложения и цифровые инструменты обеспечивают увлекательный и персонализированный опыт обучения для детей. Эти инструменты часто включают в себя такие функции, как распознавание речи, интерактивные игры и аудиовизуальные стимулы, которые закрепляют разговорную практику. Дети, которые использовали интерактивные приложения, продемонстрировали значительные улучшения в приобретении словарного запаса, произношении и разговорных навыках. Элементы геймификации этих инструментов повысили мотивацию и устойчивую вовлеченность.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исследования показывают, что различные средства и методы могут эффективно способствовать речевому развитию детей. Интерактивные приложения, сборники рассказов, обучающие игрушки и обучение акустике имеют уникальные преимущества и могут быть включены в дошкольное образование для решения различных аспектов речевого развития. Сочетание цифровых и традиционных методов обеспечивает сбалансированный подход, отвечающий разнообразным предпочтениям и потребностям обучения.

Ключевые слова: диалогическая речь, монологическая речь, форма общения, связная речь, рассказ, повествование, сказка, пословица, загадка,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

поговорки, песни, технологический подход, мультимедийные средства, мотивация, самостоятельное мышление.

Для цитирования: Эшанкулова М.З. Средства и методы развития речи детей. // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 162–171.

TOOLS AND METHODS FOR CHILDREN'S SPEECH DEVELOPMENT

© Malika Z. Eshankulova[1]✉
[1]Zarmed University, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: children's speech development is an important aspect of early childhood education and affects their cognitive, social and emotional development. Various tools and methods have been developed to support and improve the speech development of young children. This article explores the effectiveness of these tools and techniques, and provides insight into best practices for educators and parents.

AIM: the purpose of this study is to study the tools and methods used for the development of children's speech, to evaluate their effectiveness and to make recommendations for their implementation in early education institutions.

MATERIALS AND METHODS: The study uses a mixed methods approach combining quantitative assessment and qualitative observations. Materials include speech development tools such as interactive apps, storybooks, and educational toys, as well as methods such as play-based learning, storytelling, and phonics instruction.

DISCUSSION AND RESULTS: Interactive applications and digital tools provide engaging and personalized learning experiences for children. These tools often include features such as speech recognition, interactive games, and audiovisual stimuli that reinforce speaking practice. Children who used interactive applications showed significant improvements in vocabulary acquisition, pronunciation, and conversational skills. The gamification elements of these tools increased motivation and sustained engagement.

CONCLUSION: research shows that various tools and methods can effectively help children's speech development. Interactive apps, storybooks, educational toys, and phonics instruction each have unique advantages and can be incorporated into early childhood education to address different aspects of speech development. A combination of digital and traditional methods provides a balanced approach that meets diverse learning preferences and needs.

Key words: dialogic speech, monologic speech, form of communication, connected speech, story, narrative, fairy tale, proverb, riddle, quick sayings, songs, technological approach, multimedia tools, motivation, independent thinking.

For citation: Malika Z. Eshankulova. (2024), ‘Tools and methods for children's speech development Inter education & global study’, (4(2)), pp. 162–171. (In Uzbek).

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Bog‘lanishli nutqda eng muhim metod bu dialogik nutq, ya’ni bolalar bilan so‘zlashishdir. So‘zlashish og‘zaki nutqning eng oddiy shakli bo‘lib, unda bola o‘zini tutishi, ko‘z qarashi, xatti-harakati, ovozining past-balandligi, tezligi kabi turli holatlar hisobga olinadi. So‘zlashish – dialogik nutq, asosan kattalar yordamida amalga oshiriladi va u ayniqsa, tevarak-atrofni bilish jarayonida yaxshi natijalar beradi. Jumladan, jamoat joylarida, ko‘pchilik o‘rtasida nutq madaniyatiga rioya etishga e’tibor qaratiladi. Bunda bir-birining nutqini to‘ldirib borish, tuzatishlar kiritish, so‘rash, so‘rab bilib olish dialogik nutqqa o‘rgatishning usullari sanaladi.

Ma’lumki, muloqot ikki shaklda – erkin va maxsus tayyorlangan mashg‘ulotlarda amalga oshiriladi. Kundalik hayot va taassurotlar asosida uyushtiriladigan muloqot erkin muloqot bo‘lib, yo‘l-yo‘lakay o‘tkazilsa-da, bola nutqining ifodali bo‘lishiga yordam beradi, ularda jumlalarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzish malakalarining paydo bo‘lishiga, so‘z zahirasining boyishiga olib keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ham bog‘lanishli nutqni rivojlantirish texnologiyasi ishlab chiqilganda tavsiya etilgan matnni hikoya qilishda voqeani kattalarning yordamisiz, mustaqil ifodalay olishga, lug‘at boyligiga, matn mazmunini bayon etishda izchillikka rioya qilishi, tilning ifoda vositalaridan foydalana olishi, nutqning ravonligi, tezligi, jumlalarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuza olishi, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etishi, nutq madaniyatiga rioya etishiga qaratiladi. Misol tariqasida, “Ovchilar va quyonlar”, “Oqsoq bo‘ri va qo‘ylar”, “Nimaning pati?” kabi o‘yinlardagi savol-javoblar ham bolalarning dialogik nutqini rivojlantiradi. Tarbiyachi bolalarga “nimaning pati?” deb savol beradi. Bolalar o‘rdakniki, qarg‘aniki, burgutniki deya javob qaytaradilar. O‘yin shartiga asosan qushning nomini takror aytgan bola biror shartni bajaradi: o‘yinga tushadi, she’r aytadi yoki qo‘shiq kuylaydi.

Bolalarning nutqini rivojlantirishda monologik nutq (bog‘lanishli, hikoya qilib berish) ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. Monologik nutqda yuqorida sanab o‘tilgan bog‘lanishli nutq talablarining barchasi jamlangan bo‘ladi. Bolalarning monologik nutqining shakllanishi ularni maktabga tayyorlashning asosiy shartlaridan biridir. Zero, bog‘lanishli nutq bolalarning mantiqiy tafakkurini va unga bog‘liq bo‘lgan zehnni o‘tkirlash, zukkolik kabi xislatlarni ham tarkib toptiradi. Bolalarda hikoya qilish ko‘nikmasi uning lug‘at boyligi, jumla tuzish malakasi bilan ham ahamiyatlidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga muayyan mavzular bo‘yicha ertaklar, rasmlar asosida hikoya tuzish topshirig‘i ham berilishi mumkin. Bunday topshiriq ustida ishlash orqali ularda mustaqillik, ijodiy faollik rivojlantiriladi. Masalan, “Bizning oila”, “Bahor fasli”, “Yoz - o‘tar soz”, “Qaldirg‘ochlar uchib keldi” va hokazo mavzularda hikoya tuzishni tavsiya etish bolalarni nihoyatda qiziqtiradi.

Hikoya qilish bolalarning jumlalarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzish, tovushlarni, qo‘shimchalarni to‘g‘ri talaffuz etish, yoshiga mos darajada tasviriy vositalardan to‘g‘ri foydalana olishiga yordam berib boriladi. Kattalarning mehnat jarayonini kuzatish, tabiatga, ishlab chiqarish korxonalariga, daryo, cho‘l, dalalarga sayohatlar asosida

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

hikoyalar tuzishni tavsiya etish ham bolalarning bog‘lanishli nutqini rivojlantirishda eng qulay usullar sanaladi.

Bolalarning bog‘lanishli nutqini rivojlantirishda badiiy adabiyotning imkoniyatlari kattadir. Maktabgacha tarbiya muassasalari tarbiyalanuvchilari badiiy adabiyotning eng yorqin namunalari bilan har kuni tanishtirilib boriladi. Hikoyatlar, rivoyatlar, ertaklar, maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar va qo‘shiqlar ular nutqining ifodaliligini ta’minlab qo‘ya qolmaydi, balki so‘z zahirasini ham boyitadi, adabiy til imkoniyatlaridan bahramand qiladi.

Ertaklarda bolalarning yosh xususiyatlari alohida e’tiborga olinadi. Voqealar qiziqarli, sodda, ixcham, izchil, qisqa bayon etilishi talab qilinadi. Yertaklar juda katta tarixiy, ta`limiy-yestetik ahamiyatga egadir. Chunki ertaklar juda qadim zamonlarda mavjud bo`lgan dunyoqarashlarning davomidir yoki aytish mumkinki, zamonaviylashgan shaklidir. Ayni kunlarimizda ertak tinglamagan va ertakni yoqtirmaydigan bolajonlarni uchratish qiyin. Ayniqsa, hayvonlar haqidagi va sehrli ertaklarni sevib tinglaydigan, o`qiydigan bolalar har bir xonadonda bor, desak mubolag`a emas. Ertaklar ayni kunlarda kattayu kichik barobar qiziqish bilan tomosha qiladigan mult’fil’mlarga zamin bo`lib xizmat qilmoqda: «Senimi, shoshmay tur, quyon!», «Tom va Jerri», «Oloviddinning sehrli chirog`i», «Qirol Sher» va hokazolar ertaklar asosida yaratilganligini ta`kidlash lozim. Demak, ertaklar yangi-yangi shakllarda yashashni davom ettiradi.

Bolalarga ertak aytib berishda va uni qayta hikoya qilib berishga undashda «Stol teatri»dan foydalanish yaxshi samara beradi. Bunda bola o‘z qo‘llari bilan tarbiyachisi ko‘magida ertak qahramonlarini yasaydi va stol atrofida ertakni jonli tomosha qiladi. Qayta hikoya qilib berishda u o‘zi yasagan ertak qahramonlarini gapirtiradi. Masalan, «Sholg‘om» ertagini stol teatri orqali namoyish etish uchun biz ertak qahramonlarini oddiygina qog‘oz, yelim va qaychi ko‘magida yasab olamiz. Bunda o‘quvchilarning qaychini, yelimni ishlatish ko‘nikmasi ham rivojlanadi. Bolalar ertakni eshitishni qiziqish bilan kutadilar. Quyida ana shu ertak qahramonlarining ayrimlarini yasash bo‘yicha chizmalar berilgan:

Rasmlar ketma-ketligida hikoya tuzish orqali bolaning diqqat, idrok va tafakkurining rivojlanganlik darajasi aniqlanadi. Bolaga ko‘rsatilgan quyidagi rasmlar orqali tasvirlangan voqealarni ketma-ketlik bo‘yicha hikoya qilib berish so‘raladi. Bu jarayonda bola birinchi navbatda rangli suratlarni ko‘radi, ularda tasvirlangan voqealarni o‘z so‘zlari bilan ifodalashga harakat kiladi, buning uchun esa u mantikiy fikrlashga kirishadi. Xikoya tuzish metodi orkali bola nutkining leksik-grammatik xususiyatlariga xamda bola tafakkurining umumlashtira bilish xususiyatlariga e’tibor berish talab etiladi.

O’qituvchi: “Menimcha, har biringizning uyingizda ko‘zgu bo‘lsa kerak, shundaymi? Ko‘zgusiz ko‘rinishimiz qandayligini bilish qiyin kechadi. Xo‘sh, agar qo‘lingizda ko‘zgu bo‘lmasa nima qilish kerak? Kelinglar, bugun sizlar bilan ko‘zgular o‘yinini o‘ynaymiz. Hozir har biringiz o‘zingizning juftingizni topib, bir-biringizga qarab turib olasiz. Kim odam, kim ko‘zgu rolini bajarishini aniqlab oling. Keyin esa rollaringiz bilan almashasiz. Ko‘zgu

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

odamning har bir harakatini aniq takrolasin. Chunki noaniq harakat qiluvchi ko‘zgular bo‘lmaydi. Tayyormisiz? Qani bir harakat qilib ko‘raylikchi”.

Ta’limning jarayonini texnologik yondashuvga muvofiq tashkil etish individual va ijodiy xususiyatga ega bo‘lib, fan o‘qituvchilarining ichki imkoniyatlari, shuningdek, ularning tashqi omillardan qay darajada foydalan olishlariga bog‘liqdir. Multimedia texnologiyalarining barcha imkoniyatlarini to‘liq ochib berish va ulardan samarali foydalanish uchun ta’lim oluvchilarga salohiyatli (kompetentli) o‘qituvchining ko‘magi zarur bo‘ladi. Darsliklardan foydalanilgandagi singari, multimedia vositalarini qo‘llashda ham ta’lim strategiyasi ta’lim jarayonida o‘qituvchi nafaqat axborotlarni taqdim etish, balki ta’lim oluvchilarga ko‘maklashish, qo‘llab-quvvatlash va jarayonni boshqarib borish bilan shug‘ullangandagina mazmunan boyitilishi mumkin. Odatda, chiroyli tasvirlar yoki animatsiyalar bilan boyitilgan taqdimotlar oddiy ko‘rinishdagi matnlarga qaraganda ancha jozibali chiqadi va ular taqdim etilayotgan materiallarni to‘ldirgan holda zaruriy emotsional darajani ta’minlab turishi mumkin.

Multimedia vositalari har xil ta’lim yo‘nalishlari (stillari) uyg‘unligida qo‘llanilishi va ta’lim olish hamda bilimlarni qabul qilishning turli ruhiy va yoshga doir hususiyatlariga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan foydalanilishi mumkin: ayrim ta’lim oluvchilar bevosita o‘qish orqali, ba’zilari esa eshitib idrok etish, boshqalari esa (videofilmlarni) ko‘rish orqali ta’lim olishni va bilimlarni o‘zlashtirishni xush ko‘radilar.

Interfaol multimedia texnologiyalari akademik ehtiyojga ega bo‘lgan ta’lim oluvchiga noan’anaviy qulaylik tug‘diradi. Xususan, eshitish sezgisida defekti bor ta’lim oluvchilarda fonologik malakalar va o‘qish malakalari o‘sishiga, shuningdek, ularning axborotlarni vizual o‘zlashtirishlarini ta’minlaydi. Nutqi va jismoniy imkoniyati cheklanganlarda esa vositalardan ularning individual ehtiyojlaridan kelib chiqib foydalanishga imkon beradi.

Bolalarda bog‘lanishli nutqni rivojlantirish ularni savodxonlikka o‘rgatish bilan davom ettiriladi. Bu jarayon eshitganini anglab olishga ko‘nikma hosil qilish, o‘z fikrini ifodali, aniq, tushunarli, grammatik jihatdan to‘g‘ri ifodalay olish bilan bog‘liq bo‘ladi.

Bolalarning bog‘lanishli nutqini rivojlantirishda eng muhim vazifalar sifatida ularning lug‘atini boyitish va faollashtirish, nutqining grammatik tuzilishini, tovush madaniyatini, dialogik va monologik nutqni shakllantirish, badiiy adabiyot namunalaridan foydalanish hamda savod o‘rgatishga tayyorgarlik kabilarni kiritish mumkin.

Tevarak-atrofni o‘rganish jarayoni bola tafakkurini rivojlantirishda boshqa hech narsa bilan almashtirish mumkin bo‘lmagan hissiy rag‘batlantirishga sabab bo‘ladi. Bunday rag‘batlanish bog‘cha yoshidagi katta bolalar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Chunki, tevarak-atrofdagi predmetlar, voqeliklar asosida tug‘iladigan hissiyot bola tafakkurida rivojlanib, uning tiliga, jonli ifodaga ko‘chadi. Shuning uchun ham bolaning tevarak-atrofdagi voqelikni bilib borishi, uning go‘zalligini, bitmas - tuganmas murakkabliklarini his etishi, ijtimoiy munosabatlar va kattalar dunyosiga kirib borishi, uning har tomonlama kamol topishi bilan birga, bog‘lanishli nutqining ham boyib,

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

shakllanib borishiga olib keladi. Zero, bolalik dunyoni zavqlanib, hissiyotlarga to‘lib idrok etish, uni kashf etish bilan uyg‘undir.

Demak, bog‘lanishli nutqni rivojlantirish, xilma-xil va betakror dunyoni metodik tomondan qiziqarli, turli shakl va vositalardan foydalangan holda zamon talablari asosida bolalarga yetkazishni tashkil etish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu borada zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bolalarning yoshi, o‘ziga xos xususiyatlari, lug‘at boyligi, nutq madaniyati, nutqni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuza olish kabi juda ko‘p talablarni hisobga olish zarurati tug‘iladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tuzilgan dasturlarning markazida o‘yin yotadi. Izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, o‘yinlar kichik yoshdagi bolalar hayotining muhim qismi hisoblanadi. O‘yin va rivojlanish bir-birining qo‘lidan yetaklaydi, shuning uchun bolalar o‘sadigan sharoit ularning erkin o‘ynashlari uchun imkoniyatlarga boy bo‘lishi, ya’ni boshqa bolalar bilan uyushgan holda o‘ynash, faol va murakkab drammatik o‘yinlar, tizimli o‘yinlar, guruh bo‘lib o‘ynash. Ekspertlarning fikricha, «O‘yin bolalarning bilish va harakatlanish ko‘nikmalarining o‘sishi, shuningdek, atrofimizni o‘rab turgan kishilar olami va unda o‘zining o‘rnini bilish uchun kerak».

Bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalari o‘z tengdoshlari bilan o‘zaro ta’sir paytida rivojlanadi, bunda ular qoida nima, bu qoidalar qanday ishlab chiqiladi va xaqiqat, adolat nima ekanligi to‘g‘risida bilib oladilar. Ular hamkorlik qilishni va bir-birlari bilano‘rtoqlashishni o‘rganadilar. Vazifalar, topshiriqlar qo‘yish va ularni muvaffaqiyatli hal etish, boshqa bolalar bilan birgalikda harakat qilish ia shaxsiy, jismoniy, aqliy va ijtimoiy muammolarni hal qilish chog‘ida ularning o‘ziga-o‘zi baho berishlari rivojlanadi». Shuning uchun ham tarbiyachilar oldidagi mas’uliyat juda katta. Tarbiyachi o‘yinni tashkil qilar ekan, o‘yin harakatlari turlicha, qiziqarli, ko‘rgazma va tarqatma jihozlari xilma-xil, eng muhimi, bola uchun sevimli bo‘lishini ta’minlashi lozim, bundan tashqari o‘yin harakatlari, shartlarini bola yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishi kerak va bu harakatlar bola uchun qiyinchilik tug‘dirmasligi, uning jismoniy zo‘riqishiga olib kelmasligi muhim. Ana shundagina o‘yin bolalar uchun zavqli tuyulishi, maroqli o‘tishi mumkin va bola bunday o‘yinlarni jon-dili bilan berilib o‘ynaydi, bunday o‘yinlar o‘z-o‘zidan bolani aqliy faoliyatga tayyorlaydi va mantiqiy fikrlashni oshirib boradi.

Misol tariqasida mantiqiy harakatli o‘yinlardan birini olish mumkin. Bunda bolalar ikki guruhga bo‘linadilar va guruh sardorini saylaydilar. Tarbiyachi bolalarga o‘yin qoidasini tushuntiradi, bunda sardor borib, belgilangan doira ichiga shaklning bir qismini chizib qaytadi, navbatdagi bola boshqa qismini, o‘yin so‘ngida berilgan namunadagi shakl chizilishi lozim, o‘yinni shunday tashkil qilish kerakki, shaklning har bir detali guruhdagi bolalarga yetarli tarzda bo‘lishi va oxirgi bola oxirgi detalni chizib tugatishi lozim. Qaysi guruh oldinroq chizib tugatsa, u guruh g‘olib hisoblanadi va bunda shaklning sifatiga ham baho beriladi. O‘yinga quyidagi «quyon» shakli tanlanishi mumkin.

Mana shu shaklni chizishda 2 ta guruhda 14 ta bola, ya’ni 7 tadan bola ishtirok etadi. O‘yin ohirida suhbat uyushtiriladi. Savol-javob tashkil etilib, manna shu quyon haqida qisqacha ertak yoki hikoya tuziladi. O‘yinni boshqacha tashkil etish ham mumkin.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Masalan, “mevalar” va “sabzavotlar” dan iborat tarqatma rasmlar orasidan guruhlar ularga topshirilgan ko‘rsatmaga binoan “meva” yoki “sabzavot”ni topib, “doira” ichiga joylashtirib qaytishlari lozim bo‘ladi va har safargidek har bir bola bittadan rasm qo‘yib kelishi kerak, bu rasmlarda harflar yoki sonlarni ifodalash ham mumkin. Bunday o‘yinlar uchun tanlagan u yoki bu mavzu bola uchun mashg‘ulotlar davomida o‘rganilgan, o‘zlashtirilgan bo‘lishi kerak. Sog‘lomlashtirish oylarida qo‘llash ham mumkin. Bunday mantiqiy harakatli o‘yinlarni o‘ynash bola uchun faqatgina ijobiy samara beradi va nafaqat aqlan, jismonan, ruhan rivojlanadi, balki bog‘lanishli nutqi ham shakllanib boradi.

Bolalik davridagi o‘yinlar, ularning kamol topishidagi ahamiyati to‘g‘risida ko‘plab ilmiy maqolalar, asarlar yaratilgan. Chunki, o‘yinlar bolalik yillarida bolaning boshqa har qanday ishlaridan ustivorlik qiladi. Har bir sog‘lom bola o‘yinni bor vujudi bilan o‘ynaydi, chunki, o‘ynar ekan quvonch olamida kezadi. O‘yin bolaning didini o‘stiradi, mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi, tevarak – atrof bilai tanishtiradi.

O‘yin maktabgacha yoshdagi bolaga rivojlantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi.O‘yinlarturiga ko‘ra bolalarga turlicha ta’sir etadi. Masalan, harakatli o‘yinlar bola harakatini muvofiqlashtiradi, harakat malaka ko‘nikmalarinishakllantiradi, kuch va chidamlilikni rivojlantiradi. Voqeaband o‘yinlar bolalarni katta yoshlar olamiga kirib borishiga yordam beradi. Bunday o‘yinlarda bolalar, o‘zlari katta yoshlilar hayotida ko‘rgan narsalarini amalda mujassamlashtiradilar. Ular hech bir o‘ylamay turib shifokor, bog‘bon, haydovchi, o‘qituvchi, tarbiyachi, hamshiraga aylanib qolishlari mumkin. Bolalar katta yoshlilar mehnati va faoliyati sohasidagi bilimlariga ijodkorligi va orzu xayollarini qo‘shib qiziqarli o‘yinlarni uyushtirishlari mumkin. Bularga albatta bolalar kattalarga taqlid qilish orqali erishadilar. Bolalarda jamoa bo‘lib o‘ynaladigan bunday o‘yinlar o‘zgalar bilan muloqotda bo‘lishga, o‘zaro munosabatga kirish va o‘yinni belgilangan qoidalarga muvofiq o‘ynash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Bolaga oila doirasidagi o‘yinlar juda xush yoqadi. Akalari, opalari va umuman katta yoshdagilar bilan bola bajonidil o‘ynaydi. Katta yoshdagilar bola voqeaband o‘yinlarini bevosiga yoki belvosiga ishtirokchilari bo‘lishlari mumkin.

Ma’lumki, bolalar o‘ynaydigan o‘yinlar turli mavzu va voqeaband o‘yinlarga ega bo‘lishi mumkin. Tabiiy mavzudagi, bolaning oz bo‘lsada tabiat sohasidagi bilimlariga asoslanadigan hamda kishilarning tabiatdagi u yoki bu faoliyatlarini aks ettiradigan o‘yinlar bola hayotida muhim o‘rinni egallaydi. Agar ota-onalar, katta yoshdagilar bolaga tabiatni bevosita ko‘zatish mehnat, badiiy adabiyot, teleko‘rsatuvlar, diafilmlar va shu kabi boshqa qo‘llanmalar orqali tanishtirsalar, bolaning voqealikni bu sohasidagi qiziqishi uning o‘yinlarida albatta o‘z aksini topadi.

Bolalar sayr paytida baland binolar oldidan o‘tishlari mumkin. Shunda quruvchilik kasbi, qurilishda ishlatiladigan g‘isht, ganch, qum, ohak va boshqa qurilish materiallari, quruvchilik kasbi – ganchkorlik, g‘isht teruvchi, suvoqchi; binolarning balandligi, go‘zalligi va hokazolar haqida jumlalar tuzadilar. Gulzorlar, bog‘larga sayohatlar davomida tarbiyachi samolyotlar, poezdlar, gullar, favvoralar haqida suhbatlar uyushtirishi mumkin. Suhbatlarda predmetlarning rangi, tusi, soni, katta-kichikligi, turi, o‘xshash va farqli

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

tomonlari haqida ham mashq qilib boriladi. Shu bilan birga, “Nima shirin?”, “Nima uchadi?”, “Tushirib qoldirilgan so‘zlarni toping”, “Men boshlayman, sen davom et” kabi mashqlar ham grammatik jihatdan jumlalarni to‘g‘ri tuzishga yo‘llaydi.

O‘yin orqali bolalar nutqini shakllantirish yo‘llari: Bugungi kunda mashg‘ulotlarni interfaol ko‘rinishdagi o‘yinlardan foydalanib o‘tkazish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Ma’lumki, “Pedagogik texnologiya” deganda o‘quv-tarbiya jarayonini oldindan ma’lum tizimda uzviy loyihalash, ma’lum pedagogik tizimning hayotda amalga oshiriladigan loyihasi, qurilishi degan ma’no tushuniladi. Shu bilan birga, pedagogik texnologiya – bu pedagog tomonidan qo‘llaniladigan ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi uslublar yig‘indisi hisoblanadi. Pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning bir qator afzalliklari mavjud bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi: mashg‘ulotni yaxshi o‘zlashtirishga yordam beradi; motivatsiya yuqori darajada bo‘ladi; bola qiziqishlarini kuchaytiradi; ta’lim samaradorligini oshiradi; mustaqil fikrlashga olib keladi; ta’lim mazmunini o‘zlashtirishga

Shu nuqtai nazardan qaraganda maktabgacha katta yoshdagi bolalarda bog‘lanishli nutqni rivojlantirish ham ma’lum pedagogik tizimning loyihasidir. Ya’ni, bolalarda bog‘lanishli nutqni rivojlantirish maqsadi, mazmuni, tarbiya metodlari, shakllari va vositalari ifodalangan bir butun tizim texnologiyasi hisoblanadi.

Ayni muammoga oid tadqiqotlar jarayonida hozirgi davr talabi darajasida maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini o‘stirishning bir butun tizimi, mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlari aniqlab chiqildi hamda eng yangi talablar darajasida uni amalga oshirish metodlari, shakllari va vositalari texnologiyasi ishlab chiqilmoqda. Mana shu masala yuzasidan ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, maktabgacha yoshdagi bolalarning bog‘lanishli nutqini rivojlantirish, mustahkamlashda interfaol usullardan, enerjayzek tarzda tashkil etiladigan o‘yinlardan mashg‘ulotlar jarayonida o‘rinli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, “Kompot”, “Quvnoq sharchalar”, “Dengiz va delfin”, “Suvda, quruqda” kabi o‘yinlar shular sirasiga kiradi. Misol tariqasida “Dengiz va delfin” o‘yinini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, bu o‘yinda bolalardan biri boshlovchi rolida bo‘lib, uning bir qo‘li dengizning sathi, ikkinchi qo‘li delfin bo‘ladi. Boshlovchi delfinni dengizdan otilib chiqishini qo‘l harakatlari orqali ko‘rsatadi. Delfin suvdan necha marotaba otilib chiqsa, o‘yinda ishtirok etayotgan bolalar shuncha marta chapak chalishlari lozim bo‘ladi. Agar ishtirokchilardan biri o‘yin davomida o‘yin shartini buzsa yoki chapak sanog‘ida xatoga yo‘l qo‘ysa, u holda bu ishtirokchi biror shartni bajarishi lozim bo‘ladi. Masalan, dengiz yoki delfin haqida topishmoq, she’r, qo‘shiq, ertak yoki hikoya aytib berishi talab etiladi. O‘yin tugagach, bolalarga quyidagicha savollar beriladi: Bolalar o‘yin sizga yoqdimi? Nima uchun yoqdi? Siz delfinga o‘xshashni istaysizmi? Nima uchun? O‘yin davomida siz nimalarni his etdingiz? va hokazo. Bu kabi o‘yinlar bolalar diqqatini jamlaydi, bolalarning sanash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi, nutqini faollashtiradi, xotirasini charxlaydi. Bunday o‘yinlarni ertalabki suhbatlarda, mashg‘ulotlarda, sayrlarda qo‘llash mumkin. Shuningdek, tarbiyachilar har bir mashg‘ulot avvalo bola uchun tashkil etilayotganligini yodda tutishlari lozim. Guruhdagi har bir bolaga alohida e’tibor berib, qalbiga quloq

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

tutishi, ular tomonidan aytilayotgan javoblarni, bildirayotgan fikrlarini diqqat bilan tinglashi, oqilona munosabatda bo‘lishi, uni samimiyat bilan qo‘llab-quvvatlab borishi qisqasi, kichkintoyni shaxs sifatida hurmat qilishi juda muhim.

Xulosa qilib aytganda, bolalarning bog‘lanishli nutqini rivojlantirishda ularni o‘rab olgan tevarak-atrof, mehnat jarayoni, badiiy adabiyot asosiy manba bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, Ona-Vatan haqidagi tushunchalar, buyuk siymolar, an’anaviy bayramlar, o‘zbek xalqining urf-odatlari, marosimlari, mashhur sarkardalar haqidagi hikoyalar, rivoyatlar, xalq amaliy san’ati namunalari, transport va aloqa vositalari, kundalik buyumlar ham bolalarning bog‘lanishli nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda ko‘proq guruh bilan qilingan sayrlarda tevarak-atrofni kuzatib, tarbiyachi va do‘stlari bilan so‘zlashadi, uyda esa oila a’zolari bilan muloqot natijasida bog‘lanishli nutqi shakllana boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bog‘lanishli nutqini rivojlantirishda eng zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, fikr va jonli so‘z, ona tilining hissiy-estetik ma’no qirralarini anglab olish, uning go‘zalligi, sofligi, boyligini his etish orqali amalga oshiriladi. Shu asnoda bog‘lanishli nutq malakasining o‘zlashtirilishiga zamin yaratiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. X.A.Xaitov “Boshlang’ich yoshidagi bolalar nutqini o’stirishda ontogenez-psixolingvistikaning ahamiyati” https://pedagoglar.uz/index.php/ped/issue/view/155
2. Bondarevich A.A. ”Bolalar nutqida morfonologik o‘zgarishlar:.Sankt-Peterburg.2010.b-18-24.
3. Makaev E. A., Kubryakova E. S. Morfonologiya va uning birliklari holati to‘g‘risida tavsiflar // Tilning grammatik tuzilishining turli darajadagi birliklarivaularning o‘zarota’siri.-M.,1969yil.b-132.
4. M.Z. Eshonqulova “Akhunjon Safarov's Book of Poems Sweet Spring” "European journal of life safety and stability (EJLSS)", ISSN 2660-9630, SJIF 2022. 20.02.2022
5. I.Karimov. «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asari. T.: 2010
6. F.Umarova va boshqalar. Bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim. 2-modul. T.: 2011
7. “Maktabgacha ta’lim” jurnali. 2015 yil 11-soni.
8. L.Mirjalolova. Bolalarni gapirtirib o‘ynaladigan o‘yinlarga nutqiy jihatdan tayyorlash. T.: 2005

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Eshanqulova Malika Zayniddin qizi**,o’qituvchi, **[Эшанқулова Малика Зайниддин қизи**, преподаватель], [**Malika Z. Eshankulova**, teacher]; manzil: Samarqand viloyati, Samarqand, Namozgoh MFY, Xuja Axror Valiy ko'chasi, 23-uy [адрес: Самаркандская область, Самарканд, Намозгох МФЯ, Худжа Акрор Валий ко'часи, 23-уй], [address: Samarkand region, Samarkand, Namozgoh MFY, Khuja Ahror Vali street, 23] E-mail: malikaeshonqulova@mail.ru

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original paper

BIOLOGIYANI O'QITISHDA FOYDALANADIGAN KO'RGAZMA VOSITALARINING TURLARI VA ULARNI MASHGULOTLARDA UYGUNLASHTIRISH MUAMMOLARI

© N.A. Mirzayeva✉
[1] Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Toshkent, O'zbekiston.

Annotatsiya

KIRISH: ko'rgazmali qurollar biologiyani o'qitishda tushunish, eslab qolish va faollikni oshirish orqali hal qiluvchi rol o'ynaydi. Biroq, ushbu qo'llanmalarni o'qitishda samarali moslashtirish va integratsiya qilish bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada biologiya ta'limida qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollarning turlari ko'rib chiqiladi va ularni moslashtirish bilan bog'liq muammolar o'rganiladi.

MAQSAD: ushbu maqolaning asosiy maqsadi biologiyani o'qitishda qo'llaniladigan turli xil ko'rgazmali qurollarni tasniflash va tahlil qilish va ularni sinfda samarali foydalanish uchun moslashtirishda duch keladigan umumiy muammolarni aniqlashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda biologiya ta'limidagi ko'rgazmali qo'llanmalar bo'yicha tegishli adabiyotlarni ko'rib chiqish, biologiya o'qituvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar va ta'lim texnologiyalari bo'yicha mutaxassislar bilan suhbatlar o'z ichiga olgan aralash usullardan foydalaniladi. bundan tashqari, ko'rgazmali qurollardan foydalanish bo'yicha amaliy tushunchalarni to'plash uchun sinfda kuzatishlar o'tkaziladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot ushbu ko'rgazmali qurollarni moslashtirishda texnik muammolar, o'qituvchilar malakasini oshirish, o'quvchilarning faolligi kabi bir nechta muammolarni aniqlaydi**.**

XULOSA: xulosa qilib aytish mumkinki, biologiyani o'qitishda ko'rgazmali qurollar bebaho ahamiyatga ega bo'lsa-da, ularni samarali moslashtirish bir qancha muammolarni hal qilishni talab qiladi.

Kalit so'zlar: ko'rgazmalilik, tabiiy savodxonlik, sifatli ta'lim, tabiatshunoslik dunyoqarashi, biologiya, tabiiy fanlar, o'quv qurollari, ijodkorlik.

Iqtibos uchun: Mirzayeva N.A. "Biologiyani o'qitishda foydalanadigan ko'rgizma vositalarining turlari va ularni mashgulotlarda uygunlashtirish muammolari", // Inter education & global study. 2024. №4(2). B.172–180.

ТИПЫ НАГЛЯДНЫХ ПОСОБИЙ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ ПРИ ОБУЧЕНИИ БИОЛОГИИ И ПРОБЛЕМЫ ИХ АДАПТАЦИИ В ОБУЧЕНИИ

© Н.А. Мирзаева[1]✉
[1]Чирчикский государственный педагогический университет, Ташкент,Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: наглядные пособия играют решающую роль в преподавании биологии, улучшая понимание, запоминание и вовлеченность. Однако эффективная адаптация и интеграция этих руководств в преподавание ставит ряд проблем. В данной статье рассматриваются виды наглядных пособий, используемых в обучении биологии, и рассматриваются проблемы, связанные с их адаптацией.

ЦЕЛЬ: основная цель данной статьи – классифицировать и проанализировать различные наглядные пособия, используемые в преподавании биологии, и выявить общие проблемы, возникающие при их адаптации для эффективного использования в классе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ. в исследовании использовался смешанный метод, который включал обзор соответствующей литературы по наглядным пособиям в обучении биологии, опросы учителей биологии и интервью с экспертами в области образовательных технологий. кроме того, в классе проводятся наблюдения для сбора практической информации об использовании наглядных пособий.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: исследование выявило несколько проблем в адаптации этих наглядных пособий, таких как технические проблемы, подготовка учителей и вовлечение студентов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: можно сделать вывод, что хотя наглядные пособия и являются неоценимыми в обучении биологии, их эффективная адаптация требует решения ряда проблем.

Ключевые слова: визуализация, естественная грамотность, качественное образование, мировоззрение естествознания, биология, естествознание, образовательные средства, творчество.

Для цитирования: Мирзаева Н.А. ‘Типы наглядных пособий, используемых при обучении биологии и проблемы их адаптации в обучении. // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 172–180.

TYPES OF VISUAL AIDS USED IN TEACHING BIOLOGY AND PROBLEMS OF THEIR ADAPTATION IN TEACHING

© Nodira A. Mirzayeva [1]✉
[1]Chirchik State Pedagogical University, Gulistan State University, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: visual aids play a critical role in biology teaching, enhancing understanding, retention, and engagement. However, effectively adapting and integrating these guidelines into teaching poses a number of challenges. This article examines the types of visual aids used in teaching biology and discusses the problems associated with their adaptation.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

AIM: the main purpose of this article is to classify and analyze the various visual aids used in biology teaching and to identify common problems encountered in adapting them for effective use in the classroom.

MATERIALS AND METHODS. the study used a mixed methods approach that included a review of relevant literature on visual aids in biology teaching, surveys of biology teachers, and interviews with educational technology experts. In addition, classroom observations are conducted to gather practical information about the use of visual aids.

DISCUSSION AND RESULTS: the study identified several challenges in adapting these visual aids, such as technical issues, teacher training, and student engagement.

CONCLUSION: It can be concluded that although visual aids are invaluable in teaching biology, their effective adaptation requires solving a number of problems.

Key words: visualization, natural literacy, quality education, natural science worldview, biology, natural science, educational tools, creativity.

For citation: Nodira A. Mirzayeva. (2024), 'Types of visual aids used in teaching biology and problems of their adaptation in teaching' // Inter education & global study, (4(2)), pp. 172–180. (In Uzbek).

Biologiyani o`qitishda o`quvchilarning nafaqat jismoniy, balki aqliy, ma`naviy-axloqiy barkamolligini ta`minlash, ta`lim va tarbiyaning, shuningdek, ta`lim mazmuni, o`qitish metodlari, vositalari va shakllarini uyg'unlashtirish orqali ularni rivojlantirish, mustaqil, ijodiy, tahliliy va tanqidiy fikr yuritish ko`nikmalarini tarkib toptirishga e`tibor qaratish lozimligi xaqida xulosa kelib chiqadi. Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etilishi biologiya nazariy va amaliy jihatdan chuqur o`rganishga ixtisoslashgan maktablarda tashkil etiladigan ta`lim-tarbiya jarayonining barcha jabhalariga shu jumladan, amaliy mashg'ulotlarning maqsadga muvofiq tashkil etilishi bevosita va bilvosita bog'liq bo`ladi.

O'qitish vositalari ta`lim-tarbiya jarayonining maqsadi va vazifalari, o'rganiladigan mavzu mazmuniga muvofiq, o'qituvchi tomonidan mazkur jarayonning samaradorligini orttirish maqsadida qo'llaniladigan vositalar sanaladi. O'qituvchi darsda o'rganiladigan mavzu mazmunini to'la yoritadigan o'qitish vositalarini unga muvofiq esa, o'qitish metodlarini tanlaydi, shu asosda darsda o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi va boshqaradi [2]. O'rganiladigan mavzu mazmunini bevosita idrok qilish mumkin bo'lgan narsalar asosida olib boriladigan ta`lim ko'rgazmali ta`lim deb ataladi.

O'qitish vositalari mamlakatda ta`limni tubdan isloh qilish printsiplari, fan-texnika, ishlab chiqarish rivojlangan sari ularning turlari ham ko'payib bordi. Demak, ta`lim muassasalarida o'qitish vositalarining turlari ham muayyan darajada o'zgarib, yangilanib boradi, yangi avlod o'kitish vositalari vujudga keladi. O'qitish vositalarining yangi avlod guruhiga: komp`yuter texnologiyasining ta`lim beruvchi, modellashtirilgan va nazorat dasturlari, slaydlar,mul`timedialarni kiritish mumkin.

O'qituvniniig asosiy vazifasi o'rganiladigan mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda eng yuqori samara beradigan o'kitish vositalarini tanlashi, buiing uchun o'qitish vositalarining

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

yangi avlodining turlari, ular bilan ishlash metodikasini egallagan bo'lishi darkor.

Ko'rgazmali ta`lim uzoq tarixga ega, chunki tabiatshunoslikni o'qitishning dastlabki davrida ko'rgazma vositalaridan faqat tabiiy materiallardan foydalanilganligi sizga ma`lum [1]. Atoqli rus pedagogi K.D.Ushinskiy bolani esida biror narsaning mahkam o'rnashib qolishini xohlovchi pedagog bolaning sezgi a`zolarini mumkin qadar ko'prog`ini: ko'zi, qulog`i, tovush organi, muskul sezgi va hatgo iloji bo'lsa hidlash va ta`m bilishi organlarini esda tutib qolish jarayonida qatnashtirishiga harakat qilishi kerak degan edi.

O'qitish vositalarining ta`lim-tarbiya jarayonida kuyidagi ahamiyati mavjud:

1.O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirish, moddiy olamni bilish, olamni o'rganish metodlarini egallash, kuzatish va tajriba qo'yish orqali ilmiy-tadqiqot olib borishiga zamin tayyorlaydi.

2.O'quvchilarda tushunchalarni shakllantirish jarayonining samaradorligini orttirishda mazkur jarayonning barcha bosqichlari: o'quv materialini sezgi organlari orqali qabul qilish, idrok etish, tasavvur qilish, esda saqlash, amalda qo'llash va natijalarni tekshirishda foydalanish ko'zlangan natijani beradi;

3.O'quvchilarda ko'nikmalarni tarkib toptirish bosqichlarida o'qitish vositalari ham mazmun, ham ish quroli sifatida maydonga chiqadi.

4.O'qitish vositalaridan o'qitishning barcha shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar, sinfdan tashqari mashg`ulotlarda o'z o'rnida samarali foydalanish samaradorlikni orttirishni kafolatlaydi.

O'qituvchi biologiyani o'qitishda foydalaniladigan o'qitish vositalari va ularning sistemasini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

Tasviriy ko`rgazmali vosita nihoyatda xilma-xil. Ulardan mulyajlar, statik,dinamik modellar, rangli jadvallar, rasmlar, didaktik kartochkalarni ko'rsatib o'tish o'rinlidir. Mulyajlar-tabiiy ob`ektlarning aniq ko'chirilgan nusxasi bo'lib, undan o'qituvchi dars mavzusini tushuntirish, mustahkamlash, takrorlash, bilimlarni nazorat qilish va baholashda foydalanishi mumkin.

O'qituvchi ushbu mulyajlardan nafaqat dars mavzusini tushuntirish, mustahkamlash, takrorlash, bilimlarni nazorat qilish va baholash, balki o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishda ham foydalanishi mumkin. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarning mustaqil ishlari uchun o'quv topshiriqlarini didaktik kartochka sifatida tayyorlashi lozim.

Biologiyani o'qitish jarayonida tabiiy ko'rgazmali vositalar etakchi o'rinni egallaydi va dars davomida tabiiy holda o'simliklar, hayvonlar, zamburug`lar, prokariog organizmlardan keng foydalanish tabiiy bir hol. Biologiyani o'qitishda faqat tabiiy ko'rgazma vositalaridan foydalanish ko'zlangan natijani bermaydi, shu sababli o'qitishda tasviriy ko'zgazmali vositalardan ham foydalaniladi.

O'rganilayotgan mavzu mazmunini yoritishga xizmat qiladigan ko'rgazmali vositalar etarli bo'lgan taqdirdagina o'quvchi tabiatdagi narsa va xodisalarni o'zaro taqqoslashi, ulardagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlay olishi mumkin. Buning uchun o'qituvchi tarqatma didaktik materiallar tayyorlashi zarur.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Ko'rgazma vositalari yordamida o'quvchi o'rganilgan o'quv materialini analiz, sintez qilishi, abstraktsiyalash, konkretlashtirish, tizimga solish, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi aqliy operatsiyalarni amalga oshirishi mumkin. Fanda ishlab chiqilgan bilish nazariyasi va o'kuvchilarking tafakkurini rivojlantirish bosqichlariga mos xolda o'qitish vositalari uch xil turga: tabiiy, tasviriy va og`zaki yoki verbal` vositalarga bo'linadi. Mazkur o'qitish vositalarining uch xil turi muayyan sistemani hosil qiladi.

O'qituvchi har bir o'qitish vositasining ta`lim-tarbiya jarayonida tutgan o'rni, o'quvchilarning yosh va psihologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitish vositalarini tanlaydi.

Tabiiy ko'rgazma vositalari-mikropreparatlar, tirik yoki fiksirlangan o'simlik, hayvonlar ularning ayrim bo'laklari, kollektsiyalar tuluplar, gerbariylar, biosistemalar (to'qay,tog` oldi, yaylov cho'l) bo'lib, ular bilan o'quvchilar bevosita darsda yoki ekskursiya mobaynida tanishadilar. Tabiiy ko'rgazmali vositalar faqat ko'rish orqali emas, balki eshitish, hid, ta`m bilish organlari yordamida idrok qilinadi. Tabiiy ko'rgazmali vositalar o'rniga tasviriy ko'rgazmali vositalar ba`zan chunonchi xujayra, organizm ekosistemalar tuzilishi, moddalarning davriy aylanishiga oid tablitsalar, sxemalar, moddalar, foto suratlardan foydalaniladi. Komp`yuter, mul`timedialar, tasviriy ko'rgazmali vositalarning alohida guruhi sanaladi.

Og`zaki yoki verbal vositalar-bular darsliklar,ilmiy-ommabop kitoblar, o'qituvchining so'zi, televideniya yoki kinokadrlardagi diktor matni, komp`yuter dasturlari (videokadrlar, modellar,) testlar, didaktik kartochkalardir.

Tabiiy yoki tasviriy vositalarni o'quvchi tomonidan idrok qilinishi, ular ustida kuzatish, o'tkazish yoki faoliyat harakati yordamida amalga oshadi. O'quv materialini idrok etishda o'quvchining qanchalik ko'p sezgi organlari ishtirok ztsa,uni o'zlashtirish shunchalik puxta bo'ladi. Bu jarayon didaktikaning ko'rsatmalilik printsipida o'z ifodasini topgan. Ya.A.Komenskiy o'qitishda o'quvchining barcha sezgi organlarini jalb etish didaktikaning «Oltin qoydasi» deb aytgani bejiz emas.

Umumiy o'rta ta`lim o'quv yurtlarida biologiya o'qitishning barcha bosqichlarida ko'rgazmalilik ta`lim berish vositasi ekanligini unutmaslik kerak. Lekin «ko'rgazmalilik» atamasiga tabaqalashgan holda yondoshish kerak, chunki u har xil pedagogik tushunchalarni o'zida ifoda qiladi. Masalan, «ko'rgazmalilik printsipi», «ko'rgazmalilik o'qitish vositasi», «ko'rgazmali qurol» tushunchalarni farqlash kerak.

Ko'rgazmalilik pirintsipi deyilganda biologiyani o'qitish jarayonida o'qituvchi amal qiladigan didaktik printsip tushuniladi. Ko'rgazmalilik bir vaqtning o'zida sezish, mantiq, konkret, abstrakt yo'li bilan bilishni o'zida birlashtirib abstrakt tafakkurni rivojlanishiga yordam beradi va ko'p hollarda uning tayanchi hisoblanadi.

Ko'rgazmalik o'qitish vositasi sifatida o'quvchilardan statistik va dinamik obrazlar hosil qilishga qaratilgan bo'ladi. Ko'rgazmali o'qitish vositasi o'z mazmuniga ko'ra ko'rgazmali qurol tushunchasiga yaqin, lekin xajmiga ko'ra unga nisbatan keng. Masalan barglarning suv bug`latishiga oid tajriba yoki teleko'rsatuv, jadval ko'rgazma vositasi bo'lib hisoblanadi,

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

lekin ko'rgazmali qurol sanalmaydi.

Ko'rgazmali qurol bu darsda o'qituvchi tomonidan qo'llanilgan konkret narsadir. U tulup, kollektsiya, gerbariy, tirik o'simlik, hayvon, tablitsa, rasm, sxemalar shuningdek, mulyajlar diafil`mlar, tarqatma material, didaktik kartochkalar shaklida bo'ladi. O'rganilayotgan narsa va xodisalarning biologik mazmunini ifoda qiluvchi ko'rgazmali qurollar, o'qitishning asosiy vositalari, har xil asboblar probirka, kolba, tarozi va shu kabilar yordamchi vositalar hisoblanadi.

O'qitish samaradorligini oshirishda amaliy mashg`ulot va namoyish qilinadigan tajribalarni o'tkazishga yordam beruvchi xususan mikroskop, lupa, shtativ, reaktivlar asboblar isituvchi asboblar, pintset, preparoval ninalar, o'qitishning texnik vositalari-kodoskoplar, televizorlar, komp`yuterlar, ovoz yozuvchi va eshittiruvchi-apparatlar, magnitofonlar ham o'qitish vositalariga kiradi.

Texnik vositalari orasida audiovizual va boshqa tabiiy tasviriy vositalar shu bilan ustunlik qiladiki, ular o'rganilayotgan hodisa va

jarayonlarning barcha bosqichlarini izchillik bilan ko'rsata oladi. Teleko'rsatuv va videofil`mlardan biologiya o'qitishda foydalanish tirik tabiatdagi voqea, hodisalarni sinfda o'rganish sifatini bir necha marta oshirish imkonini beradi.

Asosiy guruhiga - tabiiy, tasviriy, og`zaki vositalar, yordamchilariga o'qitishni texnik vositalari va laboratoriya asbob uskunalar kiradi. Tabiiy ko'rgazma vositalar o'z navbatida tirik, o'lik va fiksirlangan, tasviriy ko'rgazma vosita tekis va hajmli xillarga ajratiladi.Tabiiy ko'rgazma vositasi maktab tajriba er maydonidan maxsus tanlangan o'simliklar, xona o'simliklari, tirik tabiat burchagidagi akvariumdagi baliqlar, terraiumdagi hayvonlar, insektariydagi hasharotlar, quritilgan,fiksirlangan ko'rgazma vositalariga gerbariylar, tuluplar, umurtqasiz hayvon kollektsiyalari, osteologik preparatlar, taksidermik materiallar, mikro va makropreparatlar, tarqatma materiallar kiradi.

Gerbariylar-bu quritilgan va to'g`rilangan, qattiq qog`ozga mahkamlan- gan yaxlit o'simlik yoki uning muayyan organidir. Biologiyani o'qitishda gerbariylardan tarqatma material sifatida foydalaniladi. Gerbariylar mazmuni va mohiyatiga ko'ra: morfologik, sistematik yoki ekologik bo'lishi mumkin. Uqituvchi darsda o'rganiladigan mavzu mazmunidagi tushunchalarning turiga ko'ra muayyan gerbariydan foydalanishi mumkin [3]. Gerbariy, kollektsiyalarni ko'rsagayotganda shuni yodda tutish kerakki, ular tirik organizmlar to'grisida to'liq tasavvur hosil qilmaydi. Shuni e`tiborga olib ular boshqa ko'rgazma vositalar bilan birgalikda namoyish etilishi lozim.

Xuddi shunday holatni fiksirlangan ho'l preparatlarga nisbatan ham aytish mumkin. Chunki ular uzoq vaqt davomida o'zlarini ranglarini yo'qotgan bo'ladilar.

Ho'l preparatlar - bu o'simlik va hayvonning yoki ular oraganlarining maxsus eritma yordamida konservalanishidir. Ular shisha tsilindrik va plastmassa idishlarda (formalin va spirt eritmalarida) bo'ladi.

Ho'l preparatlar mazmuniga ko'ra uch guruhga bo'linadi: morfologik preparatlar - o'simlik yoki hayvonning tashqi tuzilishi va organlari aks ettirilgan bo'ladi; anatomik

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

preparatlarda - organizm yoki ba`zi organlarning ichki tuzilishi aks ettirilgan bo'ladi; embriologik preparatlarda organizmlarning individual rivojlani- shi o'z aksini topgan bo'ladi.

Ho'l preparatlardan tarqatma material sifatida foydalanish mumkin.

Tabiiy ko'rgazmali vositalarning biri mikropreparatlar hisoblanadi. Ular kichik organizmlar - bakteriya, zamburuglar, bir xujayrali hayvonlar va o'simliklarning hujayraviy tuzilishini o'zida ifoda qiladi. Mikropreparatlar tayyorlanishi va davomiyligiga ko'ra 2 guruhga: vaqtinchalik va doimiy mikropreparatlarga bo'linadi.

Vaqtinchalik mikropreparatlar o'qituvchi yoki o'kuvchilar tomonidan bir dars mobaynida tayyorlanadi. Shuni qayd etish kerakki, vaqtinchalik mikropreparatlarni tayyorlash ko'nikmasini hamma o'quvchilar egallashlari kerak .

Doimiy mikropreparatlar maxsus muassasalarda tayyorlanib, undan ko'p marta foydalanish imkoniyati mavjud. Vaqtinchalik va doimiy mikropreparatlar o'quvchilar tomonidan tirik organizmlarning xujayraviy tuzilishini o'rganishda muhim ahamiyatga zga. Kollektsiyalar - o'simlik, hayvon yoki ular organlarining to'plamidan iborat. Kollektsiyalardan «Usimliklarning gomologik va analogik organ- lari», «Hashoratlar» kollektsiyasidan yashash muhitiga moslashish, himoya, ogohlantiruvchi rang, shuningdek, idioadaptatsiyalarni o'rganish mumkin.

Osteologik preparatlar deganda hayvonlarning yaxlit skeleti yoki ayrim suyaklar to'plami tushuniladi. Bu materiallardan «Organik olam evolyutsiyasi dalillari» mavzusida gomologik organlar tushuntirilganda foydalaniladi [5].

Taksidermik materiallardan hayvonlarning tabiiy shakli, hajmi va pozasi o'rganilganda foydalaniladi. Ularga tulup va chuchelalar misol bo'ladi. Ko'pgina tabiiy ko'rgazma vositalari laboratoriya va amaliy mashg`ulotlarni o'tkazish uchun zarur.

Tabiiy ravishda barcha darslarda o'simliklar, hayvonlar va boshqa tabiiy ob`ektlarni ko'rsatib bo'lmaydi. Ko'pgina xayvon, o'simliklarni, tirik tabiatning rivojlanish jarayonlari, qonuniyatlar maxsus tayyorlangan tasvirli ko'rgazma kurollar yordamida tushuntiriladi. Tasviriy ko`rgazmali vosita nihoyatda xilma-xil. Ulardan mulyajlar, statik, dinamik modellar, rangli jadvallar, rasmlar, didaktik kartoch-kalarni ko'rsatib o'tish o'rinlidir. Mulyajlar-tabiiy ob`ektlarning aniq ko'chirilgan nusxasi bo'lib, undan o'qituvchi dars mavzusini tushuntirish, mustahkamlash,takrorlash,bilimlarni nazorat qilish va baholashda foydalanishi mumkin.

Quyida "Odam va uning salomatligi" mavzusiga oid dars ishlanmasi berilgan [4].

Laboratoriya mashg`ulotining mavzusi: Ko`krak qafasining harakatini kuzatish

Laboratoriya mashg`ulotining maqsadi: O`quvchilarning nafas olish harakatlari haqidagi bilimlari, kuzatish, mantiqy fikr yuritish ko`nikmalarini rivojlantirish, k`okarak qafasining harakati bilan tanishtirish

Laboratoriya jihozlari: sekundamerli saot, santemetrli o`lchov tasmasi.

Laboratoriya mashg`ulotining borishi:

I.O`quvchilarni laboratoriya mashg`ulotining maqsadi, borishi, va bajariladigan topshiriqlar bilan tanishtirish.

Ishni bajarish tartibi

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

1. Bir o`quvchi tekshiriluvchi sifatida olinadi va u belidan yuqori ustki kiyimini yechib stulga o`tiradi.

2. Tekshiruvchi tekshiriluvchi normal nafas olayotganida ko`krak qafasining harakati kuzatiladi.

3. Ko`krak qafasi va qorinning nafas olishdag harakatiga qarab, soatning sekendomeri yordamida bir minutda nafas olish soni aniqlanadi.

4. Nafas olganda va chiqarganda ko`krak qafasi aylanasining o`zgarishi quyidagicha aniqlanadi.

Tekshiriluvchi tik holatda normal nafas olganida, ko`krak qafasining aylanasi santimetrli o`lchov lentasi bilan o`lchandi

So`ngra chuqur nafas olganda ko`krak qafasining aylansi o`lchanadi.

Undan keyin chuqur nafas chiqrganda ko`krak qafasining aylanasi o`lchanadi

Izoh: Chuqur nafas olingan va chuqur nafas chiqarilgan vaqtda ko`krak qafasi aylanasining bir-biridan farqi ko`krak qafasining ekskursiyasi deb ataladi. Odam jismonan qancha baquvvat va to`g`ri nafas olish qoidalariga odatlangan bo`lsa, ko`krak qafasining ekskursiyasi shuncha ko`p bo`ladi. Mazkur tajriba tartibi va natijalarini o`quvchilar daftarga yozib oladilar.

II. O`quvchilarni kichik guruhlarga ajratish va ularga o`quv topshiriqlarini tavsiya etish.

III.O`quvchilarning kichik guruhlarda mustaqil ishini tashkil etish.

Kichik guruhlarga santimetrli o`lchov tasmasi, sekundamerli soat tarqatiladi va quyidagi topshiqlar beriladi.

1. Bir o`quvchi tekshiriluvchi sifatida olinadi tekshiriluvchi normal nafas olayotganida ko`krak qafasining harakatini kuzating

2. Ko`krak qafasi va qorinning nafas olishdagi harakatiga qarab, soatning sekendomeri yordamida bir minutda nafas olish sonini aniqlang.

3. Nafas olganda va chiqarganda ko`krak qafasi aylanasining o`zgarishini aniqlang.

4. Kuzatish natijasiga asoslanib quyidagi jadvalni to`ldiring

O`quvchining ismi-sharifi	**O`quvchining bir minutda nafs olish soni**	**O`quvchi nafas olganda ko`krak qafasi (smda)**	**O`quvchi nafas chiqarganda ko`krak qafasi sm da**
1-o`quvchi 2-o`quvchi 3-o`quvchi 4-o`quvchi			

Biologiyani o'qitishda o'qitish vositalari o'quvchilarning yangi bilimlarni egallashlarida, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, tizimga solish va umumlashtirishda-bilim manbai va bilimlarni o'zlashtirish omilidir.

Biologiya fanini o‘qitishda ko‘rgazmali metodlarning qo‘llanishi, o‘quv materiallar mazmunidan kelib chiqib, obyektlar va hodisalarni hissiy idrok etish, ularni taqqoslash, o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash, umumlashtirish, sintezlash, xulosa yasashga imkon beradi [6]. Ko‘rgazmali metodlar o‘qitish jarayonida og‘zaki, amaliy, mantiqiy, muammoli metodlar bilan uyg‘un holda qo‘llaniladi. Jumladan, o‘quvchilarga ko‘rgazma asosida o‘quv

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

materiallarni o‘rganish bo‘yicha vazifalar o‘qituvchi tomonidan og‘zaki beriladi. Vazifalarni bajarish jarayonida ko‘rgazmalilik amaliy metodlar bilan birikib ketadi, darsda vujudga kelgan muammoli vaziyatlarni hal qilishda muammoli metodlar bilan mujassamlashib ketadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Klaudiya, K., & Mirzaeva. N. A. (2022). O'zbekistonda tabiiy fanlarni o'qitishning Steam metodikasiga asoslangan o'quv darslarni tashkil etishda "eshitdim-ko'rdim-bajardim" tamoyili. Innovative Development in Educational Activities, 1(5), 51-69.
2. Mirzaeva N. A. Tabiiy fanlarni o'qitishda pedagogik ta'lim innovasion klasteri (Chirchiq modeli) "eshitdim – ko'rdim bajardim" tamoyili metodologiyasi // ReFocus. 2022. №1.
3. Mirzaeva N. A. Ko‘rgazmalilik ta’limninig didaktik tamoyili sifatidaQDPI, Biologiya fanlarining dolzarb masalalari, muammo va yechimlar mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to`plami. 25-may 2023-yil., 84-87
4. Mirzaeva N. A. Kelajak o‘qituvchisi konsepsiyasida: hayotiy vaziyatlarga moslashgan steam mutaxassis obrazi Bosma Global dunyoda ilm-fan va ta‘limdagi innovatsion rivojlanishning zamonaviy trendlari 15 dekabr, 2022 yil. 340-343
5. Raximov.A.K. Talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirish zamon talabi // Academic research in educational sciences. Chirchik state pedagogical institute Tashkent region, Uzbekistan problems and solutions, June 25-26, 2021.Building 2a, istikbol street, pp. 210-214.
6. Yusupov N.B. Features of the application of modern pedagogical technologies in the teaching of Biology // Современное образование (Узбекистан). 2018. №6. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/biologiya-fanini-itishda-zamonaviy-pedagogik-tehnologiyalarni-llash-hususiyatlari (дата обращения: 22.04.2024).

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Mirzaeva Nodira Abduxamidovna,** dots. v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha f.d. (PhD) [**Мирзаева Нодира Абдухамидовна,** доцент, доктор философских наук в области педагогика, (PhD], [**Mirzaeva A. Nodira**, Associate Professor, Doctor of Philosophy in Pedagogy, (PhD)]; manzil: O'zbekiston, Toshkent viloyati, Chirchiq, ko'chasi Amir Temur, 104 [адрес: Узбекистан, Ташкентская область, Чирчик, ул. Амира Темура, 104], [address: Uzbekistan, Tashkent region, Chirchik, street Amir Temur, 104]; E-mail: nodirabegim.2018@mail.ru

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original paper

SHARQ MATEMATIK OLIMLARINING ASARLARIDA ARIFMETIKANING RIVOJLANISHI HAQIDA ILK TUSHUNCHALAR

© N.T. Tursunova[1]✉

[1]Toshkent Amaliy Fanlar universiteti, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: sharq matematikasining boy merosi arifmetik va matematik tafakkurning rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shdi. Sharq matematiklarining, xususan, islom oltin asrining asarlari arifmetikaning keyingi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan asos tushunchalarini qo'ydi. Ushbu maqola Sharqning taniqli matematiklari asarlarida keltirilgan arifmetikaning dastlabki tushunchalarini o'rganib, ularning ushbu sohaga qo'shgan hissasi va ta'sirini yoritadi.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является изучение того, как современные технологии способствуют умственному и интеллектуальному развитию детей раннего возраста в условиях ДОУ. Исследование направлено на выявление преимуществ и потенциальных недостатков интеграции технологий в дошкольное образование и предоставление рекомендаций по их эффективному внедрению.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании используется смешанный подход, сочетающий количественные и качественные исследования. Материалы включают инструменты образовательных технологий, руководства по учебным программам и инструменты оценки развития. Методы включают опросы педагогов и родителей, наблюдение за взаимодействием детей с технологиями, а также оценку когнитивного и интеллектуального развития. Анализ данных фокусируется на влиянии использования технологий на различные аспекты умственного и интеллектуального развития, такие как развитие речи, память и навыки решения проблем.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показывают, что современные технологии могут значительно улучшить умственное и интеллектуальное развитие детей раннего возраста при правильном использовании в ДОУ.

Заключение. в исследовании делается вывод, что современные технологии могут положительно повлиять на умственное и интеллектуальное развитие детей раннего возраста в ДОУ. Предоставляя интерактивный, увлекательный и

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

персонализированный опыт обучения, технологии могут поддерживать когнитивное развитие и готовить детей к будущим образовательным задачам.

Ключевые слова: интеллектуальные, педагогические технологии, информационно-коммуникационные технологии, “первый шаг”, мультимедиа, современное образование.

Для цитаты: Назарова З. Роль современных технологий в интеллектуальном развитии детей раннего возраста. (в случае ДОУ). // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 198-205.

THE ROLE OF MODERN TECHNOLOGIES IN THE MENTAL INTELLECTUAL DEVELOPMENT OF YOUNG CHILDREN. (in the case of PEO)

© Zulayho Nazarova[1]✉

[1]Kattakurgan Branch of Samarkand State University, Samarkand, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: modern technologies have increasingly become a part of early childhood education, playing a significant role in the mental and intellectual development of young children. Technologies such as educational apps, interactive games, and digital learning tools can enhance cognitive skills, promote problem-solving abilities, and support overall intellectual growth. This article examines the role of modern technologies in the mental intellectual development of young children, with a particular focus on their application in Preschool Education Organizations (PEOs).

AIM: the aim of this study is to explore how modern technologies contribute to the mental and intellectual development of young children in the context of PEOs. The study seeks to identify the benefits and potential drawbacks of integrating technology into early childhood education and to provide recommendations for effective implementation.

MATERIALS AND METHODS: the study employs a mixed-methods approach, combining quantitative and qualitative research. Materials include educational technology tools, curriculum guides, and developmental assessment instruments. Methods involve surveys of educators and parents, observations of children’s interactions with technology, and assessments of cognitive and intellectual development. Data analysis focuses on the impact of technology use on various aspects of mental and intellectual growth, such as language development, memory, and problem-solving skills.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings indicate that modern technologies can significantly enhance the mental and intellectual development of young children when used appropriately in PEOs.

CONCLUSION: the study concludes that modern technologies have the potential to positively influence the mental and intellectual development of young children in PEOs. By providing interactive, engaging, and personalized learning experiences, technology can support cognitive development and prepare children for future educational challenges.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Keywords: intellectual, pedagogical technologies, information and communication technologies, “the first step", multimedia, modern education.

For citation: Nazarova Z. (2024), ‘The role of modern technologies in the intellectual development of young children (in the case of PEO)’, Inter education & global study, (4(2)), pp. 198-205. (In Uzbek).

Ma’lumki, mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantirishga ko‘maklashuvchi usullarni qo‘llab, bolalarga muhim bo‘lgan bilim berish maktabgacha ta’limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun hozirda yangi zamonaiy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayoniga tadbiq etilmoqda. Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning boshlang‘ich qismi sanaladi. U bolaning sog‘lom va rivojlangan shaxs bo‘lib shakllanishini ta’minlash bilan bir qatorda, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini uyg‘otib, tizimli o‘qitishga tayyorlab boradi. Biz bilamizki, kichik yoshdagi bolalarda hali qiziqishlar yaqqol namoyon bo‘lmaydi, ular mashg‘ulotlar jarayonida hamma narsalarga qiziqish bilan munosabatda bo‘ladilar. O‘zlari o‘zlashtirgan faoliyat ularni qanoatlantiradi. Keyinchalik esa, sabablarni, qonuniyatlarni, hodisalar o‘rtasidagi aloqa va bog‘liqliklarni bilib olish uchun bo‘lgan qiziqishlar rivojlanadi. Kichik yoshdagi bolalarni “Bu nima?” – degan savol ko‘proq qiziqtirsa, bir muncha kattaroq yoshdagi bolalar uchun “Nima sababdan?”, “Qanday qilib?” degan savollar muhim bo‘lib qoladi. Asta sekin mashg‘ulotlar jarayonida malakasining rivojlanishi bilan kitob o‘qishga, rasm chizishga yoki biror narsalarni yashashga qiziqish yuzaga keladi. Maktabga borgach esa, dastavval, kitoblarni tez o‘qishga, undan so‘ng esa mazmuni o‘tkir va qiziqarli bo‘lgan muayyan adabiyotlarni, ertaklarni o‘qishga, keyinchalik qiyin bo‘lmagan ilmiy sarguzashtlar haqida kitoblarni o‘qishga qiziqish paydo bo‘ladi. Kichik yoshdagi bolalarni o‘zlashtirayotgan materialning mazmuni, o‘qish ishlarining ayrim usullari o‘ziga jalb eta boshlaydi. Bu yoshdagi bolalar aqliy faoliyat usullari, o‘z xotirasi, nutqi, diqqati hamda irodasini o‘stirish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ishlarga qiziqa boshlaydi. Bunday hollarda didaktik o‘yinlarning ahamiyati va samarasi judayam katta.

2019 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4312-sonli qarori bilan “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” tasdiqlandi. Bu qonun hujjatlarida maktabgacha ta’lim tizimini yaxlit uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish kabi masalalar o‘z ifodasini topgan. Har bir bolaning psixik rivojlanishi genetik individual tarzda shakllanib, ularning psixik funksiyalarining rivojlanishi uzoq davom etuvchi jarayon bo‘lib, bir funksiya oldinroq boshqalari esa keyinroq shakllanishini hech kimga sir emas. Shu bois bir bolada ko‘rishga, eshitishga oid o‘zlashtirish boshqasida esa muhitni tasavvur qilish imkoniyatlari shakllangan bo‘lib, har bir bolaning faoliyati, harakati hamda intilishi bir-biriga

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

o‘xshamaydi va bularning ba’zilari oldinroq ba’zilari esa keyinroq rivojlanadi. Aynan miyaning ushbu tarkibiy qismi boladagi ustun va zaif tomonlarini kompensatsiya qila olmasligi natijasida ijtimoiy talablarga muvofiq bo‘la olmayotgani, qiyinchiliklarga duch kelayotganini bizga aynan qaysi jihatlariga birinchi navbatda e’tiborni qaratishimiz kerakligini bildiradi. Bu kabi muammolarni oldini olish albatta maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan boshlanishi, o‘zining ijobiy natijasini beradi. Bunday muammoli bolalarga kuchliroq motivatsiya, emotsional qiziqtirish (o‘z kuchi va qobiliyatiga undovchi rag‘batlantiruvchi so‘zlar) va vazifalarni miqdorlash sezilarli darajada yordam beradi. Hattoki, bunday bolalarga faoliyatni o‘zgartiruvchi vaziyatlar ham foydali hisoblanadi. Faoliyatni o‘zgartiruvchi vaziyatlar jismoniy mashqlar, harakatli o‘yinlar orqali amalga oshirilishi ham mumkin. Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni intellektual rivojlantirishda neyropedagogik va neyropsixologik bilimlarning o‘rni beqiyos hisoblanadi. Chunki neyropedagogik, neyropsixologik yondashuv bizga oliy psixik funksiyalarning o‘rganib bolalarning kuchli va zaif tomonlarini o‘z vaqtida aniqlash va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga, guruh yoki individual tarzda korreksion ishlarni samarali tashkil qilish orqali mavjud muammolarni yaxshilashga yordam beradi. Hozirda maktabgacha ta‘lim sohasi ta’lim-tarbiya jarayoniga bolalarni har tomonlama intellektual, aqliy, ma’naviy-axloqiy va jismoniy rivojlantirishni ta’minlaydigan zamonaviy ta’lim dasturlari, ilg‘or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish, ularni maktabga tayyorlash darajasini oshirish, maktabgacha ta’limni boshqarishning zamonaviy standartlarini yaratish soha mutaxasislari oldiga muhim va aniq maqsadga yo‘naltirilgan vazifalarni qo‘ymoqda. Kichik maktabga tayyorlov davrida o‘qish faoliyati bilan shug‘ullanish, jumladan, moddiy narsalarning har xil xossalari bilan tanishish sezgilarning o‘sishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Kichik maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarda asosan farq qila olish, ko‘rish va eshitish sezgilari ayniqsa tez o‘sadi. Ohanglarni farq qilish sezgirligi, ayniqsa bolalarga musiqa va ashula o‘rgatish jarayonida kuchli suratda o‘sadi. Sezgilarning o‘sishida shuningdek, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining ham ahamiyati katta. Aniq harakat qilishga jalb etuvchi mashqlar bolalarning muskul-harakat sezgilarini o‘stiradi. Bu yoshda idrokning hamma turlari asosan ta’lim-tarbiya tufayli mazmun, aniqlik, ravshanlik jihatdan ko‘p darajada takomillashadi. Mazkur yoshdagi bolalar o‘z idroklarining aniqligi, ravonligi, o ‘tkirligi bilan boshqa yosh davrdagi insonlardan keskin farq qiladi. Ular har bir narsaga berilib, o‘ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Birinchi sinfga kelgan bola predmetlarning rangi, shakli va kattaligini, ularni maqonda joylashishini bilish bilan, birga ularni taqqoslay oladi. Maktabda muvaffaqiyatli o‘qish uchun bola sensor rivojlanganlik darajasining yuqori bo‘lishi juda muhim hisoblanadi. Maktab yoshiga kelib, normal rivojlanayotgan bolalar rasm va suratlar real hayotni aks ettirayotganligini yaxshi tushunadilar. Shuning uchun ham surat va rasmlarda nimalar aks etganini real hayotga taqqoslagan holda bilishga harakat qiladilar. Bola rasmlarda atrof-hayotdagi narsalarni kichiklashtirib tasvirlanganligini anglay biladi. Bu tasvirlar bolalarda estetik va badiiy didni rivojlantiradi. Chunki, bola shu rasmlar orqali olam go‘zalligini, uning turfa ranglardan

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

iborat ekanligini anglaydi, ajratadi va o‘z munosabatini bildira oladi. Ta’lim-tarbiya jarayonida bolalarda ixtiyoriy idrok va kuzata olish qobiliyati o‘sadi. Kuzata bilish muvafaqqiyatli o‘qish uchun zarur shartlardan biridir. O‘quvchilarda kuzata bilish qobiliyati ularning tafakkuri, irodasi, qiziqish, havaslari bilan birgalikda o‘sib boradi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, kichik yoshdagi bolalarda idrok, tafakkur, iroda va boshqa fazilatlarni shakllantirishda axborot texnologiyalari va zamonaviy interfaol ta’lim texnologiyalarining ahamiyati nihoyatda katta.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida‘gi 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349 - sonli hamda 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2018-yil 19-fevraldagi 3549-sonli Qaroriga muvofiq jamiyatimizning boshqa sohalarida bo‘lganidek, maktabgacha ta‘lim sohasida ham ta‘lim jarayonlarida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalaridan keng foydalanish ta‘lim sifatini ta‘minlovchi vositalardan biriga aylanmoqda.

Yosh avlodni har tamonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan ob’yektiv zaruratdir. Maktabgacha ta‘lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bir necha yo‘nalishlarda o‘z ifodasini topadi:

a) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan bolalar bilan bo‘lgan masofaviy ta‘lim-tarbiya jarayonida foydalanish;

b) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan masofaviy ta‘limda pedagoglarning ota-onalar bilan hamkorlik (ijtimoiy tarmoq orqali) jarayonida foydalanish;

c) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan metodik ishlarni tashkil etishda, ta‘lim sifatini oshirishda tarbiyachilar bilan ishlash jarayonida foydalanish;

d) Bolalarning aqliy intellektual, ijtimoiy-hissiy va ijodiy rivojlanishi darajasining oshishida foydalanish.

Zamonaviy ta'lim tizimi uchun aqliy tarbiya muammosi juda muhimdir. Olimlarning fikricha, bilimli va bilimli insonlar haqiqiy milliy boylik sifatida qadrlanadi. Aqliy tarbiya bu aqlni rivojlantirish maqsadida yosh avlodga muntazam va maqsad asosida pedagogik va psixologik ta’sir ko‘rsatishdir. Demak, aql keng ma’noda sezish va idrok etishdan boshlab to tafakkur va hayolni o‘z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig‘indisi bo‘lib, u yosh avlodning insoniyat to‘plagan bilimlar, ko‘nikma va malakalar, me’yorlar, qoidalar va boshqalarda ro‘y beradi. Bu holat kattalar tomonidan amalga oshiriladi va bolalarning aqliy rivojlanishini ta’minlovchi xilma-xil vositalar, metodlarni, kerakli shart-sharoitlarni yaratishni o‘z ichiga oladi. Texnika vositalari bilan to‘la jihozlangan, ko‘rgazmalarga boy mashg‘ulot, ertaliklar, tadbirlar va chet tillarini o‘rgatish bo‘yicha to‘garak mashg‘ulotlari boladagi qobiliyat va iqtidorni yuzaga chiqarishda, uni rivojlantirishda ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, axborot texnologiyalari va innovatsiyalarning imkoniyatlari

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

bolalarning aqliy intellektual rivojlanishiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko ‘rsatadi, shu jihatdan, maktabgacha yoshdagi bolalar bilimlariga qo‘yiladigan Davlat talablari, “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida bilim va ko‘nikmalarni egallagan, axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalari va ulardan to‘g‘ri foydalana oladigan 6-7 yoshli bola axborot zamonaviy, ilg‘or texnologiyalar asosida ta‘lim berayotgan maktab ta‘limiga jismonan shay, yetarli intellektual ko‘nikmalarga ega, psixologik tayyorlangan holda yo‘llanadi. Biz bilamizki, maktabgacha yoshdagi bola hayotida o‘yin – bu eng asosiy faoliyat turi hisoblanib, u bola shaxsining shaklalnishi va rivojlanishi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Gap kompyuter o‘yinlari haqida borar ekan, tarbiyachi o‘yinlarning bola yoshi va axloq me’yorlariga mos kelishini hisobga olishi kerak. Kompyuter o‘yinlaridan foydalanish (multimediya vositasida) bolalarga ta'lim berish samaradorligini oshirish bilan birga bolaning aqliy va ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda ijobiy natija beradi. Paint dasturida bola rasm chizish jarayonida tasvirlagan predmet yoki hayvon, tabiat manzarasi yoki odam rasmiga rang tanlashi, mavjud ranglarni farqlashi, ularni joy-joyida ishlatishi, natijada o‘z ishini baholashi davomida uning individual shaxs xususiyatlari, qiziqishlari oddiy qog‘ozga rasm chizgandan ko ‘ra yaqqolroq ifodalanadi. Shu bilan birga bolaga interfaol ta'lim berish vositasi sifatida bolaning yangi bilimlarni tez o‘zlashtirishiga va dunyoqarashini kengayishiga imkon beradi. Bu interfaol kompyuter o‘yinlari tarbiyachi tomonidan davlat talablariga mos ravishda Power Point dasturida va mashg‘ulotda bolalar bilan birga o‘ynash uchun yaratilgan bo‘lishi zarur. Masalan, o‘yin faoliyat markazida “Bino quramiz”, “Farqini top”, “Nima kam”, “Xatoni top”, “Qo‘g‘irchoqni kiyintiramiz”, “Shaklni joylashtir”, “Rasmni bo‘ya” ta’limiy o‘yinlarni animatsion tasvirlar yordamida o‘ynasa, mavzuga oid berilgan bilimlarni bola zo‘r qiziqish bilan o‘zlashtiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasida an’anaviy ta’lim shakllari bilan kompyuterlashtirilgan pedagogik texnologiyalarni taqqoslaydigan bo‘lsak, kompyuterlashtirilgan texnologiyalarda samarali natijalar namoyon bo‘ladi. Kompyuter ekranida axborotning o‘yin shaklida aks etishi bolalarda shu faoliyat turiga nisbatan diqqat va qiziqishini uyg‘otadi, harakat, tovush, multiplikatsiya tasvirlari bola xotirasida uzoq vaqt taassurot qoldiradi. Muammoli masalalarning qo‘yilishi va ularninig to‘g‘ri yechimini kompyuter orqali topilishi bolalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Axborot texnologiyalarni maktabgacha ta'limga kiritishidagi dolzarb masalalar bilan ayrim muammolar ham mavjud, aytaylik, zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida maktabgacha ta’limdagi pedagog xodimlar kompetentligining yetarli emasligidir. Bugungi kun pedagoglari zamon bilan hamnafas ravishda o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustaqil oshirib borishlari zarur.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash joizki, axborot kommunikatsiya texnologiyalari maktabgacha ta‘lim tizimida pedagogik jarayonni tashkil etishda, uzluksiz metodik xizmat ko’rsatishda, metodik faoliyatni rejalashtirish bilan birgalikda kompyuter bolaga alohida yondashuv imkonini yaratadi, bu jarayonda har bir bolada o‘z intellektual darajasida va shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqib topshiriqni bajarishiga imkon beradi. O‘z navbatida, bolalarda kompyuter va smartfonlardan to‘g‘ri foydalanish ko’nikmasini shakllantirish,

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

mazkur texnika vositalarining ijobiy imkoniyatlari bilan birga salbiy tomonlari ham mavjudligini nazarda tutishimiz lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Nishonova.Z.T, Alimova.G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. - Toshkent: ‘‘Fan va texnologiyalari’’, 2017-yil
2. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida‘gi 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349 – sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.03.2020 yildagi “2017- 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” gi PF-5953-sonli farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **«**Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlar ito‘g‘risida»gi PQ-4963-son qarori

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Zulayho Nazarova**, o‘qituvchi [**Зулайҳо Назарова,** преподаватель], [**Zulayho Nazarova**, teacher], manzil: 100007, O'zbekiston, Samarqand viloyati, Shahar: Kattaqo'rg'on, Amir Temur ko'chasi [адрес: 100007, Узбекистан, Самаркандская область, Город: Каттакорган, улица Амира Темура], [address: 100007, Uzbekistan, Samarkand region, City: Kattakorgan, Amir Temur street]; e-mail: zulayhonazarova@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original paper

LUG‘AT USTIDA ISHLASH YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSI

© O.O. Parpiyev[1]✉
[1]Qo‘qon universiteti, Qo‘qon, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: yozma nutqni rivojlantirish lingvistik ta'limning muhim tarkibiy qismi bo'lib, samarali muloqot va akademik muvaffaqiyat uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi tizimli lug'at ishining talabalar o'rtasida yozma nutqni rivojlantirishga ta'sirini o'rganishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot miqdoriy va sifatli ma'lumotlarni yig'ishni birlashtirgan aralash usullardan foydalanadi. Ishtirokchilar orasida turli xil ta'lim darajasidagi talabalar mavjud va materiallar standartlashtirilgan lug'atni baholash, yozish namunalari va o'quv tadbirlarini o'z ichiga oladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: topilmalar maqsadli lug'at yo'riqnomasi va rivojlangan yozma nutq o'rtasidagi kuchli bog'liqlikni ko'rsatadi. Muntazam va tuzilgan lug'at faoliyati bilan shug'ullanadigan talabalar, xususan, leksik xilma-xillik, jumlalar tuzilishi va umumiy uyg'unlik nuqtai nazaridan yozishda sezilarli yaxshilanishlarni ko'rsatdilar.

XULOSA: tadqiqot shuni ko'rsatadiki, lug'at bilan ishlash yozma nutqni rivojlantirish uchun zarurdir. So‘z boyligini samarali o‘rgatish o‘quvchilarning leksik repertuarini kengaytiribgina qolmay, balki yozma ravishda murakkab fikrlarni ifodalash qobiliyatini ham oshiradi.

Kalit so'zlar: boshlang‘ich ta’lim, matn, lug‘at, yozma, nutq, interaktiv, metod.

Iqtibos uchun: Parpiyev O.O. Lug‘at ustida ishlash yozma nutqni rivojlantirishning asosi. // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 206–212

СЛОВАРНАЯ РАБОТА – ОСНОВА РАЗВИТИЯ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ

© О.О. Парпиев[1]✉
[1]Кокандский университет, Коканд, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: развитие письменной коммуникатsiи является важным компонентом изучения языка и служит основой для эффективного общения и академических успехов.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является изучение влияния систематической словарной работы на развитие письменной речи среди учащихся.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании используются смешанные методы, сочетающие сбор количественных и качественных данных. В число участников входят учащиеся с разным уровнем образования, а материалы включают стандартизированные тесты на словарный запас, образцы письма и учебные мероприятия.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты указывают на тесную связь между целенаправленным обучением словарному запасу и улучшением письменного общения. Студенты, которые занимались регулярными и структурированными словарными упражнениями, показали значительные улучшения в своем письме, особенно с точки зрения лексического разнообразия, структуры предложений и общей связности.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исследования показывают, что работа со словарным запасом необходима для развития письменной речи. Эффективное обучение лексике не только расширяет лексический репертуар учащихся, но и повышает их способность выражать сложные идеи в письменной форме.

Ключевые слова: начальное образование, текст, словарный запас, письмо, речь, интерактив, метод.

Для цитирования: Парпиева О.О. Словарная работа – основа развития письменной речи. // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 206–212.

VOCABULARY WORK IS THE BASIS FOR THE DEVELOPMENT OF WRITTEN SPEECH

© Odil O. Parpiyev[1]✉
[1]Kokand University,Kokand, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the development of written communication is an important component of language learning and serves as a foundation for effective communication and academic success.

AIM: the purpose of this study is to investigate the effect of systematic vocabulary work on the development of written discourse among students.

MATERIALS AND METHODS: the study uses mixed methods combining quantitative and qualitative data collection. Participants include students from a variety of educational backgrounds, and materials include standardized vocabulary assessments, writing samples, and learning activities.

DISCUSSION AND RESULTS: findings indicate a strong relationship between targeted vocabulary instruction and improved written communication. Students who engaged in regular and structured vocabulary activities showed significant improvements in their writing, particularly in terms of lexical variety, sentence structure, and overall coherence.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

CONCLUSION: research shows that working with vocabulary is necessary for the development of written speech. Effective vocabulary teaching not only expands students' lexical repertoire, but also increases their ability to express complex ideas in writing.

Key words: elementary education, text, vocabulary, writing, speech, interactive, method.

For citation: Odil O. Parpiyev. (2024) 'Vocabulary work is the basis for the development of written speech, Inter education & global study', (4(2)), pp. 206-212. (In Uzbek).

Til milliy ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko'zgusidir. "Kishining zebu ziynati, go'zalligi uning tilidadir", deyiladi. Qadim-qadim zamonlardan beri har bir millat, har bir qavm o'z tiliga buyuk hurmat bilan qaraydi. Chunki til millat degan birlikning tamal toshi, u boy berilsa, millat ham boy beriladi. O'zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimovning quyidagi so'zlarida ulkan ma'no bor: "Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili-bu millatning ruhidir. O'z tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar"[1]. Demak, millatning borligi va birligining bosh belgisi tildir.

"O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"[2] da belgilab berilgan "mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" vazifasi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarining mustaqil fikrlash salohiyatini kengaytirish tub islohotlar zamirida rivojlanayotgan davlatimizda faol, izlanuvchan va zamon bilan hamnafas bo'lishni taqozo etadi.

Ona tilini amaliy o'zlashtirish, birinchi navbatda, ma'lum miqdordagi so'zlarni bilishni talab qiladi. Shuning uchun o'quvchilarga ona tilidagi nutqni dastlabki o'rgatish jarayonida asosiy o'rinlardan birini lug'at va imlo ishlari egallaydi. Lug'at va imlo ishining vazifasi nutq faoliyati uchun zarur bo'lgan lug'at boyligini to'plash, ularning uyg'unlik qonuniyatlarini, turli leksik ma'nolarni o'zlashtirishdan iborat. O'quvchilarning lug'at boyligining bosqichma-bosqich boyib borishi ularga lug'at ishining turlari va shakllarini xilma-xil qilish, ilgari o'rganilgan so'zlarning leksik ma'nosini konkretlashtirish va aniqlashtirish imkonini beradi.

O'quvchilarning so'z boyligini boyitish o'qituvchiga ona tiliga murojaat qilmasdan so'zlarning ma'nolarini tushuntirish imkonini beradi.

Boshlang'ich sinflar uchun o'quvchiga ona tilida oddiy fikrlarni ifodalash va suhbatdoshni dasturda nazarda tutilgan talablar doirasida tushunish imkonini beradigan so'zlar tanlanishi kerak. Birinchi sinfdan boshlab, har bir darsda nutqiy vaziyatlar (dialog, suhbat, ekskursiya, hikoya) natijasida o'quvchilar yangi so'zlarni o'zlashtiradilar va ilgari o'rganilganlarini mustahkamlaydilar.

Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: "Nutqni o'stirish va rivojlantirish jarayoni bola lug'atining va so'zlarning assotsiatsiya asosida bog'lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o'zgarishlar, balki sifat jihatdan o'zgarish jarayonidir,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

zero u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog‘langan holda so‘zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir”[4].

Quyi sinflarda o‘quvchilarga o‘qish, yozish, og‘zaki va yozma nutqdan foydalanish kabi ko‘nikmalar o‘rgatiladi, bu esa aniq nutqiy ko‘nikma va malakalarni, ya’ni nutqiy faoliyat turlarini shakllantirishdan iborat. M.R. Lvov[4] tomonidan taqdim etilgan nutq faoliyatining to‘rtta asosiy turi mavjud:

1.Tinglash - tovushli nutqni tinglash va tushunish jarayoni. Bu tur quyidagi omillarga bog‘liq: til tizimi bilan tanishish darajasi, mavzuning qiziqishi va ahamiyati, muhitda o‘yin mavjudligi, auditorning individual psixologik va shaxsiy imkoniyatlari, aqliy jarayonlarning rivojlanishi (xotira va e’tibor).

2.So‘zlash-o‘quvchilarning og‘zaki nutqda o‘z fikrlarini to‘g‘ri, ravon va mantiqiy ifodalay olishi, shuningdek, suhbatdoshga tushunarli bo‘lgan so‘z va iboralarni tanlay olish, fikr yuritish uchun ma’lum joylarda to‘xtab turish, ular o‘z fikrini to‘g‘ri, to‘g‘ri va mantiqiy ifoda eta olishi.

3.O‘qish - tezlik, o‘qilgan narsalarni to‘liq o‘zlashtirish.

4.Harf-fikrning grafik koddagi ifodasidir.

K.D.Ushinskiy bolalarni ona tilida o‘qitishning zarurligini asoslab, bolalarga ona tilini dastlabki o‘qitish metodikasini ishlab chiqar ekan, bolalar tilni o‘zlashtirishlarining til bilan tafakkurning o‘zaro munosabatlarini falsafiy, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘qitishga asoslangan xususiyatlari va qonuniyatlari borasida o‘z fikrlarini bildiradi.

Rossiya fanida nutq ontogenezi borasidagi tadqiqotlar L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasiga va A.N.Leontevning faoliyat nazariyasiga tayangan holda amalga oshirilgan. Natijada bolalar nutqining paydo bo‘lishi va rivojlanishi ularning atrofdagi odamlar bilan muloqot jarayonlarida ro‘y beradi, degan qarashlar tizimi shakllandi.

K.D.Ushinskiyning ta’kidlashicha, “…bola ikki-uch yilda shuncha narsani oson va tez o‘rganib oladiki, keyin yigirma yil qunt bilan astoydil o‘qigan taqdirda ham uning yarmini o‘zlashtira olmaydi”.

V.I.Loginova, YU.S.Lyaxovskaya, V.V.Gerbova, E.M.Strunina va boshqalarning tadqiqotlarida bolalar ona tili leksikasini o‘zlashtirib olishlarining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Ona tili o‘qitish metodikasida nutqiy malakalarni rivojlantirish va baholash masalalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar o‘zbek milliy metodikasida ham talaygina. Bunday tadqiqotlar sirasiga H.Ne’matov, A.Nurmonov, B.Mengliyev, N.Mahmudov, B.To‘xliyev, O.Roziqov, O.Madayev, Q.Nazarov, K. Qosimova, N.X.Sattarova, A. Hamrayev, Matchonov S, M.Z.Hamdamova, M.R.Hazratqulov, K.M. Mavlonova, N.Z.Umarova, H. Hayitov va G‘.H.Hamrayevlarning tadqiqotlarini kiritishimiz mumkin.

Boshlang‘ich sinflarning ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarning yozma nutqini ma’lum darajada bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishlariga, nutq va tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan mashq va topshiriqlarning didaktik maqsadi, mazmuni va murakkablik darajasi hamda ijodiy yondashilishiga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Imlo savodxonligini oshirishga qaratilgan mashq va topshiriqlar.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

2. Lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan mashq va topshiriqlar.

3. Grammatik birliklarni to‘g‘ri qo‘llashga qaratilgan mashq va topshiriqlar.


4. Sintaktik qurilmalarni to‘g‘ri qo‘llashni o‘rgatishga moslashtirilgan mashq va topshiriqlar.

5. Fikrni mantiqiy, ijodiy, ketma-ketlikda ifodashni takomillashtirishga qaratilgan mashq va topshiriqlar.




[5]

Mazkur mashqni bajarish orqali o‘quvchilar so‘zlarni birlashtirib maqol tuzadilar. Yangi so‘zlar va ularning ma’nolarini ochib berish orqali o‘quvchilar so‘z boyligini shakllantirishga yordam beradi. Bola qanchalik ko‘p so‘z bilsa, o‘z fikrini yozma ravishda aniq va ijodiy ifodalashi osonroq bo‘ladi. Bunday mashq turlarining ona tili darsliklarida ko‘plab berilishi o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirsh uchun pragmatic yondashuvni ifodalaydi.



[5]

Yangi so‘zlarni kiritish orqali o‘quvchi lug‘at boyligi oshiriladi. Bu ularga jumlalar va hikoyalar yozishga o‘tganlarida so‘zlardan unumli foydalanish imkoniyatini beradi.



[5]

Bu mashqni bajarishda o‘quvchilar, birinchidan, bo‘g‘inlardan foydalansa, ikkinchidan, bir bo‘g‘indan yangi ma’noli so‘zlar hosil qiladi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida Toshkent shahar Yangihayot tumanidagi 26-maktabning 2-sinfida o‘quvchilarning lug‘atini boyitish, nutqini o‘stirish, jamoa oldida bilimlarini namoyish qila olishga o‘rgatish maqsadida “Zakovat“ o‘yini o‘tkazildi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

O‘quvchilarning tovushlar va harflar, shaxs va narsa, belgi, harakatni bildirgan so‘zlar haqidagi bilimlari eslatildi. Har bir guruhdan bolalar tanlanib, 3ta guruh tashkil etildi. Ular quyidagi topshiriqlar asosida faoliyat ko‘rsatdilar:


1. Mevalar bilan bog‘liq jadvalni topshiriqlariga ko‘ra to‘ldiring.
2. O‘zingiz bilgan meva nomlarini tarmoqlash usulida yozib chiqing.
3. Berilgan meva nomlarini tovush-harf tarkibiga ko‘ra tahlil qiling.
4. Jadvaldagi meva nomlari bilan belgi bildirgan so‘zlarni biriktirib birikmalar tuzib yozing.

Boshlang‘ich sinflarda o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari shundan dalolat berdiki, o‘quvchilar lug‘atini boyitish ustida olib boriladigan har qanday mashq turi tuzilajak fikr, matn uchun o‘quvchilarda qulaylik yaratdi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq va tafakkurini rivojlantirishga doir yozma ishlar natijasi 1-rasmda o‘z aksini topgan.

Nazorat bosqichi tajriba sinflarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining Yozish va leksik ko’nikmasining shakllanishi yuqori darajada – 40% (aniqlov bosqichiga qaraganda 24% yuqori), o‘rta darajada - 48% (aniqlov bosqichiga qaraganda 13% yuqori), past darajada – 12% o‘quvchi (aniqlov bosqichiga qaraganda 40% kam) qayd etilgan.

Nazorat sinflarida ko‘rsatkich o‘zgarmagan. Nazorat bosqichida nazorat sinflarida Yozish va leksik ko’nikmasining shakllanish yuqori darajada – 13% (aniqlov bosqichiga qaraganda 1% yuqori), o‘rta darajada - 42%), past darajada – 45% o‘quvchi (aniqlov bosqichiga qaraganda 1% kam) qayd etilgan.

Aniqlovchi bosqichdagi yakuniy natijalar yuzasidan shunday xulosaga kelish mumkin: tajriba sinflarida yuqori va o‘rta darajadagi o‘quvchilarning Yozish va leksik ko’nikmasining shakllanish darajasi sezilarli darajada ko‘tarildi. Yozish va leksik ko’nikmasi past darajada bo‘lgan o‘quvchilar soni kamaydi.



1-rasm. Tajriba-sinov ishlarining nazorat bosqichida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozish ko’nikmasining shakllanish darajasining qiyosiy natijasi

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Olib borilgan tajriba-sinov ishlari boshlang‘ich sinflarda tajriba sinflari o‘quvchilari yozma topshiriqlarni bajarish faoliyatining shakllanishi nazorat sinfi o‘quvchilarinikiga qaraganda ijobiy natijalar berganligi ijodiy topshiriqlarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish usullarining effektivligidan dalolat beradi.

Metodist olima K.Qosimova[6] lug‘at ustida ishlashning to‘rt yo‘nalishini ko‘rsatadi: 1) o‘quvchilar lug‘atini boyitish, o‘quvchilar lug‘atidagi ayrim so‘zlarning yangi ma’nolari bilan tanishtirish; 2) o‘quvchilar lug‘atiga aniqlik kiritish; 3) o‘quvchilar lug‘atini faollashtirish; 4) adabiy tilda ishlatilmaydigan so‘zlarni o‘quvchilarning nofaol lug‘atiga o‘tkazish.

Shuni ham aytib o‘tish kerakki, K.Qosimovaning lug‘at ustida ishlashning birinchi yo‘nalishi “o‘quvchilar lug‘atini boyitish” deb ko‘rsatishiga qo‘shilib bo‘lmaydi. Chunki lug‘at ustidagi har qanday ish o‘quvchilar lug‘atini boyitishga qaratiladi.

lug‘at ustida ishlash natijasida so‘zning ma’nosi, talaffuzi va imlosiga alohida e’tibor qaratiladi. Bu esa yozma nutq tuzishda o‘quvchilarning ulardan foydalanishlariga erishishda, o‘zgalar nutqini anglashlarini ta’minlashda qulay zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Mutafakkirlarning nutq madaniyati haqidagi qarashlari. Nutq madaniyatini shakllantirishning usullari va vositalari. Nutqning turlari (fayllar.org).
2. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017-yildagi PF-4947-son.
3. D.R. Babayeva. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). – T.: «Barkamol fayz media», 2018, – 432 b.
4. Lvov, M. R., Ramzayeva, T. G. Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitish metodikasi. Pedagogika institutlari talabalari uchun maxsus darslik. “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi va metodikasi”. - Nukus: Ta’lim, 2020.
5. Yuldasheva D.Sh. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. I qism. – Toshkent “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023. – 96 b.
6. Qosimova K., Matchonov S. va b. Ona tili o`qitish metodikasi. Boshlang`ich ta`lim fakulteti talabalari uchun darslik. –T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012. –335 b.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАТSIЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Parpiyev Odil Olimovich**, katta o‘qituvchi [**Парпиев Одил Олимович** старший преподаватель], [**Odil O. Parpiyev**, Senior Lecturer]; manzil: O‘zbekiston, Farg‘ona viloyati, Qo‘qon shahri, Turkiston ko‘chasi, 28-A uy [адрес: Ферганская область, город Коканд, улitsa Туркистон, 28а], [address: 28 a, Street Turkiston, Kokand City, Fergana Region]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original paper

“O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHDA SHARQ ALLOMALARINING MA’NAVIY MEROSIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI (“QOBUSNOMA” ASARI MISOLIDA”)

© M.O. Omonturdiyeva[1]✉

[1]Termiz Davlat pedagogika instituti, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: Sharq ijodkorlarining boy ma’naviy merosi o‘quvchilarni turli kasblarga yo‘naltirishi mumkin bo‘lgan qimmatli fikrlar va ilhom baxsh etadi. "Kabus" asari san'atning kasbiy yo'nalish va shaxsiy rivojlanishga chuqur ta'sirini aks ettiruvchi ibratli asar bo'lib xizmat qiladi.

MAQSAD: ushbu maqola talabalarni kasb-hunarga yo'naltirishda sharq ijodkorlari ma'naviy merosining imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan. unda “kabus” asaridagi mavzular va uslublar talabalarning kasb tanlashi va kasbiy o‘sishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi alohida o‘rganiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda “kabus” asarini chuqur tahlil qilish, san’at o‘qituvchilari bilan suhbatlar, Sharq san’ati bilan tanishgan o‘quvchilar o‘rtasida so‘rovlar o‘tkazish kabi sifatli yondashuv qo‘llaniladi. Tadqiqot shuningdek, san'atning martaba rivojlanishi va kasbiy yo'nalishga ta'siri bo'yicha adabiyotlarni ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Natijalar shuni ko'rsatadiki, Sharq san'atining "Kabus" misolida keltirilgan ma'naviy va tematik chuqurligi o'quvchilarning kasbiy qiziqishlariga chuqur ta'sir ko'rsatishi mumkin. Badiiy asardagi ramziylik, madaniy rivoyatlar va falsafiy mavzular talabalar bilan rezonanslashadi va ularni art-terapiya, madaniyatshunoslik va ijodiy sohalar kabi tegishli kasblarni o'rganishga undaydi. O'qituvchilarning ta'kidlashicha, bunday ishlarni o'quv dasturiga kiritish o'quvchilarning faolligini oshiradi va ularga potentsial martaba yo'llari haqida kengroq nuqtai nazarni beradi.

XULOSA: “Qobus” asari tasvirlangan Sharq ijodkorlarining ma’naviy merosidan foydalanish o‘quvchilarni mazmunli kasblarga yo‘naltirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Ushbu san'at asarlarini ta'lim dasturlariga integratsiyalash orqali o'qituvchilar o'quvchilarni madaniy va falsafiy manfaatlariga mos keladigan martaba izlashga ilhomlantirishi mumkin, ularning shaxsiy rivojlanishi va kasbiy intilishlari o'rtasida chuqurroq bog'lanishni kuchaytiradi.

Kalit so'zlar: kasb, hunar, qobiliyat, moyillik, texnalogiya, kasbiy motivatsiya, kasb tanlashga yo‘naltirish, o‘quvchi, kasb tiplari.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Iqtibos uchun: Omonturdiyeva M.O. “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda sharq allomalarining ma’naviy merosidan foydalanish imkoniyatlari (“Qobusnoma” asari misolida”), // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 213–219.

«ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ ВОСТОЧНЫХ ХУДОЖНИКОВ В НАПРАВЛЕНИИ СТУДЕНТОВ К ПРОФЕССИЯМ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «КОБУСНОМА»)

© М.О.Омонтурдиева[1]✉
[1]Термизский государственный педагогический институт, Термиз, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: богатое духовное наследие восточных художников дает ценную информацию и вдохновение, которые могут помочь читателям в различных карьерах. «кошмар» служит примером глубокого влияния искусства на профессиональное направление и развитие личности.

ЦЕЛЬ: данная статья направлена на изучение возможностей духовного наследия восточных художников в ориентации студентов в профессию. в котором отдельно изучаются темы и стили произведения «Кошмар», как они влияют на выбор профессии и профессиональный рост учащихся.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использован качественный подход, такой как углубленный анализ «кошмарного» произведения, интервью с преподавателями рисования, опросы среди студентов, знакомых с восточным искусством. Исследование также включает обзор литературы о влиянии искусства на развитие карьеры и направление карьеры**.**

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: Результаты показывают, что духовная и тематическая глубина восточного искусства на примере «Кошмара» может оказать глубокое влияние на профессиональные интересы студентов. Символизм, культурные повествования и философские темы в произведениях искусства находят отклик у студентов и побуждают их изучать смежные профессии, такие как арт-терапия, культурология и творческие области. Преподаватели говорят, что включение такой работы в учебную программу поддерживает интерес учащихся и дает им более широкий взгляд на потенциальный карьерный путь.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: использование духовного наследия художников Востока, изображенного в произведении «Кошмар», создает большие возможности для направления студентов к значимым профессиям. Интегрируя эти произведения искусства в образовательные программы, преподаватели могут вдохновить учащихся делать карьеру, соответствующую их культурным и философским интересам, способствуя более глубокой связи между их личным развитием и профессиональными устремлениями.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Ключевые слова: профессия, профессия, способности, склонности, технология, профессиональная мотивация, рекомендации по выбору профессии, студент, виды профессий.

Для цитирования: Омонтурдиева М.О. «Возможности использования духовного наследия восточных художников в направлении студентов к профессиям (на примере произведения «Кобуснома»), // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 213–219.

"OPPORTUNITIES OF USING THE SPIRITUAL HERITAGE OF EASTERN ARTISTS IN DIRECTING STUDENTS TO PROFESSIONS (IN THE EXAMPLE OF THE WORK "NIGHTMARE")

© Makhliyo O. Omonturdiyeva[1]✉
[1]Termiz State Pedagogical Institute, Termiz, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: The rich spiritual heritage of Eastern artists provides valuable insights and inspiration that can guide readers to various careers. "Nightmare" serves as an example of the profound influence of art on professional direction and personal development.

AIM: this article aims to study the possibilities of the spiritual heritage of Eastern artists in guiding students to the profession. in which the themes and styles of the work "Nightmare" are studied separately, how they influence the choice of profession and professional growth of students.

MATERIALS AND METHODS: the research uses a qualitative approach, such as an in-depth analysis of the "nightmare" work, interviews with art teachers, and surveys among students familiar with Eastern art. The study also includes a literature review on the impact of the arts on career development and career direction.

DISCUSSION AND RESULTS: The results show that the spiritual and thematic depth of Oriental art as exemplified by "Nightmare" can have a profound impact on students' professional interests. The symbolism, cultural narratives, and philosophical themes in the artwork resonate with students and encourage them to study related professions such as art therapy, cultural studies, and the creative fields. Educators say that incorporating such work into the curriculum keeps students engaged and gives them a broader perspective on potential career paths.

CONCLUSION: The use of the spiritual heritage of the artists of the East, which is depicted in the work "Nightmare", creates great opportunities for directing students to meaningful professions. By integrating these works of art into educational programs, educators can inspire students to pursue careers that align with their cultural and philosophical interests, fostering a deeper connection between their personal development and professional aspirations.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Key words: profession, profession, ability, inclination, technology, professional motivation, guidance for choosing a profession, student, types of profession.

For citation: Makhliyo O. Omonturdiyeva (2024) '"Opportunities of using the spiritual heritage of eastern artists in directing students to professions (in the example of the work "nightmare")', // Inter education & global study, (4(2)). pp. 213–219.

Yurtimizda bugungi kunda olib borilayotgan islohotlarning barchasi yosh avlodni har tomonlama yetuk, intellektual salohiyatli barkamol avlod qilib tarbiyalash bilan birga ularda kasb-hunarga qiziqishini oshirish hamda munosib kasb tanlashga qaratilgan. Bugungi kunda kasblar olamining tobora kengayib borishi, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning toboro jadallashuvi o‘quvchi yoshlarda kasb tanlashdek azaliy masalani jiddiy muammoga aylantirib qo‘ydi. Shunday ekan, kasb tanlash nafaqat alohida olingan insonning shaxsiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega muammo darajasida talqin etilishi o‘rinlidir. Xususan, har bir mamlakatda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish turli yo‘nalishda olib borilgan. AQShda kasb tanlash davrda, mamlakatda sanoat ishlab chiqarish tez o‘sishi jarayonida bo‘lganligi sababli, umumiy ta’lim va maxsus malakali kadrlarga bo‘lgan talab ham ortgan edi. Bu muammoni hal qilish uchun, 1908 yilda Boston shahrida F.Parsons tomonidan shahar maktablari o‘quvchilari uchun birinchi kasb tanlashga yo‘llash maslahat byurosi tashkil etiladi. Byuroning faoliyati kasbga yo‘naltirishni boshlanishi hisoblangan.Bizda ma’lumki, kasbga yo‘naltirish qadimdan ota-bobolarimiz tomonidan tarbiya asosida singdirilgan. Fransiyada esa asli kelib chiqishi ziyoli bo‘lgan shaxslar odatda farzandlarining umumiy ta’lim litseyida ta’lim olishini ma’qul deb bilishadi, ishchi yoki xizmatchilarning farzandlari esa texnologik va kasbiy yo‘nalishdagi litseylarda ta’lim oladilar. Yaponiya zavodlari qoshida tashkil etilgan sifat to‘garaklarining faoliyati natijasi o‘quvchilarda o‘zlari uchun munosib kasb tanlashlariga yordam beradi. To‘garaklarda o‘rta maktab bitiruvchilari ishlaydilar, ularning kasbga to‘g‘ri yo‘naltirilganligi ishlab chiqarish sifatini yuqori darajaga ko‘tarish uchun xizmat qiladi[1].

Kasb tanlash masalasiga davlatimiz konstitutsiyasida ham alohida e’tibor qaratilib, 37-moddada “Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadir” degan qoidaning belgilab qo‘yilgani ham fikrimizni tasdiqlaydi[2].

Kasb tanlashga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar masalasiga davlatimiz birinchi prezidenti I.A.Karimov ham alohida e’tibor qaratib quyidagicha mulohaza yuritadilar: “Go‘dakning ulg‘ayib, kasb tanlashi, kelajakda qanday yo‘ldan borishi, o‘zining hayot tarzini qanday axloqiy ma’naviy asoslarga qurishi ham, hech shubhasiz, uning bolalikda qanday o‘yinchoqlar bilan oshno bo‘lib o‘sgani bilan belgilanadi”[3].

O‘quvchi yoshlarni munosib kasb tanlashi va ularni to‘g‘ri yo‘naltirish uchun Respublikamizda O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi faoliyat yuritib kelmoqda. Xalq ta’limi Vazirligining "O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

markazi faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish to‘g‘risida" 2001-yil 23-aprelidagi 64-sonli buyrug`iga asosan Markaz: O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi" deb qayta nomlandi va uning tuzilmasi tasdiqlandi[4].

В ребенке нужно развивать организаторскую способность. Одним из основных ролей при этом играет режим дня. Приучая ребенка выполнять те или иные обязанности в режиме дня, у него формируется такие качества, как собранность, организованность. Тем не менее, не надо все планировать за ребенка, нужно и ему оставлять свободу выбора и свободу планирования. Очень важно, чтобы ребенок доводил начатое дело до конца. Распределяя домашние обязанности, нужно подыскивать такое занятие, в котором он будет инициатором, руководителем и ответственным лицом. Пусть ребенок проявляет смекалку, изобретательность, четкость. Научить ребенка предварительно планировать свои действия перед выполнением какого-то дела. Умение предварительно спланировать свои действия, и действия партнера необходимы для коллективно-совместной деятельности в детском саду, а затем и в школе. Психологическая подготовка ребёнка к обучению в школе является важным шагом воспитания и обучения дошкольника в детском саду и семье. Ее содержание определяется системой требований, которые школа предъявляет ребёнку. Эти требования заключаются в необходимости ответственного отношения к школе и учебе, произвольного управления своим поведением, выполнение умственной работы, обеспечивающее сознательное усвоение знаний, установление с взрослыми и сверстниками взаимоотношений, определяемых совместной деятельностью.

Таким образом, формированию выше указанных нами качеств ребенка, помогает система психолого-педагогических воздействий, основанных на правильной ориентации детской деятельности и педагогического процесса в целом. Обеспечить всестороннее развитие ребёнка и правильную подготовку его к обучению и воспитанию могут только объединенные усилия воспитателей, педагогов, психологов и, конечно же, родителей. Семья первая и наиболее важная среда развития ребёнка, однако, и в дошкольном учреждении формируется и развивается личность ребёнка. Лучше всего на практике сказывается на развитии ребёнка единство воздействий семьи и детского сада.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Венгер А.Л., Слободчиков В.И., Эльконин Б.Д. Проблемы детской психологии и научное творчество Д.Б. Эльконина //Вопр. психологии. - М.: Педагогика, 1988. №3. С. 36–41.
2. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. - М.: Педагогика, 1989. - 316 стр.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

3. Выготский Л.С. Проблема обучения и умственного развития в школьном возрасте //Избранные психологические исследования. - М.: Педагогика, 1956г. - 220 стр.
4. Каршиева З.Ш.Дети в школьных образовательных организациях современные подходы к подготовке к школе. Pedagogical importance of scientific and practical innovations in the Development of preschool education international scientific-practical conference November 11-12, 2020 Samarkand, Uzbekistan
5. Халбаева. Г.А.Инновационный подход к подготовке детей к этапу начального образования. Психология XXI столетия // Сб. научных статей по материалам международной конференции «Психология XXI столетия» (Ярославль - 2024 г.) 406-409 стр

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Zulfiya Qarshiyeva Shukurovna**, PhD. O'qituvchi [**Зулфия Қаршиева Шукуровна,** PhD. преподователь], [**Zulfiya Sh. Qarshiyeva,**PhD,teacher]; manzil: 100007, O'zbekiston, Samarqand viloyati, Shahar: Kattaqo'rg'on, Amir Temur ko'chasi [адрес: 100007, Узбекистан, Самаркандская область, Город: Каттакорган, улица Амира Темура], [address: 100007, Uzbekistan, Samarkand region, City: Kattakorgan, Amir Temur street]; e-mail: qarshiyevazulfiya@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original paper

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA INTELLEKTUAL SALOHIYATNI SHAKLLANTIRISH MANBALARI

© J.A.Qurbonov [1]✉

[1]Qo‘qon davlat pedagogika instituti, Qo‘qon,O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: intellektual kompetentsiya kognitiv qobiliyatlarni, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini va umrbod ta'lim olish qobiliyatini o'z ichiga olgan samarali o'qitishning muhim tarkibiy qismidir. Bo'lajak o'qituvchilar uchun intellektual kompetentsiyani rivojlantirish dinamik ta'lim muhitiga moslashish va o'quvchilarning o'sishi va yutuqlarini qo'llab-quvvatlash uchun juda muhimdir.

MAQSAD: ushbu maqola bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentsiyani shakllantirishga yordam beradigan asosiy manbalarni aniqlash va tahlil qilishga qaratilgan. Maqsad turli ta'lim tajribalari va resurslari o'qituvchi nomzodlarining intellektual imkoniyatlarini qanday oshirishi haqida har tomonlama tushuncha berishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda o'qituvchilar ta'limi dasturlari bo'yicha so'rovlar miqdoriy ma'lumotlarini o'qituvchilar va o'qituvchi nomzodlari bilan bo'lgan intervyularning sifatli ma'lumotlari bilan birlashtirgan aralash usullar qo'llaniladi. Bundan tashqari, xulosalarni kontekstuallashtirish uchun intellektual kompetentsiya va o'qituvchilar ta'limiga oid tegishli adabiyotlarni ko'rib chiqish o'tkaziladi**.**

MUHOKAMA VA NATIJALAR: topilmalar bo'lajak o'qituvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga sezilarli hissa qo'shadigan akademik kurs ishi va amaliy o'qitish tajribasi bir nechta asosiy manbalarni ko'rsatadi. Ushbu manbalarning o'qituvchilar ta'limi dasturlari doirasida integratsiyalashuvi bo'lajak o'qituvchilarning intellektual vakolatlarini oshiradi, ularni o'qituvchilik kasbining vazifalarini samarali hal qilishga tayyorlaydi**.**

XULOSA: xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentsiyani shakllantirishga o'quv kurslari, amaliy o'qitish tajribasi, murabbiylik, kasbiy rivojlanish imkoniyatlari va hamkorlikda o'rganish yordam beradi. Ushbu manbalardan foydalangan holda, o'qituvchilarning ta'lim dasturlari bo'lajak o'qituvchilarni intellektual jihatdan barkamol, moslashuvchan va turli xil ta'lim sharoitlarida talabalar muvaffaqiyatiga erishishga qodir bo'lishga samarali tayyorlashi mumkin.

Kalit so‘zlar: intellektual kompetensiya, kelajak o‘qituvchilari, o‘qituvchi ta’limi, kognitiv qobiliyatlar, tanqidiy fikrlash, umrbod ta’lim, akademik kurs ishi, amaliy o‘qitish tajribasi

Iqtibos uchun: Qurbonov J.A. Bo‘lajak o‘qituvchilarda intellektual salohiyatni shakllantirish manbalari // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 236–242.

ИСТОЧНИКИ ФОРМИРОВАНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

© Ж.А. Курбонов[1]✉
[1]Коканский государственный педагогический институт, Кокан, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: интеллектуальная компетентность является важным компонентом эффективного обучения, включая когнитивные навыки, навыки критического мышления и обучение на протяжении всей жизни. Развитие интеллектуальной компетентности будущих учителей имеет решающее значение для адаптации к динамичной среде обучения и поддержки роста и достижений учащихся.

ЦЕЛЬ: данная статья направлена на выявление и анализ основных ресурсов, которые помогают формировать интеллектуальную компетентность у будущих учителей. Цель состоит в том, чтобы обеспечить всестороннее понимание того, как различный образовательный опыт и ресурсы могут повысить интеллектуальный потенциал кандидатов в учителя.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании используются смешанные методы, сочетающие количественные данные опросов программ педагогического образования с качественными данными интервью с учителями и кандидатами в учителя. Кроме того, для контекстуализации полученных результатов проводится обзор соответствующей литературы по интеллектуальной компетентности и педагогическому образованию.

ОБСУЖДЕНИЕ И ВЫВОДЫ: результаты указывают на несколько ключевых источников академической курсовой работы и практического опыта преподавания, которые вносят значительный вклад в развитие интеллектуальных способностей будущих учителей. Интеграция этих ресурсов в программы педагогического образования повышает интеллектуальную компетентность будущих учителей, готовит их к эффективному решению задач педагогической профессии.

ВЫВОДЫ: в заключение отметим, что учебные курсы, практический опыт преподавания, наставничество, возможности профессионального развития и совместное обучение помогают повысить интеллектуальную компетентность будущих учителей. Используя эти ресурсы, программы педагогического образования могут эффективно подготовить будущих учителей к тому, чтобы они были интеллектуально компетентными, гибкими и способными способствовать успеху учащихся в различных образовательных условиях.

Ключевые слова: интеллектуальная компетентность, будущие учителя, педагогическое образование, когнитивные навыки, критическое мышление, непрерывное обучение, академическая курсовая работа, практический опыт преподавания.

Для цитирования: Курбонов Ж.А. Источники формирования интеллектуальной компетентности будущих учителей. // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 236–242.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

SOURCES OF FORMING INTELLECTUAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS

© Jasur A. Qurbonov[1]✉
[1] Kokan State Pedagogical Institute,Kokand, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: intellectual competence is an essential component of effective teaching, including cognitive skills, critical thinking skills, and lifelong learning. Developing intellectual competence for future teachers is critical to adapting to a dynamic learning environment and supporting student growth and achievement.

AIM: this article aims to identify and analyze the main resources that help to build intellectual competence in future teachers. The goal is to provide a comprehensive understanding of how different educational experiences and resources can enhance the intellectual potential of teacher candidates.

MATERIALS AND METHODS: the study uses mixed methods, combining quantitative data from surveys of teacher education programs with qualitative data from interviews with teachers and teacher candidates. In addition, a review of relevant literature on intellectual competence and teacher education is conducted to contextualize the findings.

DISCUSSION AND CONCLUSIONS: findings indicate several key sources of academic coursework and practical teaching experiences that significantly contribute to the development of prospective teachers' intellectual capacities. The integration of these resources within teacher education programs increases the intellectual competence of future teachers, prepares them to effectively solve the tasks of the teaching profession**.**

CONCLUSIONS: In conclusion, training courses, hands-on teaching experiences, mentoring, professional development opportunities, and collaborative learning help build intellectual competence in future teachers. Using these resources, teacher education programs can effectively prepare prospective teachers to be intellectually competent, flexible, and capable of promoting student success in diverse educational settings.

Keywords: intellectual competence, future teachers, teacher education, cognitive skills, critical thinking, lifelong learning, academic coursework, practical teaching experience

For citation: Jasur A.Qurbonov (2024) ‘Sources of forming intellectual competence in future teachers’, (4(2)), pp. 236–242. (In Uzbek).

Ta'lim sohasi texnologiyaning jadal rivojlanishi, turli xil talabalar populyatsiyasi va yangi pedagogik nazariyalar va amaliyotlarning doimiy ravishda paydo bo'lishi bilan ajralib turadigan doimiy rivojlanayotgan landshaftga duch kelmoqda. Ushbu dinamik muhitda o'qituvchilarning intellektual kompetentsiyasi samarali ta'limning asosiga aylanadi. Tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, ijodkorlik va mavzu bo'yicha chuqur tajribani o'z ichiga olgan intellektual kompetentsiya o'qituvchilarga o'quvchilarning turli ehtiyojlariga moslashish, innovatsiyalar kiritish va javob berishga imkon beradi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Bo'lajak o'qituvchilar uchun intellektual kompetentsiyani rivojlantirish yo'li o'qituvchilarni tayyorlash dasturlari davomida boshlanadi. Bu dasturlar ularni zarur bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirishda, sinfda muvaffaqiyat qozonishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, intellektual kompetentsiyani shakllantirish faqat rasmiy ta'limga bog'liq emas. Bu tajribaviy o'rganish, murabbiylik va o'z-o'zini o'rganish kabi turli manbalar ta'sirida bo'lgan ko'p qirrali jarayon. Ushbu manbalarni tushunish va ularning intellektual kompetentsiyaga qanday hissa qo'shishi samarali o'qituvchilar ta'limi dasturlarini ishlab chiqish uchun zarurdir.

Ushbu maqola bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentsiyani shakllantirishga hissa qo'shadigan asosiy manbalarni o'rganishga qaratilgan. Rasmiy ta'lim, tajribaviy o'rganish, murabbiylik va o'z-o'zini boshqarishning rollarini o'rganib chiqib, biz ushbu elementlarni intellektual o'sishni rag'batlantirish uchun o'qituvchilar ta'limi dasturlariga qanday integratsiya qilish mumkinligini to'liq tushunishga intilamiz. Bundan tashqari, biz ushbu manbalardan foydalanish bo'yicha ilg'or tajribalarni muhokama qilamiz va intellektual kompetentsiyani rivojlantirishga yaxlit yondashuvni amalga oshirishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilamiz.

Intellektual kompetentsiya va uning shakllanishining turli o'lchovlarini o'rganish orqali ushbu maqola har tomonlama va mustahkam o'qituvchilarni tayyorlash dasturining muhimligini ta'kidlaydi. Bunday dastur nafaqat bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim tizimining hozirgi talablariga javob berishga tayyorlaydi, balki ularni kelajakdagi innovatsiyalar va ta'lim va ta'limni yaxshilash uchun zarur bo'lgan intellektual vositalar bilan jihozlaydi.Modomiki, jamiyat intellektual salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini o‘rganar ekanmiz, uning manbalari va omillarini ko‘rib chiqishimizga to‘g‘ri keladi. Bu esa o‘z navbatida, ushbu manba va omillarni tahlil qilishimiz, keyingi paragraflarda o‘tish davri davlat siyosatida aynan nimalarga e’tibor berishimiz zarurligini aniqlab olishimizga ham yordam beradi. Dastlab, intellektual salohiyatning shakllanishiga asos bo‘luvchi manbalarni qarab chiqadigan bo‘lsak, ular jamiyatdagi ta’lim-tarbiyaning erishilgan darajasi, ta’lim tizimi, ilm-fan, ilmiy tadqiqotlar, ma’rifiy targ‘ibotlarni o‘z ichiga oladi.

Biz ularni ko‘rinishlariga qarab quyidagicha guruhlarga ajratishimiz mumkin: ta’lim tizimi va ta’lim jarayoni; tarbiya orqali mustaqil o‘rganish, aqliy qobiliyatni rivojlantirishga intilishning shakllantirilganligi; ilmiy tadqiqotlar olib borilishi orqali ilmiy yangiliklar va kashfiyotlar qilinishi; ma’rifiy targ‘ibot va ilmiy bilimlarning ommalashtirilishi; ishlab chiqarish va kundalik hayotda joriy qilinayotgan yangi texnika va texnologiyalarni o‘zlashtirish borasidagi shaxsiy tajriba; tarixiy rivojlanish jarayonida millat tomonidan yaratilgan ma’naviy qadriyatlar.

Bular orasida ta’lim va ta’lim tizimi butun jamiyat a’zolarini o‘qitishni qamrab olish imkoniyati bulganligi uchun asosiy o‘rinni egallaydi. Jahon enqiklopediyasi — “WORLDBOOK”da ta’limga quyidagicha ta’rif berilgan: «Ta’lim — to‘plangan bilimlar, ko‘nikmalar, odatlar, qadriyatlar yoki munosabatlarning kishilar tomonidan o‘zlashtirilishi jarayonidir».[1.86] YA’ni ta’lim kishilarni jamiyatning foydali a’zolari bo‘lishiga yordam berish

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

orqali jamiyatning madaniy merosini sezilarli rivojlantirishga, shu bilan birgalikda jamiyat turmush tarzining yaxshilanishiga yordam beradi. O‘qituvchi, ustozlar va ta’lim muassasalari bo‘lgan: maktab, litsey, kollej, oliy o‘quv yurtlari ta’lim uchun mas’uliyatli va mutasaddi tashkilotlardir. Ta’lim mohiyatan o‘qish va o‘qitishga jalb qilish bo‘lgani sababli ba’zan kishilar o‘zlari o‘qib o‘rganadilar yoki ota-onalari yordamida va mustaqil o‘qituvchi yollab o‘qiydilar.

Ilmiy bilimlarning uziga xosligi, kundalik bilimlardan farqi uning voqelik moxinppya kirib borishi va nazariy xarakterda ekanligidir. Dalillar majmui qonuniyat sifatida tan olinganda ilmiy bilim xosil buladi. Ma’lum bir sodaga, tarmoqqa taalluqli ilmiy bilimlar yigilib fanni vujudga keltiradi. Fanning bevosita maqsadi voqelikni, sodir bulgan xodisp va jarayonlarni tasvirlash, tushuntirish va oldindan aytib berishdan iborat. Amaliyotda fan ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, ma’naviy tubdan yangilashning muxim omili bulib xizmat qiladi. Fan bir tomondan, mohiyat vositalarini, ishlab chiqarish usullarini takomillashtirish orqali joriy qilinsa, ikkinchi tomondan, ta’lim tizimi orqali ishchi kuchining malakasini oshirish yuli bilan tatbiq qilinadi.

Fan va ilmiy bilimlar intellektual salohintning xosila mevasi, o‘zrnida jamiyat tomonidan o‘zlashtirilgan qismi intellektual salohiyatning tarkibiy qismidir. Jamiyat taraqqiyoti ham fan va ilmiy bilimlarning yaratilishi va jamiyatga transformasiyalashtirilishi bilan bog‘liqdir. Ta’limning sifati ilmiy - pedagogik kadrlar soni va malakasi bilan bevosita bog‘liq, chunki ular to‘plangan bilimlarni tayyorlanayotgan kadrlarga transformasiyalovchi rolini o‘ynaydi.

Ta’lim kabi jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirishda tarbiya asosiy manba hisoblanadi. Ta’lim va tarbiya bir-biri bilan ajralmas jarayondir. Ta’limdagi tarbiya — ta’lim tizimi orqali xislat, fazilat, odob-axloqni singdirishdir. «Ta’lim degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi fazilat va amaliy kasb - hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir.

Tarbiya orqali singdirilgan xislat va fazilatlarga inson bir umr amal qilib yashashga intiladi. Shuning uchun, Abdulla Avloniy: «...dars oluvchi biluvchi, tarbiya oluvchi amal qiluvchi demakdur», — degan edilar. Shu sababli, faqat o‘zbek xalqida emas, boshqa ko‘pgina xalqlarda ham tarbiya yuksak insoniy qadriyat disoblanadi. Chunki «...balog‘at va bilimlarga, ya’ni rivojlanishga tarbiya va mashq orqali erishiladi».[2.23]

Abdulla Avloniy o‘zining «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida tarbiyaga to‘xtalib: «Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o‘stirmakdur»,[3.12] — deydi. Alohida shaxs tarbiyasi orqali shaxs xarakteri, umummilliy tarbiya orqali esa, milliy xarakter shakllantiriladi. Milliy xarakterning mamlakat iqtisodiy, siyosiy, madaniy taraqqiyotida ahamiyati nihoyatda katta.

Taraqqiyotning modeli har bir xalq yoki millatga xos tarix, xarakter va hulq - atvor normalari, shu xalqning falsafasi, tafakkur tarzi, davlat va jamiyat to‘grisidagi tasavvurlari, ko‘nikmalari, unga bo‘lgan munosabati hamda qadriyatlari orqali ifodalanadi». Bunday millatga xos xarakter xususiyatlar esa, tarbiyaviy jarayonlar va vositalar orqali

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

shakllantiriladi, singdirib boriladi, bir avloddan ikkinchi avlodga meros sifatida qoldiriladi. Tarbiyaning hosilasiga aylanib taraqqiyotga inson sifatlari omili bo‘lib xizmat qiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentsiyani shakllantirish murakkab, ko'p qirrali jarayon bo'lib, turli manbalarni diqqat bilan ko'rib chiqish va birlashtirishni talab qiladi. Rasmiy ta'lim o'qitish uchun zarur bo'lgan asosiy bilim va nazariy tushunchalarni beradi. Tajribali ta'lim bo'lajak o'qituvchilarga o'z bilimlarini real sharoitlarda qo'llash imkonini beruvchi amaliy, amaliy tajribani taklif etadi. Tajribali o'qituvchilarning murabbiyligi va professional o'quv jamoalarida ishtirok etish doimiy takomillashtirish va ilg'or tajriba almashishga yordam beradi. Nihoyat, o'z-o'zini yo'naltirilgan ta'lim doimiy o'zgaruvchan ta'lim landshaftiga moslashish uchun juda muhim bo'lgan umrbod ta'lim va intellektual qiziqishni rivojlantiradi.

Intellektual kompetentsiyaning samarali rivojlanishini ta'minlash uchun o'qituvchilarning ta'lim dasturlari ushbu elementlarni muvozanatlashtiradigan keng qamrovli va yaxlit asosni qabul qilishi kerak. O‘quv dasturlari nazariy bilimlarni amaliy qo‘llanmalar bilan uyg‘unlashtirish, faol va tajriba asosida o‘rganishni rag‘batlantirish uchun ishlab chiqilishi kerak. Doimiy qo'llab-quvvatlash va yo'l-yo'riq ko'rsatish uchun tizimli murabbiylik dasturlari va professional o'quv jamoalari tashkil etilishi kerak. Bundan tashqari, uzluksiz intellektual o'sishni rag'batlantirish uchun o'z-o'zini boshqarish va tadqiqot madaniyatini targ'ib qilish muhimdir.

Bunday keng qamrovli tizimni hayotga tatbiq etishda qiyinchiliklar mavjud. Resurs cheklovlari, talabalar tayyorgarligining turli darajalari va o'zgarishlarga qarshilik umumiy to'siqlardir. Bu qiyinchiliklarni yengish ta’lim muassasalari, siyosatchilar va o‘qituvchilarning hamkorlikdagi sa’y-harakatlarini talab qiladi. Tegishli resurslarni ajratish, o'qituvchilarning malakasini oshirishga ustuvor ahamiyat berish, yangilik va moslashuvchanlik madaniyatini tarbiyalash kerak.

Oxir oqibat, o'qituvchilarni tayyorlash dasturlarining maqsadi bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirishga qodir bo'lgan va ta'limdagi kelajakdagi innovatsiyalarni boshqaradigan intellektual jihatdan barkamol o'qituvchilarga tayyorlashdan iborat bo'lishi kerak. Intellektual kompetentsiyaning turli manbalaridan samarali foydalanish orqali biz bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘qituvchilik kasbining murakkabliklarida harakat qilish va butun dunyo bo‘ylab ta’lim tizimini rivojlantirishga hissa qo‘shish uchun yaxshi jihozlangan bo‘lishini ta’minlashimiz mumkin. Ushbu dasturlarni doimiy ravishda mulohaza yuritish va takomillashtirish bo'lajak o'qituvchilarning intellektual o'sishini rag'batlantirishda ularning dolzarbligi va samaradorligini saqlab qolish uchun muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. The world book encyclopedia. 6 volume. - Chicago: A Scott company, 1995. – P. 86
2. Abu Nasr Forobiy. Foznl odamlar shahri. —Toshkent: A. Qodiriy. Xalq merosi, 1993. — B. 23.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

3. Avloniy A. Turkiy guliston yexud axloq. —Toshkent: Uqituvchi, 1992. - B. 12.
4. Darling-Hammond, L. (2006). Powerful Teacher Education: Lessons from Exemplary Programs. Jossey-Bass.
5. Dewey, J. (1938). Experience and Education. Kappa Delta Pi.
6. Gardner, H. (1999). Intelligence Reframed: Multiple Intelligences for the 21st Century. Basic Books.
7. Hattie, J. (2008). Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. Routledge.
8. Ingersoll, R., & Strong, M. (2011). The Impact of Induction and Mentoring Programs for Beginning Teachers: A Critical Review of the Research. Review of Educational Research, 81(2), 201-233.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Qurbonov Jasur Akmaljonovich**, dotsent, pedagogika fanlari bo'yicha f.d. (PhD), [**Курбонов Жасур Акмалжонович,** Доцент, доктор философских наук в педагогических наук (PhD)], [**Jasur A. Qurbonov,** As Associate Professor, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)]; manzil: O'zbekiston, Farg'ona viloyati, Qo'qon, ko'chasi TURON, 23 [адрес: Узбекистан, Ферганская область, Кокан, ул. ТУРОН, 23], [address: Uzbekistan, Fergana region, Kokan, street TURON, 23]

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original peper

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISIINING BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI KASBIY SIFATLARNING AHAMIYATI

© R.R. Avezova[1]✉
[1]Toshkent Kimyo xalqaro universiteti,Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: boshlang'ich sinf o'qituvchisining roli bilim berishdan tashqarida; u sinf dinamikasini boshqarish, qulay o'quv muhitini yaratish va talabalarning turli ehtiyojlarini qondirishni o'z ichiga oladi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining boshqaruv malakasini oshirishda kasbiy fazilatlarning ahamiyatini o'rganishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda intervyular, so'rovlar va kuzatishlardan foydalangan holda sifatli tadqiqot metodologiyasi qo'llaniladi. Materiallarga tajribali o‘qituvchilarning fikr-mulohazalari, o‘qituvchi stajyorlari tomonidan to‘ldirilgan o‘z-o‘zini baholash anketalari va sinfni boshqarish bo‘yicha amaliy tadqiqotlar kiradi..

MUHOKAMA VA NATIJALAR: topilmalar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida boshqaruv malakasini oshirishda bir qancha kasbiy fazilatlar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu fazilatlarga samarali muloqot, hissiy aql, moslashuvchanlik, tashkilotchilik qobiliyati va muammolarni hal qilishda faol yondashuv kiradi.

XULOSA: natijalar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar ta'limi o'quv dasturida ushbu kasbiy fazilatlarni tajriba asosida o'rganish va uzluksiz kasbiy rivojlanish orqali tarbiyalashga ko'proq e'tibor qaratish lozim. Kelgusi tadqiqotlar ushbu fazilatlarning o'qitish samaradorligi va talabalar natijalariga uzoq muddatli ta'sirini o'rganishi, shuningdek, o'qituvchining butun faoliyati davomida kasbiy o'sishni qo'llab-quvvatlash va oshirish strategiyalarini o'rganishi kerak.

Kalit so‘zlar: boshlang’ich sinf o‘qituvchisi, kompetensiya, tashabusskorlik, mas’uliyatlilik, ijodkorlik, tashkilotchilik, qat’iyatlilik, moslashuvchanlik, sabr-toqatlilik, bag’rikenglik.

Iqtibos uchun: Avezova R.R. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisiining boshqaruv kompetentligini takomillashtirishdagi kasbiy sifatlarning ahamiyati. // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 243–250.

БУДУЩИЙ УЧИТЕЛЬ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ЗНАЧЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ В ПОВЫШЕНИИ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

© Р. Р. Авезова[1]✉
[1]Ташкентский международный университет Кимё, Ташкент, Узбекистан

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: роль учителя начальной школы выходит за рамки передачи знаний; это включает в себя управление динамикой класса, создание благоприятной среды обучения и удовлетворение разнообразных потребностей учащихся.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является изучение значения профессиональных качеств в развитии управленческих навыков будущих учителей начальной школы.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использована качественная методология исследования с использованием интервью, опросов и наблюдений. Материалы включают отзывы опытных учителей, анкеты для самооценки, заполненные учителями-стажерами, и тематические исследования по управлению классом.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показывают, что некоторые профессиональные качества имеют решающее значение в развитии управленческих навыков у будущих учителей начальной школы. Эти качества включают эффективное общение, эмоциональный интеллект, гибкость, организаторские способности и активный подход к решению проблем.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты показывают, что учебные программы подготовки учителей должны уделять больше внимания развитию этих профессиональных качеств посредством обучения на основе опыта и непрерывного профессионального развития. Будущие исследования должны изучить долгосрочное влияние этих качеств на эффективность преподавания и результаты учащихся, а также стратегии поддержки и повышения профессионального роста на протяжении всей карьеры учителя**.**

Ключевые слова: учитель начальных классов, компетентность, инициатива, ответственность, креативность, организованность, настойчивость, гибкость, терпение, толерантность.

Для цитаты: Авезова Р.Р. Будущий учитель начальных классов значение профессиональных качеств в повышении управленческой компетентности. // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 243-250.

FUTURE PRIMARY CLASS TEACHER IMPORTANCE OF PROFESSIONAL QUALITIES IN IMPROVING MANAGEMENT COMPETENCE

© Rohila R. Avezova[1]✉

[1]Tashkent International University Kimyo, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the role of a primary school teacher goes beyond imparting knowledge; it includes managing classroom dynamics, creating a conducive learning environment, and meeting the diverse needs of students.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

AIM: the purpose of this study is to investigate the importance of professional qualities in the development of management skills of future elementary school teachers.

MATERIALS AND METHODS: the study uses qualitative research methodology using interviews, surveys and observations. Materials include feedback from experienced teachers, self-evaluation questionnaires completed by trainee teachers, and classroom management case studies.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings indicate that several professional qualities are crucial in developing management skills in prospective elementary teachers. These qualities include effective communication, emotional intelligence, flexibility, organizational skills, and a proactive approach to problem solving.

CONCLUSION: the results suggest that teacher education curricula should focus more on nurturing these professional qualities through experiential learning and continuous professional development. Future research should examine the long-term effects of these qualities on teaching effectiveness and student outcomes, as well as strategies to support and enhance professional growth throughout a teacher's career.

Key words: primary school teacher, competence, initiative, responsibility, creativity, organization, persistence, flexibility, patience, tolerance.

For citation: Rohila Avezova. (2024) 'Future primary class teacher importance of professional qualities in improving management competence', Inter education & global study, (4(2)), pp. 243–250. (In Uzbek).

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimi tubdan isloh qilina boshlandi. Bunda asosiy e'tibor, talabalarda egallayotgan mutaxassisligi bo'yicha kompetensiya shakllanishi va takomillashuviga qaratilmoqda. Hozirda jamiyat uchun butunlay yangi qiyofadagi mutaxassis uchun talab yuqoridir. Ular faol ijodiy fikrlovchi, boshqaruvchi, izlanuvchan, ilmiy axborotlarni mustaqil ravishda izlab topuvchi va ularni o'z amaliy faoliyatida qo'llovchi mutaxassis bo'lib yetishishi lozim.

Kompetentlik – bu bilimlar, ko'nikmalar, ma'lumotlilik, o'z-o'zini shaxs sifatida namoyon qilish, ro'yobga chiqarish, o'zining dunyodagi o'rni, shular natijasida o'z kasbinining yashashdan maqsadini oliy maqsadi deb bilish, shaxsga yo'naltirilganligi bois, uning imkoniyatlarini to'laligicha safarbar qilish, atrofdagilar tan olishi manbai hisoblanadi. Darhaqiqat mamlakatimiz manfaati uchun xizmat qiluvchi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining boshqaruv kompetentligini shakllantirish zarurligini ko'ramiz.

Boshqaruv kompetentligi ta'rifiga bir qancha yondashuvlar mavjud: konfusiy o'z davrida «boshqaruvda beshta go'zal usulga astoydil amal qilish va to'rtta yaramas usuldan o'zini tiyish zarur»ligini isbotlab bergan. U beshta go'zal boshqaruv usulida: himmatli zotning muravvatli bo'lishini, biroq isrofgarchilikka yo'l qo'ymasligini; u ish paytida talabchan bo'lishini, biroq boshqalarda norozilik uyg'otmasligini; istak-xohishda ochko'zlikka berilmasligini; keng fe'lli, ammo takabbur bo'lmasligini; ulug'vor, ammo atrofdagilarga vajohat solmasligini ko'rsatib bergan. Boshqarishning to'rt yaramas usulida

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

esa: boshqalarni qonunni chetlab o‘tib, o‘zboshimchalarcha o‘limga hukm etishni - shafqatsizlik; ishning natijasini ogohlantirmasdan talab etishni - zo‘ravonlik; ish bajarilib, yakunlanishga yaqinlashib qolsa-da, shunga tegishli buyruqni hayallatib o‘tirishni - qaroqchilik; mehnatga haq to‘lashda xasislik qilishni - pastkashlik deb e’tirof etgan[1]. Buyuk mutafakkir bobomiz Abu Nasr Forobiy inson baxt- saodatga yerishuvi uchun ularni baxtli-saodatli qila oladigan jamoa rahbari bo‘lishi kerak deyishlari bejiz emas. Yusuf Xos Xojib o‘zining «Qutadg‘u bilig», ya’ni «Saodatga boshlovchi bilim» asarida boshqaruvchi shaxsi, ya’ni podsho xalq bilan birga va adolatli bo‘lishi lozimligi g‘oyasi ilgari suriladi. «Kishi qanchalik yuqori martabaga erishmasin, u baribir kamtar bo‘lib qolishi lozim»[4]. Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni aytish joizki, o‘tmishda ham kishilarni samarali boshqarish uchun ularga ta’sir qilishning bir qancha usullari mavjud bo‘lgan.

Amerika olimi R.Meyers “kompetentlik - bo‘lajak mutaxassisning qandaydir ma’lum kriteriyalarga javob berishi emas, balki uni amaliyotda qo‘llab, isbotlay olishidir”, – degan xulosani beradi (Ivanov, 2007)[3].

Darhaqiqat bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchisida boshqaruv kompetetligini shakllantirish orqali yetuk, bilimli, tarbiyali, zamonaviy, ijodkor, kasbiy sifatlarga ega boshqaruvchi shaxsni shakllantirish asosiy vazifamizdir.

Zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko‘ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash, boshqaruvchilik kompetentligini shakllantirishga yo‘naltirilish talab qilinmoqda. Bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchisining boshqaruvchilik kompetentligini quyidagi sifatlar asosida shakllantish maqsadlidir.

Maqsadning qo ‘yilishi – rahbardagi tashkilotning biznes maqsadlariga mos keluvchi vazifalarini ishlab chiqa bilish va uni boshqalarga yetkazib bera olish kompetensiyasi. Tashkilotchilik - muayyan ish harakatni boshlab berish, tashkil etish, uyushtirish yoki uyushtirishni oqilona rejatashtirish xislati. Ushbu kompetensiyaga ega bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchisi o‘yin, ta’lim va mehnat ko‘rinishidagi faoliyatlarni tashkil etish, ijtimoiy munosabatlar jarayonini faollashtirish, jamoani jipslashtirish va yagona maqsad atrofida birlashtirishda tashabbus hamda nazoratni o‘z qo‘liga olish, uni samarali boshqarish va mavjud imkoniyatlaridan unumli foydalanish, shuningdek, jamoadoshlarni faollik ko‘rsatishga rag’batlantirish, yetakchilik (liderlik) fazilatiga egalikdir.

Og‘zaki muloqot–rahbarning xodimlari bilan birgalikda faoliyat yuritayotganda va suhbat paytida o‘z fikrlarini aniq ifoda eta olish qobiliyati muhimdir. Boshlang’ich sinf o’qituvchisi o’quvchilar, ota-onalar va hamkasblarni oson tushuna olishlari uchun barcha tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qila olishi, professional hamkorlik jarayonida gapni tuzishda auditoriyaning bilim darajasi va tajribasini hisobga olishi, og‘zaki nutqda grammatik to‘g‘ri so‘zlar va gap qurilishlaridan foydalana olishi, mantiqan to‘g’ri gapira olishi, g‘oyalarini qisqa va lo‘nda qilib ifodalay olishi lozim.

Yozma muloqot–bu rahbardagi ish bilan bog‘liq yozishmalarda fikrini tushunarli qilib yoza olish zarur jihatdir. Bo‘lajak boshlang’ich sinf o’qituvchisi rahbar sifatida qog‘ozga fikrlarni qisqa va lo‘nda qilib yoza olishi, fikrlarni qog‘ozda ketma-ket, xat boshidan qilib yozadi va axborotlarni o‘quvchiga ravon qilib yetkaza olishi, yozma fikrlarni shunday

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

tuzadiki, o‘quvchiga ma’lumotlar aniq yetib bora olishi, qiyin yoki texnik ma’lumotlarni izohlashda grafiklar yoki boshqa vositalardan foydalana olishi, orfografik xatolarsiz yoza olishi, yozma muloqotda maxsus yozuv usullarini (yozuv tillarini) qo’llay olishi, tinish belgilarini to’g’ri qo’ya olishi, grammatik qoidalarga amal qililishi maqsadlidir.

Tashabbuskorlik - tegishli ko‘rsatmalar olish yoki kuchli zaruriyat tug‘ilgunga qadar nima qilish kerakligini ko‘ra olish. Masalan, amerikalik mashhur psixolog Deyl Karnegining ta‟kidlashicha, asr boshida amerika dollarida hisoblaganda yiliga bir milliondan ortiq daromad topadigan boshqaruvchilarning soni ikki nafarni tashkil qilgan. Ulardan biri Uolter Kraysler va ikkinchisi – Charlz Shveblardir. Amerika cho‘yan quyish industriyasining yetakchilaridan bo‘lgan Endryu Karnegi Shvebga odamlarni yaxshi ishlatib, korxona daromadini keskin oshirib yuborganligi uchun kuniga uch ming dollar, yiliga bir million dollar haq to‘lagan. Lekin ana shu millionerning o‘z esdaliklarida qoldirgan quyidagi so‘zlari e’tiborga loyiqdir: “Men cho‘yan quyish borasida eng oddiy ishchidan ham no‘noq edim, asosiy yutug‘im – men o‘zgalarni boshqarishni bilganman. Mendagi eng noyob sifat – odamlarda tashabbusni uyg‘otish qobiliyati edi. Chunki insondagi eng noyob, qimmatli narsani tan olish – uning tashabbusini qo ‘zg’atishdir”[2] Shunday ekan ushbu kompetensiyaga ega boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi murakkab vaziyat yuzaga kelishini oldindan ko‘rib, nima qilishni va qanday yo‘l tutish kerakligini biladi, undan buni so‘rashlarini kutib o‘tirmaydi, aniq vaziyatda ishni talab qilinganidan ham ortiqroq qilib bajaradi, vaziyatning boshqa qatnashuvchilari istiqbolni qanday ko‘rayotganliklariga qiziqadi, voqea-hodisalarni o‘zlashtirish uchun mustaqil qadam tashlaydi.

Jamoadada ishlash ko‘nikmalarini tarbiyalash –jamoada rahbarining guruhni birgalikda ishlashga o’rgatishi orqali o’z qiziqishi, ko’nikmasi va muvaffaqiyatini namoyish eta olish kompetensiyasi. A.Kron ta’kidlaganidek “Odamlarni hurmat qil. Ularning haq-huquqlarini, mehnatini, tinchligini, fikrlarini va qadr-qimmatini e'zozla”[8]. Bo’alajak boshlang’ich sinf o’qituvchisi o’quvchilar, ota-onalar va hamkasblar jamoalari bilan ishlashda ularning g‘oyalarini eshita olishi,jamoaning boshqa a’zolari taklif va g’oyalarini qo’llab-quvvatlashi, jamoaning boshqa a’zolari bilan o’z muammolarini ochiq-oydin bo’lisha olishi, o’z noroziligini konstruktiv ravishda ifoda eta olishi,jamoaning boshqa a‘zolari yutuqlarini qo‘llab-quvvatlay olishi, jamoaning boshqa a’zolari bilan o’z fikrlarini adolatli va konstruktiv bo’lisha olishi, jamoaning barcha a’zolari qo’llab-quvvatlaydigan qarorlar uchun kurashishi, kasbiy bilim va tajribalarini jamoaning boshqa a’zolari bilan bo’lisha olishi, bilim va tajribaga ega bo’lish maqsadida guruh tarkibida ishlashi maqsadga muvofiqdir.

Kreativlik - shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma‘naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘pqirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilish, o‘rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi barcha o‘quvchilarning ijodiy salohiyati va shijoatini hisobga oluvchi ta’limning yangi shakllarnii yo‘lga qo‘yilishi zarur. Ken Robinsonning fikriga ko‘ra, “Kreativlik – o‘z qiymatiga ega

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

orginal g'oyalar majmui"dir. Gardner esa o'z tadqiqotlarida "Kreativlik–shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o 'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lim amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim"[7]. Olimning yondoshuviga ko'ra kreativlik muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish demakdir. Kreativlik ayniqsa ta'lim jarayoniga unchalik qiziqish bildirmayotgan o'quvchilarga yordam berishi mumkin va ular o'z fikrini ayta olishiga, salohiyatini ochishiga xizmat qiladi.

Vaqtni boshqarish - vaqtni to'g'ri taqsimlash va ajratilgan vaqtdan unumli foydalanish insondan ma'lum bilimlarni bilishni talab qilish bilan birga ushbu muammolar bo'yicha shaxsning o'z ustida muntazam ish olib borishi orqali hal etish imkonyatini beradi. O'qituvchi vaqtni to'g'ri taqsimlashi, har qanday vazifani imkon qadar hal etishga bugunoq kirisha biling. Vaqtni boshqarishga oid qobiliyatlaringizni tahlil qilishga o'rganing.Vaqtning eng kichik bo'laklarini ham tejash, va unumli foydalanish darkor. O'quvchilarni ham vaqtdan unumli foydalana olishga o'rgatish muhimdir.

Texnika va texnologiya sohasidagi kompetensiya – rahbarning texnika va texnologiya sohasidagi chuqur bilim va ko'nikmalarini ko'rsata olish lozim. Zamonaviy o'qituvchi axborot texnologiyalarni bilishi va undan ta'lim -tarbiya jarayonida samarali qo'llay olishi maqsadlidir.

Vijdonlilikka- ega bo'lgan boshlang'ich sinf o'qituvchisi har bir ishni fidoyilik, halollik bajarib, har bir ish sifatini kuzatib boradi, ma'lumotlarni tekshirib boradi, o'zi va o'zgalarning ishiga aniqlik kiritish maqsadida kuzatib, tahlil qilib, yordam berib boradi. Barcha foydalanuvchilar uchun uchun zarur materiallar yoki ma'lumotlarni yig'adi va tashkil etadi. O'quvchilar, ota-onalar hamda hamkasblar bilan ishlashda sidqidildan yondashadi. Har bir bolaning bilimi va salohiyati uchun kurashadi.

Qat'iyatlilikka sifati - bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi vaqt chegaralangan, murakkab yoki noma'lum vaziyatlarda qaror qabul qilishga tayyor turishni, boshi berk ko'chaga kirib qolgan muammoni hal etishni, vaziyatdan chiqib ketish uchun qilingan qarorning kafolatini va guruhga boshchilik qilishni o'z zimmasiga oladi. Murakkab qarorlar qabul qilishda qat'iyatlilik muhimdir. Abu Rayhon Beruniy o'zining "Hindiston" asarida ushbu g'oyani ilgari suradi: "Tabiatan boshqarishga moyil bo'lgan hokim o'z fikri va qarashlarida qat'iy bo'lishi, o'z ishlarini amalga oshirishda donishmandlar tomonidan bildirilgan ilg'or mulohazalarga bo'ysunishi lozim. Odil hokimning asosiy vazifasi oliy va past tabaqalar, kuchlilar va kuchsizlar orasida tenglik va adolat o'rnatishdan iboratdir. Hokimning muhim vazifalaridan yana biri fan taraqqiyotiga, olimlarga g'amxo'rlik qilishdi"[4]. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi har bir faoliyatda qat'iyatlilik asosida ish yuruta olsa,har qanday yot g'oyalarga rarshi turib, o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashi lozimdir.

Moslashuvchanlik - ishning yangicha usullariga moslashuvchanlik, o'zining sevimli ishlash uslubini zamonaviylashtirishga tayyor turish.Ushbu sifatga ega boshlang'ich sinf o'qituvchisi nafaqat o'z ishiga, balki o'zga hamkasblari ishiga ham munosib bo'ladi, tashkilotning yangi tuzilma, usul va texnologiyalarga xayrixoxligini bildiradi, dastlabki

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

strategiya muvoffaqiyatsiz chiqsa, boshqasini tanlay oladi, qarama-qarshi holat to‘g‘ri ekanligiga dalillar etarli bo‘lsa, oldingi holatdan osonlikcha voz kecha oladi.

Rejalashtirish - pedagogik jarayonni yaxlit tashkil etishga o‘quvchilar jamoasi va ayrim bolalarni tarbiyalash vazifasini aniqlashga, bolalarni yoshga ko‘ra pedagogik ta’sir mazmunini va usullarini tanlashga, o‘quvchilar hayoti, faoliyat turlari, rahbarlik metodlari va shu kabilarni tashkil etishning turli shakllaridan foydalanishga yo‘llangan bo‘lishi kerak. Reja o‘quvchilar bilan amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlariga oldindan puxta tayyorgarlik ko‘rish metod vausullarni yaxshilab o‘ylab olish, kerakli material va jihozlarni tayyorlash imkonini yaratadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi rejalashtirgan hamma ishlar har bir o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashi lozim.

Ishonchli bo‘lish – boshqaruvchining o‘zini mas’uliyatli, ishonchga arziydigan shaxs ekanligini ko‘rsata olishi muhimdir. Ishonch- o‘z g‘oyalari va muvoffaqiyat qozonish imkoniyatlariga ishonch hamda qarama-qarshi mavqeidagi shaxs oldida mustaqil lavozimni egallashga tayyor bo‘lish. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi maqsadlarga erishishdagi o‘z imkoniyatlariga ishonishni, zarur paytda adolat mezonlari asosida, haq bo‘lgan shaxs yoki guruhni qo‘llab-quvvatlay bilishni, murakkab masalalarga o‘z kuchiga to‘la ishonch bilan yondasha olishni bilishi lozim.

Ishbilarmonlik -bu zamonaviy texnologiyalarni jadal joriy etish har doim eng so'nggi tendentsiyalardan xabardor bo’lishi va amaliyotda qo’llay olishi. Ishbilarmonlikda bahs-munoza va muzokaralarini to'g'ri olib borish haqiqiy san'atdir. Amir Temur bobomizning fikricha: “Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat‟iy, tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir”[5]. Ishbilarmon o‘qituvchi otaga yoki onaga o'xshaydi. Bu butun qalbi bilan bolasi uchun ildiz otayotgan odam.

Qaror qabul qilish- boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni aniq bir doira ichida o‘tishi qiyin. Har bir rahbar o‘z xususiyatidan kelib chiqqan holda muammo yechimiga turli uslub va yo’llar asosida namoyon etadi. Qaror yaratilishi davomida rahbar o‘z ichki dunyosida sodir bo‘layotgan jarayonlarni bilishi, ushbu holatni maqsadga muvofiq ravishda boshqarish imkonini beradi. Shu bois qaror qabul qilish amallarini bosqichma-bosqich tahlil etish lozimdir. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish ko‘pqirrali va murakkab jarayon bo‘lib, unda muammoni o‘rganish, g‘oyalar ishlab chiqish, ma‘qul keluvchi g‘oyalarni ajratib olishi, yangilikni joriy etishni rejalashtirish, qayta aloqa va tahlil qilishni bilishi muhimdir.

Tadbirkorlik- ushbu sifatga ega boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi foydali imkoniyatlarni sezadi va qo‘ldan boy bermaydi, ta’lim muassasasi, sinfi uchun yangi imkoniyatlarni ochib berish mumkin bo‘lgan voqea-hodisalardan doimiy xabardor bo‘lib turadi, o‘quvchilar, hamkasblaridagi tadbirkorlik xulq-atvorini qo‘llab-quvvatlaydi.

Taklifimiz, bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarida boshqaruvchilik kompetentligini shakllantirish uchun interfaol darslar, davra suhbatlari, binar ma’ruzalar, loyihalar, treninglar o‘tkazish maqsadga muvofiqdir, ya’ni bo‘lajak pedagoglarni rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining boshqaruv kompetentligini shakllantirishda nazariy tayyorgarliklar bilan birga amaliy tayyorgarliklar uzviyligi ko‘zga tashlanadi. Boshqaruv kompetentlikni shakllantirish oliy ta’lim muassasasida boshlanadi va ish joyida tajribali ustozlar nazorati ostida davom etadi. Bo‘lg’usi boshlang’ich sinf o‘qituvchilarining ta’lim-tarbiya jarayoniga, jamoaga, manbalarga, o‘ziga bo‘lgan ma’suliyatlilik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, moslashuvchanlik, ijodkorlik, tadbirkorlik, qat’iyatlilik, qadriyatli munosabatlarni shakllantirish orqali zamonaviy pedagoglarni tayyorlaymiz. Shuni unutmaslik kerakki, boshqaruv kompetentligini nafaqat bilim darajasi, balki o‘qituvchining amaliy ko‘nikmalari, tajribasi va shaxsiy sifatlari ham muhimligi bilan ajralib turadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. K.Xoshimov va C. Nishonova Pedagogika tarixi Darslik /.—T.: «», 2001.-б
2. Abdurashid To‘xtaboyev MENEJER FAZILATLARI 0‘quv qo‘llanma TOSHKENT «ABU MATBUOT-KONSALT» nashriyoti 2008 130 b
3. Hayitov O.E., Djalalova S.M. Boshqaruv psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma. TDIU, 2008. – 184 b. 9-bet
4. Boboyorov B.N. va Boboyorov Sh. Maqolasi .“Yangi O‘zbekiston: barqaror rivojlanishning ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy-siyosiy va huquqiy masalalari” VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 23 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7 ww.oriens.uzApril 2022 MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIK – MA’NAVIY TARAQQIYOT POYDEVORI
5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Birinchi jild Toshkent 2000y
6. Конфуций. Лунюй. Изречения. - М.: «Эксмо», 2008.
7. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. - T.: «A.Qodiriy nomidagi xalq merosi
8. nashriyoti», 1993
9. Лебедев О.Е. Компетентносный подход в образовании. www.nekrasovepb.ru
10. Зимняя И.А., И.А. Ключевных. Компетенции – новая парадигма результата образования. quality.petrsu.ru
11. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 1 | ISSUE 3 | 2020 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804 Academic Research, Uzbekistan 209 www.ares.uz Gulmira Rifovna Tojiboeva PEDAGOGIK KOMPETENTLIK: NAZARIYA VA AMALIYOT maqola
12. Pedagogik konpetentlik (uslubiy qo‘llanma): -T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018. - 80 bet

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Rohila Avezova**, katta o‘qituvchi [**Рахила Авезова,** старший преподаватель], [Rahila Avezova, **senior teacher**]; manzil: 100121 Toshkent, Shota Rustaveli ko‘chasi, 156-uy [адрес: 100121, ул. Шота Руставели, 156, г.], [address: 100121, Shota Rustaveli Street, 156, Tashkent,]; e-mail: rohilaavezova@mail.ru

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original peper

CHET TILLARNI O‘QITISHDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

©N.K. Suleymanova[1]✉

[1]O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: multimedia texnologiyalari ta'lim sohasida inqilob qildi, interfaol va qiziqarli ta'lim tajribasi uchun yangi imkoniyatlarni taklif qildi. Chet tillarini o'rgatish kontekstida multimedia texnologiyalari tilni o'zlashtirish, madaniy tushunish va muloqot ko'nikmalarini oshirish uchun turli xil resurslarni taqdim etadi. Ushbu maqolada chet tillarini o‘qitishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari o‘rganilib, ularning afzalliklari, muammolari va til o‘rganish natijalariga potentsial ta’siriga e’tibor qaratiladi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi multimedia texnologiyalarini chet tilini o'qitishga integratsiya qilish istiqbollarini o'rganishdir. Tadqiqot til o‘rganishda multimedia texnologiyalarining afzalliklarini aniqlash, ularni amalga oshirish bilan bog‘liq muammolarni baholash va til ta’limida ularning samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berishga qaratilgan.

MATERIALLAR VA USULLAR: tadqiqot miqdoriy va sifatli tadqiqotlarni birlashtirgan aralash usullardan foydalanadi. Materiallar multimediali til o‘rganish dasturlari, onlayn resurslar va ta’lim platformalarini o‘z ichiga oladi. Usullar til o‘rganuvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida so‘rovlar o‘tkazish, lingafon sinflarida multimedia integratsiyasi bo‘yicha amaliy tadqiqotlar va til o‘rganish natijalarini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Ma'lumotlarni tahlil qilish multimediyadan foydalanish va til o'rganish muvaffaqiyati o'rtasidagi naqsh va korrelyatsiyalarni aniqlashga qaratilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko'rsatadiki, multimedia texnologiyalari chet tillarini o'qitishda ko'plab afzalliklarni beradi. Jumladan, faollik va motivatsiyani oshirish, audio va video materiallar orqali tinglash va gapirish qobiliyatlarini yaxshilash, haqiqiy media manbalari orqali madaniy tushunishni yaxshilash va interaktiv mashqlar va simulyatsiyalar orqali shaxsiylashtirilgan o'rganish imkoniyatlari. Biroq, texnologik cheklovlar, resurslardan foydalanish, o'qituvchilarni tayyorlash va qo'llab-quvvatlash zarurati kabi muammolar multimedia texnologiyalarini til ta'limida samarali amalga oshirishga to'sqinlik qilishi mumkin. Ushbu muammolarni bartaraf etish strategiyalari va multimediani til o'qitishga integratsiya qilish bo'yicha ilg'or tajribalar muhokama qilinadi.

XULOSA: tadqiqot natijalariga ko‘ra, multimedia texnologiyalari xorijiy tillarni o‘qitish va o‘rganishni sezilarli darajada yaxshilash imkoniyatiga ega. Interaktiv va immersiv o'rganish tajribasini taqdim etish orqali multimedia o'quvchilarni yanada samaraliroq jalb qilishi va turli xil o'rganish uslublariga mos kelishi mumkin. Natijalar

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasalari multimedia resurslariga sarmoya kiritishi va til ta'limida multimedia imkoniyatlaridan to'liq foydalanish uchun o'qituvchilarning malakasini oshirishni ta'minlashi kerak. Kelajakdagi tadqiqotlar multimedia texnologiyalarining tilni o‘rganish natijalariga uzoq muddatli ta’sirini baholash va multimediani til o‘quv dasturlariga integratsiyalashning innovatsion yondashuvlarini o‘rganish uchun bo‘ylama tadqiqotlarga yo‘naltirilishi kerak.

Kalit so‘zlar: multimedia texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta’lim, o‘qitish uslublari, psixo-tejamkor texnologiyalar.

Iqtibos uchun: Sulaymenova N.K. Chet tillarni o‘qitishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 251–258.

ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

© Н.К. Сулейманова[1]✉

[1]Академия Вооружённых Сил Республики Узбекистан, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: мультимедийные технологии произвели революцию в сфере образования, предлагая новые возможности для интерактивного и увлекательного обучения. В контексте преподавания иностранных языков мультимедийные технологии предоставляют разнообразные ресурсы для улучшения овладения языком, понимания культуры и коммуникативных навыков. В этой статье исследуются перспективы использования мультимедийных технологий в обучении иностранным языкам, акцентируя внимание на их преимуществах, проблемах и потенциальном влиянии на результаты изучения языка.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является изучение перспектив интеграции мультимедийных технологий в обучение иностранному языку. Исследование направлено на выявление преимуществ мультимедийных технологий для изучения языка, оценку проблем, связанных с их внедрением, и предоставление рекомендаций по максимизации их эффективности в языковом образовании.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании используется смешанный подход, сочетающий количественные и качественные исследования. Материалы включают мультимедийное программное обеспечение для изучения языков, онлайн-ресурсы и образовательные платформы. Методы включают опросы изучающих язык и преподавателей, тематические исследования интеграции мультимедиа в языковых классах и анализ результатов изучения языка. Анализ данных направлен на выявление закономерностей и корреляций между использованием мультимедиа и успехом в изучении языка.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показывают, что мультимедийные технологии предлагают многочисленные преимущества при обучении иностранным языкам. К ним относятся повышение вовлеченности и мотивации, улучшение навыков аудирования и говорения с помощью аудио- и видеоматериалов, улучшение понимания культуры с помощью аутентичных медиа-источников, а также возможности индивидуального обучения с помощью интерактивных упражнений и моделирования. Однако такие проблемы, как технологические ограничения, доступ к ресурсам, а также необходимость обучения и поддержки преподавателей, могут препятствовать эффективному внедрению мультимедийных технологий в языковое образование. Обсуждаются стратегии преодоления этих проблем и лучшие практики интеграции мультимедиа в обучение языку.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в исследовании делается вывод, что мультимедийные технологии могут значительно улучшить преподавание и изучение иностранных языков. Предоставляя интерактивный и захватывающий опыт обучения, мультимедиа может более эффективно вовлекать учащихся и соответствовать различным стилям обучения. Результаты показывают, что образовательные учреждения должны инвестировать в мультимедийные ресурсы и обеспечивать профессиональное развитие учителей, чтобы они могли использовать весь потенциал мультимедиа в языковом образовании. Будущие исследования должны быть сосредоточены на продольных исследованиях, чтобы оценить долгосрочное влияние мультимедийных технологий на результаты изучения языка и изучить инновационные подходы к интеграции мультимедиа в языковые учебные программы.

Ключевые слова: мультимедийные технологии, информационно-коммуникационные технологии, электронное образование, методы обучения, ресурсоэффективные технологии.

Для цитаты: Сулайменова Н.К. Перспективы использования мультимедийных технологий в обучении иностранным языкам. // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 251–258.

PROSPECTS OF USING MULTIMEDIA TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES

© Nilufar K. Suleymanova[1]✉

[1]Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: multimedia technologies have revolutionized the field of education, offering new opportunities for interactive and engaging learning experiences. In the context of teaching foreign languages, multimedia technologies provide diverse resources for enhancing language acquisition, cultural understanding, and communication skills. This article explores the prospects of using multimedia

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

technologies in teaching foreign languages, focusing on their benefits, challenges, and potential impact on language learning outcomes.

AIM: the aim of this study is to examine the prospects of integrating multimedia technologies into foreign language instruction. The study seeks to identify the advantages of multimedia technologies for language learning, assess the challenges associated with their implementation, and provide recommendations for maximizing their effectiveness in language education.

MATERIALS AND METHODS: the study employs a mixed-methods approach, combining quantitative and qualitative research. Materials include multimedia language learning software, online resources, and educational platforms. Methods involve surveys of language learners and educators, case studies of multimedia integration in language classrooms, and analysis of language learning outcomes. Data analysis focuses on identifying patterns and correlations between multimedia usage and language learning success.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings indicate that multimedia technologies offer numerous advantages in teaching foreign languages. These include increased engagement and motivation, improved listening and speaking skills through audio and video materials, enhanced cultural understanding through authentic media sources, and personalized learning opportunities through interactive exercises and simulations. However, challenges such as technological limitations, access to resources, and the need for teacher training and support can hinder the effective implementation of multimedia technologies in language education. Strategies for overcoming these challenges and best practices for integrating multimedia into language instruction are discussed.

CONCLUSION: the study concludes that multimedia technologies have the potential to significantly enhance the teaching and learning of foreign languages. By providing interactive and immersive learning experiences, multimedia can engage learners more effectively and cater to diverse learning styles. The findings suggest that educational institutions should invest in multimedia resources and provide professional development for teachers to harness the full potential of multimedia in language education. Future research should focus on longitudinal studies to evaluate the long-term impact of multimedia technologies on language learning outcomes and explore innovative approaches to integrating multimedia into language curricula.

Key words: multimedia technologies, information and communication technologies, electronic education, teaching methods, resource-efficient technologies.

For citation:Nilufar K. Sulaymenova. (2024) ‘Prospects of using multimedia technologies in teaching foreign languages’, Inter education & global study, (4(2)), pp. 251–258. (In Uzbek).

Til bo‘lmagan universitetda ingliz tili darsini samarali o‘tkazish va maksimal natijalarga muvaffaqiyatli erishish uchun talabalar va o‘qituvchilar o‘z amaliyotlarida turli

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

usullar, texnika va texnologiyalarni qo‘llaydilar, kasbiy kompetentsiyalari va shaxsiy fazilatlarini oshiradilar. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari orasida eng ko‘p talab qilinadigan usullar quyidagilar:

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), kompyuter dasturlaridan foydalanish texnologiyalari, internet texnologiyalari, shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar, til portfeli texnologiyasi, test texnologiyalari, loyiha texnologiyalari, hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari, o‘yin texnologiyalari, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari, aloqa va qiymat texnologiyalari.

Chet tillarni o‘rgatishning samaradorligini oshirish o‘quv texnologiyalarini ishlab chiqish va qo‘llashni taqozo etadi. O‘quv texnologiyalarini til o‘rganuvchilarning yoshi, tayyorgarligi, o‘rganilayotgan materialning qiyinlik darajasi, eslab qolishning yuqori bo‘lishi kabi bir qancha jihatlarni hisobga olgan holda ishlab chiqish zarur.

Inson axborotning asosiy qismini ko‘rish a’zolari orqali qabul qiladi. Umuman olganda, ko‘rgazmali axborotni o‘zlashtirish oson kechadi. Multimediali texnologiyalar muhim sezgi organlarining bir vaqtda ishlashiga yordam beradi. Dinamik vizual ketma-ketlik (slayd-shou, animatsiya, video)ni ovozli namoyish etish orqali kishi e’tiborini ko‘proq jalb etish mumkin. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, multimediali texnologiyalar axborotni maksimal darajada samarali taqdim etishga imkon beradi.

Multimediali (multi – ko‘p, media – muhit) texnologiya bir vaqtning o‘zida ma’lumot taqdim etishning bir necha usullari, ya’ni matn, grafika, animatsiya, videotasvir va ovozdan foydalanishga imkon beradi.

Multimediali texnologiyaning eng muhim xususiyati – interfaollik, ya’ni axborot muhitining foydalanuvchiga ta’sir o‘tkaza olishga qodirligidir.

Videotasvir vositasidan farqli ravishda multimediali texnologiyalar axborotlarni boshqarishga imkon beradi. (Ya’ni, ular interfaol bo‘lishi mumkin.) Multimediali taqdimot ma’lumotni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilishni ta’minlaydi. Foydalanuvchi taqdim etilayotgan barcha ma’lumotlarni ko‘radi va o‘zini qiziqtirgan qismlaridan foydalana oladi. Ma’lumotni qabul qilish katta mehnat va vaqt talab qilmaydi.

Multimedia vositalarini ta’limda qo‘llash quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

- ta’limning gumanizatsiyalashuvini ta’minlash;
- o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish;
- ta’lim oluvchining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish (o‘zlashtirganlik, bilimga chanqoqlik, mustaqil ta’lim olish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘zini o‘zi kamol toptirishga qaratilgan qobiliyatlilik, ijodiy qobiliyatlari va olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish, o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi, mehnatga munosabat);
- ta’lim oluvchining kommunikativ va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- kompyuter vositalari va axborot elektron ta’lim resurslari yordamida har bir shaxsning alohida (individual) ta’lim olishi hisobiga ochiq va masofaviy ta’limni individuallashtirish va differensiyalash imkoniyatlarining sezilarli darajada kengayishi;
- ta’lim oluvchiga faol bilim oluvchi subyekt sifatida qarash, uning qadr-qimmatini tan olish;
- ta’lim oluvchining shaxsiy tajribasi va individual xususiyatlarini hisobga olish;

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

- mustaqil o‘quv faoliyatini olib borish;
- ta’lim oluvchilarning o‘z kasbiy vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlari uchun hozirgi tez o‘zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashishga yordam beradigan zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini hosil qilish.

Multimediali texnologiyaning imkoniyatlaridan chet tillarni o‘rgatish maqsadida foydalanish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Multimedia mahsulotini ishlab chiqishdan oldin mavzu o‘rganiladi va uning ssenariysini ishlab chiqish zarur. Buning uchun multimediali o‘quv materiallarini ishlab chiqish uchun kerak bo‘lgan texnik va dasturiy vositalar tanlanadi. Skaner qurilmasi yordamida matn va tasvirlarni kiritish, mikrofon orqali ovoz kiritish, raqamli fotoapparat va video qurilmalari, zamonaviy uyali telefonlar imkoniyatlaridan foydalanish mumkin. Barcha ma’lumotlar kompyuter xotirasiga kiritilgach, multimedia yaratish dasturlarini tanlab olish kerak bo‘ladi.

To‘liq funksional multimedia dasturlarini yaratishga imkon beruvchi bir qancha multimedia yaratish vositalari mavjud. Macromedia Director, Macromedia Flash yoki Authoware Professional kabi paketlar yuqori darajadagi professional vositalar hisoblanadi. FrontPage, mPower 4.0, HyperStudio 4.0 va Web Workshop Pro kabilar ularnbing oddiyroq analoglari hisoblanadi. PowerPoint va matn muharrirlari (masalan, Word) kabilardan ham multimediali resurslar yaratishda foydalanish mumkin. Borland Delphi ham multimediali ilovalar ishlab chiqish vositasi hisoblanadi.

Multimedia mahsulotlarini ishlab chiqishda mavzuning to‘liq qamrab olinganligi, rasmlar va matnlarning mavzuga mosligi, ranglarning to‘g‘ri tanlanganligi, ma’mulotlarning chiqish tezligi, matn va ovozdagi so‘zlarning to‘g‘riligi, bir-biriga mos kelishi va qiziqarli bo‘lishini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Macromedia Flash interfaol multimedia mahsulotlarini yaratuvchi dastur hisoblanadi. Flash texnologiyalar tarkibining elementlari:

- vektorli grafika;
- animatsiyani bir qancha usullarda ishlash;
- interfeysda interfaol elementlarni yaratish;
- sinxron ovoz qo‘shish;
- HTML formati va boshqa internetda foydalaniladigan barcha formatlarga o‘tkazishni ta’minlash;
- mustaqil platformali;
- Flash-roliklarni avtorejimda ham, Web-brauzerlarda ham ko‘rish imkoniyatining mavjudligi.

Macromedia Flash dasturida chet tillarni o‘rgatish maqsadida multimediali mahsulot ishlab chiqish ayni muddao bo‘ladi.

Macromedia Flash dasturini o‘rganish uchun, avvalo, uning interfeysi bilan tanishib chiqish zarur.

Flash dasturi oynasi bir nechta qismdan iborat. Dastur oynasining asosiy qismlaridan biri dastur ish maydonidir. Ish maydonida bir necha obyektlarni chizish,

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

tahrirlash, harakatlantirish imkoniyatini amalga oshiramiz. Undan yuqorida esa, vaqt diagrammasi yoki vaqt shkalasi joylashgan.

Vaqt diagrammasi, filmning aniq sahnalashtirilishiga xizmat qiladi. U yaratilgan qatlamlarni sahnaga alohida-alohida yozib qo‘yishni ta’minlaydi. Sahnada namoyish qilinadigan obyektlarning o‘zgarishi ketma-ketligini ta’minlaydi. Vaqt diagrammasi, shuningdek, animatsiya yaratishda, film interaktiv elementlari xatti-harakatini belgilashda asosiy instrument hisoblanadi. Vaqt diagrammasi murakkab tuzilishga ega va u ko‘psonli boshqaruv elementlarida iborat.

Boshqa dasturlarda bo‘lgani kabi Flash dasturida animatsiyalar hosil qilish uchun yangi obyektlar yaratilib, ularni alohida harakatlantirishga to‘g‘ri keladi. Flash dasturida ushbu imkoniyatni ta’minlab berish, ya’ni obyektlar ustida ishlash, ularga alohida harakatlar biriktirish uchun qatlam (sloy- layer) lardan foydalaniladi. Soddaroq qilib aytganda, har bir obyekt qo‘yilishidan oldin unda alohida qatlam hosil qilinadi. Buning uchun Insert layer tugmasini bosish kerak bo‘ladi.

Tugma bosilgandan keyin qatlamlar orasiga yangi qatlam qo‘shiladi. Yangi qatlamga foydalanuvchi xohishiga ko‘ra chizish yo‘li bilan yoki obyektlarni import qilish yo‘li bilan biror obyekt biriktiriladi. Obyektlarning har birini alohida vaqt mobaynida, bir-biridan keyin, har xil katta-kichiklikda harakatlanish, hosil bo‘lish yoki yo‘qolib ketish imkoniyatlari bilan ta’minlaydi.

Har qanday Flash-film ichiga matn qo‘yish mumkin. Odatda matn muharrirlari bilan ishlashda, matn uchun o‘lcham, shrift, stil, interval, rang va tekislash usuli o‘rnatilishi kerak. Shriftni boshqa obyektlar bo‘yicha transformatsiyalash – burish, masshtablarini belgilash, yengillashtirish mumkin. Bundan keyin ham uning simvollarini tahrirlash imkoniyatlari saqlanib qoladi. Flash dasturida dinamik matnli maydonlarni, foydalanuvchi tomonidan tahrirlanadigan matnli maydonlarni hosil qilish mumkin. Bundan tashqari Flash dasturida ko‘p qatorli matn maydonlari uchun aylantirish tasmalarini yaratish mumkin.

Flash yordamida filmlarga ovoz berish imkoniyatlari ham mavjud. Kompyuterda saqlanayotgan tovush fayli yoki tovushni yozdirish orqali ham har xil tovush fayllarini import qilish yo‘li bilan uzatsa bo‘ladi. Buning natijasida Flash dasturida tovushli film hosil bo‘ladi. Ya’ni animatsiya namoyish qilinayotgan vaqtda harakat bilan birga unga mos yoki unga tegishli tovush ham ijro etiladi.

Filmdagi tovush bilan animatsion harakat sinxron tarzda berilishi ustida test o‘tkazish kerak. Agar ular sinxron bo‘lmasa filmdagi animatsiya qatlamlaridagi kadrlar sonini ko‘paytirish yo‘li bilan sinxronlashtirish mumkin.

Demak, Macromedia Flash dasturidan tillarni o‘rganishga oid mukammal multimediali mahsulotlarni ishlab chiqish mumkin, shuningdek, internet tarmog‘i orqali Flash dasturida yaratilgan mahsulotlarni topish mushkul emas, ulardan samarali foydalanish va foydalanuvchiga yetkazib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Multimedia vositalari ta’lim berishning samarali va istiqbolli quroli bo‘lib, u o‘qituvchiga an’anaviy ma’lumotlar manbaidan ko‘ra keng ko‘lamdagi ma’lumotlar massivini taqdim etish; ko‘rgazmali va uyg‘unlashgan holda nafaqat matn, grafika va

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

sxemalar, balki ovoz, animatsiya, video va boshqalardan foydalanish; axborot turlarini ta'lim oluvchilarning qabul qilish (idrok etish) darajasi va mantiqiy o'rganishiga mos ravishda ketma-ketlikda tanlash imkoniyatini vujudga keltiradi.

Chet tillarni o'rganishda multimediali ta'lim vositalaridan samarali foydalanish ta'lim oluvchilar uchun materialni o'zlashtirishni osonlashtiradi va ularning qiziqishni oshiradi va ta'lim oluvchiga tilni o'rganish qiyinchiliklarni yengib o'tish uchun yaxshi imkoniyatlarni beradi. Yosh ta'lim oluvchilar esa darslarni qiyin mashg'ulot sifatida emas, balki qiziqarli jarayon sifatida qabul qiladilar. Demak, bu bilan ta'limning sifati oshadi. Multimediali mahsulotni to'g'ri ishlab chiqish materialni o'zlashtirishni osonlashtiradi. Yaratilgan dastur juda sodda bo'lishi mumkin, biroq u hatto tilni yaxshi bilmagan foydalanuvchilar uchun ham tushunarli bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Борщева В.В., Розанова Е.В. Принципы формирования социокультурной компетенции бакалавров лингвистических направлений подготовки. Вестник МГГУ им. М.А. Шолохова № 4, 3013г., ст.22-29.
2. Дьюи Дж. Демократия и образование: Пер. с англ. – М.: Педагогика –Пресс, 2000. - с. 140
3. Камызина А.В. Научные основы обучения иностранным языкам в России второй половины XIX века. Электронный ресурс.
4. Boqiev R. R., Matchonov A. O. Informatika. –T., 2012.
5. Umumta'lim fanlari bo'yicha multimedia ilovalarini ishlab chiqish metodologiyasi. O'quv qo'llanma. – T.
6. Jadaev B. G. Samouchitel Flash MX ≪TEXNOLODJI – 3000≫. – Moskva
7. Uzedu.uz
8. e-dastur.uz

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Suleymanova Nilufar Kamilovna**, dotsent,PhD [**Сулейманова Нилуфар Камиловна,** доцент, PhD], [**Nilufar K. Suleymanova,** associate professor, PhD]; manzil: 100075, O'zbekiston, Toshkent, Mirzo-ulug'bek tumani, ko'chasi PARKENT, 2 [адрес: 100075, Узбекистан, Ташкент, Мирзо-улугбекский район, улица ПАРКЕНТСКАЯ, 2], [address: 100075, Uzbekistan, Tashkent, Mirzo-ulugbek district, street PARKENT, 2]; E-mail: nilufar@gmail.com

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original peper

SIFAT, TA’LIM SIFATI, TA’LIM SIFATINI BOSHQARISH TUSHUNCHALARINING ILMIY-PEDAGOGIK TALQINI

© Y.Turganov[1]✉, A.Qo‘shmurodov[2]✉
[1,2]Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ta'lim sifati, ta'lim sifati va ta'limni boshqarish sifati tushunchalari ta'lim tadqiqotlari va amaliyoti sohasida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu tushunchalar ko'pincha turli ta'lim kontekstlarida turlicha talqin qilinadi va amalga oshiriladi, bu siyosat qarorlari, o'qitish amaliyoti va talabalar natijalariga ta'sir qiladi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi sifat, ta'lim sifati va ta'limni boshqarish sifati tushunchalarining ilmiy-pedagogik talqinlarini yoritishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda ta'lim sifati va sifatini boshqarish bilan bog'liq ilmiy maqolalar, ta'lim siyosati hujjatlari va nazariy asoslarni tahlil qiluvchi adabiyotlarni ko'rib chiqish metodologiyasi qo'llaniladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: muhokama sifat, ta’lim sifati va ta’limni boshqarish sifati tushunchalarini batafsil izohlab beradi. Sifat samaradorlik, samaradorlik, tenglik va qoniqish kabi turli jihatlarni o'z ichiga olgan ko'p o'lchovli tuzilma sifatida kontseptsiyalangan.

XULOSA: tadqiqot shuni ko'rsatadiki, sifat, ta'lim sifati va ta'limni boshqarish sifati tushunchalarini aniq va har tomonlama tushunish ta'limda mukammallikni rivojlantirish uchun zarurdir. Ta'limda sifatni samarali boshqarish sifatning turli o'lchovlarini ko'rib chiqadigan va barcha manfaatdor tomonlarni qamrab oluvchi kompleks yondashuvni talab qiladi.

Kalit so‘zlar. Sifat, ta'lim sifatini boshqarish, monitoring, standart, mezonlar, o'quv natijasi

Iqtibos uchun: Turganov Y., Qo‘shmurodov A. Sifat, ta’lim sifati, ta’lim sifatini boshqarish tushunchalarining ilmiy-pedagogik talqini. // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 259–266.

НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЙ КАЧЕСТВО, КАЧЕСТВО ОБРАЗОВАНИЯ, КАЧЕСТВО УПРАВЛЕНИЯ ОБРАЗОВАНИЕМ

© Ё.Турганов[1]✉ , А.Кушмуродов2✉
[1,2]Джизакский государственный педагогический университет, Джизак, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: нерешение проблем психического здоровья в подростковом возрасте имеет долгосрочные последствия, которые невозможно исправить во

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

взрослом возрасте, такие процессы негативно влияют как на физическое, так и на психическое здоровье подростка и ограничивают возможности для жизни во взрослой жизни.

ЦЕЛЬ: эти шаги помогают организовать процесс понимания и поддержки учащихся с психическими расстройствами в их самосовершенствовании. Для того чтобы добиться успеха в борьбе с психическими расстройствами, необходимы отношения со студентами, адаптивные и прогрессивные стратегии, а также эффективная поддержка.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: эти материалы и методы имеют решающее значение для успеха и поддержки учащихся с психическими расстройствами. Цифровые технологии также открывают возможности помочь людям справиться с психическими расстройствами, например, онлайн-информация, терапевтические программы и опыт.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: при работе с психическими расстройствами обсуждение и результаты необходимы для развития у учащихся самопонимания, усвоения информации, решения проблем и изменений. Этот процесс имеет большое значение для поддержки личностного развития учащихся и их самих.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: подростки с проблемами психического здоровья особенно уязвимы перед социальной изоляцией, дискриминацией, стигмой (которая ограничивает их готовность обращаться за помощью), трудностями школьной программы, рискованным поведением, физическое здоровье и права могут быть нарушены.

Ключевые слова: Качество, управление качеством обучения, мониторинг, стандарт, критерии, результат обучения

Для цитаты: Турганов Ю., Кошмуродов А. Научно-педагогическая интерпретация понятий качества, качество образования, управление качеством образования. // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 259–266.

SCIENTIFIC-PEDAGOGICAL INTERPRETATION OF THE CONCEPTS OF QUALITY, QUALITY OF EDUCATION, QUALITY OF EDUCATION MANAGEMENT

© Y.Turganov[1]✉, A.Kushmurodov[2]✉
[1,2]Jizzakh State Pedagogical University, Jizzakh, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the concepts of quality of education, quality of education and quality of educational management are crucial in the field of educational research and practice. These concepts are often interpreted and implemented differently in different educational contexts, influencing policy decisions, teaching practices, and student outcomes.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

AIM: the purpose of this study is to shed light on the scientific and pedagogical interpretations of the concepts of quality, quality of education and quality of educational management.

MATERIALS AND METHODS: the research uses a literature review methodology that analyzes scientific articles, educational policy documents and theoretical frameworks related to educational quality and quality management.

DISCUSSION AND RESULTS: the discussion elaborates the concepts of quality, quality of education and quality of educational management. Quality is conceptualized as a multidimensional construct that includes various aspects such as efficiency, effectiveness, equity, and satisfaction.

CONCLUSION: the research shows that a clear and comprehensive understanding of the concepts of quality, quality of education and quality of educational management is essential for the development of excellence in education. Effective quality management in education requires an integrated approach that addresses the various dimensions of quality and involves all stakeholders.

Key words: quality, learning quality management, monitoring, standard, criteria, learning outcome

For citation: Turganov Y. Koshmurodov A. (2024) 'Scientific-pedagogical interpretation of the concepts of quality, quality of education, quality of education management', Inter education & global study, (4(2)), pp. 259–266. (In Uzbek).

Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida «pedagogika, didaktika, amaliy pedagogik psixologiya, metodika kabi fanlarga alohida e'tibor qaratgan holda, o'quv materiallarini va pedagogik baholashni ishlab chiqish orqali pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish»[1] kabi vazifalar belgilangan. Bu esa pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish tizimini, uning amaliy komponentlariga TQM (Total Quality Management) konsepsiyasi tamoyillarini qo'llashga oid ilmiy-uslubiy ta'minotini takomillashtirishni taqozo etadi.

Oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy xalqaro talablar darajasida sifatli mutaxassislar tayyorlash ularda ta'lim sifatini boshqarish tizimini qayta tashkil etish, sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatish borasida motivatsiyasini kuchaytirish, boshqaruvning strategik rejalashtirishga asoslangan yangi tamoyillarini hamda yalpi sifat boshqaruvi tizimini joriy etish vazifalarini amalga oshirishni nazarda tutadi. Sifat tushunchasi yangi mazmun kashf etib, sifatga oid boshqaruv global xarakter kasb etib bormoqda.

Ushbu sharoitlarda sifat kategoriyasi evolyutsiyasi, uning invariantlik xususiyati, ko'p o'lchovli va ko'p aspektli mazmuni borasida ilmiy fikr-mulohazalarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Sifat falsafiy kategoriya sifatida dastlab qadimgi grek faylasufi Aristotel (eramizdan oldingi 384-322 yillar) tomonidan talqin etilgan. Uning fikricha, sifat bu na faqat xaridor ko'z o'ngida paydo bo'ladigan, balki borliqda o'z-o'zidan mavjud narsalarni anglatadi.

XIX asrda nemis faylasufi Gegel tomonidan sifatga quyidagicha ta'rif berilgan: «Sifat bu birinchi navbatda borliq bilan aynan bir xil ma'lumlikdir, shuning uchun nimadir o'z sifatini yo'qotsa, u o'z borlig'ini yo'qotadi» [6, b. 216].

CC BY NC ND


ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)


Boshqacha aytganda, obyekt faqat sifat tufayli o‘z individual mazmuniga ega bo‘lib, barqarorlik va ma’lumlilik kashf etadi. Shunday qilib, falsafa fanida «sifat» xususiyat kategoriyasi orqali ochib beriladi.

Iqtisodiyot va ishlab chiqarish boshqaruvidagi sifatning amaliy talqini avvlambor mahsulot hamda xizmatlardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lib, boshqaruv obyekti sifatida mahsulot va xizmatlar sifati tushuniladi. Cifatning falsafiy va amaliy talqinlari bir – biriga zid bo‘lmasada, uning qadriyatli aspekti bo‘yicha farq qiladi. «Sifat» falsafiy kategoriya sifatida sifatni baholash borasida neytral tushunchadir. Iqtisodga oid amaliy tadqiqotlarda sifat talqini baholash xususiyatiga ega: sifatli yoki sifatsiz, ma’lum mezonlar va standartlarga mos yoki mos emas va h.k. [2]. Sifat kategoriyasining zamonaviy talqini U.Deming, V.Shuxart, K.Isikava, Dj.Djuran, A.Feygenbaum, Dj.Xarrington, F.Teylor kabi xorijiy olimlarning ilmiy ishlari asosida shakllangan [8; 9; 7; 5; 6;].

Sifatni boshqarish nazariyasini rivojlantirishga amerikalik olimlar Shuxart Uolter (Walter Andrew Shewhart 1891-1967 va Deming Uilyam Evards (William Edwards Deming 1900 — 1993) katta hissa qo‘shishgan bo‘lib, mashhur uzluksiz jarayonlarni yaxshilash «Shuxart - Deming Sikli» (PDCA) sikliga asos solishgan (1.1- rasm).

PDCA - rejalashtirish (Plan), amalga oshirish (Do), tekshirish (Check), ta’sir qilish (Act), turli sohalarda tizimli asosda qo‘llash natijasida ushbu soha doirasida faoliyat samaradorligini oshirish imkonini beradi (1.2-rasm).





1.1-rasm. Shuxart-Deming sikli(PDCA). 1.2 -rasm. Doimiy yaxshilash.

1950 yillarda E.Demingning doimiy yaxshilash tizimi Yaponiyada Kaydzen tizimini yaratishga olib keldi (1.2-rasm).

Kaydzen, kaydzen (yap. 改善, kaydzen. Kaizen – bu ishlab chiqarish jarayonlarini, ishlanmalarni, yordamchi biznes-jarayonlarni va boshqaruvni, shuningdek, hayotning barcha jabhalarini to‘xtovsiz takomillashtirib borishga yo‘naltirilgan yapon falsafasi yoki amaliyotidir.

Kaydzenning maqsadi — yo‘qotishlarsiz ishlab chiqarish. Shunday qilib, sifat menejmenti quyidagilarni o‘zida namoyon etadi:

- barcha manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilganlikni;
- qaror qabul qilishning vositalari va usullarini;
- faoliyatning samaraliligini kafolatlovchi usullarni;

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

mehnat jarayoni ishtirokchilari sa'y-harakatlarini qo'yilgan maqsadlar sari safarbar qilishni ta'minlaydi.


Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra pedagogika tarixida «ta'lim sifati» tushunchasi XX asrda paydo bo'lgan. M.M.Potashnikning ta'kidlashicha, 1993 yilda chop etilgan Rossiya pedagogika ensiklopediyasida ushbu tushunchaga hech qanday izoh berilmagan. Ta'lim sifati muammolari bilan shug'ullangan mashhur tadqiqotchilardan biri A.G.Bermus «ta'lim sifati» tushunchasi mazmunining ko'p o'lchovli va ko'p ma'noliligini ta'kidlab, u o'zida nafaqat ta'limga nisbatan normativ-huquqiy talablarni hamda tarixiy-madaniy an'analarni, balki ta'lim tizimlarini yaratishning nazariy-metodologik tamoyillarini qamrab olishini ta'kidlab o'tadi.

Ushbu tushunchaning ko'p aspektliligi Ye.Bondarevskaya, A.Subetto, M.Potashnik, A.Mayorov va boshqalar tomonidan ham qayd etilgan. Masalan, ulardan biri M.Potashnik ta'lim sifatini maqsad va natija o'rtasidagi o'zaro munosabat sifatida talqin etsa, S.Shishov, V.Kalney kabi olimlar ta'lim jarayoni ishtirokchilarining ehtiyoj va maqsadlarining qondirilish darajasi deb tushunadilar.

A.Moiseyev, O.Moiseyevalar uchun ta'lim sifati ta'lim natijalarining talabalar, ularning ota-onalari va jamiyat ehtiyojlariga mosligi xarakterlidir [1].

V.Panasyuk ta'lim sifatining turlarini quyidagicha ta'riflaydi: absolyut va nisbiy; ichki va tashqi tizimli-ijtimoiy sifat; sarf-xarajatlar va resurslarga nisbatan sifat; potensial va real sifat; jarayonlar, faoliyat turlari, natijalar, boshqaruv sifati; pedagogik tizimning turli darajalarida sifat; uning dinamikasi sifati.

Xarvey va Grinlarning ta'kidlashlaricha, muammo «bitta narsaning turlicha ko'rinishlarida emas, balki bir xil nomga ega bo'lgan, lekin turli-tuman narsalarning turli ko'rinishlarda»ligidan iborat. Ular «sifat»ning mavhum tushunchasini ochishga va uning turlicha jihatlariga diqqatni qaratishga intilganlar.



Oliy ta'lim sifati tushunchasining turlicha jihatlari
(Xarvey va Grin bo'yicha)

Ekspertlar fikrlari bo'yicha, ushbu yondashuvdan foydalanganda, sifatni aniqlashning bir muncha mos ta'rifi sifatning maqsad va tranformatsiyalari (talabaning o'zgarish jarayoni) sifatiga mosligini anglatadi. Tadqiqotchilar Xarvey va Grinlar oliy

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

ta’limda sifat tizimiga beshta yondashuvlarni ko‘rib chiqishadi. Ular uchun sifat-bu «chiqish»da ijobiy natijalarga yo‘naltirilgan maxsus jarayon; ta’lim jarayoni doirasida takomillashtirish; maqsadlarning iste’molchilar talablari va kutishlariga mosligi; kapital qo‘yilmalar natijasi; talabalar yoki yangi bilimlarni rivojlantirish uchun taqdim etilayotgan imkoniyatlarning takomillashtirish borasidagi o‘zgarishlarga moslashishi.

Ta’lim sifati avvalo, davlat ta’lim standartlarining bajarilish sifatiga, jamiyat va iste’molchilar tomonidan qo‘yilgan talablarga, OTM maqsadlari, me’yorlari, yaratilgan shart-sharoitlar, ta’lim jarayoni va yakuniy natijalar sifatiga bog‘liq.

Ta’limda sifatni boshqarish tizimi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ta’limga bo‘lgan talablarni ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlari va xalqaro standartlarni hisobga olgan holda anglash;
- iste’molchiga mo‘ljal olish, mehnat bozoridagi keskin raqobat boshqarish tizimidan safarbarlik va dinamiklikni talab etadi;
- monitoring natijalarini hisobga olgan holda o‘quv jarayonini doimiy takomilashtirib borish.

Ta’lim sifati ta’lim jarayoni natijadorligi va ahvoli, uning jamiyat va davlat talablariga mosligini belgilovchi, shaxsning fuqarolik, maishiy va kasbiy kompetensiyalarini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi ijtimoiy integral kategoriya sifatida talqin etiladi.

Respublikamizda mustaqillik yillarida yaratilgan va bugungi kunda yangi bosqichda rivojlantirilayotgan ta’lim modeli davlat, jamiyat va shaxs talablariga mos ta’lim sifatini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida amalga oshirilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz «Ta’lim sifati» tushunchasini davlat ta’lim standartlari va davlat talablarida belgilab qo‘yilgan natijalarga erishishni ta’minlaydigan ta’lim jarayoni, yaratilgan shart-sharoitlar hamda ta’lim oluvchilar tayyorgarligining yuqori darajasi sifatida ta’riflashni ilgari suramiz.

Shunday qilib, ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili natijasida ta’lim sifatini boshqarish tushunchasi mohiyati aniqlashtirildi. Ta’lim sifatini boshqarish – bu avvalambor ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ularga maqsadli ta’sir etish jarayonidir. Zamonaviy ilmiy-pedagogik adabiyotlarda boshqaruv tushunchasi faoliyat sifatida (V.Lazarev, M.Potashnik), bir tizim yoki bir shaxsning boshqasiga yoki guruhga ta’siri sifatida (S.Vishnyakova), ta’lim jarayoni subyektlarining o‘zaro hamkorligi sifatida (P.Tretyakov, T.Shamova) talqin etiladi.

M.Potashnikning fikricha, boshqaruv ta’lim jarayonining barcha subyektlarining aniq maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati bo‘lib, ta’lim muassasasining optimal faoliyat olib borishi va albatta rivojlanishini ta’minlashga qaratilgandir [149]. Agar birinchi yondashuvda faoliyat jarayonida ta’lim jarayoni ishtirokchilarining subyektiv tajribasi doimiy ravishda o‘zgarib turishi inobatga olinishi mavhum bo‘lib qolsa, ikkinchi ta’rifda boshqaruvning subyekt-subyekt tabiati inobatga olinmagan.

S.Vishnyakova boshqaruvni ta’lim jarayoni subyektlari, hokimiyat organlarining insonlarga, o‘quv, iqtisodiy va boshqa obyektlarga ularning hatti-harakatlarini yo‘naltirish

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

hamda zarur natijalarga erishish maqsadida amalga oshiradigan aniq maqsadga yo‘naltirilgan ongli ta’siri deb ta’riflaydi [46, b. 346].

Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, zamonaviy pedagogik boshqaruv konsepsiyasi «samaradorlik, professor-o‘qituvchilar va pedagog xodimlar potensialidan unumli foydalanish, yangiliklarga tayyorgarlik kabi qadriyatlarga mo‘ljallangan bo‘lishi kerak».

Oliy ta’lim muassasalarini boshqarish zamonaviy ilm-fanning alohida sohasi bo‘lib, rahbarning muayyan ish tajribasi, shuningdek, uning o‘ziga xos tashkilotchilik qobiliyati, iqtidori hamda shaxsiy sifatlarga ega bo‘lishini taqozo etadi.

Jamiyatning mavjud taraqqiyoti ta’lim muassasalari rahbarlarining kasbiy mahoratlarini oshirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Zero, rahbarlarning kasbiy mahoratlari ta’lim muassasalarida ijtimoiy talablarga muvofiq xamqorlikdagi faoliyatni tashkil etishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Boshqarish har qanday jamiyatga, hayotning barcha sohalariga xos bo‘lib, asosiy maqsad fuqarolarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini tobora to‘la qondirish uchun ishlab chiqarishni, barcha ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish va takomillashtirishdan iborat.

Ta’lim sifatini boshqarish tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha tavsiflarga ega. Masalan, bir guruh tadqiqotchilar ta’lim sifatini boshqarish tushunchasini ta’lim jarayoniga dixotomik, ya’ni ijobiy yoki salbiy tarzda ta’sir etuvchi boshqaruv faoliyati mahsuloti sifatida talqin etadilar. Boshqa bir tadqiqotlarda ushbu tushunchaga ta’lim jarayoni shart-sharoitlari sifatini, uning amalga oshirilishi va natijalarini loyihalash, qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash deb ta’rif beriladi. Uchinchi guruh manbalarda ta’lim sifatini boshqarish ta’lim jarayoni sifat ko‘rsatkichlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ta’lim natijalari orqali izohlanadi.

Biz keltirilgan ta’riflarni tahlil etib, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini boshqarish tushunchasiga quyidagicha ta’rif beramiz: bu xalqaro standartlarga hamda davlat va jamiyat talablari, shaxs ehtiyojlariga mos ravishda yuqori malakali sifatli pedagog kadrlarni tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga yo‘naltirilgan, rejalashtirilgan, kafolatlangan va texnologik ta’minlangan boshqaruvdir.

Ta’lim sifatini talqin etuvchi pedagogik tadqiqotlarda asosan ikki xil yondashuv o‘z ifodasini topadi: falsafiy va boshqaruvga oid. Falsafiy yondashuvga ko‘ra ta’lim sifati shaxsni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish bo‘yicha ta’limning xususiyatlari yig‘indisi sifatida, ta’limning integral tavsifi sifatida talqin etiladi. Ikkinchi yondashuvga ko‘ra, ta’lim sifati – maqsad va natija, ta’lim natijasining normativ darajaga mosligi, ta’lim xizmatlari iste’molchilarining ehtiyojlari qondirilish darajasidir.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda ta’lim sifati asosan natija bilan belgilanishi ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan tanqid qilinib, natijalarning o‘zi turli-tuman ekanligi qayd etiladi: sonli va sifatli natija, absolyut va nisbiy natija, obyektiv va subyektiv natija, haqiqiy va tasodifiy natija, ko‘rinarli va yashirin natija, individual va jamoaviy natija, yagona va ommaviy natija, qisqa muddatli va uzoq muddatli natija va h.k.

Kvalitologik tamoyilga ko‘ra ta’lim natijalari sifati to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’lim jarayonining tashkiliy sifati va faoliyati sifatiga bog‘liq. Ta’lim jarayoni sifati esa o‘z navbatida yaratilgan sharoitlar sifati bilan aniqlanadi. Shuning uchun ta’lim natijalarini ta’lim

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

jarayonining sifati va yaratilgan shart-sharoitlar sifati bilan uzviy bog‘liq holda baholash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ta’lim sifatini biz ta’lim jarayoni, oliy ta’lim muassasalarida sifatli ta’lim olish uchun yaratilgan shart-sharoitlar va natijalar sifati uchburchagi ko‘rinishida talqin etamiz. Yuqoridagilarni umumlashtirish jarayonida ta’kidlash mumkinki, «sifat» – bu murakkab falsafiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ayni paytda tizimli kategoriya bo‘lib, standartlashtirish bilan dialektik bog‘liqdir. Ta’lim sifati tushunchasi ta’lim jarayoni subyektlari nuqtayi nazaridan hamda ta’lim muassasasi o‘zining nuqtayi nazaridan aniqlanishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Правила оценки участников конкурса на соискание премии Правительства Республики Казахстан «За достижения в области качества». – Астана, 2003.
2. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Мищенко А.И., Шиянов Е.Н. Педагогика. – М.: Школьная пресса, 2005 – 510 с.
3. TQM – XXI. Проблемы, опыт, перспективы. Под ред. В.Л.Рождественского и В.А.Качалова – М.:ИздАТ, 1997. Вып 1. - 192 с.
4. John W. Morgan. Lifelong Learning, Entrepreneurship and Social Development: The Role of Higher Education. EURASHE, Prague, 21–23 May 2009.
5. Kis V. Quality Assurance in Tertiary Education: Current Practices in OECD Countries and a Literature Review on Potential Effect, OECD, 2005.
6. Зимняя И. А. Ключевые компетенции новая парадигма результата образования. // Высшее образование сегодня. — 2005. — № 5. — С. 27−32.
7. ISO 9000:2000 Система менеджмента качества. Основные положениия и словарь.
8. ISO 9001:1994 Системы качества. Модель для обеспечения качества при проектировании, разработке, производстве, монтаже и обслуживании.
9. Конти Тито. Самооценка в организациях. М.: Стандарты и качество, 2000. - 328 с.
10. https://masterjournals.com/index.php/crjp/article/view/1558
11. https://sciencebring.com/index.php/ijasr/article/view/376

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАТSIЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉[**Yodgor Turganov**,o‘qituvchi, **Asqar Qo‘shmurodov**, o‘qituvchi] [**Ёдгор Турганов**, препадователь, **Аскар Кошмуродов**, препадователь], [**Yodgor Turganov**, teacher, **Askar Koshmurodov**, teacher]; manzil: 130100, O'zbekiston, Jizzax viloyati, Shahar: Jizzax, Sh.Rashidov ko'chasi, 4 [адрес: 130100, Узбекистан, Джизакская область, Город: Джизак, улица Ш.Рашидова, 4], [address: 130100, Uzbekistan, Jizzakh region, City: Jizzakh, Sh.Rashidov street, 4]; e-mail: turganovyodgor@gmail.com asqarqushmurodov@mail.ru

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original paper

1-SINF O‘QUVCHILARINI O‘QISHGA O‘RGATISH METODIKASI

© O.S. Usmonova[1]✉

[1]Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: birinchi sinf o'quvchilariga o'qishni o'rgatish ularning ta'lim yo'lidagi muhim poydevor hisoblanadi. O'qishni o'rgatishning samarali metodologiyasi o'quvchilarning akademik muvaffaqiyati va umrbod ta'lim olishini qo'llab-quvvatlaydigan savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun juda muhimdir. Ushbu maqola birinchi sinf o'quvchilariga o'qishni o'rgatishning turli metodologiyalarini o'rganadi, dalillarga asoslangan strategiyalar va eng yaxshi amaliyotlarga e'tibor beradi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi birinchi sinf sinflarida o'qishni o'rgatishning samarali usullarini o'rganishdir. Tadqiqot asosiy ta'lim strategiyalarini aniqlashga, ularning o'qishni rivojlantirishga ta'sirini baholashga va o'qituvchilarga yosh o'quvchilar uchun o'qishni o'rgatish bo'yicha tavsiyalar berishga harakat qiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot miqdoriy va sifatli tadqiqotlarni birlashtirgan aralash usullardan foydalanadi. Materiallarga o'quv dasturlari bo'yicha qo'llanmalar, o'quv resurslari va baholash vositalari kiradi. Usullar sinfda kuzatishlar, o'qituvchilar va ota-onalarning so'rovlari va standartlashtirilgan testlar va norasmiy baholashlar orqali o'quvchilarning o'qish yutuqlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Ma'lumotlarni tahlil qilish o'qishni o'rgatish bo'yicha turli metodologiyalar samaradorligini baholash va eng yaxshi amaliyotlarni aniqlashga qaratilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: topilmalar shuni ko'rsatadiki, birinchi sinf o'quvchilarini o'qishga o'rgatishda fonetikani, butun tilni va boshqariladigan o'qishni birlashtirgan muvozanatli savodxonlik yondashuvi yuqori samarali. Fonika bo'yicha ko'rsatmalar o'quvchilarga harflar va tovushlar o'rtasidagi munosabatni tushunishga yordam beradi, bu ularga so'zlarni dekodlash imkonini beradi. Butun til yondashuvlari ma'no va kontekstga urg'u beradi, o'qish va tushunish qobiliyatini rivojlantiradi. Yo'naltirilgan o'qish o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan maqsadli ko'rsatmalarni beradi.

XULOSA: tadqiqot birinchi sinf o'quvchilari uchun o'qishni o'rgatishda kompleks va muvozanatli yondashuv zarur degan xulosaga keldi. Fonetikani, butun tilni va boshqariladigan o'qish strategiyalarini birlashtirib, o'qituvchilar erta savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga samarali yordam berishi mumkin.

Kalit so‘zlar: savod o‘rgatish, ko‘rgazmali qurol, yakka-yakka o‘qish, shivirlab o‘qish, tovush-harf, kichik guruhlarda o‘qish, xor bo‘lib o‘qish.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Iqtibos uchun: Usmonova O.S. 1-sinf o‘quvchilarini o‘qishga o‘rgatish metodikasi. // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 267–272.

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ПЕРВЫХ КЛАССОВ ЧИТАНИЮ

© О.С.Усмонова[1]✉
[1]Ферганский государственный университет, Фергана, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: обучение чтению первоклассников является важнейшим основополагающим шагом в их образовательном пути. Эффективные методики обучения чтению необходимы для развития навыков грамотности, которые будут способствовать академическим успехам учащихся и их обучению на протяжении всей жизни. В этой статье рассматриваются различные методики обучения чтению первоклассников с упором на научно обоснованные стратегии и передовой опыт.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является изучение эффективных методик обучения чтению в классах первых классов. Исследование направлено на определение ключевых стратегий обучения, оценку их влияния на развитие чтения и предоставление рекомендаций педагогам по улучшению обучения чтению юных учащихся.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использован смешанный подход, сочетающий количественные и качественные исследования. Материалы включают в себя учебные пособия для чтения, учебные ресурсы и инструменты оценки. Методы включают наблюдение в классе, опросы учителей и родителей, а также анализ прогресса учащихся в чтении с помощью стандартизированных тестов и неформальных оценок. Анализ данных направлен на оценку эффективности различных методологий обучения чтению и выявление передового опыта.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: полученные результаты показывают, что сбалансированный подход к обучению грамоте, который объединяет фонетику, целостный язык и управляемое чтение, очень эффективен при обучении первоклассников чтению. Обучение фонетике помогает учащимся понять взаимосвязь между буквами и звуками, что позволяет им расшифровывать слова. Целостные языковые подходы подчеркивают значение и контекст, воспитывая любовь к чтению и навыки понимания. Чтение под руководством инструктора обеспечивает целенаправленное обучение, адаптированное к индивидуальным потребностям учащихся.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в исследовании делается вывод о том, что для первоклассников необходим комплексный и сбалансированный подход к обучению чтению. Объединив фонетику, целостный язык и стратегии управляемого чтения, преподаватели могут эффективно поддерживать развитие ранних навыков грамотности.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Ключевые слова: грамотность, наглядные пособия, индивидуальное чтение, чтение шепотом, звукобуквенное чтение, чтение в малых группах, хоровое чтение.

Для цитирования: Усманова О.У. Методика обучения первых классов читанию // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 267–272.

METHODOLOGY FOR TEACHING FIRST CLASSES READING

© Odinaxon S. Usmonova[1]✉
[1] Fergane state university, Fergene, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: teaching reading to first-grade students is a critical foundational step in their educational journey. Effective reading instruction methodologies are essential for developing literacy skills that will support students' academic success and lifelong learning. This article explores various methodologies for teaching reading to first-grade students, focusing on evidence-based strategies and best practices.

AIM: the aim of this study is to examine effective methodologies for teaching reading in first-grade classrooms. The study seeks to identify key instructional strategies, assess their impact on reading development, and provide recommendations for educators to enhance reading instruction for young learners.

MATERIALS AND METHODS: the study employs a mixed-methods approach, combining quantitative and qualitative research. Materials include reading curriculum guides, instructional resources, and assessment tools. Methods involve classroom observations, surveys of teachers and parents, and analysis of student reading progress through standardized tests and informal assessments. Data analysis focuses on evaluating the effectiveness of various reading instruction methodologies and identifying best practices.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings indicate that a balanced literacy approach, which integrates phonics, whole language, and guided reading, is highly effective in teaching first-grade students to read. Phonics instruction helps students understand the relationship between letters and sounds, enabling them to decode words. Whole language approaches emphasize meaning and context, fostering a love for reading and comprehension skills. Guided reading provides targeted instruction tailored to individual student needs.

CONCLUSION: the study concludes that a comprehensive and balanced approach to reading instruction is essential for first-grade students. By combining phonics, whole language, and guided reading strategies, educators can effectively support the development of early literacy skills.

Key words: literacy, visual aids, individual reading, whispered reading, sound-letter, small group reading, choral reading.

For citation: Odinaxon S.Usmanova. (2024) 'Methodology for teaching first classes reading', Inter education & global study, (4(2)), pp. 267–272. (In Uzbek).

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Ma'lumki, savod o'rgatish, o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarga tovush va harfni tanishtirish, ularning to'g'ri talaffuzini o'rgatish orqali bolalarda to'g'ri, ongli, ifodali o`qish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, o`quvchjlar lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o`stirish, bilimini boyitish, mavhum tafakkurni shakllantirish, eshitish, qabul qilish sezgisini o`stirishda xam bu davr mas'uliyatliligi bilan alohida o'rin tutadi. Tayyorgarlik davri o'qishda o'rgatish uchun zamin hozirlaydi. Bu davrda bolalarda o'zgalar nutqining eshitish, diqqatni to'plash, til birikmalarini (tovush, bo'g'in, so'z, gap) farqlash, ajratish, ularning vazifalarini anglash kabi xususiyatlar shakllanadi. Bular o'quvchilarning o'qishni muvaffaqyatli egallashlariga yordam beradi.

O'qishga o'rgatish uchun avvalo o'quvchi tovush va harf bilan yaxshi tanishtirilishi lozim. Tovush va harf bilan tanishtirishda bo'g'indan tovushni ajratish tamoyiliga rioya qilinadi. Harf bilan tanishtirish bir necha xil yo`nalishda amalga oshirilishi mumkin:

1.Mazmunli rasm yuzasidan savol-javob usuli bilan bog'lanishli hikoya tuzdiriladi. Undan kerakli gap, so'ng kerakli so'z ajratib olinadi, so'ngra so'z ustida yuqoridagi kabi tahlil ishlari uyushtiriladi.

2.So'z asos qilib olinadi. Analitik mashqlar yordamida o'rganiladigan tovush ajratib olinadi: ot. O`qiltuvchi ot rasmini kursatadi, o'quvchilar uning nomini – so'zni aytadi. O'qituvchi o tovushini cho'zib (o-o-o-o t) aytadi va qaysi tovushni cho'zib aytayotganini o'quvchilardan so'raydi. O'quvchilar o tovushini aytgach, uning xususityalari haqida savol-javob o'tkaziladi. O tovushli so'zlar o'ylab toptiriladi. Shundan so'ng o harfi kesma harfdan yoki rasmli alifbodan ko'rsatiladi. Bunda o harfining shaklini esda olib qolishlariga alohida e'tibor beriladi.

3.O'rganilgan harflar ichiga bugun o'rganiladigai harf aralashtirib quyiladi.M:T harfi. Bolalar uning ichidan notanish harfni ajratadilar, so'ng o`qiltuvchi bu harf ifodalaydigan tovushni aytadilar. O'quvchilar tovushning xususiyatlarini aytadilar. Shu harfni kesma harflar ichidan topib, kitob sahifasidan, rasmli alifbodan ko'rsatadilar. Shu tariqa tovush-harf bilan tanishtirilgach, o'qishga o'rgatish ustida ishlanadi.

O'qishga o'rgatishda bo'g'in asos qilib olinadi. Buning uchun o'qituvchida bo'g'in jadvali bo`lishi lozim. Bo'g'in jadvali asosida o'qish namunasi ko'rsatiladi, ya'ni harflab emas, ichida, birinchi harfni ko'z bilan ko'rib, uning nomini dilda saqlab, ikkinchi harfni ko'rish va ikkalasini bog'lab, unlini mo'ljallab ulab aytish tushuntiriladi. Bo'g'inni o'qish o'qituvchining namunasi asosida doimiy ravishda xar bir darsda izchil olib boriladi. Bunda quyidagi kabi jadvaldan foydalanish mumkin. Bunda «Alifbe» sahifalaridagi so'zlarni oldin bo'g'inga bo'lish, so'ng o'qishni mashq qilish yaxshi samara beradi. O'qituvchining namunali o'qishidan so'ng xor bilan o'qish, yakka-yakka o'qishdan, shivirlab o'qishdan foydalaniladi. Ayniqsa, sekin o'qiydigan o'quvchilari bo`lgan sinflarda xor bilan o'qitish o'qishni tezlashtirishga yordam beradi. Sinf o'quvchilarining o'qish ko'nikmalaridan kelib chiqib, matndagi so'zlarni harf xattaxtasiga bo'g'inlarga bo`lib yozish, o'rganilgan harflarni hisobga olgan holda qo'shimcha so'z birikmalari, gaplar tuzib yozish va o'qitish usulidan ham foydalaniladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Ma'lumki, «Alifbe» sahifalarida bo‘g‘in tuzilishi murakkablashib boradi. Shuning uchun o‘qituvchi har bir bo‘g‘in tuzilishining murakkabligiga qarab ish usullarni belgilab olishi zarur. Masalan, uch tovushdan tuzilgan, to‘rt tovushdam tuzilgan bo‘g‘inlarni o‘qishga o‘rgatish ham o‘ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunda o~lam, Man-non, ko‘rinishdagi bo‘g‘inlarda — o~la:m, Ma: n~ no: n tarzidagi qo‘shimcha chiziqdan, bodring, do‘st tipidagi bo‘g‘inda bod- ring, do‘st tarzidaga qo‘shimcha chiziqlardan foydalaniladi. So‘zlarni o‘qishga o‘rgatishda bilib o‘qitishdan tashqari jadvallar xam yaxshi samara beradi,

ku: k ku
ku: ch
ku: p

Umuman olganda, har bir o‘qish darsida albatta bo‘g‘in tuzilishi murakkab so‘zlarni o‘qish mashqi utkazilishi lozim. Bu usul o‘quvchilarda o‘qish malakasining takomillashuviga yordam beradi.

O‘qishga o‘rgatishda so‘zlarni va gaplarni to‘ldirib o‘qish ko‘nikmalarini xosil qilish o‘quvchini gap tuzishga, tez fikrlashga yo‘naltiriladi. O‘quvchi tushirib qoldirilgan harf va so‘zni rasmga qarab topadi, uning gap mazmuniga mos yoki mos emasligiga e'tibor beradi, o‘rtoqlariga nisbatan tez topib, o‘qituvchining rahmatiga sazovor bo‘lishga intiladi.

«Alifbe» darsligidagi matnlarda turli tinish belgilari ishlatilgan. Ular shularga mos ohang tanlashni, to`xtash, pauza qilish o‘rinlarini belgilab olishni taqazo etadi. Bunda ham o‘qituvchining tusuntirishi (birinchi uchragan tinish belgini izohlashi) va ifodali o‘qish namunasini ko‘rsatishi katta ahamiyat kasb etadi. Ifodali o‘qilgan matngina tushunarli bo`ladi.

Har bir predmetda bo‘lgani kabi o‘qish darslarida ham ta’lim-tarbiya birligiga e'tibor beriladi. O‘qish darslarida tarbiya o‘qilgan matnning ongli o‘zlashtirilishiga bog‘liq. O‘quvchi matnda fikr nima haqida borayotganini anglasagina, o‘zida shunday xislatlarni shakllantirishga harakat qiladi. Ikkinchidan esa yaxshi inson bo‘lish uchun o‘qishning zarurligini anglaydi. Shuning uchun ongli o‘qishni ta'minlashda matn bilan unga ishlangan mazmunli rasmlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlashtirishga, matn yuzasidan savollar berishga diqqat qaratish lozim. Masalan, rasmni kuzatish, endi matnni, uning matnda nima haqida gapiriladi? Rasmda nima tasvirlangan? Ular orasida bog‘lanish bormi? Matn mazmunini rasmga qarab so‘zlab bering.

Yoki: Bolalar qaerga bordilar? qizning ismi nima? Bolaning ismi-chi? Ali, Lola nima qildi? Ular qanday lolalar terdilar?

Demak, o‘qish o‘qilganlarni uzlashtirishga yo`naltirilgan bo`lishi lozim, Shundagina matndagi asosiy fikr, ilgari surilayotgan goya o‘qituvchilar tomonidan o‘zlashtiriladi. So‘ng so‘z va matnlar yod olingan taqdirda ham o‘quvchiniki bo‘lib qoladi.

O‘qishning ongliligini va ta'sirchanligini ta'minlash uchun matn mazmunini o‘quvchilarning ko‘rgan-kechirganlarini, taassurotlari bilan bog'lash lozim. Shunda o‘quvchida o‘qishga, o‘rganishga qiziqish ortadi. Ongni o‘sishni amalga oshirishda lug‘at ustida ishlash xam muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, 51-sahifada uvol, rizq-ro‘z so‘zlari

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

bor. Ularning ma'nosi ustida to‘xtalish, birinchidan, fikrni oydinlashtirsa, ikkinchi tomondan tarbiyalashga ham xizmat qiladi. She'r, tez aytish, topishmoq, maqol, xikmatli so‘zlardan o‘qitish, yod oldirish ham o‘quvchilarni o‘qishga qiziqishini oshiradi, o‘qish malakasini shakllantiradi, xotirasini mustahkamlaydi. O‘qish darslarining uchdan ikki qismi o‘qishni mashq qlishga ajratilishi lozim.

Demak, o‘quvchilarni o‘qishga o‘rgatish, ularniig o`qish sur'atini oshirish, ifodali va ongli o‘qish elementlarini shakllantirish, tarbiyalash o‘qish darslarining muhim vazifalari hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Baxtiyorova H. Ona tili va o‘qish savodxonligi, 1-qism. (1-sinf uchun darslik) –Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 104 b.

2. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Baxtiyorova H. Ona tili va o‘qish savodxonligi, 2-qism. (1-sinf uchun darslik) – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 104 b.

3.Gapparova T., Shodmonov E. , Eshturdiyeva G.I , “Alifbe ”; “Savod ” ; “ Ona tili ” T ., “O‘qituvchi ”1999 yil

4. Safarova R . va boshqalar “Alifbe ” T ., 2006 yil

5. G‘ulomova X., Yo‘ldasheva Sh . “ Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi ” ma’ruza matnilari T., 2006 yil

6. “ Boshlang‘ich sinflarning takomillashtirilagan davlat ta’lim standarti ” Boshlang‘ich ta’lim 2006 , 5- son .

7. “ Boshlang‘ich ta’lim takomillashtirilagan o‘quv dasturi ” Boshlang‘ich ta’lim 2006 , 5- son .

8.Hudoberganova M. “ Bayonlar to‘plami ” Toshkent 1995

9.O‘rta umumiy ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Odinaxon Usmonova Sobirovna**,o‘qituvchi [**Odinaxon Usmonova Sobirovna,** преподаватель], [**Odinaxon S. Usmonova**, teacher]; manzil: O'zbekiston, Farg'ona viloyati, 712000, Farg'ona, ko'chasi Murabbiylar,19 [адрес: Узбекистан, Ферганская область, 712000, Фергана, ул. Мурбабылар, 19], [address: O'zbekiston, Farg'ona viloyati, 712000, Farg'ona, ko'chasi Murabbiylar, 19]; E-mail: odinahon@mail.ru

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original paper

O‘QITUVCHILARNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

© U.Sh. Yakubova[1]✉

[1]Termiz davlat pedagogika instituti, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish turli omillar ta’sirida murakkab jarayon bo‘lib, tarbiyachining pedagogik madaniyati hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu madaniyat o‘qituvchilarning bolalar bilan o‘zaro munosabatlarida qo‘llaydigan, ularning milliy o‘ziga xosligiga munosabatini shakllantiradigan qadriyatlar, e’tiqod va amaliyotlarni o‘z ichiga oladi.

MAQSAD: ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishda pedagogning pedagogik madaniyatining ahamiyatini o'rganishga qaratilgan. U bolalarda ijobiy milliy o‘zlikni tarbiyalashda o‘qituvchilarning rolini ularning o‘qitish amaliyoti va o‘zaro munosabatlari orqali o‘rganishga intiladi.

MATERIALLAR VA USULLAR: tadqiqot o'qituvchilar bilan suhbatlar va ularning bolalar bilan o'zaro munosabatlarini kuzatish asosida sifatli yondashuvdan foydalanadi. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy g'ururni rag'batlantirishning samarali strategiyalari haqida tushuncha berish uchun tegishli adabiyotlar va amaliy tadqiqotlar ko'rib chiqiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: topilmalar shuni ko'rsatadiki, tarbiyachining pedagogik madaniyati bolalarda milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bolalarda milliy g‘urur tuyg‘usini tarbiyalashda o‘zlari milliy o‘zlikni anglaydigan, madaniy unsurlarni o‘z ta’limiga singdiradigan pedagoglar samaraliroq bo‘ladi. Bundan tashqari, milliy merosni targ‘ib qiluvchi yoshga mos tadbirlar va materiallardan foydalanish bolalarda daxldorlik va g‘urur tuyg‘usini kuchaytirishi mumkin.

XULOSA: xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishda tarbiyachining pedagogik madaniyati hal qiluvchi rol o'ynaydi. Pedagoglar o‘z qadriyatlari, e’tiqodlari va amaliyotlari orqali bolalarda ijobiy milliy o‘zlikni tarbiyalash orqali o‘z milliy merosidan g‘ururlanadigan avlod kamolotiga hissa qo‘shishi mumkin.

Kalit so'zlar: ijtimoiy pedagogika, ijtimoiy-pedagogik kompetentsiya, metod, holat, ilohiyot, mustaqil ish.

Iqtibos uchun: Yakubova U.Sh. O‘qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentliligini rivojlantirish metodikasi. // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 273–283.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА ВОСПИТАТЕЛЯ В ФОРМИРОВАНИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ГОРДОСТИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

© У.Ш. Якубова[1]✉
[1]Термизский государственный педагогический институт, Термиз, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: формирование чувства национальной гордости у детей дошкольного возраста представляет собой сложный процесс, находящийся под влиянием различных факторов, решающую роль в котором играет педагогическая культура воспитателя. Эта культура включает в себя ценности, убеждения и практики, которые педагоги используют во взаимодействии с детьми, формируя их отношение к своей национальной идентичности.

ЦЕЛЬ: данная статья направлена на исследование значения педагогической культуры воспитателя в формировании чувства национальной гордости у детей дошкольного возраста. Целью исследования является изучение роли педагогов в формировании позитивной национальной идентичности у детей посредством их педагогической практики и взаимодействия.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использован качественный подход, основанный на интервью с педагогами и наблюдениях за их взаимодействием с детьми. Кроме того, проводится обзор соответствующей литературы и тематических исследований, чтобы получить представление об эффективных стратегиях развития национальной гордости у детей дошкольного возраста.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: полученные данные свидетельствуют о том, что педагогическая культура педагога существенно влияет на развитие чувства национальной гордости у детей. Педагоги, которые сами демонстрируют сильное чувство национальной идентичности и интегрируют культурные элементы в свое обучение, более эффективно воспитывают национальную гордость у детей. Кроме того, использование соответствующих возрасту занятий и материалов, прославляющих национальное наследие, может усилить у детей чувство принадлежности и гордости.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: педагогическая культура воспитателя играет решающую роль в формировании чувства национальной гордости у детей дошкольного возраста. Воспитывая у детей позитивную национальную идентичность через их ценности, убеждения и обычаи, педагоги могут внести вклад в развитие поколения, гордящегося своим национальным наследием.

Ключевые слова: социальная педагогика, социально-педагогическая компетентность, метод, случай, теология, самостоятельная работа.

Для цитирования: Якубова У.Ш. Педагогическая культура воспитателя в формировании национальной гордости у детей дошкольного возраста. // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 273–283.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

PEDAGOGICAL CULTURE OF THE EDUCATOR IN THE FORMATION OF A SENSE OF NATIONAL PRIDE IN CHILDREN OF PRESCHOOL AGE

©Umida Sh. Yakubova[1]✉
[1]Termiz State Pedagogical Institute,Termiz, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the formation of a sense of national pride in children of preschool age is a complex process influenced by various factors, with the pedagogical culture of the educator playing a crucial role. This culture encompasses the values, beliefs, and practices that educators employ in their interactions with children, shaping their attitudes towards their national identity.

AIM: this article aims to explore the significance of the pedagogical culture of the educator in the formation of a sense of national pride in children of preschool age. It seeks to examine the role of educators in fostering a positive national identity in children through their teaching practices and interactions.

MATERIALS AND METHODS: the study utilizes a qualitative approach, drawing on interviews with educators and observations of their interactions with children. Additionally, a review of relevant literature and case studies is conducted to provide insights into effective strategies for promoting national pride in preschool children.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings suggest that the pedagogical culture of the educator significantly impacts the development of a sense of national pride in children. Educators who exhibit a strong sense of national identity themselves, and who integrate cultural elements into their teaching, are more effective in fostering national pride in children. Additionally, the use of age-appropriate activities and materials that celebrate national heritage can enhance children's sense of belonging and pride.

CONCLUSION: in conclusion, the pedagogical culture of the educator plays a crucial role in the formation of a sense of national pride in children of preschool age. By fostering a positive national identity in children through their values, beliefs, and practices, educators can contribute to the development of a generation proud of their national heritage.

Key words: social pedagogy, social-pedagogical competence, method, case, theology, independent work.

For citation: Umida Sh. Yakubova (2024) ‘Pedagogical culture of the teacher in the formation of national pride in preschool children’, // Inter education & global study. 2024. No. (4(2)). pp. 268–278. (In Uzbek)

O‘quv dasturlari ta’lim standartlarini amalga oshirish vositasi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida berilgan rasmiy atama hisoblanadi. Pedagogik atamalar lug‘atida o‘quv dasturi – o‘quv fani mazmunining qisqacha izohi deb keltirib o‘tilgan[1;55-b]. O‘quv dasturi — ta’lim tizimidagi har bir o‘quv fanining mazmuni va

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

o‘tilish tartibini, talabalar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim hamda ko‘nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi. O‘quv dasturi fanning mazmuni qisqacha bayoni, talabalarning bilim va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablardan tashkil topgan. O‘quv fan dasturi (o‘quv dasturi) – normativ hujjat bo‘lib, u har bir aniq o‘quv fani sohasidagi bilimlar va ko‘nikmalarga oid talablarni, shuningdek, o‘quv materialining mazmuni, uni o‘rganish izchilligi hamda alohida mavzularga ajratilgan soatlar miqdorini belgilab beradi.

Biz ijtimoiy pedagogika fanining murakkab integrativ xususiyatini hisobga olib o‘quv dasturini ko‘rib chiqish zarur deb hisoblaymiz. Dasturlarni o‘rganib chiqib, taklif qilinayotgan kurslarning maqsadlari va vazifalarini aniqladik. Ko‘plab dasturlarda maqsad ikki komponentdan, ya’ni – talabalarga ijtimoiy pedagogik bilimlar berish va ularni ijtimoiy sohadagi amaliy faoliyatni amalga oshirishga tayyorlashdan iborat bo‘lib “talabalarda ijtimoiy tarbiya subyektlari va jarayoniga nisbatan gumanistik ijtimoiy qadriyatlar, yangicha ijtimoiy pedagogik tafakkurni, o‘zlarining ijtimoiy tajribalarini anglashni shakllantirishni” maqsad qilib qo‘ygan.

Turli dasturlarning tarkibida ijtimoiy pedagogika paydo bo‘lishi va rivojlanishiga e’tibor qaratilgan bo‘lib, bu masalani o‘rganish uchun “Xorijda ijtimoiy pedagogikaning ijtimoiy fan sifatida rivojlanish tarixi”, “O`zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning paydo bo`lishi madaniy-tarixiy ijtimoiy-huquqiy shart sharoitlari”, “Mustaqil O`zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanishi”, “Islom ta`limoti va xalq pedagogikasida ijtimoiy pedagogik g‘oyalar” kabi mavzular tinglovchilarda gumanistik qadriyatlar shakllanishi uchun qiziqarli va ahamiyatli mavzular sifatida taklif qilinadi.

Talabalar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan ijtimoiy pedagogikaning asosiy tushunchalari: “Ijtimoiy pedagogika fan sifatida”, “Ijtimoiy pedagogikaning kategoriyalari”, “Ijtimoiy pedagogikaning tamoyillari.”, “Ijtimoiy pedagogikaning kasbiy faoliyati”, “Ijtimoiylashuv ijtimoiy pedagogik hodisa sifatida”, “Ijtimoiy-pedagogik faoliyatida texnologiyalar”, “Ijtimoiy pedagogikada me`yorlardan chekinish”, “Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan tashkil etiladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat” kabi mavzular birinchi modulda tarkib topgan. Ikkinchi modul “Ijtimoiy pedagogika fanining amaliy ahamiyati” deb nomlanib “Umumta’lim maktablari o`quvchi-qizlarining ijtimoiy faolligini oshirish usullari va metodlari”, “Ijtimoiy pedagogning maktab yoshidagi bolalar bilan ish yuritishi”, “Mehribonlik uylaridagi ijtimoiy-pedagogik faoliyat”, “Ijtimoiy pedagogning reabilitatsion xizmati modeli va mexanizmi”, “Oila, mahalla va ta`lim muassasasi ijtimoiy–pedagogik hamkorligi”, “Deviant hulq. Ijtimoiy pedagogik muammo sifatida”, “Ijtimoiy pedagogikada oila tiplari va turlari” kabi mavzularni o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy pedagogika fani o‘quv dasturida keltirib o‘tilgan amaliy mashg‘ulotlar yordamida talabalarga ijtimoiy pedagogika tajribasi tahliliga dolzarb tus berish, o‘quv mashg‘ulotlariga tayyorgarlik jarayonida ijtimoiy pedagogik texnlogiyalardan foydalanib, adabiyotlar va hujatlar bilan mustaqil ishlash imkonini beradi. Amaliy mashg‘ulot vazifasi sifatida berilgan “Oilaning ijtimoiy pasporti” hamda “Xavf ostida bo‘lgan oilaning ijtimoiy

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

pasporti”larini to‘ldirish jarayonida talaba o‘zini aynan ijtimoiy pedagog rolida tasavvur qiladi. Shu bilan birga bo‘lajak kasbining ahamiyatini, ijtimoiy muhitda faoliyat yuritish ko`nikmalarini egallaydi. Amaliy mashg‘ulotlar talabalarda asosiy ijtimoiy pedagogik qobiliyatlar va ko‘nikmalar shakllanishiga xizmat qiladi, maxsus topshiriqlarni bajarish esa asosiy ijtimoiy tarbiya metodlarini idrok qilish va o‘zlashtirish imkonini beradi. Seminarlar va amaliy mashg‘ulotlar ajratilgan asosiy tushunchalar, shuningdek har bir mavzu bo‘ychicha tegishli savollar, topshiriqlar va keyslardan tashkil topgan. Bu savollarni muhokama qilishda ma’ruza mashg‘ulotlarida olingan bilimlardan foydalaniladi, pedagogik keys va kazuslarni bajarish davomida talabalar tavsiya qilingan adabiyotlarni qayta idrok qilishib, amaliy va hayotiy tajribalaridan foydalanishadi. Shunday qilib, tahlil qilinayotgan dasturlar ta’limning amaliy yo‘nalganligini amalga oshiradi, uning tarkibiga kiritilgan axborotlar talabalarga amaliy faoliyatda mazkur bilimlarni qo‘llash imkonini beradi.

O‘quv dasturini yana ham samarali o‘zlashtirish uchun munozara savollari, seminar va amaliy mashg‘ulotlarning rejalari, mustaqil ta’lim va refaratlarning manunaviy mavzulari, asosiy va qo‘shimcha adabiyotlarning ro‘yxati taqdim qilinadi.

“Ijtimoiy pedagogika” fanining o‘quv dasturi pedagogika va psixologiya, pedagogika (qo‘shimcha tarbiya fani o‘qituvchisi), maktabgacha ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi ixtisosligi yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan. Bizning tadqiqotimiz nuqtai nazaridan dasturning maqsadlari quyidagilardan iborat: talabalarning boshlang‘ich pedagogik tayyorligini ta’minlash, kundan-kunga yangilanayotgan jamiyatda hayotiy faoliyatni tashkil qilishga shaxsning psixologik- pedagogik tayyorgarligini shakllantirish;ijtimoiy pedagogik tafakkur, ijtimoiy kompetentlik, shaxsning pedagogik savodxonligini rivojlantirish, oilaviy hayotga tayyorlash, ijtimoiy muhitda faoliyat yuritish, o‘z hayotini mustaqil tashkil qilish va ta’minlashning ba’zi asoslari sifatida shakllantirish;kasbiy ta’lim, mustaqil hayotiy tajribani refleksiya qilish vositalari, turli ijtimoiy amaliyotga jalb qilish natijasida talaba shaxsini rivojlantirish.

Ko‘rinib turibdiki, dastur keng ixtisoslik doirasidagi mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan. Yosh mutaxassis shaxsini uning kasbiy shakllanishi sharti sifatida rivojlatirish dasturning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagogikaning boshqa soxalariga nisbatan ijtimoiy pedagogika fani ilmiy adabiyotlari kamchiligini aytishimiz joiz. Fanning asosiy adabiyotlari sirasiga pedagogika fanlari doktori, professor N. Egamberdiyeva tomonidan 2009-yilda chop etilgan Ijtimoiy pedagogika darsligi, R. A Mavlonova, N.X. Vohidovalarning “Ijtimoiy pedagogika” o‘quv qo‘llanmasi[7;1112], M. A. Galaguzova va hammualliflari birgalikda 2008-yilda yozilgan “Ijtimoiy pedagogika” hamda 2013-yilda A.V. Mudrik tomonidan yaratilgan “Ijtimoiy pedagogika” darsliklari mavjud.[2;59,99,124]

Ijtimoiy pedagogika fani o‘quv dasturlari Davlat ta’lim standartini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi va biz uni davlat ta’lim normalari sifatida qabul qilingan asosiy parametrlar tizimi sifatida tushunamiz. O‘rganayotgan dasturlarimiz asosan ijtimoiy pedagoglar va ijtimoiy hodimlarni tayyorlashga yo‘naltirilgan. Xozirgi kunga kelib yurtimizda ijtimoiy

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

pedagog shtati mavjud emas. 2021-yilda Oliy ta'limda tyutor lavozimi joriy qilinishi va Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning 2020-yil 13 oktabrdagi PQ-4860-sonli "alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan umumta'lim muassasalariga tyutor (yordamchi pedagog xodim) sifatida tegishli malakaga ega volontyorlar va oliy ta'lim muassasalarining pedagogika yo'nalishidagi yuqori kurs talabalari pedagogik amaliyot davrida ixtiyoriylik asosida faoliyat yuritishlari mumkinligi aytib o'tilgan[5]. Biz ijtimoiy pedagogika fanini yuqorida ko'rib chiqqan pedagogika va psixologiya, pedagogika, maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi yo'nalishlari bilan bir qatorda barcha pedagogik yo'nalish talabalari o'qitilishi kerak deb hisoblaymiz. Maktabda ta'lim olayotgan o'quvchilarning ijtimoiy muammolari bir talay bo'lib, bu ular o'z vaqtida bartaraf etilmasa, muammoning murakkablashishi va bolani hayotiy vaziyatini qiyintlashtirishi mumkin. Biz bunday vaziyatdan chiqish uchun har bir o'qituvchini ijtimoiy pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorlash kerak deb hisoblaymiz. Ijtimoiy pedagogik yondashuv bugungi kunda, ayniqsa dolzarb bo'lib, o'qituvchi kasbiy kompetentliligining o'zagi tizimli ijtimoiy pedagogik bilim sanaladi.

"Ijtimoiy pedagogika" fani bo'yicha "Maktabgacha ta`lim pedagogikasi va psixologiyasi" yo'nalishi talabalari o'quv dasturi ishlab chiqdik.

O'quv fanining dasturi quyidagilarni o'z ichiga oladi: fanlararo xususiyatga ega va tarbiya vazifalari bilan bog'liq fanni o'rganish maqsadlari; fan mazmuni, hajmini ko'rsatgan holda o'quv mashg'ulotlari bo'yicha tizimlashtirish; asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati, o'qituvchiga metodik tavsiyalar (materiallar) va talabalarga metodik ko'rsatmalar bilan birga fanni o'quv-metodik ta'minlash; talablarning dasturni o'zlashtirish darajasiga ko'ra joriy, oraliq hamda yakuniy nazorat shakllari.

"Ijtimoiy pedagogika" fani bo'lajak o'qituvchilarni kasbga tayyorlashning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ta'limning asosiy yetakchi maqsadini biz talabalarning fanga oid bilimlarni o'zlashtirishlari va uni oliy ta'lim o'quv jarayni doirasida qo'llash bilan bir qatorda talabalar faoliyatining turli sohalarida amalga oshirish qobiliyatlarini rivojlantirish sifatida ko'rib chiqamiz. Ta'lim maqsadlarining bunday interpritatsiyasi bizga ijtimoiy pedagogik bilimlarni yakuniy natijasi va ta'lim sifati ko'rsatkichi sifatida emas, balki fanning yo'naltirilgan asosi sifatida belgilash imkonini beradi.

Bu fan pedagogikaning bir sohasi hisoblanib boshqa fanlar ("Psixologiya", "Ijtimoiy psixologiya", "Sotsiologiya") bilan yaqindan bog'liq bo'lib, talabalarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, umumkasbiy qobiliyatlarni takomillashtirish va bo'lajak pedagoglarning kasbiy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

"Ijtimoiy pedagogika" fanining mazmuni o'z ichiga ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarining mazmuni, talabalarning mustaqil ishlari dasturi va uni nazorat qilish shakllarini o'z ichiga oladi. Ta'lim murakkabligi, hajmi va mazmuni teranligi bo'yicha optimal tanlash uchun N.I. Liginaning tadqiqotida D.K. Babanskiy, P.I. Pidkasistiy tomonidan tanlangan quyidagi mezonlar va prinsiplardan foydalanish taklif qilinadi[3;129]: fan, ishlab

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

chiqarish, ijtimoiy hayot va madaniyat rivojining asosi yo‘nalishlarida aks etadigan mazmun yaxlitligi mezoni; muayyan malumotlarni o‘rganishga ajratilgan vaqtning ta’lim mazmuniga mosligi mezoni; ta’limning mazmun va protsessual jihatlari birligini hisobga olish mezoni; ta’lim mazmuni komponentlarining o‘zaro muvozanati va uyg‘unligini nazarda tutadigan ta’lim mazmunining strukturaviy yaxlitligi mezoni.

O‘quv materiali talabalar nafaqat lokal (predmet) bilimlar va ko‘nikmalarni, balki shaxsiy ijodiy, dunyoarash va xulq-atvor xislatlarini ham o‘zlashtira oladigan tarzda tanlangan. Mazkur fanni o‘rganishi natijasida talaba quyidagilarni bilishi kerak: ta’lim dargohida ijtimoiy pedagogik faoliyatning mazmuni, shakli va turlarini; o‘quvchilarni ijtimoiy tarbiyalash va ijtimoiylashuvi (ijtimoiylashuv natijalarining mazmuni, bosqichlari, omillari, mexanizmlari)ning o‘ziga xos jihatlarini; ijtimoiy pedagogika prinsiplari va ijtimoiy pedagogik tadqiqot metodlarini; oila va uning turlarini, turli tipdagi oilalar bilan ijtimoiy pedagogik ishlash shakllari va metodlarini; bolalar va kattalar bilash ishlashning barcha turlarida ijtimoiy pedagogik yondashuvlarni; ijtimoiy pedagogikaning asosiy tushunchalari va mezonlari mazmunini ochib berishi; o‘quvchilarning indiviual imkoniyatlarini rag‘batlantirish va rivojlantirish uchun ijtimoiy muhitning pedagogik ahamiyatini aniqlashi; bolalar va kattalarning ijtimoiy faoliyatni tashkil qilishni: kommunikativ madaniyat talablariga binoan pedagogik muloqotni amalga oshirishni; o‘quvchi shaxsi rivojlanishi jarayonida hayotiy faoliyatning asosiy sohalari imkoniyatlarini baholashni: ta’lim muassasalarida ijtimoiy tarbiya, ijtimoiy pedagogik faoliyat tajribasi va amaliyotini tahlil qilishni.

Har bir berilgan mavzu oldingi keltirilgan mavzuni puxta o‘zlashtirishni taqozo qiladi, bunga ko‘ra o‘zlashtirish umumiylikdan xususiylikka o‘tish prinsipiga binoan kechadi. Ma’ruzada berilgan ma’lumotlar vositasida o‘qitish ijtimoiy pedagogika bo‘yicha bilimlarga asos yaratadi, talabalarni ilmiy tadqiqot metodologiyasi bilan tanishtiradi va o‘quv mashg‘ulotlarining qolgan barcha shakllari bo‘yicha ishlar yo‘nalishini ko‘rsatadi. Ko‘rsatilgan mavzularga oid har bir ma’ruza uchta: ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni amalga oshiradi. “Ijtimoiy pedagogika” o‘quv fani bo‘yicha ma’ruzalari kursining mazmunini falsafiy, nazariy va metodologik jihatlarni o‘rganishni nazarda tutadi, ular ta’limni faollashtiradigan turli shakllar va metodlardan foydalanish imkonini beradi. Shu bois amaliy mashg`ulot jarayonida bo`lajak o`qituvchilarning ijtimoiy pedagogik kompetentliligini rivojlantirishda metodlardan foydalanishning ahamiyati katta. Quyida keltirilgan metod va usullar mashg`ulot jarayonining yanada qiziqarli bo`lishini ta’minlaydi.

«Charhpalak» metodi. Metodning maqsadi: ta’lim oluvchilarda muayyan mavzu bo‘yicha o‘zlashtirilgan axborotlarni analiz-sintez qilish, baholash va mustaqil-ijodiy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

1-bosqich. Talabalar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga bo‘linadi va ularga aniq mavzu bo‘yicha tayyorlangan tarqatma materiallar tarqatiladi;

2-bosqich. Berilgan harakat hususiyatlari ichidan o‘zlari to‘g‘ri deb topgan harakatni ko‘rsatilgan kataklar ichiga maxsus belgilar bilan belgilash tushuntiriladi;

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

3-bosqich. Har bir guruh a'zosi individual tarzada ko'rsatilgan kataklarga o'z javoblarni belgilaydi va o'qituvchi navbatdagi bosqichda guruhlarning javoblar varaqasini soat strelkasi tartibida almashtiradi;

4-bosqich. Bu harakat to har bir guruhning dastlabki ishi o'ziga qaytib kelguniga qadar takrorlanadi. Tarqatma materiallar o'z egalariga etib kelganidan so'ng o'qituvchi to'g'ri javoblarni o'qib eshittiradi.

5-bosqich. Talabalar to'g'ri javoblarni dastlabki belgilari bo'yicha tekshirib, har bir to'g'ri javobni «1» ball bilan baholaydilar.

6-bosqich. Trening yakunida o'qituvchi baholash mezonini o'qib eshittiradi va har bir talaba o'z-o'zini baholaydi. (Masalan, harakatlar 20 ta bo'lsa, bunda: 18-20 to'g'ri javob uchun «a'lo», 15-17 ta to'g'ri javob uchun «yaxshi», 12-14 ta to'g'ri javob uchun «qoniqarli» baho beriladi.)

3x4 organayzerini to'ldiring

Mavzuning asosiy mazmunini ochib berishga yordam beradi va "3x4" texnologiyasi orqali talabalarni mavzu yuzasidan tushuncha, tasavvurlari aniqlanadi.

3x4 organayzerini to'ldiring

Mavzuning asosiy mazmunini ochib berishga yordam beradi va "3x4" texnologiyasi orqali talabalarni mavzu yuzasidan tushuncha, tasavvurlari aniqlanadi.
Ta'lim tizim sifatida –bu .....

"Muammo" organayzerini to'ldiring

Rivojlanish psixologiyasining shakllanish tarixiga doir muammoli masalalarni yechimini topishga yordam beradi va "Muammo" usuli orqali muammo hal qilinadi.

Muammoning turi	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni echish yo'llari va sizning harakatingiz
Tarbiya borasidagi shaxs nazariyalarining Rivojlanish psixologiyasi fanidagi ahamiyatini asoslang?		

FSMU texnologiyasi: Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini bahs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o'rgatadi. Talabalarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F- fikringizni bayon eting,

S- fikringiz bayoniga sabab ko'rsating,

M- ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring,

U- fikringizni umumlashtiring.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

1-guruh Savol	Ijtimoiy pedagogika fanining shakllanishi omillari.....
F- fikringizni bayon eting	
S- fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
M- ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
U- fikringizni umumlashtiring	

"Munosabat" metodi

O'quv jarayonida metoddan foydalanish o'rganilayotgan muammo bo'yicha muayyan masalalarni hal etish, ma'lum jarayonning kelib chiqish sabablari, ularni bartaraf etish yo'llarini topish asosida talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, fikrni isbotlash va turli vaziyatlardan chiqa olish ko'nikma va malakalarni hosil qiladi.

Muammo	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni hal qilish yechimlari	Sizning xulosangiz
Individual o'qitishda faoliyatning mazmuni, metodlari va surati talabaning xususiyatlariga moslashtirilishi bu doim ham ta'lim sifatini oshirmaydi aksincha bilim ko'rsatgichini pasaytirmoqda.			

"Tushunchalar tahlili" metodi

Maqsadi: talabalarda mavzuga oid bilimlarni amalda qo'llash va tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish.

Ma'ruza o'quv jarayonini tashkil qilishning an'anaviy shakllaridan biri hisoblanadi. Biroq talabalar tomonidan nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtirish va idrok qilishga, balki faol bilish faoliyatida bilimlarni mustaqil o'zlashtirishlariga qaratilgan. Ma'ruza darslarida interfaol metodlaridan foydalanish talabalarga ta'lim berishning amaliy shakliga aylantiradi. Ijtimoiy voqelik, ijtimoiy pedagogik hodisalar va faktlarning tahlili bizga ma'ruzalarni yangi ko'rinishlarda tashkil qilishni, muammoli ma'ruza kabi shakllardan foydalanish imkonini beradi.

Tushunchalar	Mazmuni
Oila	
G'amxo'rlik	
Ziddiyatli tarbiya	
Qattiqqo'llik	
Tarbiya	
Ta'lim	

Muammoli ma'ruzalar ma'ruzaning mazmuniga, maqsadiga yo'naltirilgan holatda qo'shiladi. Ma'ruza mashg'ulotlarini muammoli bayon qilishdan foydalanish muhim didaktik ahamiyatga ega bo'lib zamonaviy fan va amaliyotning dolzarb muammolarini hal qilishga talabalar e'tiborini qaratadi. Biz ma'ruzalarni ishlab chiqishda asosiy didaktik tamoyillar va talablarga amal qilgan holda– yaxlitlik, ilmiylik, ochiqlik, onglilik, tizimlilik, oshkoralik kabi ta'lim shaklining o'ziga xosliklarini hisobga oldik. Yaxlitlik tamoyiliga ko'ra ma'ruza mashg'uloti maqsadi va mazmunining o'zaro bog'liqligiga asoslanib yagona tuzilishini

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

yaratishni ta’minlaydi. Ilmiylik tamoyili zamonaviy fan asosiy qoidalariga ma’lumotlarning mos kelishi, obyektiv faktorning ustuvorligi va ilgari surilayotgan qoidalarning isbotlanganligini taqozo qiladi. Ta’limning ochiqligi tamoyili o‘quv materialining mazmuni talabalarga tushunarli, hajmi o‘zlashtira olish darajasida bo‘lishi kerak. Onglilik tamoyili talabalarning diqqat-e’tiborini faollashtirish natijasida amalga oshiriladi va faol hamda mustaqil faoliyatni nazarda tutadi.

Ijtimoiy pedagogika kursi bo‘yicha amaliy yo‘nalganlik mazmundan tashqari seminar mashg‘ulotlari dasturida borligi bilan belgilanadi. Seminar oliy maktabda ta’lim turi (shakli) sifatida muhokama qilinayotgan mavzuning mazmuni va strukturasi yana ham to‘la ochilishiga yordam beradi, talabalarning eng yuqori faolligini ta’minlaydi, ta’lim va tarbiya vazifalari hal qilinishiga ko‘maklashadi. Seminar mashg‘ulotlari turlarining qulayligi murakkab, ko‘p qirrali ijtimoiy pedagogik muammolarni keng taqdim qilish imkonini beradi.

Biz seminar mashg‘ulotlarining quyidagi turlaridan foydalandik: talabalarga oldindan ma’lum reja asosida batafsil suhbat; seminar-munozara; ijtimoiy pedagogik vazifalar va pedagogik kazuslar yaratish va ularni yechish; aniq ijtimoiy pedagogik tadqiqotlar materiallariga oid seminar; -keyinchalik muhokama qilish maqsadida alohida savollar (mavzular) yuzasidan nazorat (yozma) ish va boshqalar.

Biz fanni o‘rganish jarayonida seminarlarning turli shakllaridan, seminarlarning har xil turlaridan, jumladan, elementar foydalaniladigan aralash turdagi o‘qitish shaklini qo‘lladik.

Biz ma’ruza, seminar va amaliy darslarni tashkil etishdan asosiy maqsadimiz- bo‘lajak o‘qituvchilar ijtimoiy-pedagogik kompetentliligini rivojlantirish uchun ijtimoiy pedagogika bo‘yicha bilimlar va ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlikdan iborat deb belgiladik. Binobarin oliy o‘quv yurtlari oldida xar tomonlama yetuk, salohiyatli mutaxassislarni tayyorlash vazifasi turadi. Bu vazifani amalga oshirish uchun talabalarning bilimi va o‘quv faoliyatini faollashtirish lozim bo‘lib, o‘quv faoliyatining mustaqil ishlash turiga alohida ahamiyat beriladi. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-sonli qaroriga ko‘ra pedagogik kadrlarni tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun 4+2 tarkibida to‘rt kun oliy ta’limda nazariy hamda ikki kun ta’lim muassasasida amaliyot o‘tishlari belgilib berildi. Bu dastur ko‘magida talabalarimiz olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishlari, ta’lim muassasalaridagi ijtimoiy muhitni o‘rganishlari, bo‘lajak o‘qituvchi sifatida o‘zlarini amaliyotda sinab ko‘rishlari mumkin[4]. Talabalarda mustaqil ishlash davomida bo‘lajak kasbiga ijodiy yondashuv shakllanadi, insonning individual xislatlari va qobiliyatlari ochiladi, talaba tomonidan bilish faoliyatining usullarini o‘zlashtirish ta’minlanadi, ilmiy va kasbiy vazifalarni hal qilish qobiliyati shakllanadi. Ijtimoiy pedagogikaning ilmiy fan sifatidagi mazmuni talabalarga mustaqil tafkkkurni rivojlantirish, vazifalarni tahlil qilish, ijtimoiy muhit sharoitlarini hisobga olish, topshiriqlar berish hamda ularni hal qilish usullarini loyihalashtirish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Ijtimoiy pedagogik bilimlar bo‘lajak o‘qituvchining ijtimoiy pedagogik kompetentligining asosini tashkil qiladi. O‘zlashtirilishi zarur bilimlarning majmui qanchalik yaxshi tizimlashtirilgan bo‘lsa, talabalar ta’lim olishning maqsadlari hamda bilimlar va

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

qobiliyatlarning mazmkur tizimini o‘zlashtirish ahamiyati shuncha yuqori darajada bo‘ladi. Ijtimoiy pedagogika fani bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy- pedagogik kompetentliligini rivojlantirishning muhim omili bo‘lib hizmat qiladi. Ushbu omil “Pedagogika” va “Psixologiya” fanlarini o‘zaro bog‘lovchi vazifasini bajaradi. Shu bilan bir qatorda ta’lim jarayonida foydalaniladigan ijtimoiy-pedagogik tadqiqot natijalari ish faoliyatida uchrab turadigan ijtimoiy muammolar to‘g‘risida to‘g‘ri tasavvurni shakllantiradi. Ijtimoiy pedagogikaga xos bo‘lgan insonparvarlik tuyg‘ulariga yo‘g‘rilgan, har bir insonning muammolariga, uning ichki kechinmalariga, shuningdek emotsional holatiga maqsadli e’tibor berishni nazarda tutuvchi o‘qituvchi uchun yagona metodologik platforma bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni”.
2. Galaguzova.M.A. umumiy tahriri ostida. Ijtimoiy pedagogika ma`ruzalar matni. M.: 2000 –y. 416-b
3. Лигина Н.И. Технологии профессионального педагогического образования. - М.: Издат. центр «Академия», 2001. - 272 с.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayorlovchi oliy ta;lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-sonli qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi “Alohidfa ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-sonli qarori.
6. Abdullayeva K., Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb-hunar kolleji o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ayrim masalalari. / “Oliy ta’lim muassasalari pedagog va boshqaruv kadrlarining malakasini oshirish nazariyasi va amaliyoti” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. -Toshkent: TDPU, 2012. 26-28-b.
7. Yakubova U.Sh. Social pedagogical competence as the basis of the future teacher\'s activity. Web of scientist: international scientific research journal. -, 2023 y. – B. 1311-1318.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Umida Yakubova Sharifovna**, o‘qituvchi [**Якубова Умида Шарифовна,** преподаватель], [**Umida Sh. Yakubova,** teacher, (PhD)]; manzil: O‘zbekiston, Termiz shahar, Mehrobod MFY, Islom Karimov ko‘chasi, 136\30uy [адрес: Узбекистан, город Термез, махалля Мехробод, улица Ислама Каримова, дом 136\30], [address: Uzbekistan, Termez, Islam Karimov street 136\30]; E-mail: kadirovaashaxnoza@mail.ru

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original paper

DASTUR VA O'QUV ADABIYOTLARINI TAHLIL QILISH

© R.Q.Solihova [1]✉

[1]O'zbekiston jahon tillari universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: o'quv dasturlari va adabiyotlar talabalarning akademik tajribasi va bilimlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu resurslarni to‘liq tahlil qilish ularning ta’lim standartlariga mos kelishini ta’minlash, o‘quvchilar ehtiyojlarini qondirish va zamonaviy pedagogik amaliyotlarni o‘z ichiga olishi uchun zarurdir. Ushbu maqolada joriy ta'lim dasturlari va adabiyotlarining samaradorligi va keng qamrovliligi ko'rib chiqiladi, ularning kuchli tomonlari va takomillashtirish yo'nalishlari ko'rsatilgan.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim dasturlari va adabiyotlarini tahlil qilish, ularning ta'lim maqsadlariga muvofiqligini, ularning pedagogik asoslarini va talabalarning ta'lim natijalariga umumiy ta'sirini baholashdir. Tadqiqot o'quv materiallarining sifati va dolzarbligini oshirish bo'yicha tavsiyalar berishga harakat qiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda sifat va miqdoriy tahlilni birlashtirgan aralash usullardan foydalaniladi. Materiallar turli fanlar va ta'lim darajalari bo'yicha o'quv dasturlari va darsliklarni o'z ichiga oladi. Usullar mavzuni yoritishni, pedagogik yondashuvlarni va materiallarning o'quv dizaynini baholash uchun kontent tahlilini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, o'qituvchilar va talabalar bilan o'tkazilgan so'rovlar va suhbatlar ushbu resurslarning amaliy qo'llanilishi va qabul qilingan samaradorligi haqida tushuncha beradi. Miqdoriy ma'lumotlar tahlil qilingan materiallardan foydalanishdan oldin va keyin talabalarning ishlashi va tushunishini o'lchash uchun standartlashtirilgan testlar orqali to'planadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tahlil shuni ko'rsatadiki, aksariyat o'quv materiallari muhim mavzularni qamrab olgan bo'lsa-da, zamonaviy muammolar va fanlararo mavzularni hal qilishda kamchiliklar mavjud. Kontent tahlili shuni ko'rsatadiki, ba'zi dasturlarda zamonaviy ta'lim uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalari mavjud emas.

XULOSA: tadqiqot shuni ko'rsatadiki, hozirgi ta'lim dasturlari va adabiyotlar o'rganish uchun mustahkam poydevor yaratsa-da, takomillashtirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Mavzuning dolzarbligini oshirish, turli xil pedagogik yondashuvlarni o'z ichiga olish va o'quv dizaynini takomillashtirish zamonaviy o'quvchilarning ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish uchun muhim qadamdir.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Kalit so‘zlar: O‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, ta’lim nazariyasi, pedagogik yondashuvlar, o‘quv maqsadlari, ta’lim strategiyalari, baholash usullari: o‘quvchilarning faolligi va o‘qitish usullari, darsni baholash va o‘quv natijalari.

Iqtibos uchun: Solihova R.Q. Dastur va o’quv adabiyotlarni tahlil qilish. // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 284–290.

АНАЛИЗ ПРОГРАММЫ И УЧЕБНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

© Р.К. Солихова[1]✉
[1]Узбекский университет мировых языков, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: учебная программа и литература играют решающую роль в формировании академического опыта и знаний учащихся. Необходим тщательный анализ этих ресурсов, чтобы убедиться, что они соответствуют образовательным стандартам, потребностям студентов и включают в себя современные педагогические практики. В этой статье рассматривается эффективность и полнота текущих программ обучения и литературы, подчеркиваются их сильные стороны и области для улучшения.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является анализ различных образовательных программ и литературы, оценка их соответствия образовательным целям, их педагогическим основам и их общему влиянию на результаты обучения учащихся. В исследовании предпринята попытка дать рекомендации по улучшению качества и актуальности учебных материалов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы смешанные методы, сочетающие качественный и количественный анализ. Материалы включают учебные программы и учебники по различным предметам и уровням образования. Методы включают контент-анализ для оценки охвата темы, педагогические подходы и разработку учебных материалов. Кроме того, опросы и интервью с учителями и учащимися дают представление о практическом использовании и предполагаемой эффективности этих ресурсов. Количественные данные собираются с помощью стандартизированных тестов для измерения успеваемости и понимания учащихся до и после использования проанализированных материалов.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: анализ показывает, что, хотя большинство учебных материалов охватывают важные темы, существуют пробелы в решении современных проблем и междисциплинарных тем. Контент-анализ показывает, что некоторым программам не хватает навыков критического мышления и решения проблем, которые имеют решающее значение для современного образования.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исследование показывает, что, хотя существующие образовательные программы и литература обеспечивают прочную основу для

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

обучения, существуют значительные возможности для улучшения. Повышение актуальности предмета, включение разнообразных педагогических подходов и улучшение учебного дизайна являются важными шагами для лучшего удовлетворения потребностей сегодняшних учащихся.

Ключевые слова: учебный план и разработка учебных программ, теория образования, педагогические подходы, образовательные цели, образовательные стратегии, методы оценки: деятельность учащихся и методы обучения, оценка уроков и результаты обучения.

Для цитирования: Солиҳова Р.К. Анализ программы и учебной литературы. // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 284–290.

ANALYSIS OF THE PROGRAM AND EDUCATIONAL LITERATURE

© Ra'no Q. Solihova[1]✉
[1]Uzbekistan world state languages university, Tahskent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: curriculum and literature play a crucial role in shaping students' academic experience and knowledge. A thorough analysis of these resources is necessary to ensure that they meet educational standards, meet the needs of students, and incorporate modern pedagogical practices. This article reviews the effectiveness and comprehensiveness of current training programs and literature, highlighting their strengths and areas for improvement.

AIM: the purpose of this study is to analyze various educational programs and literature, to assess their relevance to educational goals, their pedagogical foundations, and their overall impact on student learning outcomes. The study attempts to make recommendations for improving the quality and relevance of educational materials.

MATERIALS AND METHODS: the study uses mixed methods combining qualitative and quantitative analysis. materials include syllabi and textbooks for various subjects and educational levels. methods include content analysis to evaluate subject coverage, pedagogical approaches, and instructional design of materials. in addition, surveys and interviews with teachers and students provide insight into the practical use and perceived effectiveness of these resources. quantitative data are collected through standardized tests to measure student performance and understanding before and after using the analyzed materials.

DISCUSSION AND RESULTS: the analysis shows that although most teaching materials cover important topics, there are gaps in addressing contemporary issues and interdisciplinary topics. Content analysis shows that some programs lack critical thinking and problem-solving skills that are crucial to modern education.

CONCLUSIONS: the study suggests that while current educational programs and literature provide a solid foundation for learning, there is considerable room for

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

improvement. Increasing subject matter relevance, incorporating diverse pedagogical approaches, and improving instructional design are important steps to better meet the needs of today's learners.

Keywords: curriculum and curriculum development, educational theory, pedagogical approaches, educational goals, educational strategies, evaluation methods: student activity and teaching methods, lesson evaluation and learning outcomes.

For citation: Ra'no Q. Solihova. (2024) 'Analysis of the program and educational literature', (4(2)), pp. 284–290. (In English).

There are four following statements: Every syllabus is the root of a theoretical language. In other words, the syllabuses demonstrate a certain theory of educating and learning. Most syllabuses provide non-educational aims. Furthermore, they have "concealed agendas". Most utterances include a theory, as well as conceivably many theories, of curriculum design. There is something surprising is having nearly no literature accessible that tries an outline of what kind of. curriculum design theories, as well as in what extent they may connect to each other, besides it is claimed not having adequate literature around second language education that points itself to educating in systematically theoretical way. Truthfully, even the literature within the current volume copes with methodological thoughts of the content rate. The purpose of syllabus research is to make as crystal clear as possible the structures which point what now causes as second language teaching. This orientation is frequently place within the expression of objectives and goals towards which this course has been formed to guide. What is surprising that, there is not adequate research conducted in the nature and content of L2 teaching. Our comprehension of this field came from the information transferred through syllabus documents. The current chapter provides some rudimentary differences and statements which are usually supplied within the writing of syllabus documents, as well as the discussion of literature trying to underscore teaching in L2 education.


Moreover, Syllabus have several rudimentary elements, involving learning objectives and outcomes, leading the teaching procedure and the students' learning trip. They state the expectations of students toward the achievement by the end of the course, besides perform as a roadmap for the educational knowledge. Learning objectives should be determined, quantifiable and clear-cut which can state what students must comprehend, as well as can do by the end of a lesson or course. Furthermore, those assist educators decide and frame of their teaching approaches and assessments.

In this figure, the reason why specificity is stated that each objective must be crystal clear and not open, describing what learners need to acquire. The next one is measurability to be written in a manner which permits for evaluation and assessment of learner advancement. In Achievability, all objectives should be authentic and gainable in

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)


the scope of course and certain timeframe. When it comes to Relevance, they need to fit with the content of course, students' necessities, then total program purposes. Finally, time-bound should involve a timeframe for attainment, that assists within deciding of course frame. At the end of the course, learners can analyze and clarify main historical documents. In the other words, they will reflect expertise in implementing what they learned towards outside of the school.

Figure 1. The prime characters of effective learning procedure are given:



Additionally, learning outcomes portray the skills, experience, attitudes and values which learners will have attained by the end of the course. Those results are frequently wider and more understandable rather than solely objectives, compressing the total aims of the course. Moreover, it is a benchmark for analyzing the efficiency of the course and the scope of student learning.

Figure 2. Here is shown prime features of learning outcomes:



By the end of the course, learners can evaluate scientific facts critically and reflect their work precisely. In addition to, they develop the skills for an effective collaboration in team, showing problem-solving skills.

From my perspective, it is significant for having syllabus because it serves as guidance for learners to give accurate expectations and purposes, assisting them comprehend their needs and why they are necessary. In other words, it serves as instructional design with helping teachers in designing the content, activities, assessments of content which relate to expected learning goals. In Assessment and

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Evaluation, they help educators measure student progress in an accurate way, as well as the efficiency of the course program. A crystal clear-cut objectives and outcomes advance transparency in the procedure of teaching, ensuring learners and teachers provide accountability for learning procedure. That's why, they are significant elements of a syllabus which provides both efficient and goal-oriented educational experience for learners and teachers. Moreover, they function as a rudimentary frame which helps the whole teaching and learning procedure.

Furthermore, there is a great role of a curriculum in education sphere, besides the quality of curriculum can provide the quality of education. Most universities form their course programs regarding current needs of period. When the transformation happens within a curriculum, it surely influences textbooks, lessons as the application of the program, instructors' lesson plans, grading tools like 'the domino effect'. There are three features, such as the intended, the implemented and the attained curriculum. the former one is often made by curriculum developers, the implemented one is originated by the performance of educators within the classrooms, as well as the last one is accumulated by students. The prime parts of lessons are textbooks, and the basic materials are utilized by instructors to evolve lessons. Thus, many educators depend on textbooks to outline what they are going to educate and their approaches. To this view, theses textbooks designed according to the curriculum must be undeviating regarding aims, content, as well as objectives of a curricula. Provided the effect of textbooks on education, the content of science textbooks needs to show science procedure skills, compared to just demonstrating mix of scientific data.

According to the curriculum, the objectives of instructing and learning procedure, as well as the instructor who oversees knowing the ways of applying the objectives. Thus, any education procedure disregarding the curriculum errors. As Padilla (1990) mentions that there is a possibility to enhance learners' procedure skills while those are a component of the curriculum, so instructors need to organize classroom activities regarding the skills of procedure. Checking out authentic classroom activities gives a total comprehension of the application of educational modification and the possible outcomes of the curriculum. In other words, the instructor is referred as a bridge between intended and implemented curriculum, besides the most important one within communication with learners in educational context. Thus, teacher oversees gaining the common goals and objectives of the curriculum.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Biggs, J., & Tang, C. (2011). Teaching for Quality Learning at University: What the Student Does. Open University Press.
2. Eberly, M. B., Newton, S. E., & Wiggins, R. A. (2001). The syllabus as a tool for student-centered learning. Journal of General Education, 50(1), 56-74.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

3. Habanek, D. V. (2005). An examination of the integrity of the syllabus. College Teaching, 53(2), 62-64
4. Parkes, J., & Harris, M. B. (2002). The purposes of a syllabus. College Teaching, 50(2), 55-61.
5. Padilla, R. V. (1990). The unfolding matrix: A technique for qualitative data acquisition and analysis. In R. G. Burgess (Ed.), Studies in qualitative methodology (Vol. 2, pp. 273-285). JAI Press**.**
6. Tyler, R. W. (1949). Basic Principles of Curriculum and Instruction. University of Chicago Press.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Solihova Ra'no Qahramon qizi**, doktorant, [**Солихова Раъно Кахрамон кизи**, докторант], [**Ra'no Q. Solihova**, doctoral student]; manzil: O'zbekiston, Shahar: Toshkent, Tuman: Uchtepa, Kichik Halqa Yo'li ko'chasi, 21A [адрес: Узбекистан, Город: Ташкент, Район: Учтепа, улица Кичик Халка Ёли, 21A], [address: Uzbekistan, City: Tashkent, District: Uchtepa, Kichik Halka Yoli street, 21A] E mail: Ranorachel4@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original paper

ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA ADABIY TA'LIMNI TASHKIL ETISH MEXANIZMLARI

© S.T. Mirzayeva[1]✉

[1]Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: zamonaviy ta'lim muhiti adabiyotni o'qitishda o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, talqin qilish qobiliyatlari va adabiy asarlarni qadrlash qobiliyatini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar matnlar bilan faol ishtirok etishni rag'batlantiradigan interaktiv, o'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lim muhitiga urg'u beradi. Ushbu maqolada ana shu zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida adabiy ta'limni tashkil etish mexanizmlari o'rganilib, ularning amalga oshirilishi va o'quvchilar bilimiga ta'siri yoritilgan.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi adabiy ta'limni tashkil etishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning samaradorligini o'rganish va baholashdir. Tadqiqot o'quvchilarning adabiyotshunoslik faniga faolligi va tushunishini kuchaytiruvchi asosiy strategiyalarni aniqlashga va bu yondashuvlarni samarali amalga oshirish uchun o'qituvchilarga amaliy tavsiyalar berishga qaratilgan.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda zamonaviy pedagogik nazariyalar, o'quv dasturlari bo'yicha qo'llanmalar va amaliy tadqiqotlar kabi materiallardan foydalangan holda sifatli tadqiqot usuli qo'llaniladi. Usullar sinfda kuzatish, o'qituvchilar bilan suhbatlar, o'quvchilarning fikr-mulohazalarini tahlil qilishdan iborat. Ma'lumotlar to'plashda asosiy e'tibor o'quvchiga yo'naltirilgan o'quv faoliyatini amalga oshirish, adabiyot darslarida texnologiyadan foydalanish va fanlararo yondashuvlarni birlashtirishga qaratilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: guruhlarda muhokamalar, o'zaro baholashlar va hamkorlikdagi loyihalar kabi interfaol ta'lim strategiyalari o'quvchilarni o'quv jarayoniga faol jalb qiladi. Talabalarga yo'naltirilgan yondashuvlar o'quvchilarning qiziqishlarini birinchi o'ringa qo'yadi va matn bilan shaxsiy aloqalarni rag'batlantiradi. Interfaol va talabalarga yo'naltirilgan strategiyalarni qo'llagan sinfxonalar talabalarning faolligi va tahliliy ko'nikmalari yaxshilangani haqida xabar beradi. Talabalar adabiy mavzularni chuqurroq tushunishlarini va o'qishga bo'lgan ishtiyoqlarini namoyish etadilar.

XULOSA: tadqiqot xulosasiga ko'ra, adabiy ta'limni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish o'quvchilarning faolligini, tushunish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini sezilarli darajada oshiradi. Interfaol va o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim, texnologiyadan foydalanish, fanlararo yondashuvlar, tanqidiy va mulohaza yurituvchi

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

fikrlash faoliyati va madaniy ahamiyatga ega adabiyotlar adabiy ta'limni takomillashtirishning samarali strategiyasidir. Ushbu yondashuvlarni amalga oshirish orqali o'qituvchilar adabiyotni umrbod qadrlashni rivojlantiradigan dinamik va inklyuziv o'quv muhitini yaratishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlar ushbu strategiyalarning turli xil ta'lim sharoitlariga ta'sirini o'rganishni davom ettirishi va raqamli asrda adabiy ta'limni qo'llab-quvvatlash uchun qo'shimcha usullarni ishlab chiqishi kerak.

Kalit so'zlar: zamonaviy maktab, adabiy ta'lim, psixologik komfort, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, prinsip, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar, badiiy talqin.

Iqtibos uchun: Mirzayeva S.T. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida adabiy ta'limni tashkil etish mexanizmlari // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 291–298.

МЕХАНИЗМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ЛИТЕРАТУРНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ

© С.Т.Мирзайева[1]✉
[1]Ташкентский химико-технологический институт, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: современная образовательная среда требует инновационных подходов к преподаванию литературы, направленных на совершенствование критического мышления учащихся, навыков интерпретации и оценки литературных произведений. Современные педагогические подходы подчеркивают интерактивную, ориентированную на учащихся среду обучения, которая поощряет активное взаимодействие с текстами. В данной статье изучаются механизмы организации литературного образования на основе этих современных педагогических подходов, освещается их реализация и влияние на знания учащихся.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является изучение и оценка эффективности современных педагогических подходов в организации литературного образования. Целью исследования является выявление основных стратегий, повышающих активность учащихся и понимание литературоведения, и предоставление практических рекомендаций учителям для эффективной реализации этих подходов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании используется качественный метод исследования с использованием таких материалов, как современные педагогические теории, учебные пособия и тематические исследования. Методы включают наблюдение за классом, интервью с учителями и анализ отзывов учащихся. Основное внимание при сборе данных уделяется реализации личностно-ориентированной образовательной деятельности, использованию технологий на уроках литературы и интеграции междисциплинарных подходов.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: Стратегии интерактивного обучения, такие как групповые дискуссии, оценки коллег и совместные проекты, активно вовлекают учащихся в процесс обучения. Подходы, ориентированные на учащихся, отдают приоритет интересам учащихся и поощряют личное взаимодействие с текстом. Классы, в которых используются интерактивные и ориентированные на учащихся стратегии, сообщают о повышении вовлеченности и аналитических навыков учащихся. Студенты демонстрируют более глубокое понимание литературных тем и страсть к чтению.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: согласно заключению исследования, организация литературного образования на основе современных педагогических подходов существенно повышает активность, понимание и критическое мышление учащихся. Интерактивное и ориентированное на учащихся обучение, использование технологий, междисциплинарные подходы, критическое и рефлексивное мышление, а также культурно значимая литература являются эффективными стратегиями улучшения литературного образования. Реализуя эти подходы, преподаватели могут создать динамичную и инклюзивную среду обучения, которая способствует пониманию литературы на протяжении всей жизни. Будущие исследования должны продолжить изучение влияния этих стратегий на различные образовательные учреждения и разработать дополнительные методы поддержки литературного образования в эпоху цифровых технологий.

Ключевые слова: современная школа, литературное образование, психологический комфорт, современные педагогические подходы, принцип, личностно-ориентированные подходы, художественная интерпретация.

Для цитирования: Мирзайева С.Т. Механизмы организации литературного образования на основе современных педагогических подходов // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 291–298.

MECHANISMS OF ORGANIZING LITERARY EDUCATION BASED ON MODERN PEDAGOGICAL APPROACHES

© Sayyora T. Mirzayeva[1]✉
[1]Tashkent Institute of Chemical Technology, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the modern educational environment requires innovative approaches to the teaching of literature aimed at improving students' critical thinking, interpretation skills and appreciation of literary works. Contemporary pedagogical approaches emphasize an interactive, learner-centered learning environment that encourages active engagement with texts. In this article, the mechanisms of organizing

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

literary education based on these modern pedagogical approaches are studied, their implementation and impact on students' knowledge is highlighted.

AIM: the purpose of this study is to study and evaluate the effectiveness of modern pedagogical approaches in the organization of literary education. The study is aimed at identifying the main strategies that increase students' activity and understanding of literary studies and giving practical recommendations to teachers for effective implementation of these approaches.

MATERIALS AND METHODS: the study uses a qualitative research method using materials such as contemporary pedagogical theories, curriculum guides, and case studies. Methods include classroom observation, interviews with teachers, and analysis of student feedback. The main focus in data collection is on the implementation of student-centered educational activities, the use of technology in literature classes, and the integration of interdisciplinary approaches.

DISCUSSION AND RESULTS: interactive learning strategies such as group discussions, peer assessments, and collaborative projects actively engage students in the learning process. Student-centered approaches prioritize students' interests and encourage personal interactions with the text. Classrooms that use interactive and student-centered strategies report improved student engagement and analytical skills. Students demonstrate a deeper understanding of literary themes and a passion for reading.

CONCLUSION: according to the conclusion of the research, the organization of literary education based on modern pedagogical approaches significantly increases students' activity, understanding and critical thinking skills. Interactive and learner-centered learning, use of technology, interdisciplinary approaches, critical and reflective thinking activities, and culturally relevant literature are effective strategies for improving literary education. By implementing these approaches, educators can create a dynamic and inclusive learning environment that fosters a lifelong appreciation of literature. Future research should continue to explore the impact of these strategies in different educational settings and develop additional methods to support literature education in the digital age.

Key words: modern school, literary education, psychological comfort, modern pedagogical approaches, principle, person-oriented approaches, artistic interpretation.

For citation: Sayyora T. Mirzayeva, (2024) ‘Mechanisms of organizing literary education based on modern pedagogical approaches’, // Inter education & global study, (4(2)), pp. 291–298. (In Uzbek).

Adabiyot insonning jamiyatning bir bo‘lagi sifatida hamda borliq va mavjudlik belgisi sifatida duch keladigan muammolarni anglashi, tushunishi va unga yechim topish imkonini har bir asar qahramoni va ijodkor tajribasi misolida o‘rgatadi. Adabiy durdonalar bilan mazmunli va muntazam aloqa o‘quvchilarga har bir inson oldida muqarrar ravishda

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

paydo bo‘ladigan ontologik muammolar, ya’ni dunyo yaratilishi, koinot tuzilishi, hayot va mavjudlik ma’nosi, hayotdagi o‘z o‘rnini aniqlash, pozitsiyasini tanlash, o‘z hayoti ma’nosi, yashashdan maqsadi haqida bilim va ko‘nikma beradi. Adabiy matnlarda turli hayotiy va nostandart vaziyatlarni hal qilish variantlari, usullari hamda tanlash imkoniyatining mavjudligi o‘quvchining hayotiy tajribalarini oshiradi.

Jahon va mahalliy turga mansub adabiy matnlarni o‘rganish zamonaviy insonni tarbiyalash vositasi hisoblanadi. Chunki xalqaro va mahalliy asarlarda tarixiy, axloqiy, falsafiy va madaniy meros mujassamlashadi. Badiiy asarlar o‘quvchini shaxs sifatida tarbiyalaydi, uning ichki dunyosini go‘zallashtiradi, qalbini poklaydi, ezgulikka chorlaydi, o‘quvchining hayotiy maqsadlari, qadriyatlari va dunyoqarashining shakllanishiga ta’sir qiladi. Adabiy mushohada o‘quvchini san’atga oshufta qiladi, estetik didini shakllantirishga yordam beradi. O‘z xalqining madaniyati bilan tanishish o‘quvchilarning milliy mentalitetini shakllantirishga xizmat qiladi. Asarlarning g‘oyaviy mazmunini anglash natijasida o‘quvchining turli mavzudagi tasavvur qobiliyati va fikrlarini kengaytiradi.

Adabiy asarlarda hayot qonuniyatlari aks etadi. Yozuvchi shaxsiy tajribasi va kuzatuvlarini ijtimoiy, intellektual, hissiy va kommunikativ vositalar asosida yaxlit, tizimli, mantiqiy kompozitsiyani yaratadi. Ijtimoiy, hissiy voqea va jarayonni o‘qish orqali o‘quvchida o‘qish ko‘nikmalari, tushunish, fikrlash darajalari hamda estetik did shakllanadi.

Turli ijtimoiy va gumanitar sohalarning san’at va o‘quv fani sifatida mutanosib bo‘lishi, birinchi navbatda, tarkibiy qismlarning uyg‘unligi hamda etetik tarbiya va estetik zavq berishiga bog‘liq. Adabiyot esa nafaqat fan, balki san’at sohasi bilan uyg‘unligi sababli uni o‘quv jarayonidan ayro tarzda o‘rganib bo‘lmaydi. Adabiyot fanining o‘rganish ob’ekti san’at asari bo‘lgan badiiy asar hisoblanadi. Adabiyot fan va san’at sifatida mustaqil mavjud bo‘lishi mumkin, lekin faqat integrasiyalash asosida ular maktab adabiyoti fanining asosiy o‘rganish ob’ekti bo‘lgan badiiy asar haqida o‘quvchida yaxlit tasavvur hosil qiladi. Zamonaviy maktablarning adabiyot darslarida hayotiy ko‘nikmalar va hodisalar aks etgan, zamon bilan hamnafas bo‘lgan badiiy asarlarning berilishi turli bilim sohalari bo‘yicha yangi bilimlar hamda ijtimoiylashuv imkonini beruvchi hayotiy tajribalarni o‘rgatilishi bilan muhimdir. Zamonaviy adabiyot darslari o‘quvchilarning ichki imkoniyatlarini ochishi hamda ularda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishi bilan xarakterlanadi. Ijodiy mahsul va hayotiy tajriba bo‘lgan adabiy asarlarni turli nuqtai nazardan o‘ziga xos ob’ekt sifatida o‘rganish natijasida o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllanadi.

Adabiy asarlarni o‘qish o‘quvchilarda kommukitivliklik va muloqot madaniyatini oshiradi. Zamonaviy maktab o‘quvchilarida bugungi kunda ko‘p funksiyali dialogni tuzish, muloqotga layoqatlilik ham XXI asr ko‘nikmasi sifatida baholanmoqda. Zamonaviy maktab imidjini yaratishda adabiy ta’limning tashkiliy, pedagogik-psixologik jihatlariga

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

adabiy ta'limning o'ziga xos xususiyatlariga, ya'ni maqsad, mazmun, o'qitish va o'quv jarayoni hamda natijalarni baholash mezonlariga e'tibor qaratish kerak.

Adabiyot ta'lim sohasining eng muhim qismlaridan biridir. Adabiyot til o'rtasidagi aloqadorlik, ijtimoiy hayotdagi yashash ko'nikmalari so'zning kommunikativ va estetik funksiyalari o'rtasida chuqur bog'liqlik bor. Adabiyot milliy tilning barcha boyligi va imkoniyatlarini ochib beradi. Adabiyot orqali tilning jozibadorligi, badiiy-estetik xususiyatlari namoyon bo'ladi. Tilni o'zlashtirishda badiiy asarlarga doimiy murojaat qilish zarurati amaliy tajribalar va davr nuqtai nazaridan ko'p bora o'z isbotini topgan. Adabiyotni o'quv predmeti sifatida o'zlashtirish o'quvchi nutqi va savodxonligini oshirish imkonini beradi. Adabiy ta'lim shaxsning nutq madaniyati va kommunikativ kompetentligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy maktablarja adabiyot barcha o'quv fanlari bilan, ayniqsa, ona tili bilan uyg'undir. Adabiyot va ona tili fanlarini birgalikda, yaxlitlikda, umumiy tarzda o'rganish va o'qitish – o'quvchilarni tayanch kompotensiyalarini shakllantirishga hamda o'quvchilarda tilni qonuniyat, tushunishi qiyin bo'lgan o'quv fani, faqat nazariya va qoidalardan iborat zerikarli fan deb emas, yashash ehtiyoji, jamiyat va shaxs rivojlanishini o'zida aks ettirib boradigan mexanizm sifatida o'rganish zarurati ortadi. Ona tili va adabiyot fanini birgalikda, uyg'unlikda o'qitish fundamental fanlarni bilish, tushunish imkonini oshiradi.

Zamonaviy maktablarda adabiyot fanining boshqa maktab fanlarini o'qitishdan farqi va o'ziga xosligi quyidagi xususiyatlarga asoslanadi:

- o'quv fanlarining o'qitish mazmuni, maqsad va vazifalari o'rganilayotgan fan asoslariga bog'liq bo'lsa, adabiyot fanining o'rganish ob'ekti inson va uning yashash ko'nikmalarini o'rganishdan iboratdir. Adabiyot insonning ijtimoiy faoliyati, ma'naviy va ruhiy olamining aks ettirilishi va natijasidir. Adabiyot insoniyatning hayotiy tajribalari, yozuvchi ijodiy faoliyatining mahsulidir. Adabiyot asosi badiiy asarda namoyon bo'ladi. Badiiy asar san'at, ijodkorlik va yaratuvchilik mahsuli bo'lib, butun borliqni ijodiy bilish va so'z ko'rinishida aks ettirishining natijasidir. Yozuvchi tomonida aks ettirilgan yashash ko'nikmalaridir;

- adabiyot fanida beriladigan asarlarni noyob va nodir adabiy artefakt sifatida o'rganish o'quvchilarda axborot bilan ishlay olish qobiliyatini shakllantirish bilan bir qatorda, ilmiy, estetik va kommunikativligini shakllantiradi hamda ijtimoiylashuv instinktini oshiradi;

- adabiyot fani orqali o'quvchilarda ilmiy tasavvuralr shakllanadi. Adabiy matn ham ilmiy tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Ilmiy tadqiqot ob'ekti bo'lgan asarni o'rganishda o'quvchilarda ilmiy usullardan foydalanish ko'nikmalari shakllanadi. O'quvchilarga adabiy matnni o'rgatishda foydalanadigan ilmiy usullarga tahlil, sintez, analiz, taqqoslash, umumlashtirish kabilarni kiritish mumkin. Adabiy matnni o'rganish jarayonida o'quvchilarda ilmiy tasavvur asosi bo'lgan tanqidiy, mantiqiy fikrlash ko'nikmalari

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

shakllanadi. Adabiyot darsliklarida faqat badiiy matn emas, balki axborot matnlarining ham berilishi o‘quvchilarni boshqa fanlar doirasida berilgan matnlarni tushunish imkonini oshiradi. Adabiyot orqali o‘quvchi dunyoni ko‘rishi, bilishi va his qilishi ko‘plab dunyo olimlari tomonidan ta’kidlangan. Belinskiy adabiyot inson ongida hayotni aks ettirishini ta’kidlaydi. Adabiyot darslikda berilgan asarlarni ilmiy nuqtai nazardan o‘rganish maktab dasturida o‘qitiladigan o‘quv fanlarini o‘rganish uchun zamin bo‘ladi. Adabiyot fanlar asoslarini ifodalaydi. Boshqa o‘quv fanlarini adabiy qahramonlar misolida tushuntira oladi.

Adabiyot fani maktab davridagina o‘qib yakunlanadigan fanlar sirasiga kirmaydi. Badiiy asar hayotiy ko‘nikmalar, adabiy tarbiya, ilmiy bilim aks etadigan noyob ob’ekt sifatida o‘quv jarayonidan boshqa pozitsiyalardan ham ko‘rib chiqilishi, muntazam o‘rganilishi kerak.

Badiiy asar so‘z san’ati bo‘lib, o‘quvchida estetik idrok, estetik did, estetik tasavvurni shakllantirishga yordam beradi. Asarning badiiy shakli va mazmuni uni san’atning boshqa turlari bilan bog‘laydi. Asar mazmuni, qahramonlar ruhiyati, ularning ichki kechinmalari o‘quvchida emosianal ko‘nikmalarni tarbiyalaydi. Emosianal ko‘nikmalar asar muallifining shaxsi va muallif tomonidan yaratilagn ijodiy shaxs va voqealar qurilmasi asosida paydo bo‘ladi. Emosianal ko‘nikma va estetik tarbiya ong prizmasida shakllangan voqelikni obrazli aks ettirishga asoslanadi. Adabiyotni estetik idrok etish uchun hissiy-refleksiv tadqiqning ahamiyai katta. Asarni estetik tarzda idrok etish o‘quvchining his-tuyg‘ulari va ongiga ta’sir qiladi. Bu jarayon o‘quvchining o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Badiiy adabiyotni o‘rganish natijasida o‘quvchida kommunikativ qobiliyat ham shakllanadi. Asar mazmunini tushunish va tahlil qilish o‘quvchida mantiqiy fikrlash, taqqoslash, umumlashtirish, fikrni dalillash hamda erkin, ta’sirchan va ilmiy nutq tuzish imkonini beradi.

Zamonaviy maktablarda adabiyot fanini o‘qitishda adabiy asarlarning axborot manbasi; hissiy, estetik va ruhiy tarbiya vositasi; o‘z-o‘zini tartibga solish va nazorat qilish mexanizmi; kommunikativ va ijtimoiylashuv belgisi sifatida o‘rganilishi jamiyat uchun zarur bo‘lgan boshqa sohalarni o‘rganish sifatini oshiradi.

Adabiyot fani o‘qituvchisi sinfdan tashqari yoki mustaqil ta’lim ishlarini tashkil etishda tavsiya etayotgan adabiy asarlar mazmuni o‘quvchi bilan zamondosh bo‘lishi, o‘quvchi yashayotgan davrni qamrab olishi hamda bu asar yoki matnda yangilik bo‘yog‘i saqlangan bo‘lishi katta ahamiyatga ega. Bugungi kun o‘quvchisiga jamiyatdagi mavjud illatlar, insonlar tomonidan sodir etilayotgan ko‘ngilsiz voqealar qadim zamonlar, o‘tgan davrlar, bugungi kun o‘quvchisi yashamagan makon tili bilan gavdalantirilgan voqealar o‘quvchiga yot bo‘lgan hissiyotlarni uyg‘otadi. O‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishda hamda shaxsga yo‘naltirilgan adabiy ta’lim muhitini faollashtirish

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

jarayonida turfa shakl va mazmunga ega bo‘lgan variativ asar va matnlarni tanlash zamonaviy adabiyot darslariga qo‘yilayotgan talablardan biridir.

Shaxsga yo‘naltirilgan adabiy ta’lim muhitining o‘quvchilarning bilish darajasi, salohiyati va tafakkuriga qarab tashkil etilishi o‘quvchi bilan individul ishlash mexanizmini sifatli amalga oshirilishini ta’minlaydi. O‘quvchining aqliy qobiliyati, salohiyat darajasiga qarab bosqichma bosqich o‘qitilishi natijasida o‘quvchining jamiyatda faol ijtimoiylashuviga hamda jamiyat va borliq qonuniyatlarini emosional o‘zlashtirish jarayoniga erishiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ладошкин Н.А. Развитие интеллектуального потенциала внеурочной деятельности средствами познавательно-досуговых проектов: автореф. дис.канд. пед. наук. -Белгород, 2013. - 24 с.
2. Лебедев О.В. Компетентностный подход в образовании / О.В. Лебедев // Школьные технологии. 2004.№5. -3 – 12 с.
3. Лукьянова М.И. статья Психолого-педагогическая компетентность учителя. // Педагогика, 2001. – 10 –56 с.
4. Мавлонова Р.А. Развитие начального образования в Узбекистане. - Т.: Фан, 1998. - 135 с.
5. M.F.Qurbonova. Individual ta’lim – innovatsion o‘qitish usuli. Academic Research in Educational Sciences. Volume 4, Issue 3, 2023. 394-399 b.
6. 6. M.F.Qurbonova. Ixtisoslashtirilgan maktablarning tashkil etish zarurati .
7. Муаллим ҳем узликсиз билимлендириў, илмий-методикалық журнал, 2023-yil 6/3-son, 175-177-betlar.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Mirzayeva Sayyora Toyirovna,** assistent, [**Мирзаева Сайёра Тойировна, ассистент**], [**Sayyora T. Mirzayeva**, Assistant]; manzil: O'zbekiston, 100011, Toshkent, Shayxontohur tumani, xiebon Navoi, 32 [адрес: Узбекистан, 100011, г. Ташкент, Шайхонтохурский район, 32, хиебон Навои], [address: Uzbekistan, 100011, Tashkent, Shaikhontohur district, 32, khiebon Navoi]

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

MEHNAT JARAYONINI TO‘G‘RI TASHKIL QILISH XODIMLAR ISH QOBILYATINI ASRASH GAROVI

© N.G. Xolmatova[1]✉, Э.N. Yusupxodjaeva[2]✉
[1] Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mehnat jarayonini tashkil etish mehnat qobiliyatiga va xodimlarning umumiy salomatligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ish vazifalarini to'g'ri boshqarish va tizimlashtirish samaradorlikni oshirishi, stressni kamaytirishi va ish bilan bog'liq sog'liq muammolarining oldini olishi mumkin.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi mehnat jarayonini tashkil etish va xodimlarning mehnat qobiliyatini saqlash o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishdir. Tadqiqot yuqori darajadagi ish samaradorligini va xodimlarning umumiy farovonligini saqlashga yordam beradigan asosiy tashkiliy omillarni aniqlashga intiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot miqdoriy so'rovlar va sifatli intervyularni birlashtirgan aralash usullardan foydalanadi. Materiallarga ish muhitini baholash, xodimlarning sog'lig'i haqidagi yozuvlar va samaradorlik ko'rsatkichlari kiradi. Usullar turli sohalardagi xodimlarning mehnatni tashkil etish haqidagi tasavvurlarini va uning ish qobiliyatiga ta'sirini o'lchash uchun so'rovlarni o'tkazishni o'z ichiga oladi. Menejerlar va xodimlar bilan sifatli suhbatlar samarali tashkiliy amaliyotlar haqida chuqurroq tushuncha beradi. Ma'lumotlar miqdoriy ma'lumotlar uchun statistik usullar va sifatli ma'lumotlar uchun tematik tahlil yordamida tahlil qilinadi.

XULOSA: tadqiqot shuni ko'rsatadiki, mehnat jarayonini to'g'ri tashkil etish xodimlarning mehnat qobiliyatini saqlab qolish uchun zarurdir. Ish yukini boshqarish, qulay ish muhiti, ish va hayot muvozanati, kasbiy rivojlanish va qo'llab-quvvatlovchi etakchilik kabi asosiy omillar xodimlarning samarali ishlashi va farovonligini saqlab qolish qobiliyatiga sezilarli darajada ta'sir qiladi.

Kalit so'zlar: mehnatni muhofaza qilish, ish unumdorligi, ergometr, foydali ish, ishlab chiqarish, mehnat faoliyati, energiya sarfi, mushak ishi.

Iqtibos uchun: Xolmatova N.G, Yusupxodjaeva E.N**.** Mehnat jarayonini to‘g‘ri tashkil qilish xodimlar ish qobilyatini asrash garovi**.** // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 299–305.

ПРАВИЛЬНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ТРУДОВОГО ПРОЦЕССА – ГАРАНТИЯ ЗАЩИТЫ РАБОТОДНОСТИ РАБОТНИКОВ

© Н.Г. Холматова[1]✉, Е.Н. Юсуфоджаева[2]✉
[1,2]Ташкентский государственный технический университет, Ташкент, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: организация трудового процесса оказывает существенное влияние на трудоспособность и общее состояние здоровья работников. Правильное управление и организация рабочих задач может повысить производительность, снизить стресс и предотвратить проблемы со здоровьем, связанные с работой.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является изучение взаимосвязи между организацией трудового процесса и сохранением трудоспособности сотрудников. Исследование направлено на выявление ключевых организационных факторов, которые способствуют поддержанию высокого уровня производительности труда и общего благополучия сотрудников.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы смешанные методы, сочетающие количественные опросы и качественные интервью. Материалы включают оценки рабочей среды, записи о состоянии здоровья сотрудников и показатели эффективности. Методы включают опросы сотрудников в различных отраслях для измерения их восприятия организации труда и ее влияния на производительность. Качественные интервью с менеджерами и сотрудниками обеспечивают более глубокое понимание эффективных организационных практик. Данные будут анализироваться с использованием статистических методов для количественных данных и тематического анализа для качественных данных.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исследование показывает, что правильная организация трудового процесса необходима для сохранения трудоспособности сотрудников. Ключевые факторы, такие как управление рабочей нагрузкой, благоприятная рабочая среда, баланс между работой и личной жизнью, профессиональное развитие и поддерживающее лидерство, оказывают существенное влияние на способность сотрудников поддерживать эффективную производительность и благополучие.

Ключевые слова: охрана труда, производительность труда, эргометр, полезная работа, производство, трудовая деятельность, энергозатраты, мышечная работа.

Для цитирования: Холматова Н.Г, Юсупходжаева Э.Н. Правилная организация трудового процесса – гарантия сохранения трудовой способности работников. // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 299–305.

CORRECT ORGANIZATION OF THE LABOR PROCESS IS A GUARANTEE TO PRESERVE WORK ABILITY OF EMPLOYEES

© Nargiza G. Xolmatova[1]✉, Elleanora N. Yusupxodjaeva[2]✉
[1,2]Tashkent State Technical University, Uzbekistan

Annotation

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

INTRODUCTION: the organization of the work process has a significant impact on the ability to work and the general health of employees. Proper management and organization of work tasks can increase productivity, reduce stress, and prevent work-related health problems.

AIM: the purpose of this study is to study the relationship between the organization of the work process and the maintenance of the work ability of employees. The study seeks to identify key organizational factors that contribute to maintaining high levels of work performance and overall employee well-being.

MATERIALS AND METHODS: the study uses mixed methods combining quantitative surveys and qualitative interviews. Materials include work environment assessments, employee health records, and performance indicators. Methods include surveys of employees in various industries to measure their perceptions of work organization and its impact on performance. Qualitative interviews with managers and employees provide a deeper understanding of effective organizational practices. Data will be analyzed using statistical methods for quantitative data and thematic analysis for qualitative data.

CONCLUSION: the study shows that proper organization of the work process is necessary to maintain the work ability of employees. Key factors such as workload management, a supportive work environment, work-life balance, professional development and supportive leadership have a significant impact on the ability of employees to maintain effective performance and well-being.

Key words: labor protection, work productivity, ergometer, useful work, production, labor activity, energy consumption, muscle work.

For citation: Nargiza G.Xolmatova, Elleanora .N.Yusupxodjaeva. (2024) 'Correct organization of the labor process is a guarantee to preserve work ability of employees', Inter education & global study, (4(2)), pp. 299–305. (In Uzbek).

Mamlakatimizda mehnat sharoitlarini yaratish, mehnatning huquqiy asoslarini takomillashtirish borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlar fuqarolarning huquq hamda manfaatlarini muhofaza etishda muhim omil bo'layotir[1]. Yangi tahrirdagi "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun bu borada navbatdagi muhim qadam bo'ldi. Unda xodimning hayoti va sog'lig'i ustuvorligini ta'minlash, mehnatni muhofaza etish sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining shu sohadagi faoliyatini muvofiqlashtirish kabilar davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida belgilab qo'yilgani diqqatga sazovor[1, 2].

Ta'kidlash lozimki, bozor iqtisodiyotining zamonaviy holati va demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat organlari hamda xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, mamlakatda tadbirkorlik faoliyati va mehnat qonunchiligini rivojlantirish borasidagi ishlar natijalari bunga yaqqol misolidir[2, 3].

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Shu boisdan xodimlarga texnika xavfsizligi, ishlab chiqarish sanitariyasi, yong‘in chiqishdan saqlanish va mehnatni muhofaza qilishning boshqa qoidalari haqida yo‘l-yo‘riqlar berish hamda xodimlarning mehnatni muhofaza qilishning hamma talablariga rioya etishlarini doimiy ravishda tekshirib borishdek muhim vazifa ish beruvchi zimmasiga yuklatilgan[4].

Bundan tashqari, qator vazirliklar va tarmoq idoralari, yirik sanoat korxonalari, fuqarolik jamiyati institutlari, kasaba uyushmalari vakillari, soha ekspertlari Xalqaro mehnat tashkilotining konvensiya hamda tavsiyalari, xorijiy davlatlarning mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha qonunchiligi va me’yoriy hujjatlari o‘rganish orqali innovatsion metodlarni amaliyotga joriy qilish orqali mehnat sharoitlarini yaratish hamda mehnat xavfsizligini ta’minlash mamlakatimiz iqtisodiyotining yanada yuksalishida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mehnat iste’mol qiymatlarini vujudga keltirish uchun qilinadigan faoliyatdir. Fiziologik tomondan bu kishi organizmining funksiyasi va bunday funksiyaning har biri uning mazmuni va shakli qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, aslida kishi miyasining, asablarning, muskullarining, sezgi organlarining va shu kabilarining sarf qilinishidir[5, 6]. Mehnat jarayonida organizm hayot funksiyalarning o‘zgarishini mehnat fiziologiyasi o‘rganadi.

Mehnat jarayonida organizmning hamma funksiyalari ya’ni mushak faoliyati, oksidlanish-qaytarilish protsesslar va boshqalar keskin ravishda o‘zgaradi. Ish boshlanishidan ilgari, faqat ish joyiga kelish bilanoq odam funksiyalari tegishli ravishda o‘zgaradi[6]. Odatda puls tezlashadi va bir minutda sarf qilingan miqdori oshadi. Funksiyalarning bu shartli reflektor o‘zgarishida oliy nerv faoliyatining "ishga solish mexanizmlari" harakatga keladi. Katta yarim sharlar po‘stlog‘ining ishga solish ta’sirlari organizmning tinch holatidan, faoliyatli holatga keltiradi yoki shu paytgacha ichki ta’sirotlar ostida o‘tayotgan faoliyatni keskin ravishda kuchaytiradi. Lekin katta yarim sharlar po‘stlog‘i ishga solgan organlarga ham ta’sir qilishni davom etadi. Miya po‘stlog‘idan kelgan impulslar ishlayotgan organlarga ta’sir qilgan chog‘da, po‘stloq uyg‘unlashtirish ta’sirini ko‘rsatadi[6, 7].

Insonning ish qobiliyati yoki ish quvvatining talab qilinayotgan darajasini ish sifatini o‘zgartirmagan holda mumkin qadar uzoq saqlab qolish qobiliyati, bir necha faktorga bog‘liq. Bulardan eng muhimlari trenirovka va mashq emotsional holat, charchash va atrofdagi muhit sharoitlaridir[1, 8].

Ishlab chiqarishga oid mexanik ishni va qobiliyatini o‘lchash uchun mehnat fiziologiyasidan laboratoriya tekshirishlarini amalga oshirishda maxsus asboblar ergometrlardan foydalaniladi, bularning yordami bilan ko‘tarilayotgan yukning kattaligi va ko‘tarilishi balandligini yoki doimiy qarshilik yengiladigan yo‘lining uzunligini aniq hisobga olish va shunday qilib, foydali ishni kilogramm-metrlarda o‘lchash mumkin. Ishlab chiqarish sharoitlarida ishni o‘lchash ko‘pincha qiyin bo‘ladi. Lekin bunda "foydali ishni" aniq belgilash mumkin. Buning uchun bir joydan ikkinchi joyga ko‘chiriladigan yuklarni

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

o‘lchash, yo‘llarni o‘lchash va dinamometrlar yordami bilan qarshilikni, masalan ko‘chma va genetikalarni, aylantiriladigan richag va boshqalarni o‘lchash kifoyadir[1, 5, 8].

Hozirgi zamon ishlab chiqarish sharoitlarida bajarilayotgan ishlar ularning quvvatiga ya’ni vaqt birligi ichida bajarilayotgan ishning miqdoriga qarab 3 guruhga bo‘linishi mumkin: 1-yengil; 2- o‘rtacha; va 3-og‘ir ishlar. Yengil ishlar ishlar qatoriga minutiga kamroq kislorod iste’mol qilinadigan ishlar kiradi. Agarda odamning to‘la tinch holatda minutiga 200-250 sm^3 kislorod iste’mol qilinishi hisobga olinsa, yengil ish vaqtda kislorodning iste’mol qilinishi ko‘p deganda 2-2,5 hissa ortadi. O‘rta og‘irlikdagi ishlar qatoriga bir minutiga 1 litrgacha iste’mol qilinadigan ishlar kiradi, ya’ni bunda kislorodni iste’mol qilinishi tinch holatiga qaraganda 2-4 marta oshadi. Og‘ir ishlarga minutiga bir litrdan ortiq miqdorda kislorod iste’mol qilinadigan ishlar kiradi. Ish vaqtida kislorodning ko‘proq iste’mol qilinishiga sabab shuki, mushak ishi uchun zarur bo‘lgan energiya oziq moddalari natijasida hosil bo‘ladi. Lekin ayrim hollarda kislorod iste’mol qilinishi bajarilayotgan ish hajmdan qat’iy nazar qo‘llanishi mumkin. Masalan, kishi 13 sekund davomida maksimal tezlik bilan yugurganda kislorod iste’mol qilinishi ortiqcha ulgurmaydi va u keyinroq yugurish tugagandan keyin ko‘payadi[9].

Noto‘g‘ri tashkil qilingan va ko‘p diqqatni talab qiladigan ishning bunday salbiy natijalarini bartaraf qilmoq yoki anchagina kamaytirmoq uchun mehnatning sanitariya-gigiena sharoitlarini yaxshilash, ishni tartibga solish, qisqa muddatli tanaffuslar qilish, shu bilan birga ko‘p malaka talab qilmaydigan konveyerlarda ishlovchilarning ma’lum vaqt o‘tganda bir operatsiyadan ikkinchi operatsiyaga ko‘chirish lozim[9, 10].

Korxonalarda xavfsiz mehnat sharoitlarini to‘g‘ri tashkil etilishi ishchi-xodimlarni intizomli bo‘lishiga va bu o‘z navbatida mehnat unumdorligini oshirishiga, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni, asbob uskunalarni buzilishlari va boshqa ko‘zda tutilmagan holatlarning kamayishiga va oxir oqibatda ishlab chiqarish samaradorligini oshishiga va korxonaning barqarorligiga olib keladi[6].

Yuqoridagilarga asoslangan holda, ishlab chiqarida sodir bo‘lgan shikastlanishlarni statistik: guruhlash, koeffitsentlar, monografik, topografik va iqtisodiy usullarini ishchi shikastlash omili ta’siridagi haftalar, kunlar, soatlar orqali aniqlash formulalari aniqlanadi[11]. Hisob formulalarida ishchini(ishtirokchi shaxsni) ishlab chiqarishning shikastlash omili ta’siri maydonida («xavflar maydonida») bo‘lishi asos qilib olingan. Ishchini shikastlanish ehtimoli faqatgina u mehnat jarayonida, faoliyat turiga xos bo‘lgan shikastlash omili ta’siri maydonida («xavflar maydonida») mavjud bo‘ladi. Chunki ishchi shikastlash omili ta’siri maydonida ya’ni «xavflar maydonida» bo‘lgan haftada, kunda, soatda shikastlanishi mumkin[11]. Shuning uchun mehnat jarayonida, ish turiga xos bo‘lgan shikastlash omili ta’siri maydonida ya’ni «xavflar maydonida» shikastlanishlarini chastotasini, og‘irligini, xavfliligini quyidagi formulalar bilan aniqlash maqsadga muvofiq:

Jarohatlanish chastotasi – K_{ch}

$$K_{ch} = \frac{n_1}{n_{o'}} \cdot 1000 \qquad (1)$$

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

bu yerda: n_1 – baxtsiz hodisa tufayli ish qobiliyatini yo‘qotgan va halok bo‘lgan ishchilar soni;
$n_{o'}$ – o‘rtacha ishchilar soni.

Jarohatlanish og‘irligi – K_o


$$K_0 = \frac{D_{ik}}{n_2} \quad (2)$$

bu yerda: D_{ik} – hisobot davrida yo‘qotilgan jami ish kunlari soni;
n_2 – ish qobiliyatini yo‘qotgan ishchilar soni.

Ish kunining yo‘qotilganligi ko‘rsatkichi – K_{ik}

$$K_{ik} = \frac{D_{ik}}{n_{o'}} \cdot 1000 \text{, \%} \quad (3)$$

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, korxonalarda sodir bo‘layotgan ishlab chiqarish bilan bog‘liq baxtsiz hodisalarning kelib chiqish sabablaridan biri xodimlarning mehnatni muhofaza qilish talablariga va xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya etmasligidir. Ba’zan ish beruvchi tomonidan xodimlarning ish vaqti va dam olish vaqtini belgilashda, ularni xizmat safarlariga yuborishda xavfsizlik talablari buzilish holatlari ham uchrab turadi(rasmga qarang).



75-o‘lim bilan tugagan; 80-o‘lganlar; 122-oqibati og‘ir; 141-og‘ir jarohatlangan ; 17-oqibati yengil; 21-yengil jarohatlanganlar; 19-guruhiy; 47- jarohatlanganlar.

Rasm. Ishlab chiqarishdagi nomaqbul mehnat sharoitlari sodir bo‘lishi mumkin baxtsiz hodisalar oqibati.

1. Ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi amaliyotida joriy etilgan baxtsiz hodisalar statistikasiga asoslangan koeffitsientlar usulini vaziyatni o‘rganishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash imkonini beradi.

2. Ishlab chiqarida mehnat sharoitlarini mehnatni muhofaza qilish standartlari asosida tashkil qilish lozim

3. Xodimning salomatligining buzilishi, shikastlanishlar va kasb kasalliklarini o‘rganish va hisobga olish bo‘yicha ish yuritish hujjatlarining yagona elektron tizimini amaliyotga joriy etish lozim.

4. Mehnat faoliyatida xodimlar salomatligiga ta’sir qiluvchi omillarga e’tiborini kuchaytirish lozim,

5. Mehnatga oid normativ hujjatlarga amal qilinishi ustidan jamoat nazoratini olib borilishida mehnat muhofazasi tadbirlarini o‘tkazish lozim.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. E.I.Ibragimov, S.Gazinazarova, O.R.Yuldashev. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Darslik.-T.: TIMI, 2014.-536 b.
2. Narziev S. et al. Theoretical analysis of the causes of injury in sports activities and their reduction measures //Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. – 2020. – Т. 12. – №. S2. – С. 166-170.
3. Sulaimanovich S. S., Murtozaevich H. S. Causes and Prevention of Athlete Injuries During Training Sessions and Competitions //JournalNX. – С. 325-329.
4. Shovkiddin N. et al. Problems Of Ensuring The Safety Of Sports Activities And Reducing Injuries //Journal of Critical Reviews. – 2020. – Т. 7. – №. 11. – С. 428-432.
5. Sulaymonovich S. S., Murtozayevich N. S. Studying and accounting sports injuries //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 7. – С. 759-763.
Nomoddiy madaniy merosni saqlash va keyingi avlodlarga yetkazishni ta’minlash bo’yicha shunday tartib o’rnatilsinki, unga ko’ra 2024-yil 1-apreldan boshlab: a) noyob va (yoki) yo’qolib ketish xavfi ostida bo’lgan nomoddiy madaniy meros namunalari bo’yicha: madaniyat vazirligi tomonidan birinchi bosqichda ushbu toifadagi nomoddiy madaniy meros namunalarini saqlovchi 20 nafar shaxs aniqlanib, ularga nomoddiy madaniy meros namunalarini asrab-avaylash, ommalashtirish va keyingi avlodga yetkazish borasidagi faoliyatida ko’maklashiladi hamda ularning bu boradagi faoliyatini baholash ko ‘rsatkichlari belgilab beriladi; ushbu ko’rsatkichlarni bajargan nomoddiy madaniy meros namunalarini saqlovchi shaxslar Madaniyat vazirligining budjetdan tashqari jamg’armasi hisobidan har oyda 5 million so’m miqdorida rag‘batlantirib boriladi; b) alohida ahamiyatga ega bo’lgan

[2] D.Chinpo’latov. Nomoddiy madaniy meros va yoshlar. BMI. //Toshkent – 2019. 79 b
[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyun “Ma’muriy islohotlar doirasida madaniyat va turizm sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-114-sonli Farmoni bilan Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti deb atala boshlandan.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

nomoddiy madaniy meros namunalari bo'yicha: nomoddiy madaniy meros namunalarini yozib olish va keng targ'ib qilish, jumladan Internet va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilish uchun har yili 50 ta audiovizual asar yaratishga davlat buyurtmasi beriladi; audiovizual asar yaratish bo'yicha davlat buyurtmasi Madaniyat vazirligi tomonidan tuziladigan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi, "Hunarmand" uyushmasi va Madaniy meros agentligining nomoddiy madaniy meros namunalarini "tayyorlash – o'rgatish – tiklash – saqlash – ommalashtirish" yaxlit uzluksiz tizim asosida rivojlantirish bo'yicha taklifi ma'qullandi.

Bunda, tajriba tariqasida Farg'ona viloyati hokimligi Madaniyat vazirligi va "Hunarmand" uyushmasi bilan birgalikda Rishton xalqaro kulolchilik markazi va Marg'ilon shahridagi Hunarmandchilik markazida tegishlicha quyidagilarni ta'minlaydi: atlas va adras mahsulotlari hamda kulolchilik buyumlari tayyorlanadi, ularni tayyorlash "ustoz-shogird" tamoyili asosida yoshlarga o'rgatiladi, ilmiy tadqiqotlar, ko'rgazma va namoyishlar tashkil qilinadi, ularning savdosi yo'lga qo'yiladi; doimiy ekspozitsiyalar yaratiladi, shuningdek, atlas va adras mahsulotlari hamda kulolchilik buyumlarining eng yaxshi namunalari "Milliy merosga mening hissam!" umumxalq aksiyasi doirasida davlat muzeylariga xarid qilib olinadi.

Qarorda quyidagilar tasdiqlandi: Nomoddiy madaniy merosning alohida namunalarini ilmiy-amaliy asosda kompleks rivojlantirish bo'yicha o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish rejasi; Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilgani inobatga olinsin hamda uning asosiy vazifalari; YUNESKOning xalqaro ro'yxatlariga taqdim etish uchun nomzodnoma hujjatlari tayyorlanadigan nomoddiy madaniy meros namunalari ro'yxati; 2024 – 2026-yillarda nomoddiy madaniy merosni ilmiy o'rganish bo'yicha mahalliy va xorijiy etnofolklor ekspeditsiyalarini tashkil etish rejasi; 2024 – 2026-yillarda nomoddiy madaniy merosni ilmiy o'rganish va targ'ib qilish bo'yicha fundamental va maqsadli grantlar bo'yicha davlat buyurtmalari rejasi; 2024 – 2026-yillarda nomoddiy madaniy meros namunalarini elektron hujjat shaklida rasmiylashtirish rejasi; 2024 – 2026-yillarda Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini rivojlantirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari (indikatorlari); 2024-yilda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni yanada kengroq qo'llab-quvvatlash bo'yicha "yo'l xaritasi".

2024-yil 1-oktabrga qadar "Qadriyat" elektron platformasi va uning mobil ilovasini yaratsin hamda tegishli elektron xizmatlar va manbalar bilan integratsiya qilish ko'zda tutilgan. "Qadriyat" elektron platformasida: nomoddiy madaniy merosni, shu jumladan maqom va baxshichilik san'ati namunalarini o'zida saqlovchi va yetkazuvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar hamda ularning ro'yxati; nomoddiy madaniy merosni, jumladan maqom va baxshichilik san'ati namunalarini elektron hujjatlashtirish, hisobini yuritish va ular haqidagi materiallar, matn, foto va boshqa audiovizual asarlar; sohaga oid xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlar, mahalliy va xorijiy etnofolklor ekspeditsiyalari materiallari, xalqaro ro'yxatlarga kiritilgan nomoddiy madaniy meros namunalari haqidagi

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

batafsil ma’lumotlar joylashtiriladi hamda muntazam ravishda yangilab boriladi; “Qadriyat” elektron platformasini yaratish bilan bog’liq xarajatlar Ma’naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash maqsadli jamg‘armasiga ajratilgan budjet mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi hamda elektron platformani doimiy ravishda modernizatsiya qilish, texnik qo‘llab-quvvatlash va faoliyat yuritishi Institut tomonidan ta’minlanadi.

Quyidagilar Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot institutining asosiy vazifalari hisoblanadi: madaniyat sohasiga oid normativ-huquqiy baza, institutsional tizim va madaniyat muassasalari faoliyatini ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilish hamda ularni yanada takomillashtirish bo’yicha ilmiy xulosa va takliflar tayyorlash; xalqimizning ma’naviy-axloqiy va madaniy darajasini yanada yuksaltirish, yurtdoshlarimizni milliy madaniyatimiz va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalaridan keng bahramand etish, jamiyatning madaniy-estetik ehtiyojlarini ta’minlash bo’yicha ilmiy asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqish; madaniyat tashkilotlari, jumladan, madaniyat markazlari, teatrlar, sirk muassasalari, konsert tashkilotlari, madaniyat va istirohat bog’larining faoliyatini, shuningdek, madaniy-ommaviy, konsert-tomosha, gastrol tadbirlari, xalq ijodiyoti, badiiy hunarmandchilik, amaliy san’at turlari hamda xalq o’yinlarini ilmiy o‘rganish va ularni ilmiy-uslubiy jihatdan ta’minlash; madaniyat, san’at, badiiy ijod, madaniyatshunoslik hamda nomoddiy madaniy meros sohasida fundamental va amaliy ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, etnofolklor ekspeditsiyalarini uyushtirish, sohada innovatsion texnologiyalarni keng qo’llash, shuningdek, respublika va xalqaro miqyosda ilmiy va amaliy grant loyihalarini amalga oshirish; O’zbekiston Respublikasida nomoddiy madaniy meros muhofazasini tashkil etishning nazariy va ilmiy metodologik asoslarini yaratish; mamlakatimiz hududlaridagi nomoddiy madaniy meros elementlarining milliy ro’yxatini yuritish, hujjatlashtirish, muhofaza va nazorat qilish, bu yo‘nalishda davriy hisobotlarning tayyorlanishi va doimiy ravishda yangilab, to‘ldirib borilishini ta’minlash, ularning namunalarini umume’tirof etilgan xalqaro ro‘yxatlarga kiritish uchun tegishli hujjatlarni ishlab chiqish; aholi o’rtasida, ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlarda nomoddiy madaniy merosni keng targ’ib qilish, ommalashtirish hamda bu sohada ilmiy asoslangan uslublarni ishlab chiqish; ta’limning barcha turlari uchun nomoddiy madaniy meros sohasi bo‘yicha ta’lim standartlari va fan dasturlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, ilmiy-uslubiy tavsiyanomalar, shu jumladan, audio, video va elektron darsliklar, onlayn darslar hamda boshqa turdagi ilmiy-metodik materiallarni tayyorlash.[4]

O‘zbekistonda hozirgi kunga qadar YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro‘yxatiga O‘zbekiston tavsiyanomalariga binoan quyidagi 14 ta obyekt kiritilgan: Shashmaqom (Tojikiston bilan birgalikda, 2008); Boysun madaniy muhiti (2008); Navro‘z (Ozarbayjon, Hindiston, Eron, Qirg‘iziston, Pokiston va Turkiya bilan birga, 2009. Mazkur davlatlarga yana Tojikiston, Afg‘oniston, Iroq, Qozog‘iston, Turkmaniston ham qo‘shilgan, yangilangan tarkibda − 2016); Katta ashula (2009); Askiya (2014); Palov

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabr “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-405-sonli qarori.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

madaniyati va an’analari (2016); Xorazm raqsi “Lazgi” (2019); Miniatyura san’ati (Ozarbayjon, Eron va Turkiya bilan birga, 2020); Baxshichilik san’ati (2021); Xo‘ja Nasriddin haqidagi latifalarni takrorlash an’analari (2022); Ipakchilik va to‘quv uchun an’anaviy ipak ishlab chiqarish (2022); “O‘zbekistonda kulolchilik san’ati” (2023); “Bezak san’ati: naqqoshlik” (2023-yil Eron, Ozarbayjon, Tojikiston va Turkiya hamkorligida); “Iftor va uning ijtimoiy-madaniy an’analari” (2023-yil).[5]

Nomoddiy madaniy meros obyektlarini asrash, avaylash, targ’ib etish va kelajak avlodga bus-butun yetkazish barchamizning burjimizdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2011-yil 23-fevraldagi 47-son qarori
2. M.Xolmo‘minov. O‘zbekiston madaniyati va san’ati. // O‘zDSMI xabarlari jurnali. – Toshkent: 2024/2(29). – B. 116
3. Vazirlar Mahkamasining “2010 – 2020-yillarda nomoddiy madaniy meros ob’yektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2010-yil 7-oktabrdagi 222-son qarori
4. D.Chinpo‘latov. Nomoddiy madaniy meros va yoshlar. BMI. //Toshkent – 2019. 79 b
5. O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi, 2017.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabr “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-405-sonli qarori

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Yusupaliyeva Dilafruz Qahramonovna,** O’zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti dotsenti, siyosiy fanlar doktori, [**Юсупалийева Дилафруз Кахрамоновна**] [**Dilafruz Q. Yusupaliyeva**]; manzil: O’zbekiston, Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumani Qorasuv 4, 3b, 6-xonadon; [адрес: Узбекистан, Ташкент, Мирзо Улугбекский район, Карасув, 4, 3б, дом 6]; [address: Uzbekistan, Tashkent city, Mirza Ulugbek district, Karasuv, 4,3b, building 6.]

[5] M.Xolmo‘minov. O‘zbekiston madaniyati va san’ati. // O‘zDSMI xabarlari jurnali. – Toshkent: 2024/2(29). – B. 116

CC BY NC ND

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original paper

AUDITORIYA MASHG‘ULOTLARIDA TALABALARNING MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIDA HADIS ILMIDAN FOYDALANISH, SHAKL USUL VOSITA VA TEXNOLOGIYALARI

© G.K.Fayzullayeva[1]✉
[1]Turon Zarmed universiteti, Buxoro, O'zbekiston.

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada auditoriya darslarida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda Hadis ilmining zamonaviy shakl usullari, vositalari va texnologiyalari bilan bir qatorda qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotdan maqsad Hadis fanini ma’naviy-axloqiy ta’lim dasturiga zamonaviy ta’lim uslub va texnologiyalaridan foydalangan holda kiritish samaradorligini o‘rganishdan iborat. Tadqiqot talabalar o'rtasida axloqiy tamoyillarni har tomonlama tushunish va qo'llashni rivojlantirish uchun ushbu elementlarni birlashtirish bo'yicha eng yaxshi amaliyotlarni aniqlashga intiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda sifat va miqdoriy tadqiqotlarni birlashtirgan aralash usullardan foydalaniladi. Materiallarga klassik hadis matnlari, zamonaviy sharhlar, ta’lim texnologiyalari va o‘quv dizayn asoslari kiradi. Usullar o'qituvchilar va talabalar bilan so'rovlar va suhbatlar, sinfda kuzatishlar va ta'lim natijalarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Miqdoriy ma'lumotlar o'quvchilarning axloqiy tushunchalari va xulq-atvorini oldindan va keyingi baholash orqali, sifatli ma'lumotlar esa suhbat va kuzatishlarni mavzuli tahlil qilish orqali to'planadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: hadis fanlarini o'quv dasturiga kiritish asosiy axloqiy va ma'naviy mavzularga tegishli hadislarni tanlashni o'z ichiga oladi. Pedagoglar bu hadislarni talabalarning kundalik tajribalari bilan aks-sado beradigan kontekstda taqdim etishlari kerak.So‘rovlar shuni ko‘rsatadiki, hadis ilmi bilan shug‘ullangan talabalar axloqiy tamoyillarni chuqurroq tushunadilar va bu tamoyillarni kundalik hayotlarida qo‘llash qobiliyatini oshiradilar. Suhbatlar shuni ko'rsatadiki, talabalar hadis ta'limotlarini ham ilhomlantiruvchi, ham amaliy deb bilishadi.

XULOSA: tadqiqot xulosasiga ko‘ra, hadis ilmining ma’naviy-axloqiy tarbiyaga integratsiyalashuvi, zamonaviy shakl uslublari, vositalari va texnologiyalari bilan qo‘llab-quvvatlanishi talabalarning axloqiy va ma’naviy kamolotini sezilarli darajada oshiradi. Multimedia resurslari, interfaol vositalar va aks ettiruvchi ta'lim strategiyalaridan foydalangan holda o'qituvchilar o'quvchilar bilan rezonanslashadigan qiziqarli va ta'sirli o'quv tajribalarini yaratishi mumkin.

Kalit so'zlar: hadis, hadisshunoslik, odob-axloq, ta’lim-tarbiya, hadis, hadis ilmi, ma’naviy meros, hadis ilmiga oid ma’naviy axloqiy tarbiya, metod.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Iqtibos uchun: Fayzullayeva G.K. Auditoriya mashg‘ulotlarida talabalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida hadis ilmidan foydalanish, shakl usul vosita va texnologiyalari // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 343–351.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НАУКИ ХАДИСОВ, ФОРМ-МЕТОДА, СРЕДСТВ И ТЕХНОЛОГИЙ В ДУХОВНО-ЭТИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ ОБУЧАЮЩИХСЯ НА АУДИТОРНЫХ ЗАНЯТИЯХ

© Г.К. Файзуллаева[1]✉
[1]Университет Туран Зармед, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: социальное сиротство является актуальной проблемой, затрагивающей многие общества во всем мире. В отличие от биологических сирот, когда дети теряют своих родителей в результате смерти, социальные сироты часто возникают, когда живые родители бросают детей или игнорируют их из-за социально-экономических проблем, злоупотребления наркотиками или распада семьи. В данной статье проблема социального сиротства рассматривается с социологической точки зрения, исследуя ее причины, последствия и возможные пути решения.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является изучение феномена социального сиротства, понимание его основных причин и анализ влияния на детей и общество. Исследование направлено на определение эффективных стратегий и политики, которые могут смягчить последствия социального сиротства и поддержать пострадавших детей.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использован смешанный методический подход, включающий качественные и количественные методы исследования. Материалы включают опросы, интервью и тематические исследования социальных сирот и их семей, а также вторичные данные государственных и неправительственных организаций.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: социальное сиротство оказывает глубокое воздействие на психологическое, эмоциональное и социальное благополучие детей. Это часто приводит к задержке развития, эмоциональному стрессу и социальной изоляции. Интервью с социальными сиротами выявили высокий уровень тревоги, депрессии и чувства покинутости. Эти дети также сталкиваются с трудностями в обучении, и многие из них изо всех сил пытаются не отставать в учебе от своих сверстников.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: согласно результатам исследования, социальное сиротство представляет собой сложную и многогранную проблему, требующую комплексного подхода для ее эффективного решения. Экономическая поддержка, надежные социальные услуги и вовлечение населения являются важнейшими компонентами смягчения последствий. Политики и практики должны сосредоточиться на создании устойчивых систем поддержки, которые предотвращают социальное сиротство и

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

помогают пострадавшим детям преодолевать его проблемы. Будущие исследования должны продолжать изучать инновационные решения и оценивать их долгосрочное воздействие на социальных сирот и их семьи. Решение проблемы социального сиротства – это не только моральный долг, но и важный шаг на пути к построению более здорового и инклюзивного общества.

Ключевые слова: хадис, хадисоведение, нравы, образование, хадис, хадисоведение, духовное наследие, нравственное воспитание, связанное с хадисоведением, метод.

Для цитирования: Файзуллаева Г.К. Использование науки хадисов, форм-метода, средств и технологий в духовно-этическом воспитании обучающихся на аудиторных занятиях. // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 343–351.

USE OF THE SCIENCE OF HADITH, FORM METHOD TOOLS AND TECHNOLOGIES IN SPIRITUAL AND ETHICAL EDUCATION OF STUDENTS IN AUDITORIUM CLASSES

© Gulnoza K. Fayzullayeva[1]✉
[1]Turan Zarmed University, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article examines the use of the science of Hadith along with modern forms of methods, tools and technologies in the spiritual and moral education of students in classroom classes.

AIM: the purpose of this study is to study the effectiveness of the introduction of Hadith science into the spiritual and moral education program using modern educational methods and technologies. The study seeks to identify best practices for integrating these elements to foster a comprehensive understanding and application of ethical principles among students.

MATERIALS AND METHODS: the study uses mixed methods combining qualitative and quantitative research. Materials include classic hadith texts, modern commentaries, educational technologies, and instructional design fundamentals. Methods include surveys and interviews with teachers and students, classroom observations, and analysis of learning outcomes. Quantitative data will be collected through pre- and post-assessments of students' ethical understandings and behaviors, and qualitative data will be collected through thematic analysis of interviews and observations.

DISCUSSION AND RESULTS: the inclusion of hadith studies in the curriculum involves the selection of hadiths relevant to key moral and spiritual themes. Educators should present these hadiths in a context that resonates with students' everyday experiences. Surveys show that students who study hadiths develop a deeper understanding of moral principles and an increased ability to apply these principles to

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

their daily lives. Interviews show that students find the teachings of hadith both inspirational and practical.

CONCLUSION: according to the conclusion of the research, the integration of hadith science into spiritual and moral education, supported by modern methods, tools and technologies significantly increases the moral and spiritual maturity of students. Using multimedia resources, interactive tools, and reflective learning strategies, educators can create engaging and impactful learning experiences that resonate with students.

Key words: hadith, hadith studies, morals, education, hadith, hadith studies, spiritual heritage, moral education related to hadith studies, method

For citation: Gulnoza K. Fayzullayeva. (2024) 'Use of the science of hadith, form method tools and technologies in spiritual and ethical education of students in auditorium classes', Inter education & global study, (4(2)), pp. 343–351. (In Uzbek).

Muhtaram Prezidentimiz o‘z asarlarida Islom dini ezgulik dini ekanligini, bu dinning asl mohiyati nimalardan iborat ekanligini quyidagicha ta'riflaydilar: «Ezgu odatimizga aylanib ketgan mehr-oqibat tushunchasini oladigan bo‘lsak, uning juda teran tarixiy, milliy, diniy ildizlari borligini ko‘rish mumkin. Bu avvalo insonning inson bilan, qo‘shnining qo‘shni bilan, qarindoshning qarindosh, oilaning oila bilan, eng muhimi, shaxsning jamiyat bilan uyg‘un bo‘lib yashashini, yetim-esir, beva-bechora va nogironlarga, musofirlarga saxovat ko‘rsatish, sidqidildan, beg‘araz yordam berishni anglatadi va bunday xususiyat xalqimizning ma'naviy olamiga singib ketganini hech kim inkor eta olmaydi»[2].

Ma’naviy meros, umumbashariy qadriyatlarga tayangan holda shaxsni yuksak ma’naviyatli va go‘zal axloqli qilib tarbiyalash uchun, eng avvalo, ta’lim-tarbiya jarayonini foydali elementlar bilan boyitish zarur bo‘ladi.

Axloqiy tarbiya vazifalaridan yana biri insonning jamiyatga bo'lgan munosabatini yuqori pog'onaga ko'tarishdir.

Yosh yigit va qizlarimiz mustaqil hayotga kirib borishi, yosh oilalarning o‘z o‘rinlarini topa olishida, kishilar o‘rtasida mehr-oqibatning, birodarlikning tarkib topishida mahalla oqsoqollari va nuroniy otaxonlar, onaxonlarning tutgan o‘rinlari muhimligini ta’kidlash lozim. Yoshlar ma’naviy tarbiyasida ota-ona mas’uliyati alohida o‘rin tutadi. Insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk bor hayot to‘g‘risidagi tushunchalar, dunyoqarashlar, yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus, andisha kabi inson uchun zarur bo‘lgan muqaddas tushunchalar dastlab oilada qaror topa boshlaydi va so‘ngra jamoaga ko‘chadi.

Yoshlarning ma’naviy ehtiyojlarini to‘laroq qondirish uchun ta’lim-tarbiyaga xizmat qiladigan muhim vositalarni yangi sifat bosqichiga ko‘tarish zarur bo‘ladi. Shu bilan birga

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

bu sohalardagi mavjud katta-kichik kamchiliklar va nuqsonlarga tezlikda barham berish va bunday salbiy holatlardan qutilish lozim bo‘ladi[1].

Yoshlarning tarbiyasiga ta’sir etuvchi omillar ijobiy va salbiyga bo‘linadi. Alloh taoloning oxirgi va mukammal dini, qiyomatgacha boqiy qoluvchi, barcha zamonlar va makonlarda insoniyatga ikki dunyo saodati yo‘lini ko‘rsatib beruvchi din. Islomda yoshlarning tarbiyasiga oid ko‘plab oyat va hadislar vorid bo‘lgan. Mana shu oyat hadislarga og‘ishmasdan, to‘laligicha amal qilinsa, Allohning tavfiqi bilan, o‘sib o‘nayotgan farzandlar chiroyli xulqli, odobli, tarbiyali bo‘lib o‘sadilar va umrlarining oxirigacha shunday yashaydilar. Ulardan barcha mamnun bo‘ladi, insonlarning hurmatiga, muhabbatiga sazovor bo‘lishadi. Islom dini hech kimni hech qachon yomonlikka chaqirmaydi balki doimo yaxshilik qilishga, go‘zal xulqlar bilan xulqlanishga, halol yashashga chaqiradi. Bu tarbiyaning islomiy ko‘rinishi[3].

Demak, jamiyat ma’naviy-axloqiy muhitiga oid axloqiy kategoriyalar o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xulosaga kelish mumkin.

Birinchidan, ma’naviy-axloqiy muhitda insonlarning o‘zaro ma’naviy hamkorligi muhim o‘rin tutadi. Bunda shaxsning yaxshi-yomonni farqlashi, vijdonli, or-nomusli bo‘lishi va baxtli yashashga intilish ko‘nikmalarini hosil qilishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, shaxsni ma’naviy-axloqiy muhitda o‘zaro ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash asosiy masalalardan biri. Bunda shaxsning irodasini mustahkamlash, uni haqiqatgo‘y va insonparvar qilib voyaga yetkazish asosiy maqsad hisoblanadi.

Uchinchidan, ma’naviy-axloqiy muhitda shaxsda mas’uliyat hissini tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu o‘rinda shaxsda adolat, majburiyat va hayotsevarlik tuyg‘u hamda ko‘nikmalarini hosil qilish asosiy masalalardan biridir.

Umuman, jamiyat ma’naviy-axloqiy muhiti, qadriyatlari axloqiy kategoriyalari asosini, umuminsoniy va milliy fazilatlar negizini yaxshilik va yomonlikni farqlash, vijdon, or-nomus, iroda, haqiqat, insonparvarlik, adolat, majburiyat va hayotsevarlik kabi insoniy fazilat va xislatlar tashkil etadi. O‘zida bu fazilatlarni mujassamlashtirgan ushbu uyg‘unlik jamiyatda ijtimoiy tartiblar, huquq, odob me’yorlarini anglab olishga, unga rioya qilgan holda ijtimoiy hayotni qadirlashga olib keladi. Biz milliy ma’naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o‘z oldimizga asosiy vazifa qilib qo‘yar ekanmiz, bugungi kunda ma’naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta’sir o‘tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o‘rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an’analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Bizning qadimiy va go‘zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e’tirof etmoqda. Bu

[1] Yoshlarning tarbiyasida ma'naviyatning o'rni - Mirarabmadrasa

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog‘liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko‘tarilishida ona yurtimizda tug‘ilib kamolga yetgan ulug‘ allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi[4]. Iymon va insof, so’z va ish birligi, insonparvarlik - yangi qurilayotgan jamiyatning asosiy xususiyatlari bo'lib qoladi. Shunday ekan, jamiyat va xalq manfaati, uning baxt-saodati uchun kurashish mas'uliyatini har bir fuqaro teran his etishi va unga amal qilishi lozim. Yoshlarni tarbiyalashda sharqona va milliy axloq- odob normalari asosida ish yuritish bilan birga jamiyatga hurmat, mustaqillikni mustahkamlash, insonlarga insoniy munosabatd bo‘lish kabi fazilatlami singdirish taqozo etiladi. Axloqiy tarbiya odamlarni nomusli, vijdonli, adolatli, vatanparvar, mehnatsevar bo’lishga o’rgatish bilan profilaktika ishlarini ham olib boradi. Axloqiy tarbiyada yaxshi xulq takomillashtirish uchun kurashiladi.

Imom al-Buxoriy Islom olami va muhaddislar orasida «Imom ul-Muhaddisiyn» (Barcha muhaddislarning peshvosi) deb hurmat bilan tilga olinadi. Imom al-Buxoriyning «Al-Jome’ as-Sahih» (Ishonarli to‘plam) asari haqida so‘z ketganda shuni aytish mumkinki, mazkur manba Islom dini ta’limotida Qur’oni karimdan keyin asosiy manba sifatida foydalaniladi. Ushbu asar oliy ta’limda tahsil oladigan talabalarda hurfikrlilik, erkin fikrlash, o‘zlikni anglash, irodaviy va hissiy imkoniyatlarni rivojlantirish, pedagogik qobiliyatlarini shakllantirish, ta’lim jarayonidagi mahoratini oshirish, pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish kabi tushunchalarni yoritishda qimmatli pedagogik manba sanaladi va ta’lim-tarbiya jarayonida ma’naviyat tushunchasini izohlashda va yuksak ma’naviyatli shaxs timsolini shakllantirishda metodologik asos bo‘la oladi.

Quyidagi ta’lim metodlari va vositalari Imom al-Buxoriy va at-Termiziy ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlaridan foydalanishda samarali sanaladi:

1. Suhbat metodi – talabalar Imom al-Buxoriy va at-Termiziy ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlari borasida tushunchaga egaliklarini anglash, uning yoshlarda ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish borasidagi fikrlarini o‘rganish hamda muammo yuzasidan erkin, mustaqil fikr yuritishlarini ta’minlashga yordam beradi.

2. Savol-javob metodi – oliy ta’lim muassasasi talabalarining ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid Imom al-Buxoriy va at-Termiziyning qarashlari haqidagi shaxsiy mulohazalarini aniqlashga xizmat qiladi. Savollarning aniq, qisqa bo‘lishi va to‘g‘ri ifodalanishi talabalarga mantiqiy fikrlashga imkon beradi.

3. Ma’ruza metodi – talabalarda Imom al-Buxoriy va at-Termiziy ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlarining mohiyatini anglatish, asarlarining ma’nosini to‘g‘ri tushuntirish, shaxsda so‘z yuritilayotgan ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish omillari, shart-sharoitlar va pedagogik imkoniyatlari to‘g‘risida ma’lumotlar berishga yo‘naltiriladi.

4. Tushuntirish metodi – talabalarda Imom al-Buxoriy va at-Termiziy ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid hadislaridan foydalanishning nazariy mohiyati va unga ega bo‘lishning ijtimoiy ahamiyati, millat ravnaqi, yurt ozodligini ta’minlashdagi roli haqidagi tushunchalar hosil qilinadi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

5. Interfaol metodlar – talabalar tomonidan Imom Buxoriyva at Termiziy ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid asarlari hamda shaxsda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning shakllanishi yuzasidan erkin, mustaqil fikr yuritish, bahs-munozarani tashkil etish ko'nikma va malakasining tarbiyalanishi, talabalarning standart fikr yuritishdan ozod etish, shuningdek, muhokama etilayotgan muammoning yechimiga oid rang-barang g'oyalarni to'plashga imkon beradi.

6. Ekspert baholash metodi – tadbirlar ishtirokchilari (respondentlari) faoliyatining tengdoshlar tomonidan o'zaro yoki maxsus belgilangan ekspertlar guruhi tomonidan xolis, obyektiv, har tomonlama to'g'ri baholanishini ta'minlashga yordam beradi.

7. Hikoya qilish metodi Imom Buxoriyva at-Termiziyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid asarlarining ijtimoiy ahamiyati, bugungi kundagi ma'naviy-axloqiy tarbiyadagi o'rni, yoshlarda so'z yuritilayotgan tarbiyani takomillashtirish yuzasidan jonli nutq yordamida tushuntirishlarni olib borish hisoblanadi. Tushuntirish talabalar tomonidan muammoning mohiyatini to'g'ri anglanishiga imkon yaratadi.

8. Muammoli vaziyatlarni yaratish metodi – talabalarni tadqiqot muammosi hamda uning mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalar yuzasidan har tomonlama jiddiy fikr yuritish, muammoning yechimini topishda mavjud intellektual imkoniyatlardan foydalana olish ko'nikmasining shakllanishini ta'minlaydi.

9. Manba bilan ishlash metodi – Imom al-Buxoriyva at-Termiziyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid hadislari mohiyatining talabalar tomonidan to'g'ri va to'laqonli anglanishi, ularning e'tiboriga havola etilayotgan savollar, muammoli vaziyatlar bo'yicha kichik tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish ko'nikma hamda malakalariga ega bo'lishlariga yordam beradi.

10. Ko'rgazmalilik metodi – talabalar tomonidan o'zlashtirilayotgan nazariy ma'lumotlarni mustahkamlash, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mohiyatini to'laqonli anglanishi, bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarining tarbiyalanishi uchun zarur sharoitni yuzaga keltiradi.

11. Faoliyatda mashqlantirish (amaliy mashqlar) metodi –intellektual treninglar asosida talabalarda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning takomillashishi uchun sharoit yuzaga keladi.

12. Amaliy tajribalar (tadqiqotchilik) metodi –talabalar e'tiboriga havola etilayotgan mavzularda mantiqiy fikr yuritish, shaxsiy fikr-mulohazalarini ilgari surish, o'z qarashlarini dalillash, himoya qilish, tengdoshlarini ularga ishontirish ko'nikma va malakalarining tarbiyalanishiga yordam berish bilan birga ular tomonidan muammo mohiyatini chuqur anglanishi uchun zarur shart-sharoitni yuzaga keltiradi. Imom al-Buxoriy va at-Termiziy ma'naviy merosining nazariy va amaliy jihatlarini yoritishda qo'llaniladigan ta'lim vositalari ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. O'qitishning asosiy vositalari sifatida asosiy o'quv mazmuniga ega bo'lgan rejalar, o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalarda Imom al-Buxoriy va at-Termiziy ilmiy merosidan yetarlicha foydalanishni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Imom Al-Buxoriy ta'limotining o'quvchilar tarbiyasidagi o'rni

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

mavzusidagi keys-stadi

Pedagogik annotatsiyasi

O‘quv predmeti: «Pedagogika tarixi.»

Mavzuning nomi: «Imom Al-Buxoriy ta’limotining o‘quvchilar tarbiyasidagi o‘rni»

Ishtirokchilar: Oliy ta’limning Pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabalari.

O‘qitishning maqsadi: Buyuk Sharq allomalarining pedagogik qarashlari bo‘yicha egallangan bilimlarni yanada chuqurlashtirish maqsadida Imom al- Buxoriyning ma’naviy merosi bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish.

Rejalashtirilayotgan o‘quv natijalari: Imom Al-Buxoriy asarlarida shaxs tarbiyasi, odob-axloqi, muomalasi va hozirgi globallashuv jarayonidagi ma’naviy uyg‘unlikni ko‘rsatib berish,alloma hadislarida inson tarbiyasi va ularni hozirgi taraqqiyot sharoitida ustuvor yo‘nalish sifatida tan olingan komil inson tushunchasi bilan qiyoslab undagi bunyodkor g‘oyalarni uzluksiz ta’lim tizimidagi yoshlarni tarbiyalash jarayonida foydalanish yo‘llari bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun oldindan o‘quvchilarquyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmoqlari zarur: o‘quvchi bilishi kerak:

Imom Al-Buxoriy ibratli hayotini, serqirra ijodiy faoliyatini, ta’limotini, «Aljome as-sahih», « Al-Adab Al-mufrad» asarlarini.

O‘quvchi amalga oshirishi kerak:

- mavzuni mustaqil o‘rganadi; muammoning mohiyatini aniqlashtiradi; g‘oyalarni ilgari suradi; ma’lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqib, mustaqil qaror qabul qilishni o‘rganadi; o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lib, mantiqiy xulosa chiqaradi; o‘quv ma’lumotlar bilan mustaqil ishlaydi; ma’lumotlarni taqqoslaydi, tahlil qiladi va umumlashtiradi;

O‘quvchi ega bo‘lmog‘i kerak:

- taqdimot ko‘nikmalariga; hamkorlikdagi ishlar ko‘nikmalariga; muammoli holatlarni tahlil qilish ko‘nikmalariga.

Ushbu keysdan «Pedagogika nazariyasi va tarixi», fanini o‘qitishda foydalanish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Pedagogika tarixi [Mat]: o'quv qo'llanma / S.O. Sharifzoda, S.N. Yuldashev, A.R. Jo'rayev, Sh.E. Yaqubova, H.Q. Karimov. - Toshkent: Bookmany print, 2022. - 172 b. 30-bet
2. O‘zbekiston musulmonlari idorasi Samarqand viloyati vakilligi (sammuslim.uz)
3. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. [Matn] /darslik/ Gulchehra Izbullayeva. – Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona, 2022. – 380 b
4. Yoshlarning tarbiyasida ma'naviyatning o'rni - Mirarabmadrasa

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

5. Yoshlar tarbiyasi — jamiyatdagi muhim masala! » Ўзбекистон Мусулмонлар идораси Навоий вилоят вакиллиги расмий веб-сайти (hazratnavoi.uz)
6. https://e-adabiyot.uz/maqola/183

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Fayzullayeva Gulnoza Kamolovna**, o'qituvchi, [**Файзуллаева Гулноза Камоловна,** преподаватель], [Gulnoza **K. Fayzullayeva,**teacher]; manzil: Buxoro shahri, Qayum Murtazoyev ko'chasi, 13A uy. [адрес: город Бухара, улица Каюма Муртазоева, дом 13А.], [address: Bukhara city, Qayum Murtazoyev street, 13A house.] madina@mail.ru

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

TELESERIALNING FORMAT SIFATIDA SHAKLLANISHI

© M.O.Axmetjanova[1]✉
[1]O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: teleserial yoki zamonaviy madaniyat odatlariga teleserialda dominant formatga aylandi, tomosha qilish uchun ta'sir qiladi va rivoyatlarni shakllantiradi. Ush teleserialning formatida maqola evolyutsiyasini o'rganadi, uning kelib chiqishi, ishlab chiqarish va televidenie va tomoshabinlarga ta'sirini o'rganadi.

MAQSAD: tadqiqotning maqsadi teleserialning teledasturlashda muayyan formatda ishlab chiqarishni tahlil qilishdir. Tadqiqot telekompaniyalarning mashhurligiga qo'shimcha yordam ko'rsatish, dasturiy ta'minot va tematik manbalar.

MATERIALLAR VA METODLAR: hisob-kitob arxivi auditi, kontent tahlili va o'rganish birlashmasidan obyekt tarixiy va tahliliy tahlilni qo'llaydi. Materiallarga dastlabki teleserial skriptlari, ishlab chiqarish yozuvlari, tomoshabinlar ma'lumotlari va tanqidiy sharhlar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: madaniy rivoyatlarga ta'sir ko'rsatish, nutqni shakllantirdi va ijtimoiy xizmatlarni Tele aks ettirdi. Ular, media o'quvchilar madaniyati va ijtimoiy ta'siri orqali jamiyatni qurishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tomoshabinlar tomonidan o'zining rivojlanishi shuni ko'rsatadiki, teleseriallar chuqur his-tuyg'ularni jalb qiladi. Mashhur seriallardagi mavzular va qahramonlar ko'pincha ijtimoiy suhbatlar va madaniy tendentsiyalarga ta'sir qiladi.

XULOSA: teleserialning format sifatida sifatli televidenie sanoat va tomoshabinlarning o'ziga xos vositalariga chuqur ta' ko'rsatadi. Teleseriallar o'zining dastlabki davridan to hozirgi kungacha o'zgartirilgan, madaniy va iste'mol talablarini rivojlanishi uchun rivojlandi.

Kalit so'zlar: televideniye, teleserial, audiovizual format, efir, model

Iqtibos uchun: Axmetjanova M.O. Telesirialning format sifatida shakllanishi. // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 352–357.

СТАНОВЛЕНИЕ ТЕЛЕСЕРИАЛА КАК ФОРМАТА.

© М.О.Ахметжанова[1]✉
[1]Академия наук Республики Узбекистан, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: телесериалы или современная культура стали доминирующим форматом телесериалов, влияющим на просмотр и формирование повествований.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Уш исследует эволюцию статьи в формате телесериала, исследуя ее происхождение, производство и влияние на телевидение и аудиторию.

ЦЕЛЬ: цель исследования – проанализировать производство сериалов определенного формата в телепрограммах. Дополнительная поддержка популярности исследовательских телекомпаний, программного обеспечения и тематических ресурсов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: использует исторический и аналитический анализ объектов из аудита бухгалтерского архива, контент-анализ и интеграцию обучения. Материалы включают оригинальные сценарии телесериалов, производственные заметки, информацию об аудитории и критические обзоры.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: влияние на культурные нарративы, формируемый дискурс и социальные услуги телевизионных передач. Они, средства массовой информации, играют решающую роль в построении общества посредством культуры и социального влияния студентов. Его освоение зрителями показывает, что сериалы вызывают глубокие эмоции. Темы и персонажи популярных сериалов часто влияют на социальные разговоры и культурные тенденции.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: качественное телевидение как формат телесериалов оказывает глубокое влияние на специфические инструменты индустрии и аудиторию. С первых дней своего существования и до наших дней телесериалы развивались, чтобы удовлетворить меняющиеся культурные и потребительские запросы.

Ключевые слова: телевидение, телесериал, аудиовизуальный формат, трансляция, модель.

Для цитирования: Ахметжанова М.О. Становление телесериала как формата. // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 352–357.

FORMATION OF TELESERIAL AS A FORMAT

© Mohinur O. Axmetjonova[1]✉
[1]Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: TV series or contemporary culture has become the dominant format in TV series, influencing viewing and shaping narratives. Ush explores the evolution of the article in the format of the television series, exploring its origins, production, and impact on television and audiences.

AIM: the purpose of the study is to analyze the production of TV series in a specific format in television programming. Additional support for the popularity of research TV companies, software and thematic resources**.**

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

MATERIALS AND METHODS: Uses object historical and analytical analysis from accounting archive audit, content analysis, and learning integration. Materials include original TV series scripts, production notes, audience information, and critical reviews.

DISCUSSION AND RESULTS: Impact on cultural narratives, shaped discourse, and telecast social services. They, media play a crucial role in building society through the culture and social influence of students. Its development by the audience shows that TV serials appeal to deep emotions. Themes and characters in popular series often influence social conversations and cultural trends.

CONCLUSIONS: Quality TV as a format of TV series has a deep influence on the specific tools of the industry and the audience. From its early days to the present day, television series have evolved to meet changing, cultural and consumer demands.

Key words: television, TV series, audiovisual format, broadcast, model Key words:

For citation: Mohinur O. Axmetjanova. (2024) 'Formation of teleserial as a format., Inter education & global study, (4(2)), pp. 352–357. (In Uzbek).

Teleserial, ekran san'atining alohida tuzilish va funksiyalarga ega bo'lgan bir formati bo'lib, televideniyening ajralmas qismiga aylanib ulgirgan. Ilk teleserial dunyo yuzini ko'rganiga salkam sakson yil to'ldi ("Faraway Hill", 1946) va bu davr mobaynida u ko'plab bosqichlarni bosib o'tdi. Teleseriallar amaliy va nazariy jihatdan rivoj topishi bevosita adabiyot, teatr, radio, televideniye va kino san'ati bilan bog'liq.

1949-1957-yillar mobaynida seriallarning audio va audiovizual formatda tinglovchilar va tomoshabinlarga taqdim etildi. Ya'ni televizon va radio efirda seriallar parallel ravishda tomoshabinlarga namoyish etildi. Qiziqarli jihati shundaki, televideniyeda suratga olingan tayyor asarni audio shakli radioda ham yangradi. Ushbu faktor yuqorida aytilgandek, teleserialning ildizlaridan biri radioserial bo'lganini isbotlaydi. Tabiiyki, hali televideniyeda dastur tuzilmasi ishlab chiqilmagan davrda radio va teleserialning formati bir biridan katta farq qilmagan. S.Zayseva I.Filipsning "The Building Light" (AQSh) teleserialini "Radio serialni televideniye uchun moslashtirishning yagona ijobiy tajribasi" – deya baholaydi va aynan shu teleserial orqali "Radio va televideniye tilining tabiatidagi farq yaqqol namoyon bo'ldi" [1, 14] deya ta'riflaydi. Bu ma'lumotlarga tayanib, "The Building Light" teleserialning shakllanishi tomon ulkan qadam degan xulosaga kelish mumkin.

Ilk teleseriallar jonli tarzda efirga uzatilgan bo'lib, ularning katta qismi tasmalarga yozib olinmagani sababli saqlanib qolmagan. Bu bir tomondan hali televideniyeda materiallarni yozib olish imkoniyatlari cheklanganligiga borib taqalsa, ikkinchi tomondan dastlabki teleseriallar faqatgina televideniye efirini to'ldiruvchi bir martalik tomosha sifatida baholanganligini anglatadi. AQSh televideniyesida "Tv-show" atamasi shu yo'sinda paydo bo'ldi. Ilk teleseriallar AQSh televideniyesida vujudga kelgani sababli, bugunga qadar "televizion asarning amerikacha varianti" degan qarash saqlanib qolgan.

Teleseriallar rivoji Buyuk Britaniya va AQSh televideniyesi modeli bilan bog'liq bo'lib, u aynan Amerika televideniyesi orqali eng yuqori cho'qqiga erishdi. "Buyuk Britaniyadagi

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

BBC har doim o‘yin-kulgini ta’lim va yuksak madaniyat bilan muvozanatlashga intilgan, Amerikada esa televideniye har doim tijoriy maqsadga bo‘ysundirilgan bo‘lib, reytinglarga e’tibor qaratgan va “the least objectable programming” konsepsiyasiga amal qilgan, ya’ni dasturlarni keng auditoriyaning didiga moslashtirishga intilgan” [2,18]. Buyuk Britaniya va AQShda teleserial suratga olishda bu an’analar bugungacha saqlanib qolgan.

Buyuk Britaniya televideniyesi ko‘p qismli badiiy teleasarlar yaratishda klassik adabiy asarlardan foydalanish an’anasini boshlab berdi. BBC telekanali tomonidan 1951-yilda “The Warden” (E. Trillop romani) birinchi mini teleseriali efirga uzatildi. Shu tariqa J. Ostinning mashhur romanlari “Andisha va g‘urur” (1952), “Jeyn Eyr” (1953) va “Ishonch” (1960), Ch. Dikkensning “Barnabi Raj” (1960) romani asosida mini seriallar suratga olindi.

1953 yilda Bi-bi-si televideniye uchun maxsus yozilgan birinchi olti qismli teleserial “Quatermass Experiment”ni efirga uzatdi. Lime Grove Studios tomonidan bolalar uchun suratga olingan “The Appleyards” (rej. Naomi Kapon, 1952-1957) Buyuk Britaniyada suratga olingan birinchi soap opera bo‘ldi. Keyin esa birin-ketin “Emergency Ward 10” (1957–1967), “The Grove Family” (1954–1957), “Sixpenny Corner” (1955–1956), “Star and Company” (1958) teleseriallari suratga olindi.

1960-yillarga kelib Britaniyada qirollik va xususiy telekanallar o‘rtasida raqobat boshladi. Shu sababdan BBC o‘zining xususiy BBC2 kanalini tashkil etdi va darhol telekanal reytingini ko‘tarish uchun “The Forsyte Saga” (1967) teleserilai suratga olindi. “The Forsyte Saga” AQShda katta muvaffaqiyat bilan namoyish etilib, Sobiq Ittifoqda namoyish etilgan birinchi BBC teleseriali bo‘ldi.

70-yillar oxiriga kelib Buyuk Britaniyada teleseriallarning tuzilishi sezilarli darajada o‘zgarib bordi. Bu televideniyeda kunduzgi dasturlarning isloh qilinishi bilan bog‘liq holat edi. Shu davrga kelib A.Xichkok va F.Kapra kabi katta ekran uchun filmlar suratga olgan professional rejissyorlar televideniye uchun telefilm va seriallar suratga ola boshladilar.

1980-yillardan kunduzgi teledasturlar reytingi birdan ko‘tarila boshladi. Bu davrda Frenk va Doris Xerslining “Markaziy shifoxona” (“General Hospital” 1963-yildan h.v.) seriali 80-yillarga kelib teleseriallarning maqomi kuchayishiga yo‘l ochdi. Telerejissyor A.Spellingning “Sulola” (“Dynasty”, 1981-1989) seriali katta muvaffaqiyat qozonib 1984-yil “Eng yaxshi televizion drama“ nominatsiyasi bo‘yicha “Oltin Globus” mukofotini qo‘lgan kiritdi. Bundan tashqari u 1981-yildan to 1986-yilga qadar to‘xtovsiz ushbu nominatsiya uchun nomzod sifatida ishtirok etdi.

Shimoliy Amerikada (asosan AQShda) 40-yillarning ikkinchi yarmidan boshlangan “Televideniyening oltin davri” 60-yillarda ham davom etdi. Bu jonli efirning ko‘pligi va tvda yangi janrlarning shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lgan qizg‘in jarayon edi. AQShda 40-yillarning ikkinchi yarmidan boshlangan “Televideniyening oltin davri” 60-yillarda ham davom etdi. Bu jonli efirning ko‘pligi va televideniyeda yangi janrlarning shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lgan qizg‘in jarayon edi. “Bu davrning dastlabki kunlarida bir soatlik dramatik serial-antologiyalar paydo bo‘ldi va ularning ko‘pchiligi tanqidchilarning olqishiga sazovor bo‘ldi” [3].

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya teleseriallari 90-yillardan boshlab O‘zbekiston telekanallarida namoyish etib borilgan bo‘lsada, ularning suratga olish uslubining mutlaq yangilik bo‘lganligi, sharqona mentalitetdan yiroq g‘oyalari, juda katta mablag‘ talab etadigan janrlari sabab o‘zbek teleseriali shakllanishi jarayonga amaliy ta’sir o‘tkazishga imkon bermadi. Ushbu xorijiy tele asarlar Amerika va Yevropada teleseriala formatining rivojlanishiga o‘zaro ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsada, o‘zbek teleseriallari rivojiga aytarli ta’sir ko‘rsatmadi.

Teleserial formatining rivojida keyingi katta qadam Lotin Amerikasi mamlakatlari Meksika, Argentina, Braziliya, Venesuyelada amalga oshirildi. 50-yillardan boshlab Lotin Amerikasida teleserialning yana bir kurinishi - telenovella shakllana boshladi. Bu davrda AQShda sovun opera(soap opera) kunduzgi televizion dasturlarning asosiga aylanib ulgirgan edi. 60-yillardan boshlab Lotin Amerikasi telenovellalari Yevropa bo‘ylab tarqala boshladi. Telenovella janri “fransuz vodevil teatri, italyan komediya del arte teatri, ispan sarsuela (isp. zarzuela) janri” [4,5] va radio eshittirishlar asosida paydo bo‘lgan.

Lotin Amerikasi teleseriallari boshqa davlatlarnikidan farqli o‘laroq, AQSH teleseriallari ta’sirida emas, balki “radionovellalar” va “telenovella” shaklida Meksikadan Chiliga qadar tarqalgan [5,29-30]. Telenovella formati shakllanishida muhim rol o‘ynagan radionovella dastlab AQSh va Kanadada paydo bo‘lib, 1920-yillardan boshlab Kuba orqali Lotin Amerikasi mamlakatlariga yoyildi. Meksikaning “El derecho de naser” (“Tug‘ilish huquqi”, 1938), “Anita de Mortemar” (“Anita de Mortemar”, 1941) radionovellalari butun qit’ada muvaffaqiyat bilan translyaesiya qilindi [6,113]. Lotin Amerikasi telenovellalari qahramonlar obrazi masalasiga alohida e’tibor qaratgani bilan jahon teleseriallaridan farq qiladi. Dastlabki telenovellalarda qahramonlar to‘rt turga bo‘lingan: “qurbon, yovuz, qahramon va telba” [7,12]. Personajlar xarakteriga nisbatan bunday yondoshuv bugungi kunda ham saqlanib qolgan.

50-60-yillarda Meksika, Argentina, Braziliya va Venesuyela telenovellalari ssyenariysining katta qismi romanlar asosida yozilgan bo‘lsa, 60-yillar oxiriga borib ssyenariynavislar tomonidan original ssyenariylar yozila boshlashi bilan telenovellalar madaniy hayotda katta o‘ringa ega bula boshladi. Shu davrdan boshlab bugunga qadar telenovellalar suratga olishda “Televisa”, “Telefe”, “Venevision” va “Globo” teletarmoqlari yetakchilik qilmoqda. Bugungi kunda “Telenovela rosa” meksikancha telenovellaning dunyoda eng mashhur turi sanaladi.

Lotin Amerikasida dastlab telenovellalar Braziliyada faol suratga olina boshlangan bo‘lib, eng katta byudjetli seriallar ham aynan shu mamlakatda suratga olingan. 70-80-yillarda esa teleserial (telenovella) suratga olish bo‘yicha Meksika birinchi o‘ringa chiqdi. Meksika seriallarida oila masalalari, Braziliyada sosial mavzu, Venesuyelada muhabbat mavzusi, Kolumbiyada siyosiy masalalar, zo‘ravonlik va kidnepping mavzusi yetakchilik qilmoqda.

Lotin Amerikasi telenovellalari Amerika seriallaridan davomiylik chegarasi mavjudligi bilan farqlanadi. Jahonda 70-yillardan telenovella formatiga nisbatan qiziqish boshlangan bo‘lsa, “2018 yilga kelib, telenovelalarning mashhurligi yo‘qolishining ba’zi alomatlari

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

ko‘rina boshladi”. [8,9] Jahon telekanallari va striming platformalarda telenovellalarning reytingi tusha boshladi.

80-yillardan boshlangan prosedural teleserial suratga olish an’anasi 2000-yillarda yanada faollashib, “Doktor Xaus”, “Ruhshunos”, “Kassel”, “Monk”, “Yangi Sherlok Xolms”, “Sherlok”, “Komissar Rash” kabi teleseriallar butun jahon telekanallarida muvaffaqiyat bilan namoyish etildi.

90-yillar butun jahon teleserial sanoatida tub burilishlar sodir bo‘ldi. Bu davrga kelib teleprodyuserlar, telerejissyorlar, teledramaturglar va qolaversa televideniye nazariyotchilari teleserial formatiga nisbatan jiddiy yondoshuv zarurligi angladilar. D.Linch o‘zining “Tvin Piks” (“Twin Peaks”, 1990-2018) seriali orqali jahonda teleseriallarning badiiy tuzilishini sezilarli darajada o‘zgartirishga erishdi. “Tvin Piks” hatto juda ko‘plab tanqidchilar tomonidan iliq fikrlar bildirilgan V.Gilliganning “Mashaqqatlar sari” (“Breaking bad” 2008-2013) serialiga ham o‘z ta’srini o‘tkazgan.

V.Gillianning “Mashaqqatlar sari” teleserial formatidagi eng katta burilish yasagan drama bo‘ldi. Ushbu serialning murakkab syujet kompozisiyasi, obrazlar va voqelarning realligi teleserialga nisbatan qarashlarni tubdan o‘zgartirdi. Teleserialda kriminal drama, triller va vestern janrlari qorishiq tarzda qo‘llanilgan bo‘lib, tomoshabinga doim saspens bilan ta’sir ko‘rsatilgan va qora yumor orqali teleasarning qiymatin yanada oshgan.

“Teleseriallar bugungi kunda xuddi kitoblar yaratgandek madaniy makon yaratadi. Bugun muloqotni davom ettirish uchun teleseriallar haqida suhbatni boshlash kifoya” [9,20]. Teleseriallar orqali tomoshabin zamondosh qahramonlarni ko‘radi va bundan tashqari o‘zi yashab turgan jamiyatga tashqaridan nazar tashlash mumkin.

Teleserial o‘zining evolyutsion rivojlanish jarayonida badiiy televideniyening alohida formati ekanligini isbotladi. Bugungi kunda teleserial katta sanoat maydoniga ega bo‘lib, to‘xtovsiz ravishda rivojlanmoqda. Tomoshabinlar auditoriyasi ham yildan yilga o‘sib bormoqda. Tajribali kino ijodkorlarining teleserial formatiga alohida e’tibor qaratayotgani uning istiqbolidan darak beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Axmetjonova Mohinur Olim qizi**, tayanch doktorant, [**Ахметжонова Мохинур Олим кизи,** Докторант], [**Mohinur O. Axmetjonova,** Doctoral student]; manzil: O'zbekiston, 100047, Toshkent shahar, Yahyo G'ulomov, 70 [адрес: Узбекистан, 100047, город Ташкент, Яхья Гуломова, 70], [address: Uzbekistan, 100047, Tashkent city, Yahya Ghulomov, 70]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original paper

“TANAVOR” KUYI O‘ZBEK KOMPOZITORLARINING XOR MUSIQASIDA

© G.A. Xaydarova[1]✉
[1]O‘zbekiston davlat konservatoriyasi

Annotatsiya

KIRISH: “Tanavor” kuyi o‘zbek musiqiy merosida o‘zining betakror ritmi, ifodali ohangdor satrlari bilan ajralib turadigan muhim o‘rin tutadi. Xor musiqasi kontekstida bu an’anaviy kuy o‘zbek bastakorlari tomonidan moslashtirilgan va o‘zgartirilib, xor repertuarini madaniy jarangdor va hissiyotlarga boy asarlar bilan boyitgan. Ushbu maqolada “Tanavor” kuyining o‘zbek kompozitorlarining xor asarlariga qo‘shilishi, uning O‘zbekistonda xor musiqasi rivojiga ta’siri tahlil qilinadi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi “Tanavor” kuyining o‘zbek kompozitorlari tomonidan xor musiqasiga qanday kiritilganligini o‘rganish, xor ijrochiligiga mos uslub va strukturaviy moslashuvlarni o‘rganishdan iborat. Tadqiqot ushbu moslashuvlarning madaniy ahamiyatini va ularning o‘zbek xor musiqasining keng kontekstiga ta’sirini tushunishga harakat qiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda musiqiy tahlil, tarixiy tadqiqotlar va intervyulardan foydalangan holda sifatli tadqiqot usuli qo'llaniladi. Materiallar orasida “Tanavor” kuyini o‘zida mujassam etgan xor asarlarining partitura va yozuvlari, shuningdek, tarixiy hujjatlar va tanqidiy sharhlar mavjud. Usullar “Tanavor” kuyining o‘ziga xos xususiyatlari va o‘zgarishlarini aniqlash uchun tanlangan xor kompozitsiyalarini batafsil musiqiy tahlil qilishni nazarda tutadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: “Tanavor” kuyining o‘ziga xos ritmik naqshlari va ohang konturlari xorga moslashuvlarda saqlanib qolgan, garmonik va teksturali o‘zgarishlar esa uning xor ijrosiga yaroqliligini oshiradi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, bastakorlar ko'pincha "Tanavor"ning an'anaviy ritmik strukturasini saqlab, turli garmonik ramkalar va vokal teksturalarini o'rganishadi. Ushbu moslashuvlar ohangning o'ziga xos ruhini saqlab, yangi badiiy ifodalarni yaratishga imkon beruvchi boy tovush gobelenini yaratadi.

XULOSA: tadqiqot xulosasiga ko‘ra, “Tanavor” kuyining o‘zbek kompozitorlari tomonidan xor musiqasiga moslashtirilgani xor musiqasi sohasidagi salmoqli va madaniy jihatdan boyituvchi taraqqiyotni ifodalaydi. Bu moslashuvlar an’anaviy o‘zbek musiqasining mazmun-mohiyatini saqlab qolgan holda uning badiiy chegaralarini kengaytiradi.

Kalit so'zlar: xor, musiqa, Tanavor, kompozitor, garmonik, polifonik, reprizali.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Iqtibos uchun: Xaydarova G.A. “Tanavor” kuyi o‘zbek kompozitorlarining xor musiqasida // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 358–364.

«ТАНАВОР» МЕЛОДИЯ В ХОРАЛЬНОЙ МУЗЫКЕ УЗБЕКСКИХ КОМПОЗИТОРОВ

© Г.А. Хайдарова[1]✉
[1]Государственная консерватория Узбекистана.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: мелодия «Танавор» занимает важное место в узбекском музыкальном наследии, отличаясь неповторимым ритмом и выразительными мелодическими линиями. В контексте хоровой музыки эта традиционная мелодия была адаптирована и модифицирована узбекскими композиторами, обогатив хоровой репертуар культурно резонансными и эмоциональными произведениями. В данной статье анализируется включение мелодии «Танавор» в хоровое творчество узбекских композиторов и ее влияние на развитие хоровой музыки в Узбекистане.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является изучение того, как мелодия «танавор» была внедрена в хоровую музыку узбекскими композиторами, изучение стиля и структурных адаптаций, пригодных для хорового исполнения. В исследовании делается попытка понять культурное значение этих адаптаций и их влияние на более широкий контекст узбекской хоровой музыки.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использован качественный метод исследования с использованием музыкального анализа, исторических исследований и интервью. Материалы включают партитуры и записи хоровых произведений на мотив Танавора, а также исторические документы и критические комментарии. Методика предполагает детальный музыкальный анализ избранных хоровых произведений с целью выявления особенностей и вариаций мелодии «Танавор».

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: отличительные ритмические рисунки и мелодические контуры «Танавора» сохраняются в хоровых обработках, а гармонические и фактурные изменения повышают его пригодность для хорового исполнения. Анализ показывает, что композиторы часто исследуют различные гармонические рамки и вокальные фактуры, сохраняя при этом традиционную ритмическую структуру Танавора. Эти адаптации создают богатую звуковую картину, которая позволяет использовать новые художественные выражения, сохраняя при этом оригинальный дух мелодии.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: согласно выводу исследования, адаптация мелодии «Танавор» узбекскими композиторами к хоровой музыке представляет собой значительное и культурно обогащающее развитие в области хоровой музыки. Эти

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

адаптации расширяют художественные границы традиционной узбекской музыки, сохраняя при этом ее суть.

Ключевые слова: хор, музыка, Танавор, композитор, гармоника, полифония, реприза.

Для цитирования: Хайдарова Г.А. «Танавор» мелодия в хоральной музыке узбекских композиторов. // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 358–364.

"TANAVOR" MELODY IN CHORAL MUSIC OF UZBEK COMPOSERS

© Gavhar A. Khaydarova[1]✉
[1] State Conservatory of Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the tune "Tanavor" occupies an important place in the Uzbek musical heritage, distinguished by its unique rhythm and expressive melodic lines. In the context of choral music, this traditional tune has been adapted and modified by Uzbek composers, enriching the choral repertoire with culturally resonant and emotional works. This article analyzes the inclusion of the "Tanavor" melody in the choral works of Uzbek composers and its influence on the development of choral music in Uzbekistan**.**

AIM: the purpose of this study is to study how the melody of "Tanavor" was incorporated into choral music by Uzbek composers, to study the style and structural adaptations suitable for choral performance. The study attempts to understand the cultural significance of these adaptations and their impact on the broader context of Uzbek choral music.

MATERIALS AND METHODS: the study uses a qualitative research method using musical analysis, historical research and interviews. Materials include scores and recordings of choral works featuring the Tanavor tune, as well as historical documents and critical commentaries. The methods involve a detailed musical analysis of selected choral compositions to determine the specific features and variations of the "Tanavor" melody.

DISCUSSION AND RESULTS: the distinctive rhythmic patterns and melodic contours of "Tanavor" are preserved in choral adaptations, while harmonic and textural changes enhance its suitability for choral performance. The analysis shows that composers often explore different harmonic frameworks and vocal textures while maintaining the traditional rhythmic structure of Tanavor. These adaptations create a rich sonic tapestry that allows for new artistic expressions while preserving the original spirit of the melody.

CONCLUSION: according to the conclusion of the study, the adaptation of "Tanavor" melody by Uzbek composers to choral music represents a significant and culturally enriching development in the field of choral music. These adaptations expand the artistic boundaries of traditional Uzbek music while preserving its essence.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Key words: choir, music, Tanavor, composer, harmonic, polyphonic, reprise.


For citation: Gavhar A. Khaydarova. (2024) ‘“Tanavor” melody in choral music of uzbek composers, Inter education & global study, (4(2)), pp. 358–364. (In Uzbek).

Tanavor – o‘zbek milliy musiqasining shoh asarlaridan biri, bastakorlik ijodiyotining sara durdonalaridan sanaladi. Tanavor kuyi, uning ohangi halq orasida keng tarqalgan. ““Tanavor” (fors. Jasur, qudratli, kuchli) degan ma’noni bildiradi. “Tanavor” so‘zi kelib chiqishiga ko‘ra, ustozona mumtoz ijrochilikning tarixan shakllangan ijroviy tajribalari o‘laroq “tanni eltuvchi”, “tanni erituvchi” ma’nolarni ham anglatadi. Tanavor ashulalarida o‘zbek ayolining ma’naviy go‘zalligi o‘z aksini topgan. Tanavorlar qadimda ba’zan yakka holda, ba’zida turkum sifatida, gohida cholg‘u kuyi sifatida ijro etilgan. Ta’kidlash lozimki, Tanavorlar o‘zining xalqchilligi bilan ajralib turadi”[1]. Ushbu kuyga bog‘langan ko‘plab asarlar bastakorlar tomonidan ijod etilgan. Shu qatorda o‘zbek kompozitorlari ham o‘z asarlaridan Tanavor kuyidan keng foydalanishgan.

Xor musiqasida milliy kuy-ohanglaridan foydalanish an’anasi XX asr kompozitorlari tomonidan amalga oshirila boshlangan. Ana shunday ijodkorlardan Mutal Burxonov hamda Sobir Boboyevlar o‘zbek milliy musiqiy meroslaridan sanalgan Tanavor kuyidan o‘z asarlarida foydalanganlar.Kompozitor Mutal Burxonovning “Yorlarim” asari.


Bu asarning asosi “Tanavor” kuyidan olingan bo‘lib, aralash xor uchun qayta ishlangan. “Tanavor”lar xalq orasida keng tarqalganligi sababli ularning o`ndan ortiq turlari mavzudligi haqida ko`plab manbalarda ma’lumotlar keltirilgan[2]. M.Burxonov Muqimiy so`zi bilan aytilgan (ayrim manbalarда farg`onacha Tanavor, ayrim manbalarda esa Tanavor I nomi bilan keltirilgan) variantini qayta ishlagan. Asarning shakli oddiy 2 qismli reprizali bo‘lib, asosiy melodik kuy saqlanib qolgan. Kompozitor o‘zbek milliy musiqasi ohangiga xos bo‘lgan koloritni aks ettirish maqsadida nafaqat musiqiy mavzuni balki Tanavor kuyidagi usul(ritmi)ni ham o`zgartirmaydi. Asar 4 ovozli (hamda yakkaxon bas) aralash xor izrosiga mo`ljallangan bo‘lib, garmonik va polifonik elementlar bilan yozilgan. 1 – qismda 2 takt kirish ya’ni doira usuliga taqlid qilish orqali boshlangan. Mavzu ayollar партиялари boshlanib so‘ng erkaklar partiyalari bilan davom ettiriladi. Bunday ko‘rinish o‘zbek xalq musiqasiga xos bo‘lib, lapar, yalla janrlaridagi kabi aytishuv tarzida kelgan.

Yorlarim



ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Kompozitor M. Burhonov bu kuyni xorga qayta ishlagan, uning ohangining tuzilishini deyarli buzilmasdan qoldirib, ritmik naqshni biroz soddalashtirib, xor ijrosi uchun qulay yozgan. 4/4 o‘lchovida *Allegro con anima* tempida yozilgan. Xor ijrosi uchun murakkab bo‘lgan forshlaglarni olib tashlab sodda ko‘rinishida yozgan. Ikkinchi jumlaning 3 taktga ko‘payishi kichik ohangdor ibora - “Yorlarim” so‘zlari ustida kuylash orqali erishiladi. Asarning ikkinchi qismi ham ikki jumladan iborat bo‘lib, ikki marta ijro etiladi. Ikkinchi qismdagi birinchi jumlada yangi melodik material asosida, ohang jihatdan birinchi qismdagi kuyning boshlanishiga yaqin. Bu yerda qo‘llanilgan taqlid texnikasi va xor partiyalaridagi yuqori registr asarning bu qismining dinamikasini kuchaytiradi va uning avj ahamiyatini ta’kidlaydi. Kompozitor asarning tonal tuzilishiga ehtiyotkorlik bilan yondashdi va butun kuy davomida *re-miksolidiy* ladini saqlab qoldi. Asarning tonal barqarorligi doimo kadanslarda, oktavali unison yangraydigan tonikaga doimiy qaytish bilan ta’kidlanadi. Kuyning garmoniyasi ham sodda tarzda yozilgan bo‘lib, bu esa o‘zbek milliy ohangiga xos bo‘lgan kvarta – kvinta intervallarining qo‘llanilishiga olib kelingan.



Asarda partituraning to‘rt ovozli tuzilishiga qaramay, unison va oktava-unison kuylash katta o‘rinni egallaydi. Xorda to‘liq to‘rt ovozli tovush vaqti-vaqti bilan sodir bo‘ladi. Xor fakturasida ayollar xor partiyalarining erkaklar xori bilan oktava qo‘shilishi ikki ovozli jaranglashga olib kelgan, shuningdek, xor partiyalarining *tutti* (hamma birgalikdagi) jaranglashi va xor partiyalarining turli kombinatsiyasi almashinishini ko‘rishimiz mumkin.

Asarda yozuv uslubi aralash bo‘lib, akkord yozuv uslubi hamda polifonik uslublar qo‘llanilgan. Xor fakturasi, ayniqsa, xorning asosiy mavzusini oktavada ijro etuvchi soprano va tenor partiyalarida juda moslashuvchan, ravon vokal ijrosi bilan ajralib turadi. Quyi ovozli partiyalar (alt va bas) mustaqil mavzuga ega bo‘lmay, balki ular qo‘llab – quvvatlovchi ovozlar hamda fon vazifasini bajaradilar. “Ansamblning unison, qo‘sh va to‘rt ovozli ko`rinishda mahorat bilan almashinishi, shuningdek, fakturaning doimiy o‘zgarib turishi xorning boy diapazonini hosil qiladi” [3, 66].

“Tanovor” kuyining xor uchun qayta ishlangan namunalaridan biri bu S.Boboyevning “Tanovor” asaridir. Bunda kompozitor “Adolat Tanavori” ohanglaridan foydalangan. Asar *a’capella* janrida o‘zbek milliy musiqasiga xos bo‘lgan oddiy 2 qism reprizali shaklda 4 ovozli aralash xor uchun yozilgan bo‘lib, kompozitor kuyning asl holatini saqlab qolishga harakat qilgan. Asarda sinkopali ritmdan keng foydalanilgan.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Birinchi qismda mavzuni *soprano* partiyasi boshlab beradi, *alt* partiyasi unga hamrohlik qiladi. Bu qismda mavzuning shakllanishi ayollar xori tomonidan variatsiyalanish yo‘li bilan bayon qilinadi. Kichik kulminatsiyasi ya’ni avji ikkinchi oktava re (re^2) tovushida namoyon bo‘ladi. Birinchi qismning fakturasi mavzuga avval *alt* partiyasi, birin – ketin *alt* va *soprano* partiyalarida *divisi* (bo‘linish)larning paydo bo‘lishi va tenor partiyalarining asta – sekin qo‘shilishi natijasida to‘ldirilib boradi.

Ikkinchi qism mavzusi birinchi qismga o‘xshash bo‘lib, asarning avjiga tayyorlab boradi. Bu qismda partiyalarning o‘ziga xos bo‘lgan turli ko‘rinishda kelganligini ko‘rishimiz mumkin. *Alt* partiyasi “Yor” so‘zini sinkopali usulda ijro qilsa, *tenor* partiyasida esa unga jo`r bo`ladi. Kulminatsiyada soprano partiyasidagi melodik chiziq ikkinchi oktava sol tovushi (g^2) ga ko‘tariladi. Bu qismda xor partiyalarida (bas partiyasidan tashqari) *divisi*ni qo‘llanilishi, dinamikaning yuqoriga chiqishi (f), umumiy xor diapazonlarining kengayishi va taqliddan foydalanganligi tufayli avji yorqin namoyon bo‘lgan.



Repriza qismida asosiy mavzu soprano partiyasida davom ettiriladi va alt partiyasi jumlaning yakunlash vazifasida keladi. Ushbu asarning yozuv uslubi gomofon – garmonik hamda polifonik element (imitatsiya)larda yozilgan.

Kompozitor xalq kuyini xorga moslashtirish jarayonida turli xil xor yozuv uslublaridan foydalanganini tahlil jarayonida ko‘rib chiqdik. Xorning garmonik tili sodda tarzda bayon qilingan, tessiturasi juda qulay. Shu qatorda alteratsiyalangan tovushlardan, turli xil ritmik ko‘rinishlardan, nolalardan foydalanganligi bu asarni juda boy tarzda yoritib berishiga olib kelgan. Xor ijrosi uchun mos hamda milliy musiqa aytim yo‘liga yaqin yozilganini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, o‘zbek kompozitorlik ijodiyoti keng qamrovli bo‘lib unda sohaning turli tarmoqlari milliy va zamonaviy ohanglar qorishmasi asosida

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

taraqqiy etmoqda. Yuqorida nomlari keltirilgan kompozitorlar ham aynan manashu rivojlanish yo‘lidan borib milliy va zamonaviy kuylarni uyg‘unlashtirgan holda o‘z asarlarini ijod etishgan. “Tanavor” asarining xor uchun qayta ishlangan ushbu namunalari xor musiqasi va milliy qadryatlarning tarannumi yo‘lidagi muhim asarlar qatoriga kiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abdurahimov A. “Tanavorlar”. Monografiya. T., 2024 y.
2. Rajabov I. “Maqomlar” T., 2006 y
3. Е.А.Гудкова. “Узбекская хоровая литература”. Т., 1974 г
4. Л.Х.Джумаева, Н.А.Бахретдинова “Узбекская хоровая литература”. Т., 1987 г

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Xaydarova Gavhar Abduvahob qizi,** o‘qituvchisi, [**Хайдарова Гавхар Абдувахоб кизи,** преподаватель], [**Gavhar A.Khaydarova,** teacher]; manzil: O'zbekiston, 100027, Toshkent, Shayxontohur tumani, Ko'chasi Olmazor, 1 [адрес: Узбекистан, 100027, г. Ташкент, Шайхонтохурский район, ул. Алмазор, 1], [address: Uzbekistan, 100027, Tashkent, Shaikhontohur district, street Almazor, 1] gavharxaydarova96@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original paper

XOR FAKTURASI TARIXIDAN

© O‘.I. Shokarimov[1]✉

[1]O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqola xor schyot-fakturasining paydo bo'lishidan to zamonaviy amaliyotlargacha bo'lgan o'zgarishlarini kuzatib boradi, asosiy davrlar va nufuzli kompozitorlarni ta'kidlaydi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi xor hisob-fakturasining tarixiy rivojlanishini o'rganish, turli davrlar va madaniy harakatlar uning rivojlanishiga qanday ta'sir qilganini o'rganishdir. Tadqiqot xor musiqasi tarixidagi muhim bosqich va siymolarni aniqlashga, vaqt o‘tishi bilan vokal aranjirovkasining uslubiy o‘zgarishlarini tahlil qilishga qaratilgan.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot tarixiy tadqiqot metodologiyasidan foydalanadi, musiqa qo'lyozmalari, nazariy risolalar va ilmiy maqolalarni o'z ichiga olgan asosiy va ikkinchi darajali manbalarga tayanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: topilmalar yangilik va takomillashtirish davrlari bilan tavsiflangan xor hisob-fakturasining dinamik tarixini ochib beradi. Uyg'onish davrining polifonik murakkabligidan klassik davrning gomofonik ravshanligigacha va romantik davrning boy garmonik teksturasidan 20-21-asrlarning rang-barang va eksperimental yondashuvlarigacha har bir davr xor musiqasiga alohida hissa qo'shdi. Muhokama Palestrina, Bax, Motsart va zamonaviy arboblar kabi asosiy bastakorlarning hissalarini o'rganib, ularning asarlari rivojlanayotgan xor hisob-fakturasiga qanday misol bo'lishini o'rganadi.

XULOSA: tadqiqot shuni ko'rsatadiki, xor schyot-fakturasi tarixi xor musiqasining bardavomligi va rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi. Uning rivojlanishini kuzatish orqali biz vokal aranjirovkasini shakllantirgan badiiy va madaniy kuchlarni chuqurroq qadrlaymiz.

Kalit so‘zlar: xor, faktura, tembr, xor yozuvi, xor ijrochiligi, jamoa bo‘lib kuylash, xor ta’limi, xor evolyustisiyasi.

Iqtibos uchun: Shokarimov O‘.I. Xor fakturasi tarixidan. // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 365–372.

ИЗ ИСТОРИИ ХОРА СЧЕТ

© У.И. Шокаримова[1]✉

[1]Государственная консерватория Узбекистана, Ташкент, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в этой статье прослеживается эволюция хорового выставления счетов от его истоков до современной практики, освещаются ключевые периоды и влиятельные композиторы.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является изучение исторического развития хоровой фактуры, изучение того, как разные эпохи и культурные течения повлияли на ее развитие. Целью исследования является выявление важных этапов и фигур в истории хоровой музыки, анализ стилистических изменений вокальной аранжировки с течением времени.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании используется методология исторического исследования, опирающаяся на первичные и вторичные источники, включая нотные рукописи, теоретические трактаты и научные статьи.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показывают динамичную историю хорового выставления счетов, характеризующуюся циклами инноваций и усовершенствований. От полифонической сложности Возрождения до гомофонной ясности классического периода, от богатой гармонической текстуры периода романтизма до красочных и экспериментальных подходов XX и XXI веков — каждая эпоха внесла уникальный вклад в хоровую музыку. В ходе дискуссии рассматривается вклад таких крупных композиторов, как Палестрина, Бах, Моцарт и современных деятелей, а также исследуется, как их произведения иллюстрируют развивающуюся хоровую фактуру.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исследования показывают, что история хорового фактуры является свидетельством непреходящего и развивающегося характера хоровой музыки. Следя за его развитием, мы глубже понимаем художественные и культурные силы, которые сформировали вокальную аранжировку.

Ключевые слова: хор, фактура, тембр, хоровое письмо, хоровое исполнительство, групповое пение, хоровое образование, хоровая эволюция.

Для цитирования: Шокаримова У.И. Из истории хора счет. // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 365–372.

FROM THE HISTORY OF THE CHOIR INVOICE

© O‘ktamjon I.Shokarimov[1]✉
[1]State Conservatory of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article traces the evolution of choral invoicing from its origins to modern practices, highlighting key periods and influential composers.

AIM: the purpose of this study is to explore the historical development of choral invoice, to explore how different eras and cultural movements have influenced its development. The research is aimed at identifying important stages and figures in the history of choral music, and analyzing the stylistic changes of vocal arrangement over time.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

MATERIALS AND METHODS: the study uses a historical research methodology, relying on primary and secondary sources including music manuscripts, theoretical treatises and scholarly articles.

DISCUSSION AND RESULTS: findings reveal a dynamic history of choral invoicing characterized by cycles of innovation and refinement. From the polyphonic complexity of the Renaissance to the homophonic clarity of the Classical period, and from the rich harmonic texture of the Romantic period to the colorful and experimental approaches of the 20th and 21st centuries, each era has made a unique contribution to choral music. The discussion examines the contributions of major composers such as Palestrina, Bach, Mozart, and contemporary figures, exploring how their works exemplify the evolving choral invoice.

CONCLUSIONS: research shows that the history of the choral invoice is a testament to the enduring and evolving nature of choral music. By following its development, we gain a deeper appreciation of the artistic and cultural forces that shaped the vocal arrangement.

Key words: choir, texture, timbre, choral writing, choral performance, group singing, choral education, choral evolution

For citation: O‘ktamjon I.Shokarimov. (2024) ‘From the history of the choir invoice, Inter education & global study, (4(2)), pp. 365–372. (In Uzbek).

Xor bo‘lib kuylash tabiiy jismoniy, badiiy-ijrochilik, ijtimoiy moslashuvchanlik, tarbiyaviy va ahloqiy sifatlarga ega. Aynan shu xususiyatlarga ko‘ra xor ijrochiligi insoniyat hayotida san’atning jamoaviy, madaniy - ahloqiy, ruhiy sifatlarida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Xor ijrochiligi g‘arbiy yevropadagi ko‘p xalqlar uchun professional musiqa ijrochiligi amaliyotidagi asosiy usul bo‘lib, qat’iy diniy an’analarga ko‘ra, inson ovozining tabiiy imkoniyatlari va ijrochiligidan kelib chiqqan holda shakllandi va rivojlandi. Ko‘p jihatdan musiqa haqidagi ilmiy bilimlarni, jamoada yig‘ilgan bilim-ko‘nikmalarni, tajribalarni va uning qonuniyatlarini bosqichma-bosqich ob’ektiv yig‘ilishiga olib kelgan. Yevropada deyarli ming yil (IV- XIV) davomida professional xor ijrochilik amaliyoti hamda ijrochilik madaniyatining yakkahokimligi, mustahkam musiqiy-nazariy bilimlarni ilmiy jihatdan shakllanishiga o‘z hissasini qo‘shdi. Umuman olganda bu davr musiqaning kelajakdagi rivojiga juda katta ta’sir qildi.

Xor musiqasining ko‘p asrlik tarixi davomida xor fakturasi shakllandi va rivojlandi. Uning fakturaviy tarkibi yillar davomida sezilarli o‘zgarishlarga duch keldi. Shu bilan birga, turli davrlardagi xor asarlari fakturalariga xos bo‘lgan sifatlarning butun majmuasi 17-asrdan 20-asrgacha deyarli o‘zgarishlarsiz qoldi. Ushbu maqolaning vazifalari qatorida xor fakturasi hodisasini aniqlash; uni fakturaning umumiy nazariyasiga mos ravishda yoritish; xor fakturasining asosiy mantiqiy qonuniyatlarini, xor musiqasiga xos bo‘lgan yozuv usullarini va ularning 20-asrdagi "hayoti" xususiyatlarini ko‘rib chiqish; xor fakturasining janr-reprezentativ xususiyatlarining strukturaviy asoslarini, zamonaviy mahalliy va xorijiy

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

xor musiqasida jadal qo‘llaniladigan semantik salohiyatini XX asr musiqasining "davrlar suhbati" universal tendentsiyasi bilan bog‘liq holda ochib berish bo‘yicha sohaga oid adabiyotlar o‘rganilib chiqildi.

Xorshunoslik adabiyotlarida xor fakturasi muammolari qanday yoritilganligi haqida B.Asafievning xor musiqasini o‘rganishning turli jihatlariga bag‘ishlangan maqolalarida xor fakturasini o‘rganish uchun eng muhimi bu intonatsiya fakturasi g‘oyasi, ovozlarning rivojlanishi, xalq qo‘shiqlarida ham, bastakorning xor uchun mualliflik asarlarida ham xor fakturasining tabiati haqida chuqur va to‘g‘ri mulohazalar mavjud.

Bundan tashqari amaliyotchi xormeysterlar P.Chesnokov, G.Dmitrevskiy, A.Egorov, V.Krasnoshchekova, V.Sokolov, M.Ivakin, A.Ushkarev va boshqalar xorshunoslik va xor yozuvi masalalariga oid keng adabiyotlari va maqolalari mavjud. Ammo bu ma’lumotlarda xor fakturasi masalalarini yoritishda amaliy tajribalar va fikrlar ustunlik qilib, o‘zaro fikrlarda ba’zida biroz tavsiflovchi tahlillarni o‘z ichiga oladi. Yuqoridagi amaliyotchilarning asarlari, umuman olganda, 1940 yilda P.Chesnokov tomonidan taklif qilingan xorshunoslik elementlari tizimini ishlab chiqishga asoslangan va musiqa maktablari va oliy o‘quv yurtlari uchun darslik bo‘lib xizmat qiladi. P.Levandoning "Xor fakturasi" monografiyasi alohida o‘rin tutadi, unda muallif bir qator nazariy umumlashmalarni amalga oshirgan. P.Levando tomonidan taklif qilingan xor qismlarining an'anaviy qisqartirilgan yozuvlari shakli xor tarkibini va xor fakturasining turli usullarini ko‘rsatish uchun juda qulay ko‘rinadi.

So‘nggi yillarda musiqashunoslik a’capella xor musiqasiga bag‘ishlangan bir nechta chuqur tadqiqotlar bilan boyidi. Masalan, Y.Paisovning “Современная русская хоровая музыка”, G.Grigorievaning “Русская хоровая музыка 1970 - 80-х годов”, A.Xakimovaning “Хор a'cappella. Историко-теоретические и эстетические вопросы жанра”, K.Yakobsonning “Новаторство музыкального языка в советском хоровом творчестве (I960-80e гг.)” dissertatsiyasini ta’kidlab o‘tishimiz zarur. Ushbu asarlarda umuman simfonik, kamer, cholg‘u musiqasiga qo‘llaniladigan janrni tushunishga o‘xshash vokal musiqasining o‘ziga xos janr tizimi sifatida kapella polifoniyasi g‘oyasi va musiqiy tafakkurning o‘ziga xos turi batafsil tavsiflanadi. Ushbu tadqiqotlarning o‘ziga xos qiymati XX asr xor musiqasiga murojaat qilishda, fakturaning o‘ziga xos shakllarining genezisi va ekspressiv imkoniyatlarini aniqlashda qo‘l keladi.

Jamoa bo‘lib kuylashning shakllanishi qadimga borib taqaladi, chunki, qo‘shiq kuylash madaniyatiga aylanishdan avval ham qo‘shiq insonning tabiiy ijtimoiy va fiziologik ehtiyoji bo‘lib, hayotida xavf-xatar uchraganida ham, shodligini to‘laligicha ifoda etish uchun ham zarur bo‘lgan. Jamoaga yig‘ilish inson o‘zini himoyalangan deb hisoblashi uchun tabiiy optimal fiziologik usuldir. Bu insonning Ilohiy kuchlarga ibodat qilish jarayonida, jiddiy tashqi taxdid onlarida boshqa insonlar bilan birlashish emotsional talabi, jamoaviy tantanalari yoki umumiy qayg‘uli marosimlar davomida namoyon bo‘ladi. Qadimiy xalqlarning kundalik hayotida jamoaviy qo‘shiqchilik harakatlar, yurish, qarsak chalish, ritmik harakatlar, oyoqlarni toppillatish, turfa moslamalarga urish bilan birga amalga oshirilar edi. Shu bilan bir qatorda muntazam an’ana va diniy marosimlar bilan ijro etilgan

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

kuy qo‘shiqlar, harakatlar bora-bora aniq bir xalqning musiqiy va madaniy boyligiga aylanib qolgan. Boshqacha qilib aytganda, insonlarning tashqi hayot haqidagi taasavvuri, dunyoqarashi, ilohlari, diniy marosimlari tuzilishidan kelib chiqqan holda kuylanayotgan qo‘shiqlar hamda madaniyati shakllanib kelgan. Shu bilan birga jamoa bo‘lib kuylash butparastlar ilohlarini ulug‘lashdagi bevosita an’ana bo‘lib, o‘troq dehqon xalqlarda urf bo‘lgan.

Xor ijrochiligining ijtimoiy vazifasi. Turfa xalqlar folklorining eng qadimiy qismi chaqiriqlar, hayqiriqlar, yig‘lashlar, she’rlar, afsunlar bilan tavsiflanadi. Ularning mazmuni odamlar uchun muhim bo‘lgan tabiiy ravishda xosil bo‘ladigan hissiy va ijtimoiy hodisalar, hayotning muhim tsikllari - tug‘ilish, to‘y, o‘lim bilan bog‘liq. Umumiy vaqt mezoni - bu quyoshning joylashuviga ko‘ra yil fasllarining o‘zgarishi, yil tashqi va ichki vaziyatlar bilan belgilanadi: bahorning kirib kelishi, o‘simliklar, gullarning amal olishi, ildiz va mevalarning pishishi; ko‘chmanchi qushlarning issiq o‘lkalarga uchib ketishi hamda qaytishi, qishloq xo‘jaligi ishlari yerga ishlov berish va boshqalar shular jumlasidandir. Tevarak atrofdagi tabiatning yorqin belgilari odamlarga tashqi muhitga moslashish, qishloq ho‘jalik yumushlari, shikor, baliq ovi, mevalar, poyalar, ildizlarni yig‘ish vaqtlarini aniqlashga yordam beradi. Butun xalqni qamrab olgan voqea hodisalar ko‘p hollarda o‘ziga xos undovlar, qo‘shiqlar, aytimlar, qichqiriqlar, qarsaklar, chertmalar, oyoq tovushlari bilan mujassam bo‘lib, tabiatning o‘zgarmas nishonalariga bo‘ysungan holda, mutloq muqim ohang yo‘li bilan ajralib turadi, bundan tashqari, ularning daxlsizligini ta’minlab beruvchi sehr-afsun belgilari bilan yug‘lilgan bo‘ladi. Aynan shunday yashovchanligi tufayli qadimiy marosim kuy qo‘shiqlari, aytimlari bolalar o‘yinlari aytishuvlarida bardavom mavjuddir. Shu bilan bir qatorda, madaniy hayot rivojining butun tarixi davomida folklorning bu janri o‘z davrida urf bo‘lgan zamonaviy kuy ohanglari bilan boyib borgan. Xristianlik dini - pravoslavlik, katoliklik, protestantlik yo‘nalishlaridagi diniy- liturgik qo‘shiqlar va da’vatlar asosi sifatida xor amaliyotini olgan.

Qadimiy musiqa tarixining yirik bilimdoni R. Gruber jamoaviy qo‘shiq intonatsiyalari amaliyotining tarixiy amiyatini alohida qadrlagan va ta’kidlagan, u xor amaliyotini professional musiqa madaniyati rivojidagi "ijtimoiy munosabatlar jamlanmasi" deb atagan. XX asr musiqa dunyosining yorqin namoyondasi B. Asafyev xor jamoalari va jamoa bo‘lib kuylash ta’limining Yevropa jamiyati hayotidagi muhim tarixiy va ijtimoiy o‘rnini ko‘p bora ta’kidlab namoyish qilgan, u "musiqiy evolyutsiyada xor asosining ulkan ahamiyati" xususida fikr yuritgan. Musiqiy intonatsiya - ohangga to‘g‘ri tushish - jamoa bo‘lib kuylash amaliyotiga profesional o‘rganish jarayonida shakllangan bo‘lib, bu xonandalar uchun muqim balandlikdagi hech bo‘lmasa bir maqbul tovush muhim bo‘lgani kabidir degan fikr S.Skrebkovga tegishli. Olim - "musiqa yakkaxon ohang jarangi yoxud nutqqa asoslangan bo‘lganda edi, professional musiqaning o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflovchi, balandligi belgilangan ohangga xolis ehtiyoj hosil bo‘lmasdi" deb fikr yuritadi. Xuddi shu holga ko‘ra u Yevropa an’analarining butun musiqiy-badiiy fikrlash tizimi, va musiqiy tilning rivojlanish yo‘lini mujassamlashtirar edi. Bundan tashqari- "(xordagi) unisonda musiqiy tematizmning hamda uning tilining (lad tashkiloti, fakturasi va boshqalarning) janr - uslubiy salohiyati

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

to‘liqligicha yig‘ilgan,- deya ta’kidlar edi u. Oxir-oqibat,- deb yozadi S. Skrebkov, o‘z tarixini barmoq vaznidagi kuplet-naqoratdan boshlovchi ohanglar shakl tashkil qilish tamoillari ildizi huddi shu badiiy umumlashuv akti - insonlarning jamoaviy ko‘nikmalarini mustahkamlash tirishdadir".

Yevropa cherkov musiqasining o‘n asrlar davomidagi asosi bo‘lmish jamoa qo‘shiqchiligini- professional an’anadagi musiqa san’atidagi salmoqli tarixiy rolini tan olmay ilojimiz yo‘q. N. G. Chernishevskiyning qo‘shiqchilikka nisbatan- "...kuylash avvalambor va mohiyatan nutqqa taqlid bo‘lib,- inson tabiatining asaridir, san’at asari emas" - degan ta’rifi g‘oyat qiziqarlidir. U inson tabiatiga ishora qilgan holda, kuylash orqali aloqasini insonlarning ontologiyasidan kelib chiqadigan: birlikka intiluvchi Xudoning zarralaridan biri bo‘lmish ma’naviy ehtiyoji sifatida e’tibor qaratadi. Psixologlar inson ongidagi jamoaviy qo‘shiqchilik, musiqiy muloqotda optimal ravishda amalga oshadigan, insonning qoniqtiradigan muqim, boshlang‘ich "emotsional- psixik asoslar" va avvalambor uning biologik, psixik, energetik darajada tashkillaydigan birikmalar mavjudligini taxmin qilishadi. Bu o‘zini jamoada emotsional- vokal namoyish etish yo‘li bilan salbiy his tuyg‘ulardan xalos bo‘lish,tushkunlikni yo‘qotish zarurati bilan bog‘liq. Bu esa o‘z navbatida insonni emotsional hamda jismoniy muvozanatga- ijobiy kuch-quvvatga olib keladi. Shunday qilib, jamoaviy qo‘shiqchilik - eng oxirgi ko‘rinishi qichqiriq, hayqirish, yig‘i bo‘lgan, jamoada yashovchi odamning himoya reaktsiyalarini, faollashtirishning qulay usulidir. Jamoa bo‘lib emotsional-psixologik birlashishning zarurati- jamoaning kuchi va g‘ayratini tuyish, to‘yinishga bo‘lgan insonning so‘nmas talabiga erishishdir. Jamoa qo‘shiqchiligi o‘zida insonning ijodiy salohiyatini namoyish etish uchun g‘oyat samarali shartlarni o‘zida mujassamlashtiradi, va shu bilan xor ta’limini jamoadagi hayotning muhim qismiga aylantiradi. Xonandalik tovushi ma’lum bir vaqtda vujudga keladi, chunki ovoz gorizontal ko‘lamli tabiatga ega bo‘lib, inson nafasiga qaram holda uzuq yuluqdir. Xonandalik san’ati xonandalik nafasini to‘g‘ri tashkillash qobiliyatini tarbiyalash bilan bog‘liq. Ovoz - insonga Xudo tomonidan in’om etilgan, noyob, nodir cholg‘u bo‘lib, uning ongli va ongsiz sifatlari tabiiy ravishda insonning jismoniy, fiziologik, emotsional va psixologik holati bilan bog‘liqdir. Mazkur holatlar turfa-xil bo‘lib, doimo ayni vaqtdagi tug‘yonlar bilan to‘yinib, inson nutqida va kuylashda bevosita akslanadi. Va shu nuqtai nazardan olinganda, jamoaviy ko‘povozli xonandalik musiqiy-ijrochilik san’atining eng nodir hamda murakkab cholg‘usidir. Bundan tashqari, aynan xordagi professional xonandalarning jamoaviy ijodiy aloqa ko‘nikmasi, tarixan musiqiy jarang, uning imkoniyatlarini ongli ravishda tushunib yetish kompozitorlik tafakkuri va ijodini rag‘batlantirgan hamda joiz etgan ilmiy- nazariy o‘sishni ta’minlab beruvchi turfa tabiiy va sun‘iy imkoniyatlariga xos bo‘lgan ob’ektiv qonuniyatlarni anglashga imkon yaratdi. Jamoaviy professional xonandalik amaliyotida asosi mutaassib, cherkov madaniy an’anasi bo‘lib, maqsadga muvofiqlik va qonuniylik jamoa eshitish qobiliyati va tafakkuri, musiqachilarnig bir necha avlodining jamoaviy tushunchasi tomonidan ajratib, Buyuk xonandalar shu bilan ajralib turadiki, kuylash jarayonida ularning nafaqat tovush paychalari, balki butun borlig‘i, va albatta, yuragi tebranadi. Faqatgina "dil, yaratganning ruhi" yordami xonandani eng yuqori fidokorlik holatiga olib kirishi, tinglovchilarga ta'sirini

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

o‘tkazishga va ularning ko‘nglida hisiy- nafis, barhayot tug‘yonlarni uyg‘otib, chuqur tuyg‘u va tasavvurlar yig‘indisini shakllantirishi mumkin. O‘zgacha qilib aytganda, Yevropa musiqasining musiqiy- nazariy asosi - faol malakalar va ijodiy yutuqlarning bevosita jamoaviy tahlili ko‘magida muntazam shakllangan. Ya’ni cherkov amaliyoti sharoitida Sharqda namoyon bo‘lganidek, va hattoki musiqa san’atining saroy yo‘nalishidagi madrigal ijodiy izlanishlar sharoitida ham, erkin tanlovga o‘rin yuq edi. XII XVI asrlarda kichik, professional cherkov xorlarida asosan iqtidorli kompozitorlar, gohida esa qonuniyatlarni ilmiy jihatdan tafakkur etib va umumlashtirib berishga qodir iste’dodli nazariyotchi mutafakkirlar kuychi bo‘lib xizmat qilishardi. Shu asnoda cherkov konservatizmi va jamoaviy ijodiy professializm bilan mutanosiblikda musiqaning qonuniyatlarini ob’ektiv ravishda tasavvur qilishdagi bexato saralash filtri bo‘lib xizmat qildi. Bu XVII asr musiqa ijodi hamda ijrochiligining kelajakda gurkirab rivojlanishiga maqbul zamin yaratdi. Kompozitorlik ijodiyoti, ijodiy tafakkur, musiqiy ijrochilik madaniyatining tarixan shakllanishi va rivojlanishi xor fakturasining mumtoz akademik turi tarixining in’ikosidir. Ming yilliklar aro cherkov professional ijrochilik amaliyotiga ibtido bo‘lgan, aynan XIV- XV asrga kelib, xor musiqasining tuzilishiga mos keluvchi bo‘rtiq chizginlarga ega bo‘ldi. XVII asrdan boshlab, va bundan keyingi asrlarda vokal ko‘povozlikning ijrochilik madaniyati va musiqiy-nazariy tafakkuri, o‘ziga xos qat’iy uslub vokal ko‘povozliligining chegaralaridan chiqib, cholg‘u ijrochiligi bilan bellashgan holda, dunyoviy musiqa janrlarida rivoj topadi.

Yevropa an’anasidagi xor musiqasining tarixi musiqa asoslari haqidagi ilmiy-nazariy bilimlarning shakllanishida ham ob’ektiv qonuniyatlarni tafakkur etishda ham musiqani shakllanishidagi asosiy o‘rinni egallab, katta hamda o‘ziga xos yo‘lni bosib o‘tadi. Musiqa san’atining rivoji yo‘lida umumiy bo‘lgan mazkur unsurlar, odamlarning professional jamoaviy qo‘shiqchiligidagi munosabat amaliyotida yorqinroq namoyon bo‘lib, cherkov musiqasi ijodkorligi va ijrochiligi amaliyotidagi diniy hamda jarang malakalarining umumlashuviga ko‘mak beradi. Xor musiqasining ham diniy ham dunyoviy sohalari oxirgi o‘n yillarda turli tasvirlardan taassurotlarni va insonning ichki kechinmalari, sog‘inchlari hamda shodliklari shuningdek muammolarini keng jabhadagi in’ikosini ochib berishga intilish tufayli, yiriklashib, murakkablashgan. A’cappella xori uchun yozilgan xor tsikllari, kontsertlar, simfoniyalar, oratoriyalar, kantatalar - musiqa ijrosining aynan jonli vokal ko‘povozligidagi shakllarga, imkoniyatlarga, badiiy estetik jarang jabhalariga hamda timsolli- mazmunga nisbatan kompozitorlar va umum jamiyat tomonidan o‘sib borayotgan qiziqish guvohlaridir. Keng jabhali tarixiy, siyosiy, diniy- ahloqiy, ijtimoiy syujet va mavzularni o‘zida jamlagan, jamiyat va insonni xayajonga soladigan ijtimoiy umum ahamiyatga ega mavzularga tarafdor bo‘lgan, xor musiqasi janrlarining demokratik istiqboli ulkandir. A’cappella xor musiqasidagi janr doirasining istiqboli ham kengayishi ham, xor musiqasining o‘ziga xosligi tabiatan insonning insonparvarlik o‘zligiga yaqin va tabiiy ravishda zarurligidan dalolat beradi. Xor musiqasi uchun an’anaviy bo‘lgan: hayot va o‘lim, shaxs va jamiyat, individual va Koinot, insonning yuksak vazifasi va atrofdagi haqiqat kabi mavzular,- musiqaning o‘zidagi tarkiblarni va tilining tizimini mukammallashuvi bilan birga rivojlanadi. Bu taqlid xor ijrochiligi va ijodiyotiniing ta’sirchan imkoniyatlari va janrlarining

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

qamrovi sahnaviy xor ijrochilik harakatining yangi turlari bilan boyib boradi. Shu bilan bir qatorda, zamonaviy xor ijrochiligi oldda yangi va murakkab masalalar vujudga keladi. Ular ohangdorlikning g‘oyat nozik milliy etnik o‘ziga xosliklarining yevropadagi umum qabul qilingan klassik kuchlanishdan farq qiladigan, tabiiy tovush tuzilishining kompozitorlik ijodiyotida, xor ijrochiligida hamda yozuvida akslanishi bilan bog‘liqdir. Yangi g‘oyalar folklor intonatsion xilma-xilligining yanada sinchkovlik bilan ijro etishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ular bilan bog‘liq ravishda sayyoramizning barcha burchaklarida akademik ta’lim darajasida izlanishlar olib boriladi, hamda ilk qadamlar zamonaviy a’cappella vokal- xor ijrochiligidagi chorak tonli mikroxromatikani idrok etishda va o‘zlashtirish yo‘lida, nafaqat ichki tuyg‘u balki ilmiy doirada ish olib boriladi. Xor xonandaligi ta’limidagi yangi yetarli darajadagi murakkablikka ega vazifalar shunday bo‘lib, ularni o‘zlashtirish ansamblli xor ko‘povozligidagi ajoyib ta’sirchanlik imkoniyatlarining yangi boy jarang doirasini ochib beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. B.Asafyev “О музыке XX века”. Л. ,1982,
2. I.Batyuk “Современная хоровая музыка: теория и исполнение”. М.Д999,
3. R.Berberov “Специфика структуры хорового произведения”. М., 1981 “О классификации типов фактуры (уточнение классификации и терминологии основных понятий фактуры) // Проблемы музыкальной фактуры.”
4. Gnesinlar akademiyasining maqolalar to‘plami. 59-nashr. M., 1982,
5. L.Kokoreva “Кантаты А. Веберна и традиции хоровой культуры XV XVIII веков // Московский музыковед”. Вып. 1. - М.,1990,
6. Y.Kolyada “Хоровая музыка” // Musiqiy ensiklopediya. T.6. M., 1981,
7. V.Krasnoshyokova “Вопросы хороведения”. -М., 1969,
8. P.Levando “Проблемы хороведения” Л., 1974,
9. N.Romanovskiy “Хоровой словарь.” М., 2000,
10. M.Rumyanseva “Особенности многоголосия XIII века.” -М.,2005,
11. V.Semyuk “Заметки о хоровой фактуре.” М., 2000,
12. Skrebova-M.Filatov “Об особенностях развития фактуры в камерных хорах П. Хиндемита // Пауль Хиндемит. Статьи и материалы”. М., 1999,

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**O‘ktamjon Shokarimov Ibragim o‘g‘li**, katta o‘qituvchi [**Уктамжон Шокаримов Ибрагим угли,** старший преподаватель], [**Oktamjon I. Shokarimov,** senior teacher]; manzil: 100027, Toshkent, Shayxontohur tumani, ko'chasi Olmazor, 1 [адрес: Узбекистан, 100027, Ташкент, Шайхонтохурский район, ул. Алмазор, 1], [address: 100027, Tashkent, Shaikhontohur district, street Almazor, 1]; E-mail: shokarimovuktamjon@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original paper

SHARQ CHOLG'U ASBOBLARI JAHON OLIMLARI TADQIQOTLARIDA

© M.M. Kurbanova[1]✉

[1]O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali,Farg‘ona, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: sharq cholg‘u asboblari o‘zining boy tarixi va o‘ziga xos ohanglari bilan butun dunyo tadqiqotchilari va musiqachilarining qiziqishini uyg‘otdi. Ushbu asboblar nafaqat o'z mintaqalarining madaniy merosining ajralmas qismidir, balki jahon musiqashunosligiga ham katta hissa qo'shadi. Ushbu maqolada jahon olimlari tomonidan turli sharq cholg'u asboblari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ko'rib chiqiladi, ularning topilmalari hamda musiqa va madaniyatni o'rganish uchun kengroq ahamiyati yoritiladi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi butun dunyo olimlari tomonidan Sharq cholg'u asboblari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar to'plamini o'rganishdir. Tadqiqot asosiy e'tibor sohalarini, muhim topilmalarni va ushbu tadqiqotning Sharq musiqasini tushunish va qadrlashga ta'sirini aniqlashga qaratilgan.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda Sharq cholg‘u asboblari bo‘yicha ilmiy maqolalar, maqolalar va kitoblarni tahlil qilib, keng qamrovli adabiyotlar tahlili o‘tkaziladi. Materiallar etnomusiqa, antropologiya va tarix kabi turli fanlarga oid ilmiy ishlarni o'z ichiga oladi. Usullar tadqiqotning asosiy mavzulari va natijalarini tasniflash va sintez qilish uchun sifatli tahlilni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, muayyan asboblarning amaliy tadqiqotlari ularning tuzilishi, o'ynash texnikasi va madaniy ahamiyati haqida batafsil ma'lumot berish uchun tekshiriladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqotchilar Sharq cholg‘u asboblarining tarixiy rivojlanishi va madaniy kontekstlarini keng ko‘lamda hujjatlashtirib, ularning turli madaniy va diniy amaliyotlardagi rolini ta’kidladilar.Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ud, sitar, erxu kabi cholg‘ular chuqur tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, ko‘pincha o‘ziga xos madaniy marosim va an’analar bilan bog‘liqdir.

XULOSA: tadqiqot xulosasiga ko‘ra, Sharq cholg‘u asboblari bo‘yicha jahon olimlari tomonidan olib borilgan izlanishlar ushbu cholg‘u asboblarining tarixiy, madaniy va musiqiy jihatlari haqidagi tushunchalarni sezilarli darajada boyitdi. Topilmalar an'anaviy bilimlarni saqlab qolish, shuningdek, innovatsiyalar va madaniyatlararo almashinuvni qamrab olish muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: sharq musiqa asboblari, etnomuzikologiya, madaniy meros, tarixiy ahamiyati, asbob qurilishi, akustika, ishlash amaliyotlari, global ta'sir

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Iqtibos uchun: M.M. Kurbanova Sharq cholg'u asboblari jahon olimlari tadqiqotlarida // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 373–379.

ВОСТОЧНЫЕ КЛИМАТИЧЕСКИЕ ИНСТРУМЕНТЫ В ИССЛЕДОВАНИЯХ МИРОВЫХ УЧЕНЫХ

© М.М. Курбанова[1]✉
[1]Ферганский областной филиал Государственного института искусства и культуры Узбекистана, Фергана, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: восточные музыкальные инструменты привлекают внимание исследователей и музыкантов всего мира своей богатой историей и уникальным звучанием. Эти инструменты являются не только неотъемлемой частью культурного наследия своих регионов, но и вносят большой вклад в мировое музыковедение. В этой статье рассматриваются исследования, проведенные международными учеными по различным восточным музыкальным инструментам, подчеркиваются их результаты и их более широкое значение для изучения музыки и культуры.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является изучение коллекции исследований, проведенных учеными со всего мира по восточным музыкальным инструментам. Целью исследования является определение областей фокуса, важных выводов и последствий этого исследования для понимания и оценки восточной музыки.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования будет проведен комплексный обзор литературы, проанализированы научные труды, статьи и книги о восточных музыкальных инструментах. Материалы включают научные работы из различных дисциплин, включая этномузыкологию, антропологию и историю. Методы включают качественный анализ для категоризации и синтеза ключевых тем и результатов исследований. Кроме того, изучаются тематические исследования конкретных инструментов, чтобы предоставить подробную информацию об их структуре, технике игры и культурном значении.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: исследователи подробно задокументировали историческое развитие и культурный контекст восточных музыкальных инструментов, подчеркнув их роль в различных культурных и религиозных практиках, часто связанных с конкретными культурными ритуалами и традициями.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: согласно заключению исследования, исследования, проведенные мировыми учеными по восточным музыкальным инструментам, существенно обогатили понимание исторических, культурных и музыкальных аспектов этих музыкальных инструментов. Результаты подчеркивают важность сохранения традиционных знаний, а также внедрения инноваций и межкультурного обмена.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Ikkinchi psixologik nazariya xotiraning Geshtalt nazariyasidir. Ushbu nazariyaning asosiy ta’limoti narsaning negizir yaxlitligi, yig‘indisidir. Ushbu nazariyaga asosan xotira yaxlit hodisa sifatida tahlil etiladi. Bixeviorizm - inson xotirasida, esda olib qolishda takrorlashning ahamiyatiga diqqatni qaratadi. Freydizm xotirani emotsiyalar, motivlar va ehtiyojlar bilan bog‘laydi[2].Xotiraning mantiqiy nazariyasi A.Bine va Byullerlar tomonidan ilgari surilib, ular xotiradagi materialni xotiraning mantiqiy esda olib qolinishi bilan bog‘laydi. A.N.Leontev, N.I.Zinchenko. A.A.Sminovlar tomonidan faoliyat nazariyasi ilgari surilib, turli tasavvurlar orasidagi bog‘liqlik esda olib qolingan materialning qandayligiga emas, balki odamning u bilan nima qilishiga bog‘liqdir.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Uchunchi nazarya Bioximik nazariya tashqi ta’sir ostida nerv hujayralarida yuz beradigan o‘zgarishlarni qayd qilish va xotira jarayonida DNK va RNK ahamiyatini aniqlashga qaratilgandir. DNK xotirani genetik tug‘ma tashuvchi sifatida, RNK esa individual xotiraning ontogenetik asosi sifatida qabul qilinadi. Kibernetik nazariya bo‘yicha xotira ma’lumotni qabul qilib olish, qayta esga tushirish va unutishdir. Adabiyotlarda keltirilishicha, navbatdagi nazariya xotira jarayonlari asoslari haqidagi fiziologik nazariyadir. Vaqt oralig‘ida esda olib qolish, saqlash va esga tushirish xotiraning asoslari fiziologik nazariyasini tashkil qiladi. Har qanday tashqi ta’sir nerv tizimida izsiz o‘tmaydi va qandaydir “Iz” qoldiradi. “Iz”ning fizik ta’siri qayta impuls harakatini yengillashtiradi. Vaqtinchalik nerv munosabatlarining yuzaga kelishi, ularning izini va keyinchalik faollashtirilishini xotira jarayonlari asoslari nazariyasi sifatida ko‘rib chiqiladi. 80-yillarda nemis psixologi German Ebbingauz o‘z sof xotira qonunlarini o‘rganish imkonini beruvchi, boshqacha so‘z bilan aytganda, tafakkurga bog‘liq bo‘lmagan holda izlarning esda qolish jarayoni tadqiq etishning yangi uslubini taklif qilgan, ya’ni ma’nosiz bo‘g‘inlarni yod olishdan iborat bo‘lgan bu uslub Ebbingauzga materialni esda olib qolishning egri chizig‘iga oid qonunni kashf qilishga, uning asosiy qoidalarini bayon etishga va ana shularning asosida izlari xotirada saqlanish muddatini hamda asta-sekin so‘nish holatini tekshirishga imkoniyat yaratgan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Amerikalik psixolog Eduard Trondaykning tekshirishlari paydo bo‘ldi. U birinchi bo‘lib tekshirish predmeti sifatida hayvonlarda ko‘nikmalarni paydo bo‘lish jarayonini tanlagan edi. XX asming birinchi 10 yilida xotirani tekshirish yangi ilmiy talqinga ega bo‘ldi, uning moddiy asosi to‘g‘risidagi muammolarga mohiyati jihatidan mutlaqo boshqacha yondashish ro‘yobga chiqdi. Xuddi shu davr xotira psixologiyasida keskin burilish nuqtasini vujudga keltiradi. Akademik I.P.Pavlov shartli reflekslarni o‘rganishning ilmiy metodini taklif etadi, bu narsa o‘z navbatida bosh miya yarim sharlarida yangi bog‘lanishlar paydo bo‘lishiga va mustahkamlanishning asosiy fiziologik mexanizmlarini tekshirish imkoniyatlarini tug‘dirdi. Ana shunday qilib, ushbu bog‘lanishlar paydo bo‘lishiga va saqlab qolishga yordam beradigan shart-sharoitlar, shuningdek, bog‘lanishlaming saqlanishiga ta’sir qiluvchi holatlar, omillar va mexanizmlar tasvirlab berildi. I.P.Pavlov oliy asab faoliyati ta’limoti va uning asosiy qonunlari xotiraning fiziologik mexanizmlariga oid bilimlaming asosiy manbasiga aylanib qoladi. Bolalarda xotiraning yuksak (yuqori) shakillarini birinchi marta tadrijiy ravishda tadqiq qilish taniqli psixolog L.S.Vigotskiyga nasib etgan[3].

Jahon psixologiyasida xotira muammosi bo‘yicha keng nazariy, amaliy, tahliliy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, G.Ebbingauz, D.Layon, P. Vilyamson, A Ditse, G. Djons, V.Shtern, I.P.Pavlov, L.S.Vigotskiy, L.N.Leontev, S. L. Rubinshteyn, P. A. Ribnikov, L.V.Zankov, A.A.Smirnov, P.I.Zinchenko, M.N.Shavdakov, A.I.Lipkina, Ye.N.Boyko, Ye.N.Sokolov, R.Atkinson, Radosavlevich va boshqalar xotira muammosining turli jihatlarini tadqiq etib, katta hajmdagi ilmiy ishlar va o‘quv qo‘llanmalar yaratishga muvaffaq bo‘lganlarliklarini ko‘rsatish mumkin.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

20-yillarning oxirida. XX asr xotira jarayonlarini tahlil qilishda yangi yondashuvni boshlaydi. L.M.Veker qayd etgan xotira shakllarining har biri odamlarning muloqot va hamkorlik ehtiyojlaridan kelib chiqadi, u inson xotirasining paydo bo‘lishi va rivojlanishida ushbu holatga markaziy rol o‘ynaydi.

Xotira rus psixologiyasida yanada rivojlandi.Sovet psixologiyasida xotiraning mohiyatini tushunishga ijtimoiy yondashuvning rivojlanishi real materialistik tushunilganlarni hisobga olish asosida amalga oshiriladi. ijtimoiy-tarixiy rivojlanish qonuniyatlari va bola psixikasi genezi bilan bog‘liq. 1930 yilda L.S. Vigotskiy va A.R. Luriya turli nashrlar, lekin mualliflar arxaik xotira evolyutsiyasi tahlil va xotira filogenez va ontogenez haqida ma’lumotlarni solishtirish bo‘lgan xulq tarixi, bo‘yicha. L.S. Vigotskiy va A.R. Luriya ibtidoiy odam xotirasining xususiyatlarini ko‘rib chiqadi: g‘ayri oddiy so‘zlashuv, fotografik sifat, tafsilotlarning hashamati va boshqalar. Ibtidoiy odam xotirasining bu xususiyatlari bola psixikasi rivojlanishining dastlabki bosqichlarida qayd etilgan eydetik xotira xususiyatlariga mos keladi. Eydetik xotira - bu ob’yekt va hodisani idrok etgandan so‘ng tasvirlarni uzoq vaqt davomida tom ma’noda saqlab qolish qobiliyati bo‘lib, ular timsolning ravshanligi va yorqinligi bilan ajralib turadi, shuning uchun bolalik xotiralari juda ajralib turadi . Arxaik xotiraning xususiyatlarini hisobga olgan holda. butun, L.S. Vigotskiy va A.R. Luriyaning ta’kidlashicha, uning eng muhim xususiyati o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan, boshqarib bo‘lmaydigan harakterdir: inson xotiradan foydalanadi, lekin uni boshqarmaydi.

A.G.Asmolovning ta’kidlashicha, til, yozuv va boshqa ishora tizimlarining rivojlanishi bilan xotiraning reproduktiv shakli o‘zining muhim funksiyalarini bajarishni to‘xtatadi va xotiraning rivojlanishi rekonstruktiv shaklni aniqlaydigan tobora rivojlanib borayotgan ijtimoiy vositalarga asoslangan nazorat imkoniyatlarini oshirish bilan bog‘liq. Xotiradan A.G.Asmolov juda haqli ravishda L.S.Vigotskiy nafaqat xotiraning ijtimoiy shartliligi faktini ochib beradi, balki belgilardan foydalanish va ixtiro qilish asosida inson xotirasining rivojlanish tarixini tarix va madaniyatning asosiy davrlari bilan bog‘liq holda asoslashga harakat qiladi. A.N.Leontev xotiraning oliy shakli tabiatini inson mehnat faoliyati rivojlanishining umumiy tarixiy qonuniyatlari bilan bog‘liq holda tahlil qiladi. Olim shaxsiy rivojlanish jarayonida xotiraning eng yuqori shaklining genezisini hisobga olib, xotira rivojlanishini materialistik tahlil qilishning eng muhim qoidalarini belgilaydi.

Mavzu yuzasidan o‘tkazilgan tadqiqotimizda 101 nafar talaba-yoshlar ishtirok etishdi. Jumladan: Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti (55 ta) hamda aniq fanlar fakultetidan (46 ta) talaba (1-jadval).


Gumanitar va aniq ta’lim yo‘nalishi talabalarining umumiy soni

1-jadval

Aniq fanlar	46	45,5
Ijtimoiy fanlar	55	54,5
Jami	101	100,0

Ishtirokchi talabalar jinsi bo‘yicha qizlar 54% va o‘g‘il bolalar 46% tashkil etmoqda.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)



1-rasm. Sinaluvchilarning jins bo‘yicha taqsimoti

Tadqiqot ishimizda P.I.Zinchenkoning “Ixtiyoriy va ixtiyorsiz esda olib qolish samaradorligini o‘rganish” metodikasi, Mantiqiy va mexanik xotirani o‘rganish metodikasi, Operativ xotirani o‘rganish metodikalaridan foydalandik.

Metodikalarimizning parametrik yoki noparametrik mezonlarga mansub ekanini aniqlash maqsadida Kolmogorov Smirnov mezonidan foydalangan holda quyidagi natijalar tahlilini amalga oshirdik (2-jadval).

Kolmogorov-Smirnov bo‘yicha P.I.Zinchenkoning “Ixtiyoriy va ixtiyorsiz esda olib qolish samaradorligini o‘rganish” metodikasi, mantiqiy va mexanik xotirani o‘rganish metodikasi, operativ xotirani o‘rganish metodikalari ko‘rsatkichlar tahlili.

2-jadval

Ko‘rsatkichlar	Kalmogorov Smirnov-D	Ishonch darajasi-P
Bevosita esda olib qolish	1,009	0,261
Bilvosita esta olib qolish	1,192	0,117
Mantiqiy esda olib qolish	2,012	0,001**
Mexanik esda olib qolish	1,429	0,034*
Operativ esda olib qolish	1,831	0,002**

Kalmogorov Smirnov bo‘yicha metodikalarimiz tahlililarida noparametrik mezonga mos kelganligi uchun keyingi tahlilimiz Mann Uitni mezoni bo‘yicha talabalarning fakultetlararo tafovutlarini ko‘rib chiqamiz (3-jadval).

Gumanitar va aniq fanlar ta’lim yo‘nalishlari talabalarining esga olib qolish turlarining jins bo‘yicha ko‘rsatkichlari

3-jadval

Ko‘rsatkichlar	Jins	N	O‘rtacha rang	U	p
Bevosita esda olib qolish	qiz bolalar	55	46,05	-1,868	,062
	O‘g‘il bolalar	46	56,91		
Bilvosita esda olib qolish	qiz bolalar	55	50,98	-,007	,995
	O‘g‘il bolalar	46	51,02		
Mantiqiy esda olib qolish	qiz bolalar	55	50,85	-,060	,952
	O‘g‘il bolalar	46	51,18		
Mexanik esda olib qolish	qiz bolalar	55	45,75	-2,002	,045*
	O‘g‘il bolalar	46	57,28		
Operativ esda olib qolish	qiz bolalar	55	39,84	-4,279	,000***
	O‘g‘il bolalar	46	64,35		

Izoh: *-p≤0.05; **-p≤0.01

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Mantiqiy va mexanik xotirani o‘rganish metodikasi Mann-Uittni mezoni bo‘yicha jins tafovuti tahliliga ko‘ra, mantiqiy esda olib qolish shkalasida yigitlar 51,02, qizlar 50,85 o‘rtacha rang ko‘rsatkichini qayd etib ishonch darajasidagi ahamiyatli farqlar aniqlanmadi (U=-,060; p≤0,952). Bundan qizlar hamda yigitlarda xotiraning mantiqiy esda olib qolish jihati deyarli bir xil ekan, degan xulosaga kelinadi.

Mantiqiy va mexanik xotirani o‘rganish metodikasi Mann-Uittni mezoni bo‘yicha jins tafovuti tahliliga ko‘ra, mexanik esda olib qolish shkalasida yigit va qizlar o‘rtasida tafovutlar (U=-2,002; p<0,05) aniqlandi

Xulosa: P.I.Zinchenko xotiraning faoliyat konsepsiyasini rivojlantirishga salmoqli hissa qo‘shdi. Uning tadqiqotlari nafaqat psixologiya fanini rivojlantirishga, balki pedagogika va ta'lim tizimlarini rivojlantirishga ham xizmat qildi. Ixtiyoriy va beixtiyor xotirani o‘rganish uchun qiyosiy metodologiya ishlab chiqilgan bo‘lib, uning yordamida bir qator mnemonik ta'sirlar kashf etilgan va o‘rganilgan.

Zamonaviy dunyo inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab olgan ijtimoiy dinamikaning kuchli sur’ati bilan ajralib turadi. Ijtimoiy o‘zgarishlar, hayotning temperament xususiyatlarining rivojlanishi, ko‘pincha oldindan aytib bo‘lmaydigan xarakteriga ega bo‘lib, insonlardan katta moslashuvchan potensialga ega bo‘lishni talab qilishi kundalik hayotning haqiqatiga aylandi. Olib borilgan tadqiqotda jins tafovutlari bo‘yicha taqqoslanilganida o‘g‘il bolalarda xotiraning mexanik eslab qolish qobilyati qiz bolalarga nisbatan ustunroq natijani aks ettirdi. Kelib chiqgan natijaga asoslanib ushbu tadqiqot doirasida shunday deyish mumkin bo‘ladi yigitlarda yarimsharlar faoliyati qiz bolalar miya faoliyatining yarim sharlar doirasiga nisbatan faol ekanligi hamda tashqaridan berilayotgan axborotlarni mexanik eslab qolish qobilyatinining ustunligini aks ettirdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Haydarov F.I., Xalilova N.I., Umumiy psixologiya. –Toshkent.: 2010-76 b.
2. Иванов П.И., Зуфарова М. «Умумий психология». – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти, 2010.
3. Давлетшин М.Г., Алимқулов Ё., Убайдуллаев А., Умаров У., Алимова Ф., Тўйчиева С. Психология: қисқача изоҳли луғат (ўзбек тилида). – Тошкент, ТДПУ, 2010.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАТSIЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Xayitboy Anorboyev Eshboy,**katta o‘qituvchi**. Safiya Usmonova Xurshid qizi,** talaba. [**Хаитбой Анорбоев Эшбой угли,** старший преподаватель. **Сафия Усманова Хуршид кизи,** студент], [**Khaitboy E. Anorboyev,** senior teacher**. Safia Kh. Usmanova,** student.]; manzil: 130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri Sh.Rashidov shox ko'chasi, 259 uy [адрес: 130100, Джизакская область, город Джизак, ответвление улицы Ш. Рашидова, дом 259], [130100, Jizzakh region, Jizzakh city, Sh. Rashidov branch street, house 259]; e-mail: xayitboy@gmail.com safiya@mail.ru

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original peper

TALABA PSIXOLOGIYASINING RIVOJLANISHIDA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNING O'RNI ("HAFT SHUARO" MAJUMASI MISOLIDA)

© I.A. Xajiyeva[1]✉

[1]Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali

Annotatsiya

KIRISH: ma'naviy-axloqiy qadriyatlar o'quvchilarning psixologik rivojlanishida, ularning xarakterini, qaror qabul qilish jarayonlarini va umumiy farovonligini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Muhim madaniy-adabiy maskan bo'lgan "Haft shuaro" majmuasi o'zining teran she'riy-falsafiy asarlari orqali ana shu qadriyatlarning boy namunalarini taqdim etadi. Ushbu maqolada "Haft shuaro" majmuasi misolida keltirilgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning o'quvchilar psixologiyasi rivojiga ta'siri o'rganiladi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi "haft shuaro" majmuasidan olingan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning o'quvchilarning psixologik rivojlanishiga ta'sirini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot ushbu qadriyatlar talabalarning hissiy, axloqiy va kognitiv rivojlanishiga qanday hissa qo'shishini tushunishga intiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda sifat va miqdoriy tadqiqot usullarini birlashtirgan aralash usullardan foydalaniladi. Materiallar orasida "Haft shuaro" majmuasidagi adabiy asarlar, psixologik baholash vositalari va ta'lim so'rovlari mavjud. Usullar asosiy ma'naviy-axloqiy mavzularni aniqlash uchun "Haft shuaro" adabiyotining matn tahlilini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, ushbu mavzularning ularning psixologik rivojlanishiga ta'sirini baholash uchun talabalar bilan so'rovlar va suhbatlar o'tkaziladi. Miqdoriy ma'lumotlar Haft Shuaro adabiyoti bilan tanishishdan oldin va keyin talabalarning hissiy va axloqiy rivojlanishini o'lchaydigan standartlashtirilgan psixologik testlar orqali to'planadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: "Haft shuaro" adabiyotidagi sevgi, mehr-oqibat, hamdardlik kabi chuqur mavzularni ochib berish o'quvchilarning hissiy ongini, sezgirligini oshiradi.So'rovlar va intervyular shuni ko'rsatadiki, Haft Shuaro kompleksi bilan shug'ullanadigan talabalar yuqori darajadagi hissiy intellektni, jumladan, o'zlarining va boshqalarning his-tuyg'ularini yaxshiroq tanib olish va boshqarishni namoyish etadilar.

XULOSA: tadqiqot natijalariga ko'ra, "Haft shuaro" majmuasidan olingan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar o'quvchilarning psixologik rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi. Bu qadriyatlar hissiy aqlni, axloqiy fikrlashni, kognitiv qobiliyatlarni va madaniy o'ziga xoslikni

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

oshiradi. Bunday adabiy asarlarning o‘quv dasturlariga kiritilishi o‘quvchilarning psixologik o‘sishi va rivojlanishi uchun katta foyda keltirishi mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlar turli xil ta'lim sharoitlarida o'xshash rivojlanish natijalarini rag'batlantirishda boshqa madaniy va adabiy manbalardan foydalanishni o'rganishi kerak. Natijalar ma’naviy-axloqiy tarbiyani o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga kiritish muhimligini ta’kidlaydi.

Kalit so'zlar: qadriyat, talaba, dunyoqarash, axloqiy suhbat, o‘z-o‘zini baholash, maqsad, tarbiya, ta’lim, psixologiya.

Iqtibos uchun: Xajiyeva. I.A. Talaba psixologiyasining rivojlanishida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning o‘rni. // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 396–404.

РОЛЬ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ В РАЗВИТИИ ПСИХОЛОГИИ СТУДЕНТОВ. (НА ПРИМЕРЕ КОМПЛЕКСА «ХАФТ ШУАРО»)

© И.А. Хажийева[1]✉
[1]Ургенчского филиала Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада аль Хорезми

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: духовно-нравственные ценности играют решающую роль в психологическом развитии учащихся, в формировании их характера, процессов принятия решений и общего благополучия. Комплекс «Хафт Шуаро», важный культурный и литературный центр, представляет богатые примеры этих ценностей посредством своих глубоких поэтических и философских произведений. В данной статье рассматривается влияние духовно-нравственных ценностей на развитие психологии студентов на примере комплекса «Хафт Шуаро».

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является анализ влияния духовно-нравственных ценностей, полученных с помощью комплекса «хафт шуаро», на психологическое развитие учащихся. Исследования направлены на то, чтобы понять, как эти ценности способствуют эмоциональному, моральному и когнитивному развитию учащихся.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы смешанные методы, сочетающие качественные и количественные методы исследования. Материалы включают литературные произведения из комплекса Хафт Шуаро, инструменты психологической оценки и образовательные опросы. Методы включают текстовый анализ литературы Хафт Шуаро для выявления основных духовно-нравственных тем. Кроме того, со студентами проводятся опросы и интервью для оценки влияния этих тем на их психологическое развитие. Количественные данные собираются с помощью стандартизированных психологических тестов, которые измеряют эмоциональное и моральное развитие учащихся до и после знакомства с литературой Хафта Шуаро.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: раскрытие таких глубоких тем, как любовь, доброта, сочувствие в литературе «Хафт Шуаро», повышает эмоциональную

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

осведомленность и чувствительность учащихся, демонстрирует эмоциональный интеллект, в том числе лучшее распознавание и управление своими и чужими эмоциями.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: согласно результатам исследования, духовно-нравственные ценности, полученные с помощью комплекса «Хафт Шуаро», существенно способствуют психологическому развитию учащихся. Эти ценности повышают эмоциональный интеллект, моральное мышление, когнитивные способности и культурную самобытность. Включение таких литературных произведений в образовательные программы может принести большую пользу психологическому росту и развитию учащихся. Будущие исследования должны изучить использование других культурных и литературных источников для достижения аналогичных результатов развития в различных образовательных учреждениях. Результаты подчеркивают важность включения духовно-нравственного воспитания во всестороннее развитие учащихся.

Ключевые слова: ценности, студент, мировоззрение, нравственный диалог, самооценка, цель, воспитание, образование, психология.

Для цитирования: Хажийева И.А. Роль духовно-нравственных ценностей в развитии психологии студентов. (На примере комплекса «Хафт Шуаро»). // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 396–404.

THE ROLE OF SPIRITUAL AND MORAL VALUES IN THE DEVELOPMENT OF STUDENT PSYCHOLOGY(USING THE EXAMPLE OF THE HAFT SHUARO COMPLEX)

© Iroda A. Khajieva [1]✉
[1] Urgench branch of the Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khorezmi.Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: spiritual and moral values play a decisive role in the psychological development of students, in the formation of their character, decision-making processes and general well-being. The "Haft Shuaro" complex, an important cultural and literary center, presents rich examples of these values through its deep poetic and philosophical works. This article examines the influence of spiritual and moral values on the development of students' psychology, given as an example of the "Haft Shuaro" complex.

AIM: the purpose of this study is to analyze the influence of spiritual and moral values obtained from the "haft shuaro" complex on the psychological development of students. Research seeks to understand how these values contribute to students' emotional, moral, and cognitive development.

MATERIALS AND METHODS: the study uses mixed methods combining qualitative and quantitative research methods. Materials include literary works from the Haft Shuaro complex, psychological assessment tools, and educational surveys. The

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

methods include textual analysis of Haft Shuaro literature to identify the main spiritual and moral themes. In addition, surveys and interviews are conducted with students to assess the impact of these topics on their psychological development. Quantitative data are collected through standardized psychological tests that measure students' emotional and moral development before and after exposure to Haft Shuaro literature.

DISCUSSION AND RESULTS: revealing deep themes such as love, kindness, sympathy in the literature of "Haft Shuaro" increases the emotional awareness and sensitivity of students. demonstrate emotional intelligence, including better recognition and management of their own and others' emotions.

CONCLUSION: according to the results of the research, spiritual and moral values obtained from the "Haft Shuaro" complex contribute significantly to the psychological development of students. These values enhance emotional intelligence, moral reasoning, cognitive abilities, and cultural identity. The inclusion of such literary works in educational programs can be of great benefit to the psychological growth and development of students. Future research should explore the use of other cultural and literary sources in promoting similar developmental outcomes in different educational settings. The results emphasize the importance of including spiritual and moral education in the comprehensive development of students.

Key words: value, student, worldview, moral dialogue, self-evaluation, goal, upbringing, education, psychology.

For citation: Iroda. A. Khajieva. (2024) ‘The role of spiritual and moral values in the development of student psychology. (using the example of the haft shuaro complex)’, Inter education & global study, (4(2)), pp. 396–404. (In Uzbek).

Ma’naviy – ma’rifiy sohalarda amalga oshirilayotgan ishlar doimo jamiyat hayotining yuksalib borishida asosiy zamin bo‘lib kelgan. Amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy sohadagi islohotlar ta’lim tizimida ham yangilanishlar bo‘lishini taqozo etmoqda. Ma’naviy axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish talaba yoshlarni komillik sari undaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma’naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim”[1].

Agar jamiyat o‘z taraqqiyot davrida ma’lum bir rivojlanishga, madaniyatga va ma’naviyatga erishgan bolsa va uni saqlab qolishni hamda yuksaltirishni istasa, uning tarixida turli xil o‘zgarishlar ro‘y berishidan qat’iy nazar, u o‘tmishdan beri saqlanib kelayotgan eng yaxshi an’ana va qadriyatlarini qabul qilishi, davom ettirishi lozim boladi. Umuminsoniy qadriyatlar va madaniy boyliklar tarixiy va hududiy chegara bilmaydigan boyliklar qatoriga kiradi. Birinchi navbatda xuddi o‘shalar ijtimoiy tarixning barcha bosqichlarida tarbiya maqsadlarini ifodalaydi. Bu maqsadlar yaxshilik va yomonlik,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

to‘g‘rilik va tartiblilik, insoniylik va tabiatga bo‘lgan muhabbat tushunchalari bilan bog‘liqdir [2]. Barkamol inson tarbiyasiga doir bir necha tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, mazkur ishlar qatorida B.Ziyomuhamedov, N.Komilov, M.Xayrullayev S.Nishonova, R.Karimov, G.X. Ibragimova, Z.Q Ismailova, R. Mamatqulova, Q Nazarov va A. Ochildiyev, M. Hamdamova, Sh. Qurbonov O.Hasanboyeva I. Ergashevlar, M. Quronov, prof M.Imomnazarov, prof.M.Lafasov, dots.nt M.Hamdamova va akademik E.Yusupov kabi olimlarimiz hamda ijodning shaxs psixologiyasi bilan bog‘liqlik jihatlari nuqtayi nazaridan D. Dyui, G.Ollport, V.Kvinn, D.Ash, D.Mayers, V.Karimova, З.Нишанова, E.Z.Usmanova, Sh.Dustmuhammedovalar o‘z ilmiy tadqiqot ishlari va monografiyalarida “barkamol inson g‘oyasi” to‘g‘risida o‘z fikr va mulohazalarini bildirishgan.

Mavzuni tahlil etish jarayonida adabiyotshunoslikning qiyosiy tahlil, psixologiyaning suhbat metodlaridan foydalandik. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘qituvchi va murabbiylar” kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi, 2023-yil 22-dekabrdagi Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqlari mavzuning metodologik asosini tashkil etadi.

Oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari talabalarda ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirishda quyidagi talablarga javob berishi kerak: ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mohiyati bilishni; talabalar psixologiyasini bilishni; asosiy tushunchalar, qonunlar va modellar, ta’lim oluvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash usullari va vositalarini; ijtimoiy-gumanitar fanlar o‘rtasidagi aloqadorlik va hamkorlikni amalga oshirishni; o‘qitiladigan fanning mutaxassis shaxsini shakllantirishdagi umuminsoniy jihatlarini; talabalarni ma’naviy, axloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashda ta’lim muassasalari, jamoat tashkilotlarining burchlarini belgilab beruvchi me’yoriy hujjatlar bilan ishlashni; talabalarni tarbiyalash jarayonida psixologiya asoslarini bilishi va qo‘llay olishni; talabalarda vatanparvarlik, milliy g‘urur va o‘z-o‘zini anglash, o‘z xalqining va boshqa xalqlarning tarixiga, madaniyatiga va an’analariga hurmat, bilim va haqiqatga intilish, mehnatsevarlik, tadbirkorlik va qonunga bo‘ysunish hissiyotlarini shakllantirishni; ta’lim oluvchilarni estetik rivojlantirish, ularni ajdodlarimizning va jahon sivilizatsiyasining boy merosi bilan tanishtirishni; yangi O‘zbekiston sharoitida ijodiy faollikni shakllantirishni.

Yoshlarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishda ijtimoiy gumanitar fanlarning roli katta. Chunki, “ijtimoiy-gumanitar fanlar ma’naviyat va ma’rifatning manbai, ozuqasidir”.[3] Bizningcha, hozirgi sharoitda yoshlarimiz ma’naviyatini yuksaltirishda ajdodlarimiz qoldirgan milliy ma’naviy merosdan foydalanish, birlamchi manbalarni tadqiq qilish juda katta ahamiyatga egadir. Bunday maqsadlarni amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, chuqur o‘ylangan, ilmiy asosda tashkil etilgan ma’naviy tarbiya bilan javob berish mumkin.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya deganda, inson xulq-atvorining go‘zalligi, saxovat va himmatliligi, oliyjanobligi, va’dasiga vafodorligi, hayoliligi, bilim olishi, donoligi, bag‘rikengligi, odobliligi, ozoda va pokizaligi, qalbining beg‘uborligi, xushmuomalaligi va shu singari yoqimli urf-odatlar tushuniladi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Talabalarda ma’naviy axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishda barcha tarbiya vositalarini safarbar etish lozim. Bunda asosan, barcha axborot vositalari, radio va teleko‘rsatuvlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda shunchaki so‘zlash, gapirish yoki quruq axborotlarni berish emas, balki asrlar, bir necha o‘n yilliklar mobaynida ro‘y bergan va ayni choqda sodir bo‘layotgan voqea va hodisalarni aniq dalillar, ma’naviyat va qadriyatlarning ahvolini qiyoslash asosida ish tutish lozim. Bu ishontirish kuch qudratiga egadir. Bu siyosiy-pedagogik omillardan unumli va oqilona foydalanishni taqozo etadi.

Ta’lim usullari ostida o‘qituvchilarning talabalarga ta’sir qilish va ularning faoliyatini tashkil etish usullarini tushunish odatiy holdir. Ma’naviy-axloqiy tarbiya usullari ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish, axloqiy tuyg‘ularni rivojlantirish va xulq-atvor ko‘nikmalari va odatlarini rivojlantirish yo‘llari va vositalari sifatida ishlaydi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya usullarini tanlashga nafaqat talabalarning yoshi, balki ularning hayotiy tajribasi ham ta’sir qiladi. Ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan tarbiya usullarini qo‘llash natijasi ma’lum bir xulq-atvor turini belgilaydigan g‘oyalar, tushunchalar, g‘oyalar va odatlarni shakllantiradigan ma’naviy-axloqiy munosabatlar, motivlarni yaratishdir.

Texnika oliy ta’lim muassasasi talabalarida ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirishda birlamchi manbalarni o‘rganish, tahlil qilish, undagi ilg‘or g‘oyalarni jamiyat manfaatlariga qo‘llash vositalarini aniqlash har bir pedagog uchun katta mahoratni talab qiladi. Axloqiy mavzudagi g‘azallar ma’naviy-axloqiy mazmunga ega bo‘lgan aniq fakt va hodisalarning yorqin, hissiy ifodasidir. Maslouning fikricha, o‘z-o‘zini namoyon qiladigan shaxslar elementar ehtiyojlarini qondirish bilan chegaralanib qolmaydi, haqiqat, go‘zallik, yaxshilik kabi oliy qadriyatlarga intiladi. Ular o‘z faoliyatlarida yuksak cho‘qqilarga intiladilar. O‘z-o‘zini namoyon qilish uchun o‘z ustida tinmay ishlashni talab qiladigan jarayondir.[2]

Bu jarayonda ma’naviy qadriyatlarni tahliliy asosda to‘g‘ri tushuntirish g‘oyat muhim.

Manbalarning guvohlik berishicha, aslida XX asrning 20- yillarigacha bo‘lgan davrda jadid shoirlari bilan birga, diniy adabiyot va saroy adabiyoti vakillari ham faoliyat ko‘rsatdilar. Feruz saroyidagi shahzoda shoirlarning “Haft shuaro”[9]dagi she’rlari o‘sha davrdagi ijodiy jarayon yo‘nalishini yaqqol aks ettiradi. Ularda adabiy an’analar ustuvor bo‘lsa ham, qator she’rlarda jamiyatda yetishib kelayotgan o‘zgarishlarni his qilishga, ma’rifatga, o‘zlikni anglashga intilish yorqin ifodalangan edi (Bayoniy, Oqil she’rlarida).

Shahzoda shoirlarning she’riyat janrlariga munosabati an’anaviydir. Ular asrlar davomida shakllangan mumtoz adabiy an’analar ruhida tarbiyalandilar va ularni davom ettirdilar. Zero ular ijodiyotida g‘azallarning asosiy o‘rin egallashi va yetakchi janr ekanligi ham shu bilan dalillanadi. Ikkinchidan, an’anaga ko‘ra shoir har bir g‘azalni yaratish jarayonida uning matlaini yangidan bitsa ham, keyingi baytlarini matlaga o‘xshatib davom ettirib moslashtirishni, maqtaga taxallusni qistirib ketishni unutmasligi kerak edi. Xususan, ishqiy g‘azallardagi mavzu jihatdan torlikni, an’anaviy tasvir alomatlarining ustunligini, avvalo, shu yo‘l bilan izohlash, ya’ni “bir qolip”da ish tutish oqibati deb qarash mumkin. Shuning uchun ham g‘azal ko‘proq shoh adabiy doiralarida keng o‘rin tutadi”.[4] Darhaqiqat, bu xususiyatlar to‘laligicha Feruz saroyidagi “adabiy doira” vakillari –

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

shahzoda shoirlar ijodiga ham aloqadordir. Ular g‘azallaridagi matla’ va maqtani qo‘llash hamda an’anaviy tasvir unsurlarining ustuvorligi kabi holatlarda yorqin aks etgan. Boshqacha aytganda, “Haft shuaro”dagi she’rlar har qancha rang-barang bo‘lmasin, ular asosini g‘azallar tashkil etishi shu bilan asoslanadi.

G‘azalning mazmunini tahlil qilishni tashkil etish jarayonida o‘qituvchi talabalarga hissiy ta’sirga asoslangan axloqiy baholash va xatti-harakatlar normalarining ma’nosini tushunish va o‘zlashtirishga yordam beradi. Ma’naviy-axloqiy mavzudagi birlamchi manbalar ma’naviy-axloqiy tushunchalar mazmunini ochib beradi, talabalarda ma’naviy-axloqiy me’yorlarga mos keladigan xatti-harakatlarga ijobiy munosabatda bo‘lishiga sabab bo‘ladi, ularning xulq-atvoriga ta’sir qiladi.

Tushuntirish - bu oliy ta’lim muassasasining xususiyatlari va individual talabalarning shaxsiy fazilatlarini bilishga asoslangan kichik guruh yoki shaxsga hissiy va og‘zaki ta’sir qilish usulidir. Bunda ma’naviy-axloqiy qarashlar va e’tiqodlarni shakllantirish ustunlik qiladi. Axloqiy suhbatning maqsadi ma’naviy-axloqiy tushunchalarni chuqurlashtirish, mustahkamlash, bilimlarni umumlashtirish va mustahkamlash, ma’naviy-axloqiy qarashlar va e’tiqodlar tizimini shakllantirishdir.[5] Axloqiy suhbatning samaradorligi uchun shartlar nostandart savollardan muammoli foydalanish, talabalarga ularga javob topishga yordam berish, boshqalarning fikrini hurmat qilish, asosli nuqtayi nazar, fikr va shubhalarni bildirishda ochiqlik va ularga tayanishdir. Axloqiy suhbatni tashkil etish ma’naviy va axloqiy mavzular muammosi bo‘yicha barcha nuqtayi nazarlarni aniqlash va solishtirish imkonini beradi.

Tadqiqotimiz davomida suhbat uchun talabalarga quyidagi fikrlar havola qilindi:

“G‘azallarda shoirlar hayotida va atrof-muhitda yuz bergan real hodisalarga ishora qiluvchi voqeabandlik turlichadir. Ular mohiyatan quyidagi mavzularda namoyon bo‘ladi: zamondoshlar bilan muayyan munosabatlar tufayli yozilgan g‘azal; saroy bazmi va adabiy anjumanlarga bag‘ishlangan g‘azallar; soz va ustoz san’atkorlar hamda shoirlar haqidagi g‘azallar va Feruzni sharaflovchi g‘azallar”.

Ushbu fikrdan g‘azallarga xos xususiyatlarni qanday aniqlash mumkin? degan savol bilan murojaat etilganda, talabalar turli xildagi o‘z fikrlarini bayon etdilar. O‘qituvchi ularning fikrlarini umumlashtirib, majmuadagi g‘azallarni guruhlash yuqoridagi xususiyatlarni inobatga olishni taqozo etishi, shuningdek, g‘azallarni shakl va mazmun–mohiyat jihatdan guruhlash lozimligi xususidagi xulosani bildirdi. Axloqiy suhbat davomida talabalarga g‘azallar tasnifi tushuntirib berildi.

Binobarin, “Sharq she’riyati an’anaviy she’riyat bo‘lib, uning daxlsiz an’anaviy shart, qoida, talab va xususiyatlari ayon bo‘lsa ham, an’ana iste’dodni tarbiyalaydi, did, saviya, imkoniyatlarining ochilishi va kengayishiga behad ta’sir ko‘rsatadi”.[6] Zero bu ta’sir majmuadagi g‘azallarning an’analarni izchil davom ettirgani, ularning qator qirralarini yanada boyitganlari bilan adabiy-estetik ahamiyatga molikdir. Bu esa, albatta, talaba yoshlar ma’naviy tarbiyasida o‘z ta’sir kuchiga ega.

Tadqiqotimizda, elektron ilova paragraflariga oid topshiriqlar berilganda, talabalar ushbu topshiriqlarni bajarishda biroz qiyinchilikka duch keldilar. O‘qituvchi adabiyot

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

darsiga oid manbalardan misollar keltirib, Navoiy g‘azallarining o‘ziga xos xususiyatlari va XX asr Xorazm adabiy muhiti shoirlari ijodi bilan taqqoslab, manbadagi ma’lumotlarni taqdim etgach, ular topshiriqlarni oson bajarishga erishdilar. O‘qituvchi manbaga oid quyidagi fikrlarni havola qildi va unga doir ma’lumotlarni aniqlash, taqqoslash talabalarga topshiriq sifatida berildi.

Chunki “bu uslubning asosiy xususiyatlari: g‘azal va qasidaning yetakchi mavqe egallashi, g‘azal mavzusining boyishi, poetikaning takomillashuvi” bo‘lib, uning shakllanishi Rabg‘uziy va Xorazmiy davridan oldinroq boshlangan.[7]

Istisno kuchga ega bo‘lgan ta’lim usuli o‘ziga xos rol modellarni beradi va shu bilan ongni, e’tiqodlarni, his-tuyg‘ularni faol shakllantiradi, faoliyatni faollashtiradi. Shuningdek, kitob, birlamchi manbalar, kino qahramonlari, tarixiy shaxslar, atoqli olimlar ibratlari ham tarbiyaviy kuchga ega. Hayot nafaqat ijobiy, balki salbiy misollarni ham namoyon etadi. Talaba yoshlarning e’tiborini odamlar hayoti va xulq-atvoridagi salbiy holatlarga qaratish, noto‘g‘ri xatti-harakatlarning oqibatlarini tahlil qilish, to‘g‘ri xulosalar chiqarish nafaqat maqsadga muvofiq, balki zarurdir. Murabbiyning ijobiy namunasining kuchi, agar u o‘z shaxsiyati, obro‘-e’tibori bilan tizimli va izchil harakat qilsa, kuchayadi.[8] Talaba shaxsining ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga tanlash holatlari, ya’ni axloqiy me’yorga asoslangan harakatni tanlash talab qilinadigan vaziyatlar katta ta’sir ko‘rsatadi.

Tabiiyki, talabalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi uchun bevosita foydalanish mumkin bo‘lgan materiallarning aksariyati birlamchi manbalarda mavjud. Vatanparvarlik, ona xalqiga muhabbat, uning madaniyatini hurmat qilish har doim o‘zbek adabiyotining taniqli vakillarini dunyoga tanitib kelgan. Badiiy so‘z nafaqat ongiga, balki talaba yoshlarning his-tuyg‘ulari va harakatlariga ham ta’sir qiladi.

Talaba yoshlar birlamchi manbalarning elektron ilovasi orqali odamlar munosabatlari haqidagi tasavvurlari kengayib, jamiyatdagi hayot me’yorlari va qoidalari haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Talabalarda ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirish sharoitida oliy ta’lim muassasasidagi sog‘lom va barqaror, osoyishta muhit talabaning dunyo, jamiyat va madaniyatdagi o‘zaro bog‘liq munosabatlardagi yaxlit dunyoqarashni shakllantirishda; talaba shaxsining muhim xususiyatlarini aniqlash, rivojlantirish va maqsadli yo‘naltirishda; muayyan muhit va jamiyatdagi hayot sharoitlariga moslashishda yordam beradi. Bizningcha, ta’lim muassasalari talabalarda ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirish, yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini yuksaltirish, ma’naviy meros manbalarini o‘rganish orqali milliy ma’naviy qadriyatlarga hurmat kabi ehtiyojlarni ta’minlovchi ijtimoiy makon hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘qituvchi va murabbiylar” kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. Elektron resurs: www.uza.uz.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

2. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Тошкент. 2018. 498-499-b.
3. Hoshimov N. Yoshlar ma'naviy tarbiyasi va siyosiy madaniyat //Demokratlashtirish va inson huquqlari 2009. №3. 14-b.
4. Hayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. T.: Fan, 1996. -B.117.
5. Маклаков А.Г. Общая психология [Текст]/А.Г.Малков. - СПб., 2004.- С. 318.
6. Haqqulov I. Avazning she'riy mahorati haqida// Avaz va uning adabiy muhiti –T.: Fan, 1987- B.165.
7. Is'hoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. T.: Zarqalam, 2006. B.121-122.
8. Марьенко, И.С. Нравственное становление личности [Текст]/И.С. Марьенко. – М., 2005. - С. 219.
9. Haft shuaro. O'zRFAShI. Inv.№ 10374

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Xajiyeva Iroda Adambayevna**,dotsent, [**Хажийева Ирода Адамбайевна** Доцент], [**Iroda A. Khajiyeva**, associate professor]; manzil: O'zbekiston, Xorazm viloyati, Urganch shahri, Al-Xorazmiy ko'chasi, 110-uy [адрес: Узбекистан, Хорезмская область, город Ургенч, улица Аль-Хорезми, 110], [address: Uzbekistan, Khorezm region, Urganch city, Al-Khorazmi street, 110] E mail: irodaxajiyeva@mail.ru

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original paper

OILAVIY MUNOSABATLARDA DESTRUKTIV NIZOLARNI O‘RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI

© N.I. Ishonkulova[1]✉

[1] Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti**,** Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: oilaviy munosabatlardagi buzg'unchi nizolar ishtirok etayotgan shaxslarga va butun oila birligiga chuqur salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu mojarolarning nazariy asoslarini tushunish ularning ta'sirini bartaraf etish va yumshatish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqish uchun juda muhimdir. Ushbu tadqiqot oiladagi buzg'unchi nizolarni o'rganishga asos bo'lgan asosiy nazariyalar va tushunchalarni o'rganishga qaratilgan.

MAQSAD: ushbu maqolaning asosiy maqsadi oilaviy munosabatlardagi buzg'unchi nizolar bilan bog'liq nazariy asoslarni tahlil qilish va sintez qilishdir. U ushbu mojarolarning asosiy sabablari, dinamikasi va oqibatlarini, shuningdek, potentsial aralashuv strategiyalarini har tomonlama tushunishga intiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda tizim nazariyasi, ijtimoiy almashinuv nazariyasi va qo'shilish nazariyasi kabi oilaviy nizolar nazariyalari bo'yicha mavjud adabiyotlarni to'liq ko'rib chiqishni o'z ichiga olgan sifatli tadqiqot metodologiyasi qo'llaniladi. bundan tashqari, ushbu nazariyalarning amaliy qo'llanilishini ko'rsatish uchun amaliy tadqiqotlar va ekspert suhbatlari qo'llaniladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: muhokamalar oilaviy nizolarni tushunishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan tizimlar nazariyasi, ijtimoiy almashinuv nazariyasi kabi bir nechta asosiy nazariy istiqbollarni ta'kidlaydi. Ushbu nazariyalarning integratsiyasi halokatli nizolarning sabablari va dinamikasini ko'p qirrali tushunish imkonini beradi. Vaziyatni o'rganish va mutaxassislarning fikrlari ushbu nazariy asoslar oilaviy nizolarni boshqarish va hal qilish uchun amaliy choralarni qanday ko'rsatishi mumkinligini yanada aniqlaydi.

XULOSA: xulosa qilib aytadigan bo'lsak, oilaviy munosabatlardagi buzg'unchi nizolarni o'rganish ushbu nizolarning sabablari, dinamikasi va echimlari haqida qimmatli fikrlarni taqdim etadigan turli xil nazariy asoslarga asoslanadi**.**

Kalit so'zlar: oila, yosh oila, nizo, muammoli vaziyatlar, nikoh nizosi, nikohdagi nizolar sabablari.

Iqtibos uchun: Ishonkulova N.I. Oilaviy munosabatlarda destruktiv nizolarni o‘rganishning nazariy asoslari. //Inter education & global study. 2024. №4(2). B.405–411.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ ДЕСТРУКТИВНЫХ КОНФЛИКТОВ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

© Н.И. Ишонкулова[1]✉
[1]Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова, Самарканд, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: разрушительные конфликты в семейных отношениях могут иметь глубокие негативные последствия как для отдельных лиц, так и для семьи в целом. Понимание теоретических основ этих конфликтов имеет решающее значение для разработки эффективных стратегий по устранению и смягчению их последствий. Целью данного исследования является изучение основополагающих теорий и концепций, лежащих в основе изучения разрушительных семейных конфликтов.

ЦЕЛЬ: основной задачей данной статьи является анализ и синтез теоретических основ, касающихся деструктивных конфликтов в семейных отношениях. Он стремится всесторонне понять коренные причины, динамику и последствия этих конфликтов, а также потенциальные стратегии вмешательства.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании используется качественная исследовательская методология, которая включает всесторонний обзор существующей литературы по теориям семейных конфликтов, таким как теория систем, теория социального обмена и теория привязанности. кроме того, для демонстрации практического применения этих теорий используются тематические исследования и интервью с экспертами.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в ходе дискуссии освещаются несколько ключевых теоретических точек зрения, таких как теория систем и теория социального обмена, которые важны для понимания семейных конфликтов. Интеграция этих теорий обеспечивает многоплановое понимание причин и динамики деструктивных конфликтов. Тематические исследования и мнения экспертов дополнительно поясняют, как эти теоретические основы могут способствовать практическим мерам по управлению и разрешению семейных конфликтов.

ВЫВОДЫ: в заключение, исследование деструктивных конфликтов в семейных отношениях основано на различных теоретических основах, которые дают ценную информацию о причинах, динамике и способах решения этих конфликтов.

Ключевые слова: семья, молодая семья, конфликт, проблемные ситуации, супружеский конфликт, причины супружеского конфликта.

Для цитирования: Ишонкулова Н.И. Теоретические основы изучения деструктивных конфликтов в семейных отношениях. // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 405–411.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF STUDYING DESTRUCTIVE CONFLICTS IN FAMILY RELATIONSHIPS

© Norbiye, I. Ishankulova[1]✉
[1]Sharof Rashidov Samarkand State University, Samarkand,Uzbekistan

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

INTRODUCTION: disruptive conflicts in family relationships can have profound negative effects on the individuals involved and on the family unit as a whole. Understanding the theoretical underpinnings of these conflicts is critical to developing effective strategies to address and mitigate their impact. This study aims to explore the underlying theories and concepts that underlie the study of disruptive family conflict.

AIM: the main objective of this article is to analyze and synthesize theoretical frameworks related to destructive conflicts in family relationships. It seeks to comprehensively understand the root causes, dynamics, and consequences of these conflicts, as well as potential intervention strategies.

MATERIALS AND METHODS: the study uses a qualitative research methodology that includes a comprehensive review of the existing literature on theories of family conflict such as systems theory, social exchange theory, and attachment theory. in addition, case studies and expert interviews are used to demonstrate the practical application of these theories.

DISCUSSION AND RESULTS: the discussion highlights several key theoretical perspectives, such as systems theory and social exchange theory, that are important in understanding family conflict. The integration of these theories provides a multifaceted understanding of the causes and dynamics of destructive conflicts. Case studies and expert opinions further clarify how these theoretical frameworks can inform practical interventions for the management and resolution of family conflicts.

CONCLUSIONS: in conclusion, the study of destructive conflicts in family relationships is based on a variety of theoretical frameworks that provide valuable insights into the causes, dynamics, and solutions of these conflicts.

Key words: Family, young family, conflict, problematic situations, marital conflict, causes of marital conflict.

For citation: Norbiye I. Ishankulova. (2024) 'Theoretical foundations of studying destructive conflicts in family relationships' // Inter education & global study, (4(2)), pp. 405–411. (In Uzbek).

Oila jamiyatning mustahkam poydevori bo'lib uning mustahkamligi, farovonligi, tinch-totuvligi jamiyat taraqqiyotining asosidir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "Biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik xotirjamlik. ahillik va o'zaro hurmat muhitini yaratish, ma'naviy - ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat bo'lmog'i zarur". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan "Harakatlar strategiyasi'dagi yosh oilalar uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida uy-joylar berish, tadbirkor orqali esa ularning bandligini ta`minlash kerakligini aytib o'tdilar. Shu qatorda mamlakatimizdagi olib borilayotgan islohotlar natijasida respublikamizning barcha viloyatlari, tumanlari va qishloqlarida aholining turmush tarzi, yashash sharoitlari, ijtimoiy ongi ham rivojlanib boryapti. Ayniqsa, so'nggi yillardagi islohotlar xalq bilan to'g'ridan to'g'ri muloqot davlatimizdagi barchaning muammolarini tez va oson hal etilishiga sabab bo'lmoqda. Jamiyatning ustuni bo'lgan oila

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

esa hozirgi kunda ham, avvalari ham davlat uchun muhim bir bo'g'in bo'lib hisoblanib kelgan. Mamlakatimiz yoshlarini jamiyatda munosib o'rin egallashlari uchun barcha shartsharoitlari yaratib berilmoqda.

Yosh er-xotinlar muammolari uzoq vaqtdan beri ko'plab oilaviy hayot tadqiqotchilari uchun qiziqish uyg'otadi, chunki nazariy va empirik jihatlar tadqiqot uchun qiziqish uyg'otadi, chunki oila jamiyatning asosiy institutlaridan biridir. Shu bilan birga, oila kichik guruh va, demak, jamiyatning eng barqaror qismi bo'lib qoladi. Oila insonning hayotini ta'minlash va nasl qoldirish, madaniy va tarixiy tajribani saqlash va etkazish uchun zarurdir. Shunga qaramay, eng ko'p ajralishlar 5 yildan kamroq vaqt davomida mavjud bo'lgan oilaga, ya'ni yosh oilaga to'g'ri keladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bunday oila jamiyatda aholining eng himoyasiz qismi hisoblanadi.

Bugungi kunda oilalar ko'plab muammolarga duch kelishmoqda. Oilalarning daromad darajasi bo'yicha tabaqalanishi katta ahamiyatga ega bo'lib, yana bir muhim muammo - oilaviy an'analar va xulq-atvor normalarini yo'q qilishdir. Yosh oilaning asosiy xususiyati uning shakllanishi jarayoni bo'lib, sheriklar bir-birlarini va o'z munosabatlarini yangicha idrok qila boshlaganlarida. Qoida tariqasida, yosh oilalarning moddiy ta'minoti etarli darajada emas, uning a'zolari o'rtasida aniq, o'rnatilgan munosabatlar mavjud. Ijtimoiy rollar hali o'rnatilmagan, shuningdek, oilaga yetarli darajada moslashish va ittifoqning jamiyatga nisbatan ijtimoiylashuvi yo'q.

Oilaviy nizolarning eng xarakterlilaridan biri bu er va xotin o'rtasidagi nizolardir. Xo'sh, eng ezgu niyatlar bilan bir-birlarini sevib oila qurgan yoshlar nega oila qurishgandan keyin ularning o'zaro munosabatlarida nizo-janjallar ro'y beradi? Ular nima uchun urushadilar? Umuman er-xotinlik hayotida nizolarsiz, urush-janjallarsiz ham yashasa bo'ladimi? Bu kabi savollarni yana ko'p davom ettirish mumkin.

V.G.Belinskiy shunday degan "Shunga qat'iy imonim komilki, er-xotin ittifoqi tevarak-atrofdagilarning aralashuvidan xoli bo'lmog'i kerak, binobarin, bu ikki kishidan boshqa hyech kimning ishi emas". Oila insonlarni birlashtirib turuvchi eng kichik ijtimoiy birlik bo'lib, uning tinchligi, ravnaqi va barqarorligi jamiyat tinchligi va barqarorligi hisoblanadi.

Olim J.Santayana oilaga ta'rif bera turib, "Oila tabiatning shoh asarlaridan biridir", deydi. Oiladagi nizolar - bu juftlarni psixologga davolanishning eng keng tarqalgan sababi. Oiladagi nizolarni hal qilish usullari asosan jamiyatning muayyan hujayrasi doirasida qanday janjal yuzaga kelganiga bog'liq. Ota-ona munosabatlari va nikoh tushunchalari bolalarda bo'lgan oiladagi nizolar juda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ikki kishining fikrlari yoki istaklari bilan to'qnashganda, natijada ular umumiy yo'nalishni topishni istashganida, oiladagi nizolarni tabiiy jarayon deb biladi. Hatto janjallar janjal paytida janjallashishlariga qaramay, janjallar er-xotinning birligini anglatadi, deyish mumkin. Birinchidan, agar er-xotinlar janjallashayotgan bo'lsa, demak, ular bilan baham ko'radigan narsa bor. Odamlar har doim ham umumiy mulkni emas, balki erkinlikni, shaxsiy hududni, bolalarni va boshqalarni baham ko'rishadi. Boshqacha qilib aytganda, er-xotinlar janjal mavzusi ular uchun muhim bo'lgan taqdirdagina janjallashadilar. Bundan tashqari, qarama-qarshi tomon bilan janjallashishni

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

istamagan odam mojaro yuzaga keladi. Bunday paradoks: odamlar o'zlariga zarar etkazmasdan, bir-birlarini xafa qilishni istamasliklari sababli janjal qilishadi. Ikkinchidan, mojaro shuni ko'rsatadiki, er-xotinlar hali ham o'sha yo'lda harakat qilishmoqda. Mojaro - bu ikki kishi borishga tayyor bo'lgan yo'lning yo'qligi. Aynan janjal paytida ular uni topishga harakat qilishdi. Bu shuni anglatadiki, odamlar birgalikda harakat qilishni istaydilar, shuning uchun ular hozirgacha eng yaxshi variant deb o'ylagan narsani bir-birlariga majbur qilish uchun juda ko'p harakat qilishadi.

A.L.Sinsarning fikricha, hozirgi zamonda oilaning yangi turi – “vaqtincha ajralgan” yoki “distant oilalar” paydo bo‘lgan. Bunday oilalar so‘nggi yillarda ko‘p uchrab, ular oilaning muqobil shakliga ham aylanib bormoqda[9]. Uning fikricha, distant oila – bu ota-onalardan biri oilaning sharoitini yaxshilash maqsadida uzoq davrga boshqa shahar, mamlakatlarga ketib ishlayotgan oilalar hisoblanadi. Distant oiladagi ota-onaning farzandlari bilan muloqoti doimiy bo‘lmay, bu o‘smirning shaxs sohasi rivojlanishidagi buzilishlarga va o‘zini anglashi sohasi shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi[10].

Psixologlar oilaviy janjallarni normal holat deb bilishadi. Qarama-qarshiliklar tufayli er-xotinlar bir-birlarini yomon ko'rishni boshlaydilar, hatto undan ham ko'proq ajralishadi. Shuning uchun har doim paydo bo'ladigan oiladagi nizolarni qanday hal qilish masalasi juda muhim bo'lib qoladi. Odamlar janjallashishi tabiiy, ayniqsa bu odamlar turmush o'rtog'i va mehribon sherik bo'lsa. Sizning munosabatlaringizda hech qachon janjal bo'lmaydi deb umid qilish ahmoqlikdir, chunki dunyoda bir xil ikkita odam yo'q. Siz qanchalik yaqin va sevikli bo'lishingizdan qat'iy nazar, har doim sizning fikringiz sherikingiz bilan mos kelmaydigan savollar mavjud. Odamlar odatda bahsli masalalarni qanday hal qilishadi? Ular qichqiradi, tanqid qiladi, qoralaydi, janjal qiladi, hatto idishlarni sindirib, yugurib keladi. Hech kimga sir emaski, muammolarni hal qilishning bunday usullari nafaqat sevuvchilarning munosabatlarida iz qoldiradi. Biroq, odamlar ba'zi bir tushunchalar bo'yicha kelisha olmasalar, hamma qichqiradi va qichqiradi. Ammo bitta haqiqatni yodda tutish kerak: qichqirganni eshitish mumkin emas! Shuning uchun janjal va qichqiriqdan so'ng, sheriklar bir-birlari bilan tinch ohangda muloqot qilishni boshlamaguncha, muammo hal qilinmaydi. Oiladagi nizolarning turlari.

Nizolarning eng keng tarqalgan tasnifi: 1. Konstruktiv to'qnashuvlar. Turli sabablarga ko'ra bunday to'qnashuvlar mavjud, ammo ularning yechimi ikkala uzumchiga qoniqish hissi tug'diradi, boshqacha qilib aytganda, bu o'zaro kelishmovchiliklarni hal qilish uchun kelishuvga aylangan. Bu yosh oilada yoki uzoq yillar tajribaga ega oilada nizo bo'ladimi, natijasi doimo gullab yashnaydi. 2. Distruktiv nizolar. Bunday to'qnashuvlar juda xavflidir, chunki ularning natijasi ikki tomonni qoniqtirmaydi va ko'p yillar davomida davom ettirishga, nikohlari bilan qoniqish hisini kamaytirishga, uzoq vaqt yoqimsiz depozit qoldirib ketishga majbur qiladi. Bunday to'qnashuvlarning tez-tez takrorlanishi ajralishga olib kelishi mumkin. Oilaviy mojaro yuzaga kelishining sabablari bor ko'p miqdorda, chunki nikoh nafaqat qo'shma uyni saqlash va farzand ko'rish, balki ularning istaklarini ro'yobga chiqarish, ehtiyojlarini qondirish va baxtli yashash istagini ham o'z ichiga oladi. Erkak va ayol turmush

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

qurishni davom ettirish orqali hayotlarini yaxshilashni xohlaydigan odamlar bo'lib qolmoqdalar. Biroq, nizolar, turmush o'rtog'i qarama-qarshi yoki turli xil qarashlarga, istaklarga, manfaatlarga, ehtiyojlarga va boshqalarga qarshi to'qnashuv yuzaga kelganda paydo bo'ladi. Er-xotin o'rtasidagi janjallarning tez-tez sabablari quyidagilardir: turmush o'rtoqlardan birining mastlig; oilaviy hayotni o'tkazish bo'yicha qarashlarning farqi; zino; turmush o'rtoqlarning xudbinligi; haddan tashqari rashk; sheriklarga nisbatan hurmatsizlik; qondirilmagan ehtiyojlar; turmush o'rtoqlardan birining bolalarni tarbiyalashda yoki hayotni boshqarishda ishtirok etmasligi.

Ma’lumki yuqoridagi sabablarning qaysi biridir ko’proq foizni qaysi biridir kamroq foizni tashkil etadi, lekin baribir o’z o’rnida oilaviy konfliktlarni vujudga keltirmoqda. Oila nizolarini hal qilish usullari. Oiladagi nizolarni hal etishning ko'pgina samarasiz usullari mavjud, ulardan foydalanish nafaqat sizning qimmatbaho vaqtni olib tashlashi mumkin, balki oiladagi mojaroni yanada kuchaytirishi mumkin. Oilangizdagi ziddiyatlarni bartaraf etish uchun oilaviy psixologlardan yordam so'rang va oilangizga qo'shnilar, tanishlar yoki ota-onalarning maslahatini tekshirmang. Oilada hech qanday qarama-qarshiliklar mavjud emas, chunki oila munosabatlarining o'ziga xos jihati shundaki, qarama-qarshi jinsdagi odamlar butunlay boshqacha hayotiy hikoyalar va turli xil tarbiya bilan uylanadi va ayni paytda ular bir-birlari bilan bir-birining tagida bo'lishlari kerak. Bu holatda bajarilishi mumkin bo'lgan barcha narsalar oiladagi nizolarning oldini olishdir. Agar ikkala turmush o'rtog'i bir-birlarini eshitishga harakat qilsalar, unda murosaga kelish mumkin. Bu erda g'alaba qozonishning hojati yo'q, chunki g'alaba yutqazishni taxmin qiladi. Ittifoq - bu qul va xo'jayin emas, ikki teng sherikning birlashmasi. Ikki turmush o'rtoq o'zaro munosabatlarda qulay bo'lishi kerak, natijada kimdirning xohish-istaklari amalga oshmagani sababli nikoh ittifoqi buzilmaydi

Xalqimizda bir gap bor: oshsiz uy bo'lishi mumkin, lekin nizosiz uy bo'lmaydi. Faqat, nizoning nizodan farqi bor. Bu haqda quyida batafsil to‘xtalib o‘tamiz. Haqiqatdan ham ilk bolalikdanoq ko'plab ertaklar eshitib, keyinchalik o'zlari ham ularni turli kitoblardan o'qib o'sgan yoshlar o‘zlarining bo'lajak oilaviy hayotlarini adekvat tasavvur eta olishlari mushkul. Chunki ertaklarda ham, kinofilmlarda ham qahramonlar bir-birlariga yetishgunlariga qadar ne-ne mashaqqatlarni, zahmatlarni boshlaridan kechirib, bu yo'lda duch kelgan qora kuchlarni yengib. Bundan tashqari aksariyat niuvaffaqiyatli oilalarda tarbiya topgan yigit-qizlar o'z ota-onasi oilasini, ularning turmush tarzini, bir-birlarga nisbatan bo'lgan o'zaro munosabatlarini va qator shu kabilarni o'zlarining bo'lajak oilaviy havotlari uchun ideal deb olishadi va ular ham oila qurishganlaridan so'ng o'g'il bolalar xuddi o'z otasidek va qizlarimiz o'z onalaridek «ota», «ona», «er», «xotin» bo'lishni orzu qiladilar. Chunki ular o'z ota-onalari misolida, bir-birlariga nisbatan salbiy muno- sabatda boiuvchi, bir-birlari bilan nizolashib turuvchi er-xotin- larni ko'rmaganlar. Mabodo bunday vaziyatlar va nizolar yuzaga kelib qolgudek bo'lsa ham ularning ota-onalari bu holatni farzandlariga sezdirmaslikka harakat qiladilar. Bundan tashqari ommaviy axborot vositalari orqali namunaviy ahil, baxtli oilalar haqida berib boriladigan materiallarda ham aksariyat hollarda er-xotinlik munosabatlarini bir yoqlama, faqat yaxshi tomondan ko'rsatish an’analari mavjud. Bularning hammasi yoshlar-

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

da oilaviy hayot haqida bir yoqlama ijobiy tasavvurlarning shakllanishiga asos bo'ladi.

Bu kabi oiladagi nizolar oldini olish uchun oila ishonchli munosabatda bo'lishi kerak. Agar hamkorlardan biri biror narsani tugatsa yoki uni boshqa bir sirdan saqlaydi, bu o'z-o'zidan munosabatlarda keskin atmosferani keltirib chiqarishi mumkin va buning oqibatida yuzaga kelgan ziddiyatning hajmi siz yashirilgan haqiqatdan ham qo'rqinchli bo'lishi mumkin. Oilaviy nizolarni hal qilishda muammolardan qochmaslik, balki ularni hal qilish kerak. Muammoni hal qilish, g'alaba qozonish yoki himoya qilmaslik maqsadida konstruktiv va xotirjamlik bilan olib boring. Uchinchi tomonlarni nizoga jalb qilish maqsadga muvofiq emas, chunki ular mojaroning yanada kuchayishi uchun katalizatorga aylanishi mumkin. Ajrashish bu nizoni yechimi bo'lib qolmasligi kerak

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. D.Levinson. "Domestic violence from an intercultural point of view". Newbury Park, Kaliforniya: Sage. (1989)
2. H. Makkubbin, S. Figli, "Stress and family: dealing with normative transitions". Nyu-York: Bruner / Mazel. (1983).
3. Pulatov SH.N. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Hindistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Academic Research In Educational Sciences. Volume 1. 2020 468-474 P.
4. Saidov S.A., Ibn al-Muqaffaning islom tarjima san'atiga qo'shgan hissasi. // "Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences" Scientific journal Volume 1, 2021. 332-336 P.
5. Sulaymonov, J. Abdurahmon ibn Xaldunning tamaddun taraqqiyoti haqidagi qarashlarida jamiyat tahlili//Academic Research in Educational Sciences, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 R.
6. Sulaymonov, J.Karimov N.Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599.
7. 7.S. Pavlina. "Oilaviy munosabatlarning muammolarini tushunish". (2006).
8. V. V. Kunitskaya. "Oilaviy nizolar va ularni hal etish yo'llari" Ijtimoiy o'qituvchi (2017)
9. Цынцарь А.Л. Психолого-педагогические условия формирования самосознания подростков из дистантных семей. Автореф. дис. ...канд. психол. наук. – Нижний Новгород, 2015. С – 13.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Norbiye Ishonkulova Islamovna**, o'qituvchi [**Норбие Исламовна Ишонкулова,** преподаватель], [**Norbiye I. Ishonkulova**, teacher]; manzil: O'zbekiston, Samarqand viloyati, Shahar: Samarqand, Universitet bulvar, 15 [адрес: Узбекистан, Самаркандская область, Город: Самарканд, Университетский бульвар, 15], [address: Uzbekistan, Samarkand region, City: Samarkand, University Boulevard, 15]; E-mail: maqsuda_pedagog@mail.ru

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original paper

BOLA SHAXSI SHAKLLANISHI VA PSIXIK RIVOJLANISHINI BELGILOVCHI OMILLARNI O‘RGANUVCHI TURLI NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI

© M.X. Jo‘raxo‘jayev[1]✉

[1]Andijon davlat pedagogika instituti,Andijon, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: bola shaxsi shakllanishi va psixik rivojlanishini belgilovchi omillarni o‘rganuvchi turli nazariy yondashuvlar tahlili xozirgi kunning muhim muammolaridan biridir.

MAQSAD: ushbu maqolaning maqsadi bola shaxsining shakllanishi va psixologik rivojlanishini belgilovchi omillarni tushunishning turli nazariy yondashuvlarini har tomonlama tahlil qilishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu maqola bir qator ikkilamchi manbalardan, jumladan, asosiy ishlar va psixologiya va bola rivojlanishi sohasidagi so'nggi tadqiqotlardan foydalanadi. Har bir nazariy asosdan asosiy matnlar va jurnal maqolalari bolalarda shaxsiyatni shakllantirish va psixologik rivojlanish nuqtai nazarini chuqur tahlil qilish uchun tanlangan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: psixoanalitik nazariya, xususan, Freyd va Erikson ishlari, erta bolalik tajribasi va ongsiz jarayonlarning shaxs rivojlanishiga sezilarli ta'sirini ta'kidlaydi. Freydning psixoseksual bosqichlari muayyan bosqichlarda hal qilinmagan nizolar qanday qilib shaxsiyat muammolariga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi. Eriksonning psixososyal bosqichlari bu tushunchani kengaytirib, hayot davomida shaxsiyat rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy va madaniy omillarga e'tibor qaratadi.

XULOSA: bola shaxsining shakllanishi va psixologik rivojlanishi omillarning murakkab o'zaro ta'sirida shakllanadi. Ushbu jarayonlarni har tomonlama tushunish bir nechta nazariy nuqtai nazardan tushunchalarni birlashtirishni talab qiladi. Psixoanalitik, bixevioristik, kognitiv-rivojlanish, ijtimoiy-madaniy va ekologik tizimlar nazariyalarining hissalarini o'rganib chiqib, biz bolaning rivojlanishiga turli xil ta'sirlarni yaxshiroq tushunishimiz va bu bilimlarni turli kontekstlarda optimal o'sish va rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun qo'llashimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: turkumlashtirish, sistema, metod, analiz, ta’lim, model, sistemali yondashuv.

Iqtibos uchun: Jo‘raxo‘jayev M.X. Bola shaxsi shakllanishi va psixik rivojlanishini belgilovchi omillarni o‘rganuvchi turli nazariy yondashuvlar tahlili.. // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 412–422.

АНАЛИЗ РАЗЛИЧНЫХ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ К ИЗУЧЕНИЮ ФАКТОРОВ, ОПРЕДЕЛЯЮЩИХ ФОРМИРОВАНИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

© М.Х. Жўрахўжаев[1]✉
[1]Андижанский государственный педагогический институт, Андижан, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: анализ различных теоретических подходов, изучающих факторы, определяющие формирование личности и психическое развитие ребенка, является одной из важных проблем современности.

ЦЕЛЬ: целью данной статьи является комплексный анализ различных теоретических подходов к пониманию факторов, определяющих формирование и психологическое развитие личности ребенка.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в данной статье использован ряд вторичных источников, включая первичные работы и недавние исследования в области психологии и развития детей. Ключевые тексты и журнальные статьи по каждой теоретической базе были отобраны для углубленного анализа взглядов на формирование личности и психологическое развитие детей.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: психоаналитическая теория, особенно работы Фрейда и Эриксона, подчеркивает значительное влияние опыта раннего детства и бессознательных процессов на развитие личности. Психосексуальные стадии по Фрейду показывают, как неразрешенные конфликты на определенных стадиях могут привести к проблемам личности. Психосоциальные стадии Эриксона расширяют это понимание, уделяя особое внимание социальным и культурным факторам, которые влияют на развитие личности на протяжении всей жизни.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Формирование и психологическое развитие личности ребенка формируется сложным взаимодействием факторов. Всестороннее понимание этих процессов требует интеграции взглядов с нескольких теоретических точек зрения. Изучая вклад психоаналитических, бихевиористских, когнитивно-развивающих, социокультурных и экологических системных теорий, мы можем лучше понять различные влияния на развитие ребенка и применять эти знания для поддержки оптимального роста и развития в различных контекстах, которые мы можем.

Ключевые слова: категоризация, система, метод, анализ, образование, модель, системный подход.

Для цитирования: М.Х.Жўрахўжаев. Анализ различных теоретических подходов к изучению факторов, определяющих формирование и психологическое развитие личности ребенка // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 412–422.

ANALYSIS OF VARIOUS THEORETICAL APPROACHES TO THE STUDY OF FACTORS DETERMINING THE FORMATION AND PSYCHOLOGICAL DEVELOPMENT OF A CHILD'S PERSONALITY

© Muhammadazizxo‘ja X. Jo‘raxo‘jayev[1]✉
[1]Andijon state pedagogical institute, Andijon, Uzbekistan

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Annatation

INTRODUCTION: the analysis of various theoretical approaches that study the factors that determine the formation of a child's personality and mental development is one of the important problems of today.

AIM: The purpose of this article is a comprehensive analysis of various theoretical approaches to understanding the factors that determine the formation and psychological development of a child's personality.

MATERIALS AND METHODS: this article uses a range of secondary sources, including primary works and recent research in the fields of psychology and child development. Key texts and journal articles from each theoretical framework were selected for in-depth analysis of perspectives on personality formation and psychological development in children.

DISCUSSION AND RESULTS: psychoanalytic theory, particularly the work of Freud and Erikson, emphasizes the significant influence of early childhood experiences and unconscious processes on personality development. Freud's psychosexual stages highlight how unresolved conflicts at certain stages can lead to personality problems. Erikson's psychosocial stages expand this understanding, focusing on social and cultural factors that influence personality development throughout life.

CONCLUSION: the formation and psychological development of a child's personality is formed by a complex interaction of factors. A comprehensive understanding of these processes requires the integration of insights from several theoretical perspectives. By exploring the contributions of psychoanalytic, behaviorist, cognitive-developmental, sociocultural, and ecological systems theories, we can better understand the diverse influences on child development and apply this knowledge to support optimal growth and development in diverse contexts. we can

Key words: categorization, system, method, analysis, education, model, systematic approach.

For citation: Muhammadazizxo‘ja X. Jo‘raxo‘jayev. (2024) ‘Analysis of various theoretical approaches to the study of factors determining the formation and psychological development of a child's personality’ Inter education & global study, (4(2)), pp. 412–422.. (In Uzbek).

Inson istisino tarzda, individ sifatida bu dunyoga keladi. Ijtimoiy sharoit, hammadan ko‘ra bola uchun ahamiyatli bo‘lgan kattalar unda umuminsoniy hislat va xususiyatlar bilan birgalikda individual sifatlarning rivojlanishiga ham imkon yaratadi. Tug‘ma hislatlar va hayot davomida egallangan individual sifatlar boshqalardan farqlanuvchi alohida shaxsni rivojlantiradi mazkur maqolada biz bola shaxsi shakllanishi va psixik rivojlanishini belgilovchi omillarni o‘rganuvchi turli nazariy yondashuvlarga to‘xtalamiz. Zamonaviy psixologiya ilm fani bola shaxsining shakllanishi muammolariga, bir-biriga yaqin bo‘lgan va birmuncha qarama-qarshi bo‘lgan fikrlarga ega ko‘plab nazariy yondashuvlar bilan xarakterlanadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Bolaning shaxsi va psixik rivojlanishi uzoq yillar davomida ko‘plab psixologlar tomonidan o‘rganilgan (Jumladan, L.S.Vigotskiy (1960), B.G.Bojovich (1968), A.YA.Golperin, V.V.Davidov, E.V.Subbotskiy (1978), A.N.Montev (1982), M.I.Lisina (1981), K.K.Platonov (1986), M.Zemskaya (1986), D.I.Feldiyeyn (1989) va boshqalar) [1;27]. Dastlab genetik va rivojlanish psixologiyasi fani bola shaxsi rivojlanishining ikki xil ko‘rinishini o‘zida aks ettiradi. Genetik va rivojlanish psixologiyasining o‘rganish predmetini bolalar tashkil etmaydi, biroq ulardagi psixik jarayonlarni shakillanishini taxlil etishda bolalarda o‘tkazilgan tadqiqotlarga tayanadi.

“Shaxs xolatini generoxron o‘zgarishi va uning bir maromda emasligini namoyon bo‘lishi shuningdek, rivojlanishining ichki qarama-qarshiligi ontogenetik evalyusiyaning ichki qarama-qarshiliklarni, ayniqsa miya qobig‘i intensifikatsiyasi, eng avvalo miya faoliyati jarayonlarida nutqiy tafakkurni kuchaytirad, bu esa o‘z o‘rnida shaxsning o‘ziga xos ijtimoiy rivojlanishiga ta’sir etadi. Biroq faqat ontogenezning belgilangan bosqichida sodir bo‘ladigan individning onotogenetik evalyusiyasiga va shaxsning ijtimoiy faolligi hamda xayotiy tajribani egallashi natijasida shaxsning shakllanish jarayoni sekin astalik bilan o‘sib boradi”.

Bolaning psixik rivojlanishi haqidagi dastlabki konsepsiyaning paydo bo‘lishiga CH. Darvin nazariyasi katta asos bo‘ladi. Mazkur nazariyada birinchi marotoba aniq g‘oya ifodalanib, genezisning rivojlanish qonuniyati aniqlanadi. U o‘zining nazariyalarida kelgusidagi barcha har qanday psixologik konsepsiya bola rivojlanishining qonuniyatlariga bog‘liq ekanligini yoritadi. E.Gekkel esa embriogenezga bo‘lgan munosabatda bola shaxsini shakllanishida biogenetik qonunni ifodalaydi, ta’rifini beradi. Biogenetik konsepsiyaning boshqa bir turi nemis konstitutsion psixologiya (insonning tana tuzilishiga asoslangan nazariya) nomoyondalari tomonidan ishlab chiqilgan. E.Krechmer esa shaxs tipologiyasining negiziga bir qancha bialogik omillarni kiritadi. Psixologiyada biologizmning eng yaqqol ko‘rinishi Avstraliyalik psixolog Z.Freydning shaxs talqinida o‘z ifodasini topgan. Anna Freyd bolaning psixik rivojlanishini hal qiluvchi axamiyatni onaning qiyofasiga qaratadi. Ona bola uchun nafaqat mehr beruvchi birinchi ob’ekt, balki dastlabki qonun o‘rnatuvchi bo‘lib hisoblanadi. Onaning kayfiyati bolaga hal qiluvchi ta’sirni ko‘rsatuvchi asos bo‘lsa, adolatsizlik va yoqtirmasligi esa uning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishni ta’kidlaydi. Onaga yoqqan narsa tez rivojlanadi, biror erda onaning beparvoligi boladagi rivojlanishni sekinlashtiradi. Biogenetik nazariyaning qarama-qarshi sotsiogenetik nazariyadir. D.B.Elkonin mazkur nazariyada shaxsda ro‘y beradigan o‘zgarishlarning bialogik va ijtimoiy sabablarini nazarda tutadi.

Bolalikning mazmuni bolaning ijtimoiy munosabatlari tizimi turli tarixiy davrlarida biogenetik prinsipni qo‘llamaslik haqida guvohlik beradi. Psixikaga bo‘lgan genetik yondashuvni bartaraf etib, hamda affektiv yoki motivayion ehtiyojlar soxasining rivojlanishi, ta’lim-tarbiyaning ahamiyatiga e’tiborni qaratadi. Fransuz psixologi Jan Pioje psixik taraqqiyotning bialogik va ijtimoiy munosabatlari muammosi bilan shug‘ullanadi. U bolaning psixik rivojlanishiga o‘zining yangicha fikrlari bilan psixologiyaning kognitiv yo‘nalishiga dastlabki asosni soldi. U o‘z konsepsiyasining asosiga shaxsning muammolari va bola

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

tuyg‘usi hamda atrofdagi voqelikni tushunishni qo‘yadi. Ch.Darvin bialogik evolyusiya nazariyasiga tayanib, Pioje bolaning aqliu rivojlanishini uni o‘rab turgan tevarak atrofga moslashish jarayonida ko‘rib chiqadi.

Hozirgi ommabop psixologik nazariyalar bola shaxsining shakllanishi haqida o‘zining turli qarashlarini bildiradi. Ba’zi hollarda inson hayotidagi turli muddatlarda shaxslararo muloqati va faoliyatining o‘zaro ta’sirida murakkab dinamik sifatida ichki pozitsiya deb nomlanuvchi dunyoga ma’lum bir nuqtai nazarini fanga kiritdi. Bu pazitsiya shaxsning asosiy tavsiflaridan biri bo‘lib, u faoliyatning yetakchi sabablari yig‘indisi sifatida tushiniladi va bolalarning rivojlanishi uchun zamindir.

L.I.Bojovich ko‘p sonli bolalarda o‘tkazilgan nazariy va empirik tadqiqotlari asosida shaxs rivojlanishining ikkita asosiy mezonini ko‘rsatadi. Birinchi mezon – bu insonni shaxs sifatida hisoblash mumkin agar aynan bevosita o‘z istaklarini boshqa biror narsa uchun engish qobilyatiga ega bo‘lsagina uning dalillarida ma’lum bir belgilangan mazmunda ierarxiya mavjud bo‘lsa bunday xollarda sub’ekt o‘rta darajadagi hulq-atvor qobilyatiga ega deyish mumkin. Bunda bevosita istaklarni enguvchi sabablar ijtimoiy axamiyatga egaligi taxmin qilinadi.

Shaxsning ikkinchi zaruriy mezoni o‘z xulq-atvorini ongli ravishda boshqarish qobilyatidir. Buni boshqarish anglangan maqsadlar va prinsiplar asosida amalga oshiriladi.

Birinchi mezon ikkinchisidan aynan sabablarning ongli tobe bo‘lishi bilan farqlanadi, shunchaki o‘rtamiyonali axloq (birinchi mezon) o‘z asosida sabablarning stixiyali shakillangan ierarxiyasini va xattoki “Stixiyali ma’naviyatga” ega bo‘lishi mumkin. Odam o‘ziga shu tarzda muomala qilishga uni nima majbur qilganing xisobini bera olmaydi, shu bilan birga, batomom axloqli xarakat qiladi. Shunday qilib, ikkinchi belgida o‘rtamiyonali axloq ko‘zda tutilgan bo‘lsada, aynan ongli tobe bo‘lish takidlanadi. U o‘z-o‘zini anglashning mavjudligi shaxs instansiyasining o‘zini taxmin qiladi.

L.I.Bojovich umuman olganda ma’lum darajada psixik rivojlanishga erishgan odamni shaxs deb atash mumkin deb tasdiqlaydi. Bu darajada odam o‘z-o‘zini anglash jarayonida o‘zini-o‘zi butinlikda, boshqa odamlardan farqlanuvchi va “Men” tushunchasida aks etuvchi sifatida boshdan kechirib, qabul qilishida xarakterlanadi. Psixik rivojlanishning bunday darajasi odamda muxitning o‘z shaxsiy e’tiqodi ta’siriga nisbatan birmuncha barqaror qiladigan shaxsiy qarashlar va munosabatlarning ma’naviy talablar va baxoning mavjudligi bilan xarakterlanadi.

Shaxsning zaruriy tavsifnomasi – bu uning faolligidir. Odam o‘zining rivojlanishidagi bu bosqichda atrofdagi voqeylikka ongli ta’sir ko‘rsatish, uni o‘z maqsadlari yo‘lida o‘zgartirish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Boshqacha aytganda, L.I.Bojavichning nuqtai nazari bilan odam shaxs bo‘lgani uchun psixik rivojlanishning shunday darajasiga erishadiki, bu narsa uni o‘z hulqi va harakatlarini ma’lum bir darajada o‘z psixik rivojlanishini boshqarishga qobiliyatli bo‘lish imkonini beradi.

L.S.Vigotiskiy belgilangan shaxs rivojlanishi muammolarini hal qilish yo‘lini A.N.Leontev ochib beradi va chuqurlashtiradi. U bola psixikasining rivojlanishini o‘rganishda

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

uning faoliyatidan kelib chiqish kerakligini, chunki bola xayotining aynan faoliyat bilan bog‘liq davrida shakillanishini uqtiradi[4;38]. Faoliyatning ba’zi bir turlari bu bosqichda etakchi hisoblanadi va u shaxsning kelgusidagi rivojlanishida katta axamiyat kasb etadi, boshqalari esa kamroq. Birlari asosiy rol o‘ynasa, boshqalari bo‘ysinuvchan rolni o‘ynaydi.

Shuning uchun psixika rivojlanishning bog‘liqligi haqida gapirganda umuman faoliyatdan kelib chiqib, emas balki etakchi faoliyatdan kelib chiqqan xolda gapirish lozim bo‘ladi. Shunday qilib, A.N.Leontev fikriga muaofiq, individning antropalogik xususiyatlari shaxs yoki uning tuzilishiga kiruvchi sifatida emas, balki shaxs shakillanishining genetik jixatdan berilgan shart-sharoiti va uning bilan birgalikda uning psixologik karralari sifatida aniqlaydi[4;53].

“Bola faoliyatining ichki va tashqi jixatdan o‘sishi orqali xayotning o‘z bolaning psixik o‘sishini bevosita belgilaydi, uning o‘sishi, o‘z navbatida xayotiy sharoitning borligiga bog‘liq. A.N.Leontevning fikrlariga qaraganda kichik maktab yoshidagi hayotiy sharoit bu uning oilasi va maktab. Bu shaxsning ijtimoillashuvining mehnat bosqichi” deb nomlangan ilk bosqich. Mazkur bosqichda aniq guruhlarda, ya’ni bola muloqat qiladigan qadriyatlar me’yori va tizimi (ijtimoillashuv instituti) eng avvolo, oila hisoblanadi. Aynan oila “ijtimoiy tajriba translyatori” sifatida oldinga chiqadi, ota-ona va bola munosabati hisoblanadi.

Ularning aks etish shakil va xususiyatlari inson shaxsining real bazasi bo‘lib, uning xayotiga ijtimoiy munosabatlari, ya’ni uning faoliyati davomida amalga oshiradigan munosabatlari, aniqrog‘i uning turli xil faoliyati yig‘indisidir. A.N.Leontev bola shaxsining rivojlanishi o‘z aksini va o‘zgarishini faoliyat natijasida deb hisoblaydi. Avvalgi sabablar o‘zining undovchi kuchini yo‘qotadi va odamlar bilan munosabati hamda o‘z aloqasini o‘zgacha mushoxoda qilish uchun yangilari tug‘uladi. Avval etakchi rol o‘ynagan faoliyatning o‘sha turlari va muloqatning shakillari ikkinchi darajada tushib qoladi. Qiziqishlar va maqsadlar o‘zgaradi, umuman olganda bola uchun hayotning mazmuni o‘zgaradi, uning shaxsiy rivojlanishidagi yangi bosqich boshlanadi.

Muloqatni tubdan o‘zgartirish, uning shakillarini murakkablashuvi va boyishi bola oldida shaxsiy o‘sish uchun yangi imkoniyatlarni ochadi. Dastlab bu imkoniyatlar faoliyatining ichki etakchi turlarida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yinlarning turli ko‘rinishlarida paydo bo‘ladi. Birmuncha kattaroq yoshdagilar esa o‘yinga o‘qish va mehnat ham qo‘shiladi.

A.N.Leontevning obrozli ifodalashicha, shaxs ikki bor “tug‘uladi”. Uning birinchi tug‘ulishi maktabgacha yoshga tegishli bo‘lib, munosabatlar sabablarining ierarxik va shaxs belgilanishi, ijtimoiy me’yorlarga dastlabki bo‘ysinuvning bevosita maylidan dalolat beradi. Boshqacha qilib aytganda, shaxs mezonining birinchisi aks etadi. A.N.Leontev bu xodisani “achchiq konfetning ta’siri” degan nom bilan mashxur bo‘lgan namuna deb tasvirlaydi.

Ikkinchi tug‘ulish o‘smirlik yoshida boshlanadi va shaxsiy sabablar xarakatining paydo bo‘lishi va qobiliyatlarini anglashda shuningdek, ularni bo‘ysindirish va qayta bo‘ysindirish bo‘yicha faol ish olib borishda ko‘rinadi. Bu o‘z-o‘zini angalash, o‘z-o‘zini boshqarish va o‘z-o‘zini tarbiyalashga qobiliyat bo‘lib, shaxsning ikkinchi belgisida aksetadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Yuqorida aytilganlaridan kelib chiqib, ushbu dalilning shubxasizligi yaqqol ko‘rinadi, ya’ni L.S.Vigotskiy g‘oyalaridan ilxomlangan psixologlar bolaning shaxsiy rivojlanishi bilan bog‘liq muammoga shaxs psixologiyasini ishlab chiqish va uning muammolariga o‘zlarining axamiyatli xissalarini qo‘shdilar. Biroq ushbu dalilning shubxasiz ekani aniq ravshan bo‘lsada, L.I.Bojovichning “... bola shaxsi qandaydir yaxlit butunlik, bola psixik faoliyatning sub’ekti sifatida hali xamon juda kam o‘rnatilgan bo‘lib qolmoqda.

M.I.Lisina bolaning psixik rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri munosabat deb xisoblaydi. Bola faqat kattalar bilan munosabatdagina ijtimoiy-tarixiy tajribani egallashi mumkin hamda tug‘ma imkoniyatlarni amalga oshirish orqali insoniyat vakiliga aylanadi degan nazariyani ilgari suradi. U muloqatni har bir faoliyat singari predmetli deb ta’riflaydi, shuningdek, uning fikricha muloqat faoliyatining predmet faoliyatining predmeti yoki ob’ekti hamkorlik faoliyatidagi hamkor inson hisoblanadi.Bolaning psixik rivojlanish uchun muloqat har qanday faoliyat turlari singari bolaning aloxida ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirildi.

Ota-onalarning farzandlariga bo‘lgan munosabatlarida hissi va xulq atvor kompanentlarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

Ota-onalarning bolaga munosabatining xissiy kompanenti bolani hissiy qabul qilish, bolaga mehr muxabbat bilan munosabatda bo‘lishga qaratiladi. A.N.Leonev (1977), Luriya (1980), D.V.Elkonin (1976) va boshqa psixolog tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida ota-ona bilan hamkorlik va emotsional aloqaning ahamiyati yoritilgan.

Ota-ona va bola orasidagi hissiy aloqa bola shaxsini rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan psixologik model sifatida qaraladi.

J.Baulbi (1973) fikricha, qabul qiluvchi, sevuvchi, empatiya xususiyatiga ega bo‘lgan ona, ya’ni bolaning har bir eahtiyojiga o‘z vaqtida javob qaytaruvchi ona unda xavfsiz xissiy bog‘langanlikni shakillantiradi. Havfsiz hissiy bog‘langanlikka ega bo‘lgan bolalar xulq-atvorida ishonchlilikni his etadi, yangi vaziyatlardan qo‘rqmaydi, bolaning hissiy istirob xususiyatlarini aniqlaydi va kelgusida insonlarga munosabatni ta’minlovchi ijtimoiy muxitga tayanch bo‘ladigan ishonch shakillanadi. (E.Erikson).

Hissiy yuz o‘girish – ota-onaning samarasiz munosabatining, ya’ni kamchiliklarda nomoyon bo‘ladigan yoki ota-onaning bola ehtiyojlarini his etmasligi, bola va ota-onada hissiy aloqaning yo‘qligi. U yaqqol nomoyon bo‘ladigan yoki bilinmaydigan, yopiq ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Namoyon bo‘ladigan yuz o‘girishda o‘z farzandini yaxshi ko‘rmaslik va qabul qilmaslik, har narsaga bezovtalikni his etish kuzatiladi.

Yopiq ko‘rinishdagi yuz o‘girish hissiy yuz o‘girishning murakkab shakli hisoblanadi. Bu bolaning noroziligida namoyon bo‘lishi mumkin, biroq –ota rasmiy ravishda vazifasini bajaradi.

Ba’zan hissiy rad etishlik parvarish va etiborni haddan ziyod bo‘rttirish hamda qadirdon aloqadan qochishga intilish, mehr va etiborni etishmasligi balan xarakterlanadi. Yuz o‘girish quyidagi ko‘rinishda bo‘lishi mumkin: “Ko‘zimga ko‘rinma”, “Dunyoga kelganingdan buyon menga qancha tashvish va xavotirlikni olib kelding”. Bunday fikrlarni eshitgandan so‘ng bola ongsiz ravishda ota-oanasi hayotiga halaqit qilayotgandek, o‘zini ulardan umurbod

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

qarzdordek his etadi. Xornining fikriga ko‘ra ota-ona mehrining etishmasligidan istirob chekadigan blalarda dastlabki yoki ba’zan havotirlik shaxs nevrotizatsiyasining manbai hisoblanadi.Shuningdek, u “Nevroz bilan kasallangan oiladagi xarakterologik va nevrologik og‘ishishlar markazida ota-ona turadi. Ota-ona shaxsidagi o‘zgarish va nizoli vaziyatni paydo bo‘lishini ta’minlovchi onalardagi tez-tez sodir bo‘ladigan emosional soxasidagi buzilish yoki nevroz bolalarda nevrozni o‘sishini, onalardagi tarbiya muammmosi bolalardagi nevrotizatsiyaning asosiy omili sifatida” ekanligini yoritadi.

“Bola psixologik xolatning asosiy omili -ona bilan bo‘lgan munosabati hisoblanadi. Ota-onasi bola kasal holatida yoki og‘riq, istirobini o‘zida o‘tkazayotganligidan hayratda emasligini bola ko‘rishi zarur”.

Ota-onaning bolaga bo‘lgan hissiy munosabati tipologiyaga doir o‘rganilgan tadqiqotlar: V.V.Stolin va N.I.Golosova ota-ona munosabatining emotsional kompanentinikuyidagi uch xil ko‘rinishdagi tuzilmaga ajratadi[3;59].Hurmat – hurmatsizlik; Simpatiya – antipatiya; Yaqinlik – yiroqlik

A.S.Pivakovskaya ota-ona munosabati fenomenini tashkil etuvchi yuqoridagi hissiy munosabatning uchta asoslangan holda ota-ona munosabatining sakkiz tipini ta’riflaydi.

Ota-onaning bolaga bo‘lgan munosabatining hulq – atvor kompanenti xususiyatlari I.A.Zaxarov (1986), A.S.Spivakovskaya (1986), R.Dreykurs (1986), V.YA. Titarenko, E.G.Eydemiller, V.V.Yustitsiy (1990) kabi psixologlar tomonidan keng o‘rganilgan. Bola tarbiyasida ota-onaning g‘amxo‘rligi etakchi hisoblanadi. G‘amxo‘rlik yoki qo‘llab quvvatlashning darajasi bola tarbiyasiga ota-onaning qancha kuch va vaqt ajratishga bog‘liq. Qo‘llab quvvatlashni ikkiga ajratish mumkin: Me’yordan ortiq (giperproteksiya) va etarli darajada emas (gipoproeksiya).

Me’yordan ortiq g‘amxo‘rlik hamda me’yordan ortiq qo‘llab quvvatlashga ota-onalar tomonidan juda ko‘p vaqt ajratiladi. Tarbiya ular hayotining mazmuniga aylanib qoladi.

Qo‘llab quvvatlashning etarli darajada bo‘lmagan (gipoproteksiya) shaklida biror bir jiddiy voqea sodir bo‘lmagunga qadar ota-onaning tarbiyaga “Qo‘li tegmaydi”.

Me’yordan ortiq nazoratni Artur Rean ota-onaning bolaga bo‘lgan munosabati bo‘yicha hulq-atvorining quyidagi to‘rtta parametrida o‘rganadi: nazorat: bola faoliyatiga ta’sir etishga urinish. bolaning ota-onaga tobelik darajasi aniqlanadi; yetuklikka talab: ota-ona tomonidan yuqori xissiy va ijtimoiy darajadagi aqliy imkoniyatdan yuqori vazifalarni bajarishga majbur etish bilan bolaga nisbatan bosim o‘tkazish; muloqat: biror bir munosabatni yoki fikrni aniqlashtirish maqsalila boladan foydalanish uchun ota-ona tomonidan ishontirishni qo‘llash; xayrixoxlik: ota-onalar bolaga nisbatan qanchalik darajada qiziqishlarini namoyon qiladilar (rag‘batlantirish, uning muvoffaqiyatlaridan xursand bo‘lish), iliqlik, mexr, parvarish unga nisbatan bo‘lgan munosabatda hamdart bo‘lish.

Ota -ona nazoratining quyidagi komponentlarini kiritadi: cheklaydigan-bola faoliyatiga chegara o‘rnatish; talabchanlik – bolalardan yuqori darajadagi ma’suliyatni talab etish; qattiqqo‘llilik-bolalarni biror - bir narsaga majburlash; Shilqimlik - bolaning munosabatlari va rejalashtirishga ta’siretish; Ixtiyoriy xokimlikni namoyon etish.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Bolaning ilk yosh davrlarida bola extiyojlari kattalar tomonidan qondiriladi. Biroq bolaning motorikasi va xulq atvorini boshqarish shakllanishi bilanoq ota-onalar ularning faolligini yo‘naltirish va chegaralashni boshlaydilar. Albatta bolalar tarbiyasida ularning xavfsizligini ta’minlash uchun belgilangan chegaralash va rahbarlik zarur.

Ota-ona tomonidan qo‘llaniladigan interifazatsiya vositasi va nazorat malakasi bolaning xarakterologik qirralari, o‘ziga javobgarlik va ijtimoiy kompetetliikni shakllanishida asosiy mexanizm hisoblanadi.

I. A. Zaxarov (1988) ota-ona nazoratini uchga bo‘lib o‘rganadi: bartaraf etuvchi, o‘rtamiyona, miyordan ortiq avtoritar shakl xususiyatlariga egalik.

Ota – ona talabi, birinchidan, bolaning majburiyatlariga, bolaning o‘zi nimani qilishiga qaratilishi zarur (o‘z – o‘ziga xizmat, ta’lim, uy ishlariga yordam va h.k). Ikkinchidan, bola qilishi mumkin bo‘lmagan talab - ta’qiqni o‘rnatish. Ota-ona talabi, majburiyat va talablarning meyyordan ortiqligi, bolani psixik jarohatga olib keluvchi xatarning kengayishi - bola imkoniyatlariga mos kelmaydigan bolaga bo‘lgan juda yuqori talab mas’uliyat va talablarni etarli darajada emasligi – bunday hollarda bola uy ishlari bo‘yicha biror bir ishni bajarishda ota-ona tomonidan bolani eng kam darajadagi majburiyatlarga ega bo‘lishidir.

Ota – ona nazoratining bola shaxsini shakllanishiga ta’sirida avtoritar uslubdagi ota-ona empatiyasi, o‘zini baholashning pastligi, uning tashqi talablariga yo‘nalganligi yo‘qligiga olib keladi.

Dekmokratik uslubni belgilovchi quyidagi parametrlar: ota-ona va bola o‘rtasidagi verbal muloqotni yuqori darajada ekanligini oilaviy muammolarni bolalar bilan muhokama etishni, bolani mustaqil muvaffaqiyatlariga ishonch va kerak bo‘lsa yordam berishga tayyorgarlikni o‘z tarkibiga oladi. Nazorat uslubi esa bolalarni sezilarli darajada chegaralash, mazmunini bolaga aniq va to‘liq tushuntirish, tartib intizom bo‘yicha bolalar va ota-onalar orasida kelishmovchilikning yo‘qligi demakdir.

E.L.Gorlova kompetent ota-onaning psixologik portretini o‘rganishga muvaffaq bo‘ldi. Psixologik kuzatuv amaliyotida zamonaviy vakolatni oat-ona bu o‘z farzandiga nisbatan aybdorlik va qo‘rquv hissini his etmaydi, “yomon ota-ona qo’rquvni boshidan kechirmaydigan inson” deb e’tirof etilgan. Bu inson bola o‘sayotgan real vaziyatni ko‘rishga va uni o‘zgartirish uchun kuchini sarflashga tayyor.

Shartli ravishda “komponent” deb nomlangan birinchi guruhga kiruvchi ota-onalar bola rivojlanishiga ta’luqli bo‘lgan savollarga dalillar asosida javob qaytaradi, hamda ta’riflangan vaziyatga bola his etayotgan tuyg‘uni adekvat ifodalaydi. Bunday ota-onalar o‘z farzandini rivojlani uchun sharoit yarata olishi mumkin.

Ota-onaning bolani rivojlanishi uchun har tomonlama yordami bolaning jismoniy, intellektual va hissiy ehtiyojlarini etarli va zarur sifatli darajada qondirishni anglatadi.

Bunday tarbiyaning natijasi – bolaning psixologik sog‘lomligi, uning baxti hisoblanadi. Hozirgi kunda ota-onaning kompetentligi uchta rakursda o‘rganiladi. Birinchisi - bola rivojlanishining u yoki bu yoshida ota-onaning umumiy ma’lumotga egalik darajasi etarli darajada shakllanganligi bilan bog‘liq; ikkinchi aspekt o‘z ota-onasini “his” etish,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

tushunish qabul qilish, hamdard bo‘lish qobiliyatiga daxldor; uchinchi aspekt bola binoan savodli o‘zaro ta’sirga qiritish qobiliyati xulq-atvor komponenti bilan bog‘liq.

Demak, ota-ona va bola munosabatining o‘ziga xosligi ota –onaning bolaga munosabatini ko‘rsatadi. Psixologlar ota-onaning munosabati tuzulishini an’anaviy tarzda uchga bo‘ladi; hissiy, kognitiv, va xulq-atvor. Ota-onaning munosabati kognitiv komponentda o‘z farzandining qadriyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari tavsifi haqida ota-onaning tasavvuri tushuniladi. Bunday tasavvur adekvat bo‘lmasligi yoki adekvat bo‘lishi mumkin. Bala haqidagi adekvat bo‘lgan tasavvur –bu ota-onaning bolaning individual xususiyatiga asoslangan yo‘nalganligi, moyillik, qiziqish, psixik va xarakterologik xususiyati bilan bog‘liq to‘liq va ob’ektiv bilim.

Adekvat bo‘lmagan bola haqidagi bir hil bo‘lmagan tasavvur – bolaga, uning psixofiziologik ma’lumotni baholay olmaylik, kasallikni qo‘shib qo‘yishi (invalidizatsiya) bolani “kichkintoy” rolida ko‘rish.

U haqida ota-onaning himoyasizdek tasavvur qilishi, bog‘liqligini esa orttirib ko‘rsatish (infantilizatsiya). Bolaga ijtimoiy kam o‘zlashtirish deb nisbatan berilgan bo‘lishi mumkin, shuning uchun ota-ona bolaning kelgusi hayotidan xavotirlikni his etadi. Uning mavqeyini pasaytiradi, uni ijtimoiy xatarli deb tasavvur etadi, beqaror va ahmoqcha moyillik.

Hissiy komponent integral qabul qilish yoki qabul qilmaslik bilan bog‘liq iztiroblar yig‘indisini o‘z tarkibiga oladi.

Ota-ona munosabati tizimida asosan uning paydo bo‘lish xususiyatini belgilovchi asosiy o‘rnini egallaydi. Hissiy komponentda “simpatiya-antipatiya”, “hurmat va hurmatsizlik”, “yaqinlik-yiroqlik”.

Ota-onaning bolaga bo‘lgan munosabati shakl mazmuniga, ota-onaning shaxs sifatidagi ta’siri bolaning, shuningdek, psixofiziologik xususiyati ta’siri, oilaviy o‘zaro munosabat hamda ijtimoiy madaniy omillar ta’sir etadi. Bu borada hozirgi kunda ko‘plab psixologlar tomonidan tadqiqotlar olib borilmaoqda, jumladan. D. A. Andrieva (2000) tomonidan ota-ona va bola munosabati uslubi, oila joylashgan ijtimoiy, madaniy sharoitlarga bog‘liqligi; N. B. Shumakova (2004) Bola iqtidoriga oilaning ta’siri; S.S. Malyavina, O.A.Pivsayskina Ota-ona va bola munosabati bolaning jinsiy mansubligiga bog‘liqligi; G. L. Kuzmishina (2007) Ota-ona munosabati nizoli vaziyatda bola hulq atvorining turli shakllaria ota-ona va bolalarning tasavvurlari; O. E. Semirnova, M.V. Sakalova (2007) tomonidan Bola rivojlanishining turli yosh davrlarida Ota-ona munosabatini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Ushbu sharhlab o‘tilgan tadqiqotlar taxlili chet el va rus psixologlari tomonidan ota-ona va farzandlar o‘zaro munosabatlarinin shakllanishi hamda rivojlanish xususiyatlari, bu monosabatlar xarakteriga ta’sir etuvchi omillar xaqida ko‘plab ilmiy-nazariy amaliy manbalar:

sharq allomalarining ota-onaning, bolaning psixik rivojlanishiga bo‘lgan munosabatiga oid qarashlari;

bola shaxsining rivojlaninini aniqlovchi omillarni o‘rganuvchi turli yondashuvlar.

psixologiyada ota-onaning bolaga bo‘lgan munosbatini o‘rganganlik holati;

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

mahalliy psixologiyada ota-onaning bolaga bo‘lgan munosabati hamda shaxs rivojlanishi muammosining rivojlanishi;

umumiy xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan nazariy taxlillar asosida ota-onaning bolaga bo‘lgan munosabatiga alohida e’tibor qaratilgan ekanligini ko‘rsatadi.

Ular bayon etgan fikrlarning mazmunini bola shaxsiyatidagi ruhiy asab holati, bilish imkoniyatlari, odamlar bilan o‘zaro munosabatdagi o‘ziga hoslik qadriyatlaridagi yo‘l – yo‘riqlar va motivatsion ehtiyojlar xususiyatlari kabi ijobiy o‘zgarishlar birinchi navbatda, bola tarbiyasi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olgan ota-onaning shaxsi bilan belgilanadi. Psixologlar ota-onaning bolaga bo‘lgan munosabati tizimini an’anaviy tarzda uchga bo‘ladi; hissiy, kognitiv va xulq atvor. Jumladan, bolaning axloqiy hamda jismoniy sog‘lom bo‘lishida ota-onaning e’tiboriga bog‘liqligi yoritilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Рыжова, Ольга Семеновна. Социально-педагогическое проектирование надомного обучения детей с ограниченными возможностями здоровья: дис… кандидат педагогических наук. – Ростов-на-дону. 2003. 241 с.
2. Попова, Людмила Григорьевна. Социально-педагогическое сопрования формирования социальной адаптивности подростков, обучающихся на дому, в условиях учреждения социального обслуживания семьи и детей: дис… кандидат педагогических наук. Москва. 2009. 246 с.
3. Кевля Ф.И. Психолого-педагогический консилиум как средство прогнозирования личностного развития ребёнка // Вестник психо социалъной и коррекционно-реабилитационной работы. 1996. - №3. – С. 50-58.
4. Куликова Т.А. Семейная педагогика и домашнеевоспитание. – М., 2001. – 102 с.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Jo‘raxo‘jayev Muhammadazizxo‘ja Xalilxo‘ja o‘g‘li,** pedagogika fanlari bo‘yicha f.d. (PhD) [**Жўрахўжаев Муҳаммадазизхўжа Халилхўжа ўғли,** доцент, доктор философских наук в области педагогики, (PhD], [**Muhammadazizxo‘ja X. Jo‘raxo‘jayev**, Associate Professor, Doctor of Philosophy in Pedagogy,(PhD)]; manzil: O‘zbekiston, Andijon shahri, Do'stlik ko'chasi, 4 [адрес: Узбекистан, город Андижан, улица Дустлик, 4], [address: Uzbekistan, Andijon, street Dustlik, 4]; E-mail: muhammadazizxuja_pedagog@mail.ru

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original paper

O‘SMIRLIK DAVRIDA EGOIZMNI O’RGANISHDAGI YONDASHUVLAR

© Y.X. Karayeva[1]✉
[1]Termiz davlat universiteti, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: o‘smirlik davridagi egoizm ko'p qirrali hodisa bo'lib, u ijtimoiy rivojlanish va psixologik farovonlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi o'smirlardagi egoizm bo'yicha mavjud adabiyotlarni ko'rib chiqish va sintez qilish, ushbu hodisani o'rganish uchun foydalaniladigan asosiy nazariy istiqbollarni va tadqiqot usullarini aniqlashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda o'smirlik davridagi egoizm bo'yicha tengdoshlar tomonidan ko'rib chiqilgan maqolalar, kitoblar va tadqiqot hisobotlarini tahlil qiluvchi adabiyotlarni ko'rib chiqish metodologiyasi qo'llaniladi. Materiallarga psixologik nazariyalar, empirik tadqiqotlar va amaliy tadqiqotlar kiradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: munozara o'smirlik davridagi egoizmning murakkabligini ta'kidlab, uning ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ta'kidlaydi. Masalan, o'z-o'zini saqlash va da'vogarlik uchun ma'lum darajadagi egoizm zarur, haddan tashqari egoizm esa ijtimoiy izolyatsiya va shaxslararo nizolarga olib kelishi mumkin. Natijalar, shuningdek, kontekstning muhimligini ta'kidlab, egoizmning ifodasi va ta'siri turli ijtimoiy va madaniy sharoitlarda farqlanishini ko'rsatadi.

XULOSA: tadqiqot shuni ko'rsatadiki, o'smirlik davridagi egoizmni to'liq tushunish uchun ko'p qirrali yondashuv zarur. Rivojlanish, ijtimoiy, klinik va axloqiy nuqtai nazarlarni birlashtirgan holda, tadqiqotchilar egoizm o'smirlarga qanday ta'sir qilishini va qanday ta'sir qilishini to'liqroq tushunishlari mumkin.

Kalit so‘zlar: egoizm, altruizm, o’smirlik davri, egotsentrizm, egoistik shaxs, R.Roland

Iqtibos uchun: Karayeva Y.X. O‘smirlik davrida egoizmni o’rganishdagi yondashuvlar // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 423–430.

ПОДХОДЫ К ИЗУЧЕНИЮ ЭГОИЗМА В ПОДРОСТКОВОМ ПЕРИОДЕ

© Й.Х.Караева[1]✉
[1]Термезский государственный университет, Термез, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: подростковый эгоизм – многогранное явление, оказывающее существенное влияние на социальное развитие и психологическое благополучие.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является обзор и обобщение существующей литературы о подростковом эгоизме, определение ключевых теоретических перспектив и методов исследования, используемых для изучения этого явления.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании используется методология обзора литературы, в которой анализируются рецензируемые статьи, книги и отчеты об исследованиях подросткового эгоизма. Материалы включают психологические теории, эмпирические исследования и тематические исследования.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: дискуссия подчеркивает сложность подросткового эгоизма, подчеркивая его потенциальные положительные и отрицательные последствия. Например, определенный уровень эгоизма необходим для самосохранения и напористости, тогда как чрезмерный эгоизм может привести к социальной изоляции и межличностным конфликтам. Результаты также подчеркивают важность контекста, предполагая, что выражение и последствия эгоизма различаются в зависимости от социальных и культурных условий.

ВЫВОДЫ: исследования показывают, что для полного понимания подросткового эгоизма необходим многогранный подход. Интегрируя аспекты развития, социальные, клинические и этические аспекты, исследователи могут более полно понять, как эгоизм влияет и влияет на подростков.

Ключевые слова: Эгоизм, альтруизм, подростковый возраст, эгоцентризм, эгоистическая личность, Р. Роланд.

Для цитирования: Караева Й.Х. Подходы к изучению эгоизма в подростковом периоде. // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 423–430.

APPROACHES TO STUDYING EGOISM IN ADOLESCENT PERIOD

© Yulduz X. Karayeva[1]✉
[1]Termiz state University, Termiz, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: adolescent egoism is a multifaceted phenomenon that has a significant impact on social development and psychological well-being.

AIM: the purpose of this study is to review and synthesize the existing literature on adolescent egoism, to identify key theoretical perspectives and research methods used to study this phenomenon.

MATERIALS AND METHODS: the study uses a literature review methodology that analyzes peer-reviewed articles, books, and research reports on adolescent egoism. Materials include psychological theories, empirical research, and case studies.

DISCUSSION AND RESULTS: the discussion highlights the complexity of adolescent egoism, highlighting its potential positive and negative effects. For example, a certain level of egoism is necessary for self-preservation and assertiveness, while excessive egoism can

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

lead to social isolation and interpersonal conflict. The results also highlight the importance of context, suggesting that the expression and effects of egoism vary across social and cultural settings.

CONCLUSIONS: research suggests that a multifaceted approach is needed to fully understand adolescent egoism. By integrating developmental, social, clinical, and ethical perspectives, researchers can more fully understand how selfishness affects and affects adolescents.

Key words: Egoism, altruism, adolescence, egocentrism, egoistic personality, R. Roland

For citation: Yulduz X. Karayeva. (2024) 'Approaches to studying egoism in adolescent period', Inter education & global study, (4(2)), pp. 423–430. (In Uzbek).

Egoizm muammosi bilan faylasuflar, din arboblari, olimlar shug'ullanib kelishadi. Psixologiya mustaqil fan sifatida juda ko'p yillik tarixga ega bo'lmasada, shaxs xulqa-atvori, uning xususiyatlarini o'rganuvchi ayrim tarmoqlarida egoizm blan bog'liq qarashlar, nazariyalar va tadqiqotlarni uchratish mumkin. Egoizm shaxsning motivatsion-mazmuniy asosiy xislatlaridan biri bo'lib, hozirgi vaqtgacha eng kam o'rganilgan va ta'riflangan xususiyatlaridan biri bo'lib qolmoqda. Hozirgi zamon psixologiya fanida egoizmning kelib chiqish tabiati va mohiyati haqidagi fikrlarning noaniqligi sababli ushbu tushuncha yetarli darajada ko'p o'rganilmagan. Egoizm ko'pincha insonning salbiy xususiyati sifatida qaraladi va bu haqida taniqli faylasuf olim Paskalning yozishicha: Egoizm nafratlidir va unga nisbatan insonlar befarq bo'lmasliklar kerak». Faylasuflar egoizmni o'rganishda turlicha qarashlar bilan ajralib turadi hamda jamiyatda insonlar o'rtasida kelib chiqadigan ko'pgina muammolar va qiyinchiliklarning sabablaridan biri deb ta'riflaydi. Olimlar tomonidan egoizmni o'rganishda va unga ta'rif berishda turli ta'riflarni uchratish mumkin. Xususan, V.Leybin egoizm haqida shunday ta'rifni keltirib o'tadi: «Egoizm bu – o'z xohish va intilishlari tufayli o'zining dunyosiga boshqalar tomonidan diqqat-e'tibor qaratilishini istaydigan shaxs xususiyatidir [1; 106-120 c] Yana bir faylasuf olim Epiktet ham egoizmga oid bo'lgan fikrlarni bildirar ekan, inson hamma narsani faqat o'zi uchun amalga oshirar ekan, atrofdagilarning manfaatiga qarshi harakat qilmaslik kerak gini ta'kidlaydi. Egoizm inson o'z manfaati haqida qayg'urganda emas, balki o'z manfaatlarini atrofdagilar manfaatidan ajratib, bir-biriga qarama-qarshi qo'yganida boshlanadi.

Frantsuz yozuvchisi R.Rolandning aytishicha, agar inson egoistik xislat orqali zavq olib yashashni istasa, unda maqsad ham yo'qolib boradi. Egoizmni ijtimoiy qatlamlarda va turli yosh davrlarida namoyon bo'lish xususiyatlarini o'rganishda ko'plab tadqiqotlar olib borgan olim K.Muzdibaevning aytishicha, egoizm faqat boshqa odamlar bilan bog'liqlikda, ya'ni shaxslararo munosabatlarning o'zi uchun manfaatli, ammo boshqalarga zararli bo'lgan hollarda paydo bo'ladi. K.Muzdibaev olib borgan tadqiqotlar asosida egoistlarga xos bo'lgan bir qancha xususiyatlarni tadqiq etdi. Unga ko'ra egoistlar :

birinchidan, ular burch, me'yorlar va axloqiy qonunlarni e'tiborsiz qoldiradilar, o'zboshimchalik bilan o'z manfaatlari uchun qoidalar o'rnatadilar;

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

ikkinchidan, ular uchun xulq-atvorning tajovuzkor shakllari (jang, qasos), jinsiy zo‘ravonlik, adolatsizlik, yolg’onchilik kabi salbiy xususiyatlar xos

uchinchidan, ular boshqa odamlargammp u yovuzlik, hasad, qasoskorlik, beadablik bilan munosabatda bo‘lishadi. Bu bunday odamlar bilan konstruktiv muloqot strategiyasidan foydalanishni imkonsiz qiladi;

to‘rtinchidan, egoistlar hayotdagi qiyinchiliklarni yengishning saarasiz usullarini qo‘llaydilar, shunga qaramay muvaffaqiyatga erishadilar, doimo o‘zlari haqida yaxshi fikrda bo‘ladilar va o‘zlarini baxtli his qiladilar.

Ko‘rinib turibdiki, egoist shaxs o‘zining manfaatlarini qondiribgina qolmasdan, balki, o‘zgalar manfaatlarini e’tiborsiz qoldiradi va boshqalar hisobidan o‘z ehtiyojlarini qondirishda albatta ziddiyatli vaziyatni paydo qiladi. Egoizm haqidagi barcha kontseptsiyalarni nisbiy tarzda ikki katta guruhga ajratishi mumkin, ular: biologik yoki ijtimoiy. Ushbu yondashuvlar doirasida egoizmning motivatsion tarkibiy qismlari, egoistik xulq -atvorning samarali jihatlari, egoizm rivojlanishiga olib keladigan tarbiya xususiyatlari va shunga mos ravishda uni korreksiya qilish usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. R.Laut egoizmni shaxsning destruktiv holati ekanligini hamda egoistning o‘z manfaati yo‘lida vayronkorlik idealiga amal qilishini ta’kidlaydi. Egoist, deydi R.Laut, o‘zining shaxsiy manfaati uchun jamiyat qonunlarini buzishga, o‘ziga kerak bo‘lgan narsaga kuch bilan erishishga va hattoki, jazodan qutulish uchun hiylaga yoki ochiq zo‘ravonlikka o‘tishga tayyor, degan xulosaga keladi[2; 446 c].

E.Fromm o‘zining «Inson o‘zi uchun» kitobida egoizmning mohiyatini yoritishga intiladi. Fromm ikki qarama-qarshi xususiyatni, ya’ni egoizm va altruizmni tasniflar ekan, altruizm sevgi tarzida namoyon bo‘ladigan shaxsning eng mahsuldor yo‘nalishi sifatida, egoizm esa samarasiz, natijasiz shaxs yo‘nalishi sifatida namoyon bo‘ladi, degan qarashni ilgari suradi[3;72-73c]. E.Fromning fikricha, egoistni faqat o‘zi qiziqtiradi, hamma narsa uning manfaatlariga xizmat qilishini xohlaydi, u zavq olishni istaydi, u tashqi dunyoni faqat olish mumkin bo‘lgan yoqimli narsalar nuqtai nazaridan anglaydi, boshqalarning ehtiyojlari bilan qiziqmaydi va ularning qadr-qimmatini hurmat qilmaydi, o‘zidan boshqa hech narsani sezmaydi, aslida u sevishga qodir ham emas, deydi. Bunday odamlar go‘yoki o‘zlari haqida qayg’urishayotgandek bo‘lishadi, lekin aslida o‘zining haqiqiy «men» idagi kamchiliklarni to‘g’irlashdagi urinishlari samarasiz ketadi.

Egoizm odatda o‘z-o‘ziga yuqori baho berish hamda avtoritar yo‘nalganligi bilan ustun bo‘lish kabi xususiyatlari bilan ko‘zga tashlanadi. G.Kavka o‘z ishida egoizm o‘rtasida aniq bir farqni ajratishga harakat qiladi va u ikki turdagi egoizmni ajratib ko‘rsatadi, unga ko‘ra, birinchisi maksimallashgan egoizm bo‘lib, unda ninson har doim o‘zining uzoq muddatli shaxsiy manfaatlariga yaxshi xizmat qiladi deb o‘ylagan harakatlarni amalga oshiradi. Ikkinchisi, maksimallashmagan egoizm bo‘lib, unda har qanday inson harakatining yakuniy maqsadi qandaydir foyda keltirishni o‘ylaydi[4].

J.Robinsonning ta’kidlashicha, egoizm - «boshqa odamlarning manfaatlarini hisobga olmasdan, o‘z manfaatlariga sodiqlikni anglatuvchi tushuncha bo‘lib, boshqa odamlarga sadoqat va o‘z manfaatlarini qurbon qilish tushunchasiga qarama-qarshidir, deydi[5; 38-39

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

p].

N.Lafollete psixologik egoizm haqida o‘z fikrini bildirar ekan, bu tushunchani u gedonizm nazariyasidan kelib chiqqan tushuncha bo‘lishi mumkinligi haqida aytib o‘tadi. Uning fikricha, psixologik egoizm individning yuqori darajada zavqlanishi va har qanday og’riqdan qochish istagini anglatadi.

N.Sidgvik «Ratsional egoizm» atamasini qo‘llaydi, bu tushunchaning ma’nosi shuki, inson o‘z manfaatlarini qondirish haqidagi da’volari doimo sog’lom fikr bilan bog’liq bo‘lishi kerakligini anglatuvchi oqilona egoizm bilan ifodalaydi. Oqilona egoizm nazariyasi 17-asrda Lokk, Gobbs, Puffendorf, Grotsiy kabi buyuk mutafakkirlarining falsafiy kontseptsiyalaridan kelib chiqqan. S.Xollning fikricha, egoizm namoyon bo‘lishining keskin ko‘rinishi, uning individual shakli, egalik qilish hissi bolaning o‘z «Men»ini anglash bilan kechadigan va uning tabiatiga xos xususiyatlardan biridir. Biogenetik oqim namoyondalari bola xulqida egoizm hamda yolg’onni namoyon bo‘lishiga to‘sqinlik qilmaslik kerak, ularning fikricha, bola rivojlanishiga salbiy ta’sir qilishi mumkin.

Psixoanaliz namoyondalaridan Z.Freyd egoizm fenomenini ijobiy xulq sifatida baholaydi hamda egoizmni inson tabiatining mohiyati va odamlar munosabatlarining asosiy tamoyili deb hioblaydi. Uning talqinida egoizm nafaqat egalik qilishda, to‘plashga bo‘lgan ishtiyoqda, oddiy yegulik, kiyinishdagi kabi odatiy ehtiyojlarda ham ko‘zga tashlanadi. U o‘zining «Tushlar talqini» fundamental asarida bolaning libidosi dastlab o‘ziga qaratilganligi sababli «birlamchi nartsissizm» bilan tug’ilishini ta’kidlaydi. «Bola mutlaqo egoistdir, u o‘z ehtiyojlarini qattiq his qiladi va u aka-uka hamda opa-singillarini o‘ziga raqobatchi deb biladi hamda o‘zini ehtiyojlarini qondirishda ulardan foydlanishga intiladi. Shuningdek, uning ta’kidlashicha, altruistik moyillik ham bolada individual tarzda rivojlanib boraveradi[6;192-193c] Z.Freydning qarashlariga ko‘ra, o‘spirinlik yoshda libido shaxsning o‘zidan boshqa ob’ektlarga ko‘chadi va inson «ob’ektiv munosabatlar» bosqichidagi altruistlar toifasiga o‘tadi, keyingi bosqichda esa yana o‘ziga bo‘lgan qiziqish oldingisiga nisbatan yuqori darajada ortib borishi bilan namoyon bo‘ladi. Z.Freydning nuqtai nazarini amerikalik siyosatchi E.Guver ham ma’qullaydi. U egoizmni inson tabiatida azaldan joylashtirilgan biologik tug’ma his-tuyg’u deb talqin qiladi va shu bilan insonning noaxloqiy xulqini oqlaydi.

J.Piaje bolada kechadigan taraqqiyotni ikki tendentsiya o‘rtasidagi kurashga qiyoslaydi, birinchisi bola fe’l-atvorining biologik egoizmi bo‘lsa, ikkinchisi esa, kattalar tomonidan intensiv o‘tkaziladigan ijtimoiy ta’sirlardir. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, J.Piaje nazariyasiga asosan bola ruhiy hayotining rivojlanishining asosiy yo‘li ijtimoiylashishiga qadar egoizm va egotsentrizmdan tashkil topadi. Shunday qilib, J.Piaje egoizmni o‘z-o‘zini sevish deb hisoblab, dastlab o‘ziga keyin esa boshqalarni sevishga qaratilgan xulq atvor sifatida baholaydi.

Egoizmning tabiati va kelib chiqishiga mutlaqo teskari qarash jahon psixologiya fanida 20-asr boshidan E.Dyurkgeym, G.Tarde, C.Blondel asarlari ta’sirida shakllangan. Ushbu yo‘nalish tarafdorlari irsiyatning rolini kam baholaydilar, shaxs rivojlanishida jamoatchilik ongini yuqori darajaga ko‘taradi. Shunday qilib, J.Piaje va uning tarafdorlarining fikricha,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

egoizm o‘z qiziqishlari, sevgisiga va hatto nafrati bilan birga rivojlanib boruvchi shaxsning tarkibiy eelementi sifatida shaxs taraqqiyotining muhim belgisi sifatida talqin etilgan. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, shaxs patologik holatida ham egoistik tendentsiyalarning zaiflashishi bilan birga, shaxsda o‘ziga va boshqalarga bo‘lgan qiziqishning yo‘qolishi, zaiflik va psixologik qashshoqlik kabi holatlarning kuchayishi mumkin[8; 116-129]

Zamonaviy fan insonni ijtimoiy bo‘lmagan ammo individni o‘z-o‘zini saqlashi va o‘zini tasdiqlash istagidagi insonning tug’ma biologik omillarni keltirib o‘tadi. Evolyutsiya sharoitida barcha tirik mavjudotlar o‘zlarining yashash imkoniyatlarini yaxshilash uchun atrof-muhitga moslashishga tug’ma xohishga ega. Biologik nuqtai nazardan, deb yozadi G.Rachlin, egoizm yashash uchun kurashish sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday ekan, har qanday egoistik qaror dastlab har qanday alturistik qarorga qaraganda shaxs uchun afzalroq ko‘rinadi. Xorijda zamonaviy psixologiya egoizmga nisbatan noaniq, ikkilangan munosabat bilan ajralib turadi. Yana boshqa zamonaviy tadqiqotlarda sub’ekt uchun egoistik motivatsiya va o‘zi uchun qayg’urish zarurligi aytiladi. Shu munosabat bilan E.Fromm asaridan iqtibos keltiramiz: «Zamonaviy madaniyat xudbinlik haqidagi tabular bilan to‘lib-toshgan. Bizga xudbin bo‘lish gunoh, lekin boshqalarni sevish yaxshilik deb o‘rgatilgan».

S.Xolms ta’kidlaganidek, xorijda egoizmni o‘rganish asrlar davomida ikki xil yo‘nalishda amalga oshirilgan. Egoizm bir tomondan, insonlar o‘rtasidagi raqobat tufayli paydo bo‘lib, ular o‘rtasidagi munosabatlarni yomonlashtirsa, boshqa tomondan, bu inson tomonidan qilingan har qanday harakatning zaruriy «motoridir» deb qabul qilingan.

Ma’lum bo‘lishicha, egoizm akademik psixologiyaga uzoq vaqt kirib kelib, ushbu mavzu bo‘yicha xorijiy tadqiqotchilardan Z.Freyd, neofreydlar (G.Sallivan, K.Xorni, E.Fromm), gumanistik psixologlar (A.Maslou, K.Rodjers) ijtimoiy ta’lim nazariyalari asoschilari (A.Bandura), shuningdek, ijtimoiy psixologiya va psixoterapiyaning boshqa zamonaviy yo‘nalishlari egoizm mafkurasining ustunligini ta’kidlaganlar. Z.Freydning fikricha, shaxs individual rivojlanish dastlab har bir insonning shaxsiy baxtga intilishga qaratilgan haratkatlarida ko‘zga tashlanadigan egoistik xulq bo‘lsa, keyingisi boshqalar bilan hamkorlikda amalga oshadigan altruistik harakatlar tashkil etadi.

Z.Freyd ijodidan yarim asr oldin ham nemis faylasufi A.Shopengauer egoizmni «yashash irodasi»ning manbai deb bilgan. A.Sheftsberining fikricha, odamning egoist yoki altruist rolini bajarishi affektlarning uyg’unligiga bog’liq. Uning fikricha, odam uch xil affekt bilan tug’iladi: jamiyat manfaatiga qaratilgan tabiiy moyillik; faqat shaxsiy manfaatni ko‘zlagan egoistik moyillik; neytral deb ataladigan moyilliklar (ular egoistik ham, altruistik ham emasdir).

Egoizmga qarama-qarshi tushuncha bu altruizm bo‘lib, ushbu xulq -atvor shaxsning o‘z manfaatlarini boshqa shaxsning manfaatlariga qurbon qilish qobiliyatini anglatadi. Bu atama frantsuz faylasufi O.Kont tomonidan egoizmga qarama-qarshi tushuncha sifatida kiritilgan.

L.Feyerbaxning ta’kidlashicha, insonning oliy maqsadi o‘ziga g’amxo‘rlik qilishdir, busiz u o‘zini jamiyatda shaxs sifatida ko‘rsata olmaydi. Binobarin, egoizm yoki xudbinlik

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

ham inson tabiatining mohiyatini ifodalaydi. L.Feyerbaxning ta'limoti shaxs manfaatlarini himoya qilishga, ya'ni egoizmni yoqlashga qaratilgan bo'lib, u asketizim (psixologik himoya mexanizmi)ni inkor etadi. Insonning o'z-o'ziga g'amxo'rlik qilishi bu boshqa odamga g'amxo'rlik qilishni istisno etmaydi, egoizm esa uning boshlang'ich nuqtasi bo'lgan altruizmni nazarda tutadi, deydi u.

E.Gofmannning tushunchasiga ko'ra, egoizm shaxsiy manfaat emas, balki shaxsning o'z ehtiyojlarini qondirishga yordam beradigan holatdir. Uning fikricha, egoizmni hech qachon yo'q qilib bo'lmaydi, chunki u tabiatning o'zi, inson tabiati bilan bog'liqdir, deydi. Shunday qilib, faylasuflar egoizmning mohiyatini tushuntirishda bir qancha fikrlarni yoqlashgan, ammo ular egoizm muammosini ilmiy jihatdan hal qila olishmagan. Egoizm ko'pincha - foyda, zavq olish, manfaat kabi yaqin aloqada bo'lgan ahloqiy tushunchalar bilan aralashib qolgan

Egoizmni o'rganishning madaniy-tarixiy va faoliyat nazariyalariga asoslangan ta'limot rus olimlari L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, S.L.Rubinshteynlar tomonidan ilgari surilgan bo'lib, unga ko'ra bolaning ruhiy rivojlanishida uning turmush sharoiti hamda tarbiyaning hal etuvchi rol o'ynashi haqidagi fikrlar ilgari surilgan. E.F.Petrov adabiyotlarda ilk bor egoizmning mohiyatini uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, falsafiy va gnoseologik ildizlarini tizimli tarzda bayon etishga urinish qilgan [9; 207-c] Mazkur tushunchani olim xususiy mulk va jamiyatni sinflarga bo'linganligi natijasida paydo bo'lishining natijasi deb qaraydi. U yoki bu jamiyatda egoistik motivlar ustunlik qilishida o'ziga xos ijtimoiy sharoitlarning rolini ko'rsatib o'tadi.

V.N. Myasishev egoizmni munosabatlar nazariyasi nuqtai nazardan ko'rib chiqib, ta'lim xarakteri va uni aniqlovchi omillarni, jumladan mehrning yo'qligi, qo'pollik, bolaga nisbatan adovat, do'stlarning yetishmasligi, muhtojlik, ota-onaning kasalligi, oilada boshqa afzal ko'riladigan farzandlar borligi, tantiqlik, rahmdillikning yo'qligi, shaxsning haddan darajada faolligi yoki sust harakatchanligi, shaxsiy o'zini himoya qiluvchi tendentsiyalarni namoyon bo'lishini keltirib o'tadi, uning fikricha, sub'ektda egoistik ustanovkaning paydo bo'lishi keltirib o'tilgan sharoitlarning ayrimlari bilan shaxsdagi qisman endogen xususiyatlari qo'shilishi natijasida tarbiyalanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ильин Е.П. Психология помощи. Альтруизм, эгоизм, эмпатия. Питер, СПб.: Питер. 2013.106-120 с.
2. Лаут, Р. Философия Достоевского в систематическом изложении. - М.: Республика. -1996. - 446 с
3. Фромм, Э. Человек для себя. - Минск: Коллегиум. -1992. – 72-73 с.
4. Kavka G. Hobbesian Moral and Political Theory. Princeton: Princeton University Press, 1986. Robinson
5. J. Egoism. - Oxford: Ed. Peter Singer. Blackwell. - 1999. 38-39 p

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

6. Robinson, J. Egoism. - Oxford: Ed. Peter Singer. Blackwell. - 1999. - 36 p
7. Фрейд З. Толкование сновидений. Ереван: Камар, 1991. 192-193 с
8. Федунина Н.Ю. Проблема личности в трудах Пьера Жане // Вопросы психологии. 2003. № 1. С. 116—129
9. Петров Э.Ф. Эгоизм: философско-этический очерк. М.: Наука, 1969. 207

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Yulduz Karayeva Xushbakovna,** o‘qituvchi [**Юлдуз Караева Хушбаковна,** преподаватель], [**Yulduz Karayeva Khushbakovna,** teacher]; manzil: O‘zbekiston, Termiz shahar, Mehrobod MFY, Islom Karimov ko‘chasi, 136\30uy [адрес: Узбекистан, город Термез, махалля Мехробод, улица Ислама Каримова, дом 136\30], [address: Uzbekistan, Termez, Islam Karimov street 136\30]; E-mail:yulduz_pedagog@mail.ru

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original paper

O‘SMIRLAR DEVIANT XULQ – ATVORINING SHAKLLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

© M.Y. Murodov[1]✉

[1]O‘zbekiston Milliy universiteti,Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISh: o'smirlarning deviant xulq-atvori psixologik va ta'lim sohalarida jiddiy tashvish tug'diradi, bu nafaqat ishtirok etgan shaxslarga, balki ularning oilalari, maktablari va jamoalariga ham ta'sir qiladi. Bunday xatti-harakatlarga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni tushunish samarali choralar va qo'llab-quvvatlash tizimlarini ishlab chiqish uchun juda muhimdir. Ushbu maqolada o'smirlarning deviant xatti-harakatlariga ta'sir qiluvchi psixologik omillar ko'rib chiqiladi, xarakter shakllanishi va uning bu xatti-harakatlarni yumshatish yoki kuchaytirishdagi roliga e'tibor qaratiladi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi o'smirlarning deviant xatti-harakatlariga yordam beradigan psixologik omillarni o'rganish va xarakter shakllanishi ushbu xatti-harakatlarga qanday ta'sir qilishini tushunishdir. Tadqiqot asosiy psixologik determinantlarni aniqlashga, ularning xulq-atvorga ta'sirini baholashga va o'smirlarda ijobiy xarakter rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun o'qituvchilar, ota-onalar va ruhiy salomatlik bo'yicha mutaxassislarga tavsiyalar berishga intiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot miqdoriy va sifatli tadqiqotlarni birlashtirgan aralash usullardan foydalanadi. Materiallarga psixologik baholash vositalari, xatti-harakatlarni baholash shkalasi va xarakterni rivojlantirish dasturlari kiradi. Usullar o'smirlar, ota-onalar va o'qituvchilar bilan so'rovlar va suhbatlar, shuningdek, amaliy tadqiqotlar va bo'ylama kuzatuvlarni o'z ichiga oladi. Ma'lumotlarni tahlil qilish psixologik omillar va deviant xatti-harakatlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga va xarakterni tarbiyalash dasturlari samaradorligini tekshirishga qaratilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: munozarada qat'iyatlilik, hamdardlik va axloqiy qarorlar qabul qilishga qaratilgan xarakter tarbiyasi dasturlari muhimligini ta'kidlaydi. O‘smirlarni jamoat ishlariga jalb etuvchi, ustozlik qiladigan va tengdoshlarning ijobiy o‘zaro munosabatlarini rag‘batlantiradigan dasturlar deviant xulq-atvorni kamaytirishda samarali ekanligi ko‘rsatilgan. Natijalar, shuningdek, sog'lom xarakter rivojlanishiga yordam beradigan qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratish uchun maktablar, oilalar va ruhiy salomatlik mutaxassislari o'rtasida hamkorlikdagi sa'y-harakatlar zarurligini ta'kidlaydi.

XULOSA: tadqiqot o'smirlarning deviant xatti-harakatlariga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni hal qilish xarakter tarbiyasi va qo'llab-quvvatlovchi tadbirlarni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Kalit so'zlar: O'smirlar, profilaktika, xulq-atvor, deviant, deviatsiya, delikvent va jinoiy xulq-atvor, agressiv xulq-atvor, g'arazli xulq-atvor, kichik o'g'riliklar, ta'magirlik, avtoulovlarni olib qochish, ijtimoiy me'yor

Iqtibos uchun: Murodov M.Y. O'smirlar deviant xulq – atvorining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar. // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 431–438.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ОТКЛОНЕННОЕ ПОВЕДЕНИЕ ПОДРОСТКОВ - ФОРМИРОВАНИЕ ХАРАКТЕРА

© М.Й. Муродов[1]✉
[1]Национальный университет Узбекистана, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: девиантное поведение подростков является серьезной проблемой в психологической и образовательной сферах, затрагивая не только отдельных лиц, но и их семьи, школы и сообщества. Понимание психологических факторов, влияющих на такое поведение, имеет решающее значение для разработки эффективных мер вмешательства и систем поддержки. В данной статье рассматриваются психологические факторы, влияющие на девиантное поведение подростков, особое внимание уделяется формированию характера и его роли в смягчении или усугублении такого поведения.

ЦЕЛЬ: цель данного исследования — изучить психологические факторы, способствующие девиантному поведению подростков, и понять, как формирование характера влияет на такое поведение. Исследование направлено на выявление ключевых психологических детерминант, оценку их влияния на поведение и предоставление рекомендаций педагогам, родителям и специалистам в области психического здоровья для поддержки позитивного развития характера у подростков.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использован смешанный подход, сочетающий количественные и качественные исследования. Материалы включают инструменты психологической оценки, шкалы оценки поведения и программы развития характера. Методы включают опросы и интервью с подростками, родителями и педагогами, а также тематические исследования и продольные наблюдения. Анализ данных направлен на выявление корреляций между психологическими факторами и девиантным поведением, а также на изучение эффективности программ воспитания характера.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: обсуждение подчеркивает важность программ воспитания характера, направленных на развитие устойчивости, сочувствия и принятия этических решений. Программы, которые привлекают подростков к общественным работам, обеспечивают наставничество и способствуют позитивному взаимодействию со сверстниками, эффективны в снижении девиантного поведения. Результаты также подчеркивают необходимость совместных усилий

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

школ, семей и специалистов в области психического здоровья для создания благоприятной среды, способствующей здоровому развитию характера.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в исследовании делается вывод, что устранение психологических факторов, влияющих на девиантное поведение подростков, требует комплексного подхода, включающего воспитание характера и поддерживающие вмешательства.

Ключевые слова: Подростки, профилактика, поведение, девиантное, делинквентное и преступное поведение, агрессивное поведение, злонамеренное поведение, мелкая кража, кража, угон автомобиля, социальная норма.

Для цитирования: Муродов М.Й. Психологические факторы, влияющие на отклоненное поведение подростков - формирование характера. // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 431–438.

PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE DEVIANT BEHAVIOR OF ADOLESCENTS - CHARACTER FORMATION

© Mashrab Y. Murodov[1]✉
[1]National University of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: adolescent deviant behavior is a significant concern in psychological and educational fields, affecting not only the individuals involved but also their families, schools, and communities. Understanding the psychological factors that influence such behavior is crucial for developing effective interventions and support systems. This article examines the psychological factors affecting deviant behavior in adolescents, focusing on character formation and its role in mitigating or exacerbating these behaviors.

AIM: the aim of this study is to explore the psychological factors that contribute to deviant behavior in adolescents and to understand how character formation influences these behaviors. The study seeks to identify key psychological determinants, assess their impact on behavior, and provide recommendations for educators, parents, and mental health professionals to support positive character development in adolescents.

MATERIALS AND METHODS: the study employs a mixed-methods approach, combining quantitative and qualitative research. Materials include psychological assessment tools, behavior rating scales, and character development programs. Methods involve surveys and interviews with adolescents, parents, and educators, as well as case studies and longitudinal observations. Data analysis focuses on identifying correlations between psychological factors and deviant behaviors, and examining the effectiveness of character education programs.

DISCUSSION AND RESULTS: the discussion highlights the importance of character education programs that focus on building resilience, empathy, and ethical decision-making. Programs that engage adolescents in community service, provide mentorship, and promote

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

positive peer interactions are shown to be effective in reducing deviant behavior. The results also underscore the need for collaborative efforts between schools, families, and mental health professionals to create supportive environments that foster healthy character development.

CONCLUSION: the study concludes that addressing the psychological factors influencing deviant behavior in adolescents requires a comprehensive approach that includes character education and supportive interventions.

Keywords: Adolescents, prevention, behavior, deviant, deviance, delinquent and criminal behavior, aggressive behavior, malicious behavior, petty theft, theft, carjacking, social norm.

For citation: Mashrab Y. Murodov. (2024) 'Psychological factors affecting the deviant behavior of adolescents - character formation', Inter education & global study, (4(2)), pp. 431–438. (In Uzbek).

Mamlakatimizda yaratilayotgan islohotlarning aksariyati aynan yoshlarning kelajagi, ularning har tomonlama yetuk shaxs bo‘lib yetishishi uchun qaratilgan, yurtimizni dunyoga tanitgan buyuk bobokalonlarimizning izdoshlari zamonamiz qaxramoni sifatida yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni yana qayta jahon maydoniga chiqishini istar ekanmiz, mazkur maqsadning asosiy omili bo‘lgan yoshlarning aynan tarbiyasiga katta e’tibor qaratishni va bu jarayonda ijtimoiy muhit ta’sirini inobatga olishni dolzarb vazifa sifatida ko‘rsatmoqda. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim [1;3].

O‘smirlar tomonidan axborotlarni idrok etishda ularning tengdoshlari videofilmlar, reklama roliklari va boshqa axborot kanallari orqali olingan turli toifadagi axborotlarga nisbatan o‘z vaqtida psixologik profilaktika tadbirlarini o‘tkazilmaganligi ota-onalarning farzand tarbiyasiga bo‘lgan e’tiborsizligi ularda deviant xulq-atvorning shakllanishiga sabab bo‘lmoqda. Mazkur muammolarning barchasi ijtimoiy muhit ta’sirida o‘smir shaxsining ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omil bo‘lib hisoblanadi[5;4].

Sir emaski, insonning xulq-atvori o‘zgaruvchan va rang-barang bo‘lib, uning individual xususiyatlari, o‘ziga xos «uslublari»ning mavjudligi hech qachon va hech kimda, hech qanday shubha tug‘dirmaydi. Biroq bu xulqatvorning xilma-xilligi uning cheksiz degani emas, zero insonlarning o‘zaro muloqoti, o‘zaro munosabati, ularni turli ijtimoiy guruhlarga birikuvi, yashashi uchun iliq psixologik muhitning saqlanishi zaruratdir. Ma`lumki, har bir jamiyat o‘zining qatiy belgilangan ijtimoiy xulq-atvor dasturlari tizimiga va jamoatchilik fikri, odatlar, axloqiy tamoyillar, ananalar kuchiga tayanuvchi xulq-atvor qoidalariga ega. Qabul qilingan me`yorlar xulq-atvorning tarixan shakllangan qoidalari sifatida talqin qilinadi, shu bilan birga u baholovchi vazifaga ham ega. Unga muvofiq ravishda har qanday harakat «to‘g‘ri» yoki «noto‘g‘ri» «yaxshi» yoki «yomon» deb tavsiflanadi. Bunday tushunishda myorning tabiiy bo‘g‘lanishi, ya`ni unga aloqador tushuncha «buzilish» atamasi bo‘lib

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

hisoblanadi. Odatda «buzilish» atamasi har qanday «kasal» va «kasallik» xususida mulohaza yuritilganda ham ishlatiladi. Chunki buzilish aniq termin bo‘lmasdan, balki bu tushuncha orqali xulq-atvor yoki uning simptomlari bilan bog‘liq belgilar tushuniladi. Lekin psixik buzilishlar guruhiga alohida ijtimoiy og‘ishlar yoki shaxsiyatsiz vazifalar kirmaydi. Har bir shaxs o‘z yosh davriga xos muayyan ijtimoiy munosabatlar egasi hamda unga jamiyat tomonidan ko‘rsatiladigan ko‘plab iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy tasirlarning obekti hisoblanadi (2, 67).

Deviatsiyaning eng ommabop shakli uning shaxs qiyofasida ifodalanishi hisoblanadi. Qiyofasida ko‘rinadigan. chetga chiquvchi xulq-atvor ijtimoiy dezadaptatsiya ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Bolalar va o‘smirlar dezadaptatsiyasi haqida gapirganda bu jarayonga mansub bo‘lgan bolalar toifalarini quyidagicha izoxlash mumkin. Bular: maktabga qatnamaydigan maktab yoshidagi bolalar, yetim bolalar, ijtimoiy yetimlar, bolalar uylarida joylar yetishmasligi sababli ota-onalik huquqidan mahrum etilganlar bilan birga vaqtincha yashayotgan bolalar;

giyohvand va toksin moddalar iste’mol qiluvchi bolalar, jinsiy intizomsiz bolalar,

g‘ayri huquqiy hatti-harakatlar sodir etgan bolalar.

Deviatsiya - deviant, delikvent va jinoiy xulq-atvor shakllarida bo‘ladi.

Deviant xulq-atvor-mikro ijtimoiy munosabatlar (oilaviy, maktabdagi munosabatlar) va kichik ijtimoiy guruhlarga xos bo‘lgan ijtimoiy me’yorlar va xulq-atvor qoidalarini buzish bilan bog‘liq me’yordan og‘uvchi xulq-atvor turlaridan biridir. Deviant xulq-atvorga o‘qishdan qochish va daydilik, bolalar va o‘smirlarning aroqxo‘rlik, giyohvandlik va u bilan bog‘liq g‘ayri ijtimoiy harakatlar, jinsiy harakterdagi hatti-harakatlar, o‘ziga suiqasd qilishga urinish kabilarni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Delikvent xulq-atvor deviantdan farqli ravishda bolalar va o‘smirlarning takrorlanib turuvchi g‘ayri ijtimoiy hatti-harakatlar sifatida harakterlanadi. Bu huquqiy me’yorlarni buzuvchi, biroq ijtimoiy xavf darajasiga ko‘ra jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydigan harakatlardir.

Delikvent xulq-atvorning quyidagi turlari mavjud:

-agressiv xulq-atvor, bunga haqoratlash, sadistik harakatlar, o‘t qo‘yish kabilar kiradi;

-g‘arazli xulq-atvor: (kichik o‘g‘riliklar, ta’magirlik, avtoulovlarni olib qochish va mulkiy tajovuzlar);

-giyohvand moddalarni yetishtirish va tarqatish.

Jinoiy hatti-harakat jinoiy javobgarlikka tortishga, ma’lum yoshga yetganda jinoiy ish qo‘zg‘ashga sabab bo‘luvchi va jinoyat kodeksining muayyan moddalarida nazarda tutilgan g‘ayri huquqiy hatti-harakatlar hisoblanadi. Deviatsiyaning salbiy turlari ijtimoiy potologiya hisoblanadi. Bularga aroqxo‘rlik, toksikomaniya, giyohvandlik, fohishabozlik, o‘z joniga qasd qilish, huquqbuzarlik va jinoyatchilikni kiritish mumkin [6].

Voyaga yetmaganlarning deviant xulq-atvorini keltirib chiqaruvchi omillar quyidagilardir: ***Biologik omillar.*** Bola organizmida uning ijtimoiy adaptatsiyasini qiyinlashtiruvchi fiziologik yoki anotomik xususiyatlarning mavjudligi natijasida o‘z ifodasini topadi. Ularga quyidagilar kiradi: irsiy xususiyatlar; aqliy rivojlanishning buzilishi, eshitish va

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

ko‘rishning susayishi, asab tizimining zararlanishi va boshqalar; organizmga psixofiziologik zo‘r berish, nizoli holatlar, atrof-muhitning kimyoviy tarkibi, turli somatik, allergik, toksik kasallanishlarga olib keluvchi, ya’ni quvvat manbalari bilan bog‘liq bo‘lgan psixofiziologik xususiyatlar.

Psixologik omillar. Bularga bolada psixopatalogiya yoki harakterining aksetkatsiyasining borligi kiradi. Bu me’yordan chetga chiqishlar asab kasalliklari, psixopatiya, nevrosteniya va bolada g‘ayri adekvant reaksiyalarni paydo qiluvchi boshqa omillarda namoyon bo‘ladi [4].

Ruhiy me’yorning eng keskin varianti hisoblanmish aksentuatsiyaga ega bolalar psixologik ta’sirlar uchun nihoyatda qaltis hisoblanadilar va ijtimoiy tibbiy reabilitatsiyaga ehtiyoj sezadilar.

Bola rivojlanishining har bir davrida shaxsiyat va harakterning ba’zi ruhiy hislatlari shakllanadi. O‘smirda ruhiyat rivojlanishining ikki bosqichi kuzatiladi: yoki u yashaydigan ijtimoiy muhitdan bezib qoladi, yoki ko‘nikib ketadi. Agar oilada bola ota-onasi tomonidan yetarli mehr his qilmasa unda bu holatda uning himoya vositasi vazifasini begonalashuv bajaradi. Bu begonalashuv asabiy reaksiyalar, atrofdagilar bilan munosabatlarning buzilishi, emotsional sovuqlik, psixik rivojlanishning to‘xtab qolishi, turli ruhiy patalogiyalarda namoyon bo‘ladi.

Jamiyatda insonlar faoliyati, xatti-harakatlari va xulq-atvorlarini ijtimoiy me’yorlar boshqaradi. Ijtimoiy me’yor jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi bo‘lib, shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan sotsial muhitga moslashtiruvchi qoidalar majmuidir. Ijtimoiy me’yorning bir necha turlari mavjud bo‘lib, huquqiy, axloqiy, diniy hamda urf-odatlarga oid me’yorlar shular jumlasidandir.

Ijtimoiy me’yorning afzalligi shundaki, yoshligidanoq muayyan me’yorlarga moslashtirib borilgan shaxslar umum tomonidan qabul qilingan tamoyillar doirasidan chetga chiqmaydi va boshqalardan ham shuni kutadi. Jamiyat taraqqiy etib borgan sari o‘rnatilgan me’yorlar ham eskirib boradi va yangi me’yorlar o‘rnatiladi. Yangi me’yorlarni o‘rnatish jarayoni jamiyatda o‘rnatilgan mavjud me’yorlar doirasini kengaytirish va o‘zgartishdan iboratdir. Jamiyat a’zolarini mazkur ijtimoiy me’yorlarga amal qilib yashashlarini nazorat qilib boruvchi institutlar ijtimoiy nazorat institutlari deyiladi. Ushbu institutlarga oila, maktab, mahalla, huquqni muhofaza qilish organlari va hokazolar kiradi.

Insonlar bolalarga ijtimoiy me’yorlarni o‘rgatib borish bilan birga, xulq-atvor me’yoriy talablarining to‘g‘ri bajarilishini nazorat etishadi va bu bilan ijtimoiy nazorat vakili vazifasini bajarishadi. Nazoratni yakka shaxs amalga oshirsa, bu ivdividual tavsifga ega bo‘ladi, agar butun bir jamoa, oila, do‘stlar, maktab, mahalla (qo‘ni-qo‘shnilar) tomonidan amalga oshirilsa, ijtimoiy tavsifga ega bo‘ladi hamda u ijtimoiy nazorat deyiladi.

Ijtimoiy nazorat vakillari insonlar xulq-atvorini boshqarishning eng muhim vositasi bo‘lib, deviant xulq-atvorning oldini olishda ham ushbu jamoalarning o‘rni katta bo‘ladi. Quyida deviant xulq-atvorning klinik shakllari, ularni shakllantirishning psixologik va psixopatologik mexanizmlari ko‘rsatilgan.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Deviant xulq-atvor hodisasi shunchalik keng va murakkabki, uni o‘rganish uchun alohida fan mavjud - deviantologiya. U ko‘plab boshqa fanlar - sotsiologiya, kriminologiya, psixiatriya, falsafa va, albatta, psixologiya chorrahasida paydo bo‘lgan. Psixologiyada insonning og‘ishgan xatti-harakatlarini o‘rganadigan maxsus bo‘lim mavjud - divanda yurish-turish psixologiyasi.

Lotin tilidagi "og‘ish" - bu og‘ish. Deviant xatti-harakatlar - ijtimoiy me’yorlardan chetga chiqish, shaxsning barqaror xulq-atvori, jamiyat va odamlarga real zarar etkazish. Deviant xatti-harakatlar nafaqat halokatli, balki avtostrukt hamdir, chunki uni buzuvchi (deviant) va o‘zi boshqarishi mumkin.

Deviant xulq-atvor ta’rifidan uning ijtimoiy, shuning uchun salbiy yo‘nalishi aniq bo‘lishiga qaramay, ba’zi deviantologlar ijobiy og‘ishlar, ijtimoiy ijod deb ataladigan - qonun doirasiga to‘g‘ri kelmaydigan, ammo jamiyatga zarar keltirmaydigan ilmiy, texnik, kompyuter va boshqa ijodkorlik.

Biroq og‘ishlarning aksariyati tajovuzkor, zararli va jinoiy xatti-harakatlardir. Ularning eng keng tarqalgani shakli: jinoyat, giyohvandlik, alkogolizm, o‘z joniga qasd qilish, beparvolik, fohishalik, vandalizm, aqidaparastlik va boshqalar.

Deviant xatti-harakatlar o‘z mohiyatiga ko‘ra salbiydir, chunki u biron bir tarzda g‘azab, tajovuz, zo‘ravonlik, vayronagarchilik bilan bog‘liq, shuning uchun jamiyat unga qarshi shartli yoki qonuniy ravishda sanktsiyalar qo‘llagan. Jamiyat rasmiy yoki norasmiy ravishda axloqiy va axloqiy me’yorlarni buzgan shaxsni izolyatsiya qiladi, davolaydi, tuzatadi yoki jazolaydi. Ammo deviant shaxsiyatining psixologiyasi uning harakatlari kabi shubhasiz salbiy emas, balki ziddiyatli va murakkabdir.

Deviant xulq-atvor psixologiyasi shaxs qanday qilib, qachon, qaerda huquqbuzarlik sodir etganligini va buning uchun uni qanday jazo kutayotganini aniq hisobga olmaydi. umumiy naqshlar va shaxsiyat xususiyatlari deviantlar: deviant xulq-atvorning sabablari va manbalari, deviantning rag‘batlantirishi, motivlari, hissiyotlari, maqsadlari; xarakter xususiyatlari; ruhiy salomatlik va psixopatologiya; deviant xulq-atvorni psixologik tuzatish xususiyatlari va deviant psixoterapiyasi.

Bugungi kunda o‘smirlar taqdiri masalasi g‘oyat muhim axamiyat kasb etmoqda, o‘smirlik muammosiga e’tiborni kuchaytirish zarurligining asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. Fan va texnika rivojlanishi natijasida madaniyat, san’at va adabiyot, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning o‘zgarayotgani;

2. Ommaviy axborot ko‘lamining kengayishi tufayli o‘smirlar ongliligi darajasining ko‘tarilgani;

3. O‘g‘il va qizlarning dunyo voqealaridan xabardorligi;

4. Ularning jismoniy va aqliy kamolotining jadallashgani;

5. O‘smirlar bilan ishlashda g‘oyaviy-siyosiy, vatanparvarlik va baynalminal tarbiyaga alohida yondashishi zarurligi;

6. Oshkoralik, ijtimoiy adolat, demokratiya muammolarining ijtimoiy hayotga chuqur

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

kirib borayotgani;

O'quvchi bilan jamoa fikrining mos kelmasligi jamoa ichida uning o'z o'rnini borgan sari yo'qolib borishiga sabab bo'ladi. Bu o'rinda unutmaslik kerakki, o'smirning har bir xatti-xarakati u bilan hisoblashish kerakligidan boshqa narsa emas. Shuning uchun jamoa a'zolari bunday o'smirning qarashlarini vaqti-vaqti bilan hisobga olishlari yaxshi natija beradi. Aksincha, o'smirning fikr va qiziqishlari jamoa tomonidan qo'llab-quvvatlanmasligi yoki beparvoligi uni tartibbuzarlikka undaydi va xulq og'ishining kelib chikishi uchun imkoniyat yaratadi. Natijada o'smir uchun kelajak rejalarining paymol bulish xavfi tug'iladi. Ta'lim olish va jamoadan yuz o'girgan o'smir o'z kelajagi, orzu-umidlarini maktab va jamoa faoliyatiga bog'lashdan ko'ra, e'tiqod va qarashlari mos bo'lgan boshqa kishilardan najot izlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017
2. G'oziev . Ontogeniz psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent -2010.
3. O'smirlarda axloq me'yorlaridan chetga chiqish sabablari va uni bartaraf etish yo'llari BMI Raimov Shuxrat 2013.
4. Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri" T. "Fan" 1993 yil
5. Хайдарова Х. Р. МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР АСОСИДА ОТА-ОНАЛАРНИНГ ВИРТУАЛ-ПЕДАГОГИК МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ //Results of National Scientific Research International Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 264-272.
6. Turg'unboyev K., M.Tolipov, I.Oxunov Ijtimoiy pedagogika asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2008 yil.
7. I.M. Xakimova. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2014.
8. Umarov B.M. Xulq buzilishining kelib chiqishida oila muhiti. "Xalq ta'limi" jurnali. T.2001.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Murodov Mashrab Yoqub o'g'li**, o'qituvchi [**Муродов Машраб Ёқуб ўғли,** преподователь], [**Murodov Y. Mashrab**, teacher]; manzil: O'zbekiston, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy [адрес: Узбекистан, город Ташкент улица Университетская, дом 4, Алмазорский район,], [address: University street, 4th house, Almazor district, Tashkent city]; E-mail: mashrab_pedagog@mail.ru

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original peper

O'SMIRLARDA IJTIMOIY TARMOQLARDAGI YOLG'ON AXBOROTLARNI QABUL QILISHGA MOYILLIKNING PSIXOLOGIK OMILLARI

© A. Nurmatov[1]✉
[1]Toshkent amaliy fanlar universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ijtimoiy tarmoqlarning ko'payishi o'smirlarning axborotga kirish va qayta ishlash usullarini o'zgartirdi. Biroq, bu raqamli landshaft ularni juda ko'p noto'g'ri ma'lumotlarga duchor qiladi, ular qabul qilishda ayniqsa zaif bo'lishi mumkin. O'smirlarning ijtimoiy tarmoqlarda noto'g'ri ma'lumotlarga moyil bo'lishiga yordam beradigan psixologik omillarni tushunish samarali ta'lim va profilaktika strategiyalarini ishlab chiqish uchun juda muhimdir.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi o'smirlarni ijtimoiy tarmoqlarda yolg'on ma'lumotlarni qabul qilishga moyil bo'lgan psixologik omillarni o'rganishdir. Tadqiqot asosiy kognitiv, hissiy va ijtimoiy ta'sirlarni aniqlash va o'smirlarda tanqidiy fikrlash va media savodxonligini oshirish uchun ushbu omillarni qanday yumshatish mumkinligi haqida ma'lumot berishga qaratilgan.

MATERIALLAR VA METODOLOGIYA: tadqiqotda miqdoriy va sifatli tadqiqotlarni o'z ichiga olgan aralash usullardan foydalaniladi. Materiallar orasida psixologik baholash, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish bo'yicha so'rovlar va o'smirlar bilan suhbatlar mavjud.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko'rsatadiki, o'smirlarning ijtimoiy tarmoqlarda yolg'on ma'lumotlarni qabul qilish tendentsiyasiga bir qancha psixologik omillar yordam beradi. Tasdiqlash tarafkashligi va haqiqat effekti illyuziyasi kabi kognitiv tarafkashliklar muhim rol o'ynaydi, chunki o'smirlar o'zlarining mavjud e'tiqodlariga mos keladigan va ular qayta-qayta duch keladigan ma'lumotlarga ko'proq ishonishadi.

Xulosa. tadqiqot shuni ko'rsatadiki, o'smirlarning ijtimoiy tarmoqlarda noto'g'ri ma'lumotni qabul qilishiga yordam beradigan psixologik omillarni bartaraf etish yanada chuqurroq va xabardor yoshlarni yaratish uchun muhimdir.

Kalit so‘zlar: soxta yangiliklar, dezinformatsiya, noto'g'ri ma'lumotlar, o’smirlar, psixologiya, axborot buzilishi, onlayn aldash, onlayn ijtimoiy tarmoqlar.

Iqtibos uchun: Nurmatov A. O'smirlarda ijtimoiy tarmoqlardagi yolg’on axborotlarni qabul qilishga moyillikning psixologik omillari. // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 439–444.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ СПОСОБНОСТИ ПОДРОСТКОВ ПРИНИМАТЬ ЛОЖНУЮ ИНФОРМАЦИЮ В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

© А.Нурматов[1]✉
[1]Ташкентский университет прикладных наук, Ташкентский, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: быстрое распространение социальных сетей изменило то, как подростки получают доступ к информации и обрабатывают ее. Однако этот цифровой ландшафт также подвергает их воздействию огромного количества ложной информации, принять которую они могут быть особенно уязвимыми. Понимание психологических факторов, которые способствуют восприимчивости подростков к ложной информации в социальных сетях, имеет решающее значение для разработки эффективных образовательных и профилактических стратегий.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является изучение психологических факторов, которые делают подростков склонными к принятию ложной информации в социальных сетях. Исследование направлено на выявление ключевых когнитивных, эмоциональных и социальных влияний и предоставление информации о том, как эти факторы можно смягчить для развития критического мышления и медиаграмотности среди подростков.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании используется смешанный подход, включающий как количественные, так и качественные исследования. Материалы включают психологические оценки, опросы использования социальных сетей и интервью с подростками.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показывают, что склонности подростков принимать ложную информацию в социальных сетях способствуют несколько психологических факторов. Когнитивные искажения, такие как предвзятость подтверждения и эффект иллюзии истины, играют важную роль, поскольку подростки с большей вероятностью поверят информации, которая соответствует их существующим убеждениям и с которой они сталкиваются неоднократно.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в исследовании делается вывод, что устранение психологических факторов, способствующих принятию подростками ложной информации в социальных сетях, имеет важное значение для воспитания более проницательной и информированной молодежи.

Ключевые слова: фейковые новости, дезинформация, дезинформация, подростки, психология, информационная коррупция, онлайн-мошенничество, онлайн-социальные сети.

Для цитаты: Нурматов А. Психологические факторы склонности подростков воспринимать ложную информацию в социальных сетях. // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 439–444.

PSYCHOLOGICAL FACTORS OF TEENAGERS' TENDENCY TO ACCEPT FALSE INFORMATION IN SOCIAL NETWORKS

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

© Aziz Nurmatov[1]✉
[1]Tashkent University of Applied Sciences, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the rapid proliferation of social networks has transformed how teenagers access and process information. However, this digital landscape also exposes them to a vast array of false information, which they may be particularly vulnerable to accepting. Understanding the psychological factors that contribute to teenagers' susceptibility to false information on social networks is crucial for developing effective educational and preventative strategies.

AIM: the aim of this study is to investigate the psychological factors that make teenagers prone to accepting false information on social networks. The study seeks to identify key cognitive, emotional, and social influences and to provide insights into how these factors can be mitigated to promote critical thinking and media literacy among teenagers.

MATERIALS AND METHODS: the study employs a mixed-methods approach, incorporating both quantitative and qualitative research. Materials include psychological assessments, social media usage surveys, and interviews with teenagers..

DISCUSSION AND RESULTS: the findings indicate that several psychological factors contribute to teenagers' tendency to accept false information on social networks. Cognitive biases such as confirmation bias and the illusion of truth effect play a significant role, as teenagers are more likely to believe information that aligns with their existing beliefs and that they encounter repeatedly.

Conclusion. the study concludes that addressing the psychological factors contributing to teenagers' acceptance of false information on social networks is essential for fostering a more discerning and informed youth.

Key words: fake news, disinformation, misinformation, teenagers, psychology, information corruption, online fraud, online social networks.

For citation: Aziz Nurmatov. (2024) ‘Psychological factors of teenagers' tendency to accept false information in social networks’, Inter education & global study, (4(2)), pp. 439–444. (In Uzbek).

So'nggi o'n yil ichida interaktiv raqamli va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish sezilarli darajada o'sdi va hozirgi tadqiqot tadqiqotlari o'smirlarning sog'lig'iga ham foyda, ham xavf tug'dirishini isbotladi. Sog'liqni saqlash foydalari qimmatli qo'llab-quvvatlash tarmoqlariga kirishni kengaytirish va sog'liqni saqlash xatti-harakatlari va ijtimoiy inklyuziyani targ'ib qilishni o'z ichiga olishi mumkin [1,2]. 15–17 va 18–19 yoshdagi ikki yosh guruhiga mansub o‘smirlar bo‘yicha yillik hisobotga ko‘ra, internetdan foydalanuvchi va eng avvalo undan har kuni foydalanadigan yoshlar yildan-yilga doimiy ravishda oshib bormoqda.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Internetdan foydalanish yoshi oshgani sayin ortib boradi va hisob-kitoblarga ko'ra, maksimal foydalanish bilan shug'ullanadigan yosh oralig'i 15 yoshdan 17 yoshgacha bo'lib, ulangan ayollar va erkaklar mos ravishda 93,5 va 94,2 foizni tashkil qiladi [3]. Biroq, foizlar ortib bormoqda.

We Are Social va Hootsuite kompaniyasining 2024 yil yanvar oyidagi hisobotida taqdim etilgan eng so‘nggi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Yer yuzidagi barcha odamlarning 66 foizdan ortig'i internetdan foydalanadi, so'nggi ma'lumotlarga ko'ra, global foydalanuvchilarning umumiy soni 5,35 milliardni tashkil etadi. Oxirgi 12 oy ichida internetdan foydalanuvchilar soni 1,8 foizga o‘sdi, bu 2023-yil boshidan buyon 97 million yangi foydalanuvchi tufayli.[4]

Yangi raqamli media orqali ijobiy va salbiy his-tuyg'ularni ifodalashda me'yoriy farq borligini hisobga olib, biz turli vaziyatlarda o'smirlarning qaysi muloqot usullarini afzal ko'rishini qiziqtirdik, agar bu tendentsiyalar ijobiy muhokama qilingan holatda o'zgarganmi? yoki salbiy savollar va jins va yosh qandaydir tarzda bunday muloqot tanloviga ta'sir qiladimi. Shu munosabat bilan, ijobiy mavzular, xususan Instagram uchun ijtimoiy tarmoqlarning umumiy afzalligi ko'zda tutilgan [6] va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda gender farqlari kamayib borayotganini ko'rsatadi [5].

Biroq, har doimgidek, YouTube faoliyatining muhim qismi veb-brauzerlarda sodir bo'lishini va hatto faqat ilovalar faolligiga asoslanib ham, YouTube ushbu eng yaxshi ijtimoiy ilovalarda eng ko'p vaqtni tashkil etishini yodda tutish kerak.

Biroq, eng yorqin taqqoslash Instagram bilan bo'lib, data.ai ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, odatiy Instagram foydalanuvchisi platformaning Android ilovasidan foydalanish uchun TikTok foydalanuvchilari TikTok ilovasidan foydalanishning yarmidan kam vaqtini sarflaydi.

data.ai tahlillari shuni ko'rsatadiki, Instagram foydalanuvchilari ilovadan foydalanish uchun oyiga o'rtacha 15 soat 50 daqiqa vaqt sarflaydi, bu kuniga o'rtacha 31 daqiqaga to'g'ri keladi.[4]

Feyk yangiliklar - bu yolg‘on xabarlar (soxta, noto‘g‘ri ma’lumot) odamlarni chalg‘itish uchun haqiqiy ma’lumot deb tarqatiladi. Ular ko‘pincha nashr va kanalning ommaviyligini va piarini oshirish, ko‘proq o‘quvchilarni jalb qilish va foyda olish uchun yaratiladi. Ba’zan qalbaki yangiliklar tomoshabinlar e’tiborini muhim va ahamiyatli yangiliklardan chalg‘itadigan qilib yaratiladi.

UNESCO U-Report bilan birgalikda yangiliklar, ayniqsa soxta yangiliklar (dezinformatsiya, feyk) bo‘yicha so‘rov o‘tkazdi. Ushbu so‘rovning maqsadi feyk yangiliklar yoshlarga qanday (salbiy, neytral) ta’sir qilishini va ushbu noto‘g‘ri ma’lumotlarning manbalari nima bo‘lishi mumkinligini tushunish edi. [7]

Ijtimoiy media bugungi kunda soxta yangiliklarni tarqatish uchun kuchli manbaga aylandi (Sharma va boshq. 2019; Shu va boshq. 2017). Pew Research Centerning ijtimoiy media platformalarida yangiliklardan foydalanish tahliliga ko'ra, 2020 yilda amerikalik katta yoshlilarning qariyb yarmi ijtimoiy tarmoqlarda kamida ba'zida yangiliklar

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

olishadi5, 2018 yilda esa ularning faqat beshdan bir qismi yangiliklarni ijtimoiy tarmoqlar orqali olishlarini aytadi.

Jins va yosh kabi shaxsiy xususiyatlar internetga qaramlikda muhim rol o'ynaydi, ammo natijalar yakuniy emas. Bir tomondan, so'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qizlar o'g'il bolalarga qaraganda ko'proq Internetga qaramlik alomatlarini boshdan kechirishadi. Boshqa tomondan, ba'zi boshqa tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'g'il bolalar qizlarga qaraganda o'ziga qaram bo'lgan onlayn xatti-harakatlarga ko'proq moyil bo'lishadi. Yosh farqiga kelsak, natijalar ham noaniq.

Xulosa o'rnida yuqorida aytilgan fikrlarning barchasini umumlashtirib, shu xulosaga kelish kerakki, soxta xabarlarga moyillik o'smirlar orasida ortib bormoqda. Sababi birgina yolg'on ma'lumotning shaxslarga ta'siri, keyinchalik butun bir jamiyatga zarar keltiradigan kuchga aylanmasligiga hech kim kafolat bermaydi.

Eng to'g'ri yechim, xalqaro kiberxavsizlik tashkilotlariga a'zo bo'lib, hamkorlikda ish yuritish deb bilaman. Chunki, kiberjinoyatchilik haqida xorij tajribasining salmog'i oshiqroq. Hozirgi kunda kiberjinoyat deb nomlanagan jinoyat tez sur'atlar bilan oshib bormoqda va uning yangicha turi shakli paydo bo'lmoqda.

Jinoyatchilar uchun axborot kommunikatsiya sohasidagi sodir etilayotgan jinoyatlar eng bexatar va tinch yo'ldir. Hech qanday daliliy ashyo qoldirmasdan masofadan turib jiniyatlarni amalga oshiradi. Bu esa Kriminalistik izlanish uchun qiyinchilik tug'diradi. O'ylaymanki, kiberxavfsizlik tizimiga yetuk dasturchi kadrlar qabul qilinsa jinoyatlarni aniqlash unchalik ham mushkul bo'lmaydi. Qonunga o'zgartirishlar kiritish jazoni va jarimalarni og'irlashtirilgan shakliga almashtirish kinerjinoyatchilikning oldini olishga yechim bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Buctot, D.B.; Kim, N.; Kim, J.J. Factors associated with smartphone addiction prevalence andits predictive capacity for health-related quality of life among Filipino adolescents. Child. YouthServ. Rev. 2020, 110, 104758.2.
2. Kuss, D.J.; Griffiths, M.D. Social networking sites and addiction: Ten lessons learned. Int. J.Environ. Res. Public Health 2017, 14, 31 (1) (PDF) Psychological Risk Factors that Predict Social Networking and Internet Addiction in Adolescents. Available from: https://www.researchgate.net/publication/342479575_Psychological_Risk_Factors_that_Predict_Social_Networking_and_Internet_Addiction_in_Adolescents [accessed Mar 05 2024].
3. Riva G., editor. Nativi Digitali. Crescere e Apprendere nel Mondo dei Nuovi Media. Il Mulino; Bologna, Italy: 2014. p. 224.
4. ISTAT. [(accessed 05.03.2024)]. Available online: https://wearesocial.com/ca-en/blog/2024/01/digital-2024-5-billion-social-media-users/

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

5. Starri M. Digital 2021: I Dati Globali. We Are Digital. [(accessed on 5 October 2021)]. Available online: https://wearesocial.com/it/blog/2021/01/digital-2021-i-dati-globali
6. Waterloo S., Baumgartner S., Peter J., Valkenburg P.M. Norms of online expression of emotion: Comparing Facebook, Twitter, Instagram, and Whatsapp. New Media Soc. 2018 ;20:1813–1831.
7. U-report Uzbekistan voice matters https://uzbekistan.ureport.in/story/411/

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАТSIЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Aziz Nurmatov**, o'qituvchi [**Азиз Нурматов,** преподаватель], [**Aziz Nurmatov,**teacher]; manzil: 100007, O'zbekiston, Toshkent, Mirzo Ulug'bek shoh ko'chasi, 30; 401-403 [адрес: 100007, Узбекистан, Ташкент, проспект Мирзо Улугбека, 30; офис 401-403], [address: 100007, Uzbekistan, Tashkent, Mirzo Ulugbek avenue, 30; office 401-403]; e-mail: nurmatovaziz@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original peper

MULOQOTNING SHAXSGA TA’SIR ETISH MEXANIZMI SIFATIDA NOMOYON BO’LUVCHI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

© M.B.Mahkamova[1]✉

[1]Qo’qon universiteti, Qo’qon, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: muloqot ko'pincha nozik, ko'rinmas psixologik mexanizmlar orqali shaxsiyatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu asosiy jarayonlar odamlarning o'zaro ta'sirlarni qanday idrok etishi, sharhlashi va javob berishiga ta'sir qiladi, natijada ularning shaxsiyati rivojlanishiga va shaxslararo munosabatlarga ta'sir qiladi. Ushbu maqolada muloqotning ko'rinmas psixologik xususiyatlari va ularning shaxsga ta'siri ko'rib chiqiladi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi muloqotning ko'rinmas psixologik xususiyatlarini o'rganish va bu mexanizmlarning shaxsiyat rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini tushunishdir. Tadqiqot muloqot bilan bog'liq asosiy psixologik jarayonlarni aniqlashga va ularning shaxsiy xususiyatlar va xatti-harakatlarga ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda sifat va miqdoriy tadqiqot usullarini birlashtirgan aralash usullardan foydalaniladi. Materiallarga psixologik baholash vositalari, aloqa tahlili asoslari va shaxsiy inventarlar kiradi. Usullar ishtirokchilarning muloqot uslublari, psixologik xususiyatlari va shaxsiy xususiyatlari to'g'risida ma'lumot to'plash uchun so'rovlar va suhbatlar o'tkazishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, real vaqtda o'zaro ta'sirlarni va ularning psixologik ta'sirini tekshirish uchun kuzatuv tadqiqotlari va eksperimental dizaynlardan foydalaniladi.

MUHOKAMARA VA NATIJALAR: tadqiqot shuni ko'rsatdiki, og'zaki bo'lmagan muloqot odamlarni qanday qabul qilishiga va boshqalarni qanday qabul qilishiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Nozik ishoralar hukmlarga ta'sir qilishi, munosabatlarni o'rnatishi va o'zini o'zi qadrlash va ishonchga ta'sir qilishi mumkin.Yashirin munosabat va noto'g'ri qarashlar ongli xabardorlik darajasidan pastroq ishlaydi, o'zaro ta'sirlarni shakllantiradi va hislar va xatti-harakatlarga ta'sir qiladi.

XULOSA: tadqiqot shuni ko'rsatadiki, muloqotning ko'rinmas psixologik xususiyatlari shaxsning rivojlanishiga chuqur ta'sir qiladi. Og'zaki bo'lmagan muloqot, nojo'ya qarashlar, hissiy yuqtirish, ijtimoiy ta'sir va qayta aloqa mexanizmlari - bularning barchasi odamlarning o'zaro munosabati va o'zini va boshqalarni qanday qabul qilishini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Kalit so'zlar: shaxs, muloqot, muloqotning insinlararo munosabatlardagi roli, ta'sir etish, shaxsga ta'sir etish texnologiyasi.

Iqtibos uchun: Mahkamova M.B. Muloqotning shaxsga ta'sir etish mexanizmi sifatida nomoyon bo'luvchi psixologik xususiyatlari // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 445–451.

НЕВИДИМЫЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОБЩЕНИЯ КАК МЕХАНИЗМ ВЛИЯНИЯ НА ЛИЧНОСТЬ

© М.Б.Махкамова[1]✉
[1] Кокандский университет, Коканд, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: общение играет важную роль в формировании личности посредством часто тонких, невидимых психологических механизмов. Эти основные процессы влияют на то, как люди воспринимают, интерпретируют и реагируют на взаимодействия, что в конечном итоге влияет на развитие их личности и межличностные отношения. В данной статье рассматриваются невидимые психологические особенности общения и их влияние на личность.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является изучение невидимых психологических особенностей общения и понимание того, как эти механизмы влияют на развитие личности. Исследование направлено на выявление основных психологических процессов, связанных с общением, и анализ их влияния на личностные характеристики и поведение.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы смешанные методы, сочетающие качественные и количественные методы исследования. Материалы включают инструменты психологической оценки, основы коммуникативного анализа и личностные опросники. Методы включают проведение опросов и интервью для сбора информации о стилях общения участников, психологических характеристиках и чертах личности. Кроме того, наблюдательные исследования и экспериментальные планы используются для изучения взаимодействий в реальном времени и их психологических последствий.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: исследования показали, что невербальное общение оказывает значительное влияние на то, как люди воспринимают себя и как они воспринимают других. Тонкие сигналы могут влиять на суждения, строить отношения и влиять на самооценку и уверенность. Неявные установки и предрассудки действуют ниже уровня сознательного понимания, формируя взаимодействия и влияют на чувства и поведение.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исследования показывают, что невидимые психологические особенности общения оказывают глубокое влияние на развитие личности. Невербальное общение, предрассудки, эмоциональное заражение, социальное

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

влияние и механизмы обратной связи — все это играет важную роль в формировании того, как люди взаимодействуют и воспринимают себя и других.

Ключевые слова: человек, общение, роль общения в межличностных отношениях, влияние, технология воздействия на человека.

Для цитирования: Махкамова М.Б. Невидимые психологические особенности общения как механизм влияния на личность // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 445–451.

INVISIBLE PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF COMMUNICATION AS A MECHANISM OF INFLUENCE ON PERSONALITY

© Mastura B. Mahkamova [1]✉
[1]Kokand University, Kokand, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: communication plays an important role in personality formation through often subtle, invisible psychological mechanisms. These underlying processes influence how people perceive, interpret, and respond to interactions, which ultimately affect their personality development and interpersonal relationships. This article examines the invisible psychological features of communication and their impact on the individual.

AIM: the purpose of this study is to study the invisible psychological features of communication and to understand how these mechanisms affect the development of personality. The research is aimed at identifying the main psychological processes related to communication and analyzing their influence on personal characteristics and behavior.

MATERIALS AND METHODS: the study uses mixed methods combining qualitative and quantitative research methods. Materials include psychological assessment tools, fundamentals of communication analysis, and personality inventories. Methods include conducting surveys and interviews to gather information about participants' communication styles, psychological characteristics, and personality traits. In addition, observational studies and experimental designs are used to examine real-time interactions and their psychological effects.

DISCUSSION AND RESULTS: research has shown that non-verbal communication has a significant impact on how people perceive themselves and how they perceive others. Subtle cues can influence judgments, build relationships, and affect self-esteem and confidence. Implicit attitudes and prejudices operate below the level of conscious awareness, shaping interactions. and affects feelings and behavior.

CONCLUSION: research shows that the invisible psychological characteristics of communication have a profound effect on the development of the individual. Nonverbal communication, prejudice, emotional contagion, social influence, and feedback

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

mechanisms all play an important role in shaping how people interact and perceive themselves and others.

Key words: person, communication, the role of communication in interpersonal relations, influence, technology of influencing a person.

For citation: Mastura B. Mahkamova. (2024) 'Invisible psychological characteristics of communication as a mechanism of influence on personality', Inter education & global study, (4(2)), pp. 445–451. (In Uzbek).

Shaxs masalasini yoki muammosini tadqiq etuvchi fanlarning murakkab fan sifatida namoyon bo'lishi aynan shaxsning o'zgaruvchan xulq-atvori va psixikasidir. Shaxs psixikasiga samarali ta'sir ko'rsatish usullaridan biri bu muloqot ekanligi psixologiya fanida isbotlangan nazariyalardan biridir. Muloqotning perseptiv vazifasi va interaktiv vazifasi bu nazariyalarni real ekanligini isbotlaydi.

Muloqot - odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o`zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya'ni, har bir shaxsning jamiyatda bajaradigan faoliyatlari (mehnat, o`qish, o`yin, ijod qilish va boshqalar) o`zaro munosabat va o`zaro ta'sir shakllarini o`z ichiga oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishni, bir-birlariga turli xil ma'lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o`rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro`si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog`liqdir. Bir qarashda osongina tuyulgan shaxslararo muloqot aslida juda murakkab jarayon bo`lib, unga odam hayoti mobaynida o`rganib boradi.

Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatni o'zlashtirish va o'z ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib, keyinchalik ular interiorizatsiyalanadi. Muloqot davomida ijtimoiy va shaxsiy munosabatlar amalga oshadi, uning vositasida hamkorlikdagi faoliyat ro'yobga chiqariladi.

Har bir normal kishi o'zini o'zgalarni tinglashga, o'z flkrini birovlarga yetkazishga, ya'ni gapirishga, fikrlarini ba'zan yozma tarzda bayon etishga tug'ma qobiliyatliday tasavvur qiladi. Lekin aslida ana shu birovlarni tushunish va o'z fikrlarimiz, o'ylarimizni birovlarga yetkaza olish qobiliyati bizning insoniy munosabatlar tizimida ekanligimizni, har birimiz o'zimizga o'xshash inson jamiyatisiz mavjud bo'la olmasligimizni bildiradi.

Muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligi haqida B.F.Parigin shunday yozadi: "Muloqot shunchalik ko`p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o`zida quyidagilar kiradi: individlarning o`zaro ta'sir jarayoni; individlar o`rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni; bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni; bir kishining boshqalarga ta'sir ko`rsatish jarayoni; bir-birlariga hamdardlik bildirish imkoniyati; shaxslarning bir-birlarini tushunishi jarayoni.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Muloqotning turi va shakllari turlichadir. Masalan, bu faoliyat bevosita “yuzma-yuz” bo'lishi; u yoki bu texnik vositalar (telefon, telegraf va boshqalar) orqali amalga oshiriladigan; biror professional faoliyat jarayonidagi amaliy yoki do'stona bo'lishi; subyekt-subyekt tipli (dialogik, sheriklik) yoki subyekt-obyektli (monologik) bo'lishi mumkinligini professor V.Karimova ta’kidlaydi.
Insoniy munosabatlar o'zaro shunday ta’sir jarayonlariki, unda shaxslararo munosabatlar shakllanadi va namoyon bo'ladi. Bunday jarayon dastlab kishilar o'rtasida ro'y beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvish-quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi.

Kishilar muloqotda bo'lgani sari ular o'rtasida umumiylik, o'xshashlik va uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'ladiki, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadi yoki “yarimta jumladan” ham fikr ayon bo'ladi, ayrim hollarda esa ana shunday muloqotning tig'izligi teskari reaksiyalarni — bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi. Masalan, oila muhiti va undagi munosabatlar ana shunday tig'iz munosabatlarga kiradi. Faqat bunday tig'izlik oilaning barcha a’zolari o'rtasida emas, uning ayrim a’zolari o'rtasida bo'lishi mumkin. (Er-xotin, qaynona-kelin).

O'zaro munosabatlarga kirishayotgan tomonlar munosabatdan ko'zlaydigan asosiy maqsadlari — o'zaro til topishish, bir-birini tushunishdir. Har qanday faoliyatdan zerikish, charchash mumkin, faqat kishi muloqotdan, ayniqsa uning norasmiy, samimiy, bevosita shaklidan charchamaydi, yaxshi suhbatdoshlar doimo ma’naviy jihatdan rag'batlantiriladilar.

Turli kasb-faoliyat sohasida ishlayotgan kishilar guruhining ko'payishi, ular o'rtasida munosabatlar va aloqaning dolzarbligi axborotlar tig'iz sharoitda oddiygina muloqotni emas, balki professional, bilimdonlik asosidagi muloqotni talab qiladi.

Oxirgi paytlarda shunday kasb-hunarlar soni ortdiki, ular sotsionomik guruh kasblar deb atalib, ularda «odam-odam» dialogi faoiiyatning samarasini belgilaydi. Jumladan, pedagogik faoliyat, boshqaruv tizimi, turli xil xizmatlar, marketing va boshqalar.

D.Karnegi odamlarga muloqot orqali ta’sir qilishning quyidagi usullarini ishlab chiqqan. Biz ushbu muloqot orqali ta’sir etish usulini pedagogik jarayonda o’quvchi shaxsiga ta’sir etish texnologiyasi sifatida modifikatsiyaladik. Bu texnologiyaga ko’ra o’quvchi shaxsiga muloqot orqali ta’sir etish texnologiyasi quyidagicha:

1. O’quvchilar ismini to'liq aytib murojaat qiling. Odamning ismi uning uchun eng qadrlidir. Masalan, «oy, jon, bek, xon» qo'shimchalarini qo'shib aytish hamda to’g’ri va yoqimli talaffuz qilish.

2. O’quvchilarga samimiy qiziqish bilan munosabatda bo'lish. Masalan, o’quvchining oilaviy sharoitini o'rganish, kayfiyatini bilish, uning xobbisi (qiziqishi) nimaligini o'rganish.

3. O’quvchilarni qiziqish bilan tinglash. Biz 55% so'zlab, 45% tinglaymiz. Demak, tinglash qobiliyatini o'zimizda shakllantirishimiz zarur ekan.

4. O’quvchilarga o'zlari haqida so'zlashga imkon bering. Chunki har bir kishining o'z dardi, muammolari bor, sizga ko'nglidagini aytsa ancha yengil tortadi. Shuningdek yaxshi madaniyat bilan tilglash tomonlarni bir-biriga ruhan yaqinlashtiradi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

5. Suhbatni savol berishdan boshlang. Chunki o'quvchingizni muloqotga chorlagan bo'lasiz.

6. O'z muammoingizni aytayotganingizda his qilingki, suhbatdoshingizning ham o'ziga yarasha muammolari bor. Atrofdagilar sizdan bezib qolmasin. Pedagogik suhbat cho'zilib ketmasin.

7. O'quvchilarga bilan do'stona murojaat qiling, noverbal muloqot (imo-ishora, kulgu, yuz mimikasi, ko'z ishorasi, tanaffus qilish, ovoz ohangi kabi) usullaridan o'z o'rnida foydalaning.

8. O'quvchiga tanbeh berishdan avval uni maqtang va "pedagogik padxot" usulidan foydalaning.

Ushbu shaxsga ta'sir etishning psixologik tizimi nafaqat ta'lim tizimida balki kishilarning barcha munosabatlarida ijobiy ta'sir kuchiga egadir. L.A. Karpenko ham muloqotning shaxsga ta'sir etish imkoniyatlarini quyidagicha izohlaydi.

— suhbatdoshni aloqaga kirishish uchun tayyorlash va ta'sir ko'rsatish;

— suhbatdosh bilan muayyan ma'lumotlar, fikrlar va rejalarni almashishga davat etish;

— suhbatdoshni biror harakatni bajarishga stimullashtirish (rag'batlantirish);

—suhbatdosh bilan hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish va uni amalga oshirishdagi harakatlarni muvofiqlashtirish;

— suhbatdoshning fikrlari va hissiyotlarini tushunish;

— suhbatdoshda muayyan hissiyotlarni uyg'otish hamda ularni o'zgartirish;

— munosabatlar tizimidagi shaxsiy o'rinni, mavqeni aniqlash;

— suhbatdoshning xulq-atvori, shaxsiy xususiyatlari, maqsadlarini o'zgartirish.

Odamlar muloqot jarayonida so`zlardan tashqari, ya'ni verbal vositalardan tashqari turli xil harakatlardan, qiliqlardan holatlardan, kulgu, ohanglar va boshqalardan ham foydalanadilar. Qiliqlar, mimika, ohanglar, to`xtashlar (pauza), hissiy holatlar, kulgu, yig`i, ko`z qarashlar, yuz ifodalari va boshqalar o`zaro muloqotning nutqsiz vositalari bo`lib, ular muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, uni to`ldiradi, ba'zan esa nutqli muloqotning o`rnini bosadi, bunday vositalarni noverbal vositalar deyiladi. Buyuk rus yozuvchisi L.Tolstoy odamlarda 97 xil kulgu turi hamda 85 xil ko`z qarashlari turi borligini kuzatgan. G.M. Andreevaning yozishicha, odam yuz ifodalari, nigohlarning 2000 ga yaqin ko`rinishlari bor. Ayniqsa, birinchi bor uchrashganda ko`zlar to`qnashuvi, nigohlarning roli keyingi muloqotning taqdiriga kuchli ta'sir ko`rsatishi maxsus tadqiqotlar jarayonida o`rganilgan. Bularning barchasi muloqotning hissiy tomondan boy, mazmundor bo`lishini ta'minlab, odamlarning bir-birlarini tushunishlariga yordam beradi. Muloqotning noverbal vositalarining milliy hamda xududiy xususiyatlari borligini ham alohida ta'kidlab o`tmoq lozim. Masalan, o`zbek xalqining muloqot jarayoni boy, o`zaro munosabatlarining bevosita xarakteri unda shunday vositalarning ko`proq ishlatilishi bilan bog`liq. Bolalarning o`z yig`isi bilan onasiga o`z his-kechinmalari hamda xohishlarini bildirishlari ham bolalarning yosh xususiyatlariga bog`liq. Boshqa millatlar madaniyatiga nazar tashlanadigan bo`lsa, ularda ham ba'zi bir muloqot vositalarining turli millatlarda turli

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

maqsadlarda ishlatilishining guvohi bo`lish mumkin. Bolgarlar agar biron narsa bo`yicha fikrni tasdiqlamoqchi bo`lishsa, boshlarini u yoq-bu yoqqa chayqashar, inkor qilishmoqchi bo`lsa, aksincha, bosh siltashar ekan. Ma'lumki, o`zbeklar, ruslar va bir qator boshqa millatlarda buning aksidir.

Demak ko'rinib turibdiki muloqotning ta'siri shaxsga nisbatan keng ko'lamli psixik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Umaman olganda muloqot insonning ehtiyojlari ichida eng yirik va muhim ehtiyoj sifatida namoyon bo'lar ekan, xech bir inson uzoq vaqt muloqotsiz yashay olmaydi va uning hayoti ham mazmun kasb etmaydi. Agar muloqot jarayonida ishtirok etuvchi ikki jarayon - gapirish va tinglashning faol o'zaro ta'sir uchun teng ahamiyatini nazarda tutsak, bu jarayon qatnashchilarining psixologik savodxonligi va muloqot texnikasini egallashining ahamiyatini anglash qiyin bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. M.Maqsudova. "Muloqot psixologiyasi". "Turon-iqbol". Toshkent. 2006-yil.
2. E. G'oziyev. "Muomala psixologiyasi". Toshkent 2001-yil.
3. V. Karimova. F. Akramova. Psixologiya. (ma'ruzalar matni) T. 2000-yil.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Mahkamova Mastura Bahrom qizi**, o'qituvchi, [**Махкамова, Мастура Бахромжон кизи,** преподаватель], [**Mastura B. Mahkamova**, teacher]; manzil: Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri, Turkiston ko'chasi, 28-A uy [адрес: Ферганская область, город Кохан, улица Туркестан, дом 28-А], [address: Fergana region, Kokhan city, Turkistan street, house 28-A] E mail: mastura@mail.ru

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original peper

TOLERANTLIKNING TARIXIY ILDIZLARI VA NAZARIY ASOSLARINING PSIXOLOGIK TAMOYILLARI

© M.D. Sattorova[1]✉
[1]Termiz davlat unversiteti,Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: tolerantlik tushuncha sifatida insonlarning boshqalarga nisbatan munosabati va xulq-atvorini shakllantiradigan tarixiy va psixologik tamoyillarda chuqur ildiz otgan. Tolerantlikning tarixiy ildizlari va nazariy asoslarini tushunish ijtimoiy hamjihatlikni, xilma-xillikni hurmat qilishni va tinch-totuv yashashni rag‘batlantirish uchun zarurdir. Ushbu maqola bag'rikenglik asosidagi psixologik tamoyillarni o'rganadi, uning tarixiy evolyutsiyasi va nazariy asoslarini izlaydi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi bag'rikenglikning psixologik tamoyillarini o'rganish, uning tarixiy ildizlari va nazariy asoslariga e'tibor qaratishdir. Tadqiqot bag'rikenglikka hissa qo'shadigan kognitiv, hissiy va ijtimoiy omillarni ochib berishga va bu tamoyillarni shaxslar va jamiyatlarda qanday tarbiyalash va targ'ib qilish mumkinligi haqida tushuncha berishga harakat qiladi.

MATERIALLAR VA USULLAR: tadqiqot tarixiy tadqiqotlar, psixologik nazariyalar va sotsiologik nuqtai nazarlarga asoslangan multidisipliner yondashuvdan foydalanadi. Materiallarga tarixiy matnlar, empatiya va altruizm bo'yicha psixologik tadqiqotlar, guruhlararo munosabatlarning sotsiologik tahlillari kiradi. Usullar keng qamrovli adabiyotlarni ko'rib chiqishni va bag'rikenglik va uning psixologik asoslari bilan bog'liq asosiy tushunchalar va nazariyalarni sintez qilishni o'z ichiga oladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar bag'rikenglik kognitiv, hissiy va ijtimoiy omillarning murakkab o'zaro ta'siridan dalolat beradi. Perspektivni qabul qilish, empatiya va kognitiv moslashuvchanlik kabi kognitiv jarayonlar odamlarga turli nuqtai nazarlarni tushunish va hurmat qilish imkonini berish orqali bag'rikenglikni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Hissiy omillar, jumladan empatiya, rahm-shafqat va hissiy tartibga solish boshqalarga nisbatan ijobiy munosabatni rivojlantirishga yordam beradi. Ijtimoiy omillar, masalan, sotsializatsiya, guruhlararo aloqa va madaniy me'yorlar ham shaxslarning bag'rikenglik darajasini shakllantiradi. Muhokama bag'rikenglikni targ'ib qilish va murosasizlik va noto'g'ri qarashlarni yumshatishda ta'lim, ommaviy axborot vositalari va shaxslararo munosabatlarning rolini ta'kidlaydi.

XULOSA: tadqiqot shuni ko'rsatadiki, bag'rikenglik turli xil psixologik tamoyillar ta'sirida bo'lgan ko'p qirrali konstruktsiyadir. Bag'rikenglikning tarixiy ildizlari va nazariy asoslarini tushunish orqali shaxslar va jamiyatlar yanada bag'rikeng va inklyuziv dunyoni

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

rivojlantirishga harakat qilishlari mumkin. Topilmalar shuni ko'rsatadiki, bag'rikenglikni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar empatiyani rivojlantirishga, ijobiy guruhlararo o'zaro munosabatlarni rivojlantirishga va salbiy stereotiplar va noto'g'ri qarashlarga qarshi turishga qaratilgan. Kelajakdagi tadqiqotlar bag'rikenglik asosidagi psixologik mexanizmlarni o'rganishni davom ettirishi va turli jamiyatlarda bag'rikenglikni targ'ib qilishning samarali strategiyalarini ishlab chiqishi kerak.

Kalit so‘zlar: tarix, etnopsixologiya, sotsial tolerantlik, o’spirin, rivojlanish

Iqtibos uchun: Sattorova M.D. Tolerantlikning tarixiy ildizlari va nazariy asoslarining psixologik tamoyillari. // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 452–460.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ИСТОРИЧЕСКИХ КОРНЕЙ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ТОЛЕРАНТНОСТИ

© М.Сатторова[1]✉

[1]Термезский государственный университет, Термез, Узбекистан.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: толерантность как концепция глубоко укоренена в исторических и психологических принципах, которые формируют отношение и поведение людей по отношению к другим. Понимание исторических корней и теоретических основ толерантности имеет важное значение для содействия социальной сплоченности, уважения разнообразия и мирного сосуществования. В этой статье исследуются психологические принципы, лежащие в основе толерантности, прослеживается ее историческая эволюция и теоретические основы.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является рассмотрение психологических принципов толерантности, уделяя особое внимание ее историческим корням и теоретическим основам. Исследование направлено на выяснение когнитивных, эмоциональных и социальных факторов, которые способствуют толерантности, а также на то, как эти принципы можно развивать и продвигать в отдельных людях и обществах.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании используется междисциплинарный подход, опирающийся на исторические исследования, психологические теории и социологические перспективы. Материалы включают исторические тексты, психологические исследования эмпатии и альтруизма, а также социологический анализ межгрупповых отношений. Методы включают всесторонний обзор литературы и синтез ключевых концепций и теорий, связанных с толерантностью и ее психологическими основами.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показывают, что на толерантность влияет сложное взаимодействие когнитивных, эмоциональных и социальных факторов. Когнитивные процессы, такие как восприятие перспективы, эмпатия и когнитивная гибкость, играют решающую роль в развитии толерантности, позволяя людям понимать и уважать различные точки зрения.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Эмоциональные факторы, в том числе сочувствие, сострадание и эмоциональное регулирование, способствуют развитию позитивного отношения к другим. Социальные факторы, такие как социализация, межгрупповые контакты и культурные нормы, также формируют уровень толерантности людей. Дискуссия подчеркивает роль образования, средств массовой информации и межличностных отношений в поощрении толерантности и смягчении нетерпимости и предрассудков.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в исследовании делается вывод, что толерантность — это многогранная конструкция, находящаяся под влиянием различных психологических принципов. Понимая исторические корни и теоретические основы толерантности, отдельные люди и общества могут работать над созданием более толерантного и инклюзивного мира. Результаты показывают, что вмешательства, направленные на поощрение толерантности, должны быть направлены на развитие эмпатии, содействие позитивному межгрупповому взаимодействию и борьбу с негативными стереотипами и предубеждениями. Будущие исследования должны продолжить изучение психологических механизмов, лежащих в основе толерантности, и разработать эффективные стратегии по поощрению толерантности в различных обществах.

Ключевые слова: подростковый возраст, психическое здоровье, психические расстройства, параноик, шизоид, невротик, депрессия, тревога, анорексия, булимия.

Для цитаты: Сатторова М.Д. Психологические основы исторических корней и теоретические основы толерантности. // Inter education & global study. 2024. №4(2). В. 452–460.

PSYCHOLOGICAL PRINCIPLES OF HISTORICAL ROOTS AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF TOLERANCE

© Mahliyo D.Sattorova[1]✉

[1]Termiz State University, Termiz, Uzbekistan.

Annotation

INTRODUCTION: tolerance, as a concept, is deeply rooted in historical and psychological principles that shape individuals' attitudes and behaviors towards others. Understanding the historical roots and theoretical foundations of tolerance is essential for promoting social cohesion, respect for diversity, and peaceful coexistence. This article explores the psychological principles underlying tolerance, tracing its historical evolution and theoretical underpinnings.

AIM: the aim of this study is to examine the psychological principles of tolerance, focusing on its historical roots and theoretical foundations. The study seeks to elucidate the cognitive, emotional, and social factors that contribute to tolerance, and to provide

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

insights into how these principles can be nurtured and promoted in individuals and societies.

MATERIALS AND METHODS: the study employs a multidisciplinary approach, drawing on historical research, psychological theories, and sociological perspectives. Materials include historical texts, psychological studies on empathy and altruism, and sociological analyses of intergroup relations. Methods involve a comprehensive literature review and synthesis of key concepts and theories related to tolerance and its psychological foundations.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings indicate that tolerance is influenced by a complex interplay of cognitive, emotional, and social factors. Cognitive processes such as perspective-taking, empathy, and cognitive flexibility play a crucial role in fostering tolerance by enabling individuals to understand and respect diverse viewpoints. Emotional factors, including empathy, compassion, and emotional regulation, contribute to the development of positive attitudes towards others. Social factors, such as socialization, intergroup contact, and cultural norms, also shape individuals' tolerance levels. The discussion highlights the role of education, media, and interpersonal relationships in promoting tolerance and mitigating intolerance and prejudice.

CONCLUSION: the study concludes that tolerance is a multifaceted construct influenced by various psychological principles. By understanding the historical roots and theoretical foundations of tolerance, individuals and societies can work towards fostering a more tolerant and inclusive world. The findings suggest that interventions aimed at promoting tolerance should focus on developing empathy, fostering positive intergroup interactions, and challenging negative stereotypes and biases. Future research should continue to explore the psychological mechanisms underlying tolerance and develop effective strategies for promoting tolerance in diverse societies.

Keywords: history, ethnopsychology, social tolerance, adolescent, development.

For citation: Mahliyo D. Sattorova. (2024) ‘Psychological principles of the historical roots and theoretical foundations of tolerance’, Inter education & global study, (4(2)), pp. 452–460. (In Uzbek).

O‘spirinlarda sotsial tolerantlik xususiyarlari, dastlab oilada, keyinchalik esa maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktab, litsey, oliy ta’lim muassasalarida shakllanadi va rivojlanadi. Shaxs hayoti davomida o‘zi yashab turgan jamiyatdagi turli shaxslar, guruhlar, millat vakillari, ularning madaniyati, e’tiqodlari bilan to‘qnashadi, ulardagi rang-baranlikning barchasi hurmat qilinishga loyiqligini chuqur idrok etib, avvalo, o‘z vatani, xalqi, uning tili, dini, urf-odatlari, madaniy o‘ziga xosligini anglaydi. Ana shundagina u boshqa insonlar, xalqlar, millatlar, dinlar, madaniyatlarga munosib baho berish, ularni hurmat qilish va qadrlashga imkon bo‘ladi.

Bizning nazarinizda o‘spirinlar sotsial tolerantligini rivojlantirishdagi muhim jihat shundan iboratki, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, o‘zaro munosabatlari doirasini yanada kengaytirish, ijtimoiy jarayonlardagi xilma-xillik va farqlar muqarrarligini qabul qila

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

olish asosida o‘zga kishilar va boshqa guruh a’zolari bilan o‘zaro munosabatga kirishishda muloqot samaradorligini oshirishga e’tibor qaratish lozim.

Tolerantlik bugun paydo bo‘lgan tushuncha emas. Bu fazilat asrlar davomida xalqimizning qon-qoniga singib ketgan. Tolerantlik chuqur tarixiy ildizlarga ega. Masalan, Buyuk Ipak yo‘lidagi mamlakatlar hayotini yoki Temuriylar davrini olsak, mahobatli imoratlar qurilishida turli millat va elat vakillari qatnashganligi tarix kitoblaridan yaxshi ma’lum.

Hozirgi kunda ham tolerantlikni saqlab qolish va mustahkamlash davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishiga aylanib, barcha millat va elatlarning tili, madaniyati, urf-odat va an’analarini saqlash hamda rivojlantirish uchun qonuniy sharoitlar yaratilgan. Bugun mamlakatimizda turli millatlar o‘rtasida o‘zaro mehr-oqibatni yanada mustahkamlash diqqat markazida bo‘lib kelmoqda.

O‘spirinlar ongiga sotsial tolerantlik g‘oyalarini singdirishda oila va ta’lim muassasasidagi ijtimoiy muhit alohida ahamiyatga ega bo‘lib, uning ta’sirida egallangan ijtimoiy tajribalar mustahkamlanadi. Shuningdek, ta’lim tizimi bosqichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tufayli tarbiya jarayonida tadrijiylik ta’minlanadi. Ta’lim tizimi yoshlarda milliy g‘urur, vatanga muhabbat, millatparvarlik tuyg‘ularini qaror toptirish barobarida ulardagi har qanday millatchilik tuyg‘ularini, o‘z millati, dinining boshqalarnikidan ustunligi kabilar yuzaga kelishining oldini olishga xizmat qilali. Bu kabi tuyg‘ularning yoshlarda yuzaga kelishi, millatlar o‘rtasida nizolarga, diniy to‘qnashuvlarga olib kelishi mumkin. Demak, ta’lim muassasalarining muhim vazifalaridan biri – yoshlarda sotsial tolerantlik tuyg‘usini qaror toptirishdan iborat bo‘lishi lozim. Zero, kelajakda insoniyatni birlashtiradigan axloqiy an’analarni saqlash, tinchlik, o‘zaro hurmat tamoyillarini targ‘ib qilish kabi sohalar mavjudligi shubhasizdir. [8; 219-221]

O‘zaro tushunishga erishish, yoshi, jinsi, ijtimoiy mavqeyi, kasbi, ijtimoiy kelib chiqishi, dini, millati, sog‘ligi va boshqalardan qat’iy nazar insonni qadrlash, g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, yordam berish, shaxs sifatida yondoshish, hayotni va odamlarni sevish, o‘zini hamda o‘zaro munosabatlarni qadrlash kabilarni sotsial tolerantlikka dahldor tushunchalar sifatida qarash mumkin. Tolerantlik tarixiy ildizga ega tushuncha bo‘lib, turli davlat, millat va elatlarda o‘ziga xos talqin etiladi. Turli madaniyat an’analarida tolerantlik turlicha talqin etilishi ko‘rishimiz mumkin.

Shu bilan birga, integratsiya va globallashuv sharoitida tolerantlik ongini va tolerantlikka xos fazilatlarni rivojlantirish borasida muhim qarorlar qabul qilish bilan birga samarali tadqiqot usullarini yaratish, asosiy nazariy qoidalarga asoslangan sotsial tolerantlikni o‘rganish uchun umumiy bo‘lgan yo‘nalishlarni belgilab olishni talab etadi. Keyinchalik, tolerantlik muammosini o‘rganishning nazariy va empirik jihatlarining rivojlanish dinamikasini tahlil qilamiz.

Mamlakatimiz prezidenti Sh.Mirziyoyev 2022 yil dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Parlamentiga Murojaatnomasida kirib kelayotgan 2023-yilni «Insonni ulug‘lash va sifatli ta’lim» yili deb e’lon qilinishi, shuningdek, murojaatnomada «Millati, tili va dinidan qat’iy nazar, O‘zbekistonni o‘zining Vatani deb biladigan, uning ravnaqi uchun

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

hissa qo‘shib kelayotgan har bir fuqaro bundan buyon ham davlatimiz va jamiyatimizning e’tibori va ardoqida bo‘ladi» deb bildirgan fikrlari davlatimizda tolerantlik siyosati bugun har qachongidan ham aktuallashganligini ko‘rsatib turibdi.[7;3-4]

28.01.2022 yildagi PF 60-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» Farmonidagi 70-maqsad: «Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish. Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, sotsial tolerantlik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash»; 74-maqsad: «Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo sotsial tolerantlik muhitini mustahkamlash». Turli millat yoshlari uchun qo‘shimcha qulay shart-sharoitlar yaratish, ularda fuqarolik burchini anglash, vatanparvarlik, sotsial tolerantlikka asoslangan millatlararo muomala madaniyatini yuksaltirish kabilar belgilab qo‘yilgan.[2;4;1-2]

Insonparvarlik g‘oyasining butun dunyoda hukm surayotganligini inson, uning hayoti hamma narsadan ustun ekanligi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar inson jamiyatning gultoji ekanligi bilan izohlash mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Rezolyutsiya 217 A (III) bilan 1948 yil 10 dekabrda qabul va e’lon qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 1-moddasida – «...hamma odamlar o‘z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo‘lib tug‘iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo‘lishlari kerak»ligi belgilab qo‘yilgan. [3;80]

O‘zbekiston Respubdikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida «O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar» deb belgilab qo‘yilganligi ham jamiyatning xar bir a’zosidan insonlarni sevish, qadrlash, hamxo‘rlik ko‘rsatishi, ularga ijobiy munosabatda bo‘lishlari kerakligini vazifa sifatida yuklaydi. [1;100]

2017 yilda O‘zbekiston tarixida yangicha taraqqiyot va rivojlanishi bosqichni boshlanganligini alohida e’tirof etish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ushbu yilni «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» deb nomlanishi bejiz emas, «2017-2021 yillarda O‘zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi»da ko‘rsatilgan vazifalar mamlakatimizda inson hayoti va manfaatlarining chuqur himoyalanishini namoyon etdi.

Harakatlar strategiyasining beshinchi ustuvor yo‘nalishida xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy tolerantlikni ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar 5.1. Xavfsizlik, diniy tolerantlik va millatlararo totuvlikni ta’minlash sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar: O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish; axborot xavfsizligini ta’minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o‘z vaqtida va munosib qarshilik ko‘rsatish; fuqarolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash; davlatning

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O‘zbekiston Respublikasi qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiatini oshirish; atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarni oldini olish; favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish kabilar belgilangan bo‘lib, bularning barchasida eng avvalo inson, uning tinchligi, salomatligi, porloq istiqboli nazarda tutilganligi bugungi kunda sotsial tolerantlikning, ayniqsa uning endi mustaqil hayotga qadam qo‘yayotgan o‘spirin yigit-qizlarda shakllantirish va rivojlantirish naqadar ahamiyatli ekanligini ko‘rsatmoqda[5].

Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan tolerantlik muammolarini o‘rganishga yondashuvlarning qiyosiy tahlili muammoning umumiyligiga qaramay, alohida nazariyalar bo‘yicha tolerantlikning keng tahlil qilinmaganligini, asosan milliy, diniy xususiyatlarga ega bo‘lgan mahalliy tadqiqot yo‘nalishlarining ustunligini ko‘rsatadi.

«Tolerantlik» so‘zining lug‘aviy ma’nosi, lotincha «sabr-bardosh», «chidamlilik» sinonim sifatida sotsial bag‘rikenglik tolerantlik bilan bitta ma’noni anglatadi. O‘zbekchada tolerantlik, inson qalbining kengligi, buyukligi deb qaralib, turli millatlarning milliy urf odatlari, milliy madaniyati va diniy e’tiqodlari birligi aks etadi.

«Tolerantlik» – o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvatli, g‘amxo‘r, saxiy, keng fe’lli bo‘lgan, ana shunday ma’naviy fazilatlarga ega kishilarni ifodalovchi, alohida kishilar dunyoqarashi, diniy e’tiqodi, milliy xususiyatlari, an’ana, urf-odat va marosimlariga hurmatda bo‘lish, o‘zaro munosabatlarda tahqirlash kabilarga yo‘l qo‘ymaslik, insoniylik sifatlarini barcha narsalardan ustun qo‘yib, oilada, jamoada, ish joylarida mazkur qoidalarga amal qilishni anglatadi. Tolerantlik masalasi keng o‘rganilishiga qaramasdan, ilmiy kategoriya va hodisa sifatida hozirgacha uning aniq nazariy qoidalari, tamoyillari va asoslari ishlab chiqilmagan. Mahalliy va xorijiy olimlarining tolerantlik bo‘yicha tadqiqotlari muammoning asl mohiyatini ochish uchun yetarli emas, xususan, sotsial tolerantlik, uning o‘spirinlarda shakllanishi mezonlari kam o‘rganilgan.

Xorij olimlari faylasuflarning asarlari jamiyatdagi inson xulq-atvorining axloqiy tomonini tavsiflovchi tolerantlik muammosini rivojlantirish uchun asos yaratdi. Faylasuflar tomonidan, vijdon erkinligi g‘oyalarini rivojlantirish Yevropa davlatlarida diniy tafovutlar tufayli XVI-XVII-asrlarda boshlangan ko‘p yillik urushlar natijasida boshlangan.

Markaziy Osiyo va yaqin sharq xalqlarida tolerantlik tarbiyasi uzoq tarixga ega bo‘lib, ota-bobolarimiz farzandlariga juda yoshlikdan boshlab boshqa din va millatlarning vakillariga nisbatan sabr-bardoshli, o‘zga xalqlarning madaniyati, tili, urf-odatlarini hurmat qilish kabi fazilatlarni singdirganlar. Shu bilan birga, tolerantlik tarbiyasini kelgusi avlodlarga ham targ‘ib qilganlar.

Yakka xudolikni targ‘ib qiluvchi «Avesto»da tolerantlik targ‘ibotiga katta o‘rin berilgan. Avesto ajdodlarimizning uzoq tarxi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniyati, ma’naviyati, axloqiy, falsafiy, huquqiy, etnik qarashlarining qaror topishi va rivojlanishiga xos tarixini o‘rganish uchun bebaho yozma manbadir. «Avesto»dagi axloqiy tarbiyaning asosini terisining rangi, tili va yashash manzilidan qat’iy nazar pok niyat, halol, qalban sof insonlarni tarbiyalash masalasi tashkil etadi. «Pok va beayb tutilmoq, yoziqsiz dunyoga

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

qadam qo‘ymoq odamlar taqdiri va tirikligida nechogli ulug‘ toledir. Odamning odobliligi, jahonning osoyishtaligi uchun jiddu jahd qilmoq, uni asramoq va yorug‘likka tomon eltmoq kerak» deyilishi fikrimizning dalilidir. Ya’ni, inson zardushtiylar nazdida hech qanday aybsiz tug‘iladi va har qanday irqqa mansub kishilar iloh oldida mutlaqo barobardirlar. [5]

Tolerantlik barcha xalqlarga xos umumiy ijtimoiy-psixologik xodisa bo‘lsada, turli mamlakatlarda o‘ziga xos mazmunga egaligi bilan xarakterlanadi.

Tolerantlik tushunchasining turli madaniyatlardagi talqini

1-jadval

Tili va yozilishi	Talqini
Ispan tilida(tolerancia)	O‘zinikidan boshqa g‘oyaalar yoki fikrlarni tan olish qobiliyati
Frantsuz tilida (tolerance)	Boshqalarga o‘zidan boshqacha fikr yuritish yoki harakat qilish imkonini beradigan munosabat
Ingliz tilida (tolerance)	Bardoshli bo‘lishga tayyorlik, odamni yoki narsani noroziliksiz qabul qilish qobiliyati
Xitoy tilida (kuan rong)	Boshqalarga erkinlik berish, qabul qilish, saxiy b o‘lish
Arab tilida (tasamul’)	Kechirimlilik, muloyimlik, yumshoqlik, rahm-shafqat, g g‘amxo‘rlik, marhamatlilik, sabr-toqat, muloqotga nisbatan moyillik
Rus tilida (terpimost)	Biror narsaga yoki kimgadir chidash, o‘zini tutib tura olish, chidash, qat’iyatlilik, biror narsaning, kimningdir mavjudligiga chidash, o‘zgalar fikri bilan hisoblashish, kamsitmaslik.
O‘zbek tilida (tolerantlik)	Tolerantlik – hech kimni ayblamaslik, boshqalardan past ko‘rmaslik, xafa qilmaslik, doimo kechirimli bo‘lish, boshqa insonlarning ishonch va qarashlari, e’tiqodlarini hurmat qilish, xushfe’llik bilan qabul qilish.

Sotsial tolerantlik — jamiyatning turli din va madaniyatlari o‘zini namoyon etishi, alohidaligini ko‘rsatishning turli xil ko‘rinishlariga e’tiborli bo‘lish, ularni hurmat qilish, e’tirof etish va ijobiy munosabatni anglatdi. Sotsial tolerantlikni kishidagi bilim, samimiylik, ochiq chehralik, hamkorlik, e’tiborlilik, empatiya, altruizm kabi hislar yuzaga keltiradi. Tolerantlik xilma xillikdagi umumiylik hisoblanib, ushbu xususiyat shaxs uchun siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamda ma’naviy burch, shuningdek, inson huquqularini himoya qilish, demokratiya va huquqning ustuvorligini ta’minlash majburiyatidir. Sotsial tolerantlik aqidaparastlikdan, voqeylikni mutloqlashtirishdan holi bo‘lishni anglatib, inson huquqlari borasida xalqaro-huquqiy hujjatlarda e’tirof etilgan qoidalarni tasdiqlovchi tushuncha hamdir.

Sotsial tolerantlik yon berish, andisha yoki xushomad bo‘lmasdan eng avvalo insonning universal huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllangan faol munosabat bo‘lib, har qanday holatlarda ham asosiy qadriyatlarga tajovuzlarning bahonasi bo‘lib xizmat qilmaydi. Shu sababli uni barcha shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim. [6; 141-142]

Tolerantlikning ildizi qadimgi tarixga borib taqaladi. Inson yaratilgan davridan boshlab zamonaviy davrga qadar sotsial tolerantlik tushunchalari mavjudligini xulosalarimizda shakllantirish imkonini berdi. Shaxsda tolerantlik dastlab oilada shakllanib, keyinchalik, maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktab, litsey, oliy o‘quv yurtlarida rivojlanadi. Inson hayotning rang barangligi, odamlar, guruhlarning turlicha ekanligi va ularning hammasi hurmat qilinishga loyiqligini idrok etishi va uni qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilishi yuksak madaniyat va ma’naviyatining ko‘rsatkichi hisoblanadi

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida
2. Mirziyoyev Sh.M O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlis va O’zbekiston xalqiga Murojaatnomasi (2022 yil 20 dekabr)
3. Mirziyoyev Sh.M O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi. 2017 Ma’rifat gazetasi 2017 yil 20 sentabr №75 (9036)-1-2b. yili
4. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid,barqarorlik shartari va taraqqiyot kafolatlari.-Toshkent . ”O‘zbekiston”,1997. – 141-142 b.
5. Абдуллаева Ш.А. Организасия работи по воспитанию толерантности в средних обшеобразовательних школах. Современное образование. 2017. №2
6. Agzamxodjayev S.S, Rahimjonov D.O, Muhamedov N.A, Najmiddinov J.X. Dinyo dinlari tarixi.TDSHI.Toshkent.2011.– 227 b.
7. Асмолова А.Г.На пути к толерантному сознания .Москва, Смисл, 2000. – 255 б.
8. Ата-Мирзаэв О, Каюмов О. Мулйинатионал Узбекистан: (Ресултс оф сосиологис ресеарч) .Ижтимоий фикр.Инсон ҳуқуқлари. - 2008. - 66-74 б.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Sattorova Maxliyo Dilmurod qizi**, katta o‘qituvchi, PhD [**Махлиё Дилмурод Сатторова,** старший преподаватель, PhD], [**Sattorova Makhliyo Dilmurod kizi,** Senior Lecturer, PhD]; manzil: 190111, O'zbekiston, Surxandaryo viloyati, Shahar: Termiz, Barkamol Avlod ko'chasi (sobiq F.Xo'jayev), 43 [адрес: 190111, Узбекистан, Сурхандарьинская область, Город: Термез, улица Баркамола Авлода (бывш. Ф.Ходжаева), 43], [address: 190111, Uzbekistan, Surkhandarya region, City: Termiz, Barkamol Avlod street (former F. Khojayev), 43]; e-mail: sattorovamahliyo@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Original paper

RAHBAR FAOLIYATIDA QAROR QABUL QILISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI

© S.S. Teshaev[1]✉

[1]Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: qaror qabul qilish - bu tashkilot muvaffaqiyati va xodimlarning qoniqishiga chuqur ta'sir ko'rsatadigan etakchilikning muhim jihati. Etakchilik faoliyatida qaror qabul qilishga asos bo'lgan ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni tushunish samarali liderlarni rivojlantirish uchun zarurdir. Ushbu maqola etakchilikda qaror qabul qilish jarayonlariga ta'sir qiluvchi asosiy ijtimoiy-psixologik omillarni ko'rib chiqadi va bu omillarni etakchilik samaradorligini oshirish uchun qanday boshqarish mumkinligi haqida tushuncha berishga qaratilgan.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi etakchilik faoliyatida qaror qabul qilishga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni aniqlash va tahlil qilishdir. Tadqiqot ushbu omillar liderlarning tanlovi va harakatlariga qanday ta'sir qilishini tushunishga va etakchilik kontekstida qaror qabul qilish amaliyotini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berishga harakat qiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot turli sohalar rahbarlari bilan miqdoriy so'rovlar va sifatli intervyularni birlashtirgan aralash usullardan foydalanadi. Materiallarga etakchilikni baholash vositalari, psixologik profillash vositalari va qaror qabul qilish stsenariylari kiradi. Usullar ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni o'lchash uchun standartlashtirilgan so'rovnomalar va rahbarlarning qaror qabul qilish tajribasini o'rganish uchun chuqur suhbatlar o'tkazishni o'z ichiga oladi. Ma'lumotlar miqdoriy ma'lumotlar uchun statistik usullar va sifatli ma'lumotlar uchun tematik tahlil yordamida tahlil qilinadi.

XULOSA: tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar etakchilik faoliyatida qaror qabul qilish jarayonlarini sezilarli darajada shakllantiradi. Hissiy intellekt, kognitiv uslublar, xavf-xatarlarga tolerantlik va ijtimoiy ta'sir etakchilarning qarorlariga ta'sir qiluvchi asosiy omillardir.

Kalit so‘zlar: Menejer, intizom, pozitsiya, hissiyot, xususiyatlar, kompetensiya, boshqaruv qarori

Iqtibos uchun: Teshaev S.S. Rahbar faoliyatida qaror qabul qilishning ijtimoiy-psixologik hususiyatlari. // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 461–468.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ В ЛИДЕРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

© С.С.Тешаев[1]✉
[1]Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: принятие решений - важный аспект лидерства, который оказывает глубокое влияние на успех организации и удовлетворенность сотрудников. Понимание социально-психологических особенностей, лежащих в основе принятия решений в лидерской деятельности, необходимо для развития эффективных лидеров. В этой статье рассматриваются основные социально-психологические факторы, влияющие на процессы принятия решений в лидерстве, и делается попытка дать представление о том, как этими факторами можно управлять для повышения эффективности лидерства.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является выявление и анализ социально-психологических особенностей, влияющих на принятие решений в лидерской деятельности. В исследовании делается попытка понять, как эти факторы влияют на выбор и действия лидеров, и дать рекомендации по улучшению практики принятия решений в контексте лидерства.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании используются смешанные методы, сочетающие количественные опросы и качественные интервью с лидерами различных отраслей. Материалы включают инструменты оценки лидерства, инструменты психологического профилирования и сценарии принятия решений. Методы включают стандартизированные опросы для измерения социально-психологических характеристик и углубленные интервью для изучения опыта принятия решений лидерами. Данные анализируются с использованием статистических методов для количественных данных и тематического анализа для качественных данных.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исследование показывает, что социально-психологические особенности в значительной степени формируют процессы принятия решений в деятельности руководства. Эмоциональный интеллект, когнитивные стили, толерантность к риску и социальное влияние-ключевые факторы, влияющие на решения лидеров.

Ключевые слова: менеджер, дисциплина, позиция, эмоции, характеристики, компетентность, управленческое решение

Для цитирования: Тешайев С.С. Социально-психологические характеристики принятия решений в лидерской деятельности. // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 461–468.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DECISION MAKING IN LEADERSHIP ACTIVITIES

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

© Sabitjon S. Teshaev[1]✉
[1]Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi, Tashkent, Uzbekistan

Annotation:

INTRODUCTION: decision making is a critical aspect of leadership that has a profound impact on organizational success and employee satisfaction. Understanding the socio-psychological characteristics that underlie decision-making in leadership activities is essential to developing effective leaders. This article examines the key socio-psychological factors that influence decision-making processes in leadership and aims to provide insight into how these factors can be manipulated to improve leadership effectiveness.

AIM: the purpose of this study is to identify and analyze the socio-psychological characteristics that influence decision-making in leadership activities. The study attempts to understand how these factors influence the choices and actions of leaders and to provide recommendations for improving decision-making practices in leadership contexts.

MATERIALS AND METHODS: the study uses mixed methods combining quantitative surveys and qualitative interviews with executives from different industries. Materials include leadership assessment tools, psychological profiling tools, and decision-making scenarios. Methods include standardized questionnaires to measure socio-psychological characteristics and in-depth interviews to explore managers' decision-making experiences. Data will be analyzed using statistical methods for quantitative data and thematic analysis for qualitative data.

CONCLUSION: research shows that socio-psychological characteristics significantly shape decision-making processes in leadership activities. Emotional intelligence, cognitive styles, risk tolerance, and social influence are key factors influencing leaders' decisions.

Key words: manager, discipline, position, emotion, characteristics, competence, management decision

For citation: Sabitjon S.Teshaev. (2024) 'Socio-psychological characteristics of decision making in leadership activities', №4(2). pp. 461–468. (In Uzbek)

Bugungi globallashuv sharoitida zamonaviy rahbar samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularni ijrosini ta'minlovchi hodimlarni tanlay bilishi, o'z faoliyati sohasidagi muammoni yechishga tizimli ijtimoiy-psixologik jihatdan yondashishi, tanqidiy tahlil orqali barcha sohalarda amalga oshirilayotgan ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishi, boshqaruv samaradorligini oshirish, tug'ridan to'g'ri rahbar qabul qiladigna qarorlar va uning ijrosini ta'minlovchi jamoaga bog'liqligi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning "Har bir fuqaro qabul qilayotgan qarorlarimiz real foyda berayotganini sezishi kerak"[1] degan fikrlaridan, anglash mumkinki zamonaviy rahbar kadrlar boshqaruv qarorlari

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

samaradorligini baholashning zamonaviy usullarini bilishi, har bir qabul qilayotgan qarorlarni real foyda berayotganligini aniq misollar bilan ko‘rsata bera olishi, puxta o‘ylangan, har tomonlama to‘g‘ri qarorlar qabul qila oladigan, boshqaruv qarorlari samaradorligini baholash mezonlarini to‘g‘ri belgilash tajribasi va malakasiga ega bo‘lishi lozimligi bugungi kunning asosiy talablaridan biri ekanlligini qo‘rsatadi.

Bugungi sharoitda, qo‘yiladigan maqsad asosida boshqaruv samarodorligini oshirish va rahbar va hodim urtasidagi munosabatni boshqarishda qarorlar qabul qilish va boshqaruv qorolarining ijrosini ta’minlash va bunda hodimning imkoniyatlarni to‘g‘ri baxolash zarur bo‘ladi.

Turli sohalarda tizimli tahlil asosida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning metodologik asoslarini o‘rgangan olimlardan: A.P.Afanasev, B.Ye.Bolshakov, V.A.Volkonskiy, R.G.Grinberg, G.B.Kleyner, O.L.Kuznesov, P.G.Kuznesov, V.N.Livshis,, S.A.Panov, V.P.Pokusay, K.A.Stepanov; M.Alle, L.Valras, K.E.Izard, N.Kaldor, D.Kaneman, A.Marshall, V.Pareto, A.Tverskilar o‘ziga xos tarzda yondashuvlarni amalga oshirganlar. Shuningdek, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishga ta’sir etuvchi omillarni tadqiq etishgan

A.V.Karpovning takidlashicha, qaror qabul qilish jarayoni shaxsning ko‘p qirrali faoliyati hisoblanib, u ko‘proq ijtimoiy mavqe’ bilan belgilanadi. Shuningdek, ko‘p holatlarda faoliyatda qabul qilingan strategik qarorlar va amalga oshirishning istiqbollari, rahbarning bilim va ko‘nikmalari ish jarayoniga xos bo‘lgan muhim psixologik kompentensiyalari orqali baholanadi[2]. Demak, qaror qabul qilishning samaradorligini baholashda rahbarning faoliyat jarayonida qabul qilayotgan strategic va ijtimoiy qarorlariga, tashkiliy va innovatsion qobiliyatlariga rahbarning individual shaxsiy sifatlariga e’tibor qaratish lozim.

Qaror qabul qilish jarayoni ko‘proq ijtimoiy, siyosiy, huquqiy xarakterga ega bo‘lganligi bois, uni tushuntirishning zamonaviy konsepsiyalari va ilg‘or nazariyalari ijtimoiy psixalogiya sohasiga tegishli ko‘plab tadqiqotlarda ham uchraydi. Quyida zamonaviy ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda inson qaror qabul qilishining psixologik shart-sharoitlari, qaror qabul qilish samaradorligiga xizmat qiluvchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlar va o‘ziga hosliklar masalasiga to‘xtalib o‘tishga urinib ko‘ramiz. Rossiyalik olim, ijtimoiy psixologiya sohasida yetakchi mutaxassis sanalgan T.Y.Bazarovning yozishicha, qaror qabul qilish jarayoni murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sanalib, unda rahbar shaxsining barcha yutuq va kamchiliklari aniq namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, rahbar har bir imkoniyatlarni tanlash jarayoni uchun javobgar shaxsdir. Boshqaruv jarayoni qarorlarini qabul qilish jarayonida rahbarning o‘zini tutishi, noaniqlik sharoitlardagi say harakatlari, professional xusuxiyatlari, o‘z faoliyatiga bo‘lgan munosabati, kasbiy motivatsiya darajalari kabilar qay darajada rivojlanganligi o‘z aksini topadi[3]. Ushbu fikri bilan rahbar shaxsining qaror qabul qilishdagi o‘rnini qanchalik katta ekanligini takidlamoqchi. Yuqorida takidlaganimizdek qaror qabul qilishda rahbar shaxsining individual, professional xususiyatlari shuningdek, o‘zini tutishi, yuqori motivatsyasi, o‘z ishiga bo‘lgan muhabbati, kasbiy tajribasi katta rol o‘ynaydi. Rahbar

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

qabul qilgan qarorlar kelajakda toki muvaffaqiyatga yoki muvaffaqiyatsizlikka olib borishi bildirilgan fikrda keng yoritib berilgan.

Shuningdek qaror qabul qilishda qarorning ijrosi uchun ajratilgan vaqt birligini ham e'tiborga olish talab etiladi. Xar qanday qaror tahlil qilinganda uning tarkibida aniq maqsad, manfaat, vaqt va makon jihatlari o'z aksini topgan bo'ladi. Qarorlar tuzilishi va unda aks ettirilgan ma'lumotlar aniq tartibda joylashtirilgan bo'lishi lozim.

Misol tariqasida A.Xolovning o'zining "Boshqaruv qarorlarini qabul qilishning zamonaviy usullari va rahbar mas'uliyati" nomli monografisida ijtimoiy-huquqiy nuqtai-nazardan: Sud qarorlarining tuzilishini tahlil qilsak, ularning kirish qismida sud aktining nomi, qarori, qaysi organ tomonidan qabul qilinganligi, sud hay'ati tarkibi, ishning raqami, sana, manzil, ishning tarkibiga kiruvchi shaslarning ism sharifi kabi ma'lumotlar kiradi. Asosiy qismning tasnif etuvchi qismida ish haqida qisqa ma'lumot, ariza beruvchilarning maqsadi, ko'rib chiqilgan ishning natijasi kabi ma'lumotlar bayon etiladi. Asosiy qismning ikkinchi qismida qaror qabul qilishga asos bo'lgan motivlar, sud qabul qilgan qarorning asoslari kabi ma'lumotlar keltiriladi deb ifodalanadi[4].

Boshqaruv qarorlarining muhim ijtmoiy-psixologik xususiyati esa shundaki, ular favqulodda holat yuzaga kelganda, tizimning haqiqiy holati va kutilayotgan yangi holat o'rtasidagi farqlarni baholashga keng imkon beradi

V.V.Redkoga ko'ra, inson tomonidan qabul qilingan turli qarorlar quyidagi funksiyalarni bajaradi;

– Yo'naltiruvchi ya'ni, tashkiliy qarorlar faoliyatning maqsad va vazifalarini belgilaydi;

– Tashkil etuvchi va muvofiqlashtiruvchi, qarorlar ishtirokchilarning o'zaro munosabatlari tartibini belgilaydi;

– Ta'minlovchi, ya'ni qarorlarda ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslarning turlari va miqdori ko'rsatiladi.

– Rag'batlantiruvchi, ya'ni qarorlar ishtirokchilarni qanday mukofotlashni belgilovchi hodisa[5].

Bundan kelib chiqib boshqaruv qarorlarini ochib berishda psixologik jihatdan qarorning o'zi nima degan savolga oydinlik kiritish maqsadga muvofik bo'ladi.

Qaror - bu bajarilishi lozim bo'lgan ishning aniq bir yo'lini tanlab olishdir, u yoki bu yo'lni tanlab olishda bir to'xtamga yoki muayyan bir fikrga kelishdirQaror qabul qilish majburiyati qachon tug'iladi, qachonki mazkur holatning kelajakdagi bo'ladigan holat bilan mos tushmasligi ko'zga ko'rinsagina qaror qabul qilish majburiyati yuzaga keladi. Psixologik yondashuvlarga muvofiq, qaror qabul qilish bir tomondan kognitiv, kommunikativ xarakterga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, shaxsning biror bir sohadagi kelajakdagi bajariladigan harakatlari uchun asos bo'luvchi ijtimoiy-psixologik hodisa hisoblanadi.

A.I.Orlov o'zining "Boshqaruv qarorlarini qayta ishlash usullari va nazariyasi" monografiyasida shaxslar tomonidan qaror qabul qilishda qo'yiladigan xatolarni quyidagicha izohlaydi:

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

- Qaror tayyorlashda vaqtning cheklanganligi;
- Vazifaga oid ma’lumotning yetishmasligi;
- Muammoni aniqlashda tajribaning yetarli emasligi va boshqalar[6].

Darhaqiqat, qaror qabul qilishda har bir shaxsning ko‘rgan tayyorgarligiga emas, balki uning ish tajribasi yetarli ekanligiga ham katta e’tibor berish lozim. Agar qaror qabul qilayotgan rahbarning tajribasi va berilgan vazifaga oid bilimlari yetarli bo‘lsa berilgan qaror ishonchli va ishning samaradorligiga ta’sir kuchi yuqori bo‘ladi.

Bundan tashqari qarorlarning boshqaruv jarayonida samarali kechishiga yo‘lga qo‘yilgan ishlash tizimi va rahbarning tashabbuskorligi katta rol o‘ynaydi. V.I.Varfolomev hamda S.N.Vorobyovning so‘zlariga ko‘ra, agar kutilmagan qiyin vaziyatlarda ishlash tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, unda qaror qabul qilish oson kichadi, bunda shaxs faqat nazoratchi vazifasini bajaradi. Aksincha, tizim noto‘g‘ri ishlayotgan bo‘lsa, qaror qabul qilish qiyin kichadi va bu yerda insonning tashabbuskorligi ko‘proq ro‘l o‘ynaydi[7]. Mana shunday qiyin vaziyatlarda qaror qabul qilish jarayonida rahbarning tashabbuskorligi bundan tashqari psixologik holatini ko‘proq e’tiborga olish lozim. Chunki, kutilmagan vaziyatlarda ijtimoiy-psixologik holatlar, stressli jarayon vaqtlarida qarottr qabul qilish birmuncha qiyinlashadi. Bunday vaqtda ahbarning jarayonga qaratilgan diqqati tarqoq, shuningdek, vaziyatdan chiqishga bo‘lgan ehtiyoj ham sust bo‘ladi.

Hozirgi kunga kelib, qaror qabul qilishning zamonaviy yondashuvlari ishlab chiqilgan bo‘lib, unda jarayonga tegishli ko‘plab kognitiv uslublar va fikrlash tiplari o‘z aksini topgan. Masalan, tadqiqotchi K.M.Zakkarning so‘zlariga ko‘ra, sohalararo qarorlarni qabul qilish jarayoni quyidagi bosqichlarga ajratiladi:

1. Muammoli vaziyatni aniqlash va uni bartaraf etish;
2. Qaror qabul qilishning maqsadini aniqlash;
3. Muammoli vaziyat mazmunini tahlil qilish;
4. Eng muqobil varyantni yoki holatni tanlash;
5.Qabul qilingan qarorning bajarilishini nazorat qilish, samaradorligini baholash va boshqalar [8].

Mazkur jarayonga ko‘ra qaror qabul qilishni muammoli vaziyatni aniqlashdan boshlash kerak. Kelib chiqqan muammo nima sababdan, qay tarzda kelib chiqqanini, bartaraf etish yo‘llarini izlash muhimdir. Bartaraf etish uchun qanday usullardan foydalanish kerakligi yuzasidan ish olib boorish lozim. Keyingi jarayon qaror qabul qilishning maqsadini aniqlashdan iboratdir. Bu jarayonda rahbar shaxsiga ko‘proq yuklama tushadi. So‘ng muammoli vaziyatning mazmunini tahlil qilish lozim. Bir qancha yechimlarni ishlab chiqish kerak. Ishlab chiqilgan yechimlardan qaysi biri eng muqobili bo‘lsa, muammoli vaziyatdan chiqish uchun yetarli darajada puxta ishlab chiqilgan bo‘;lsa ana o‘sha yechim tanlab olinadi. Eng so‘nggi ishda raxbar shaxsi qabul qilingan qarorning ishchilar tomonidan qay darajada bajarilayotganiga e’tibor qaratadi. Mazkur qaror yuzasidan erishilgan yutuqlar ko‘rib chiqiladi, samaradorlik darajasi tekshiriladi. Shu bilan Zakkarning qarorlar qabul qilish bo‘yicha tuzgan ketma-ketlik jarayoni yakunlanadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Qaror qabul qilish jarayoni ijtimoiy psixologik hodisa sifatida qaralsada, ba'zi manbalarda uning umum psixologik jarayon sifatidagi jihatlari ham keng e'tirof etilmoqda. N.G.Milloradovaning aytishicha, boshqaruv qarorlarini qabul qiluvchi rahbarning tafakkuri quyidagi sifatlarga ega bo'lishi lozim. Ya'ni fikrlashdagi chuqurlik, ma'lumotlarni tahlil etishdagi kenglik, muammolarni hal etishdagi tezkorlik va har qanday vaziyatga moslashuvchanlik va hokazo. Keng fikrlash tafakkurning sintetik xususiyatini hisoblanib, unda inson faoliyatini umumiy sxemasi va rollarini baholay olish imkoniyati kabilar aks etadi. Tafakkur qilishdagi tezlik bu – amalga oshirilayotgan vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan vaqt me'yori bilan tavsiflanadi[9]. Demak, boshqaruv qarorlarini qabul qilish muammosini o'rganishda ikki soha ya'ni umumiy psixologiya va ijtimoiy psixologiya fani g'oyalari o'rtasida integratsiyalashuv jarayoni yuz beradi. Milloradova mazkur fikrida rahbar shaxsining tafakkur darajasini alohida e'tiborga oladi. Uning takidlashi bo'yicha rahbar shaxsi yuksak tafakkurag ega bo'lishi lozim. Darhaqiqat, qabul qilinayotgan qarorning kelajakdagi o'rni, uning samaradorligi, muvaffaqiyatga uchrashida rahbarning qabul qilgan qarori vas hu qarorning qay darajada puxta tuzilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqaruvda qaror qabul qilish jarayoni bugungi kunimizda qiyinchiliksiz amalga oshmoqda. Xorij psixologlari tomonidan ilgari surilgan g'oyalar, keltirib o'tilgan fikrlar, shuningdek, bir qancha nazariyalar va tadqiqotlarning mavjudligi o'rganilayotgan muammo yuzasidan eng ilg'or yondashuv va konsepsiyalardan foydalanishga imkon berdi. Mamlakatimiz olimlari ham bu sohaga o'z hissalarini qo'shganlar. Ular asosan rahbar faoliyatiga, uning intellectual xususiyatlariga, taffakur va idrok darajasiga, shaxsiy irodaviy sifatlariga, innovatsion yetakchiligiga ko'proq urg'u berganlar. Va shularning natijasida boshqaruvda qarorlar qabul qilishda rahbar shaxsining o'rni qay darajadaligi yaqqol o'z aksini topgan.

Shuni takidlashimiz mumkinki, qaror qabul qilish jarayoni oddiygina jarayon bo'libgina qolmay, biron bir maqsadni amalga oshirish, taqdirni belgilash, natijani kutish va yangi imkoniyatlarning yaratilishiga va ularni amalga oshirilishiga katta yordam beradigan jarayondir. Aynan bugungi kunda davrda to'g'ri qarorlar qabul qilish va uni ta'minlash muvafaqiyatga erishishning eng asosiy omilidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ш.М.Мирзиёев. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
2. Карпов А.В. Психология принятия решения [Текст]: монография / А.В.Карпов; Ин-т психологии РАН; Яросл. гос. Ун-т имени П.Г.Демидова. - Ярославль: Б. и., 2003. -С.104.
3. Базаров Т.Ю. Психология управления персоналом: Учебник и практикум для академического бакалавриата / Т.Ю.Базаров. – Люберцы: Юрайт. 2016. -С.123.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

4. Холов А.Х. Бошқарув қарорларини қабул қилишнинг замонавий усуллари ва раҳбар масъулияти: монография/ «Tafakkur-qanoti» нашриёти: Тош., 2017.-бет 7-8
5. Редько В. В. Психологический механизми принятия решень у побутовий деятельности: Автореф. дис. … канд. психол. наук: 19.00.01 / В. В. Редько. – К., 2003. – С.58.
6. Орлов А.И. Принятие решений. Теория и методы разработки управленческих решений. - М.: ИКЦ «МарТ»; Ростов н/Д : Издательский центр «МарТ», 2005. – С.131.
7. Варфоломеев В.И., Воробьёв С.Н. Принятие управленческих решений: Учеб. Пособие для вузов. М.-.КУДИЦ-ОБРАЗ, 2001. -С.43.
8. Заккар К.М. Принятие решений в системе организационного управления. Автореф. дис. На соискание ученой степени канд. Социол. Наук. – М., 2003. -С.14.
9. Милорадова Н.Г. Психология управления в условиях стабильной неопределенности: Монография / Н.Г. Милорадова. – М.: АСВ, 2004. -С.54.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Teshayev Sobitjon Sodiqovich**, o‘qituvchi [**Тешайев Сабитжон Садикович**, учитель], [**Sobitjon S. Teshayev,** teacher]; manzil: O'zbekiston, 100183, Toshkent, Chilonzor tumani, xiyobon Bunyodkor, 27 [адрес: Узбекистан, 100183, г. Ташкент, Чиланзорский район, проспект Бунёдкор, 27], [address: Uzbekistan, 100183, Tashkent, Chilonzor district, 27 Bunyodkor avenue] E-mail: teshayev@mail.ru

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

O‘QUVCHILAR TAYYOR PROFILI, ULARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING SHAKLLANISHIGA TA’SIRI

© X.A. Tillashayxova[1]✉
[1]Toshkent davlat pedagogika universiteti, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: talabalarning ijtimoiy va psixologik farovonligi ularning umumiy rivojlanishi va akademik muvaffaqiyati uchun juda muhimdir. Bu farovonlikka turli omillar ta'sir qiladi, jumladan, o'quv profili yoki talabalarning akademik ixtisosligi. Ushbu maqola turli xil ta'lim profillari talabalarning ijtimoiy va psixologik farovonligiga qanday ta'sir qilishini o'rganadi, akademik ixtisoslik va talabalar farovonligi o'rtasidagi bog'liqlik haqida tushuncha berishga qaratilgan.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi talabalarning o'quv profillarining ularning ijtimoiy va psixologik farovonligini shakllantirishga ta'sirini o'rganishdir. Tadqiqot turli akademik mutaxassisliklar bilan bog'liq o'ziga xos farovonlik xususiyatlarini aniqlashga va ushbu topilmalar asosida talabalarni qo'llab-quvvatlash xizmatlarini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar berishga intiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda miqdoriy va sifat ma'lumotlarini o'z ichiga olgan aralash usullardan foydalaniladi. Materiallar orasida ijtimoiy va psixologik farovonlikni o'lchaydigan standartlashtirilgan so'rovnomalar, akademik yozuvlar va fokus-guruh muhokamasi uchun qo'llanmalar mavjud. Usullar turli xil ta'lim profilidagi talabalarga so'rovlar o'tkazishni, chuqurroq tushunchaga ega bo'lish uchun fokus-guruh muhokamalarini o'tkazishni va akademik samaradorlik ma'lumotlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Miqdoriy ma'lumotlar statistik usullar yordamida tahlil qilinadi, sifatli ma'lumotlar esa tematik tahlil orqali tekshiriladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: san'at va ijodiy fanlar talabalari ifodali va ijodiy faoliyat bilan shug'ullanadilar, bu ularning psixologik farovonligiga va o'zini namoyon qilishga ta'sir qilishi mumkin. San'at va ijodiy fanlar bo'yicha talabalar yuqori darajada o'zlarini ifoda etishlari va o'quv ishlaridan qoniqishlari haqida xabar berishdi. Shu bilan birga, ular ishlash bosimi va sub'ektiv baholashlar bilan bog'liq noyob stresslarga duch kelishdi.

XULOSA: tadqiqot shuni ko'rsatadiki, talabalarning mashg'ulot profillari ularning ijtimoiy va psixologik farovonligiga sezilarli ta'sir qiladi. Har bir akademik mutaxassislik talabalarning farovonligini har xil shakllantiradigan o'ziga xos qiyinchiliklar va imtiyozlarni taqdim etadi. Ushbu farqlarni tan olish barcha akademik sohalarda talabalar farovonligini oshirish uchun maqsadli qo'llab-quvvatlash xizmatlari va aralashuvlarni ishlab chiqish uchun juda muhimdir.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

Kalit so‘zlar: psixologik farovonlik, qoniqish,ijobiy faoliyat,o‘zini anglash,kasbiy rivojlanish, o‘zini qabul qilish, psixologik salomatlik.

Iqtibos uchun: Tillashayxova X.A. O‘quvchilar tayyor profili, ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining shakllanishiga ta’siri. // Inter education & global study. 2024. №4(2). B. 469–478.

ВЛИЯНИЯ ПРОФИЛЯ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ НА ФОРМИРОВАНИЕ ОСОБЕННОСТЕЙ ИХ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ.

© Х.А. Тиллашайхова[1]✉
[1]Ташкентский государственный педагогический университет

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: социальное и психологическое благополучие студентов имеет решающее значение для их общего развития и академических успехов. На это благополучие влияют различные факторы, в том числе профиль обучения или академическая специальность студентов. В этой статье рассматривается, как различные образовательные профили влияют на социальное и психологическое благополучие студентов, с целью дать представление о взаимосвязи между академической специализацией и благополучием студентов.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является изучение влияния профиля обучения студентов на формирование их социального и психологического благополучия. Исследование направлено на выявление конкретных характеристик благополучия, связанных с различными академическими специальностями, и на основе этих результатов дать рекомендации по улучшению услуг поддержки студентов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании используется смешанный метод, включающий как количественные, так и качественные данные. материалы включают стандартизированные анкеты для измерения социального и психологического благополучия, академические стенограммы и руководства для дискуссий в фокус-группах. методы включают опросы студентов разных образовательных профилей, дискуссии в фокус-группах для более глубокого понимания и анализ данных об академической успеваемости. количественные данные будут анализироваться с использованием статистических методов, а качественные данные будут анализироваться посредством тематического анализа.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: студенты, изучающие искусство и творческие способности, занимаются выразительной и творческой деятельностью, которая может повлиять на их психологическое благополучие и самовыражение. студенты, изучающие искусство и творческие науки, сообщили о высоком уровне самовыражения и академической удовлетворенности. в то же время они

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

столкнулись с уникальными факторами стресса, связанными с давлением производительности и субъективными оценками.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исследования показывают, что профили деятельности студентов оказывают существенное влияние на их социальное и психологическое благополучие. каждая академическая специальность представляет собой уникальные проблемы и преимущества, которые по-разному влияют на благополучие студентов. признание этих различий имеет решающее значение для разработки целевых услуг поддержки и мероприятий, направленных на повышение благосостояния студентов во всех академических областях.

Ключевые слова: психологическое благополучие, удовлетворенность, позитивное функционирование, самосознание, профессиональное развитие, самопринятие, психологическое здоровье.

Для цитирования:Тиллашайхова Х.А. Влияния профиля подготовки студентов на формирование особенностей их социально-психологического благополучия. // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 469–478.

THE INFLUENCE OF STUDENTS' TRAINING PROFILE ON THE FORMATION OF THE FEATURES OF THEIR SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL WELL-BEING

© Hosiyat A. Tillashayxeva[1]✉
[1] Tashkent State Pedagogical University

Annotation

INTRODUCTION: the social and psychological well-being of students is critical to their overall development and academic success. Various factors influence this well-being, including the learning profile or academic major of the students. This article examines how different educational profiles affect students' social and psychological well-being, aiming to provide insight into the relationship between academic specialization and student well-being.

AIM: the purpose of this study is to investigate the impact of students' learning profiles on the formation of their social and psychological well-being. The study seeks to identify specific well-being characteristics associated with different academic majors and, based on these findings, make recommendations for improving student support services.

MATERIALS AND METHODS: the study uses a mixed methods approach that includes both quantitative and qualitative data. Materials include standardized questionnaires measuring social and psychological well-being, academic transcripts, and focus group discussion guides. Methods include surveys of students from different educational profiles, focus group discussions to gain deeper understanding, and analysis of academic performance data. Quantitative data will be analyzed using statistical methods, while qualitative data will be examined through thematic analysis.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

DISCUSSION AND RESULTS: art and creative students engage in expressive and creative activities that may affect their psychological well-being and self-expression. Students in the arts and creative sciences reported high levels of self-expression and academic satisfaction. At the same time, they faced unique stressors related to performance pressure and subjective evaluations.

CONCLUSIONS: research shows that students' activity profiles have a significant impact on their social and psychological well-being. Each academic major presents unique challenges and benefits that shape student well-being differently. Recognizing these differences is critical to developing targeted support services and interventions to enhance student well-being across all academic domains.

Key words: psychological well-being, satisfaction, positive functioning, self-awareness, professional development, self-acceptance, psychological health

For citation: Hosiyat A. Tillashayxeva. (2024) 'The influence of students' training profile on the formation of the features of their social and psychological well-being', Inter education & global study, (4(2)), pp. 469–478. (In Russ).

Проблема психологического благополучия личности – фундаментальная проблема, изучаемая такими науками, как философия, медицина, психология. Каждая наука наполняет данное понятие особым содержанием. Говоря о философском смысле проблемы психологического благополучия, мы подразумеваем два этических направления – гедонизм и эвдемонизм. Медицина связывает психологическое благополучие с качеством жизни, психическим здоровьем и другими компонентами здоровья. Отечественные ученые проявляют немалый интерес к данной проблеме, учитывая тенденции развития современного общества. Р.И. Суннатова под психологическим благополучием понимает состояние душевного комфорта, слаженности психических процессов, внутренней гармонии; которое зависит от того, имеет ли человек ясные цели, а также ресурсы и условия для их достижения. Согласно мнению автора, проявления неблагополучия часто бывают в ситуациях фрустрации – социальной изоляции (депривации), напряженности в значимых взаимоотношениях. По словам В.М.Каримовой, основная задача системы образования на сегодняшний день заключается в создании необходимых условий для того, чтобы обучающиеся могли приобретать навыки и умения, способствующие их позитивному развитию в динамичном, непредсказуемом, информационно насыщенном, противоречивом современном мире. Образовательная система в настоящее время активно перестраивается; многие вузы занимаются освоением новых моделей обучения. Это связано с тем, что учебные планы претерпевают изменения, вводятся новые курсы, педагогические технологии и образовательные программы [4]. Говоря о студенческом возрасте, следует отметить, что это период наибольшей активности, профессионального становления, формирования ценностных образований

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

личности. Социальной ситуацией развития является выбор юношей жизненного пути, профессиональное и личностное самоопределение. Э. Эриксон рассматривает данный возраст как наиболее кризисный период социального становления человека. При сформированной к 21–25 годам психосоциальной идентичности можно говорить о личностной зрелости, способности решать взрослые задачи [5].

По мнению М.Г. Голубевой, наиболее яркие переживания и возникающая, в связи с этим дезадаптация проявляются в учебно-профессиональной деятельности. Обучение в вузе является принципиально новым этапом по сравнению с жизнью ученика школы. Отмечается увеличение информационных нагрузок, что ведет к аритмичности и гиподинамии. Происходит усложнение межличностных отношений; могут возникать проблемы оторванности от семьи (проживание в общежитии). В результате студенты испытывают длительное эмоциональное напряжение, чувство тревоги; ощущают психологическое неблагополучие [6]. Студенты первого курса, сдав выпускные экзамены в школе и пройдя вступительные испытания в вузе, оказываются в условиях специфических социальных отношений и условий деятельности. Они осваивают непривычные методы и формы обучения; происходит смена режима труда и отдыха. Проведя анализ состояния данной проблемы на сегодняшний день, мы отмечаем, что в психологическом благополучии студентов можно выделить две составляющие: когнитивную (цели, смыслы, достигнутые результаты) и эмоциональную (переживания, касающиеся реализации поставленных целей, а также собственного поведения). Студенческий возраст является периодом профессионального становления, сопровождающийся различными кризисами (адаптация, сомнения в правильности выбранной профессии и т. д.) и ведущий к изменению или снижению уровня психологического благополучия студентов. В результате этого снижается эффективность учебной деятельности; возможно возникновение психосоматических расстройств. Исследуя данный феномен, ученый рассматривает его структуру в качестве своеобразного баланса постоянно взаимодействующих аффектов позитивного и негативного. По его мнению, к позитивному аффекту относится переживание человеком положительных эмоций – радости, удовольствия, энтузиазма; тогда как огорчения, расстройства, приводящие к переживаниям, представляют собой негативный аффект. Разница, которая возникает между этими противоположными ощущениями (положительными и отрицательными) отражает психологическое благополучие личности и ее удовлетворенность жизнью в целом. В ситуации преобладания позитивного накопленного аффекта человек чувствует счастье и удовлетворенность, разумеется, при этом он имеет достаточно высокий уровень психологического благополучия. Когда же наблюдается превышение накопленных негативных переживаний, у человека наблюдается ощущение несчастья и неудовлетворенности, что свидетельствует о низком уровне его психологического

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (2)

